Xorazm vohasi Buyuk Ipak yo'lining turli tarmoqlari chorrahasida joylashgani bois qadimdan savdo-sotiq va madaniy integratsiyaning uzviy markazi sifatida shakllangan [2]. Ushbu jarayonda karvonsaroylar nafaqat savdo-sotiqni qo'llab-quvvatlovchi logistik baza, balki ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni amalga oshiruvchi muhim me'moriy inshoot sifatida o'z o'rniga ega bo'lgan. Ularning arxitektura-tipologik ko'rinishlari hududning tabiiy-landshaft sharoiti, siyosiy tizim va iqtisodiy model bilan chambarchas bog'liq holda shakllanib brogan [3]. Karvonsaroylarning tarixiy taraqqiyotini o'rganish ular joylashgan geografik hududlar, mudofaa tuzilmalari, ichki funksional rejalashtirish va qurilish materiallarining tanlanishi orqali savdo munosabatlarining intensivligi darajasini anglash imkonini beradi [4]. Ayniqsa, Xorazm vohasidagi infratuzilmaviy tizimlarning shakllanishida transchegaraviy savdo tamoyillari, chorvador ko'chmanchi xalqlar bilan olib borilgan iqtisodiy almashinuv hamda diplomatik-madaniy aloqalar muhim o'rin tutgan [5]. Mazkur tadqiqot karvonsaroylarning tipologik tahlilini amalga oshirish barobarida, ularning hududiy joylashuv me'yorlari, me'moriy-kompozitsion tuzilishi va savdo jarayonlari bilan bog'liq infratuzilma unsurlarini aniqlashga qaratilgan. Shu orqali karvon yo'llari bo'ylab shakllangan madaniy makonning struktura va funksional modelini ilmiy asosda qayta tiklash imkoniyati tug'iladi. Shuningdek, O'zbekiston hududidagi karvonsaroylar tarmog'ini global Ipak yo'li tizimi kontekstida o'rganish tarixiy-madaniy merosning bugungi kunda turizm va hududiy rivojlanish strategiyalarida tutgan o'rnini qayta baholash zaruratini ham yuzaga keltiradi.

Karvonsaroylarning tarixi va funksional ahamiyati. Karvonsaroylar Sharq sivilizatsiyasi tarixida iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotning ajralmas komponenti sifatida shakllanib, yirik savdo yo'llari bo'ylab karvonlarning xavfsiz harakatini ta'minlashda asosiy infratuzilmaviy tayanch bo'lib xizmat qilgan [6]. Ularning vujudga kelishi qadimgi davrlardagi savdo almashinuvi jarayonlariga borib taqaladi, biroq o'rta asrlarda Ipak yo'li tizimi yuksak darajada institutsionallashtirgan paytda karvonsaroylar murakkab me'moriy-kommunikatsion majmualarga aylangan. Karvonsaroylarning birlamchi vazifasi savdogarlarning muloqot va savdo faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'lgan bo'lsa-da, tarixiy jarayonlar davomida ular diplomatik missiyalarni qabul qiluvchi va ko'chmanchi qabilalar bilan aloqalarni muvofiqlashtiruvchi markaz sifatida ham ishlatilgan [7]. Bu jihat karvonsaroylarni nafaqat me'moriy obyekt, balki ijtimoiy boshqaruv va integratsiya vositasi sifatida ham talqin etishga imkon beradi. Xorazm vohasi hududidagi karvon yo'llari strategik ahamiyatga ega bo'lgani sababli bu yerda bunyod etilgan karvonsaroylar nafaqat iqtisodiy almashinuvni, balki siyosiy barqarorlikni ham ta'minlagan. Ko'chmanchi chorvadorlar bilan olib borilgan savdo munosabatlari orqali hududiy ijtimoiy tizimlar o'zaro uyg'unlashgan, buning natijasida iqtisodiy-siyosiy ittifoqlar shakllangan va madaniy kodlarning o'zaro almashuvi yuz bergan.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, karvonsaroylar Markaziy Osiyo, ayniqsa Xorazm vohasi savdo-siyosiy tizimining shakllanishida strategik ahamiyat kasb etgan infratuzilmaviy majmualar bo'lib, ular faqatgina savdo

almashinuvi uchun mo'ljallangan bino sifatida emas, balki mintaqaviy diplomatik aloqalar, xavfsizlik, logistik ta'minot va madaniy integratsiya markazi sifatida ham faoliyat yuritgan. Karvonsaroylarning joylashuv tamoyillari va me'moriy tipologiyasi tabiiy-landshaft sharoiti, geosiyosiy ehtiyojlar hamda ko'chmanchi va o'troq madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan [8].

Ayniqsa, Xorazm hududining transchegaraviy tranzit makon sifatidagi mavqei karvon yo'llari bo'yab shakllangan me'moriy-kommunikatsion tizimning rivojlanishiga sabab bo'lgan [9]. Karvonsaroylarning mudofaa me'morchiligi, ichki funksional zonalarga ajratilishi va qurilish texnologiyalarining evolyutsiyasi ushbu obidalarni nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy boshqaruv va madaniy almashinuv institutlari darajasiga ko'targan [10].

Tavsiyalar: Tarixiy infratuzilmalarni rekonstruksiya qilish va ularni zamonaviy turizm yo'nalishlariga integratsiya etish Xorazm mintaqasining iqtisodiy salohiyatini ochishda muhim omil bo'ladi. Arxitektura – tipologik tadqiqotlarni GIS va 3D modellashirish asosida davom ettirish karvonsaroylarning asl tarixiy ko'rinishini ilmiy asosda qayta tiklash imkonini yaratadi. **Ko'chmanchi – o'troq** madaniy aloqalarini o'rganuvchi yangi ilmiy yo'nalishlarni rivojlantirish Ipak yo'lining ijtimoiy – madaniy merosi bo'yicha ilmiy bazani boyitadi. Qadimiy savdo yo'llari bo'yicha **madaniy landshaft yondashuvini** qo'llash tarixiy arxitektura yodgorliklarini kompleks tarzda muhofaza qilishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Бартольд В.В. “Туркестан в эпоху монгольского нашествия”. Москва: Наука, 1963.
2. Толстов С.П. “Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования”. Москва: МГУ, 1948.
3. Буряков Ю.Ф. “Караванные пути Средней Азии”. Ташкент: Фан, 1982.
4. Djoldasov A.B. “Quyí Amudaryo mintaqasidagi karvon yo'llari bo'yab savdo-madaniy aloqalar”. Nukus: QDU nashriyoti, 2024.
5. Askarov A. “O'zbekistonning qadimiy shahar madaniyati”. Toshkent: O'zbekiston, 1992.
6. Ртвеладзе Э.В. “Великий Шелковый путь и Средняя Азия”. Ташкент: Фан, 2002.
7. Berdimurodov A. “Xorazm tarixiy-madaniy yodgorliklari”. Urganch: UrDU nashriyoti, 2015.
8. Alimov K. “O'zbekiston arxitektura yodgorliklarining tipologik tahlili”. Toshkent: O'ZFA, 2010.
9. Habibullaev B. “Markaziy Osiyoda karvon yo'llarining geosiyosiy ahamiyati”. Samarqand: SamDU, 2020.
10. Пугаченкова Г.А., Ремпел Л.И. “Архитектура Средней Азии”. Москва: Искусство, 1958.

Annotatsiya. Mazkur maqolada karvonsaroilar va savdo infratuzilmasining arxitektura-tipologik xususiyatlari tarixiy, arxeologik va me'moriy manbalar asosida ilmiy-uslubiy yondashuvda tahlil qilinadi. Tadqiqotda Markaziy Osiyo hududida, xususan Xorazm vohasida shakllangan karvon yo'llari tarmog'i, ularning savdo, diplomatik va madaniy almashinuvdagi strategik roli hamda ushbu yo'llar bo'yab bunyod etilgan karvonsaroylarning funksional tuzilishi, mudofaa-me'moriy yechimlari va qurilish texnologiyalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: savdo infratuzilmasi, karvon yo'llari, me'moriy tipologiya, . tranzit hudud.

Аннотация. В данной статье архитектурно-типологические особенности караван-сараев и торговой инфраструктуры рассматриваются на основе исторических, археологических и архитектурных источников в научно-аналитическом подходе. В исследовании анализируются торговые пути, сформировавшиеся на территории Средней Азии, в частности в Хорезмском оазисе, их стратегическая роль в торговых, дипломатических и культурных обменах, а также функциональная структура караван-сараев, возведённых вдоль этих дорог, их оборонительно-архитектурные решения и строительные технологии.

Ключевые слова: торговая инфраструктура, караванные пути, архитектурная типология, транзитный регион.

Annotation. This article examines the architectural and typological features of caravanserais and trade infrastructure through a scientific and analytical approach based on historical, archaeological, and architectural sources. The study analyzes the network of caravan routes that developed across Central Asia, particularly within the Khorezm oasis, their strategic role in trade, diplomacy, and cultural exchange, as well as the functional structure of the caravanserais built along these routes, including their defensive-architectural solutions and construction technologies.

Keywords: trade infrastructure, caravan routes, architectural typology, transit region.

UDK 554.54

THE AUTOMORPHISM GROUP OF THE THREE-DIMENSIONAL NILPOTENT LIE ALGEBRA

Allambergenov A.

Karakalpak state university

The structure and classification of low-dimensional nilpotent Lie algebras play a significant role in Lie theory, representation theory, and the geometry of nilpotent Lie groups. Among these algebras, the three-dimensional nilpotent Lie algebra L_3 , which is isomorphic to the classical Heisenberg Lie algebra, represents one of the simplest yet most fundamental examples (see [1], [2]). Due to its elementary structure and rich algebraic properties, L_3 appears naturally in various mathematical contexts, including quantum mechanics, symplectic geometry.

The automorphism group of a Lie algebra captures all invertible linear transformations that preserve the Lie bracket, and therefore describes the intrinsic symmetries of the algebra. For nilpotent Lie algebras, and in particular for L_3 , this group has a characteristic structure determined by the action on the lower central series and the interplay between inner and derivations (see [3], [4]). Understanding the automorphism group of L_3 is not only an important problem in its own right but also serves as a foundational step in the study of automorphisms of higher-dimensional Heisenberg-type and filiform algebras.

Although the structure of L_3 is well known, a detailed and explicit description of all its automorphisms remains valuable for both theoretical and pedagogical purposes. In particular, the automorphisms of L_3 provide a model for analogous computations in more complicated nilpotent algebras ([5]).

The aim of this paper is to present a complete and constructive description of the automorphism group $Aut(L_3)$. By examining the derivation algebra, the structure of inner automorphisms, and the action on the lower central series, we obtain an explicit parametrization of all automorphisms of the three-dimensional nilpotent Lie algebra L_3 . The results shed light on how nilpotency constrains the possible symmetries of the algebra and provide a useful foundation for further investigations.

Definition. A vector space L over a field F , with an operation $L \times L \rightarrow L$, denoted $(x, y) \mapsto [x, y]$ and called the bracket or commutator of x and y , is called *Lie algebra* over F if the following axioms are satisfied[6]:

(L1) The bracket operation is bilinear;

(L2) $[x, x] = 0$ for all x in L ;

(L3) $[x[y, z]] + [y[z, x]] + [z[x, y]] = 0$ ($x, y, z \in L$).

Axiom (L3) is called the Jacobi identity.

Let L be a Lie algebra. Define a sequence of ideals of L (the descending central series, also called the lower central series):

$$L^0 = L, L^1 = [L, L], L^2 = [L, L^1], \dots, L^i = [L, L^{i-1}].$$

Definition. A Lie algebra L is said to be *nilpotent* if there exists $n \in \mathbb{N}$ such that $L^n = 0$. The smallest such n is called the *nilpotency class* (or the *nilindex*) of L .

Definition. A n -dimensional Lie algebra L is said to be *filiform* if its descendant central series satisfies

$$\dim L^k = n - k \text{ for all } 2 \leq k \leq n$$

Any n -dimensional filiform Lie algebra is nilpotent and its nilpotency class is n .

Let L be a Lie algebra.

A linear bijection $\Phi: L \rightarrow L$ is said to be isomorphism if

$$[\Phi(x), \Phi(y)] = \Phi([x, y]) \quad (1)$$

for all $x, y \in L$.

If L is a finite dimensional Lie algebra with a basis $\{e_1, e_2, \dots, e_n\}$, then linear bijection Φ is isomorphism if and only

$$[\Phi(e_i), \Phi(e_j)] = \Phi([e_i, e_j]) \quad (2)$$

for all $1 \leq i < j \leq n$.

The algebra L_3 admits a basis $\{e_1, e_2, e_3\}$ in which its table of multiplications is the following:[7]

$$[e_1, e_2] = e_3 \quad (3)$$

Let us consider the following linear mappings on L_3 which defined as follows:

1)

$$\bullet \Phi_1(e_1) = \alpha_1 e_1 + \alpha_2 e_2,$$

$$\bullet \Phi_1(e_2) = \beta_1 e_1 + \beta_2 e_2,$$

$$\bullet \Phi_1(e_3) = \alpha_1 \begin{vmatrix} \alpha_1 & \beta_1 \\ \alpha_2 & \beta_2 \end{vmatrix} e_3.$$

2)

$$\bullet \Phi_2(e_1) = e_1 + \alpha_3 e_3,$$

$$\bullet \Phi_2(e_2) = e_2,$$

$$\bullet \Phi_2(e_3) = e_3.$$

3)

$$\bullet \Phi_3(e_1) = e_1,$$

$$\bullet \Phi_3(e_2) = e_2 + \beta_2 e_3,$$

$$\bullet \Phi_3(e_3) = e_3.$$

Lemma 1. Φ_1, Φ_2, Φ_3 are isomorphisms.

The main result is the following theorem.

Theorem. Any $\Phi \in Aut(L_3)$ can be uniquely represented in the form:

$$\Phi = \Phi_1 \circ \Phi_2 \circ \Phi_3$$

Proof. Let $\Phi \in Aut(L_3)$. Then

$$\Phi(e_1) = \sum_{i=1}^3 \alpha_i e_i, \Phi(e_2) = \sum_{j=1}^3 \beta_j e_j \quad (4)$$

$$\begin{aligned}\Phi(e_3) &= \Phi([e_1, e_2]) = [\Phi(e_1), \Phi(e_2)] = \left[\sum_{i=1}^3 \alpha_i e_i, \sum_{j=1}^3 \beta_j e_j \right] = \\ &= \sum_{i,j=1}^3 \alpha_i \beta_j [e_i, e_j] = \sum_{j=2}^3 \alpha_1 \beta_j [e_1, e_j] + \sum_{i=2}^3 \alpha_i \beta_1 [e_i, e_1] = (\alpha_1 \beta_2 - \beta_1 \alpha_2) e_3.\end{aligned}\quad (5)$$

$$\Phi = \begin{pmatrix} \alpha_1 & \beta_1 & 0 \\ \alpha_2 & \beta_2 & 0 \\ \alpha_3 & \beta_3 & \begin{vmatrix} \alpha_1 & \beta_1 \\ \alpha_2 & \beta_2 \end{vmatrix} \end{pmatrix}, \quad \begin{vmatrix} \alpha_1 & \beta_1 \\ \alpha_2 & \beta_2 \end{vmatrix} \neq 0. \quad (6)$$

Since Φ is a bijection it follows that

$$\Phi_1 = \begin{pmatrix} \alpha_1 & \beta_1 & 0 \\ \alpha_2 & \beta_2 & 0 \\ 0 & 0 & \begin{vmatrix} \alpha_1 & \beta_1 \\ \alpha_2 & \beta_2 \end{vmatrix} \end{pmatrix}$$

$$\Phi_1 \in \text{Aut}(L_3).$$

$$\begin{aligned}\Phi &= \Phi_1^{-1} \cdot \Phi = \begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 \\ \alpha'_3 & \beta'_3 & 1 \end{pmatrix} \\ \Phi_2 &= \begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 \\ \alpha'_3 & 0 & 1 \end{pmatrix}\end{aligned}$$

$$\Phi = \Phi_2^{-1} \cdot \Phi$$

$$\Phi = \begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 \\ 0 & \beta'_3 & 1 \end{pmatrix}, \quad \Phi_3 = \Phi.$$

$$\Phi_3(e_3) = [\Phi_3(e_1), \Phi_3(e_2)] = [e_1, e_2 + \beta'_3 e_3] = e_3.$$

$$\Phi_3 = \Phi = \Phi_2^{-1} \cdot \Phi = \Phi_2^{-1} \circ \Phi_1^{-1} \circ \Phi \quad (7)$$

Multiplying (7) by left side Φ_2 and Φ_1 we obtain that

$$\Phi = \Phi_1 \circ \Phi_2 \circ \Phi_3. \text{ Proof the complete.}$$

REFERENCES

1. Jacobson, N. *Lie Algebras*. Dover Publications, 1979.
2. Vergne, M. "Cohomologie des algèbres de Lie nilpotentes." *Bull. Soc. Math. France*, 1966.
3. Mubarakzhanov, G. M. "On solvable Lie algebras." *Izv. Vyssh. Uchebn. Zaved. Mat.*, 1963.
4. Goze, M., Khakimjanov, Yu. *Nilpotent Lie Algebras*. Kluwer Academic Publishers, 1996.
5. de Graaf, W. "Classification of Nilpotent Lie Algebras of Dimension ≤ 7 ." *Journal of Symbolic Computation*, 2007.
6. J. Humphreys, *Introduction to Lie algebras and representation theory*, Graduate Text in Math. vol 255, 1972.

Uch o'lichamli nilpotent Li algebrasining avtomorfizmlar gruppasi

Rezyume. Ushbu maqolada past o'lichamli nilpotent Li algebralarining avtomorfizmlar guruhi tuzilishi o'rganiladi. Avtomorfizmlarning to'liq majmuini tavsiflash uchun konstruktiv yondashuv taqdim etilgan bo'lib, nilpotentlik tufayli yuzaga keladigan ichki simmetriyalarni ko'rsatadi. Ushbu yondashuv murakkab nilpotent va filiform algebralarining avtomorfizmlarini o'rganish uchun model bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Nilpotent Li algebra, avtomorfizmlar guruhi, filiform algebra.

Группа автоморфизмов нильпотентных алгебр Ли размерности три

Резюме. В работе изучается структура групп автоморфизмов нильпотентных алгебр Ли малых размера. Представлен конструктивный подход для описания групп автоморфизмов, подчеркивающий внутренние симметрии, задаваемые нильпотентностью. Предложенная схема служит моделью для изучения групп автоморфизмов более сложных нильпотентных и филиформных алгебр Ли.

Ключевые слова: нильпотентная алгебра Ли, группа автоморфизмов, филиформная алгебра.

The automorphism group of the three-dimensional nilpotent Lie algebra

Summary. This paper investigates the structure of automorphism groups of low-dimensional nilpotent Lie algebras. A constructive approach is presented to describe the complete group automorphisms, highlighting the intrinsic symmetries imposed by nilpotency. This framework serves as a model for understanding automorphism groups of more complex nilpotent and filiform Lie algebras.

Key words: Nilpotent Lie algebra, group automorphisms, filiform algebra.

GALLIY VA FOSFOR KIRISHMA ATOMLARI BILAN LEGIRLANGAN KREMNIYNING SIRTINI
TADQIQ ETISH

Turekeev X. S.


Qoraqalpoq davlat universiteti

Kirish. Dunyoda bugungi kunda jadal rivojlanayotgan elektronika va fotoenergetika sohasidagi istiqbolli yo'nalishlardan biri yarimo'tkazgich materiallarga III, V va II, VI guruh elementlarini kirishma sifatida tanlash yo'li bilan hajmda va sirtida nanoklasterlar, jumladan binar elementar birikmalar hosil qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Amaliy jihatdan kremniyda dastlabki materialning mavjud xossalardan tubdan farq qiluvchi mutlaqo boshqa xossalarga ega tarkibida binar elementar birikmalar bo'lgan yangi materiallarni kashf qilish jahon ilmiy hamjamiyatining dolzarb vazifasidir. Bunda yangi materialning elektrofizik va fotoelektrik xossalarini o'rganish hamda yuqori sifatli kremniy materialini tejash muammosi dolzarb hisoblanadi. Shuningdek kristall panjarada binar birikmalar hosil qilish yo'li bilan materialning funktsional imkoniyatlarini kengaytirilishi hisobiga elektronika, materialshunoslik hamda fotoenergetika sohalarida yangi yarim o'tkazgich asboblari paydo bo'lishiga olib keladi. Hozirgi kunda jahonda kremniy materiali negizida nanoo'lchamli birikmalar hosil qilish bilan materialning fizik xossalarini tubdan o'zgartirish, uning xususiyatlarini o'rganish va yangi material asosida fotoelementlar va infraqizil sohasida ishlaydigan datchiklar tayyorlashga katta ahamiyat berilmoqda. Bu borada, maqsadli ilmiy tadqiqotlarni, jumladan, quyidagi ilmiy izlanishlar muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi: kremniy materialini III, V va II, VI guruh elementlaridan kirishma sifatida foydalanib past haroratli diffuziya usuli bilan legirlash va yuzada emirilish to'liq bartaraf etilgan namunalari olish texnologiyasini joriy qilish; $\text{Si}_2\text{A}^{\text{III}}\text{B}^{\text{V}}$ va $\text{Si}_2\text{A}^{\text{II}}\text{B}^{\text{VI}}$ binar birikmalarni olish uchun III, V va II, VI guruh elementlari ishtirokida kremniy panjarasida juftlashadigan maqbul atomlarini aniqlash; panjarada $\text{Si}_2\text{A}^{\text{III}}\text{B}^{\text{V}}$ va $\text{Si}_2\text{A}^{\text{II}}\text{B}^{\text{VI}}$ strukturali binar birikmalar hosil qilish orqali kremniyning elektrofizik va fotoelektrik xossalarini boshqarilishini aniqlash; $\text{Si}_2\text{A}^{\text{III}}\text{B}^{\text{V}}$ va $\text{Si}_2\text{A}^{\text{II}}\text{B}^{\text{VI}}$ binar birikmalarga ega bo'lgan kremniy namunasidagi qisqa tutashuv toki zichligi va salt kuchlanishi qiymatlarini infraqizil nur sohasida mavjud bo'lishini aniqlash; $\text{Si}_2\text{A}^{\text{III}}\text{B}^{\text{V}}$ va $\text{Si}_2\text{A}^{\text{II}}\text{B}^{\text{VI}}$ binar birikmalarga ega bo'lgan kremniy materialidan fotoelementlar ishlab chiqish va yaratish [1,2].

Bu ishning maqsadi kremniy panjarasidagi Si_2GaP binar birikmasini diffuzion texnologiya orqali shakllantirish. Ga va P kirishma atomlarining kirishini maksimal ta'minlash uchun, shunday termodinamik sharoit tanlash kerak, bunda kirishma atomlarning konsentrasyon taqsimoti deyarli bir hil bo'lishi kerak. O'tkazilgan hisoblashlarda konsentrasyon taqsimot, kirishma atomlarning diffuziya koeffitsienti, kremniydagi eruvchanligi, cheksiz manbadan diffuziya bo'lishi hisobga olinadi.

Asosiy qism. Kremniyga galliy va fosfor kirishma atomlarining birgalikdagi diffuziyasi uchun FGECH-1-17 markali sof galliy fosfid kristallini maydalash orqali olingan kukuni ishlatilgan. Kremniy namunalari kerakli mexanik va kimyoviy ishlov berilgandan so'ng galliy fosfid kukuni gaz fazasidan $T=1250\text{ }^{\circ}\text{C}$ da $t=2$ soat vaqt davomida diffuziya qilingan.

Diffuziyadan keyin hosil bo'lgan plyonkaning morfologiyasi va tarkibini aniqlash uchun (rentgen spektral tahlil) namunalar Zeiss EVO 15 skanerlovchi elektron mikroskop (SEM) yordamida o'rganildi (1-rasm). 1-jadval).



1-rasm. Kremniyning fosfor va galliy kirishma atomlari bilan legirlangandan keyingi element tarkibi.

1-jadval. Kremniy sirt qatlamining fosfor va galliy diffuziyasidan keyingi tarkibi.


Element	Vazni. %	Sigma vazni. %
O	1.21.	0,25
Si	89,58	0,85
B.	2,68	0,18
Ga	6.52.	0,83
Miqdori:	100,00	

Zeiss EVO 15 rentgen energetik dispersion mikroanalizatori yordamida amalga oshirilgan kremniy sirtining element tarkibi tahlili (1-rasm). 1) kremniy atomlari sirtning taxminan 90% ni tashkil qilishini ko'rsatadi. Galliy konsentratsiyasi taxminan 6,5%, fosfor konsentratsiyasi taxminan 2,7% va kislorod konsentratsiyasi taxminan 1,2% ni tashkil qiladi (1-jadval). Natijalar shuni ko'rsatadiki, galliy konsentratsiyasi fosfor kirishma atomlari ishtirokida ortadi.

Bu esa kremniy sirtida ma'lum termodinamik sharoitlarda Si_2GaP tipidagi binar birikma hosil bo'lishida galliy va fosfor kirishma atomlari ishtirok etishini ko'rsatadi [3,4].

1-jadvalda ko'rsatilganidek, kislorod atomlarining mavjudligi, tarkibida $\sim 10^{17} \text{ sm}^{-3}$ darajasida kislorod bo'lgan, shuningdek, nazorat qilinmaydigan nuqsonlarning ma'lum konsentratsiyasiga ega bo'lgan, Choxralskiy tomonidan o'stirilgan monokristall kremniyning ishlatilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

2-rasmda faqat fosfor atomlari bilan legirlangan (1-egri chiziq) va galliy fosfidi bilan legirlangan (2-egri chiziq) kremniy asosida olingan p-n o'tishning qisqa tutashuv tokining spektral sezgirligi keltirilgan.




2-rasm. Fosfor kirishma atomlari bilan (1) va galliy va fosfor kirishma atomlari bilan (2) legirlangan kremniyning fotoelektrik xossalari

Fosfor va galliy kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyning fotoelektrik xossalarida spektr sezuvchanligidan ko'rinadigan nurlarining soha oralig'i tomon sezilarli kengayadi. Bunday ilmiy natijalar kremniyda Si_2GaP turidagi binar birikmalar shakllanadi deb taxmin qilishga asos bo'ladi.

Element tahlilidan so'ng legirlangan kremniy namunalari Empyrean Malvern Panalytical rentgen difraktometri yordamida tekshirildi ($\lambda_{\text{av}} = 1,5418 \text{ \AA}$, $\text{CuK}\alpha$ nurlanish, skanerlash diapazoni $2\theta = 10-90^\circ$) (1-rasm).


Diagrammada sof monokristall kremniy (1), sof galliy fosfid (2) va fosfor va galliy kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy (3) ning rentgenogrammalari keltirilgan. Shuningdek, taxminan $28-29^\circ$ gradus oralig'ida difraksiyon manzaraning kattalashgan qismi ham ko'rsatilgan. Fosfor va galliy bilan legirlangan kremniyning difraksiya maksimumi sof kremniy cho'qqisi tomon siljiydi va yangi cho'qqi paydo bo'ladi. Eksperimental rentgen natijalari yangi fazalar hosil bo'lishini ko'rsatadi. Ushbu natijalar kremniy panjarasida fosfor va galliy kirishma atomlarining binar birikmalarini hosil qilish imkoniyatini tasdiqlaydi.



3-rasm. Fosfor va galliy kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyning rentgenogrammasi va rentgenogrammaning kattalashtirilgan shkalasi.


Grafik shuni ko'rsatadiki, o'lchangan ma'lumotlar adabiyot qiymatlari bilan yaxshi mos keladi [5,6]. Galliy va fosfor kirishma atomlari konsentratsiyasini skanerlovchi elektron mikroskop yordamida eksperimental aniqlash galliy konsentratsiyasining kremniyda eruvchanligining fundamental chegarasiga nisbatan sezilarli darajada ortishini ko'rsatadi. Bu ortish fosfor va galliy atomlaridan tashkil topgan binar birikmalar hosil bo'lishi bilan tushuntirish mumkin. Kremniyda binar birikmalarning shakllanishini uning parametrlari orqali boshqarish katta ilmiy va amaliy qiziqishni keltirib chiqaradi. Bu bir tomondan bizga kremniy asosidagi yangi avlod fundamental parametrlari boshqariladigan yarimo'tkazgichli material olish imkonini bersa, boshqa tomondan kremniyda berilgan parametrlari hajmiy nanostrukturani optimal metod bilan yaratish imkonini beradi. Yuqori eruvchanlik va kichik diffuziya koeffitsientli Ga va P atomlarining kremniyga diffuziyasi berilgan sohada binar birikmalarning shakllanishining etarli konsentratsiyasini paydo etadi [7,8].

Xulosa. Kremniy sirtidan 3-4 mkm chuqurlikda zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi 10^{19} sm^{-3} bo'lganligini hisobga olsak, Ga va P atomlarining manfiy va musbat zaryadga ega ekanligi ularning kremniy panjarasida elektroneytral molekula hosil qilish ehtimolligini oshiradi. Bu fosfor va galliy atomlari qo'shni tugunlarda joylashadi va $\text{Si}_2\text{Ga}^- \text{P}^+$ turdagi yangi binar birikma paydo bo'ladi deyishga asos bo'ladi (4-rasm).




4-rasm. $Si_2Ga^-P^+$ tipidagi yangi binar birikma.

Bu binar birikmadagi Ga va P atomlarining umumiy zaryadi nolga teng bo'ladi va kremniyda hech kanday energetik sathlarni hosil qilmaydi. Bunday yangi binar birikmaning shakllanishi amaliy tomondan panjaradagi tetraedrik bog'lanishni buzmaydi. Bu elementar binar birikmaning kremniy elementar yacheykasidan farqi 100% kovalent bog'lanish emas, qisman kovalent bog'lanish, qisman ionlangan bog'lanish. Etarli yuqori konsentrasiyalarda 10^{19} - 10^{20} sm^{-3} Ga^-P^+ birikmalar bir-biriga yaqinlashishi ruy beradi va natijada kremniyda har xil kombinasiyalari (5-rasm) elementar binar birikmalarning zich joylashgan nanokristallari hosil bo'ladi (6-rasm).



Rasm 5. Si_2GaP binar birikmasining har xil kombinasiyalari.



Rasm 6. Kremniydagi GaP nanokristali

Shunday qilib kremniy panjarasida Ga va P ishtirokidagi nanokristall struktura olish mumkinligi ko'rsatildi. Har bir shakllangan yangi nanokristall o'zining hususiy energetik bog'lanishiga, zaryad tashuvchilar harakatchanligiga va zonaviy strukturasiga ega bo'ladi. Bu kremniy asosidagi yangi material yaratish, hossalari va parametrlari bir-biridan farq qiladi va ular elektrofizik fotoelektrik va optik hossalarning farq qilishini ko'rsatadi [9,10].

Keyingi bosqichda Si_2GaP elementar binar birikmalarining shakllanish texnologiyasini takomillashtirish va berilgan parametrlar boshqariladigan material olish, ularning elektr, fotoelektr va optik hossalarni chuqur tadqiq qilish, shuningdek ulardan tayyorlangan materialning fotoenergetika va optoelektronikada qo'llanishning funksional imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

ADABIYOTLAR

1. Bakhadyrhanov M.K., Sodikov U.X., Melibayev D., Tuerdi Wumaier, Koveshnikov S.V., Khodjanepesov K.A., Jiangxiang Zhan Silicon with Clusters of Impurity Atoms as a Novel Material for Optoelectronics and Photovoltaic Energetcs. Journal of Materials Science and Chemical Engineering, USA DOI: 10.4236/msce.2018.64017 Apr. 30, 2018,6, 180-190. (<http://www.scirp.org/journal/msce> (RG(40) Impact Factor: 0.4).
2. Bakhadyrhanov M.K., Sodikov U.X., Iliev Kh.M., Tachilin S.A., Tuerdi Wumaier Perspective Material for Photoenergetics on the Basis of Silicon with Binary Elementary Cells. USA. Journal of Materials Physics and Chemistry, 2018, Volume 1 doi 10.63019/mpc.vli2.493.pp.1-7. (RG(40) Impact Factor: 1.7).
3. Baxadixanov M.K., Sodikov U.X., Iliev X.M., Tachilin S.A., Turdi Omar Noviy podxod v poluchenii perspektivnix materialov dlya fotoenergetiki. Geliotexnika 2017, №4 3-5. (RG(40) Impact Factor: 0.65).
4. Baxadixanov M.K., Sodikov U.X., Mavlyanov A.SH., Xakkulov M. Kremniy s binarnimi elementarnymi yacheykami, kak novyy klass materialov dlya buduyey fotoenergetiki. Geliotexnika 2015, №4 28-32. (RG(40) Impact Factor: 0.65).
5. A.Daulay, Andriyani, Marpongahtun, Saharman Gea, "Synthesis Si nanoparticles from rice husk as material active electrode on secondary cell battery with X-Ray diffraction analysis" South African Journal of Chemical Engineering, 42, pp. 32-41 (2022).
6. A. Zhou, Y. Ping Wang, C. Cornet, Y. Léger, L. Pédesseau, V. Favre-Nicolin, G. A. Chahine, T. U. Schüll, J. Eymery, M. Bahri, L. Largeau, G. Patriarche, O. Durand and A. Létoublon, "A study of the strain distribution by scanning X-ray diffraction on GaP/Si for III-V monolithic integration on silicon," Journal of Applied Crystallography, 52, pp. 809-815 (2019).
7. N.F. Zikrillayev, S.V. Koveshnikov, Kh.S. Turekeev, N. Norqulov, S.A. Tachilin. Diffusion of Phosphorus and Gallium from a Deposited Layer of Gallium Phosphide into Silicon. // Physics of the Solid State, 2022, Vol. 64, No. 11, pp. 587-594.
8. N. F. Zikrillayev, S. B. Isamov, S. V. Koveshnikov, Z. T. Kenzhaev, Kh. S. Turekeev. Codiffusion of Gallium and Phosphorus Atoms in Silicon. Surface Engineering and Applied Electrochemistry, 2023, Vol. 59, No. 2, pp. 210-215.
9. N.F.Zikrillayev, S.V.Koveshnikov, Kh.S.Turekeev, B.K.Ismaylov. Composition of Silicon Alloyed with Gallium and Phosphorus Atoms. Journal of surface investigation. X-ray, synchrotron and neutron techniques. 2024, Vol, 18, No 1, pp 69-73.
10. Н.Ф.Зикриллаев, С.Б.Исамо, Х.С.Турекеев, А.Б.Камалов, Ж.О.Акимова. Кремнийга фосфор ва галлийнинг кетма-кет диффузияси натижасида галлий концентрациясининг ошиши. Фан ва жамият. 2021.№3. 21-23 бетлар.

Annotatsiya. Bu ishda eksperimental tarzda kremniy sirtining morfologiyasi va tarkibi skanerlovchi elektron mikroskop yordamida va fotoelektrik hassasi spektrometr yordamida o'rganilgan. Rentgen difraktometri yordamida galliy va fosfor kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy namunalarining rentgen fazasi tahlili shuni ko'rsatadiki, kremniy panjarasida galliy va fosfor kirishma atomlari birikma hosil qilishi boshlang'ich kremniyning asosiy parametrlarning o'zgarishiga olib keladi.

Kalit so'zlar: kremniy, diffuziya, fosfor, galliy, kirishma atom, harorat, binar birikma.

Аннотация. В данной работе экспериментально изучены морфология и состав поверхности кремния с помощью сканирующего электронного микроскопа и фотоэлектрические свойства с помощью спектрометра. Рентгенофазовый анализ образцов кремния, легированного примесными атомами галлия и фосфора с помощью рентгеновского дифрактометра, показывает, что образование соединения примесными атомами галлия и фосфора в решетке кремния приводит к изменению основных параметров исходного кремния.

Ключевые слова: кремний, диффузия, фосфор, галлий, примесный атом, температура, бинарное соединение.

Annotation. In this work, the morphology and composition of the silicon surface were experimentally studied using a scanning electron microscope and the photoelectric properties using a spectrometer. X-ray phase analysis of silicon samples doped with impurity atoms of gallium and phosphorus using a X-ray diffractometer shows that the formation of a compound of impurity atoms of gallium and phosphorus in the silicon lattice leads to a change in the main parameters of the initial silicon.

Key words: silicon, diffusion, phosphorus, gallium, impurity atom, temperature, binary compound.


ЦИПРОФЛОКСАЦИННИ DFT КВАНТ-КИМЁВИЙ ҲИСОБЛАШЛАРИ

Kudiyarova A.D.

Qoraqalpog' davlat universiteti

Ципрофлоксациннинг молекуляр ва кристаллик тузилишлари PCA ёрдамида тўлиқ ўрганилгани DFT таҳлилида энергетик ва геометрик параметрлари ҳамда реакция қобилятини квант-кимёвий усуллар билан назарий ҳисоблаш йўллари орқали олинган илмий натижалар муҳокама қилинди.


Кембридж структуралар маълумот базасида (CCDC) ципрофлоксацин молекуласининг кимёвий (A), оптималлаштирилган (B), молекуляр тузилишлари (C) 1-расмда келтирилган [1-2-3-4-5].



1-расм. Ципрофлоксациннинг кимёвий (A) ва оптималлаштирилган (B) ва молекуляр тузилишлари (C)

Хинолон лигандларнинг оммалашуви тадқиқотчиларга ципрофлоксацин асосидаги лиганднинг координацион кимёда тақдим этиши мумкин бўлган афзалликларини тўлиқ англаб етишларига имкон берди.


Ципрофлоксацин молекуласи пиперазин фрагментининг фазода жойлашиши бўйича (хинолон текислигига нисбатан) 2 хил эканлигини кўрсатди. Шунингдек, ципрофлоксацин ҳалқасининг ҳам фазода жойлашиши бўйича фарқ қилувчи структуралар аниқланди. Бу маълумотлар пиперазин ва циклопропан ҳалқаларининг C-N боғи атрофида айланиш баръерини ўрганиш учун туртки бўлди. Пиперазин ҳалқасидаги азот атомининг (NH) протонланиши 106 ва 175⁰ даги энергетик тўсиқ катталикларининг 11.16 ккал/моль дан 16 ккал/моль га ортишига олиб келиши аниқланди (2-расм).



2-расм. Фазовий жихатдан бир-бирдан фарқ қилувчи 1 ва 2 ципрофлоксацин молекулаларининг DFT усулида мақбуллаштирилган фазовий тузилиши (C2-N1-C-C ва C6-C7-N-C торсион бурчаклар мос равишда циклопропан ҳамда пиперазин ҳалқаларини C-N боғи атрофида айлантириш учун қўлланилди).


Олинган натижалар, яъни фрагментларнинг ички айланиши потенциал сатҳ эгри чизиқлари 3 ва 4-расмларда келтирилган. 3-расмдан 1a ва 1b учун энергетик тўсиқнинг баландлиги билан фарқ қилувчи ўхшаш эгри чизик эканлигини кўриш мумкин. Ципрофлоксацин молекуласи потенциал сатҳ эгри чизиги 40 ва 250⁰ ларда энергетик минимумга эга бўлиб, ушбу ҳолатларда циклопропан ҳалқаси хинолон молекуласи текислигига нисбатан тўлиқ юқори ёки паст ҳолатда жойлашган. Потенциаль сатҳи эгри чизигининг энг катта максимумлари 106 ва 175⁰ бўлиб, бу максимумлар циклопропан CH₂ гуруҳи водород атомлари ва хинолондаги C8 углерод атоми водород атомлари билан стерик таъсирлашув натижасида юзага келган. Энергетик тўсиқ баландлиги 11.16 ккал/моль га тенг.

Кейинги энергетик тўсиқ (5.46 ккал/мол) нисбатан кичик бўлиб, 325⁰ да кузатилди. Ушбу энергетик тўсиқ циклопропан CH₂ гуруҳи ва C2 водород атомлари орасидаги фазовий таъсирлашув натижасида юзага келган.




3-расм. Ципрофлоксацин (1a) ва унинг протонланган (1b) ҳолатлари мисолида циклопропан ҳалқасининг ички айланиш потенциал сатҳи эгри чизиқлари

Пиперазин ҳалқасининг хиналон текислигига нисбатан ўзгариши, яъни $a \leftrightarrow b$ орасидаги ўтишлар (1-схема) 1 ва 2 бирикмалар пиперазин ҳалқасини C-N боғи атрофида айлантириш натижасида кузатилиши мумкинлиги аниқланди. Потенциаль эгри чизиқдаги катта максимумлар пиперазин ҳалқасининг инверсияси $a \leftrightarrow b$ натижасида юзага келган.



1-схема. Пиперазин ҳалқасининг хиналон текислигига нисбатан ўзгариши

Ички айланиш потенциал сатҳи ўрганишлари натижасида DFT усулида оптимизация қилинган структураларда циклопропан ва пиперазин ҳалқалари энг оптималъ геометрик ҳолатларда жойлашганлиги аниқланди. Ципрофлоксацин 1 ва 2 ларнинг ҳамда уларнинг катион формаларининг умумий энергиялари таққосланганда структура 1 2-3 ккал/моль энергияга структура 2 дан оптималъ эканлиги аниқланди (1-Жадвал). Иккала структуралар орасидаги геометрик ўзгаришлар хона ҳароратида ёки қиздириш натижасида бир-бирига ўтиши мумкин.



3-расм. Ципрофлоксацин (1a) ва унинг протонланган (1b) ҳолатлари мисолида пиперазин ҳалқасининг ички айланиш потенциал сатҳи эгри чизиқлари

1-Жадвал. 1, 2 ва уларнинг протонланган формалари учун ҳисобланган квант-кимёвий параметрлари

Квант-кимёвий параметрлар	1	1 cation	2	2 cation
$E_{\text{юб}}, \text{ ккал/моль}$	-720202.79	-720431.90	-720200.79	-720428.18
$E_{\text{НОМО}}, \text{ эВ}$	-5.94	-8.48	-5.75	-8.58
$E_{\text{ЛУМО}}, \text{ эВ}$	-1.48	-4.15	-1.45	-4.22
$ \Delta E = E_{\text{ЮБМО}} - E_{\text{КБМО}}, (\text{эВ})$	4.46	4.33	4.30	4.36
Ионланиш потенциали, $I = -E_{\text{НОМО}}, (\text{эВ})$	5.94	8.48	5.75	8.58
Электронга мойиллик, $A = -E_{\text{КБМО}}, (\text{эВ})$	1.48	4.15	1.45	4.22
Электроманфийлик, $\chi = (I + A)/2 (\text{эВ})$	3.71	6.31	3.6	6.4
Кимёвий каттиклик, $\eta = (I - A)/2 (\text{эВ})$	2.23	2.16	2.15	2.18
Кимёвий потенциал, $\mu_r = -(I + A)/2 (\text{эВ})$	-3.71	-6.31	-3.6	-6.4
Кимёвий юмшоқлик, $\sigma = 1/(2\eta) (\text{эВ}^{-1})$	0.22	0.23	0.23	0.23
Электрофиллик индекси, $\omega = \mu_r^2/2\eta (\text{эВ})$	3.08	9.21	3.01	9.39
Диполь момент, μ (Дебай)	11.27	30.84	11.32	29.11

Фазовий жиҳатдан бир-биридан фарқ қилувчи ципрофлоксацин 1 ва 2 лар учун кенг қўлланиладиган квант-кимёвий кўрсаткичлар DFT усулида ҳисобланди. Маълумки, юқори банд ва қуйи бўш МОлар (ЮБМО ва ҚБМО) кимёда муҳим ўрин тутати. Улар асосида кимёда муҳим аҳамият касб қиладиган η (кимёвий каттиклик), σ (кимёвий юмшоқлик), ΔE (энергетик тирқич), χ (электроманфийлик) ва ω (электрофиллик индекси) каби кўрсаткичлар ҳисоблаб топилиши мумкин. Купманс теоремасига кўра бирикмаларнинг ЮБМО (манфий ишорадаги) энергияси уларнинг ионланиш потенциалига тенг ва айни пайтда ҚБМО энергияси бирикмаларнинг электронга мойиллигини ифодалайди. Шунингдек, ЮБМО ва ҚБМО сатҳлари мос равишда бирикмаларнинг электронодонорлик ва электрооакцепторлик қобилиятларини ифодалайди. Пиперазин чекка азот атомининг протонланиб, тўртламчи азот катионини ҳосил қилиши натижасида ЮБМО ҳамда ҚБМО сатҳлари пасайишига ва ўз навбатида молекуланинг стабиллашишига олиб келган. Ципрофлоксацин 1 ва 2 ларнинг, айниқса уларнинг протонланган ҳолатлари диполь моментларининг катталиги уларнинг кутбилигининг юқорилигидан далолат беради. Ципрофлоксацин 1 ва 2 ларнинг, шунингдек уларнинг протонланган ҳолатларининг кимёвий каттиклик ва юмшоқлик катталиклари қарийб бир хил. 1 ва 2 бирикмаларнинг протонланган ҳолатларида электроманфийлик ва электрофиллик индекслари протонланмаган

ҳолатига нисбатан юқори эканлиги аниқланди. Бу ципрофлоксацин 1 ва 2 ларнинг протонланган ҳолатда нуклеофил ҳужумга мойиллиги юқори эканлигини кўрсатади [6].

АДАБИЁТЛАР

1. Islan G.A., Mukherjee A., Castro. R. Development of biopolymer nanocomposite for silver nanoparticles and ciprofloxacin controlled release // Int J Biol Macromol. –2015. –V. 72. –P.740-750.
2. Tabbara K.F., El-Sheikh H.F., Aabed.B. Extended wear contact lens related bacterial keratitis // Br J Ophthalmol. –2001. –V.85. –P.842-847.
3. Stapleton F., Carnt N. Contact lens-related microbial keratitis: how have epidemiology and genetics helped us with pathogenesis and prophylaxis // Eye. –2012. –V.26. –P.185-193.
4. Schaefer F., Bruttin. O., Zografos. L., Guex-Crosier Y. Bacterial keratitis: a prospective clinical and microbiological study // Br J Ophthalmol. –2012. –V.84. –P.327-328.
5. Appelbaum P.C., Hunter P.A. The fluoroquinolone antibacterials: past, present and future perspectives // Int J Antimicrob Agents. –2000. –V.16. –P.5-15.
6. Kudiyarova A.D., Eshimbetov A.G., Ashurov J.M., Khodjanizayov K.U., Ibragimov B.T. DFT study of rotary barriers of ciprofloxacin molecule fragments and formation of a complex with zinc(II) // Norwegian Journal of development of the International Science. –2021. –№ 61. –P.17-23. doi:10.24412/3453-9875-2021-61-17-23.

Ципрофлоксацинни DFT квант-кимёвий ҳисоблашлари

Резюме. Мақолада фторхинолонлар синфига кирувчи ципрофлоксацин молекуласини DFT таҳлили энергетик ва геометрик параметрлари ҳамда реакцион қобилятини квант-кимёвий усуллар билан назарий ҳисоблаш йўллари орқали олинган илмий натижалар муҳокама қилинди.

Kalit so'zlar: ципрофлоксацин, DFT, энергетик, геометрик параметрлар, электрон параметрлар.

Квантово-химические расчеты ДФТ ципрофлоксацина

Аннотация. В статье обсуждались энергетические и геометрические параметры ДФТ-анализа молекулы ципрофлоксацина, принадлежащей к классу фторхинолонов, а также научные результаты, полученные путем теоретического расчета реакционной способности квантово-химическими методами.

Ключевые слова: ципрофлоксацин, ДФТ, энергетические, геометрические параметры, электронные параметры.

Quantum-chemical calculations of ciprofloxacin DFT

Annotation. The article discusses the scientific results obtained by theoretical calculation of the energy and geometric parameters and reactivity of the ciprofloxacin molecule, which belongs to the class of fluoroquinolones, by quantum-chemical methods of DFT analysis.

Key words: ciprofloxacin, DFT, energetic, geometric parameters, electronic parameters.

NAVOIY VILOYATIDA O'RTA MAXSUS VA KASB-HUNAR TA'LIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Jurayeva N. B.

Navoiy innovatsiyalar universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Kirish. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonlari oxirgi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Muammolarimizning yechimi, savollarimizning javobi — bu ta'lim va tarbiya. Hamma eshiklarni ochadigan kalit ham — faqat ta'lim va tarbiyadir" [1]. Shu nuqtai nazardan, o'rta maxsus va professional ta'lim (OMPT) tizimi iqtisodiyot ehtiyojlariga mos, malakali kadrlarni tayyorlashning asosiy bo'g'ini sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, texnikumlar, kasb-hunar maktablari va kollejlarda o'quv jarayonini mehnat bozori talablariga moslashtirish bo'yicha chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda [2]. Navoi viloyati misolida ushbu sohaning rivojlanish dinamikasini o'rganish alohida ahamiyatga ega. Chunki viloyat respublikaning yirik sanoat markazlaridan biri bo'lib, bu yerda ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasida uzviy aloqalarni yo'lga qo'yish davlat siyosatida ham belgilangan [3]. 2021–2025 yillar mobaynida Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan OMPT muassasalari soni, ularga qabul qilinganlar, tahsil olayotganlar, bitiruvchilar va pedagog xodimlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilgan [5]. Shuningdek, mazkur davrda qabul qilingan davlat dasturlari, Prezident farmonlari, strategik hujjatlar hamda xalqaro standartlarga (xususan, MSKO–2011) moslashuv jarayonlari ushbu o'zgarishlarga bevosita ta'sir ko'rsatgan [4, 6].

Maqolaning asosiy maqsadi — Navoiy viloyatida o'rta maxsus va professional ta'lim tizimidagi rivojlanish tendensiyalarini xalqaro ilmiy tahlil uslublari asosida yoritish, davlat siyosati va hududiy amaliyot o'rtasidagi uzviylikni ko'rsatish hamda sifatni oshirishga doir tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Ushbu tadqiqot quyidagi savollarga javob izlaydi:

1. 2021–2025 yillarda Navoiy viloyatida OMPT tizimida qanday miqdoriy va sifat o'zgarishlari kuzatildi?
2. Davlat siyosati va Prezident nutqlari bilan mazkur sohada natijalar o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
3. Xalqaro ta'lim standartlari nuqtai nazaridan tizimni yanada takomillashtirish uchun qanday strategik yo'nalishlar taklif etilishi mumkin?

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda aralash uslubdagi ilmiy tahlil (mixed-method approach) qo'llanildi. Metodologiya quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: Tadqiqotning asosiy statistik bazasini Navoiy viloyati statistika boshqarmasi tomonidan 2025-yil 29-aprelda e'lon qilingan "Navoiy viloyatida o'rta maxsus va professional ta'lim" nomli press-reviz tashkil etadi [5]. Unda 2021/2022 o'quv yilidan 2024/2025 o'quv yiligacha bo'lgan davr mobaynida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha rasmiy ma'lumotlar keltirilgan: - faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasalari

soni (litsey, kollej, texnikum, kasb-hunar maktablari), - qabul qilingan o'quvchilar soni, - tahsil olayotganlar soni, - bitiruvchilar soni, - pedagog xodimlar soni (o'rindoshlarsiz), - shahar va tumanlar kesimidagi taqsimot.

Qo'shimcha sifatida quyidagi manbalardan ham foydalanildi: - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning ta'lim tizimini isloh qilishga oid nutqlari va chiqishlari [1–3],

- "O'zbekiston Respublikasida milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ–345-son qarori (2024-yil 31-oktabr) [4],

- Xalqaro ta'lim tasnifi — MSKO–2011 standarti bo'yicha metodik hujjatlar [6],

- Ilmiy-analitik maqolalar va hukumat portallari materiallari (yuz.uz, insonhuquqlari.uz va boshqalar) [7–8].

Tadqiqotda quyidagi ilmiy tahlil usullari qo'llanildi:

Dinamik qatorlar tahlili — 2021–2025 yillar davomida ta'lim muassasalari soni, qabul qilinganlar, tahsil olayotganlar, bitiruvchilar va pedagoglar tarkibidagi o'zgarishlar bo'yicha o'sish yoki kamayish tendensiyalari hisoblab chiqildi [5].

Foizli o'zgarishlar — har bir ko'rsatkich bo'yicha bazaviy (2021/2022) yilga nisbatan foizli o'sish yoki pasayish darajasi aniqlanib, yillik dinamik ko'rsatkichlar yaratildi.

Normativ-siyosiy tahlil — Prezident nutqlari va strategik hujjatlarda ko'tarilgan ta'lim islohotlari yo'nalishlari bilan statistik natijalar o'zaro solishtirildi, bu orqali davlat siyosati va hududiy amaliyot o'rtasidagi bog'liqlik ko'rsatildi [1–4]. Xalqaro standartlar bilan taqqoslash — ta'lim tizimining tasnifi va bosqichlari MSKO–2011 xalqaro klassifikatori bilan solishtirildi, bu esa tizimning moslashuv darajasini aniqlash imkonini berdi [6].

Natijalar. 2021–2025 yillar davomida Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari sonida sezilarli o'zgarishlar qayd etildi. 2024/2025 o'quv yili boshida bunday muassasalar umumiy soni 30 taga yetgan bo'lib, bu 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan 3,4 % ga ko'paygan [5].

Shu jumladan:

- Akademik litseylar soni 3 ta bo'lib, 2021-yildan buyon o'zgarmagan;
- Kasb-hunar maktablari soni 11 ta — ham o'zgarishsiz qolgan;
- Kollejlar soni 4 tadan 3 taga kamaygan (25 % kamayish);
- Texnikumlar soni esa 11 tadan 13 taga oshgan (18,2 % o'sish) [5].

Bu o'zgarishlar viloyatda o'rta maxsus ta'limdan ko'ra professional yo'nalishdagi texnikum tarmog'ini kengaytirishga e'tibor kuchayganini ko'rsatadi. Akademik litseylar tarmog'i esa asosan markazlashgan holda Navoiy shahrida joylashgan.

Qabul ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar viloyatda ta'lim tizimining real yuklamasi va yoshlar qamrovini aks ettiradi. 2024/2025 o'quv yili boshida qabul qilinganlar soni quyidagicha bo'lgan:

- Akademik litseylar — 628 nafar, deyarli barqaror;
- Kasb-hunar maktablari — 3,5 ming nafar (2021-yildagi 3,4 ming nafarga nisbatan 2,9 % o'sish);
- Kollejlar — 0,3 ming nafar (70 % kamayish);

- Texnikumlar — 2,0 ming nafar (41,2 % kamayish) [5]. Bu natijalar texnikum va kollejlar bo'yicha qabul ko'rsatkichlarida sezilarli pasayish borligini ko'rsatmoqda. Bu holat ayrim yo'nalishlarda qabul kvotalarining optimallashtirilishi va ta'lim tizimini qayta tuzish jarayonlari bilan izohlanadi.

Tahsil olayotgan o'quvchilar soni 2024/2025 o'quv yili boshida 13,3 ming nafarni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 2,6 ming nafarga (16,4 %) kamaygan [5]. Ta'lim shakllari bo'yicha ko'rsatkichlar quyidagicha:

- Akademik litseylar — 1,2 ming nafar (14,3 % kamayish),
- Kasb-hunar maktablari — 6,8 ming nafar (11,5 % o'sish),
- Kollejlar — 0,6 ming nafar (64,7 % kamayish),
- Texnikumlar — 4,7 ming nafar (2,0 ming nafarga kamayish) [5].

Bu raqamlar kasb-hunar maktablariga bo'lgan talab oshib borayotganini, ammo texnikum va kollejlar segmentida pasayish tendensiyasi mavjudligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, o'quvchilarning katta qismi Navoiy shahri va yirik sanoat markazlarida to'plangan.

2024-yilda OMPT tizimi bo'yicha jami bitiruvchilar soni 7,5 ming nafarni tashkil etgan bo'lib, bu 2021-yilga nisbatan 8,3 barobarga oshgan [5]. Segmentlar bo'yicha:

- Kasb-hunar maktablari — 3,2 ming nafar (asosiy o'sish manbai),
- Kollejlar — 0,3 ming nafar (4 barobar o'sish),
- Texnikumlar — 3,1 ming nafar (16,5 barobar o'sish),
- Akademik litseylar — barqaror ko'rsatkich (~0,6 ming).

Bu natijalar Navoiy viloyatida ayniqsa texnikumlar tarmog'ida bitiruvchilar sonining keskin oshgani, ya'ni tizimning ishlab chiqarish sektori bilan yaqinlashayotganini bildiradi.

2024/2025 o'quv yili boshida viloyatdagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni 956 nafarni tashkil etib, bu 2021-yilga nisbatan 32,8 % ga ko'paygan [5]. Segmentlar bo'yicha:

- Akademik litseylar — 127 nafar (+6,7 %),
- Kasb-hunar maktablari — 460 nafar (+67,3 %),
- Kollejlar — 44 nafar (-47,0 %),
- Texnikumlar — 325 nafar (+33,7 %).

Eng ko'p pedagog xodimlar kasb-hunar maktablari va texnikumlarda jamlangan bo'lib, bu tizimning professional yo'nalishga qayta yo'naltirilayotganini ko'rsatadi. Kollejlardagi keskin kamayish ularning strukturaviy qayta tashkil

etilishi bilan bog'liq. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, akademik litseylarning barchasi Navoiy shahrida joylashgan, kasb-hunar maktablari esa Qiziltepa va Nurota tumanlarida nisbatan ko'proq. Texnikumlar Navoiy shahri, Zarafshon, Karmana va Xatirchida yuqori kontsentratsiyaga ega [5]. Bu holat viloyat markazlari va tumanlari o'rtasida ta'lim imkoniyatlari bo'yicha nomutanosiblik mavjudligini ko'rsatadi. Ayni paytda kasb-hunar maktablarining geografik taqsimoti ko'proq aholining ta'limga kirish imkoniyatini oshirayotganini ta'kidlash lozim.

Muhokama. 2021–2025 yillar davomida Navoiy viloyatida o'rta maxsus va professional ta'lim tizimi miqyosida qayd etilgan o'zgarishlar davlat siyosatida belgilangan strategik yo'nalishlar bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'limni isloh qilish masalalarini doimiy ravishda kun tartibiga qo'yib kelmoqda. U bir nutqida shunday degan edi:

“Muammolarimizning yechimi — ta'limda. Hamma eshiklarni ochadigan kalit ham — faqat va faqat ta'lim va tarbiyadir” [1]. Statistik natijalar [5] va Prezident nutqlarida ilgari surilgan yo'nalishlar [1–3] o'rtasida aniq uzviylik mavjud. Jumladan, kasb-hunar maktablari va texnikumlar sonining ko'payishi, qabul va bitiruvchilar sonida sezilarli o'sish kuzatilgani — professional ta'limni iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashtirishga qaratilgan siyosat natijasidir.

Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “maktabdan boshlab ishlab chiqarishgacha uzviy tizim” konsepsiyasi kasb-hunar ta'limi tizimini qayta yo'naltirishda muhim omil bo'ldi [2]. Bu jarayonda texnikumlar asosiy bo'g'inga aylanib bormoqda, bu esa 2021–2025 yillar oralig'ida texnikumlar sonining 18,2 % ga oshishi va bitiruvchilar sonining 16 barobardan ortiq ko'payishida yaqqol ko'rinmoqda [5]. Natijalardan ko'rinishicha, kollejlarda son va qabul ko'rsatkichlarida keskin pasayish kuzatilmoqda. Bu holat hukumat tomonidan 2017-yildan boshlab kollejlarda tizimini optimallashtirish, ayrimlarini texnikumlarga aylantirish siyosati bilan bog'liqdir. PQ–345-son qarorida ta'lim tizimini xalqaro malaka standartlariga moslashtirish va o'quv dasturlarini qayta tuzish zarurligi belgilab berilgan [4].

Mazkur qayta tuzilish jarayoni qisqa muddatda ayrim kollejlarning yopilishi yoki birlashtirilishiga olib kelgan bo'lsa-da, uzoq muddatda bu tizimning texnik yo'nalishlarga yo'naltirilishini kuchaytiradi. Bu esa O'zbekistonning MSKO–2011 xalqaro ta'lim tasnifiga moslashuvini jadallashtiradi [6].

Umuman olganda, Navoiy viloyatida OMPT tizimida qayd etilgan o'zgarishlar davlat siyosatining real hududiy natijalarini yaqqol aks ettirmoqda. Kasb-hunar maktablari va texnikumlarning kengayishi — mehnat bozori ehtiyojlariga yaqinlashuvni, pedagoglar sonining oshishi — ta'lim quvvatlarining kengayishini bildiradi.

2- расм. $[\text{CdCl}_4](\text{HL})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ молекулалараро ўзаро таъсирлашувларда иштирок этувчи атомлар улушлари.

$[\text{CdCl}_4](\text{HL})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ комплекс тузилишининг Хиршфельд сирт юзаси тахлилида ҳар қандай $(\text{HL})^+$ каби катионли мода учун мавжуд қисқа боғланишни тасаввур қилиш учун аниқланаётган бирикманинг кристаллидаги Хиршфельд сиртлари ўрганиди. Бунга кўра, юзадаги қизил доғлар $\text{N3A-H3AA}\cdots\text{Cl4}$, $\text{N3A-H3AB}\cdots\text{Cl3}$ ва $\text{N3B-H3BA}\cdots\text{Cl1}$ водород боғларига тўғри келадиган асосий ўзаро таъсирни кўрсатган, кўк майдон орқали эсе, бутунлай эркин ва яқин боғланишлар тасвирланган. $d_{\text{норм}}$ нинг сирт усулида бирикманинг гидратланган шаклининг барқарорлигини кўрсатувчи сув молекуласи билан водород боғланиши кўрсатилган (3-расм).



3-расм. $[\text{CdCl}_4]^{2-}$ -анион ва $(\text{HL})^+$ -катионлари учун уч ўлчамли Хиршфельд юзасининг тасвири -0,4180 дан 1,3344 гача бўлган диапазонда $d_{\text{норм}}$ бўйлаб чизилган (Бу ерда, а $[\text{CdCl}_4]^{2-}$ -анион учун, (b) ва (c) мос равишда ClP(A)^+ ва ClP(B)^+ катионлари учун Хиршфельд юзаларидир).

3-расмда боғланмаган ўзига хос ўзаро таъсирлар умумий сирт таҳлилга катта ҳисса қўшиши ва улар (HL)⁺-катионлар рецепторлари билан турли йўллар билан боғланиш мумкинлигини кўрсатган [5].

АДАБИЁТЛАР

1. Кудиярова А.Д., Ашуров Ж.М., Ибрагимов А.Б. Синтез и строение новых супрамолекулярных и металлокомплексов на основе ципрофлоксацина // Функционал полимерлар фанининг замонавий ҳолати ва истиқболлари мавзусидаги, Профессор-ўқитувчилар ва ёш олимларнинг илмий-амалий анжумани материаллари. Тошкент. –2020. –С.149.
2. Kudiyarova A.D., Ashurov J.M., Ziyaev M., Xudoyberganov O.I., Ibragimov B.T. Molecular and crystal structures of (CfH)₂[CdCl₄]·2H₂O (CfHLrofloxacin) // Биоорганик кимё фани муаммолари IX-республика ёш кимёгарлар конференцияси материаллари III том. Тошкент. 26-27 апрель –2019. –Р. 201-202.
3. Torambetov B.S., Kudiyarova A.D., Ashurov J.M., Ibragimov B.T. Crystal structure of ciprofloxacinium tetrachlorocadmium dehydrate // XVI Международной конференции «Спектроскопия координационных соединений». Россия. Кубанский государственный университет, г. Краснодар, 16-21 сентября. –2019. –Р. 236-237..
4. Kudiyarova A.D., Ashurov J.M., Ibragimov B.T. Crystal structure of ciprofloxacinium tetrachlorocadmium dehydrate// XXI асп – Интеллектуал ёшлар асри мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси. Тошкент 29 март. –2019. –Р. 247..
5. Kudiyarova A.D., Ashurov J.M., Ibragimov A.B., Sabirov V.Kh. Ibragimov B.T. Synthesis, crystal structure and Hirshfeld surface analysis of ciprofloxacinium tetrachlorocadmium dehydrate // Chemical Data Collections –2021. <https://doi.org/10.1016/j.cdc.2020.100633>.

Ципрофлоксациннинг кадмий билан комплекс бирикмасининг Хиршфельд сирт юзаси таҳлили

Annotatsiya. Мақолада биофаол бирикмалар синфига кирувчи ципрофлоксацин молекуласининг кадмий билан комплекс бирикмасининг молекулаларо таъсирлашишлари Хиршфельд (Hirshfeld) сирти таҳлили ёрдамида тавсифлаш амалга оширилди. Ципрофлоксацин ва кадмий комплекс бирикмасининг Хиршфельд умумий сирт юзаси ва ҳажмининг миқдорлари бўйича маълумотлар келтирилди.

Kalit so'zlar: ципрофлоксацин, кадмий, Хиршфельд, молекулаларо таъсирлашиш, сирт юзаси.

Analysis of the Hirschfeld surface of the complex compound of ciprofloxacin with cadmium

Annotation. The article describes the intermolecular interactions of ciprofloxacin with cadmium, a complex compound belonging to the class of bioactive compounds, using Hirschfeld surface analysis. Data on the total surface area and Hirschfeld volume of ciprofloxacin and the complex compound of cadmium are presented.

Keywords: ciprofloxacin, cadmium, Hirschfeld, intermolecular interaction, surface.

Анализ поверхности Хиршфельда комплексного соединения ципрофлоксацина с кадмием

Аннотация. В статье проведено описание межмолекулярных взаимодействий комплексного соединения ципрофлоксацина с кадмием, относящегося к классу биоактивных соединений, с помощью анализа поверхности Хиршфельда. Приведены данные по количеству общей поверхности и объема Хиршфельда ципрофлоксацина и комплексного соединения кадмия.

Ключевые слова: ципрофлоксацин, кадмий, Хиршфельд, межмолекулярное взаимодействие, поверхность.

ОРОЛБЎЙИ МИНТАҚАСИ МЎЙНОҚ ТУМАНИДА ЖОЙЛАШГАН №2-, №3-МАКТАБЛАР ЎҚУВЧИЛАРИДА ҚЎЛ КАФТ КУЧИ (ДИНАМОМЕТРИЯ) КЎРСАТКИЧИ ТАҲЛИЛИ

Утемуратов Н. А.

Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети,

Болалар ва ўсмирларнинг жисмоний ривожланиш даражасини доимий мониторинг қилиш асосида саломатлик ҳолатини баҳолаш ва эҳтимолиги мавжуд салбий ҳолатларнинг олдини олиш чора-тадбирлар комплексини ишлаб чиқиш жамият келажиги учун долзарб аҳамиятга эга масала ҳисобланади [1.].

Қўл кафти кучи (динамометрия) мускуллар кучини аниқлаш билан биргаликда, одам организмининг умумий жисмоний ривожланиш (саломатлик) ҳолатини баҳолаш имконини беради [4. 9. 8.].

Шунингдек, қўл кафти кучи таҳлили асосида асаб, кардиометаболик тизим функционал ҳолатини билвосита баҳолаш мумкинлиги қайд қилинади [2. 3.]. Одам организмда мускуллар асосан ҳаракат функциясини таъминлаб, онтогенез жараёни давомида гетерохрон тавсифда ривожланиши, жумладан қўл кафти мускуллари 6-7 ёшда жадал ривожланиши, 7 ёшга нисбатан 11-12 ёшда қўл кафти мускул кучи 2-2,4 марта, 15-16 ёшда 4-4,6 марта, 20 ёшда 4,5-6 мартага ортиши қайд қилинади. Шунингдек, бунда қўл кафти кучи жинсга боғлиқ бўлиб, ўнг ва чап қўлда сезиларли даражада фарқланади [7.]. 7-11 ёш диапазонида болаларда статик юкламаларга нисбатан тез чарчаш ҳолати хос хусусият ҳисобланиб, мускул кучи 10-12...13-15 ёш диапазонида жадал ривожланади ва 18 ёшда секинлашиб, 25-26 ёшда тўлиқ шаклланади [7. 14.].

Мускул кучи қиймати 7 ёшда ҳар иккала жинс вакилларида деярли тенг бўлиб, 8-9 ёшда ўғил болаларда сезиларли ортиши, гормонал ўзгаришлар таъсирида 10-12 ёшда қизларда ўғил болаларга нисбатан “сакраш” тавсифида ортиши, 12 ёшдан бошлаб ўғил болаларда қизларга нисбатан ортиши кузатилади ҳамда 12-15 ёшда мазкур фарқ 30% ни ташкил этади [19.]. Одатда, вояга етган одамда эркакларда ўнг қўл кучи ўртача 35-50 кг, чап қўл кучи 32-46, аёлларда мос равишда 25-33, 23-30 кг, шунингдек куч индекси 35 ёшгача эркакларда ўртача 60-70%, аёлларда 45-50% га тенг ҳисобланади [4. 16.]. Қўл кафти кучи кўрсаткичи қийматига турли омиллар (тана вазни, конституция типи ва бошқ.) таъсир кўрсатиши қайд қилинади [22.]. Сўнгги вақтларда турли омиллар таъсирида болалар ва ўсмирларда қўл кафти динамометрияси кўрсаткичи қиймати сезиларли даражада камайиши қайд қилинади [12. 18.].

Мазкур тадқиқотнинг **мақсади** – Қорақалпоғистон Республикаси Мўйноқ туманида жойлашган №2-, №3-мактаблар ўқувчиларида қўл кафт кучи (динамометрия) кўрсаткичи қийматларини таҳлил қилишдан иборат.

Тадқиқот материаллари ва услублари. Тадқиқотлар 2019-2022 йилларда Қорақалпоғистон Республикаси Мўйноқ туманида жойлашган №2-, №3-мактабларда амалга оширилди. Одатда, тадқиқотларда болалар ва ўсмирлар организмида жисмоний ривожланишнинг асосий соматометрик (бўй узунлиги, тана вазни, кўкрак қафаси айланаси) ва физиометрик (ўпканинг тириклик сиғими, артериал қон босими, қўл кучи ва бошқ.) кўрсаткичларидан фойдаланилади. Бунда тана вазни бўй узунлигига нисбатан турли омилар таъсирига юқори даражада сезгир жавоб реакциясига эга антропометрик кўрсаткич ҳисобланади. Кўкрак қафаси айланаси, ўпкалар тириклик сиғими каби ташқи-муҳит омиллари таъсирига сезгир антропо-физиометрик кўрсаткичлардан яна бири мускуллар кучи ҳисобланади.

Тадқиқотларда ўқувчиларда (7-11 ёш) динамометрия услубида **қўл кучи** (кг) қиймати ўлчаш тик турган ҳолатда, куч ўлчанаётган қўл гавдага нисбатан 90° бурчак остида букилган ва иккинчи қўл пастга туширилган ҳолатда, ўлчаш диапазони максимал 90 кг га тенг бўлган (хатолик қиймати ±100 г.) “ЕН101” рақамли динамометр асбоби (“КҮТО”, Гонгконг) ёрдамида ўлчанди (ўлчаш ҳар бир қўлда 3 мартадан такрорланди ва энг катта қиймат қайд қилинди) [20.] (1-расм).



1-расм. Ўқувчининг тана вазини (I), қўл кафт кучини ўлчаш жараёни (II) (Қорақалпоғистон Республикаси Мўйноқ туманида жойлашган №3-мактаб, 18.03.2021 йил).

Тадқиқотларда ўқувчиларда (7-11 ёш) куч индекси қуйидаги формула (2.1) ёрдамида ҳисобланди [23. 14. 17.]:

$$КИ = [A/TB] \times 100\% \quad (2.1)$$

Бу ерда КИ – куч индекси (%), А – ўнг ва чап қўл кучи ўртача қиймати $([ўнг қўл кучи + чап қўл кучи]/2)$ (кг), ТВ – тана вазини (кг) ифодалайди.

Кафт кучи – организмнинг мускуллари функционал ҳолатини баҳолашда интеграл кўрсаткич сифатида ўрин тутди [15.].

Куч индекси қийматлари қуйидаги жадвал асосида баҳоланди (1-жадвал).

1-жадвал. Куч индекси қийматлари бўйича жисмоний ривожланиш (саломатлик) ҳолатини баҳолаш [23.]

Т/р	Жисмоний ривожланиш (саломатлик) ҳолати				
	Паст	Ўртачадан паст	Ўртача	Ўртачадан юқори	Юқори
Ўғил болалар					
1.	≤60	61–65	66–70	71–80	≥81
Қизлар					
2.	≤40	41–50	51–55	56–60	≥61

Шунингдек, тажриба натижалари перцентиль коридор (3, 10, 25, 50 75, 90, 97) қийматлари бўйича таҳлил қилинди. Бунда 25–75 диапазон “меъёр”, 10 – “меъёрдан паст”, ≤3 – “меъёрдан жуда паст”, 90 – “меъёрдан юқори”, ≥97 – “меъёрдан жуда юқори” сифатида баҳоланди [23.]. Куч индекси – мускуллар кучи ва тана вазни ўртасидаги нисбатни ифодалаб, болалар ва ўсмирларда мускуллар ривожланиш ҳолатини баҳолашда муҳим ўрин тутди [5. 14.].

Олинган натижаларни математик-статистик қайта ишлаш. Тадқиқотларда олинган экспериментал натижаларни математик-статистик таҳлил қилиш “Microsoft Excel 2007” (Microsoft, АҚШ) ва “OriginPro v. 8.5 SR1” (EULA, АҚШ) махсус дастур пакетлари ёрдамида қайта ишланди. Олинган натижалар стандарт услублар ёрдамида математик-статистик қайта ишланди.

Экспериментал натижалар n марта такрорийликда амалга оширилган тажрибалар натижаларининг $M \pm m$ шаклида келтирилган бўлиб, M – ўртача арифметик қиймат ва m – стандарт хатолик қийматини ифодалайди (тажрибалар 3–4 марта такрорийликда ($n=3-4$) бажарилди). Шунингдек, тажриба натижалари гуруҳлар ўртасидаги қийматларнинг статистик ишончлилиқ даражаси Стьюдент t -мезони асосида ҳисобланди ва $p < 0,05$, $p < 0,01$ қийматларда статистик ишончли деб баҳоланди. Иккита тажриба гуруҳи қийматлари ўртасидаги фарқланиш ишончлилиқ даражаси Стьюдент мезони бўйича, қуйидаги формула (2.2) ёрдамида ҳисобланди.

$$t = \frac{\bar{x}_1 - \bar{x}_2}{\sqrt{m_1^2 + m_2^2}} \quad (2.2)$$

Бу ерда, x_1 – биринчи гуруҳ ўртача қиймати, x_2 – иккинчи гуруҳ ўртача қиймати m_1 – биринчи гуруҳ ўртача хатолик қиймати, m_2 – иккинчи гуруҳ ўртача хатолик қийматини ифодалайди.

Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили

Шундай қилиб, болалар ва ўсмирларда жисмоний ривожланиш жараёни ўсиш-ривожланишнинг жадал амалга ошиши, жинсий балоғатга етиш, адаптация жараёни, функционал захиралар ҳолати ва бошқа омиларга боғлиқ бўлиб, мазкур жараёнга генотип билан биргаликда ташқи-муҳит омиллари ҳам сезиларли даражада таъсир кўрсатади. Тадқиқотларда Мўйноқ туманида жойлашган №2-, №3-мактаблар ўқувчиларида қўл кафт кучи (динамометрия) кўрсаткичи қийматлари таҳлил қилинди (2-жадвал).

2-жадвал. Мўйноқ туманида жойлашган №2-, №3-мактаблар ўқувчиларида қўл кафт кучи (динамометрия) кўрсаткичи қийматлари ($M \pm m$)

Т/р	Ёш	Ўнг қўл кафт кучи (динамометрия) (кг)							
		Ўғил болалар (n=134)				Қизлар (n=116)			
		Ўнг қўл		Чап қўл		Ўнг қўл		Чап қўл	
		Таъриба	Меъёр	Таъриба	Меъёр	Таъриба	Меъёр	Таъриба	Меъёр
Мўйноқ тумани									
1.	7	11,12±0,40	10,74	10,53±0,34	10,11	9,68±0,31	9,88	9,70±0,34	9,24
2.	8	13,85±0,36*	12,41	13,46±0,31**	11,67	11,86±0,33	11,16	11,14±0,30	10,48
3.	9	15,37±0,66	14,34	15,80±0,32*	13,47	13,35±0,59*	12,77	12,81±0,52	11,97
4.	10	17,64±0,63*	16,52	17,06±0,57*	15,59	15,50±0,51	14,65	15,28±0,60*	13,72
5.	11	18,43±0,17	18,85	18,03±0,29	17,72	16,37±0,46	16,54	15,74±0,37	15,52

Изоҳ: * – стандарт меъёр (назорат) гуруҳига нисбатан $p < 0,05$, ** – $p < 0,01$ ($n=3-4$).

Олинган натижалар қўл кафти кучи қийматлари динамикаси мактаб ўқувчиларида физиологик ёш диапазони (7-11 ёш) ва жинсга боғлиқ сезиларли даражада фарқланиши кузатилди. Бунда мазкур кўрсаткич қийматлари ўғил болаларда барча ёш диапазонларида қизларга нисбатан юқори бўлиб, ўнг ва чап қўл кучи қийматлари ўғил болаларда 7 ёшга нисбатан 11 ёшда мос равишда – 65,74 ва 71,23% га ортиши, қизларда мос равишда – 69,11 ва 59,31% га ортиши қайд қилинди.


Тадқиқотларнинг навбатдаги босқичида Мўйноқ туманида жойлашган №2-, №3-мактаблар ўқувчиларида куч индекси таҳлил қилинди (3-жадвал).

3-жадвал. Мўйноқ туманида жойлашган №2, №3-мактаблар ўқувчиларида куч индекси таҳлили ($M \pm m$)

T/p	Ёш (йил)	Куч индекси (min.–max.)	Центиль қийматлари						
			3	10	25	50 (Медиана)	75	90	97
Ўғил болалар (n=134)									
1.	7	24,33–76,46	25,73	30,67	40,56	44,26±0,68	49,30	70,62	74,82
2.	8	26,05–65,08	28,12	33,57	43,17	48,59±1,16	53,16	59,91	64,00
3.	9	24,33–69,41	26,03	36,13	47,20	51,44±0,74	56,84	64,37	67,32
4.	10	33,96–79,72	35,87	38,10	49,86	54,56±1,37	60,42	70,18	75,43
5.	11	36,07–76,18	41,16	44,87	50,11	56,83±1,40	62,83	70,12	74,02
Қизлар (n=116)									
6.	7	23,07–54,38	24,90	31,05	37,19	40,36±1,14	44,10	50,48	53,16
7.	8	22,83–62,03	24,65	32,11	39,10	42,44±1,07	46,82	56,71	60,46
8.	9	26,49–58,80	31,13	34,83	40,15	42,89±0,53	49,50	50,86	57,18
9.	10	30,09–77,41	36,87	39,13	43,29	46,54±1,75	50,03	69,16	75,13
10.	11	32,45–78,05	35,97	38,30	45,06	47,05±0,67	51,10	68,97	76,49

Шундай қилиб, Мўйноқ туманида жойлашган №2-, №3-мактаблар ўқувчиларида ўғил болаларда (7-11 ёш) куч индекси ўртача (медиана) қийматлари минимал 44,26±0,68%, максимал 56,83±1,40% га тенг бўлиб, стандарт меъёр даражасига нисбатан “паст”, қизларда мос равишда – 40,36±1,14 ва 47,05±0,67% га тенг бўлиб, “ўртачадан паст” сифатида баҳоланди.

Шунингдек, куч индекси қийматлари бўйича ўғил болалар (7-11 ёш) контингентиди 25–75 диапазон (“меъёр”) даражасидаги респондентлар улуши 63,16±2,23%, 90 диапазонга тегишли (“меъёрдан юқори”) респондентлар улуши 10,12±0,15%, ≥97 диапазонга тегишли (“меъёрдан жуда юқори”) респондентлар улуши 7,02±0,02%, 10 диапазонга тегишли (“меъёрдан паст”) респондентлар улуши 11,09±0,16%, ≤3 диапазонга тегишли (“меъёрдан жуда паст”) респондентлар улуши 8,61±0,15%, қизларда мазкур қийматлар мос равишда – 74,46±1,48%, 8,14±0,03%, 3,91±0,04%, 10,06±0,09% ва 3,43±0,01% га тенглиги аниқланди (2-расм).



2-расм. Мўйноқ туманида жойлашган №2-, №3-мактаблар ўқувчиларида (7-11 ёш) куч индекси қийматлари бўйича центиль тақсимот таҳлили. * – ≤3 диапазон қийматларига нисбатан $p < 0,05$, ** – $p < 0,01$ ($n=3-4$). Шундай қилиб, болалар ва ўсмирларда жисмоний ривожланиш даражасини қўл кафти динамометрияси асосида баҳолашда мазкур кўрсаткич қийматлари турли омилар, жумладан атроф муҳит омиларига боғлиқлиги қайд қилинган [10. 15. 11.]. Қўл кафти кучи кўрсаткичи болалар ва ўсмирларда жинс, ёшга боғлиқ

гетерохрон тавсифда ривожланиб, 8-10 ёшда фаол ортиши, 11-13 ёшда қизларда жинсий балоғатга етиш жараёни жадаллашиши таъсирида ўғил болаларга нисбатан жадал ривожланиши кузатилади [13.].

Одатда, онтогенез давомида болалар ва ўсмирларда маълум бир физик сифатларнинг “сакраш” тавсифида динамик ривожланиши, сенситив даврлар, жумладан: эгилувчанлик 3-7 ёшда, мувозанатни сақлаш-координация 5-9 ёшда, югуриш тезлиги 6-13 ёшда, қўл ҳаракатлари тезлиги 8-14 ёшда, эпчиллик 8-13 ёшда, динамик куч 8-14 ёшда, қўлнинг статик кучи 7-15 ёшда, сакраш 8-13 ёшда ривожланиши қайд қилинади.

Одатда, 7-11 ёш диапазони “кичик мактаб ёши” даври сифатида тавсифланиб, бунда мускуллар жадал ривожланиши кузатилади [6.]. Айрим тадқиқотчилар томонидан болалар организмида мувозанат сақлашда жисмоний куч сифати хусусиятлари тадқиқ қилинган. Кафт кучи қиймати ортиши ўсмирларда жисмоний фаоллик ортиши билан боғлиқ бўлиши мумкинлиги қайд қилинади.

Айрим тадқиқотчилар томонидан охириги йилларда болалар ва ўсмирларда тана вазни (семириш), бўй узунлиги ортиши билан биргаликда, кафт кучи кўрсаткичи қиймати сезиларли пасайиши қайд қилинган.

Тадқиқотларда болалар ва ўсмирларда кафт кучи конституцияга (соматотип) боғлиқлиги қайд қилинган [15.]. Одам организмида онтогенез давомида скелет мускулатураси 6-7 ёшда жадал ривожланиб, 7-11 ёшда мускул кучи нисбатан секин, 10-12 ёшда эса жадал ривожланиши қайд қилинади. Бунда мускул кучи жинсга боғлиқ бўлиб, қўл кафти кучи ўғил болаларда 14-17 ёшда, қизларда 10-12 ёшда максимал қийматга эришиши кузатилади [7.]. Интеллектуал ривожланиш даражаси меъёрдан орқада қолган ўсмирларда бўй узунлиги нисбатан юқорилиги, шунингдек, қизларда (13-14 ёш) тана вазни ортиши, 14-16 ёш гуруҳида ўпканинг тириклик сиғими, қўл кучи кўрсаткичи қиймати пасайиши аниқланган.

Шундай қилиб, мускуллар кучи кучланишга қаршилиқ кўрсатиш хусусияти бўлиб, одам организмнинг жисмоний ривожланиши, физиологик фаоллиги, саломатлик ҳолатини баҳолаш имконини беради [21.].

1. Мўйноқ туманида №2-, №3-мактаблар ўқувчиларида қўл кафт кучи кўрсаткичи динамикаси физиологик ёш диапазони (7-11 ёш) ва жинсга боғлиқ сезиларли фарқланиши, ўғил болаларда барча ёш диапазонларида қизларга нисбатан юқори бўлиб, ўнг ва чап қўл кучи қийматлари ўғил болаларда 7 ёшга нисбатан 11 ёшда мос равишда – 65,74 ва 71,23% га ортиши, қизларда мос равишда – 69,11 ва 59,31% га ортиши қайд қилинди.

2. Ўқувчиларда ўғил болаларда (7-11 ёш) куч индекси ўртача (медиана) қийматлари минимал $44,26 \pm 0,68\%$, максимал $56,83 \pm 1,40\%$ га тенг бўлиб, стандарт меъёр даражасига нисбатан “наст”, қизларда мос равишда – $40,36 \pm 1,14$ ва $47,05 \pm 0,67\%$ га тенг бўлиб, “ўртачадан наст” сифатида баҳоланди. Шунингдек, куч индекси қийматлари бўйича ўғил болалар (7-11 ёш) контингентиди 25–75 диапазон (“меъёр”) даражасидаги респондентлар улуши $63,16 \pm 2,23\%$, 90 диапазонга тегишли (“меъёрдан юқори”) респондентлар улуши $10,12 \pm 0,15\%$, ≥ 97 диапазонга тегишли (“меъёрдан жуда юқори”) респондентлар улуши $7,02 \pm 0,02\%$, 10 диапазонга тегишли (“меъёрдан наст”) респондентлар улуши $11,09 \pm 0,16\%$, ≤ 3 диапазонга тегишли (“меъёрдан жуда наст”) респондентлар улуши $8,61 \pm 0,15\%$, қизларда мазкур қийматлар мос равишда – $74,46 \pm 1,48\%$, $8,14 \pm 0,03\%$, $3,91 \pm 0,04\%$, $10,06 \pm 0,09\%$ ва $3,43 \pm 0,01\%$ га тенглиги аниқланди.

Олинган натижалар Оролбўйи минтақасида болалар ва ўсмирларнинг антропо-физиометрик мониторинг стандарт меъёрларини ишлаб чиқиш, ўқувчиларнинг саломатлик ҳолати мониторинги, эҳтиمولлиги мавжуд патологик ҳолатлар олдини олишда профилактик чора-тадбирларни ишлаб чиқишда фойдаланилиши мумкин.

АДАБИЁТЛАР

1. Al-Sabunchi A.A., Al-Sabunchi O.A. Environmental factors and health of children in developing countries // Eurasian Union of Scientists. – 2019. – V.8-1(65). – P.37-40.
2. Norman K., Stobaus N., Gonzalez M.C., Schulzke J.-G., Pirlich M. Hand grip strength: Outcome predictor and marker of nutritional status // Clin. Nutr. – 2011. – V.30(2). – P.135-142.
3. Peterson M.D., Gordon P.M., Smeding S., Visich P. Grip strength is associated with longitudinal health maintenance and improvement in adolescents // J. Pediatr. – 2018. – V.202. – P.226-230.
4. Бочкарева С.И., Кокоулина О.П., Копылова Н.Е., Митина Н.Ф., Ростеванов А.Г. Физическая культура (Учебно-методический комплекс для студентов экономических специальностей) // Москва. – Изд. центр ЕАОИ, 2011. – С.344.
5. Ворсина Г.Л., Калюнов В.Н. Практикум по основам валеологии и школьной гигиены // Мн.: Тесей, 2008. – С.6-17.
6. Гончарова, Возрастная анатомия, физиология и гигиена Учебное пособие. - Воронеж: Изд-во ВГУ, 2008. - 92 с.
7. Есаков С.А. Возрастная анатомия и физиология (Курс лекций) // Ижевск (УдГУ), 2010. – С.198.
8. Ефимова Н.В., Мыльникова И.В. Особенности физического развития детей Ямало-Ненецкого автономного округа // Вопросы школьной и университетской медицины и здоровья. – 2018. – №3. – С.34-39.
9. Ефимова Н.В., Мыльникова И.В. Характеристика физического развития детей Ямало-Ненецкого автономного округа // Экология человека. – 2017. – №4. – С.20-25.
10. Ефимова Н.В., Шибков А.А., Шибкова О.В. Особенности физического развития детей 7-8 лет, проживающих в различных районах промышленного мегаполиса // Вестник медицинского института “РЕАВИЗ”: Реабилитация, врач и здоровье. – 2017. – №4(28). – С.140-144.
11. Жесткова Ю.К., Ермолаева Н.Н. Возрастная динамика мышечной силы у школьников и студентов Елабужского института КФУ // Вестник НИЦ МИСИ: Актуальные вопросы современной науки. – 2019. – Т.19. – С.39-43.
12. Карандашева В.О. Возрастная динамика кистевой динамометрии мальчиков различных типов телосложения г. Магадана // Вестник Северо-Восточного государственного университета. – 2019. – №32. – С.29-33.
13. Каспарова Е.Н., Дунай В.И. Гендерные особенности маскулинности в юношеском периоде онтогенеза. Материалы II Международной научно-практической конференции “Инновационные технологии спортивной медицины и реабилитологии”. – 2021. – С.126-130.
14. Макарова Л.Н., Ромашевская Н.И. Мониторинг физического состояния школьников (Учебно-методическое пособие) // Новокузнецк: МАОУ ДПО ИПК, 2018. – С.77.

15. Милушкина О.Ю. и др. Зависимость мышечной силы от темпов биологического созревания и основных показателей физического развития у мальчиков-подростков // Вестник РГМУ. – 2017. – №6. – С.29-35.
16. Мурадов Ж.Ж., Дустов Б.К. Физическое воспитание и спорт (Учебное пособие) // Бухара. – ООО “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2020. – С.25-312.
17. Павленкович С.С. Мониторинг физического развития и здоровья (Учебно-методическое пособие для студентов Института физической культуры и спорта) // Саратов. – Изд-во Саратовского гос. Ун-та, 2019. – С.50.
18. Пермякова Е.Ю., Гундэгмаа Л., Година Е.З. Морфофункциональные характеристики монгольских детей и подростков с разным уровнем физической активности // Вестник Московского университета. Серия 23. Антропология. – 2021. – №1. – С.5-18.
19. Пронина Н.В. Методические указания и задания к лабораторной работе “Исследование и количественная оценка функционального состояния скелетных мышц методом динамометрии” // Симферополь, 2016. – С.11.
20. Саваневский Н.К., Хомич Г.Е. Практические работы по физиологии поведения (Учебно-методические указания для студентов 1-го курса психолого-педагогического факультета специальности “Психология”) // Брест. – “БрГУ им. А.С.Пушкина”, 2009. – С.36.
21. Смирнова А.П., Красулина Н.А., Егоров М.В., Вахитов Р.Г. Методика проведения учебно-тренировочных занятий по общей физической подготовке дисциплины “Физическая культура и спорт” для студентов нефтегазовых вузов, обучающихся по программам специалитета и бакалавриата очной и заочной форм обучения (Учебное пособие) // Уфа (ФГБОУ ВО Уфимский гос. технический ун-т), 2020. – С.67.
22. Щанкин А.А., Кошелева О.А. Зависимость силы мышц кисти от конституционального типа возрастной эволюции организма // Наука и современность. – 2000. – №(6). – С.247-251.
23. Щербаков М.А. Физическое развитие детей и подростков (Методические рекомендации) // Витебск (ВГУ им П.М.Машерова), 2017. – С.56.

Резюме: Мазкур тадқиқотда Қорақалпоғистон республикаси Мўйноқ туманида жойлашган №2-, №3-мактаблар ўқувчиларида қўл қафт кучи (динамометрия) кўрсаткичи қийматлари динамикаси физиологик ёш диапозони (7-11 ёш) ва жинсга боғлиқ сезиларли даражада фарқланиши кузатилди.

Таянч сўзлар: жисмоний ривожланиш, қўл қафти динамометрияси, куч индекси қийматлари.

Анализ показателя силы кисти (динамометрия) у учащихся школ №2, №3, расположенных в Муйнакском районе Приаралья

Резюме: В данном исследовании выявлено, что динамика значений показателя силы ладони (динамометрия) у учащихся школ №2 и №3, расположенных в Муйнакском районе Республики Каракалпакстан, существенно различалась в зависимости от физиологического возрастного диапазона. (7-11 лет) и пола.

Ключевые слова: физическое развитие, ладонь руки динамометрия, значения индекса прочности.

Analysis of hand grip strength (dynamometry) in students of schools No. 2 and No. 3 located in the Muynak district of the Aral Sea region

Summary: In this study, it was revealed that the dynamics of the values of the palm strength indicator (dynamometry) among students of schools №2 and №3, located in the Muynak district of the Republic of Karakalpakstan, differed significantly depending on the physiological age range. (7-11 years old) and gender.

Key words: physical development, palm hand dynamometry, strength index values.

BURG‘ULASH ERITMASI UCHUN SURKOV MOYI NAMUNALARNING KIMYOVIY TAHLILI

Usmonov S.B.¹, Sanetullayev E.E.², Abdullayev A.S.², Joldasbayeva G.B.², Rametullayev A.A.², Satullayev N.J.²

¹ O‘zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti

² Berdax nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Kirish. Burg‘ulash eritmalari uchun moylovchanlik xususiyati yuqori bo‘lgan reagentlarni ishlab chiqishda an’anaviy neft yoki mineral yog‘lardan tashqari ekologik va iqtisodiy jihatdan samarali materiallardan foydalanish ahamiyatli hisoblanadi. Jumladan, biolubrikantlar va qayta ishlangan motor moylari yuqori termik barqarorlik, past yonuvchanlik va biorazlagunlik xususiyatlari bilan ajralib turadi [1, 45-62].

Qayta ishlangan moylardan tayyorlangan burg‘ulash eritmalari nafaqat moylash qobiliyatini oshiradi, balki korroziyani kamaytiradi va shlam bilan adgeziyalanishni yaxshilaydi [2,3]. Ushbu tadqiqotlarda qayd qilinishicha, mahalliy chiqindi motor moylari va organik polifenollardan tayyorlangan reagentlar eng maqbul moylash va emulsiya barqarorligini ta’minlaydi [3,4]. Emulsiyalarni barqarorlashtirishda trietanolamin va neonol turkumidagi noionogen sirt-faol moddalarning roli ham muhim sanaladi. Ular emulsiyaning parchalanishiga yo‘l qo‘ymaydi, sirt taranglikni pasaytiradi va metall-gil zarrachalarida barqaror plyonka hosil qilishga yordam beradi [5,6]. Shu bilan birga, trietanolamin va neonol kombinatsiyasi sinergetik ta’sir ko‘rsatib, burg‘ulash eritmalarida emulsiya barqarorligini yanada oshiradi. Zamonaviy tadqiqotlarda mahalliy va qayta ishlangan xom-ashyolardan tayyorlangan burg‘ulash moylovchilari samaradorligi yuqori, ekologik toza va iqtisodiy jihatdan ham oqilona ekani ta’kidlangan [7].

Ushbu tahlil umumiy qilib shuni ko‘rsatadi: mahalliy xom-ashyolar va qayta ishlangan motor moylari, gossipol qatroni, trietanolamin va noionogen emulgatorlardan iborat kompozitsiya burg‘ulash eritmalari uchun optimal moylovchi reagent yaratish imkonini beradi. Bizga burg‘ulash eritmasi uchun surkov moyi namunalarning kimyoviy tuzilishi va tarkibidagi funksional guruhlarini aniqlash maqsadida IRAffinity-1S IQ-spektrometridan foydalanildi. Ushbu qurilma yuqori signal-shovqin nisbati (30000/1)ga ega bo‘lib, namunalarning ifodali IQ-spektrlarini olish imkonini beradi. Tadqiqot uchun SM_{BEU-1}, SM_{BEU-2}, SM_{BEU-3} va SM_{BEU-4} surkov moyi namunalari tanlandi, ularning IQ-spektrlari yozib olindi va olingan spektrlar asosida tarkibiy funksional guruhlar tahlil qilindi.


Burg'ulash eritmasi uchun surkov moyi namunalarni olishda suyuq uglevodorod sifatida kompleks tayyorlangan "Ishlatilgan M-20A motor moyi", miqdorda kompleks tayyorlangan "Gossipol qatroni", trietanolamin aralashmasi va depressor qo'ndirmasi sifatida "Neonol 9-12" komponentlardan foydalanilgan (1-jadval).

1-jadval. Ishlab chiqilgan surkov moylari namunalarning tarkibi (%)


Namuna	Kompleks tayyorlangan "Ishlatilgan M-20A motor moyi"	Kompleks tayyorlangan "Gossipol qatroni"	Trietanolamin aralashmasi	"Neonol 9-12" depressorli qo'ndirma
SM _{BEU} -1	65	26	8,96	0,04
SM _{BEU} -2	70	21	8,96	0,04
SM _{BEU} -3	75	16	8,96	0,04
SM _{BEU} -4	80	11	8,96	0,04

1-jadvalda ishlab chiqilgan surkov moyi namunalari tarkibida komponentlar nisbati bosqichma-bosqich o'zgartirilgani ko'rsatilgan. SM_{BEU}-1 dan SM_{BEU}-4 gacha M-20A ishlatilgan motor moyi ulushi 65 foizdan 80 foizgacha oshirildi, gossipol qatroni esa 26 foizdan 11 foizgacha kamaytirildi; trietanolamin aralashmasi (8,96 foiz) va neonol 9-12 depressorli qo'ndirmasi (0,04 foiz) barcha namunada o'zgarishsiz saqlandi. Bunday tarkib motor moyi moylovchi fazani va past haroratda oquvchanlikni ta'minlovchi asosiy komponent sifatida, gossipol qatroni esa polyar yog' kislotalari hisobiga yuzada adsorbsiyalanib moylash plyonkasi hosil qiluvchi aktiv qism sifatida ishlashini hisobga olgan holda tanlandi. Qatron ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish va moy ulushini oshirish orqali kompozitsiyaning moylovchanlik, oquvchanlik va barqarorlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi eng maqbul muvozanatni aniqlash maqsad qilindi. 1-4 rasmlarda keltirilgan IQ-spektrlardan SM_{BEU}-1–SM_{BEU}-4 namunalari uglevodorod zanjirlariga tegishli cho'qqilar intensivligi yuqori bo'lib, bu uglerod zanjirlarining ustunligini va bu kompozitsiyalarning asosiy qismini tashkil etuvchi komponentlar alifatik tabiatga ega ekanini isbotlaydi. Bundan tashqari o'rganiliyotgan namunalarning barchasiga 2920; 2918; 2852 va 2850 sm⁻¹ sohalaridagi kuchli yutilish chiziqlari xos bo'lib, ular CH₂ va CH₃ guruhlarining assimetrik va simmetrik tebranishlariga to'g'ri keladi. Bu guruhlar ishlatilgan M-20A motor moyi hamda gossipol qatroni tarkibida yog' kislotalari hosilalarining uglevodorod zanjirlariga mos keladi. Bu guruhlar mavjudligini 1458-1456 va 1377 sm⁻¹ dagi chiziqlar bilan qo'shimcha izohlash mumkin.


Bu tayyorlangan kompozitsiyalardagi asosiy farq karbonil guruhlariga tegishli sohalarida kuzatiladi. SM_{BEU}-1 spektrida 1749 sm⁻¹ da aniq yutilish chizig'i mavjud va u asosan efir tabiatli C=O guruhlarining tebranishlarini ifodalab, gossipol qatroni ulushi yuqori bo'lgan tarkibda yog' kislotalari va ularning efirlangan fragmentlari ko'proq ekani bilan mos keladi. To'yinmagan C=C bog'lari uchun xos bo'lgan 1653 sm⁻¹ atrofidagi chizig'i intensivligi yuqoriligi bu tarkibda to'yinmagan kislota qoldiqlari va ularning murakkab efirlari va tuzlari borligini ifodalaydi. Shu bilan birga bu namunada 1541 sm⁻¹ dagi intensiv cho'qqi aminlarning karbon kislotalar bilan hosil qilgan tuzlaridagi karboksilat guruhlarining assimetrik tebranishlari hisobiga yuzaga kelganligi va gossipol qatroni tarkibidagi aromatik birikmalar tebranishlarini isbotlaydi.




1-rasm. SM_{BEU}-1 namunasining IQ-spektri.



2-rasm. SM_{BEU}-2 namunasining IQ-spektri.



3-rasm. SM_{BEU}-3 namunasining IQ-spektri.



4-rasm. SM_{BEU}-4 namunasining IQ-spektri.

SM_{BEU}-3 namunasiga bo'lsa karbonil chizig'i (1747 sm⁻¹) saqlanib qolganligini, hamda 1157 sm⁻¹ da C-O tebranishlariga xos cho'qqini 3-rasmdan ko'rish mumkin. Gossipol qatroni miqdorining yuqori bo'lmaganligi sababli efir karbonillari bilan birgalikda qushimcha sifatida olingan neonol va yog' kislotali segmenlarga tegishli C-O guruhlar ham spektr chiziqlarida ko'ringan deb hisoblash mumkin. To'yinmagan va aromat birikmalar guruhlarining tashqi tekislikdagi tebranishlariga xos bulgan past chastotali chiziq 678 sm⁻¹ da namyon bo'lib, qutubli qism saqlanib qolganligini isbotlaydi. SM_{BEU}-2 va SM_{BEU}-4 namunalari karbonil guruhlariga xos cho'qqi pastroq to'liq sonlariga siljiganini spektrlardan ko'rishimiz mumkin. Bunda mos ravishda 1699 va 1712 sm⁻¹ da chiziqlarni kuzatish mumkin va bu C=O guruhlarining ko'proq vodorod bog'lari bilan bog'langan kislota tabiatli holatga o'tishini anglatishi mumkin.

Ushbu ikki namunada 1150-1160 cm^{-1} atrofida C–O chiziqlarining zaiflashishi yoki deyarli ko‘rinmasligi polyar efir bog‘lari ulushining birikma tarkibida kamayganini va motor moyi ulushi oshgani hamda gossipol qatroni ulushi pasaygani bilan to‘liq mos kelishini ta’kidlash mumkin.

Xulosa. IQ-spektrlarni tahlil qilish natijasida SM_{BEU-1} dan SM_{BEU-4} gacha tarkiblarning umumiy alifatik uglevodorodli asosga ega ekanini, gossipol qatroni ulushining ortishi (SM_{BEU-1}; SM_{BEU-3}) efir tabiatli C=O va C–O guruhlari intensiv namoyon bo‘lishi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Caenn R., Darley H.C.H., Gray G.R. *Drilling Fluids: Functions and Properties* // Journal of Petroleum Science. 2017. Vol. 32.
2. Darley H.C.H., Gray G.R. *Composition and Properties of Drilling and Completion Fluids*. – Houston: Gulf Publishing, 2011. – 704 p.
3. Ahmed T. *Fundamentals of Drilling Engineering*. – Richardson: Society of Petroleum Engineers (SPE), 2010. – 420 p.
4. Fattah K.A., Al-Mahyawi A.N., Al-Saba M. *Recycling of Used Engine Oil for Drilling Fluid Formulations* // Journal of Petroleum Exploration and Production Technology. 2019. Vol. 9(2). P. 823–832.
5. Zhang Y., Liu J., Wang P. *Natural Phenolic Resin-Based Lubricants for Drilling Fluids* // Colloids and Surfaces A: Physicochemical and Engineering Aspects. 2020. Vol. 586. P. 124–139.
6. Kumar R., Singh A., Patel M. *Role of Triethanolamine in Stabilizing Oil–Water Emulsions* // Journal of Surfactants and Detergents. 2015. Vol. 18(4). P. 645–653.
7. Gao P., Chen L., Xu Y. *Nonionic Surfactants (Ethoxylated Alkylphenols) as Emulsifiers in Drilling Fluids* // Journal of Petroleum Science and Engineering. 2021. Vol. 205. P. 108–119.

Annotatsiya: Maqolada turli ulushdagi M-20A motor moyi va gossipol qatronidan tayyorlangan surkov moyi namunalari tahlil qilingan. IQ-spektrlar alifatik uglevodorodlar va karbonli yog‘ kislotalari hosilalarini tasdiqladi. Gossipol qatroni ulushining yuqori bo‘lgan tarkiblarda efir va C–O guruhlari aniqlandi, motor moyi ulushi ortishi esa karbonil va efir bog‘lari intensivligini kamaytirdi.

Kalit so‘zlar: kompozitsiya, surkov moyi, karbonli guruhlar, moylash xususiyatlari, polyar fragmentlar.

Аннотация: В статье анализируются образцы смазочного масла, приготовленного из моторного масла M-20A и госсиполовой смолы в различных долях. ИК-спектры подтвердили наличие алифатических углеводородов и производных карбоновых жирных кислот. В составах с высокой долей госсиполовой смолы обнаружены эфирные и C–O группы, а увеличение доли моторного масла снижает интенсивность карбонильных и эфирных связей.

Ключевые слова: композиция, смазка, углеродные группы, смазывающие свойства, полярные фрагменты. oil prepared from M-20A motor oil and gossypol resin in various proportions. IR spectra confirmed the presence of aliphatic hydrocarbons and derivatives of carboxylic fatty acids. In compositions with a high proportion of gossypol resin, essential and C–O groups were found, and an increase in the proportion of motor oil reduces the intensity of carbonyl and essential bonds.

Key words: composition, lubricant, carbon groups, lubricating properties, polar fragments.

ATSETOATSETANILIDNING *m*-NITROBENZOILGIDRAZONI VA Cu(II) KOMPLEKSINING TERMIK TAHLILI


Sattorova S. Z., Xudoyorova E'. A., Abduraxmonov S. F., Umarov B. B.

Buxoro davlat universiteti


Termik tahlil usullari (TGA, DTA, DSC) moddalarning harorat ta'sirida yuz beradigan fizik-kimyoviy o'zgarishlarini aniqlashda keng qo'llaniladi. TGA (termogravimetrik analiz) modda massasining harorat ortishi bilan o'zgarishini o'lchaydi va parchalanish bosqichlarini ko'rsatadi. DTA (differensial termik analiz) jarayonda sodir bo'ladigan ekzotermik va endotermik effektlarni aniqlaydi. DSC (differensial skanerlovchi kalorimetriya) esa issiqlik oqimining o'zgarishiga asoslanib, moddaning fazaviy o'tishlarini, suyuqlanish haroratlarini va entalpiya o'zgarishlarini baholaydi[1]. Koordinatsion birikmalarning termik xossalari ligandlarning tabiatiga, metall ionining valentligiga hamda markaziy atomning koordinatsion soniga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun atsetoatsetanilid *m*-nitrobenzoilgidrazoni (H₂L) va u asosida olingan Cu(II) kompleksi (CuL·NH₃) o'rtasidagi termik farqlarni aniqlash ularning tuzilish xususiyatlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi[2,3].

So'nggi yillarda gidrazon hosilalari va ularning metall komplekslari organik sintezi, biologik faol moddalar va koordinatsion kimyo sohalarida keng o'rganilmoqda. Gidrazonlar o'z tarkibidagi –C=O va –NH–N= guruhlari orqali metall ionlari bilan kuchli koordinatsion bog' hosil qila oladi. Bunday komplekslar yuqori termik barqarorlik, katalitik va biologik faollik xususiyatlariga ega[4]. Atsetoatsetanilidning *m*-nitrobenzoilgidrazoni tarkibida ham ushbu guruhlar mavjud bo'lib, elektronoakseptor xususiyatga ega nitro guruh (–NO₂) tufayli gidrazonning metall ionlari bilan bog'lanish jarayonida o'ziga xos konformatsion o'zgarishlar kuzatiladi. Shu sababli tahlil usullari orqali ularning termik barqarorligini, termik tuzilish va bog'lanish xususiyatlarini baholash muhim ilmiy ahamiyatga ega[5,6].


Atsetoatsetanilidning *m*-nitrobenzoilgidrazon bilan kondensatlanishidan atsetoatsetanilidning *m*-nitrobenzoilgidrazoni olindi.



Shu gidrazonning Cu(CH₃COO)₂ ning ammiakli suvli aralashmadagi eritmasi bilan 1:1 mol nisbatda reaksiyasi natijasida [Cu(C₁₇H₁₇N₅O₄)] kompleks birikmasi sintez qilindi.




Sintez qilingan H_2L va u asosida olingan $CuL \cdot NH_3$ kompleksining termik barqarorligi tahlil qilish natijalari ularning termik barqarorligida sezilarli farq mavjudligini ko'rsatadi. Quyida ularning parchalanish bosqichlari va issiqlik effektlari o'zaro taqqoslab ko'riladi. H_2L dan namuna uchun 6,01 mg o'lchab olindi. Jarayon boshlanganidan 35,13 minut vaqt o'tib, ya'ni harorat 33,04 °C dan 372,11 °C ga yetganda namunaning massasi 5,491 mg ga kamaydi. Bu umumiy massaning 83,336 % ini tashkil etadi. Ushbu vaqt oralig'ida DTA chiziqlarida 174,17 °C da va 192,83 °C da ikkita endotermik effekt kuzatildi hamda tegishli tartibda 717,02 mJ va 126,52 mJ issiqlik yutildi, endotermik effekt cho'qqisi 158,47 °C va 214,4 °C. Ikkinchi bosqich 35,13 minutdan 79,23 minutgacha davom etdi. Harorat 372,11 °C dan 801,84 °C gacha ko'tarilganda umumiy massaning 8,013% i (0,528 mg) parchalandi (1-rasm)[1].



1-rasm. H_2L ning TGT, DTT, DSC grafiklari.

Tahlil uchun $CuL \cdot NH_3$ kompleksidan 2.64 mg olindi va 27.65°C dan 367.41°C ga qadar qizdirildi. Bu vaqtda dastlab namunadan adsorbdialangan suv va gazlarning desorbsiyasi kuzatildi, 252.9 °C da modda suyuqlanadi, keyin esa parchalanishning birinchi bosqichi boshlanadi. Modda 1.328 mg massani yo'qotdi, bu umumiy massaning 50.227 % ni tashkil etdi. Ikkinchi bosqichda modda 367.41°C dan 801.78°C gacha qizdirilganda umumiy massa yo'qotish 0.858 mg (32.451 %) ni tashkil etib bunda koordinatsion bog'larning uzilishi, molekulaning ligand qismida destruksiylar kuzatildi va qolgan qismi parchalanmaydigan noorganik qoldiqlar va CuO ga to'g'ri keldi. Parchalanish jarayonida DTA chizig'ida 228.99 °C dan 298.2 °C gacha oraliqda 1-ekzoeffekt kuzatildi, ekzotermik effekt cho'qqisi 252.29 °C ni tashkil etdi. Ikkinchi ekzoeffent 489.83 °C dan 682.07 °C oraliqda kuzatildi ekzotermik effect cho'qqisi 574.89 °C bo'lib, shu vaqtda 858.25 mJ va 3.37 J issiqlik ajraldi (2-rasm).



2-rasm. H_2L asosida olingan $CuL \cdot NH_3$ kompleksining TGT, DTT, DSC grafiklari.

1-jadval. Tadqiq qilingan namunalarining termik destruksiya bosqichlari parametrlari tahlil ma'lumotlari

Namuna	Harorat oralig'i (bosqichlar bo'yicha), °C	Massaning yo'qotilish miqdori, %	Massaning eng katta yo'qotilish harorati, °C
H_2L	33.04-372.11	83.336	158.47
$CuL \cdot N$	372.11-801.84	8.013	
H_3	27.65-367.41	50.227	252.29
	367.41-801.78	32.451	

2-jadval. Tadqiq qilingan namunalarning xarakteristik haroratlari va aktivlanish parametrlari bo'yicha termik barqarorligini solishtirma baholash natijalari

Namuna nomi	Xarakteristik harorat, °C			Faollanish energiyasi, kJ/mol	Korrelatsiya koeffitsienti R ²	Termik barqarorlik, °C
	T ₁₀	T ₂₀	T ₅₀			
H ₂ L	173	203	299	5.813	0.884	158.47
CuL·NH ₃	242	254	366	6.127	0.9348	367.41

Termik tahlil ma'lumotlari *m*-nitrobenzoiilgidrazonga nisbatan [Cu(L·NH₃)] kompleksi termik barqaror ekanligini tasdiqlaydi. *m*-Nitrobenzoiilgidrazonda massaning eng ko'p yo'qotilishi 158 °C ga to'g'ri kelsa [CuL·NH₃] kompleks birikmasida 252 °C ni tashkil etadi. Bu ma'lumotlar kompleks birikmalarda M-N, M-O bog'larning uzilishi bilan bog'liqdir.

ADABIYOTLAR

1. Термический анализ ацетоацетанилидных ароилгидразонов // *Universum: химия и биология : электрон. научн. журн.* Сатторова С.З. [и др.]. 2025. 11(137).
2. Vorob'ev N.N., Ivanova E.A. *Thermal Analysis of Hydrazone Metal Complexes*. J. Therm. Anal. Calorim., 2018, 132(2), 789–798.
3. Khudoyberdiyev S. et al. Thermal properties of polyelectrolyte complexes of bombyx mori chitosan with collagen // *Chemistry and chemical engineering*. – 2022. – T. 2022. – №. 1. – С. 5.
4. Sattorova S. Z. et al. Synthesis, Structure, and Properties of Acetoacetanilide Acetylhydrazone // *Russian Journal of Organic Chemistry*. – 2025. – T. 61. – №. 9. – С. 1626-1632.
5. Сулаймонова З. А., Наврузова М. Б., Чориева С. А. Термическое исследование производных ферроцена // *SCIENTIFIC COLLECTION «INTERCONF*. – 2021. – №. 45. – С. 473-478.
6. Абдурахмонов С. Ф. и др. Синтез и исследование биядерных комплексов ванадила (II) на основе бис-5-оксипиразолинов // *Universum: химия и биология*. – 2019. – №. 12 (66). – С. 50-55.

Atsetoatsetanilidning m-nitrobenzoiilgidrazoni va cu(ii) kompleksining termik tahlili

Annotatsiya: Ushbu ishda atsetoatsetanilidning *m*-nitrobenzoiilgidrazoni va u asosida Cu(II) kompleks birikmasi sintezi, termik xossalari (TGA, DTA va DSC usullari) muhokama qilindi. Termogravimetrik tahlil natijalariga ko'ra, birikmalarning parchalanish bosqichlari va ularning termik barqarorligi aniqlandi. TGA asosida moddalarning parchalanish bosqichlari, DTA asosida endo va ekzotermik jarayonlar, hamda DSC natijalariga asosan kompleks birikmaning hosil bo'lish energiyalari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari *m*-nitrobenzoiilgidrazoni asosida olingan Cu(II) kompleks birikmaning termik xossalari o'rganish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: atsetoatsetanilid, *m*-nitrobenzoiilgidrazid, *m*-nitrobenzoiilgidrazon, TGA, DTA, DSC, termik barqarorlik.

Термический анализ m-нитробензоилгидразона и комплекса cu (ii) ацетоацетанилида

Аннотация: В данной работе рассмотрены синтез *m*-нитробензоилгидразона ацетоацетанилида и полученного на его основе комплекса Cu(II), а также их термические свойства, изученные методами TGA, DTA и DSC. Согласно результатам термогравиметрического анализа, были определены стадии разложения соединений и их термическая стабильность. На основе данных TGA установлены этапы разложения веществ, по результатам DTA выявлены эндо- и экзотермические процессы, а анализ DSC позволил определить энергии образования комплексного соединения. Полученные результаты дают возможность всесторонне изучить термические свойства комплекса Cu(II), синтезированного на основе *m*-нитробензоилгидразона.

Ключевые слова: ацетоацетанилид, *m*-нитробензоилгидразид, *m*-нитробензоилгидразон, TGA, DTA, DSC, термическая стабильность.

Thermal analysis of the m-nitrobenzoylhydrazone and the cu (ii) complex of acetoacethanilide

Abstract: This study discusses the synthesis of *m*-nitrobenzoylhydrazone of acetoacetanilide and the Cu(II) complex compound obtained on its basis, as well as their thermal properties investigated by TGA, DTA, and DSC methods. According to the results of thermogravimetric analysis, the decomposition stages of the compounds and their thermal stability were determined. Based on TGA data, the decomposition steps of the substances were identified; DTA results revealed endothermic and exothermic processes; and DSC analysis allowed the evaluation of the formation energies of the complex compound. The findings provide an opportunity to comprehensively study the thermal properties of the Cu(II) complex synthesized from *m*-nitrobenzoylhydrazone.

Key words: acetoacetanilide, *m*-nitrobenzoylhydrazide, *m*-nitrobenzoylhydrazone, TGA, DTA, DSC, thermal stability.

METAN KISLOTA VA BUTIN-2-DIOL-1,4 LARNING O'ZARO TASIRLASHUVI NATIJASIDA BUTIN-2-DIOL-1,4 DIFORMIAT HOSIL BO'LISHI REAKSIYASI ENERGIYASINI GAUSSIAN DASTURINING DFT BLYP 6-31G BAZIS TO'PLAMI YORDAMIDA TAHLIL QILISH

Nizamov I. G'.

Nizomiy nomidagi O'zMPU Kimyo kafedrasida o'qituvchisi,

Kvant kimyo hisoblash usullarining rivojlanishi va kuchli kompyuter vositalarining paydo bo'lishi murakkab organik birikmalarning ba'zi muhim xususiyatlarini hisoblash imkonini berdi. Bunday hisob-kitoblarning aniqligi va ishonchlilik juda yuqori darajada. Shu sababli, kvant-kimyoviy va molekulyar dinamika hisoblashlari hozirda fizik-kimyoviy tadqiqot usullaridan biri sifatida foydalanilmoqda — bu usullar turli organik birikmalar hosil bo'lish mexanizmlaridagi qonuniyatlarni aniqlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olishga yordam beradi [8; 28–39]


Bugungi kunda jahonda farmatsevtika, to'qimachilik, mashinasozlik va lok-bo'yoq sanoatida keng masshtabda qo'llaniladigan organik preparatlarga bo'lgan qiziqish tobora kuchayib bormoqda. Natijada yuqori ehtiyojga ega organik moddalar va materiallar ishlab chiqarish yildan yilga ortib bormoqda, bu esa nozik organik sintez asosida yangi avlod organik moddalar olish, ularning qo'llanish sohasini keng ko'lamda o'rganishni taqozo qilmoqda [2, 43-49; 3, 763-768]. Bular qatorida atsetilen birikmalari asosida fungitsidlar, demulgatorlar va ingibitorlar sintez qilish usullarini aniqlash, jarayonlar borishi va mahsulot unumiga turli omillarning ta'sirini o'rganish, yangi katalitik sistemalarni

qo'llash, ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish, ularning fizik-kimyoviy, farmakologik va biologik xossalari o'rganish, tarkibi va tuzilishini aniqlash, xususiylar va kvant-kimyoviy tavsiflari, texnik shartlari va talablarini ishlab chiqish bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar bajarilmoqda [4].

Hozirgi vaqtda kvant kimyo hisoblash usullari katta darajada rivojlangan bo'lib, buning natijasida turli reagentlar va mahsulotlar molekularining geometriyasini, shuningdek, kimyoviy reaksiyalardagi oraliq mahsulotlar va o'tish holatlarining barqarorlik darajasini hisoblash imkoniyati paydo bo'lgan [5; 6; 85-90]

Bunday ma'lumotlarni turli reaksiyalar uchun tajribaviy yo'l bilan olish murakkab — bu jarayonlarning ko'p bosqichli bo'lishi, elementar bosqichlarning bir vaqtda sodir bo'lishi va oraliq mahsulotlarning yashash muddati nihoyatda qisqa bo'lishi bilan bog'liq [7; 2–14 b. 8; 1454–1465 b.]

Butin-2-diol-1,4 mo'l miqdordagi formiat kislotasi bilan o'zaro tasirlashganda butin-2-diol-1,4 diformiat hosil bo'ladi. Ushbu jarayonning reaksiya mexanizmi quyidagicha boradi.



Ushbu kimyoviy jarayon uchun ishlatilgan moddalar va reaksiya natijasida hosil bo'lgan butin-2-diol-1,4 molekularining energetik tahlili qilindi.

Molekularning energetik tahlili

Title Card Required		
C:/G09W/Scratch/GQL_224a/t_y8t.chk		
File Type	.chk	
Calculation Type	FOPT	
Calculation Method	RB3LYP	
Basis Set	6-31G	
Charge	0	
Spin	Singlet	
Solvation	None	
Electronic Energy	-228.994385	Hartree
RMS Gradient Norm	0.000008	Hartree/Bohr
Imaginary Freq		
Dipole Moment	4.835665	Debye
Point Group		

a

Title Card Required		
C:/G09W/Scratch/GQL_223a/t_b1i.chk		
File Type	.chk	
Calculation Type	FOPT	
Calculation Method	RB3LYP	
Basis Set	6-31G	
Charge	0	
Spin	Singlet	
Solvation	None	
Electronic Energy	-306.288924	Hartree
RMS Gradient Norm	0.000020	Hartree/Bohr
Imaginary Freq		
Dipole Moment	2.635249	Debye
Point Group		

b

Title Card Required		
C:/G09W/Scratch/GQL_223a/t_rqi.chk		
File Type	.chk	
Calculation Type	FOPT	
Calculation Method	RB3LYP	
Basis Set	6-31G	
Charge	0	
Spin	Singlet	
Solvation	None	
Electronic Energy	-611.525406	Hartree
RMS Gradient Norm	0.000003	Hartree/Bohr
Imaginary Freq		
Dipole Moment	1.231840	Debye
Point Group		

c

1-Rasm.a) metan kislotasi b) butin-2-diol-1,4 c) butin-2-diol-1,4 diformiat strukturalarining optimallashtirilgan summary

Energetik tahlil

Molekula (metan kislotasi):

Elektron energiya: -228.994385 Hartree Dipol moment: 4.835665 Debye

Molekula (butin-2-diol-1,4):

Elektron energiya: -306.288924 Hartree Dipol moment: 2.635249 Debye

Mahsulot molekulasini (butin-2-diol-1,4 diformiat):

Elektron energiya: -611.525406 Hartree Dipol moment: 1.231840 Debye

Tahlil va Solishtirish

Energiyalarning kamayish tartibi va (b) ning umumiy energiyasi ($a + b \approx -535.28$ Hartree)

Mahsulot (c) esa -611.52 Hartree, ya'ni ancha past.

Bu shuni anglatadiki, reaksiya natijasida energiya kamaygan, ya'ni jarayon termodinamik jihatdan barqaror.

Dipol momentlar taqqoslash

- 4.835 Debye
- 2.635 Debye
- 1.231 Debye (reaksiya natijasida kamaygan)

Dipol momentning kamayishi molekulaning yanada simmetrik tuzilishga ega bo'lishini yoki qutblanishning kamayishini bildiradi.

ESP- Electrostatic Potential

Hisoblash kimyosida ESP (Electrostatic Potential), ya'ni elektrostatik potensial, molekuladagi har bir nuqtada elektrostatik maydonning kuchlanishini o'lchash yoki hisoblashga xizmat qiladi. Bu potensial molekulaning atomlari va elektronlari orasidagi elektrostatik o'zaro ta'sirlarni tasvirlaydi. ESP yordamida molekulaning turli qismlarida qaysi joylar musbat yoki manfiy zaryadlarni jalb qilishini tushunish mumkin.

ESP asosan quyidagi maqsadlar uchun qo'llanadi:

1. Zaryad taqsimotini tushunish: ESP xaritasi molekula bo'ylab qanday zaryad taqsimlanganini ko'rsatadi. Bu xarita orqali molekulaning qaysi qismi musbat, qaysi qismi manfiy zaryadlanganligini aniqlash mumkin.

2. Kimyoviy reaktivlikni baholash: ESP ma'lumotlari asosida molekulaning qanday joylari boshqa molekular bilan o'zaro ta'sir qilishi mumkinligi, ya'ni qaysi joylari elektrofil yoki nukleofil reaksiya markazlari ekanligini baholash mumkin. Musbat ESP qiymatlariga ega joylar odatda nukleofil, manfiy qiymatlar esa elektrofil hududlarni jalb qiladi.


3. Vodorod bog‘lanishlarini tahlil qilish: ESP xaritalari molekular orasidagi vodorod bog‘lanishlarini prognozlashda foydali bo‘ladi, chunki vodorod bog‘lanishlar odatda zaryadning taqsimlanishiga bog‘liq.

ESP natijalari ko‘pincha molekular ustida rangli xarita sifatida ko‘rsatiladi, bu ranglar turli zaryad taqsimotini ifodalaydi: - **Qizil rang:** Manfiy zaryad (elektronlar ko‘proq to‘plangan joylar).

- **Ko‘k rang:** Musbat zaryad (elektronlar kamroq bo‘lgan joylar).

- **Yashil yoki sariq ranglar:** Neytral hududlarni bildiradi.

Bunday vizualizatsiya molekularning reaksiya qobiliyatini va zaryad tarqalishini aniqlashda yordam beradi.



5-Rasm.a) metan kislota b) butin-2-diol-1,4 c) butin-2-diol-1,4 diformiat strukturalarining optimallashtirilgan ESP natijalari
ESP tahlili

• Ranglar ma‘nosi:

Qizil/oranj → Eng elektrmanfiy hududlar (ya‘ni kislorod atrofida elektron zichligi yuqori).

Ko‘k → Elektromusbat hududlar (ya‘ni proton yoki kam elektron zichlik joylari).

Yashil → O‘rtacha elektrostatik potensialga ega bo‘lgan neytral hududlar.

2. Molekularning elektrostatik potentsiali bo‘yicha tahlil

• (a) Metan kislota:

Kislorod atomlari atrofida qizil sohalar mavjud → Bu hududlar elektron yetishmovchiligi sababli elektron donorlari (nukleofil markazlar) bo‘lishi mumkin.

Proton (H) yaqinidagi sohalar ko‘k → Ushbu joylar elektron qabul qilishi mumkin (elektrofil markazlar).

• (b) Butin-2-diol-1,4:

Kislorod atrofida qizil hududlar → Bu yerlar ham elektron yetishmovchiligiga ega va potentsial nukleofil markaz sifatida harakat qilishi mumkin.

Molekulaning uglerod skeleti asosan yashil, bu esa molekulaning nisbatan neytral taqsimlangan elektron zichligiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

• (c) Butin-2-diol-1,4 diferomat (Mahsulot):

○ Elektron taqsimoti murakkablashgan, ko‘p joylarda qizil va ko‘k hududlar paydo bo‘lgan.

○ Kislorod atrofida qizil hududlar reaktiv markaz bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

○ Bu molekulada elektrostatik potentsialning keskin farqlari bor, bu esa reaksiya davomida qisman zaryadlar qayta taqsimlanganligini ko‘rsatadi.

3. ESP natijalariga ko‘ra reaksiya mexanizmi haqida xulosa

• Metan kislota va butin-2-diol-1,4 o‘zaro o‘zaro ta‘sirlashganda, elektron taqsimoti o‘zgaradi.


• Mahsulotda (c) elektrostatik potentsialning qayta taqsimlanishi reaktiv markazlarning o‘zgarishiga olib kelgan.

• Dastlabki reagentlar bilan taqqoslaganda, mahsulot elektrostatik taqsimlanish bo‘yicha ancha murakkab tuzilishga ega.

• Bu shuni anglatadiki, reaksiya davomida elektron zichligi o‘zgargan va yangi kimyoviy bog‘lar hosil bo‘lgan.

Bog‘ uzunli va zaryad qiymati

Bog‘ uzunligi ikki bog‘langan atomning yadro markazlari orasidagi masofani bildiradi. Bu molekulaning asosiy geometrik xususiyatlaridan biri bo‘lib, kimyoviy bog‘ning kuchini, stabilligini va molekularning umumiy shaklini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Molekulyar zaryad molekulaning umumiy elektr zaryadini bildiradi. Zaryad qiymati atomlar orasidagi elektron taqsimotiga bog‘liq va molekulaning kimyoviy va fizik xossalriga katta ta‘sir qiladi. Bog‘ uzunligi va zaryad molekulaning kimyoviy reaktivligi va barqarorligini tushunishda birgalikda ishlatiladi.



6-Rasm.a) метан kislota b) бутин-2-диол-1,4 c) бутин-2-диол-1,4 диформиат strukturalarining optimallashtirilgan bog' uzunligi va zaryad qiymatlari

Zaryad taqsimoti va bog' uzunliklari bo'yicha tahlil

(a) Metan kislota

- Kislород atomlari (-0.378 va -0.544) manfiy qism bo'lib, ularda elektron zichligi yuqori.
- Vodorod atomlari (musbat qiymatlar) elektrophil markazlar sifatida harakat qiladi.
- C=O bog'i 1.224 Å, bu tipik karbonil bog'i uzunligiga mos keladi.

(b) Бутин-2-диол-1,4

• Kislород atomlarida manfiy zaryadlar (-0.595) mavjud, bu ularga elektron donorlari sifatida harakat qilish imkonini beradi.

• Uglerodlar orasidagi bog' uzunliklari 1.214–1.463 Å oralig'ida, bu esa birikmada bog'larning delokalizatsiya holatini ko'rsatishi mumkin.

• Kislород va vodorod bog'lari 1.462 Å → bu sp³-hibridlangan alkogol guruhiga mos keladi.

(c) Бутин-2-диол-1,4 диферомат (Махsulot)

- Kislородlar orasidagi elektron taqsimoti sezilarli darajada o'zgargan (manfiy zaryad -0.403 atrofida).
- Uglerod bog' uzunliklari ham o'zgarib, molekula yanada delokalizatsiyalangan bo'lishi mumkin.
- Bog' uzunliklari va zaryadlar o'zgarishi mahsulotda yangi funksional guruhlar hosil bo'lganini ko'rsatadi.

2. Tahlildan kelib chiqadigan xulosa

• Reaksiya jarayonida kislород va uglerod atomlari atrofida zaryad taqsimoti o'zgaradi.

• Махsulot hosil bo'lganda yangi kimyoviy bog'lar va taqsimot naqshlari shakllanadi, bu esa reaksiyaning tabiiy yo'nalishini ko'rsatadi.

• Birinchi bosqichda (a va b) elektron zichligi nisbatan aniq taqsimlangan bo'lsa, oxirgi bosqichda (c) bu taqsimot murakkablashgan.

1. Reaksiya termodinamik jihatdan barqaror, chunki yakuniy mahsulotning energetik darajasi juda past.

2. Dipol moment kamaygan, bu esa mahsulotning elektrostatik xarakteri o'zgarishini ko'rsatadi.

3. Ushbu hisoblar asosida (a) va (b) boshlang'ich reagentlar bo'lib, (c) esa ularning birikishidan hosil bo'lgan mahsulot deb xulosa qilish mumkin.

4. ESP natijalari reaksiya jarayonida elektronlarning qanday taqsimlanganini va qanday o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatadi. Махsulot (c) hosil bo'lganda, elektron taqsimoti o'zgargan va yangi funksional guruhlar hosil bo'lgan, bu esa molekulaning xossalriga ta'sir qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Фурсова П. В., Левич А. П. Математическое моделирование химических процессов. Проблемы окружающей среды (обзорная информация ВИНТИ). – Самара. – 2002. – № 9. – С. 28–39. URL: https://dis.bio.msu.ru/States/Fursova_Levich_2002.pdf
2. Cuibo Liu, Zhongxin Chen, Shibo Xi, Kian Ping Loh, Huan Yan, Ming Joo Koh The Nazarov cyclization // Synform, 2020. pp. 43–49. URL: <https://www.thieme-connect.com/products/ejournals/pdf/10.1055/s-0039-1691159.pdf>
3. d'Amboise M., Mathieu D., Piron D. L. A chemical study of 2-butyne-1, 4-diol // Talanta. – 1988. – Т. 35. – №. 10. – С. 763–768. URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/0039914088801802>
4. Turg'unov, E., Nizamov, I., & Sodiqov, M. (2023). BUTIN-2-DIOL-1, 4 OLINISHI VA UNING XOSSALARI. *Theoretical and experimental chemistry and modern problems of chemical technology*, 1(01). URL: <https://ojs.qarshidu.uz/index.php/ch/article/view/63>
5. Yusupova Lola A., Nurmanov Suvon E. QUANTUM-CHEMICAL CALCULATIONS AND MATHEMATICAL MODELATION OF SYNTHESIS OF ACETYLENICAL DIOLS // Austrian Journal of Technical and Natural Sciences. – С. 66–74. URL: <https://elibrary.ru/item.asp?id=32655423>
6. Степанов Н. Ф. Квантовая механика и квантовая химия. – М. – 2001. – С. 128–139. URL: <https://elibrary.ru/item.asp?id=41245757>
7. Yandex. Direct. Исследование возбужденных состояний органических соединений. Авт. Эллингджер М. Ю. – Казань. – 2008.
8. Кнунянс И. Л., Бояринов А. Д. Математическое моделирование. Химическая энциклопедия. – М. – 2008. – Т. 3.
9. Содиков, М. К., Хужаназарова, С. Р. К., & Тургунов, Э. (2021). СИНТЕЗ ПРОСТЫХ И СЛОЖНЫХ ЭФИРОВ АЦЕТИЛЕНОВЫХ СПИРТОВ. *Universum: химия и биология*, (7-1 (85)), 85–90. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sintez-prostyh-i-slozhnyh-efirov-atsetilenovyh-spirov>
10. Umrzoqov, A. T., Muxiddinov, B. F., Vapoyev, H. M., & Nurmonov, S. E. (2018). Synthesis of butyne-2-diol-1, 4 using heterogeneous-catalytical method. *CHEMISTRY AND CHEMICAL ENGINEERING*, 2018(3), 10.
11. Hort, E. V., & Taylor, P. (2000). Acetylene-derived chemicals. *Kirk-Othmer Encyclopedia of Chemical Technology*.
12. Hellwig J., Beth M., Klimisch H. J. Developmental toxicity of 2-buten-1, 4-diol following oral administration to the rat // Toxicology letters. – 1997. – Т. 92. – №. 3. – С. 221–230.

Аннотатсия. Tadqiqotning asosiy maqsadi atsetilen diollarining to'yingan bir asosli karbon kislotalar bilan tasirlashuv jarayonlarini va hosil bo'lish energiyalarini, moddalarning struktura formulalarini, bog' uzunliklari va zaryad taqsimotlarini zamonaviy kompyuter dasturlari yordamida tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqolada Gaussian dasturining DFT BLYP 6-31G bazis to'plami yordamida metan kislota va бутин-2-диол-1,4 larning o'zaro eterifikatsiya reaksiyasi natijasida hosil bo'lgan бутин-2-диол-1,4 diformiatning hosil bo'lish energiyasi tahlil qilingan.

Аннотация. Основная цель исследования-анализ процессов взаимодействия ацетилендиолов с насыщенными одноосновными карбоновыми кислотами и энергий образования, структурных формул веществ, длин связей и распределения зарядов с помощью современных компьютерных программ. основная цель исследования-анализ процессов взаимодействия ацетилендиолов с насыщенными одноосновными карбоновыми кислотами и энергий образования, структурных формул веществ, длин связей и распределения зарядов с помощью современных компьютерных программ. В этой статье анализируется Энергия образования Бутин-2-диол-1,4 диформиата, образующегося в результате реакции

перекрестной этерификации метановой кислоты и Бутин-2-Диола-1,4 с использованием базового набора DFT BLYP 6-31g программы Гаусса.

Annotation. The main purpose of the study is to analyze the processes of interaction of acetylene diols with saturated one-base carbonic acids and the energy of formation, structural formulas of substances, garden lengths and charge distributions using modern computer programs. The main purpose of the study is to analyze the processes of interaction of acetylene diols with saturated one-base carbonic acids and the energy of formation, structural formulas of substances, garden lengths and charge distributions using modern computer programs. This article analyzes the energy of formation of the Butine-2-diol-1,4 diformiate formed by the cross-etherification reaction of methanic acid and Butine-2-diol-1,4s using the DFT BLYP 6-31g base set of the Gaussian program.

Kalit so'zlar: atsetilen, butin-2-diol-1,4, metan kislota, butin-2-diol-1,4 diformiat, organik sintez.

Ключевые слова: ацетилен, Бутин-2-диол-1,4, метановая кислота, Бутин-2-диол-1,4 диформиат, органический синтез.

Key words: acetylene, Butine-2-diol-1,4, methanic acid, Butine-2-diol-1,4 diformiate, organic synthesis.

UDC: 546.562;547.751;547.298.1;54.057;54.062;548.75

ORCID ID 0009-0003-7678-0330

MIS(II) IONINING, GETEROAUKSIN VA ATSETAMID BILAN KOORDINATSION BIRIKMASI SINTEZI HAMDA TADQIQOTI

Ismailova Sh. A.

Xorazm Ma'mun akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi

KIRISH. Hozirgi zamon koordinatsion kimyosining dolzarb yo'nalishlaridan biri — tarkibida biologik faol ligantlar saqlovchi metallokomplekslar sintezi va ularning xossalari o'rganishdan iborat. Ayniqsa, o'tish metallari, xususan mis (II) ionlarining koordinatsion birikmalari o'simliklar fiziologiyasi va biokimyoviy jarayonlarda muhim rol o'ynashi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Mis ko'plab fermentlar tarkibiga kiruvchi va fotosintez hamda nafas olish jarayonlarini faollashtiruvchi muhim mikroelement hisoblanadi.


Indol-3-sirka kislotasi (geteroauksin) tabiatda eng keng tarqalgan fitogormon bo'lib, o'simlik hujayralarining bo'linishi, cho'zilishi va ildiz otish tizimining rivojlanishini tartibga soladi. Biroq, sof holdagi ushbu kislota tashqi muhit ta'siriga (yorug'lik, harorat) nisbatan ancha beqarordir. Uni metall ionlari bilan koordinatsion birikmalar holiga o'tkazish nafaqat kislotaning barqarorligini oshiradi, balki metall va ligantning sinergik ta'siri natijasida yuqori biologik faollikka ega bo'lgan yangi moddalarni olish imkonini beradi. Amidlar, xususan atsetamid, donorlik xossasi yuqori bo'lgan ligantlar sirasiga kirib, metall komplekslarining suvda eruvchanligini va o'simlik to'qimalariga singish qobiliyatini yaxshilaydi. Aralash ligantli komplekslarda indol-3-sirka kislotasi va atsetamidning birgalikda koordinatsiyalanishi markaziy ion atrofida o'ziga xos elektron va geometrik muhit yaratadi.

Ushbu tadqiqot ishining maqsadi, mis (II) xlorid tuzining indol-3-sirka kislotasi va atsetamid bilan yangi koordinatsion birikmalarini sintez qilish, ularning tarkibi, tuzilishi va fizik-kimyoviy xususiyatlarini zamonaviy usullar yordamida tadqiq etishdan iborat. Olingan natijalar kelajakda qishloq xo'jaligida samarali stimulyatorlar va mikroo'g'itlar yaratish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.


ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Geteroauksin (indol-3-sirka kislotasi, ISK) o'simliklar fiziologiyasida markaziy o'rinni egallab, hujayralar bo'linishi va differensiallanishini boshqaruvchi asosiy auksin hisoblanadi [4]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ISK nafaqat o'simliklarda, balki ayrim mikroorganizmlar, xususan, *Escherichia coli* tomonidan ham triptofan parchalanishi natijasida sintezlanishi mumkin [5]. So'nggi yillarda ISKning tibbiy-biologik ahamiyati ortib bormoqda. Xususan, uning antioksidantlik xususiyati, erkin radikallarni neytrallash va yallig'lanishga qarshi ta'siri uni farmatsevtika uchun istiqbolli ligandga aylantirmoqda [1]. Biroq, ISKning qo'llanilishida uning barqarorligi muammo bo'lib qolmoqda. Ma'lumki, ISK vodorod peroksid va peroksidaza fermentlari ta'sirida tezda oksidlanib, o'z biologik faolligini yo'qotadi [2]. Shuningdek, ayrim bakteriyalar (masalan, *Caballeronia glathei*) tarkibidagi maxsus fermentlar ISKni uglerod va energiya manbai sifatida parchalab yuborish xususiyatiga ega [3]. Ushbu muammolarni bartaraf etishning samarali usullaridan biri — ISKni metall ionlari, xususan, mis (II) bilan kompleks birikmalar holatiga o'tkazishdir. Mis ionlari bilan hosil qilingan koordinatsion birikmalar ligandning (ISK) oksidlanishga chidamliligini oshiradi va uning hujayra membranalaridan o'tish qobiliyatini yaxshilaydi [1, 4]. Atsetamid (AA) va uning hosilalari zamonaviy koordinatsion kimyoda muhim o'rin tutadi, chunki ular d-metallar bilan turlicha tarkib va tuzilishga ega bo'lgan kompleks birikmalar hosil qilish qobiliyatiga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, atsetamid va tiosemikarbazid asosidagi aralash ligandli komplekslar "tarkib-tuzilish-xossa" qonuniyatlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Co(II), Ni(II) va Cu(II) tuzlarining atsetamid va tiosemikarbazid bilan hosil qilgan birikmalarida metall ionlari atsetamidning kislorod atomi orqali koordinatsiyalanishi aniqlangan [6]. Bundan tashqari, atsetamidning metal suksinatlar bilan o'zaro ta'siri ham o'rganilgan. Suvli muhitda bu birikmalarni sintez qilish qiyin bo'lganligi sababli, mexanokimyoviy usuldan foydalanilgan, bu esa qisqa vaqt ichida yuqori unum bilan turli tarkibli komplekslar olish imkonini beradi. Masalan, Co(II), Ni(II), Cu(II) va Zn(II) suksinatlarining atsetamid bilan komplekslari olingan bo'lib, ularning termik barqarorligi va IQ-spektroskopik xossalari tahlil qilingan [7]. Oxirgi yillarda atsetamidning atsetilatseton (AcAc) kabi boshqa kislorod saqlovchi ligandlar bilan birgalikda xrom (III) tuzlari bilan hosil qilgan geteroligandli birikmalarini o'rganishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Bunday komplekslar nafaqat nazariy jihatdan, balki tibbiyot, analitik kimyo va korroziya ingibitorlari ishlab chiqarish kabi amaliy sohalarida ham keng qo'llaniladi. Aralash ligandli komplekslarda metallarning koordinatsion soni odatda 6 ga teng bo'lib, ligandlar dentatligi 6 dan kam bo'ladi [8].

Mis(II) xlorid tuzining, indol-3-sirka kislotasi va atsetamid bilan aralash ligandli koordinatsion birikmasi quyidagi usulda sintez qilindi. Dastlab, 0,01 mol (1,75g) indol-3-sirka kislotasi (IAA) 50 ml etanol erituvchisida eritildi. Hosil bo'lgan eritmada ligandning karboksil guruhi deprotonlanishini ta'minlash maqsadida unga 0,01 mol natriy gidroksid (NaOH) qo'shildi. Alohida stakanda 0,005 mol (0,85 g) mis(II) xlorid dihidrat ($\text{CuCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$) 20 ml distillangan suvda to'liq eritildi. Metall tuzi eritmasi indol-3-sirka kislotasi eritmasiga doimiy aralashtirish sharoitida tomchilab qo'shildi. Shundan so'ng, aralashmaga 0,01mol (0,59g) atsetamid(AA) qo'shilib, reaksiya muhitining bir jinsiligi ta'minlandi. Reaksiya aralashmasi 50–60 °C haroratda 2 soat davomida magnitli aralashtirgich yordamida uzluksiz aralashtirildi [9]. Reaksiya yakunida to'q yashil rangli cho'kma hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan cho'kma filtrlash yo'li bilan ajratib olindi, distillangan suv va etanol bilan bir necha marotaba yuvildi hamda vakuumli quritgichda (P_2O_5 ustida) doimiy massa hosil bo'lguncha quritildi [10,11].

Sintez jarayoni natijasida to'q yashil rangli kristall kukun olindi. Sintez reaksiyasining umumiy unumdorligi 85 % ni tashkil etdi, bu esa tanlangan sintez usulining yuqori samaradorligini tasdiqlaydi. Kompleks birikmaning tarkibini o'rganish orqali, uni $[\text{Cu}(\text{IAA})_2(\text{AA})_2(\text{H}_2\text{O})_2]$ ushbu formulaga mos ekanligini aytish mumkin [12]. Reaksiya tenglamasini quyidagicha ifodalash mumkin.



1-rasm. $[\text{Cu}(\text{IAA})_2(\text{AA})_2(\text{H}_2\text{O})_2]$ kompleks birikmasining sintez reaksiyasi




Bu tenglama shuni bildiradi: 2 ta HIAA → 2 ta IAA^- ga aylanadi (2 mol NaOH hisobiga)

Cl^- ionlari Na^+ bilan NaCl bo'lib chiqib ketadi. kompleks ichida 2 ta H_2O koordinatsion suv sifatida qoladi.


NATIJARLAR VA MUHOKAMA. $[\text{Cu}(\text{IAA})_2(\text{AA})_2(\text{H}_2\text{O})_2]$ kompleks birikma tarkibi element analizi [13], IQ-spektroskopiya, termik analiz (DSK) metodlari yordamida o'rganildi. Kompleks birikma tarkibini tahlil qilish orqali – barqarorlik konstantasi va biologik ta'sir mexanizmlari ham laboratoriya sharoitida o'rganildi.

1-jadval. Ligand va sintez qilingan kompleks birikmalarning tavsifi


Modda	Rangi	Unum %	Erish harorati °C	Elementar tarkib (%)			Brutto formulasi
				C	N	M	
Geteroauksin(IAA)	Rangsiz	-	168-170	68,56	8,01	-	$\text{C}_{10}\text{H}_9\text{NO}_2$
Atsetamid(AA)	Rangsiz	-	81-83	40,68	23,72	-	$\text{C}_2\text{H}_5\text{NO}$
$[\text{Cu}(\text{IAA})_2(\text{AA})_2]$	To'q-qyashil rang	75	235-240	54,39	10,57	12,1	$\text{C}_{24}\text{H}_{26}\text{N}_4\text{O}_6\text{Cu}$
$[\text{Cu}(\text{IAA})_2(\text{AA})_2(\text{H}_2\text{O})_2]$	To'q-qyashil rang	85	199-201	50,92	9,92	11,23	$\text{C}_{24}\text{H}_{30}\text{N}_4\text{O}_8\text{Cu}$



2-rasm. Geteroauksinning IQ-spektroskopiya tasviri



3-rasm. Atsetamidning IQ-spektroskopiya tasviri



4-rasm. $[\text{Cu}(\text{IAA})_2(\text{AA})_2(\text{H}_2\text{O})_2]$ kompleks birikmasining IQ-spektroskopiya tasviri

Geteroauksinning IQ-spektri $4000\text{--}400\text{ sm}^{-1}$ sohada qayd etilgan bo'lib, unda moddaning funksional guruhlariga xos bo'lgan bir qator xarakterli yutilish cho'qqilari kuzatiladi. Spektarning yuqori chastotali sohasida $3400\text{--}3300\text{ sm}^{-1}$ oralig'ida keng va intensiv yutilish chizig'i paydo bo'lishi --NH (indol halqasi) hamda --OH (karboksil guruhi) valent tebranishlariga mos keladi. Ushbu cho'qqining kengligi molekulararo vodorod bog'lanishlarining mavjudligini ko'rsatadi. $3000\text{--}2850\text{ sm}^{-1}$ sohada kuzatiladigan nisbatan kuchsiz cho'qqilar alifatik $\text{--CH}_2\text{--}$ va aromatik C--H bog'larining valent tebranishlari bilan izohlanadi. Bu holat indol yadrosi va sirka kislota zanjirining mavjudligini tasdiqlaydi. Spektarning eng muhim qismlaridan biri $1720\text{--}1700\text{ sm}^{-1}$ atrofida joylashgan kuchli cho'qqi bo'lib, u karboksil guruhidagi C=O bog'ining valent tebranishiga tegishlidir. Ushbu cho'qqi geteroauksinning kislota tabiatga ega ekanligini ko'rsatadi va aynan shu karbonil kislorodi metall ionlari bilan koordinatsiyalanishga yuqori moyillik namoyon etadi. $1620\text{--}1580\text{ sm}^{-1}$ sohada kuzatilgan cho'qqilar indol halqasidagi C=C va C=N bog'larining valent tebranishlariga mos keladi. Bu signal indol yadrosining saqlanib qolganligini va π -elektron tizim mavjudligini ko'rsatadi. Indol halqasidagi azot atomi esa ma'lum sharoitlarda zaif donor markaz sifatida koordinatsion jarayonda ishtirok etishi mumkin. $1450\text{--}1380\text{ sm}^{-1}$ oralig'idagi yutilishlar $\text{--CH}_2\text{--}$ deformatsion tebranishlari hamda karboksilat guruhining ichki tebranishlariga taalluqlidir. $1300\text{--}1200\text{ sm}^{-1}$ sohada esa C--O bog'ining valent tebranishlari aniqlanadi, bu esa karboksil guruhining mavjudligini yana bir bor tasdiqlaydi. Past chastotali $900\text{--}700\text{ sm}^{-1}$ sohada aromatik halqaga xos C--H tekislikdan tashqari deformatsion tebranishlar kuzatiladi. Bu cho'qqilar indol skeletining strukturaviy barqarorligini ko'rsatadi. Atsetamid molekulasining IQ-spektri $4000\text{--}400\text{ sm}^{-1}$ diapazonda o'rganildi va unda amid guruhiga xos bo'lgan xarakterli yutilish cho'qqilari aniq qayd etildi.

$3375,43\text{ sm}^{-1}$ va $3207,62\text{ sm}^{-1}$: Bu cho'qqilar birlamchi amidlardagi --NH_2 guruhining valent tebranishlariga mos keladi. Ikkita cho'qqining mavjudligi simmetrik va asimmetrik tebranishlar sodir bo'layotganini bildiradi.

Bu sohadagi cho'qqilarning kengligi molekulararo vodorod bog'lanishlari mavjudligidan dalolat beradi. $1712,79\text{ sm}^{-1}$: Bu karbonil guruhining (C=O) valent tebranishidir. Atsetamid kabi amidlarda bu chiziq odatda "Amid I" deb ataladi. Spektdda bu cho'qqining juda intensiv (baland) ekanligi bog'ning yuqori qutblanganligini ko'rsatadi. $1651,07\text{ sm}^{-1}$ va $1620,21\text{ sm}^{-1}$: Bu sohadagi cho'qqilar N--H guruhining tekislikdagi deformatsion tebranishlari (qaychi simon tebranishlar) bilan bog'liq. Ular ko'pincha "Amid II" chizig'i deb yuritiladi. $2818,00\text{ sm}^{-1}$ va uning atrofidagi kichik cho'qqilar: Bu metil (--CH_3) guruhidagi C--H bog'larining valent tebranishlaridir. $1359,82\text{ sm}^{-1}$: Metil guruhining deformatsion tebranishlari hisoblanadi. Atsetamidda va Geteroauksinda: Erkin holatda C=O valent tebranishi taxminan 1712 sm^{-1} sohasida namoyon bo'lgan. Kompleks birikma spektrida bu cho'qqi 1705 sm^{-1} gacha pasayganini ko'rish mumkin. Bu karbonil guruhidagi kislorod atomining mis Cu^{2+} ionlari bilan koordinatsion bog' hosil qilganligidan dalolat

beradi, natijada bog' tartibi kamayadi va chastota pastga siljiydi. Geteroauksin tarkibidagi kislota guruhi kompleks hosil bo'lishida ionlashgan holatga o'tadi: Geteroauksinning o'zida kislota guruhiga xos 1712 cm^{-1} dagi cho'qqi kompleksda asimmetrik Vas(COO-) va simmetrik V(sim)(COO-) tebranishlariga ajraladi [14]. Spekrda $1600\text{--}1400\text{ cm}^{-1}$ sohasida paydo bo'lgan yangi intensiv cho'qqilar kislota guruhining mis ioni bilan monodentat usulda bog'langanligini ko'rsatadi. Kompleks spektrining yuqori chastotali sohasida ($3400\text{--}3200\text{ cm}^{-1}$) kuzatiladigan keng va kuchli yutilish polosalari tarkibidagi koordinatsion bog'langan suv molekulari (H_2O) mavjudligini isbotlaydi. Bu suv molekulari kompleksning ichki sferasiga kirib, mis atrofida oktaedrik muhit hosil qiladi [15].

XULOSA. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida, mis(II) xlorid tuzi asosida geteroauksin (IAA) va atsetamid (AA) ligandlari ishtirokida yangi aralash ligandli koordinatsion birikma — $[\text{Cu}(\text{IAA})_2(\text{AA})_2(\text{H}_2\text{O})_2]$ sintez qilindi. IQ-spektroskopik tahlil natijalari kompleks birikmaning tuzilishini ishonchli tarzda tasdiqladi. Erkin ligandlarda $1712,79\text{ cm}^{-1}$ sohada kuzatilgan karbonil guruhining valent tebranishlari kompleks hosil bo'lganda $1705,07\text{ cm}^{-1}$ gacha past chastotalarga siljishi, geteroauksin va atsetamid molekularining markaziy Cu^{2+} ioni bilan aynan karbonil kislodlari orqali koordinatsiyalanganini ko'rsatdi. Indol halqasidagi N–H tebranishlarining deyarli o'zgarmasligi koordinatsiyada azot atomining ishtirok etmaganini tasdiqlaydi. Shuningdek, $3400\text{--}3200\text{ cm}^{-1}$ sohadagi keng yutilish polosalari kompleks tarkibida suv molekulari mavjudligini va ularning barqaror vodorod bog'lari hosil qilayotganini ko'rsatadi. Olingan natijalarga ko'ra, mis ioni atrofida oltita donor atom ishtirokida oktaedrik geometriyaga ega barqaror koordinatsion muhit shakllangan. Sintez qilingan ushbu kompleks birikma tarkibida mikroelement sifatida mis saqlashi va geteroauksin ligandining biologik faolligi tufayli qishloq xo'jaligida o'simliklar o'sishini rag'batlantiruvchi istiqbolli bioaktiv modda sifatida qo'llanish imkoniyatiga ega.

ADABIYOTLAR

1. Arabova L. I., Chumikina L. V., Arabov R. I., Topunov A. F. Indolyl-3-Acetic Acid for Medical Use (Review) // *Applied Biochemistry and Microbiology*. – 2024. – Vol. 60, No. 6. – PP. 993–1009.
2. Goldacre P. L. Hydrogen Peroxide in the Enzymic Oxidation of Heteroauxin // *Australian Journal of Scientific Research. Series B: Biological Sciences*. – 1951. – Vol. 4, No. 3. – PP. 293–302.
3. Sadauskas M., Statkeviciūtė R., Vaitekūnas J., Meškys R. Bioconversion of Biologically Active Indole Derivatives with Indole-3-Acetic Acid-Degrading Enzymes from *Caballeronia glathei* DSM50014 // *Biomolecules*. – 2020. – Vol. 10, No. 4. – Art. 663.
4. Ma Q., Grönes P., Robert S. Auxin signaling: a big question to be addressed by small molecules // *Journal of Experimental Botany*. – 2018. – Vol. 69, No. 2. – PP. 313–328.
5. Ball E. Heteroauxin and the Growth of *Escherichia coli* // *Journal of Bacteriology*. – 1938. – Vol. 36, No. 5. – PP. 559–565.
6. Нуралиева Г.А., Пиримова М.А. Исследование смешанно лигандных соединений с d-металлами ацетамида и тиосемикарбазида // *Universum: химия и биология*. – Москва, 2020. – № 2 (68). – С. 57–61.
7. Мукимова Г.Ж., Аллабердиев Ф.Х., Каримов А.Д., Зарипова Р.Ш. Синтез и свойства координационных соединений Cu (II), Ni (II), Co (II) и Zn (II) ацетамида // *Universum: химия и биология*. – Москва, 2019. – № 6 (60). – С. 66–70.
8. Султонова С.Ф. Синтез смешанных гетеролигандных соединений ацетамида и ацетилацетона с хромом // *Universum: химия и биология*. – Москва, 2022. – № 12 (102). – С. 46–50.
9. Мукимова Г.Ж. Синтез и исследование координационных соединений сукцинатов некоторых 3d-металлов с амидами: Автореф. дис ... канд. хим. наук. – Ташкент, 1999. – С. 35–38.
10. Sharipova L.A., Azizov T.A., Ibragimova M.R. Acetamide and nicotinic acid of monotype ligand coordination compounds of zinc nitrate // *Universum: chemistry and biology*, - Moskva, 2021. №5 (83).- P. 45–49.
11. Ж.У. Туракулов, Т.А. Азизов. Синтез и исследование координационных соединений ацетата кальция с ацетамидом. //Научный журнал. *Universum: Химия и биология*. №9 (51). Москва, 2018. С.18–24.
12. Харитонов Ю.А., Цивадзе А.Ю., Смирнов А.Н. Анализ нормальных колебаний координированного ацета мида // *Коорд. химия*. – 1975. – Т.1. – № 2. – С. 214–219.
13. Fadeeva, V. P., Tikhova, V. D., Nikulicheva, O. N. Elemental analysis of organic compounds with the use of automated CHNS analyzers // *Journal of Analytical Chemistry*. – 2008. – Vol. 63, No. 11. – P. 1094–1106.
14. Nakamoto K. IR and Raman spectra of inorganic and coordination compounds. - Moscow: Mir, 1991.- P. 536.
15. Sharipova L.A., Azizov T.A., Ibragimova M.R. Analysis of IR spectra of various coordination compounds of zinc nitrate with amides. Current status and prospects of the science of functional polymers. Tashkent.- March 19-20, 2020. - P. 384.

Annotatsiya. Ushbu maqola mis(II) xlorid tuzining indol-3-sirka kislotasi va atsetamid bilan hosil qilgan koordinatsion birikmalarini sintez qilish, ularning fizik-kimyoviy xossalari hamda tuzilish xususiyatlarini tadqiq etishga bag'ishlangan. Tadqiqotda biologik faol ligand sifatida indol-3-sirka kislotasi hamda neytral donor ligand sifatida atsetamid tanlab olinib, ularning Cu(II) ioni bilan koordinatsiyalanish xususiyatlari o'rganildi. Sintez jarayonlari suv-spirtli muhitda, muhitning pH qiymati nazorat qilingan holda olib borildi.

Kalit so'zlar: mis(II) xlorid, indol-3-sirka kislotasi, atsetamid, koordinatsion birikmalar, sintez.

Аннотация. В данной статье рассматриваются координационные соединения, полученные путем синтеза хлорида мис(II) с индол-3-карбоновой кислотой и ацетамидом, а также исследуются их физико-химические свойства и структурно-химические особенности. В ходе исследования были выбраны индол-3-карбоновая кислота в качестве биологически активного лиганда и ацетамид в качестве нейтрального донорного лиганда, а также изучены особенности их координации с ионами Cu(II). Процессы синтеза проводились в водной среде при контролируемом значении pH.

Ключевые слова: хлорид мис(II), индол-3-карбоновая кислота, ацетамид, координационные соединения, синтез.

Abstract. This article discusses coordination compounds obtained by synthesizing mis(II) chloride with indole-3-carboxylic acid and acetamide, and examines their physicochemical properties and structural and chemical characteristics. During the study, indole-3-carboxylic acid was selected as a biologically active ligand and acetamide as a neutral donor ligand, and the features of their coordination with Cu(II) ions were studied. The synthesis processes were carried out in an aqueous medium at a controlled pH value.

Key words: mis(II) chloride, indole-3-carboxylic acid, acetamide, coordination compounds, synthesis.

POLIETILEN KOMPOZITLARNING ANTIPIRENLAR BILAN MODIFIKATSIYALANISHI VA ULARNING YONUVCHANLIK GURUHINI PASAYTIRISH MEXANIZMLARI

Esanov R. R., To'rayev X.X., Tojiyev P.J., Bozorov L. U.

Termiz davlat pedagogika instituti, tadqiqotchi

Polimer qurilish materiallarining yong'inga nisbatan barqarorlik darajasini baholash zamonaviy yong'in xavfsizligi tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, konstruksion materiallarning ekspluatatsion xavfsizligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki polietilen, polipropilen va boshqa organik polimerlar yuqori molekulyar struktura va energiya sig'imi tufayli tez alanganish, intensiv piroliz va tutun hosil qilish xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Mazkur omillar yong'in jarayonining rivojlanish kinetikasiga bevosita ta'sir ko'rsatib, materiallarning real obyektlardagi xavfsiz qo'llanish chegaralarini belgilab beradi. Shu bois polimer kompozitlarning yong'inbardoshligini oshirish, ularning termokimyoviy barqarorligini kuchaytiruvchi antipiren tizimlarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini normativ-huquqiy standartlar asosida baholash dolzarb ilmiy vazifa sifatida qaraladi.

Yong'inbardosh polimer kompozitlar ishlab chiqishda antipirenlarning kimyoviy tabiati, ularning polimer matritsa bilan fazalararo o'zaro ta'siri, karbonlashgan himoya qatlaminin shakllanish qobiliyati hamda gaz-fazaviy inhibitiv mexanizmlarning faolligi hal qiluvchi omillar sifatida maydonga chiqadi. Shu nuqtai nazardan, alyuminiy-kremniy oksidlari va siyanur kislotasi asosidagi antipiren tizimlarining polietilen F-0220 tarkibiga qo'shilishi polimerning yong'inga qarshi barqarorligini oshirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur tadqiqotda turli miqdordagi antipiren qo'shimchalari bilan modifikatsiyalangan polietilen kompozitlarining yong'in-texniki xususiyatlari FOCT 30244-94 (II-usul) talablariga muvofiq baholanib, ularning yonuvchanlik kategoriyalari aniqlanadi hamda antipiren konsentratsiyasining yong'inga chidamlilikka ta'siri ilmiy jihatdan asoslanadi.

FOCT 30244-94 (II-usul) asosidagi tajriba jarayoni - ilmiy yoritilgan. Polimer kompozitlarning yonuvchanlik darajasini aniqlash FOCT 30244-94 "Qurilish materiallari. Yonuvchanlikni sinash usullari" talablari asosida amalga oshirildi. Tadqiqotning asosiy bosqichlari quyidagicha tashkil etildi: Namunalarning tayyorlanishi: Polietilen F-0220 matritsasiga turli miqdorda antipiren tizimlari kiritildi (S-10 dan S-50 gacha). Har bir namunada antipiren konsentratsiyasi qat'iy me'yorlarda saqlangan holda tekis taqsimlash ta'minlandi.

Sinov o'tkazish kamerasi: FOCT talablari asosida namunalar vertikal holatda maxsus issiqlik kamerasi ichiga joylashtirildi. Kamera ichida issiqlik oqimi zichligi, havo almashinuvi va olov ta'siri qat'iy normativ qiymatlarda ushlab turildi. Olov bilan ta'sirlantirish: Sinov davomida namunaga ma'lum davomiylikda ochiq olov yo'naltirildi. Olov manbai olingandan so'ng namunada yuzaga keladigan mustaqil yonish jarayoni, ya'ni materialning o'z-o'zidan yonishni davom ettirish qobiliyati kuzatildi. O'lchangan parametrlar: Tutun gazlarining maksimal harorati (T , °C), Uzunlik bo'yicha zarar darajasi (SL , %), Massa bo'yicha zarar darajasi (Sm , %), Mustaqil yonish davomiyligi ($Tc.r.c$), Yonish intensivligi va vizual degradatsiya ko'rsatkichlari. Ushbu parametrlar orqali materialning issiqlik ta'siriga berilishi, struktural o'zgarishi hamda kimyoviy parchalanish jarayonlari tizimli baholandi.

Polietilen kompozitlari tarkibida antipirenlar mavjud bo'lmaganda ularning yong'inga nisbatan barqarorlik darajasi keskin past ekani aniqlandi (1-jadval). Eksperimental o'lchovlar tutun gazlari haroratining yuqoriligi ($T \approx 525$ °C) bilan tavsiflanib, bu polimer matritsaning intensiv termooksidlanish jarayoniga kirishganini ko'rsatdi. Uzunlik va massa bo'yicha zarar darajalari mutanosib ravishda $SL \approx 68-69$ % hamda $Sm \approx 19,6$ % ni tashkil etdi, bu esa chiziqli va massaviy degradatsiya jarayonlarining chuqurligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Mustaqil yonishning davomiyligi ($Tc.r.c \approx 338$ s) materialning olov energiyasini o'zlashtirib, pirolitik jarayonni mustaqil davom ettirish qobiliyati yuqori ekanligini anglatadi. FOCT 30244-94 (II-usul) talablari asosida mazkur kompozitning E4 - kuchli yonuvchan toifaga mansubligi unga antipirenlarsiz ishlatish mumkin emasligini ko'rsatib, yong'inga qarshi himoya mexanizmlarini majburiy talab etadi. Turli to'ldiruvchilar bilan polietilen asosidagi polimer kompozitlarni yonuvchanlik guruhini aniqlash (analog)

1-jadval. Turli to'ldiruvchilar bilan polietilen asosidagi polimer kompozitlarni yonuvchanlik guruhini aniqlash (analog)

Namunalar	Yonuvchanlik darajasi					
	Tutun gaz harorati, T , °C	Uzunlik bo'yicha zarar darajasi SL , %	Massa bo'yicha zarar darajasi Sm , %			Mustaqil yonish davomiyligi. $Tc.r.c$
			avval	So'ng	%	
1	526	100	765	244	68	338
2	524	100	762	250	67	334
3	525	100	768	238	69	342
O'rtacha	525	100	-	-	19,6	338

Xulosa: Turli xil to'ldiruvchilar qo'shilgan polietilen asosidagi polimer kompozitlarning yong'inga chidamlilik xususiyatlari shuni ko'rsatadiki, ular FOCT 30244 standarti bo'yicha II-usul natijalariga asosan E4 - yuqori darajada yonuvchan materiallar toifasiga kiradi.

S-10 antipiren tizimi bilan modifikatsiya qilingan kompozitlarda polimerning termokimyoviy parchalanish dinamikasi sezilarli ravishda susaydi. Tutun gazlarining pasaytirilgan harorati ($T \approx 395$ °C) antipirenning issiqlik oqimi zichligiga ta'sir qiluvchi inhibitiv mexanizmlarini faollashtirganini ko'rsatadi. Strukturaviy buzilish ko'rsatkichlarining kamayishi ($SL \approx 38-42$ %, $Sm \approx 40$ %) polimer matritsasi ichida qisman karbonlashgan himoya qatlaminin shakllanganini tasdiqlaydi. Mustaqil yonish vaqtining $Tc.r.c \approx 245$ s gacha qisqarishi antipirenning gaz-fazaviy bloklovchi mexanizmlarini shakllantirganini ilmiy asosda anglatadi. Kompleks termal baholash natijasida kompozitning yong'inga chidamlilik toifasi E3 - me'yorida yonuvchan darajaga o'tdi, bu esa antipiren konsentratsiyasining materialning olov barqarorligini oshiruvchi kritik chegaraga yaqinlashganini bildiradi. (2-jadval).

S-10 antipirenlar qo'shilgan polimer kompozitlarni yonuvchanlik guruhini aniqlash
2-jadval. Polietilen F-0220 va alyuminiy-kremniy oksidlari hamda siyanur kislotasi asosidagi S-10 antipirenlar qo'shilgan polimer kompozitlarni yonuvchanlik guruhini aniqlash

Namunalar	Yonuvchanlik darajasi					
	Tutun gaz harorati, T,°C	Uzunlik bo'yicha zarar darajasi SL,%	Massa bo'yicha zarar darajasi Sm,%			Mustaqil yonish davomiyligi. Tc.r, c
			avval	So'ng	%	
1	387	94	812	503	38	245
2	405	92	805	466	42	248
3	395	93	816	489	40	243
O'rtacha	395	93	-	-	40	245

Xulosa: S-10 turdagi antipiren qo'shimchalari bilan boyitilgan polimer kompozitning o'tga chidamliligi bo'yicha o'tkazilgan sinovlar shuni ko'rsatdiki, u FOCT 30244 standarti (II-usul) talablari asosida E3 toifasiga - ya'ni me'yoriy darajada yonuvchan materiallar guruhiga kiradi.

S-20 antipiren qo'shilgan kompozitlarda yong'inga chidamlilik parametrlari yanada yaxshilangan bo'lib, tutun gazlari harorati $T \approx 364$ °C gacha pasaygani qayd etildi. Bu ko'rsatkich antipirenni endotermik parchalanish jarayonlari orqali issiqlik uzatishni cheklaganidan dalolat beradi. Strukturaviy degradatsiya parametrlari — $SL \approx 35-37$ % va $Sm \approx 36$ % — polimerning issiqlik ta'sirida asta-sekin inert fazaga o'tishini anglatadi. Mustaqil yonish davomiyligi $Tc.r, c \approx 238$ s bo'lib, antipirenni diffuziyaviy kislorod almashinuviga qarshi samarali bloklovchi qatlam yaratganini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari kompozitni FOCT 30244 bo'yicha E3 - me'yorida yonuvchan toifaga mansub deb baholash imkonini berdi. (3-jadval).

S-20 antipirenlar qo'shilgan polimer kompozitlarni yonuvchanlik guruhini aniqlash
3-jadval. Polietilen F-0220 va alyuminiy-kremniy oksidlari hamda siyanur kislotasi asosidagi S-20 antipirenlar qo'shilgan polimer kompozitlarni yonuvchanlik guruhini aniqlash

Namunalar	Yonuvchanlik darajasi					Mustaqil yonish davomiyligi. Tc.r, c
	Tutun gaz harorati, T.°C	Uzunlik bo'yicha zarar darajasi S _L ,%	Massa bo'yicha zarar darajasi S _m ,%			
			avval	So'ng	%	
1	365	90	822	534	35	238
2	360	92	825	519	37	240
3	368	90	819	524	36	236
O'rtacha	364	90	-	-	36	238

Xulosa: S-20 turdagi antipiren qo'shimchalari bilan boyitilgan polimer kompozitning o'tga chidamliligi bo'yicha o'tkazilgan sinovlar shuni ko'rsatdiki, u FOCT 30244 standarti (II-usul) talablari asosida E3 toifasiga - ya'ni me'yoriy darajada yonuvchan materiallar guruhiga kiradi.

S-30 antipirenni qo'llanishi kompozitning olovga qarshi funksional barqarorligini sezilarli darajada kuchaytirdi. Tutun gazlari haroratining $T \approx 235$ °C gacha pasayishi antipirenni issiqlikni yutuvchi qattiq fazali modifikator sifatida samarali ishlaganidan dalolat beradi. Uzunlik va massa bo'yicha zarar darajalari ($SL \approx 20-26$ %, $Sm \approx 22$ %) polimer matritsasida issiqlik ta'sirida hosil bo'luvchi karbon qatlamining zichlashganini ko'rsatadi. Mustaqil yonish vaqtining $Tc.r, c \approx 161$ s gacha qisqarishi antipirenni termo-oksidlovchi reaksiyalar zanjirini samarali ravishda uzayotganini bildiradi. GOST tasnifiga ko'ra, materialning yong'inga chidamlilik darajasi E2 - mo'tadil yonuvchan toifasiga ko'tarildi, bu kompozitning amaliy foydalanish xavfsizligini sezilarli oshiradi. (4-jadval).

S-30 antipirenlar qo'shilgan polimer kompozitlarni yonuvchanlik guruhini aniqlash
4-jadval. Polietilen F-0220 va alyuminiy-kremniy oksidlari hamda siyanur kislotasi asosidagi S-30 antipirenlar qo'shilgan polimer kompozitlarni yonuvchanlik guruhini aniqlash

Namunalar	Yonuvchanlik darajasin					Mustaqil yonish davomiyligi. Tc.r, c
	Tutun gaz harorati, T.°C	Uzunlik bo'yicha zarar darajasi SL,%	Massa bo'yicha zarar darajasi Sm,%			
			avval	So'ng	%	
1	236	82	765	566	26	167
2	238	79	770	616	20	156
3	231	77	762	594	22	162
O'rtacha	235	79	-	-	22	161

Xulosa: S-30 turdagi antipiren qo'shimchalari bilan boyitilgan polimer kompozitning o'tga chidamliligi bo'yicha o'tkazilgan sinovlar shuni ko'rsatdiki, u FOCT 30244 standarti (II-usul) talablari asosida E2 toifasiga - ya'ni mo'tadil yonuvchan materiallar guruhiga kiradi.

S-40 antipirenni konsentratsiyasi oshgan sari kompozitning issiqlik barqarorligi yanada mustahkamlandi. Tutun gazlari harorati $T \approx 198$ °C darajasida qayd etilishi issiqlik oqimining sezilarli darajada pasayganini, strukturaviy zarar ko'rsatkichlarining ($SL \approx 19-22$ %, $Sm \approx 20$ %) kamayishi esa himoya qiluvchi karbonatlangan qatlamning intensiv shakllanishini anglatadi. Mustaqil yonish davomiyligi $Tc.r, c \approx 148$ s antipirenni gaz-fazaviy inhibitiv reaksiyalarga kuchli ta'sirini tasdiqlaydi. Kompozitning yong'inga chidamlilik tasnifi E2 - mo'tadil yonuvchan bo'lgan bo'lib, bu antipirenni issiqlik va kimyoviy barqarorlashtirish jarayonlarida optimal samaradorlik bilan ishlashini ko'rsatadi. (5-jadval).

S-40 antipirenlar qo'shilgan polimer kompozitlarni yonuvchanlik guruhini aniqlash
5-jadval. Polietilen F-0220 va alyuminiy-kremniy oksidlari hamda siyanur kislotasi asosidagi S-40 antipirenlar qo'shilgan polimer kompozitlarni yonuvchanlik guruhini aniqlash

Namunalar	Yonuvchanlik darajasi			
	Tutun gaz	Uzunlik bo'yicha	Massa bo'yicha zarar darajasi Sm, %	Mustaqil yonish

	harorati, T, °C	zarar darajasi S _L , %	avval	So'ng	%	davomiyligi. Tc.r, c
1	203	48	876	700	20	152
2	197	51	874	707	19	145
3	194	54	865	674	22	147
O'rtacha	198	51	-	-	20	148

Xulosa: S-30 turdagi antipiren qo'shimchalari bilan boyitilgan polimer kompozitning o'tga chidamliligi bo'yicha o'tkazilgan sinovlar shuni ko'rsatdiki, u FOCT 30244 standart (II-usul) talablari asosida E2 toifasiga - ya'ni mo'tadil yonuvchan materiallar guruhiga kiradi.

S-50 antipiren qo'shilgan polietilen kompozitlar eng yuqori yong'in-texnik samaradorlikni namoyon etdi. Tutun gazlarining minimal harorati ($T \approx 178$ °C) antipirenni endotermik parchalanish va gaz-fazaviy inhibitsiya mexanizmlarining maksimal darajada faollashganidan dalolat beradi. Strukturaviy zarar ko'rsatkichlarining ($SL \approx 18-19$ %, $Sm \approx 18$ %) keskin kamayishi himoya qiluvchi karbon termo-barerining yuqori zichlikda shakllanganini ilmiy asosda tasdiqlaydi. Eng muhim yutuq shundaki, kompozit mustaqil yonishni davom ettirmadi ($Tc.r, c$ – aniqlanmadi), ya'ni antipiren yong'in jarayonining o'z-o'zidan davom etish zanjirini to'liq blokladi. Natijada kompozit E1 – kuchsiz yonuvchan toifasiga mansubligi bilan ajralib turadi. Bu S-50 antipiren tizimining fazalararo kimyoviy sinergiyasi yuqori bo'lib, real konstruksion amaliyotda yuqori darajadagi yong'in xavfsizligini ta'minlashga qodir ekanini ko'rsatadi. (6-jadval). S-50 antipirenlar qo'shilgan polimer kompozitlarni yonuvchanlik guruhini aniqlash

6-jadval. Polietilen F-0220 va alyuminiy-kremniy oksidlari hamda siyanur kislotasi asosidagi S-50 antipirenlar qo'shilgan polimer kompozitlarni yonuvchanlik guruhini aniqlash

Namunalar	Yonuvchanlik darajasi					Mustaqil yonish davomiyligi. Tc.r, c
	Tutun gaz harorati, T, °C	Uzunlik bo'yicha zarar darajasi S _L , %	Massa bo'yicha zarar darajasi S _m , %	avval	So'ng	
1	178	26	813	658	19	Yo'q
2	183	23	820	672	18	
3	174	24	816	669	18	
O'rtacha	178	24	-	-	18	Yo'q

Xulosa: S-50 antipiren qo'shilgan polimer kompozitning yong'inga chidamlilik ko'rsatkichlari shuni ko'rsatdiki, material FOCT 30244 standart (II-usul) bo'yicha E1 - past darajada yonuvchan materiallar toifasiga kiradi.

Ushbu tadqiqotda antipiren konsentratsiyasining polietilen asosidagi kompozitlarning yong'inga nisbatan barqarorlik ko'rsatkichlaridan biri — mustaqil yonish davomiyligi ($Tc.r, c$) ga ta'siri grafik tahlil asosida baholandi. Olingan natijalar antipirenni miqdori oshishi bilan materialning mustaqil yonish qobiliyati izchil ravishda pasayishini yaqqol ko'rsatadi. Bazaviy kompozitning $Tc.r, c$ qiymati 338 s bo'lib, antipiren tizimi mavjud emasligi sababli piroliz jarayoni kuchli energiya ajralishi bilan davom etishi kuzatildi. S-10 va S-20 antipirenlar qo'shilgan kompozitlarda mustaqil yonish mos ravishda 245 s va 238 s gacha qisqargan bo'lib, antipirenni boshlang'ich inhibitsiya ta'siri issiqlik oqimi zichligini kamaytirgani aniqlanadi. S-30 va S-40 kompozitlarida $Tc.r, c$ qiymatlarining keskin pasayishi (mos ravishda 161 s va 148 s) antipirenni karbonlashuvni kuchaytiruvchi barer mexanizmlarining faollashganidan dalolat beradi. Eng muhim natija — S-50 antipirenli kompozitning mustaqil yonishni butunlay davom ettirmasligidir, ya'ni $Tc.r, c = 0$ s, bu antipirenni maksimal samaradorlik bilan yong'in jarayonini to'liq bloklay olishini ilmiy asosda tasdiqlaydi. Grafikdagi umumiy tendensiya antipiren konsentratsiyasining oshishi materialning yong'inga chidamliligini bosqichma-bosqich kuchaytirishini, polimer matritsa yuqori konsentratsiyali antipiren tarkibida E4 → E3 → E2 → E1 yo'nalishi bo'yicha yong'inga doir tasnifda sezilarli yaxshilanishga erishishini ko'rsatadi. Bu esa antipirenlarning faza o'tish, gaz-faza inhibitsiya va karbonatlash mexanizmlarining kompleks ishlashi bilan izohlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Saad M., Mzoughi A., Ayadi A., Elleuch S., Abdelhedi R. Effect of accelerated thermal degradation of poly(vinyl chloride): The case of unplasticized PVC // arxiv preprint arxiv:2503.16121. – 2025. – 19 p. 54 – DOI: 10.48550/arxiv. 2503.16121
2. Laloyaux X., Fautré E., Blin T., et al. Temperature-Responsive Polymer Brushes Switching from Bactericidal to Cell-Repellent // Advanced Materials. 2010. 48-52.
3. Нуркулов Э.Н., Бекназаров Х.С., Джалилов А.Т., Абдирахимов Ш.У. Повышение пожарных свойств полиэтилена // Universum: Технические науки: электрон. науч. журн. - 2021. - Часть 4.с-74.
4. Нуркулов Э.Н., Бекназаров Х.С., Джалилов А.Т. Антипирен для защиты древесины от горения // Universum: Технические науки: электрон. науч. журн. - 2020. №1(70). с-71.
5. Abdirashidov D., Turayev KH., Tadjiev P. "Studying the structure and properties of polypropylene filled with nitrogen, phosphorus, metal-containing oligomers". Scientific and Technical Journal of NamIET. ISNS 2181-8622., VOL.8. Issue 4.. 2023. Page; 89-98.

Annotatsiya: Ushbu maqolada polietilen F-0220 asosidagi kompozitlarning alyuminiy-kremniy oksidlari hamda siyanur kislotasi bilan modifikatsiyalash usullari va ularning yonuvchanlik xususiyatlarini pasaytirish mexanizmlari keltirib o'tilgan

Kalit so'zlar: polietilen, antipiren, kompozit, alyuminiy-kremniy oksidlari, siyanur kislotasi

Аннотация: В данной статье представлены методы модификации композитов на основе полиэтилена F-0220 оксидами алюминия-кремния и циануровой кислотой и механизмы снижения их горючести.

Ключевые слова: полиэтилен, антипирен, композит, оксиды алюминия и кремния, циануровая кислота

Abstract: This article describes the methods of modifying polyethylene F-0220-based composites with aluminum-silicon oxides and cyanuric acid, and the mechanisms for reducing their flammability properties.

Key words: polyethylene, flame retardant, composite, aluminum-silicon oxides,


УДК: 378.4:331.556.4(100)

OLIIY TA'LIM MUASSASALARINING XALQARO FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR MOBILLAGINING O'RNI

Abdukadirov Abdukayum Abdulkhayevich,
Vorobyev Kirill Aleksandrovich

Hozirgi baynalmilallashuv dunyosida oliy ta'lim muassasalarining xalqaro faoliyatini rivojlantirish xalqaro aloqalarni shakllantirish, amaliy tajriba almashish, bilimlar transferi va madaniy boyishda juda muhim rol o'ynashi ko'rsatilgan, bu, ayniqsa, jahon talabalari mobilligi sifatida yaqqol namoyon bo'ladi.


Jahonda mehnat va talabalar migratsiyasi, shuningdek, majburiy ko'chirilgan qochoqlar migratsiyasi hajmini miqdoriy aniqlash dolzarb hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Jahon mehnat, talabalar va majburiy (qochoqlar) migratsiyasi, mln. kishi

Butun dunyo bo'ylab 2000-yilda 2 milliondan ortiq chet ellik talabalar tahsil olgan bo'lsa, 2020-yilga kelib ularning soni 6,3 milliondan oshdi. Shu bilan birga, chet ellik talabalar sonining ko'payishi bilan bir vaqtda, ularning o'qish uchun harakat yo'nalishlarining xilma-xilligi o'sdi [1, 34-37].

Ushbu yo'nalishda zamonaviy talabalar mobilligining asosiy sabablari va mexanizmlari tadqiq etilgan. Talabalarining harakatchanligini belgilovchi omillarga shaxsiy ambitsiyalar va o'qishni tugatgandan so'ng yaxshi ish istiqbollariga intilish (2 -rasm), yuqori sifatli oliy ta'lim muassasalarining yetishmasligi kiradi. O'z mamlakatida oliy kasbiy ta'lim olish uchun transchegaraviy harakatchanlikni rag'batlantirishga qaratilgan davlat siyosati, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining xorijda izlash, iste'dodlarni jalb qilish va boshqalar.



2 rasm. Rossiya Federatsiyasi, Markaziy Osiyo va Yaqin Sharqdan kelgan talabalarining harakatchanligi sabablari: 1 – rivojlangan davlatga migratsiya; 2 – chet elda ishga joylashish; 3 – til ko'nikmalari; 4 – yuqori sifatli ta'lim; 5 – yangi kompetensiyalarni olish; 6 – yangi tanishlar; 7 – akademik turizm

Qabul qiluvchi mamlakatlardagi universitetlar uchun xalqaro talabalar sezilarli daromad olishning muhim manbai bo'lishi va ularning iqtisodiy ko'rsatkichlari va innovatsion tizimlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin (ta'lim va yashash uchun zarur bo'lgan xarajatlarni amalga oshirish orqali). Shunday qilib, chet ellik talabalarining Qirg'iziston Respublikasining milliy iqtisodiyotiga qo'shgan hissasi YaIMning 30% dan ortig'ini tashkil etishi aniqlandi.

Shu bilan birga, Qirg'izistonda xorijlik talabalarining umumiy xarajatlari qariyb 29,827 mln. \$ AQSh. Natijada, Qirg'iziston Respublikasi Milliy banki ma'lumotlariga ko'ra, ta'lim xizmatlari eksportining umumiy hajmi 8,4 mln. \$ AQSH, import esa 12,2 mln. \$ AQSh.

Markaziy Osiyo universitetlarini baynalmilallashtirish kontekstida ta'kidlash kerak bo'lgan yana bir jihat - bu Rossiya Federatsiyasining roli. Mustaqil davlatlar bo'lsa ham, Markaziy Osiyo davlatlari Rossiya Federatsiyasi bilan hali ham ancha mustahkam hamkorlikka ega. Til to'sig'i va nisbatan o'xshash ta'lim tizimlari mavjud bo'lmaganda, ular uchun talabalar almashinuvi dasturlarini taqdim etish (masalan, qo'shma diplom dasturlari bo'yicha) va tadqiqot loyihalarida hamkorlik qilish osonroq.

Rossiya Federatsiyasining turli universitetlarida tahsil olayotgan chet ellik talabalar guruhlarini tarkibini tahlil qilish (kirish akademik harakatchanlik) ularning 70% dan ortig'i MDH mamlakatlariga to'g'ri kelishini ko'rish imkonini beradi: birinchi navbatda, bular Belarus, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistondir. Rossiya Ta'lim va fan vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda chet ellik talabalarining umumiy soni 351 ming kishidan oshdi. Rosstat prognoziga ko'ra, 2025-yilga kelib Rossiyada chet ellik talabalar soni 411,5 ming kishini tashkil qiladi. Shu bilan birga, tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Rossiya Federatsiyasida o'qiyotgan chet ellik talabalarining eng ko'p soni tibbiyot bilan bog'liq mutaxassisliklarga to'g'ri keladi – 76 029 kishi [2, 171-177].

2019-yilda Qozog'istondan tashqarida 90 mingdan ortiq qozog'istonlik tahsil oldi (2016-yilda bu ko'rsatkich 70 mingga yaqin talabani tashkil etdi), bu ushbu mamlakatdagi talabalar umumiy sonining 11 foizdan ortig'ini tashkil etdi. Shu bilan birga, Qozog'istonga 15 dan ortiq davlatdan xorijlik talabalar keladi.

Shunday qilib, 2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, dunyoning turli mamlakatlaridagi oliy o'quv yurtlarida 53 ming o'zbek talabasi tahsil oldi. Masalan, 2017-yilda Rossiya oliy o'quv yurtlarida O'zbekistondan 24 mingdan ortiq talaba tahsil olgan bo'lsa, 2024-yilda esa 50 ming kishi, 2024-yilda esa 8 ming kishi Rossiya oliy o'quv yurtlarining O'zbekistondagi filiallarida o'qishni tamomladi.

4. Ko'plab rivojlangan mamlakatlar byudjet jarayonida shaffoflikni ta'minlash, fuqarolarning va mutaxassislarning ishtirokini oshirishga katta e'tibor qaratadilar. Bu orqali davlat byudjetining samaradorligini oshirish va xalqning ishonchini mustahkamlashga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // *Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi*, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son
2. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi // *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son
3. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi // *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son
4. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi // *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son
5. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-813-sonli Qonuni // *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 31.12.2022-y., 03/22/813/1144-son
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyuldagi PF-5468-sonli "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi farmoni // *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 19.03.2020-y., 06/20/5968/0331-son

7. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-886-sonli Qonuni // *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 26.12.2023-y., 03/23/886/0970- son
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni // *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrda PF-6098- sonli "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni // *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 31.10.2020-y., 06/20/6098/1432-son
10. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.- Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017- 48 b.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 07-yanvarda 1-sonli "Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi qarori // *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 08.01.2021-y., 09/21/1/0002-son
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-iyunda 445-sonli "Mahalliy budjetlarning daromadlar bazasini kengaytirish zaxiralarini aniqlash ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 23.01.2018-y., 09/18/40/0609-son
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyulda PF-5116-sonli "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni // *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 11.01.2019-y., 06/19/5620/2501-son
14. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik / TMI – Toshkent: "Noshir", 2012. – 712 b.
15. Haydarov N. Davlat moliyasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi o'rni // Moliya. — Toshkent: 2015.-11 b. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: «O'zbekiston», 2017. – 104b.
16. G'aybullaev O., O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. -Toshkent: "Baktria press", 2016. -168 b.

Annotatsiya: Xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari davlat byudjeti shakllantirishda ko'plab samarali va barqaror tamoyillarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston uchun bu tajribalardan o'rganish va ular asosida o'z byudjet jarayonlarini takomillashtirish imkoniyatlari mavjud. Shvetsiya, Niderlandiya, Singapur va Kanada kabi mamlakatlar davlat byudjetini shakllantirishda shaffoflik, adolatli soliqlar, ijtimoiy xarajatlar va fiskal barqarorlikka katta e'tibor qaratgan. Bu tajribalar O'zbekistonning davlat moliyasini barqarorlashtirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yordam berishi mumkin.

Kalit so'zlar: daromad, xarajat, soliq siyosati, strategiya, iqtisodiy rivojlanish, tadbirkorlik, davlat qarzi.

Аннотация: Передовой опыт зарубежных стран включает в себя множество эффективных и устойчивых принципов формирования государственного бюджета. Для Узбекистана есть возможности учиться на этом опыте и на его основе совершенствовать свои бюджетные процессы. Такие страны, как Швеция, Нидерланды, Сингапур и Канада, уделяют большое внимание прозрачности, справедливым налогам, социальным расходам и фискальной стабильности при формировании государственного бюджета. Этот опыт может помочь стабилизировать государственные финансы Узбекистана и обеспечить экономический рост.

Ключевые слова: доходы, расходы, налоговая политика, стратегия, экономическое развитие, предпринимательство, государственный долг.

Abstract: The best practices of foreign countries include many effective and sustainable principles in the formation of the state budget. For Uzbekistan, there are opportunities to learn from this experience and improve its budget processes based on it. Countries such as Sweden, the Netherlands, Singapore, and Canada have paid great attention to transparency, fair taxes, social spending, and fiscal stability in the formation of the state budget. These experiences can help stabilize Uzbekistan's public finances and ensure economic growth.

Key words: income, expenditure, tax policy, strategy, economic development, entrepreneurship, public debt.

DAVLAT BUDJET SIYOSATINI MODERNIZATSIYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

¹Berdimuratov K. G., ²Umirov I. F.

¹QMU dotsenti

²IPU Samarkand kampusi dotsenti

Kirish. Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida davlat moliyasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish muhim ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Xususan, unda budjet barqarorligini ta'minlash, budjet taqchilligini maqbul darajada saqlash hamda davlat qarzining xavfsizlik chegarasini nazorat ostida ushlab turish masalalariga alohida urg'u qaratilgan. Strategiyada davlat budjeti taqchilligining yalpi ichki mahsulotga (YaIM) nisbatan 3 foizdan oshmasligini ta'minlash talabi, shuningdek, muvozanatli va fiskal jihatdan mas'uliyatli siyosat yuritish zaruriy shart sifatida e'tirof etilgan. Bu yondashuv, o'z navbatida, makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish sur'atlarini izchil qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Mazkur maqsadlar nafaqat iqtisodiy intizomni mustahkamlash, balki davlat moliyasining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashni ham ko'zda tutadi. So'nggi yillarda mamlakatda budjet tizimini isloh qilish, fiskal intizomni kuchaytirish, davlat xarajatlarning samaradorligini baholash hamda davlat qarzini boshqarish mexanizmlarini modernizatsiya qilish bo'yicha qator tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, budjet jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini chuqurlashtirish, hamda "fuqarolik budjeti" institutini rivojlantirish yo'nalishlarida bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, hududiy budjetlar mustaqilligini oshirish, ularning daromad bazasini kengaytirish va mavjud resurslardan oqilona foydalanish masalalari hamon dolzarb bo'lib qolmoqda.

Mazkur yo'nalishlar Yangi O'zbekistonning moliyaviy siyosatini modernizatsiya qilish, fiskal barqarorlikni ta'minlash va davlat boshqaruvida natijadorlikni oshirish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

Ayni paytda O'zbekiston Respublikasida muvozanatli va barqaror budjet siyosatini shakllantirish masalasi to'liq hal etilgan deb bo'lmaydi. Budjet taqchilligi, davlat qarzining o'sish dinamikasi, soliq tushumlari darajasi hamda xarajatlar tarkibining samaradorligi kabi omillar davlat moliya tizimining barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi asosiy iqtisodiy indikatorlar hisoblanadi. Shuningdek, xalqaro moliya bozorlaridagi beqarorlik, inflyatsion bosimlarning kuchayishi, global iqtisodiy inqirozlar va pandemiya oqibatlari milliy budjet siyosatiga sezilarli ta'sir o'tkazib, fiskal muvozanatni saqlashni murakkablashtirmoqda. Shu sababli, hozirgi sharoitda davlat budjet siyosatini takomillashtirish, fiskal boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish, hamda resurslardan oqilona va samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biri sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur tadqiqot ana shu masalalarni chuqur tahlil qilishga, ya'ni O'zbekiston sharoitida davlat budjet siyosatini takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan. Ushbu yondashuv orqali fiskal siyosatning samaradorligini oshirish, budjet barqarorligini mustahkamlash va iqtisodiy o'sish uchun moliyaviy poydevorni yanada kuchaytirish imkoniyatlari asoslab beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. M. Sajina o'z tadqiqotlarida ta'kidlaganidek, davlat budjet siyosatiga iqtisodiy yondashuvning mohiyati budjet taqchilligi muammosini uzoq muddatli istiqbolda hal etish uchun, eng avvalo, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash zarurati bilan belgilanadi [2]. Olimaning fikricha, davlat budjeti defitsiti nafaqat moliyaviy nomutanosiblik belgisi, balki iqtisodiyotdagi tarkibiy va institutsional zaifliklarni aks ettiruvchi muhim indikator sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu bois, defitsitni kamaytirish chora-tadbirlari faqat fiskal siyosat doirasida emas, balki ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda soliq bazasining barqarorligini ta'minlash yo'nalishida ham amalga oshirilishi lozim.

Ye. Nikonova o'z ilmiy izlanishlarida zamonaviy budjet siyosatini takomillashtirish, ayniqsa budjetlararo munosabatlarni optimallashtirish, iqtisodiyotga ichki investitsiyalar oqimini rag'batlantirish va makroiqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etadi [3]. Uning fikricha, bunday siyosatning eng muhim xususiyati — iqtisodiy va moliyaviy moslashuvchanlikni ta'minlaydigan universallikdir. Bu yondashuv, o'z navbatida, davlat iqtisodiy siyosatini global bozor sharoitlariga tezkor moslashtirish imkonini yaratadi.

T. Vershilo o'z tadqiqotlarida budjet mablag'laridan samarali foydalanishning ikki asosiy mexanizmini ajratib ko'rsatadi: birinchisi — minimal xarajatlar evaziga maqsadga erishish, ikkinchisi esa — mavjud mablag'lardan eng yuqori natijani olishdir [4]. Tadqiqotda qayd etilishicha, bu jarayonda davlat budjeti defitsiti hamda kassaviy uzilishlarning darajasi fiskal siyosat samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanganidek, budjet defitsiti va kassaviy uzilish tushunchalari o'zaro farqlanadi. Budjet defitsiti — bu budjet daromadlari jami xarajatlarni to'liq qoplamagan holat, kassaviy uzilish esa soliqlarning tushum va xarajatlar amalga oshirish vaqtlaridagi nomuvofiqlik natijasida yuzaga keluvchi vaqtinchalik moliyaviy disbalansdir. Shu bois, defitsitni qisqartirish hamda kassaviy muvozanatni ta'minlash fiskal siyosatning markaziy vazifalaridan biri sifatida qaraladi.

S. I. Chepurov o'z ilmiy qarashlarida davlat xaridlari tizimida budjet mablag'laridan oqilona foydalanish tamoyilini ta'minlash uchun xaridlarni me'yorlash va iqtisodiy asoslashning uyg'unlashuvi zarurligini ta'kidlaydi [5]. Ushbu yondashuv davlat xarajatlari tizimida ortiqcha sarflarni kamaytirish, shaffoflikni kuchaytirish va moliyaviy javobgarlikni oshirish imkonini beradi. J. M. Korres va A. Kokkinou tomonidan ilgari surilgan konsepsiyaga ko'ra, budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligi kutilgan natijalar va amalda erishilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi indeks asosida taqqoslash orqali aniqlanadi [6]. Ushbu baholash mexanizmi davlat siyosatining amaliy natijadorligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi hamda fiskal siyosat samaradorligini o'lchashning zamonaviy vositasi sifatida e'tirof etiladi. Yu. A. Kroxina o'z ilmiy izlanishlarida budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini baholashda qonunchilikdagi mavjud bo'shliqlar va aniqlik yetishmasligi masalasiga e'tibor qaratadi [7]. Olimaning fikricha, qonun chiqaruvchi organlar tomonidan samaradorlik tamoyilini huquqiy jihatdan belgilashga urinishlar bo'lgan bo'lsa-da, amaliyotda ushbu konsepsiyani to'liq joriy etish uchun zarur metodologik mexanizmlar hali shakllanmagan. Shu bois, budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini baholashda iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy omillarni kompleks tarzda inobatga olish zarur deb hisoblaydi.

H. Hakimovning fikricha, budjet qoidolari (fiscal rules) moliyaviy barqarorlikni saqlash va fiskal intizomni ta'minlash uchun zarur normativ cheklovlar tizimini yaratadi [8]. Unga ko'ra, bunday qoidalar resurslardan oqilona foydalanish, xarajatlarni rejalashtirilgan ko'rsatkichlarga moslashtirish hamda fiskal muvozanatni saqlash imkonini beradi. Ayniqsa, xomashyo eksportiga tayanadigan iqtisodiyotlarda budjet qoidolari iqtisodiy beqarorlik xavfini kamaytirish va fiskal barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Olim ta'kidlaganidek, agar davlat budjeti surunkali defitsit holatida bo'lsa, unda qat'iy budjet qoidalarini joriy etish va moliyaviy intizomni kuchaytirish davlat moliyasida muvozanatni tiklashning muhim sharti hisoblanadi.

M. Xaydarov esa daromad manbalari bilan xarajat vakolatlari va majburiyatlarini muvofiqlashtirish masalasiga tizimli yondashuv zarurligini ta'kidlaydi [9]. U quyidagi muammolarni alohida qayd etadi:

1. Markaziy hokimiyat tomonidan yuklatilgan davlat vazifalarini bajarish uchun moliyalashtirish manbalarining yetarlicha aniqlanmaganligi;
2. Yuqori budjetlardan quyi darajadagi budjetlarga ajratiladigan subvensiyalar mexanizmining samarasizligi;
3. Ijtimoiy soha xarajatlarining markaziy va mahalliy budjetlar o'rtasida noaniq taqsimlanishi.

Olimning fikricha, ushbu muammolar natijasida mablag'lardan samarasiz foydalanish, takroriy moliyalashtirish, hamda mas'uliyatning tarqoqligi holatlari yuzaga keladi. Shu sababli, xarajat majburiyatlarini aniq chegaralash, ularni moliyaviy manbalar bilan ta'minlash va budjetlararo moliyaviy intizomni kuchaytirish O'zbekiston uchun dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Umuman olganda, o'rganilgan manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat budget siyosatini takomillashtirish masalasi faqat fiskal barqarorlikni emas, balki iqtisodiy samaradorlik, investitsion faollik hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash bilan ham uzviy bog'liqdir. Shu bois, xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilgari surilgan yondashuvlar O'zbekiston moliyaviy islohotlarining amaliy bosqichida muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ilmiy tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining davlat budget siyosatini takomillashtirishga doir nazariy, huquqiy va amaliy jihatlar kompleks tarzda o'rganildi va tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, shuningdek statistik-iqtisodiy hamda empirik tahlil usullari tashkil etdi. Tizimli yondashuv asosida davlat budget siyosati mamlakatning umumiy makroiqtisodiy siyosati tizimining ajralmas elementi sifatida talqin etildi. Ushbu yondashuv budget siyosatining davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi o'rni va rolini tizim doirasida tahlil qilish imkonini berdi.

Qiyosiy tahlil usuli yordamida O'zbekiston Respublikasining amaldagi budget siyosati xorijiy mamlakatlar tajribasi bilan solishtirildi. Natijada fiskal siyosatni tashkil etish, budget jarayonini boshqarish va defitsitni nazorat qilish sohalaridagi ilg'or xalqaro amaliyotlar aniqlanib, ularni milliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlari asoslab berildi.

Statistik tahlil usuli orqali 2020–2024-yillar oralig'ida davlat budgetining daromad va xarajatlari dinamikasi, defitsit hajmi hamda soliqlarning yalpi daromadlardagi ulushi chuqur o'rganildi. Ushbu ma'lumotlar asosida fiskal ko'rsatkichlarning o'zgarish tendensiyalari aniqlanib, budget siyosatining barqarorlik darajasi baholandi.

Tadqiqot jarayonida "O'zbekiston – 2030" strategiyasi, "2025-yil uchun Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonun, shuningdek xalqaro moliya tashkilotlari — Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF), Jahon banki va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan ishlab chiqilgan fiskal siyosatga oid tavsiyalar tahliliy manbalar sifatida qo'llanildi. Metodologiya doirasida olingan ilmiy natijalar mantiqiy tahlil, modellashtirish va ekspert baholash usullari yordamida shakllantirildi. Shu asosda davlat budget siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi. Mazkur yondashuv tadqiqotda nazariy qarashlarni amaliy natijalar bilan uyg'unlashtirish, fiskal siyosatni boshqarishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish hamda davlat moliya tizimini takomillashtirishga qaratilgan kompleks ilmiy asos yaratishga imkon berdi.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrda O'RQ-1011-sonli "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonunida budget tizimi ijrosini samarali tashkil etish va fiskal intizomni mustahkamlashga qaratilgan mexanizmlar belgilab berilgan. Ushbu qonunga muvofiq, agar O'zbekiston Respublikasi budget tizimi budgetlarining olti oylik ijrosi yakunlari bo'yicha daromadlar prognozi bajarilmagan hamda joriy moliya yilining yakunigacha ularning to'liq tushishi uchun yetarli asoslar mavjud bo'lmasa, quyidagi fiskal choralar qo'llaniladi: Agar respublika budjeti umumiy xarajatlarining 3 foizidan ortiq qismini qisqartirish zarurati yuzaga kelsa, bunday qaror Vazirlar Mahkamasining taklifiga ko'ra Oliy Majlis palatalari tomonidan qabul qilinadi; Agar qisqartirish miqdori respublika budjeti umumiy xarajatlarining 3 foizigacha bo'lsa, u holda tegishli chora-tadbirlar Iqtisodiyot va moliya vazirligining taklifiga asosan Vazirlar Mahkamasini qarori bilan amalga oshiriladi. Mazkur normalar davlat budgetining ijro intizomini kuchaytirish, fiskal xavf-xatarlarni oldindan bartaraf etish va davlat moliyasining barqarorligini saqlashga qaratilgan huquqiy mexanizm sifatida alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, u budget daromadlari prognozini real iqtisodiy holatga moslashtirish hamda xarajatlar qisqartirilganda ijtimoiy-iqtisodiy ustuvor yo'nalishlarni himoya qilish imkonini beradi.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, shuningdek tuman va shaharlar budgetlari xarajatlarini qisqartirish masalalari bo'yicha qarorlar tegishli vakolatli mahalliy vakillik organlari tomonidan qabul qilinadi. Ya'ni, bu jarayon Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, shuningdek xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, tuman va shahar kengashlari tomonidan amalga oshiriladi [10].

Mazkur tartib mahalliy budget siyosatida moliyaviy javobgarlik va tashabbusni kuchaytirish, hududiy fiskal mustaqillikni ta'minlash hamda budgetlararo boshqaruv tizimini muvozanatlashga xizmat qiladi. Shu orqali har bir hudud o'zining moliyaviy imkoniyatlari va iqtisodiy sharoitidan kelib chiqib, xarajatlarni optimallashtirish hamda budget barqarorligini saqlash choralari mustaqil ravishda belgilash imkoniyatiga ega bo'ladi.

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetining daromadlari va xarajatlari dinamikasi (mlrd so'mda)

Ko'rsatkichlar	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
Daromadlar	132 938	164 799	201 863	231 721	274 423
Xarajatlar	144 121	188 257	236 692	281 097	310 926

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2024-yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari va xarajatlari izchil o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, daromadlar 2020-yildagi 132,9 trln so'mdan 2024-yilda 274,4 trln so'mga yetib, qariyb 2,1 barobar oshgan. Shu davrda xarajatlar hajmi ham 144,1 trln so'mdan 310,9 trln so'mgacha ko'tarilib, 2,16 baravar o'sish qayd etilgan.

Biroq, tahlil shuni ko'rsatadiki, har bir yilda budget defitsiti (xarajatlarning daromadlardan ortiq bo'lishi) saqlanib qolgan. Masalan, 2020-yilda defitsit 11,2 trln so'm, 2024-yilda esa 36,5 trln so'mni tashkil etgan. Bu esa davlat moliyasining fiskal yuklamasi ortib borayotganini ko'rsatadi.


Daromadlar o'sishining asosiy omillari sifatida soliq bazasining kengaytirilishi, iqtisodiy faollikning oshishi, raqamli soliq boshqaruvining joriy etilishi va eksportdan tushumlarning ko'payishini qayd etish mumkin. Xarajatlar o'sishi esa, o'z navbatida, ijtimoiy sohalariga yo'naltirilgan mablag'lar, investitsion loyihalar va infratuzilma dasturlarining kengayishi bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, fiskal barqarorlik nuqtai nazaridan davlat moliyasini samarali boshqarish jarayonida daromad va xarajatlar o'rtasidagi tafovutni qisqartirish, budget defitsitini maqbul chegarada ushlab turish hamda davlat qarzining xavfsiz darajasini ta'minlash dolzarb strategik vazifalardan biri bo'lib

qolmoqda. Daromad va xarajatlar o'rtasidagi nomuvofiqlikni kamaytirish, avvalo, soliq bazasini kengaytirish, yangi daromad manbalarini shakllantirish, shuningdek, byudjet xarajatlarning maqsadliligi va samaradorligini oshirish orqali amalga oshiriladi. Bu yo'nalishda fiskal siyosatning asosiy maqsadi — iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini saqlab qolgan holda budjet balansini bosqichma-bosqich tiklashdan iboratdir.

Defitsitni nazorat ostida ushlab turish esa davlat qarzini boshqarishning ehtiyotkorlik tamoyili, xarajatlar tuzilmasini optimallashtirish va investitsion loyihalarni moliyalashtirishda ustuvorlik mezonlarini aniq belgilash bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa, defitsitning o'sishi milliy iqtisodiyot uchun inflyatsion bosimlarning kuchayishi, davlat qarzining ortishi va makroiqtisodiy muvozanatning buzilishi kabi xavflarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli, defitsitni maqbul darajada saqlab turish fiskal siyosatning barqarorligini ta'minlovchi hal qiluvchi omillardan biridir.

Davlat qarzining xavfsiz darajasini saqlash esa qarzning YaIMga nisbati, qarz xizmatining byudjetdagi ulushi va **qarzning tuzilmasi (ichki va tashqi manbalar bo'yicha)**ni doimiy nazorat ostida ushlab turishni talab etadi. Ushbu yondashuv fiskal xavf-xatlarni kamaytirish, xalqaro reytinglarda moliyaviy ishonchlilikni mustahkamlash hamda davlat moliyasining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Natijada, fiskal barqarorlikni ta'minlash nafaqat davlat budjeti muvozanatini saqlash, balki iqtisodiy o'sishning moliyaviy asoslarini mustahkamlash, ijtimoiy dasturlarni barqaror moliyalashtirish va makroiqtisodiy barqarorlikni uzoq muddatga kafolatlash uchun ham zaruriy shart sifatida qaraladi.



1-rasm O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarning umumiy hajmida ijtimoiy xarajatlarning ulushi, foizda

1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti tarkibida ijtimoiy yo'naltirilgan xarajatlar doimiy ustuvorlikka ega bo'lib kelmoqda. Bu esa mamlakatda inson kapitalini rivojlantirish, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va bandlikni qo'llab-quvvatlash siyosatining amaliy ifodasidir.

2020-yilda ijtimoiy xarajatlar budjetning 51,5 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2021–2023-yillarda bu ko'rsatkich 48,8 foiz atrofida barqarorlashgan. 2022-yilda 75,1 foizgacha keskin o'sish kuzatilgani esa pandemiya davrida sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohasiga yo'naltirilgan qo'shimcha mablag'lar bilan izohlanadi. 2024-yilda ulush 49,0 foiz darajasida qayd etilib, pandemiya keyingi muvozanatli fiskal siyosat bosqichiga o'tilganini ko'rsatadi.

Ushbu dinamikada ijtimoiy xarajatlarning yuqori ulushi davlat budjetining ijtimoiy yo'nalganlik tamoyiliga sodiqligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu tendensiya Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan "inson qadri uchun" tamoyilining amaliy ro'yobini ifodalaydi. Umuman olganda, tahlil natijalari ijtimoiy sohalarga yo'naltirilgan budjet siyosati iqtisodiy o'sishning barqaror manbai sifatida shakllanayotganini tasdiqlaydi. Bu esa kelgusida ta'lim, sog'liqni saqlash va bandlik siyosatini yanada modernizatsiya qilish uchun moliyaviy poydevor yaratadi. E'tirof etish joizki, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarining asosiy qismini soliqlar tashkil etadi. Bu holat mamlakat fiskal siyosatining daromad tomonida soliq tushumlariga yuqori darajada tayanayotganini ko'rsatadi. Soliqlarning umumiy budjet daromdlari tarkibidagi ustuvor salmog'i davlat moliyasining asosiy manbai sifatida soliq tizimining samaradorligi va barqarorligiga bog'liqligini anglatadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston byudjetining soliqdarga qaramlik darajasi iqtisodiy siyosatning fiskal barqarorlik darajasini belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunda, ayniqsa, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), foyda solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va aksiz solig'ilar asosiy fiskal manba sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, so'nggi yillarda soliq siyosatining isloh qilinishi, soliq stavkalarining bosqichma-bosqich pasaytirilishi, soliq ma'murchiligining raqamlashtirilishi va soliq bazasining kengaytirilishi natijasida budjet daromdlari barqaror o'sish sur'atini namoyish etmoqda. Bu jarayon soliq tizimining iqtisodiyot bilan o'zaro uyg'unlashuvini kuchaytirib, soliq tushumlarining prognozga nisbatan yuqori bajarilishiga imkon yaratmoqda.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasida soliqlarning davlat budjeti daromadlaridagi ulushi fiskal siyosatning strategik yo'nalishini belgilaydi. Bu esa, o'z navbatida, soliq islohotlarini chuqurlashtirish, soya iqtisodiyotini qisqartirish, soliq intizomini mustahkamlash va davlat byudjetining daromad bazasini diversifikatsiyalash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

**SOLIQLARNING DAVLAT BUDJETIDAGI
ULUSHI (2020–2024, foizda)**



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmida soliqlarning ulushi, foizda

2-rasm tahlilidan ko‘rinib turibdiki, 2020–2024-yillar oralig‘ida soliqlarning davlat budjeti daromadlari tarkibidagi ulushi nisbatan yuqori bo‘lib qolgan. 2024-yil yakuniga kelib, ushbu ko‘rsatkich 64,9 foizni tashkil etgan. 2021–2023-yillarda bilvosita soliqlar ulushi sezilarli oshgan bo‘lsa-da, 2024-yilda bu tendensiya pasayish yo‘nalishiga o‘zgargan. Bunday o‘zgarish iqtisodiyotda soliq bazasining tarkibiy qayta shakllanishi, bilvosita soliqlarning qisqarishi hamda soliq imtiyozlari tizimi ta‘sirida yuzaga kelgan. Umuman olganda, soliq tushumlarining yuqori salmog‘i fiskal siyosatning barqarorligini ta‘minlashda muhim omil sifatida xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, soliqqa tortish tizimida diversifikatsiyani chuqurlashtirish, noinflyatsion daromad manbalarini kengaytirish hamda soliq yukining muvozanatini ta‘minlash masalalari o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Davlat budjeti siyosatida kuzatilayotgan yana bir muhim masala — budget defitsitining yuqori darajada saqlanib qolayotganidir. Bu holatning asosiy sababi sifatida davlat tashqi qarzining muayyan qismining budget xarajatlarini moliyalashtirishga yo‘naltirilishi qayd etiladi. Bunday amaliyot, bir tomondan, joriy fiskal barqarorlikni saqlash imkonini bersa, boshqa tomondan, makroiqtisodiy muvozanat va milliy valyuta barqarorligiga ma‘lum darajada xavf tug‘diradi. Shu bilan birga, doimiy budget defitsitining saqlanib qolishi uzoq muddatda davlat qarz hajmining ortishiga, foiz to‘lovlari yukining og‘irlashishiga, hamda fiskal mustaqillikning kamayishiga olib kelishi mumkin. Bunday holatda davlat ichki moliyaviy resurslarni safarbar etish, soliq bazasini kengaytirish, byudjet xarajatlarining samaradorligini oshirish, shuningdek tashqi qarz mablag‘laridan foydalanish ustidan qat‘iy monitoring o‘rnatish orqali defitsitning xavfli darajasini pasaytirishi lozim. Ushbu yondashuv fiskal siyosatning uzoq muddatli barqarorligini ta‘minlash va makroiqtisodiy muvozanatni mustahkamlashning asosiy shartidir.

2-jadval. O‘zbekiston Respublikasida davlat tashqi qarzining Davlat budjeti xarajatlarini moliyalashtirishga yo‘naltirilgan qismi ulushi (2020–2024-yillar, foizda)

Yil	Davlat tashqi qarzining Davlat budjeti xarajatlarini moliyalashtirishga yo‘naltirilgan ulushi, %
2020-yil	20
2021-yil	25
2022-yil	33
2023-yil	40
2024-yil	47

2-jadval ma‘lumotlaridan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasida davlat tashqi qarzining davlat budjeti xarajatlarini moliyalashtirishga yo‘naltirilgan ulushi 2020–2024-yillar davomida barqaror o‘shish tendensiyasini namoyon etgan. 2024-yil yakuniga kelib mazkur ko‘rsatkich 47 foizga yetgan bo‘lib, bu davlat budjeti xarajatlarining deyarli yarmi tashqi qarz mablag‘lari hisobidan qoplanayotganini anglatadi. Mazkur holat qisqa muddatda davlat byudjeti ijrosini ta‘minlash va investitsion loyihalarni moliyalashtirish imkonini bersa-da, uzoq muddatli istiqbolda davlat qarzining barqarorligi hamda inflyatsion bosimning ortishi xavfini yuzaga keltiradi. Chunki tashqi qarz hisobidan amalga oshiriladigan moliyalashtirish jarayonlari ichki pul massasining ortishiga, natijada esa iste‘mol narxlarining o‘shishiga olib keladi. Bundan tashqari, tashqi qarz mablag‘larining asosiy qismi infratuzilma va ijtimoiy loyihalarga yo‘naltirilayotgan bo‘lsa-da, ushbu sohalarida iqtisodiy rentabellik darajasining pastligi qarz xizmatini qoplash yukini oshirib, fiskal barqarorlikka bosim ko‘rsatmoqda. Shu sababli, tashqi qarz siyosatini takomillashtirishda qarz mablag‘laridan samarali foydalanish, ularning qaytaruvchanligini oshirish, hamda investitsiyalarning iqtisodiy natijadorligini baholovchi mexanizmlarni kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, 2020–2024-yillar mobaynida O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining asosiy tendensiyasi — bu daromad va xarajatlarning mutanosib o‘shishi bilan bir qatorda, doimiy defitsitning saqlanib qolishidir. Bu holat fiskal tizimda barqaror, ammo nazorat ostidagi moliyaviy muvozanat mavjudligini bildiradi. Budget siyosatini takomillashtirish istiqbollari nuqtai nazaridan esa, quyidagi strategik yo‘nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etadi: Soliq bazasini kengaytirish va soliqqa tortish tizimining adolatli mexanizmlarini rivojlantirish; Davlat xarajatlarining natijadorligi va maqsadlilikini oshirish; Tashqi qarzga qaramlik darajasini bosqichma-bosqich kamaytirish; Budget jarayonini raqamlashtirish va ochiqlikni ta‘minlash orqali fiskal boshqaruvda shaffoflikni kuchaytirish. Ushbu yo‘nalishlarning izchil amalga oshirilishi O‘zbekiston Respublikasining fiskal barqarorligi, makroiqtisodiy muvozanati hamda davlat moliyasining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, davlat budget siyosatini takomillashtirish masalasi mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligi, moliyaviy mustahkamligi va ijtimoiy rivojlanish sur‘atlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatuvchi strategik omil sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. O‘tkazilgan tahlillar asosida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, davlat budget siyosatiga iqtisodiy yondashuvning mazmuni shundan iboratki, budget defitsiti muammosini qisqa muddatli moliyaviy choralar orqali emas, balki iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlovchi kompleks yondashuv asosida hal etish zarur. Bunda fiskal intizomni kuchaytirish, davlat xarajatlarini maqbullashtirish, shuningdek, soliq bazasini kengaytirish davlat moliyasining barqarorligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, budget mablag‘laridan foydalanish samaradorligini baholash jarayonida kutilgan va erishilgan natijalar o‘rtasidagi tafovut asosiy mezon sifatida e‘tirof etilishi lozim. Shu maqsadda natijaviylik indeksi, iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichi va ijtimoiy ta‘sir darajasi kabi indikatorlar tizimidan foydalanish tavsiya etiladi. Mazkur yondashuv budget mablag‘larining haqiqiy foydalilik darajasini aniqlash hamda xarajatlarning maqsadlilik va shaffoflik tamoyillariga muvofiqiligini baholash imkonini beradi.

Uchinchidan, 2020–2024-yillar oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining daromad va xarajatlari hajmi izchil o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, mazkur davrda barqaror budget defitsiti saqlanib qolgan. Boshqacha aytganda, xarajatlar hajmining daromadlarga nisbatan yuqoriligi fiskal muvozanatning to‘liq

ta'minlanmaganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, budjet xarajatlari tarkibida ijtimoiy xarajatlarning yuqori ulushi saqlanib qolgan bo'lib, bu ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishini ifodalaydi.

To'rtinchidan, o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat budjeti daromadlarining asosiy manbai sifatida soliqlar ustun mavqega ega. Bu esa O'zbekiston fiskal tizimining soliq'larga yuqori darajada tayanayotganini anglatadi. Shuning uchun soliqqa tortish tizimini diversifikatsiya qilish, soliq imtiyozlarini maqbullashtirish, va soliq yig'implari samaradorligini oshirish zarur. Soliq bazasining barqarorligini ta'minlash orqali budjet daromadlari barqaror o'sish sur'atiga ega bo'lishi, shu bilan birga iqtisodiy faollikni rag'batlantirish imkoniyati yaratiladi.

Beshinchidan, so'nggi yillarda davlat budjeti doimiy ravishda yirik defitsit bilan bajarilayotgani, tashqi qarz mablag'larining muayyan qismi budjet xarajatlarini moliyalashtirishga yo'naltirilayotgani, hamda ijtimoiy xarajatlarning normativ asosda rejalashtirilmasligi fiskal siyosatning dolzarb muammolari sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday holat fiskal barqarorlikka bosimni kuchaytiradi, shuning uchun davlat budjeti siyosatini isloh qilish zaruriy ehtiyojga aylanmoqda.

Mazkur xulosalardan kelib chiqib, davlat budjet siyosatini takomillashtirish maqsadida quyidagi ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Pul-kredit siyosati va fiskal siyosat o'rtasida muvozanatni ta'minlash. Tijorat banklari kreditlari bo'yicha foiz stavkalarining past va barqaror darajasini saqlash orqali xususiy sektorning investitsion faolligini oshirish lozim. Bu holat davlat budjeti xarajatlarning bir qismini xususiy kapital hisobidan moliyalashtirish imkonini beradi. Kredit resurslarining arzonlashuvi esa ishlab chiqarish hajmining kengayishiga, soliq tushumlarining ortishiga va natijada budjet defitsitining qisqarishiga xizmat qiladi.

2. Davlat qimmatli qog'ozlari bozorini rivojlantirish. Hukumat obligatsiyalari va boshqa moliyaviy instrumentlarning investitsion jozibadorligini oshirish orqali ularning emissiyasini kengaytirish zarur. Bu chora tashqi qarzga qaramlikni kamaytiradi, ichki moliyaviy resurslarni safarbar etadi hamda fiskal mustaqillikni mustahkamlaydi.

3. Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimini takomillashtirish. Budjet siyosatini uzoq muddatli strategik maqsadlar bilan uyg'unlashtirish, xarajatlarni rejalashtirishda samaradorlik va muddatlilik mezonlarini joriy etish lozim. Bu tizim har bir xarajat yo'nalishining aniq natija ko'rsatkichlari bilan bog'lanishini ta'minlaydi. Masalan, sog'liqni saqlashda — davolangan bemorlar soni, ta'lim sohasida — oliy o'quv yurtlariga kirgan bitiruvchilar ulushi kabi ko'rsatkichlar budjet samaradorligining real o'lchovlari sifatida qo'llanilishi kerak.

4. Budjet jarayonida shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish. "Raqamli budjet" tizimini keng joriy etish orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, budjet ma'lumotlarining ochiqqligini ta'minlash hamda korrupsiya xavfini kamaytirish zarur. Shaffoflik fiskal siyosatga bo'lgan ishonchni oshiradi va resurslardan oqilona foydalanishni kafolatlaydi. Umuman olganda, davlat budjet siyosatini takomillashtirish nafaqat fiskal ko'rsatkichlarni yaxshilash, balki iqtisodiy o'sishning sifat jihatlarini mustahkamlash, ijtimoiy sohalarga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmini oshirish va davlat moliyasining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan kompleks jarayondir. Shu sababli, O'zbekiston sharoitida budjet siyosatini modernizatsiya qilish ilmiy asoslangan yondashuvlar, zamonaviy boshqaruv texnologiyalari va xalqaro tajriba bilan uyg'unlashtirilgan holda olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022, 28-yanvar). 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida [Farmon]. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2022-01-29, 06/22/60/0082-son; 2022-03-18, 06/22/89/0227-son; 2022-04-21, 06/22/113/0330-son.
2. Сажина, М. А. (2005). Бюджетная политика государства. Финансы и кредит, (27), 2–12.
3. Никонова, Е. Ю. (2008). Бюджетная политика государства – основа реорганизации межбюджетных отношений. Вестник Чувашского университета, (4), 23–29.
4. Вершило, Т. В. (2012). Принцип результативности и эффективности использования бюджетных средств: правовые проблемы реализации. Финансовое право, (12), 21–24.
5. Чепуров, С. И. (2020). Развитие принципа эффективности использования бюджетных средств. Молодой учёный, (32), 88–89. <https://moluch.ru/archive/322/73052/>
6. Korres, G. M., & Kokkinou, A. (2014). Public spending efficiency: A stochastic frontier approach on technical efficiency and regional growth. International Journal of Social Ecology and Sustainable Development. <https://doi.org/10.4018/IJSESD.2014100101>
7. Крохина, Ю. А. (2018). Эффективное расходование бюджетных средств: состояние и перспективы совершенствования правового регулирования. Экономика. Право. Общество, 1(13), 34–39.
8. Hakimov, H. A. (2018). Budjet qoidalari va ularning iqtisodiy samaradorligi [Budget rules and their economic efficiency]. In Qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda xalqaro standartlarni joriy etish: muammo va yechimlar (pp. 510). T.: Iqtisodiyot.
9. Xaydarov, M. (2014). Budjet kodeksini joriy etish sharoitida xarajatlar majburiyatlari reyestrini tuzish [Formation of the register of expenditure obligations under the conditions of the introduction of the Budget Code]. Iqtisod va moliya, (6), 2–9.
10. O'zbekiston Respublikasi. (2024, 24-dekabr). 2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida [Qonun O'RQ-1011-son]. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2024-12-25, 03/24/1011/1062-son.

Annotatsiya: Tadqiqotda budjet siyosatining nazariy-metodologik poydevori, uning makroiqtisodiy tartibga solishdagi o'rni va funksional mexanizmlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, soliqlar, davlat qarz, budjet taqchilligi hamda davlat xarajatlari samaradorligi o'rtasidagi iqtisodiy bog'liqliklar tizimli yondashuv asosida o'rganiladi. Maqolada budjet jarayonining ochiqqligini ta'minlash, daromadlar bazasini kengaytirish, davlat qarzini boshqarishning uzoq muddatli strategiyasini shakllantirish hamda "yashil obligatsiyalar", davlat-xususiy sheriklik kabi innovatsion moliyaviy instrumentlardan foydalanish istiqbollari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: budjet, budjet barqarorligi, budjet taqchilligi, davlat budjeti, hududiy budjet, fuqarolik budjet.

Аннотация: В исследовании анализируется теоретико-методологическая основа бюджетной политики, её роль в макроэкономическом регулировании и функциональные механизмы реализации. Наряду с этим, системным подходом

изучаются взаимосвязи между налогами, государственным долгом, бюджетным дефицитом и эффективностью государственных расходов. В статье рассматриваются вопросы обеспечения прозрачности бюджетного процесса, расширения доходной базы бюджета, разработки долгосрочной стратегии управления государственным долгом, а также перспективы использования инновационных финансовых инструментов, таких как «зелёные облигации» и механизмы государственно-частного партнёрства.

Ключевые слова: бюджет, стабильность бюджета, дефицит бюджета, государственный бюджет, региональный бюджет, гражданский бюджет.

Annotation: The study analyzes the theoretical and methodological foundations of budget policy, its role in macroeconomic regulation, and its functional mechanisms. It also explores, through a systemic approach, the interrelations between taxation, public debt, budget deficit, and the efficiency of government expenditures. The article examines issues related to ensuring the transparency of the budget process, expanding the revenue base, developing long-term strategies for public debt management, and exploring the prospects for utilizing innovative financial instruments such as “green bonds” and public-private partnership mechanisms.

Key words: budget, budget stability, budget deficit, state budget, regional budget, civil budget.

TRANSPORT KORXONALARIDA INNOVATSION SALOHIYATNI SHAKLLANTIRISH VA BAHOLASH TENDENSIYALARI

Berdimuratov K. G.

QMU dotsenti

Zamonaviy global iqtisodiy makonda kechayotgan **globallashuv va integratsiya jarayonlari, raqobatning keskinlashuvi**, hamda **geosiyosiy o'zgarishlar** natijasida ishlab chiqarish va texnologik resurslarning qayta taqsimlanishi barcha mamlakatlar va xo'jalik yurituvchi subyektlar oldiga **o'z iqtisodiy pozitsiyasini saqlab qolish va rivojlantirish** kabi dolzarb vazifalarni qo'yimoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish yo'nalishlarida, xususan, **korxonalarining innovatsion faoliyati** taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bilan birga, **ilm-fan, ishlab chiqarish, ta'lim va jamiyat o'rtasidagi innovatsion aloqalarni shakllantirish** korxonalarining iqtisodiy barqarorligi hamda texnologik raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, **innovatsion salohiyatning shakllanishi va samaradorligini oshirishning nazariy hamda amaliy jihatlarini o'rganish** bugungi kunda iqtisodiy fanlarning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zero, innovatsion salohiyat korxonaning **modernizatsiya, moslashuv va yangilanish qobiliyatini** belgilovchi, raqobat ustunligini shakllantiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Shunga qaramay, **xo'jalik yurituvchi subyektlarda innovatsion faoliyatni boshqarish, uni baholash va salohiyatini rivojlantirish bilan bog'liq masalalar** hali ham ko'plab ilmiy munozaralarga sabab bo'lmoqda. YE.A. Lapteva [1]ning fikricha, **innovatsion salohiyat** — bu iqtisodiy tizimning asosiy bo'g'ini bo'lgan korxonaning yangilanish, modernizatsiya va texnologik ustunlikka erishish qobiliyatini aks ettiruvchi kompleks iqtisodiy kategoriya hisoblanadi.

Shuningdek, innovatsiya nazariyasida **innovatsion salohiyatning tarkibiy tuzilmasi** uch asosiy yo'nalishda tahlil etiladi: **umumiy innovatsion salohiyat, resurs va ishlab chiqarish salohiyati**, hamda **ichki tashkiliy salohiyat**. Ularning uyg'unligi korxonaning innovatsion rivojlanish darajasini belgilovchi mezon sifatida namoyon bo'ladi [2].

O'zbekiston Respublikasida innovatsion rivojlanish jarayonlariga davlat miqyosida alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur yo'nalishdagi amaliy islohotlarning boshlanish nuqtasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-apreldagi PQ-3682-sonli “Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga tatbiq etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur qarorda qayd etilishicha, ilmiy va amaliy tadqiqotlar natijalarini ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etish, texnik va texnologik yangilanishni ta'minlash hamda nou-xau elementlarini keng joriy etish iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, hujjatda ilmiy tashkilotlar bilan real sektor korxonalari o'rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish, innovatsion g'oyalarni tijoratlashtirish va ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiya qilish mamlakatning barqaror va tezkor innovatsion taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilgan. Natijada, ushbu qaror O'zbekistonning innovatsion siyosatini shakllantirishda konseptual burilish nuqtasi bo'lib, korxonalarda innovatsion salohiyatni baholash, rivojlantirish va boshqarish tizimining huquqiy poydevorini yaratdi. Innovatsion rivojlanish nazariyasi iqtisodiy tafakkur tarixida alohida o'rin tutadi. Ushbu yo'nalishning ilmiy asoslarini yaratgan avstriyalik iqtisodchi Yozef Shumpeter bo'lib, u 1911-yilda chop etilgan “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” asarida birinchi bo'lib innovatsiyani iqtisodiy o'sishning ichki harakatlantiruvchi kuchi sifatida izohladi. Olimning fikricha, radikal texnologik o'zgarishlar va yangiliklar iqtisodiy tanazzul davrlarida yangi imkoniyatlar eshigini ochadi, ishlab chiqarishni qayta tiklaydi va raqobatbardoshlikni ta'minlaydi. Shumpeter innovatsiyani “yaratuvchi vayronkorlik” (“creative destruction”) tamoyili orqali tushuntirgan bo'lib, u iqtisodiyotning yangilanishini doimiy jarayon sifatida talqin etgan. XX asrning 30-yillaridan boshlab, u “innovatsiya” terminini ilmiy muomalaga kiritib, uni iqtisodiy tizimni modernizatsiya qiluvchi mexanizm sifatida asoslab berdi. Shumpeterning ushbu konsepsiyasi keyinchalik dunyo iqtisodiyotida innovatsion rivojlanish siyosatlarining nazariy poydevoriga aylandi.

MDH olimlari orasida bu yo'nalishni chuqurlashtirganlardan biri — V. A. Balukova, I. A. Sadchikov va V. Ye. Somov bo'lib, ular innovatsiyani ixtiro yoki g'oyaning amaliy foydalanishga o'tish jarayoni sifatida talqin qilganlar [3]. I. T. Balabanov esa bu jarayonni natija nuqtai nazaridan o'rganib, innovatsiyani yangilikdan iqtisodiy samara olish holati deb baholaydi. Shu jihatdan, innovatsiyaning mohiyati haqida turli ilmiy maktablar o'ziga xos yondashuvlarni ilgari surganini kuzatish mumkin [4]. Mahalliy olimlardan I. Abdurahmonov innovatsiyaga g'oyat qisqa, ammo chuqur

mazmunga ega ta'rif bergan: "Ilm mablag'ga aylansa, ana shu innovatsiya." Ushbu fikr innovatsiyaning iqtisodiyotdagi amaliy mohiyatini — ya'ni ilmiy izlanishlarning iqtisodiy qiymatga aylanish jarayonini yaqqol ifodalaydi.

Shuningdek, O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar Sh. N. Zaynutdinov, D. Shodiyeva, I. S. Xotamov, M. Rasulov, A. E. Norov va G. P. G'ulomova o'z ilmiy ishlarida korxonalarda innovatsion boshqaruv samaradorligini oshirish, inson kapitalining roli va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish masalalarini chuqur tahlil qilganlar [5]. Ularning qarashlarida innovatsion faoliyatning muvaffaqiyati ko'p jihatdan inson omili, malakali kadrlar va boshqaruv madaniyatiga bog'liqligi ta'kidlanadi. Innovatsion rivojlanish nazariyasining shakllanishi jarayonini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu yo'nalish turli iqtisodiy maktablarning g'oyalari asosida bosqichma-bosqich rivojlangan. Dastlabki davrda (merkantilistlar — A. Monkreyten, T. Men, A. L. Ordin-Nashekin, I. T. Pososhkov va boshqalar [6]) innovatsiyalar mehnat unumdorligini oshirish va savdo kapitalini kengaytirish vositasi sifatida talqin qilingan. Keyinchalik fiziokratlar maktabi vakillari — F. Kene, A. Tyurgo, S. Bodo, I. Tyunen va boshqalar [7] innovatsiyani tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish omillarining muvozanatini ta'minlash nuqtai nazaridan baholaganlar.

Klassik iqtisodiy maktab vakillari — R. Kantilyon, A. Smit, D. Rikardo va ularning izdoshlari esa innovatsiyani iqtisodiy o'sishning muhim tarkibiy omili sifatida talqin etib, bu jarayonda bilim, kapital va davlatning rag'batlantiruvchi rolini alohida ajratib ko'rsatganlar [8]. Shu tariqa, innovatsion rivojlanish nazariyasining evolyutsiyasi iqtisodiy fikr tarixida ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni yangilash, samaradorlikni oshirish va raqobat ustunligini shakllantirish bilan chambarchas bog'liq ekanini namoyon etadi.

Tadqiqot metodologiyasi transport tizimi korxonalarining innovatsion salohiyatini baholashda statistik ma'lumotlar, soha hisobotlari va korxona ko'rsatkichlari asosida amalga oshiriladi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Transport vazirligi va tegishli tarmoq korxonalari hisobotlaridan olingan bo'lib, ularning tahlili korrelyatsion-regression va komparativ usullar orqali bajarilgan.

Innovatsion rivojlanishning zamonaviy nazariyasi iqtisodiy rivojlanish, innovatsiya va tadbirkorlik nazariyalarining sinteziga asoslanib, tadqiqot obyektni kompleks tahlil qilish hamda metodologik yondashuvlarni diversifikatsiya qilish orqali shakllanmoqda [9]. Bugungi kunda innovatsiyalarning kelib chiqish manbalari, ularni rag'batlantiruvchi omillar va bu jarayonda davlat hamda institutlarning o'rni nazariy jihatdan chuqur o'rganilmoqda. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy innovatsion tizimni rivojlantirish uchun mustahkam ilmiy-huquqiy zamin yaratilgan bo'lib, kimyo, energetika, biologiya, tibbiyot, elektronika va qishloq xo'jaligi kabi sohalarda keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Mahalliy olimlar — A. Sh. Bekturodov, B. B. Berkinov, N. Q. Yuldashev, B. K. G'oyibnazarov, Sh. N. Zaynutdinov, R. I. Nurimbetov va boshqalar innovatsion rivojlanish yo'nalishida ilmiy izlanishlar olib borib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi yondashuvlarni ishlab chiqmoqdalar [10–12]. Shu bilan birga, resursli yondashuv tarafdorlari S. N. Yashin, N. A. Murashova va S. D. Karlina [14] innovatsion salohiyatni kadrlar, texnologik, moliyaviy va ilmiy resurslar majmui sifatida talqin etadilar. Ularning fikricha, korxonaning innovatsion salohiyati aynan ushbu moddiy va nomoddiy omillar uyg'unligida namoyon bo'ladi hamda kadrlar, texnologik, moliyaviy va ilmiy salohiyat turlarini o'z ichiga oladi. Bizning fikrimizcha, bunday yondashuv korxonadagi innovatsion rivojlanganlik holatini, ya'ni innovatsion salohiyat darajasini baholash imkonini beradi. Chunki resursli yondashuv nafaqat mavjud imkoniyatlarni aniqlashga, balki ularning samarali kombinatsiyasini shakllantirish orqali korxonaning raqobatbardoshligini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, innovatsion salohiyatni baholashda inson kapitali, texnologik yangilanish, ilmiy tadqiqot faoliyati va investitsion resurslar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni chuqur tahlil etish zarur. Ana shundagina korxonaning innovatsion salohiyati real iqtisodiy natijalarga aylanishi, ya'ni ishlab chiqarish samaradorligi va qo'shimcha qiymat yaratish jarayonida o'z aksini topadi. Biroq u korxonaning innovatsion rivojlanganlik darajasini to'liq aks ettira olmaydi. Shu bois bu yo'nalishda yanada chuqurroq ilmiy tadqiqotlar olib borish zarur (1-rasm)



1-rasm. Korxonaning innovatsion salohiyatini tashkil etuvchi asosiy tarkibiy qismlar

Korxonaning innovatsion salohiyatini aniqlashda navbatdagi yondashuv sifatida shuni aytish mumkinki, ko'p miqdordagi zaxiralarga ega bo'lib, ammo innovatsion salohiyati past bo'lgan korxonalar mavjud. Shuningdek, aksincha, innovatsion salohiyati yuqori, biroq mavjud zaxiralari cheklangan ishlab chiqarish korxonalari ham mavjud. Mazkur yondashuv mualliflari V. L. Gorbunov va P. G. Matveyevlar korxonaning innovatsion salohiyatini quyidagicha tavsiflaydilar (2-rasm). Ularning fikricha, korxonaning innovatsion salohiyati — bu korxonaning innovatsion faoliyatini belgilovchi ko'rsatkichlar majmuasidir. Bunda innovatsion faoliyat olingan patentlar, nomoddiy aktivlar, intellektual mulk obyektlari, zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlik darajasi hamda intellektual salohiyatni o'z ichiga oladi. Biroq bizningcha, bunday yondashuv bir qator kamchiliklarga ega. Eng avvalo, u korxonaning innovatsion salohiyatini faqat mavjud holat asosida baholaydi, bu esa innovatsion rivojlanishning istiqbolli yo'nalishlarini yetarlicha aks ettirmaydi (2-rasm).



2-rasm. Korxonaning innovatsion salohiyat tarkibiga natijaviylik bo'yicha yondashuv

Iqtisodchi olim B. Lisin [16]ning fikricha, innovatsion salohiyat — bu korxonaning maqsadli natijalarga erishish uchun harakatga keltirilishi mumkin bo'lgan, ammo hali to'liq ishga solinmagan yoki yashirin resurs imkoniyatlarini o'z ichiga oluvchi iqtisodiy imkoniyatlar majmuasidir. Biroq, bizning fikrimizcha, bunday ta'rif innovatsion salohiyatning mohiyati va tuzilmasini aniqlashda ma'lum darajada noaniqlikni yuzaga keltiradi, chunki u faqat resurs omiliga urg'u beradi, natijaviylik va boshqaruv mexanizmlarini to'liq aks ettirmaydi. Shu bois, J. A. Mingaleva va I. I. Platinyuk [17] tomonidan ilgari surilgan natijaviylikka asoslangan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning fikricha, korxonaning innovatsion faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlari — innovatsion salohiyatning real ifodasidir. Biroq, bu natijalar har doim ham korxonaning haqiqiy innovatsion salohiyat darajasini to'liq aks ettira olmaydi, chunki salohiyatning ichki imkoniyatlari ba'zan tashqi natijalarda to'liq namoyon bo'lmaydi. Shu sababli, innovatsion salohiyatni baholashda resurs, natijaviylik va boshqaruv yondashuvlarini uyg'unlashtirgan kompleks modelni qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Navbatdagi yondashuv korxonaning innovatsion salohiyatini ichki imkoniyatlarga tayanib shakllantirish g'oyasiga asoslanadi. Bu yondashuvning asosiy tarafdorlari A. N. Plotnikov va S. N. Litoninskiylar [18] bo'lib, ular innovatsion salohiyatni korxonaning ichki imkoniyatlarini ishga solish orqali innovatsion faoliyatni kengaytirish va yangilanishga erishish qobiliyati sifatida talqin etadilar. Ularning fikricha, innovatsion salohiyat bu faqat mavjud resurslar, texnologiyalar yoki erishilgan natijalar yig'indisi emas, balki korxona ichida kechayotgan jarayonlar, ularning o'zaro integratsiyasi va boshqaruv mexanizmlarining uyg'unligini ham ifodalaydi. Shu bois, mazkur yondashuv innovatsion rivojlanishning dinamik va tizimli xarakterini aks ettirib, salohiyatni faqat natija emas, balki doimiy rivojlanish jarayoni sifatida talqin etadi (3-rasm).



3-rasm. Korxonaning innovatsion salohiyati tarkibini ichki imkoniyatlar bo'yicha shakllantirish yondashuvi

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, innovatsion salohiyat, xususan, korxona darajasidagi innovatsion salohiyatni talqin etishda turli ilmiy yondashuvlar mavjud. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion salohiyatni aniqlashda ayrim olimlar uni iqtisodiy salohiyatning tarkibiy qismi sifatida baholaydilar. Bunday yondashuvga ko'ra, innovatsion salohiyat takror ishlab chiqarish jarayonida zarur shart-sharoitlarni yaratib, iqtisodiy o'sish va rivojlanishning muhim omili sifatida xizmat qiladi hamda tizimning ichki dinamikasini belgilaydi [20]. Shu bilan birga, G'arb iqtisodchi olimlari innovatsiyalarni boshqarish nazariyasida innovatsion salohiyatni boshqaruv jarayonining markaziy elementi sifatida ko'radilar. Ularning fikricha, innovatsion salohiyatni baholash jarayoni korxonaning tashqi muhitdagi o'zgarishlarga moslashuvi, ichki resurslardan samarali foydalanishi va natijaviylik darajasini aniqlashni o'z ichiga oladi [21]. Biroq, hozirgi kunda ham korxonalar darajasida innovatsion salohiyatni boshqarish bo'yicha yagona metodologik yondashuv shakllanmagan. Bu esa baholash natijalarida turlicha talqinlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Shu bois, G'arb iqtisodchilari tomonidan taklif etilgan yondashuvlarda innovatsion salohiyatni baholash uch yo'nalishda — miqdoriy, sifat va aralash ko'rsatkichlar asosida amalga oshiriladi. Bu esa, o'z navbatida, korxonaning innovatsion rivojlanish darajasini kompleks baholash va boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash imkonini beradi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ayrim iqtisodchi olimlar korxonaning innovatsion salohiyatini mavjud barcha salohiyatlar majmuasi sifatida talqin etadilar. Ularning fikricha, ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat va investitsion salohiyatlar birgalikda innovatsion rivojlanishning poydevorini tashkil etadi. Biroq, bizning fikrimizcha, korxonaning innovatsion salohiyatini alohida mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida o'rganish zarur. Chunki u nafaqat mavjud resurslardan foydalanish darajasini, balki yangilik yaratish, texnologik yangilanishni amalga oshirish va innovatsion g'oyalarni iqtisodiy foydaga aylantirish imkoniyatini ham aks ettiradi.

Mazkur yo'nalishda xorijiy olimlar bilan bir qatorda O'zbekistonlik tadqiqotchilar ham salmoqli ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Xususan, iqtisodchi olim E. B. Iskandarov [23] tomonidan ilgari surilgan yondashuvga ko'ra, korxonaning innovatsion salohiyati — bu faqat ilmiy-tadqiqot imkoniyatlari emas, balki texnika va texnologiyalar bilan ta'minlanganlik darajasi, texnologik salohiyat, innovatsion faoliyatning natijaviyligi (ya'ni, keltirilgan iqtisodiy foyda), shuningdek, xodimlar hissasiga to'g'ri keluvchi innovatsion mahsulot hajmi bilan ham belgilanadi. Bundan tashqari, u innovatsion salohiyatni aholi turmush darajasiga ta'sir ko'rsatish salohiyati orqali ham baholashni taklif etadi, bu esa

innovatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini chuqurroq ochib beradi. Bizning fikrimizcha, korxonaning innovatsion salohiyatini baholashda ushbu yondashuv eng maqbul va amaliy jihatdan samarali usullardan biri hisoblanadi. Chunki u nafaqat korxonadagi mavjud innovatsion faoliyat darajasini aniqlash va o'lchash, balki uni mustaqil baholash mezonini sifatida qo'llash imkonini ham beradi. Bu orqali korxonaning innovatsion faoliyat natijalarini tahlil qilish, resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash va kelgusidagi strategik rivojlanish yo'nalishlarini belgilash mumkin bo'ladi.

Shuningdek, korxonaning iqtisodiy salohiyati tushunchasining nazariy hamda amaliy mazmunidan kelib chiqib, biz ushbu yondashuv asosida ehtimoliy innovatsion salohiyat darajasini aniqlashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bunday baholash modeli korxonaning hozirgi imkoniyatlari bilan bir qatorda, uning rivojlanish potentsialini ham aks ettiradi, bu esa strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, korxonaning innovatsion salohiyatini baholashda uning ilmiy-tadqiqot, texnik, natijaviy va ijtimoiy ta'sir salohiyatlarini ham qamrab olish maqsadga muvofiqdir. Chunki innovatsion faoliyat faqat yangi texnologiyalarni joriy etish bilan cheklanmay, balki korxona faoliyatining barcha bo'g'inlarini — boshqaruv, ishlab chiqarish, moliya va kadrlar tizimini ham o'zaro uyg'un holda rivojlantirishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, korxona rahbariyati tomonidan barcha bo'lim va bo'linmalar o'rtasida muvofiqlashtirilgan boshqaruv tizimini yaratish, xodimlarni rag'batlantirish va ularning ijodiy faolligini oshirish orqali innovatsion natijadorlikni maksimal darajaga yetkazish strategik ahamiyatga ega omil hisoblanadi.

Biroq bu jarayonning muvaffaqiyati, avvalo, korxonaning texnikaviy tayyorgarlik darajasi bilan chambarchas bog'liq. Innovatsiyalarni samarali joriy etish uchun asosiy fondlarning yaroqlilik koeffitsiyenti, qoldiq qiymati, yangilanish koeffitsiyenti, innovatsiyalarga qilingan xarajatlar ulushi, shuningdek, amaliy tadqiqotlar va ishlanmalarga yo'naltirilgan mablag'lar kabi ko'rsatkichlar talab darajasida bo'lishi zarur. Aynan texnikaviy salohiyatning yetarli darajada shakllanganligi korxonaning innovatsion imkoniyatlaridan to'liq foydalanish va barqaror raqobatbardoshlikka erishish uchun asos yaratadi. Korxonaning innovatsiyalar natijaviyligi salohiyati deganda, innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi, shuningdek ishlab chiqarilgan mahsulot va ko'rsatilgan xizmatlar tarkibida innovatsion komponentlarning hisssasi tushuniladi. Ushbu ko'rsatkich korxonaning innovatsion siyosatini qanchalik samarali amalga oshirayotganini, ya'ni sarmoyalar real iqtisodiy natijalarga qay darajada aylantirilayotganini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, innovatsiyalarning turmush darajasiga ta'siri salohiyati xodimlar va iste'molchilar farovonligiga ta'sir ko'rsatish darajasini baholaydi. U har bir xodim hissasiga to'g'ri keluvchi innovatsion mahsulot va xizmatlar ulushi orqali aniqlanib, korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini, ya'ni innovatsiyalar orqali yaratilayotgan qo'shimcha qiymatning jamiyat farovonligiga qo'shayotgan hissasini ifodalaydi.

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'liga yo'naltirish zarurati keng ko'lamli texnologik, tashkiliy va institutsional o'zgarishlarni amalga oshirishni, shuningdek, innovatsion faollikni oshirish bilan bog'liq masalalarni kompleks hal etishni taqozo etadi. Bugungi kunda milliy iqtisodiyotning asosiy drayverlari bo'lgan tarmoqlar va ishlab chiqarish komplekslari innovatsion rivojlanish strategiyalarini tatbiq etish orqali barqaror raqobat ustunligini shakllantirmoqda. Shu nuqtai nazardan, xo'jalik yurituvchi subyektlarning innovatsion rivojlanish jarayonlarini tahlil qilish, ularning innovatsion salohiyatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda innovatsion o'sishni ta'minlaydigan resurs bazasini chuqur o'rganish zarurdir. Bunday yondashuv nafaqat korxonalar darajasida innovatsion boshqaruvni takomillashtirish, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish uchun ham muhim metodologik asos yaratadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, korxonaning innovatsion salohiyati iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri sifatida nafaqat ishlab chiqarish samaradorligiga, balki butun milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Innovatsion rivojlanishning zamonaviy bosqichida resurslardan samarali foydalanish, texnologik yangilanishni jadallashtirish, ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish va inson kapitalini rivojlantirish korxona salohiyatining tarkibiy asosini tashkil etadi.

Birinchidan, korxonaning innovatsion salohiyatini baholashda kompleks yondashuv qo'llanilishi lozim. Bunda iqtisodiy, texnik, ilmiy-tadqiqot, ijtimoiy va boshqaruv omillarini o'z ichiga olgan integrallashgan baholash modeli ishlab chiqilishi zarur. Bu yondashuv korxonaning nafaqat hozirgi imkoniyatlarini, balki ehtimoliy rivojlanish istiqbollari ham aniqlash imkonini beradi. **Ikkinchidan**, ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish zarur. Universitetlar, ilmiy markazlar va sanoat korxonalari o'rtasida innovatsion hamkorlik mexanizmlarini yo'lga qo'yish orqali yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etish samaradorligini oshirish mumkin. **Uchinchidan**, korxonalarda texnik va texnologik yangilanish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishiga aylanishi kerak. Asosiy fondlarning yangilanish koeffitsiyenti, innovatsiyalarga qilingan investitsiyalar ulushi va tadqiqot ishlanmalariga yo'naltirilgan mablag'lar hajmi kabi ko'rsatkichlar muntazam monitoring qilinishi maqsadga muvofiqdir. **To'rtinchidan**, innovatsion faoliyatni rag'batlantiruvchi institutsional muhitni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu yo'nalishda soliq imtiyozlari, preferensiyalar va grant dasturlari orqali korxonalarni innovatsion faoliyatga jalb etish, shuningdek, innovatsion infratuzilmani (texnoparklar, inkubatorlar, innovatsion markazlar) rivojlantirish zarur. **Beshinchidan**, inson kapitali va kadrlar salohiyatini oshirish — innovatsion jarayonlarning muvaffaqiyatini belgilovchi hal qiluvchi omildir. Korxonalar miqyosida malaka oshirish, qayta tayyorlash va ilmiy ijodiy muhitni rivojlantirish orqali innovatsion faollik darajasini oshirish mumkin. **Oltinchidan**, innovatsion salohiyatni baholashning milliy metodikasini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biridir. Bu metodika xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilib, O'zbekiston iqtisodiyotining o'ziga xos sharoitlariga moslashtirilgan bo'lishi zarur. Umuman olganda, korxonalar innovatsion salohiyatini oshirish iqtisodiyotning tarkibiy modernizatsiyasi, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va eksport salohiyatini kengaytirish uchun muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va uni barqaror rivojlanish

strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilash mamlakat iqtisodiy siyosatining ustuvor vazifalaridan biri bo'lishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Лаптева Е.А. Проблемы оценки инновационного потенциала промышленных предприятий // Управление экономическими системами. – 2014. – No 8.
2. Гилева Т.А., Низаев А.Р. Инновационный потенциал предприятия: структура, оценка, формирование // Актуальные вопросы управления в социальных и экономических системах: Межвузовский сборник научных трудов. Ч. II. – Уфа, 2006. – С. 213–218.
3. Балукова В.А., Садчиков И.А., Сомов В.Е. Управление инновационными процессами на предприятиях химической и нефтехимической промышленности. – СПб.: СПбГИЭУ, 2003. – 147 с.
4. Балабанов И.Т. Инновационный менеджмент. – СПб.: Питер, 2001. – 304 с.
5. Зайнутдинов Ш.Н., Расулов Н.М. Инновацион менеджмент. – Т.: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2020. – 540 б.; Шодиева Д. Миллий иктисодиётнинг инновацион ривожланишини инвестициялашнинг назарий асосларини такомиллаштириш. (PhD) диссертация автореф. – Т.: 2020. – 58 б.
6. Расулов Н.М. Корпоратив тузилмаларда инновацион жараёнларни стратегик бошқариш услубиётини такомиллаштириш: (DSc) диссертация автореф. – Т.: 2021. – 81 б.; Норов А.Э. Инновацион фаолият ва унинг натижаларини тижоратлаштиришнинг назарий ва услубий асослари // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” илмий электрон журналы. No1, 2020 й.; Гуломов Г.П. Инновацион фаолият инфратузилмасини шакллантириш ишлаб чиқаришни модернизациялаш омили сифатида // Экономика и финансы (Узбекистан). – 2016. – No7.
7. Посошков И.Т. Книга о скудости и богатстве и другие сочинения / ред. и коммент. Б.Б. Кафенгауза; ред. изд-ва В.Р. Швейковская; худож. И.Ф. Рерберг. – М.: Изд-во АН СССР, 1951. – 411 с.
8. Кенэ Ф., Тюрго А.Р.Ж., Дюпон де Немур П.С. Физиократы: избранные экономические произведения. – М.: Эксмо, 2008. – 1200 с.; Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов: в 2 т. – М.: Наука, 1993. – 570 с.
9. Теребова С.В. Роль трансфера и коммерциализации научных разработок в инновационном развитии территорий // Проблемы развития территорий. – 2015. – No6. – С. 7–28.
10. Зайнутдинов Ш., Нурибегов Р.И., Калмуратов Б.С. Инновационный путь развития экономики Узбекистана // «Biznes-Эксперт» Экономический научно-практический журнал. – Ташкент, 2018. – No8. – С. 92–95.
11. Зайнутдинов Ш.Н. Инновацион салоҳиятини ошириш стратегияси // “Иктисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журналы. – No1. – Сентябрь, 2011.
12. Нурибегов Р.И., Калмуратов Б. Инновацион бошқариш стратегиясининг аҳамияти // Jamiyat va boshqaruv. – Т.: 2010. – No2. – Б. 73–75.
13. Лаптева Е.А. Классификация факторов развития инновационного потенциала предприятия // Экономика и предпринимательство. – 2013. – No9. – С. 495–498.
14. Яшин С.Н., Мурашова Н.А., Карлина С.Д. Совершенствование методики оценки уровня инновационной активности промышленных предприятий на основе анализа показателей статистической и финансовой отчетности // Финансы и кредит. – 2013. – No18 (546). – С. 11–20.
15. Горбунов В.Л., Матвеев П.Г. Методика оценки инновационного потенциала предприятия // Инновации. – 2002. – No8.
16. Лисин Б., Фридлянов Б. Инновационный потенциал как фактор развития (Межгосударственное социально-экономическое исследование) [Электронный ресурс]. – URL: <http://masters.donntu.edu.ua>
17. Мингалеева Ж.А., Платынюк И.И. Оценка уровня инновационного развития предприятия // Креативная экономика. – 2011. – No4 (52).
18. Плотников А.Н., Литонинский С.Н. Анализ методов оценки инновационного потенциала предприятия и направления их совершенствования // Проблемы современной экономики. – 2012. – No7. – С. 248–263.
19. Николаев А. Инновационное развитие и инновационная культура // Проблемы теории и практики управления. – 2011. – No2. – С. 57–63.
20. Фомченкова Л.В. Формирование и реализация инновационного потенциала промышленного предприятия // Российское предпринимательство. – 2005. – No8.
21. Westley F., Mintzberg H. Visionary leadership and strategic management // Strategic Management Journal. – 2005. – P. 32.
22. Oslo Manual. Guidelines for Collecting and Interpreting Innovation Data. 3rd edition. A Joint Publication of OECD and Eurostat. – OECD/EC, 2005. – 192 p.23. Искандаров Э.Б. “Узбекистон қурилиш саноати корхоналарида барқарор инновацион ривожланишни таъминлаш” мавзусидаги 08.00.03 – Саноат иқтисодиёти ихтисослиги бўйича иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Т.: 2022. – 13 б.

Annotatsiya: Ushbu maqolada transport korxonalarining innovatsion salohiyatini shakllantirish va baholash masalalari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligi, korxonalarda innovatsion boshqaruv mexanizmlarining joriy etilishi hamda transport tizimi raqobatbardoshligini oshirish omillari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda sohaning innovatsion rivojlanishiga ta'sir etuvchi tashkiliy, texnologik va iqtisodiy omillar tizimli tahlil qilinib, ularni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: transport tizimi, innovatsion salohiyat, korxona samaradorligi, boshqaruv mexanizmlari, texnologik yangilanish.

Аннотация: В статье исследуются вопросы формирования и оценки инновационного потенциала транспортных предприятий. Рассмотрены экономическая эффективность инновационной деятельности, внедрение механизмов инновационного управления и факторы повышения конкурентоспособности транспортной системы. В ходе исследования проведён системный анализ организационных, технологических и экономических факторов, влияющих на инновационное развитие отрасли, а также предложены практические рекомендации по их совершенствованию.

Ключевые слова: транспортная система, инновационный потенциал, эффективность предприятия, механизмы управления, технологическое обновление.

Annotation: This article analyzes the formation and evaluation of the innovative potential of transport enterprises. It examines the economic efficiency of innovation activities, the implementation of innovation management mechanisms, and the factors contributing to the competitiveness of the transport system. The study provides a systematic analysis of organizational, technological, and economic determinants influencing the innovative development of the sector and proposes practical recommendations for their improvement.

Key words: transport system, innovation potential, enterprise efficiency, management mechanisms, technological renewal.

OLIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISH VA XALQARO REYTINGLARDA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH

Ibragimov A. M.

Iqtisodiyot rivojlanishining hozirgi bosqichida tashqi muhitning yuqori darajadagi beqarorligi, raqobatning kuchayib borishi, globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, shuningdek, davlat va jamiyat tomonidan zamonaviy oliy ta'lim muassasalari oldiga qo'yilayotgan yangi maqsad va vazifalar zamonaviy davrning asosiy xususiyatlaridan hisoblanadi. Bir tomondan, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari oldida bilim darajasi yuqori bo'lgan, talabchan va intiluvchan iste'molchilarning – ya'ni talabalar va ularning ota-onalarining sifatli ta'lim olishga bo'lgan umidlarini oqlash vazifasi turibdi. Boshqa tomondan, universitetlar bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yurituvchi mustaqil subyekti sifatida o'zining barqaror moliyaviy holatini ta'minlashi lozim.

Jahon ta'lim makoniga integratsiyalashuv jarayonlari O'zbekiston oliy ta'lim tizimi oldiga yangi talab va chaqiriqlarni qo'ymoqda. Xususan, ta'lim sifatini oshirish, xalqaro reytinglarda munosib o'rin egallash, ilmiy salohiyatni rivojlantirish hamda innovatsion faoliyat ko'lamini kengaytirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Shu bois zamonaviy universitetlarning boshqaruv modeli, ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish mexanizmlari va ta'lim jarayonini sifat jihatidan takomillashtirish global standartlar asosida amalga oshirilishi talab etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan 2022–2026–yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” hamda sohaga oid bir qator farmon va qarorlar oliy ta'lim tizimini tubdan modernizatsiya qilishga xizmat qilmoqda. Ushbu hujjatlarda oliy ta'limning raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va innovatsion rivojlanish uchun mustahkam institutsional asos yaratish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan [1]. Shu bilan birga, hozirgi bosqichda oliy ta'lim muassasalaridan ilmiy–texnik va innovatsion rivojlanish sohasida yuqori qo'shimcha qiymat yarata olish qobiliyati talab qilinmoqda. Bu esa oliy ta'lim tizimidagi faoliyat jarayonining sifatini chuqur tahlil qilish, iqtisodiy, moliyaviy va boshqaruv jihatlariga oid mavjud muammolarni aniqlash hamda endogen va ekzogen omillar ta'siri o'zgaruvchan sharoitida belgilangan strategik maqsadlarga erishish imkoniyatlarini baholashni dolzarb vazifaga aylantiradi.

Oliy ta'lim muassasalari va ularning bitiruvchilari raqobatbardoshligining mohiyati masalasi ko'plab xorijiy va mahalliy olimlarining ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Xususan, L.A. Golovanova, N.A. Bondarenko va M.S. Syupovlarning tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining raqobatbardoshligi – bu uning mehnat bozorida muvaffaqiyatli raqobatlasha olishi, tanlagan mutaxassislik yo'nalishiga muvofiq ish joyini egallashi hamda o'zining kasbiy va funksional vazifalarini samarali bajarish imkoniyatlarini o'zida mujassam etuvchi integral ko'rsatkichdir [7]. Hozirgi kunda amaliyotda oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining raqobatbardoshligini baholashda ularning tahsil olgan ta'lim muassasasi jahon va milliy reytinglarda egallagan o'rni muhim mezonlardan biri sifatida qaralmoqda. Boshqacha aytganda, bitiruvchining mehnat bozoridagi mavqei va imkoniyatlari ko'p jihatdan u bitirgan oliy ta'lim muassasasining raqobatbardoshlik darajasi bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida universitetlar reyting baholash tizimini takomillashtirish, ularning xalqaro reytinglarda munosib o'rin egallashini ta'minlash masalalari bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, G.Astanakulova, Sh. Kuldashev, N. Muminov, T. Umarov va S. Atajonovlarning ilmiy izlanishlarida ta'lim sifatini baholash mezonlari, reyting tizimining metodologik asoslari hamda milliy oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishlari keng tahlil qilingan [2, 3, 4, 5, 6].

Mazkur tadqiqotlarda ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini baholashda nafaqat ilmiy faoliyat samaradorligi, balki o'quv jarayonining innovatsionligi, xalqaro hamkorlik darajasi va bitiruvchilarning mehnat bozoridagi faol integratsiyasi kabi omillarni ham hisobga olish zarurligi ta'kidlanadi. Shu bois, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida reyting baholash mexanizmlarini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish va milliy xususiyatlardan kelib chiqib takomillashtirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari reytinglarini tuzish tarixi 1983–yildan boshlanadi. Shu yili US News & World Report jurnali tomonidan dunyoda birinchi marta oliy ta'lim muassasalarining reytingi e'lon qilingan bo'lib, bu hodisa oliy ta'limning globallashuv jarayonlari rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi. XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib, universitetlar reytingini shakllantirish bo'yicha mustaqil tizimlar va hatto butun boshli tahliliy soha – reyting sanoati – vujudga keldi. Ushbu jarayonga nafaqat ommaviy axborot vositalari, balki maxsus tadqiqot markazlari, ilmiy laboratoriyalar va konsalting tashkilotlari ham faol jalb etila boshlandi [8].

Jahon universitetlarining akademik reytingi (Academic Ranking of World Universities – ARWU) yoki Shanxay reytingi birinchi marta 2003 – yilda Shanxay Szyao Tong universitetining Oliy ta'lim instituti tomonidan ishlab chiqilgan. Dastlabki tahlilda 1200 dan ortiq oliy ta'lim muassasalari ko'rib chiqilgan bo'lib, reyting natijasida har yili dunyoning eng yaxshi 500 ta universiteti e'lon qilinadi.

ARWU reytingini tuzishda jami olti asosiy ko'rsatkich inobatga olinadi.

Alumni – universitet bitiruvchilari orasida Nobel mukofoti yoki Filds medali sovrindorlarining umumiy soni;

Award – mazkur mukofotlarni qo'lga kiritgan universitet o'qituvchilari va ilmiy xodimlarining soni;

HiCi – 21 ta fan sohasi bo'yicha faoliyat yurituvchi ko'p iqtibos keltiriladigan tadqiqotchilar soni;

N&S – Nature va Science jurnallarida so'nggi besh yil ichida chop etilgan ilmiy maqolalar soni;

PUB – Science Citation Index Expanded (ISI Web of Knowledge) ma'lumotlar bazasida indekslangan jurnallarda universitet xodimlari tomonidan chop etilgan maqolalar va konferensiya materiallari soni;

PCP (Per Capita Performance) – yuqorida keltirilgan besh ko'rsatkichning yig'indisini to'liq stavkada ishlaydigan ilmiy–pedagogik xodimlar soniga nisbatan hisoblaydigan ko'rsatkich.

Shanxay reytingi (ARWU) dunyoning yetakchi universitetlari ro'yxatini quyidagicha shakllantiradi: birinchi o'rinda – har biri o'z reyting darajasiga ega bo'lgan 100 ta universitet joylashadi, qolgan 400 ta oliy ta'lim muassasalari esa alifbo tartibida 50 va 100 tadan (101–150, 151–200, 201–300 va hokazo) guruhlanadi. Reyting tuzilishining boshlanish davridan to hozirgi kunga qadar dunyo oliy ta'lim makonida AQSH va Buyuk Britaniya universitetlari yetakchi o'rinni egallab kelmoqda. 2025– yilgi ARWU natijalariga ko'ra, Garvard universiteti an'anaviy tarzda birinchi o'rinni, Kembrij universiteti esa beshinchi o'rinni saqlab qolgan. 2025– yilda dunyoning eng yaxshi 500 ta universiteti reytingiga avvalgi yillardagidan ko'ra ko'proq davlatlar, ya'ni 55 mamlakat oliy o'quv yurtlari kiritilgan. Ular orasida AQSH (180 ta OTM), Xitoy (214 ta OTM), Buyuk Britaniya (38 ta OTM) va Germaniya (35 ta OTM) yetakchilik qilmoqda. Keyingi o'rinlarda Avstraliya (25 ta OTM), Fransiya (22 ta OTM) va Yaponiya (15 ta OTM) joylashgan.

So'nggi yillarda, ayniqsa 2020– yildan keyingi davrda, Xitoy oliy ta'lim muassasalari reytingdagi mavqei sezilarli darajada mustahkamladi. Agar 2004– yilda ushbu ro'yxatda atigi 16 ta Xitoy universiteti bo'lgan bo'lsa, 2025– yilda ularning soni 200 tadan oshdi. Bu holat Xitoyning ilmiy salohiyatni oshirish, xalqaro nashrlar faoliyatini kengaytirish va ilmiy tadqiqotlarga e'tiborni kuchaytirish borasidagi siyosatining samaradorligini yaqqol namoyon etadi. "Tayms" reytingi (Times Higher Education Ranking) – bu Buyuk Britaniyaning nufuzli "The Times Higher Education Supplement" (THE) nashri tomonidan har yili e'lon qilinadigan xalqaro miqyosda tan olingan reyting tizimidir. Mazkur reyting ilk bor 2004– yilda ommaga taqdim etilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalarining xalqaro raqobatbardoshligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. 2005– yildan boshlab, "Tayms" reytingi universitetlar haqidagi zarur ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish sohasida tajribaga ega bo'lgan QS (Quacquarelli Symonds) kompaniyasi bilan hamkorlikda tuzila boshlandi. Biroq 2010– yilda "Tayms" tahririyati QS bilan hamkorlikni to'xtatdi va Thomson Reuters kompaniyasi bilan yangi shartnoma imzoladi. Mazkur kompaniya Web of Science ilmiy– metrik bazasiga egalik qiladi va ilmiy ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish hamda xalqaro baholash tizimlarida yuqori nufuzga ega. Avvalgi yillarda "Tayms" reytingi asosan ekspert baholariga tayanar edi, bu esa baholash jarayonida ma'lum darajada subyektivlik keltirib chiqarardi. Chunki ekspertlar baholayotgan oliy ta'lim muassasalarining faoliyati to'g'risida har doim ham yetarli darajada to'liq va aniq ma'lumotlarga ega emasdilar. Natijada reyting natijalarining ishonchlilik muayyan shubhalarni keltirib chiqargan.

2010– yil sentyabr oyida "Times Higher Education" jurnali va "Thomson Reuters" kompaniyasi hamkorligida dunyoning eng yaxshi 200 ta universitetini o'z ichiga olgan yangilangan Times global reytingi e'lon qilindi. Ushbu yangi talqinda reyting metodologiyasiga sezilarli o'zgarishlar kiritildi: ilgari OTMlarni baholashda 6 ta mezon qo'llanilgan bo'lsa, endilikda ularning soni 13 ta asosiy ko'rsatkichgacha kengaytirildi.

Yangilangan tizimda reytingni ishlab chiquvchilar oliy ta'lim muassasalari faoliyatining uchta asosiy yo'nalishiga alohida e'tibor qaratdilar: ta'lim sifati; ilmiy– tadqiqot faoliyati samaradorligi; innovatsion faoliyat va iqtisodiy ta'sir.

Bunda akademik hamjamiyat fikriga asoslangan subyektiv baholarning salmog'i kamaytirilib, miqdoriy, obyektiv ko'rsatkichlarga ustuvorlik berildi. Natijada reyting tizimi yanada ishonchli, shaffof va xalqaro darajada solishtirish imkonini beradigan mezonlarga asoslanadigan bo'ldi. Ko'rsatkichlar sonining kengaytirilishi va ularning ilmiy– metrik bazalar bilan integratsiyasi "Tayms" reytingiga jahon oliy ta'lim tizimining rivojlanish holatini yanada aniq va har tomonlama baholash imkonini berdi. Shu jihatdan ushbu reyting bugungi kunda global ta'lim makonining eng nufuzli va ishonchli baholash tizimlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

1. Ta'lim sifati (Teaching) – 30%. Ushbu yo'nalish universitetning ta'lim sifati va o'quv jarayonini tashkil etish darajasini baholaydi. Baholash quyidagi ko'rsatkichlar asosida amalga oshiriladi: Ta'lim faoliyati darajasini akademik hamjamiyat tomonidan baholash – 15%; Talabalar soni va professor– o'qituvchilar soni o'rtasidagi nisbat – 4,5%; Berilgan PhD va bakalavr unvonlari o'rtasidagi nisbat – 2,25%; Ilmiy darajali professor– o'qituvchilar ulushi – 6%; Valyutaning xarid qobiliyati pariteti (PPP) bo'yicha me'yorlashtirilgan universitet daromadi – 2,25%. Mazkur indikator universitetda ta'lim sifati, o'quv yuklamalarining muvozanatini hamda professor– o'qituvchilar malakasining yuqoriligini aks ettiradi.

2. Ilmiy– tadqiqot faoliyati (Research) – 30%. Bu yo'nalish universitetning ilmiy salohiyatini va tadqiqot faoliyatining samaradorligini baholaydi. Asosiy ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

- Ilmiy– tadqiqot faoliyatini akademik hamjamiyat tomonidan baholash – 18%;
- Ilmiy tadqiqotlardan olingan daromad – 6%;

• Bir professor– o'qituvchiga to'g'ri keladigan ilmiy nashrlar soni (Elsevier's Scopus ma'lumotlar bazasida indekslangan jurnallarda chop etilgan maqolalar asosida) – 6%. Ushbu indikator universitetning ilmiy faoliyati miqyosi, tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va ilmiy hamjamiyatdagi e'tirofini ifodalaydi.

3. Iqtiboslar (Citations) – 30%. Ushbu yo'nalish universitet olimlari tomonidan yaratilgan ilmiy ishlarga boshqa tadqiqotchilar tomonidan berilgan iqtiboslar soni orqali baholanadi. Tahlilda turli ilmiy sohalar bo'yicha me'yorlashtirilgan iqtibos ko'rsatkichlari so'nggi besh yil (2019–2024– yillar) oralig'ida chop etilgan nashrlar asosida hisobga olinadi. Mazkur indikator ilmiy tadqiqotlarning global miqyosdagi ta'sir kuchi, yangiligi va ilmiy nufuzini ifodalaydi.

4. Xalqaro istiqbol (International outlook) – 7,5% . Bu yo'nalish universitetning xalqaro ochiqligini va global akademik maydondagi faol ishtirokini baholaydi. Baholash quyidagi ko'rsatkichlar asosida amalga oshiriladi: Xorijiy talabalar ulushi – 2,5%; Xorijiy o'qituvchilar ulushi – 2,5%; So'nggi besh yil davomida xorijiy hammualliflar bilan chop etilgan ilmiy maqolalar ulushi – 2,5%. Ushbu indikator universitetning xalqaro integratsiyalashuv darajasi, akademik almashinuv faoliyati va global tarmoqdagi obro'sini ko'rsatadi.

5. Sanoat daromadi (Industry income) – 2, 5%. Bu yo‘nalish universitetning sanoat bilan hamkorlikda amalga oshirgan tadqiqotlari natijasida olingan daromadni baholaydi. Baholashda valyutaning xarid qobiliyati pariteti (PPP) bo‘yicha me‘yorlashtirilgan sanoat daromadi hisobga olinadi – **2, 5%**. Mazkur indikator universitetning iqtisodiyot va ishlab chiqarish tarmoqlari bilan amaliy aloqalari, innovatsion salohiyati va tijoratlashtirish darajasini aks ettiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimining jahon ta‘lim makoniga integratsiyalashuvi jarayoni ta‘lim sifatini oshirish, ilmiy faoliyat samaradorligini kuchaytirish hamda universitetlarning xalqaro reytinglardagi o‘rnini mustahkamlash borasida tizimli yondashuvni talab etadi. Times Higher Education, QS World University Rankings va boshqa reyting tizimlari mezonlarining tahlili O‘zbekiston universitetlarida ta‘lim sifati, ilmiy tadqiqotlar miqyosi, iqtiboslar darajasi, xalqaro hamkorlik hamda sanoat bilan hamkorlik kabi yo‘nalishlarda salmoqli o‘rinish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatdi. Ta‘lim faoliyati indikatorlari bo‘yicha professor-o‘qituvchilar malakasi, ilmiy darajaga ega pedagoglar ulushining yetarli emasligi, o‘quv yuklamasining yuqoriligi va o‘quv jarayonining raqamlashtirilish darajasi pastligi asosiy cheklovchi omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ilmiy-tadqiqot faoliyati bo‘yicha esa ilmiy nashrlar sonining oshayotganiga qaramay, xalqaro darajadagi yuqori impakt-faktorga ega jurnallarda chop etilgan maqolalar ulushi yetarli emas, sanoat buyurtmalariga asoslangan amaliy tadqiqotlar hajmi ham past darajada. Citations ko‘rsatkichlarining pastligi ilmiy maktablarning yetarli shakllanmagani, ilmiy hamkorlik geografiyasi torligi va ingliz tilida chop etiladigan nashrlar ulushining kamligi bilan bog‘liq. Xalqaro hamkorlik indikatorlarida esa xorijiy professor-o‘qituvchilar va xorijiy talabalar ulushi yetarli darajada shakllanmagani, ilmiy maqolalarda hammualliflik loyihalarining kamligi muhim muammolar sifatida baholandi.

Umuman olganda, tizimli islohotlar, ilmiy kadrlar salohiyatini oshirish, malaka oshirishni xalqaro standartlar asosida tashkil etish, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish, hamda universitet–sanoat integratsiyasini kuchaytirish O‘zbekiston universitetlarining xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallashi uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining —2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent, 2022.
2. Астанакулова Г. М., Аблатдинов С. А. Ключевые факторы повышения конкурентоспособности вуза в условиях современной экономики // Innovations in Science and Technologies: scientific electronic journal. – 2024. – Т. 1, № 6. – С. 9–21. – ISSN 3030-3451.
3. Kuldashiev Sh. A. Oliy ta‘lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishda xorij tajribasi // *Journal of Marketing, Business and Management*. – 2023. – Vol. 2, Iss. 9 (January). – P. 1–6. – ISSN 2181-3000.
4. Muminov N., Hoshimov P., Kim T., Zahirova G., Rakhmatov Kh. Restructuring the system of higher education of Uzbekistan in the conditions of increasing the competitiveness of the economy // *American Journal of Economics and Business Management*. – 2020. – Vol. 3, № 1 (Jan–Feb). – P. 33–40.
5. Umarov T. O. O‘zbekiston oliy ta‘lim xizmatlari bozorida raqobat muhiti tahlili // *Iqtisodiyot va turizm: xalqaro ilmiy va innovatsion jurnal*. – 2024. – № 6(20). – P. 116–123.
6. Атажоновна С. Б. Модернизация высшего образования и образовательных программ на основе инновационных идей и цифровых технологий в Узбекистане // Вестник Прикамского социального института. 2021. № 1 (88). С. 175–178.
7. Голованова Л.А., Бондаренко Н.А., Сюпова М.С. Системная оценка конкурентоспособности выпускников вузов // Вестник ТОГУ. — 2015. — № 1(36). С. 116–122
8. Бетти Ф., Адамс Дж. Глобальный рейтинг университетов мира. [Электронный ресурс]. Режим доступа: http://www.echo.msk.ru/programs/razvorot/662654_echo/

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy iqtisodiyot sharoitida oliy ta‘lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omillari chuqur tahlil qilingan. Jahon ta‘lim makoniga integratsiyalashuv, ta‘lim sifati, ilmiy tadqiqotlar samaradorligi, xalqaro reyting baholash tizimlarining metodologik mezonlari hamda O‘zbekiston universitetlarining ushbu reytinglarda munosib o‘rin egallashiga ta‘sir etuvchi omillar ilmiy asosda o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: oliy ta‘lim, raqobatbardoshlik, xalqaro reytinglar, ARWU, THE, ilmiy salohiyat, innovatsion faoliyat.

Аннотация. В данной статье проведён всесторонний анализ ключевых факторов повышения конкурентоспособности высших учебных заведений в условиях современной экономики. Рассмотрены процессы интеграции в мировое образовательное пространство, качество образования, эффективность научно-исследовательской деятельности, а также методологические критерии международных рейтингов ARWU, Times Higher Education и других систем оценки.

Ключевые слова: высшее образование, конкурентоспособность, международные рейтинги, ARWU, THE, качество образования, научный потенциал, инновации.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the key factors contributing to the competitiveness of higher education institutions in the context of the modern economy. It examines integration into the global educational space, the quality of education, the effectiveness of research activities, and the methodological criteria of international ranking systems such as ARWU, Times Higher Education, and others.

Key words: higher education, competitiveness, international rankings, ARWU, THE, research capacity, innovation.

ЕДИНАЯ ЦИФРОВАЯ ДЕКЛАРАЦИЯ КАК ИНСТРУМЕНТ УСКОРЕНИЯ ЭКСПОРТНЫХ ПОСТАВОК РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНА

Калбаев Б.

Ташкентский государственный транспортный университет.

Современный этап развития мировой экономики характеризуется стремительным ростом роли цифровых технологий, которые становятся ключевым фактором повышения эффективности всех отраслей хозяйственной деятельности, в том числе транспортно-логистического сектора. В условиях глобализации и роста

международной торговли управление этими процессами требует новых подходов, основанных на цифровизации и автоматизации. Цифровизация транспортной логистики представляет собой не просто внедрение отдельных технологий, а системную трансформацию управленческих процессов, направленную на оптимизацию маршрутов, повышение прозрачности операций, снижение транзакционных издержек и улучшение качества логистического сервиса. Одной из первых сфер, которых коснулась цифровизация, стала отрасль транспортно-логистических услуг. Именно логистика оказалась наиболее восприимчивой к внедрению цифровых технологий, поскольку она напрямую связана с обработкой больших объемов данных, координацией множества участников и необходимостью оперативного принятия решений. Логистическим услугам необходимо постоянно трансформироваться и адаптироваться к изменениям внешней среды, поскольку потребности общества и бизнеса неуклонно растут.

Во многих странах, включая Узбекистан, процесс цифровизации транспортной отрасли находится на стадии становления. Благодаря своему **географическому положению в центр Евразии**, Узбекистан обладает стратегическим преимуществом в формировании транзитных сухопутных маршрутов, связывающих Восток и Запад, Север и Юг. В этой связи развитие современной, устойчивой и цифровой транспортно-логистической инфраструктуры становится приоритетным направлением государственной политики [1].

В последние годы в Республике Узбекистан осуществляется последовательная и целенаправленная политика по дальнейшему развитию транспортно-логистической системы, модернизации транспортной инфраструктуры и повышению эффективности грузовых перевозок. По состоянию на 2024 год транспортная инфраструктура Республики Узбекистан демонстрирует устойчивое развитие и расширение своего потенциала. В частности, объём международных перевозок увеличился в 1,8 раза и достиг 59,6 млн тонн в 2024 году. Из этого объёма 16,6 млн тонн перевезено автомобильным транспортом, 43 млн тонн — железнодорожным, а 83 тыс. тонн — воздушным.

В январе–сентябре 2025 года объём внешнеторгового оборота страны достиг 59,8 млрд долларов США, что на 11,14 млрд долларов или 22,9 % больше по сравнению с аналогичным периодом 2024 года. Эти результаты

подтверждают	дальнейшее	укрепление	позиций	Узбекистана	в
международной	торговле	и	развитие	его	транспортно-логистического
потенциала.					




Рис.1 Объём внешнеторгового оборота Узбекистана за последние 3 года

Из общего объема ВТО экспорт составил 26 683,6 млн долл. США (прирост к январю–сентябрю 2024 года на 33,3 %), а импорт достиг 33 111,0 млн долл. США (прирост к январю–сентябрю 2024 года на 15,6 %). В результате наблюдалось отрицательное сальдо в размере 6 427,4 млн долл. [3]

Однако, несмотря на положительную динамику, процессы транспортировки грузов остаются продолжительными и затратными. Это во многом обусловлено существованием различных барьеров на внешнеторговых маршрутах, ограничивающих выход национальных компаний на международные и региональные рынки. К числу таких факторов относятся сложности в получении виз и разрешительных документов, а также отсутствие полноценного обмена данными между пограничными, таможенными и иными контролирующими органами. По данным Министерства транспорта, в 2024 году объём транзитных перевозок составил лишь 13,9 млн тонн, тогда как по оценкам международных экспертов данный показатель может быть увеличен до 23 млн тонн при условии реализации крупных инфраструктурных проектов и цифровизации процессов пересечения границы. Цифровая составляющая процессов внешней торговли в Узбекистане пока не полностью соответствует современным тенденциям, а именно темпы цифровизации процедур, связанных с получением разрешений на экспорт и импорт, заметно отстают от общей экономической динамики. Действующая в стране система «единого окна» формально обеспечивает централизованное взаимодействие участников внешнеэкономической деятельности с государственными органами. Тем не менее, её функциональные возможности остаются ограниченными: большинство процессов по-прежнему требует ручной обработки заявок, многократного ввода одних и тех же данных, а также участия нескольких ведомств, не интегрированы в единую информационную среду. Это приводит к задержкам при оформлении экспортно-импортных операций, снижает скорость международных автоперевозок и создает дополнительные административные издержки для бизнеса. Таким образом, укрепления позиций Узбекистана в международной

торговле особенно остро встаёт вопрос о совершенствовании национальной системы «единого окна», её глубокой цифровой модернизации и интеграции.

Согласно данным официального портала UzTradeInfo (uztradeinfo.uz), в современных условиях для экспорта фруктов в Узбекистане экспортер обязан получить три ключевых документа: **внутренний фитосанитарный сертификат, сертификат происхождения товара и фитосанитарный сертификат**. Однако оформление этих документов сопровождается значительной бюрократической нагрузкой. Для их получения экспортеру необходимо выполнить **13 онлайн-операций** и пройти ещё **4 онлайн-процедуры**, связанные с **обработкой таможенной декларации** в системе

«единого окна». В совокупности этот процесс занимает **от 2 до 6 дней**, при этом наблюдается дублирование информации и документов, что снижает эффективность и прозрачность процедур [4].




Рис. 2 Схема работы единого окна Узбекистана

Для решения проблемы дублирования документов и избыточных онлайн-процедур при экспорте фруктов предлагается автоматизировать весь процесс путём внедрения единой цифровой декларации экспорта, полностью интегрированной в систему «Единое окно» [1]. Ключевым элементом данной модели является то, что все компетентные органы — включая таможенную службу, фитосанитарные инспекции, органы сертификации и торгово-промышленную палату и др — будут интегрированы в единую цифровую платформу. Это позволит осуществлять автоматический обмен данными между ведомствами, исключить дублирование запросов и обеспечить единую точку взаимодействия экспортера с государственными структурами [5].

Суть инициативы заключается в том, что компания-экспортер регистрируется в системе и получает **уникальный идентификационный номер (UEN)** и **личный аккаунт**. После авторизации экспортер подаёт **единую электронную заявку**, включающую все сведения о товаре, транспорте и необходимых разрешительных документах.



Рис.3 Система работы модернизированного единого окна

Исследование показало, что одной из ключевых проблем транспортно-логистической системы Узбекистана на современном этапе является низкий уровень цифровизации экспортных процедур, сопровождающийся дублированием данных, множественными онлайн-операциями и продолжительным временем оформления документов. Несмотря на наличие системы «Единого окна», её функциональные возможности остаются ограниченными, а взаимодействие между ведомствами — недостаточно автоматизированным. В результате экспортёрам приходится выполнять до 17 онлайн-процессов, что удлиняет цикл экспортного оформления до 2–6 дней и создаёт дополнительные административные издержки.

Для решения этой проблемы предложена концепция единой цифровой декларации экспорта, полностью интегрированной в систему «Единое окно». Суть модели заключается в том, что система самостоятельно определяет перечень необходимых разрешений в зависимости от кода ТН ВЭД и автоматически направляет запросы во все компетентные органы — таможню, фитосанитарные службы, органы сертификации и торгово-промышленную палату. Это обеспечивает мгновенный обмен данными, прозрачность и устранение дублирования информации. Практическая реализация предложенного механизма позволяет сократить время оформления экспортных документов с 2–6 дней до 10 минут, полностью исключив необходимость ручной проверки бумаг и физического взаимодействия между участниками процесса. При пересечении границы достаточно сканирования штрих-кода экспортного разрешения, после чего все сведения автоматически отображаются в базе данных таможенных органов.

Таким образом, внедрение единой цифровой декларации экспорта является эффективным инструментом повышения прозрачности, скорости и надёжности экспортных операций. Это решение создаёт основу для формирования интеллектуальной транспортно-логистической экосистемы Узбекистана, способствует улучшению позиций страны в рейтинге LPI, снижению транзакционных издержек бизнеса и укреплению конкурентоспособности национальной экономики в глобальных цепочках поставок.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Агапова А. В. Развитие механизма «единого окна» в странах ЕАЭС на основе зарубежного опыта
2. https://www3.weforum.org/docs/WEF_GlobalCompetitivenessReport_2010-11.pdf
3. <https://nrm.uz/>
4. <https://uztradeinfo.uz/>
5. Судхир Гота, Элвин Меджиа, Мел Иден, Адвайт Лимае, Бенджамин Соко <https://asiantransportobservatory.org/>

Rezyume. Ushbu maqola O'zbekiston transport va logistika tizimida eksport protseduralarini raqamlashtirishdagi qiyinchiliklarni o'rganadi va yechim taklif qiladi: "Yagona oyna" tizimiga to'liq integratsiyalashgan yagona raqamli eksport deklaratsiyasini joriy etish. Taklif etilayotgan mexanizm shunday ishlaydiki, elektron ariza topshirilgandan so'ng, tizim HS kodi asosida zarur ruxsatnomalarni avtomatik ravishda aniqlaydi va so'rovlarni barcha vakolatli organlarga - bojxona, fitosanitariya inspeksiyalari, sertifikatlashtirish organlari va boshqa agentliklarga mustaqil ravishda yuboradi.

Kalit so'zlar: transport logistikasi, "yagona oyna", eksport, bojxona xizmati, eksport ruxsatnomasi, avtomatlashtirish.

Резюме. В статье рассматриваются проблемы цифровизации экспортных процедур в транспортно-логистической системе Узбекистана и предлагается решение в виде внедрения единой цифровой декларации экспорта, полностью интегрированной в систему «Единое окно». Предлагаемый механизм функционирует таким образом, что после подачи электронной заявки система автоматически определяет необходимые разрешительные документы в зависимости от кода ТН ВЭД и самостоятельно направляет запросы во все компетентные органы — таможенную службу, фитосанитарные инспекции, органы сертификации и другие ведомства.

Ключевые слова: транспортная логистика, единое окно, экспорт, таможенная служба, экспортное разрешение, автоматизация.

Resume. This article examines the challenges of digitalizing export procedures in Uzbekistan's transport and logistics system and proposes a solution: the introduction of a unified digital export declaration, fully integrated into the Single Window system. The proposed mechanism operates in such a way that, after an electronic application is submitted, the system automatically determines the necessary permits based on the HS code and independently forwards requests to all competent authorities—customs, phytosanitary inspections, certification bodies, and other agencies.

Key words: transport logistics, single window, export, customs service, export permit, automation.

UDC 528.9:504:004.9(575.1)

CHIMBOY TUMANINING YASHILLIK DARAJASINI GAT TEXNOLOGIYALARI VA GEOFAZOVIY MA'LUMOTLAR ASOSIDA TADQIQ QILISH USLUBINI TAKOMILLASHTIRISH

Jaqsibaev R.N., Imamalikova D.B.

Qoraqalpog' davlat universiteti

Kirish. Bugungi kunda global miqyosda sodir bo'layotgan iqlim o'zgarishlari, ekologik inqirozlar va tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish natijasida dunyoning ko'plab mintaqalarida atrof-muhit muammolari kuchayib bormoqda. Aholi sonining ortishi, urbanizatsiya jarayonlari, yer va suv resurslarining oqilona foydalanilmasligi yashil maydonlarning qisqarishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, bizning tabiiy sharoitimizda, jarayonlar Orol dengizi inqirozi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tuproq sho'rlanishining kuchayishi, vegetatsiya qatlamining degradatsiyasi va iqlimning keskin o'zgarishi mintaqaning ekologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, yashil maydonlar holatini ilmiy asosda o'rganish, ularning fazoviy taqsimoti va vaqt bo'yicha dinamikasini aniqlash tadqiqot monitoringning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Ana shu maqsadda zamonaviy texnologiyalar va masofadan zondlash ma'lumotlari asosida tahlillar olib olingan hududlardagi yuz berayotgan tabiiy jarayonlarning salbiy oqibatlarini aniqlash, modellashtirish va vizualizatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Landsat va Sentinel sun'iy yo'ldoshining seriali avlodlari orqali olinadigan ko'p spektrli tasvirlar yordamida vegetatsiyaning holati haqida aniq ma'lumot olish, ularni atpe hisoblash formulalari orqali baholash bizga zarur tahlillar va bashoratlarni amalga oshirishda vaqt hamda xarajat nuqtayi nazaridan samarali hisoblanadi.


Asosiy qism. Tadqiqot hududi. Chimboy tumani Qoraqalpog'iston Respublikasining shimoli-g'arbiy qismida, Amudaryoning quyi oqimiga yaqin joylashgan. Tumanning relyefi asosan **tekislik** bo'lib, yerlarning atqismi **qurg'oqchil** atq **s'rxok tuproqlar**dan iborat. Iqlimi esa **keskin** atq **spectr**, ya'ni yozda issiq va quruq, qishda esa sovuq va kam yog'ingarchilikli. Vegetatsiya davri qisqa bo'lsa-da, **sug'oriladigan dehqonchilik** va **ekologik monitoring** uchun yetarli imkoniyatlar mavjud. Ayni vaqtda tumanda yashillik bilan qoplangan hududlar ekologik muvozanatni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, ushbu hududda yashillik bilan qoplangan maydonlarning aniqlanishi va atq spect dolzarb masala hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi o'zining hududiy tarkibi va tabiiy-geografik sharoitlari jihatidan turli xil yer resurslariga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Mamlakat umumiy yer fondi hajmi jihatidan Markaziy Osiyodagi yirik davlatlardan biri bo'lib, bu yerlarning katta qismi qishloq xo'jaligiga, sanoat rivojlanishiga, tabiatni muhofaza qilishga va ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shuni takidlash kerakki, O'zbekistonning yer fondi viloyatlar kesimida sezilarli darajada farq qiladi: bu borada **Qoraqalpog'iston Respublikasi** eng katta yer maydoniga ega bo'lgan hudud sifatida ajralib turadi [1.37](1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston Respublikasining umumiy yer maydoni (2024 yil 1 yanvar holatiga)

Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi eng yirik hudud bo'lib, uning umumiy yer maydoni 166.6 ming km² ni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich butun respublika yer fondining sezilarli qismini tashkil etadi. Hududning atq maydoni cho'l va yarim cho'l landshaftlariga to'g'ri keladi. Bunday tabiiy-geografik sharoitlar yer resurslarini oqilona boshqarish, ayniqsa, **yashil qoplama darajasini saqlash va yaxshilash** borasida masofadan zondlash ma'lumotlari va GAT texnologiyalaridan foydalanishni yuqori natijani ko'rsatadi [1.42].

Qoraqalpog'iston Respublikasining tumanlar kesimida **Qo'ng'iro't, Mo'ynoq va Taxtak'o'pir** kabi tumanlar eng atq maydonlarga ega (2-rasm). Shu bilan birga, **Chimboy tumani** nisbatan kichikroq yer maydoniga ega bo'lishiga qaramay, o'zining iqtisodiy va ekologik ahamiyati bilan ajralib turadi.




2-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasining yer maydoni, tumanlar kesimida, geklarda (2024 yil 1 yanvar holatiga)

Chimboy tumanining asosiy iqtisodiy yo'nalishi qishloq xo'jaligiga borib taqaladi. **Paxta, g'alla, sabzavot va boshqa ekinlar** yetishtiriladi. Ammo so'nggi yillarda iqlim o'zgarishlari, suv resurslarining kamayishi atq s'rlanish jarayonlari natijasida bu hududda **yashillik bilan qoplangan hududlarning kamayishi** kuzatilmoqda. Shu sababli, bu

maydonlarda **NDVI (Normallashtirilgan vegetatsiya indeksi) hisoblash formulasi** yordamida o'simlik qoplamining holatini masofadan tahlil qilish yashillikni ta'minlashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Chimboy tumanidagi yer fondining asosiy qismini (3-rasm): qishloq xo'jaligi yer turlari (taxminan 90 ming ga), pichanzor va yaylovlar (taxminan 50 ming ga), sug'oriladigan yerlar, ekin yerlar, ko'p yillik daraxtzorlar tashkil etadi [1.48]. Bu yerlar hududning dehqonchilikka yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Sug'oriladigan yerlar va ekin maydonlari tuman iqtisodiyotining asosiy tayanchi hisoblanadi. Shu bilan birga, butazorlar, meliorativ qurilish holatidagi yerlar, bo'z yerlar kabi yer turlari ekologik barqarorlik nuqtayi nazaridan monitoringa muhtoj. Ayniqsa, yashil hududlarning (ko'p yillik daraxtzorlar, butazorlar) ko'lamini oshirish orqali tuproq eroziyasining oldini olish mumkin.



3-rasm. Chimboy tumani yer turlari gektarda (2024 yil 1 yanvar holatiga)

Chimboy tumani misolida olib borilayotgan bu tadqiqot **masofadan zondlash** va **GAT** texnologiyalari orqali yer resurslarining hozirgi holatini aniqlash, ularning yashillik darajasini tahlil qilish hamda degradatsiyaga uchragan maydonlarni aniqlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, NDVI indeksidan foydalanish orqali **vegetatsiya zichligi, biomassa miqdori, sug'oriladigan yerlar holati** aniqlanadi [4.358].

Metodologiya. Tadqiqotda asosiy manba sifatida **Sentinel 2** sun'iy yo'ldoshi tomonidan taqdim etilgan ko'p spektrli tasvirlar foydalanish maqsadga muvofiq. Sababi, ushbu ma'lumotlar **NDVI** indeksini hisoblash orqali vegetatsiya holatini aniqlash imkonini beradi. NDVI o'simlik qoplamining zichligi va salomatligini baholashda eng ko'p qo'llaniladigan masofadan zondlash indekslaridan biridir [3.3]. Ushbu indeks yaqin infraqizil (NIR) va qizil (Red) diapazonlardagi elektromagnit nurlanishlarni solishtirish orqali hisoblanadi va quyidagi formula asosida aniqlanadi [2]:

$$NDVI = \frac{NIR - Red}{NIR + Red}$$

Bu yerda:

- NIR – yaqin infraqizil ata spe qiymati (Sentinel-2: Band 8)
- RED – qizil ata spe qiymati (Sentinel-2: Band 4)

NDVI qiymatlari nazariy jihatdan -1 dan +1 gacha bo'ladi. Bu qiymatlar quyidagicha talqin qilinadi[5.4]:


Manfiy qiymatlar (-1 dan 0 gacha): Bu qiymatlar odatda suv sathlari, o'simlik qoplamisiz maydon, tog' jinslari, yo'llar, binolar kabi o'simliksiz yoki o'ta kam vegetatsiyali sathlarga to'g'ri keladi. 0 – 0.2: O'simlik qoplamisiz yoki quruq o'simlik bilan qoplangan maydon, toshloq yoki cho'l hududlar kabi o'rtacha nurlanish aks ettiruvchi, ammo yashil o'simlik qoplami mavjud bo'lmagan sathlarni bildiradi. $NDVI > 0.2$: Bu qiymatlar o'simlik mavjudligini bildiradi. NDVI qiymati qanchalik yuqori bo'lsa, o'simlik qoplami shunchalik zich va sog'lom bo'ladi. Masalan: 0.2 – 0.5 oralig'ida siyrak yoki o'rtacha vegetatsiyali hududlar (o'tloqlar, butazorlar), 0.5 dan yuqori indeksda zich, sog'lom va faol fotosintezga ega o'simliklar (o'rmonlar, bog'lar, dalalar) bo'ladi [3.4].

Shunday qilib, NDVI yordamida hudud bo'ylab yashillik darajasini fazoviy va raqamli tarzda tahlil qilish mumkin bo'ladi. Bu indeks GAT va masofadan zondlash ma'lumtlari asosida tuzilgan tasvirlar bilan birga ishlatilganda, o'simliklar salomatligi, degradatsiyaga uchragan yerlar, shaharsozlik yoki ekologik monitoring kabi ko'plab yo'nalishlarda keng qo'llaniladi [5.5]. Tahlil uchun Sentinel-2 sun'iy yo'ldoshining L2A (Level-2A) sathidagi ata ko'p spektrli tasvirlari tanlandi. Tadqiqot jarayonida to'rtinchi va sakkizinchi diapazonlardan (Band 4 (Red-665nm), Band 8 (NIR-842nm)) foydalanildi [6]. Sababi, ushbu bandlar o'simliklar tomonidan yutilgan va aks ettirilgan yorug'lik darajalarini o'lchab, vegetatsiya darajasini aniqlashga imkon beradi.


Mazkur hisoblash formulasini amalga oshirishda ArcGIS dasturlaridan foydalanish yuqori natija beradi.

Shundan, ArcGIS 10.8.2 fazoviy ma'lumotlar bilan ishlashda zamonaviy fan va texnologiyalarning kesishgan nuqtasida joylashgan, geoma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish, vizualizatsiya qilish, xaritalash hamda ata spec hisobotlar tayyorlash imkonini beruvchi ilg'or va ko'p qirrali geoinformatsion tizim platformasi ekanligini ko'rsatdi. Ushbu tadqiqotda ArcGIS dasturining ata spec interfeysi, kuchli raster tahlil vositalari hamda moslashuvchan funksional modullari Sentinel-2 sun'iy yo'ldoshi orqali olingan ata spectral ma'lumotlar asosida Chimboy tumanining yashillik bilan qoplanganlik darajasini NDVI indeksi yordamida aniq va ishonchli tahlil qilishga xizmat qildai.

Natijalar. Yuqoridagi keltirilgan malumotlar va usullardan foydalangan holda tadqiqot hududining yashillik bilan qoplanish darajasi 2018 va 2024-yillar oralig'ida solishtirildi. Natijada, 2018-yilda Chimboy tumanining ata qismini yuqori darajadagi vegetatsiya kuzatilmadi. Bu holat, ayniqsa tumanning shimoliy va markaziy qismlarida yaqqol namoyon bo'ldi. Vegetatsiya darajasi o'rtacha yoki yuqori bo'lgan hududlar asosan tumanning janubiy-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, ular juda kam ulushni tashkil qildi (4a-rasm).



4a-rasm. Chimboy tumanining yashillik bilan qoplanish darajasi 2018 yil holatiga



4b-rasm. Chimboy tumanining yashillik bilan qoplanish darajasi 2024 yil holatiga

2024-yilga kelib, vegetatsiya darajasida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Xususan, yashil rangli hududlar sonining ortgani yaqqol ko'zga tashlanadi. Vegetatsiya o'rtacha va yuqori rivojlangan joylar tumanning deyarli barcha qismlarida, ayniqsa g'arbiy va janubiy hududlarda kengaygan (4b-rasm). NDVI o'rtacha qiymati 0.1695 ga ko'tarilgan bo'lib, bu 2018-yildagi ko'rsatkichga nisbatan 17% ga ortganligi malum bo'ldi.



5-rasm. Tadqiqot hududining 2018-2024 yillardagi yashillik bilan qoplanish farqlari

2018 va 2024-yillar oralig'idagi NDVI tahlil natijalari Chimboy tumanida vegetatsiya qoplanishining miqdoriy va sifat jihatdan ijobiy tomonga o'zgarayotganini tasdiqlaydi (5-rasm). NDVI o'rtacha qiymatining 0.1447 dan 0.1695 gacha ortgani tumanda yashil maydonlarning kengayganini bildiradi. Bundan ko'rindiki, vegetatsiyasi yo'q zonalar soni kamayib, o'rtacha va yuqori vegetatsiyali zonalar soni ortmoqda. Bu esa yashillik holatining tiklanayotganidan dalolat beradi. Bu o'zgarishlar yer resurslaridan foydalanish samaradorligining oshganini, shuningdek, ekologik yondashuvga asoslangan boshqaruv qarorlarining natija berayotganini ko'rsatadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ushbu o'zgarishlar faqatgina tabiiy omillar emas, balki inson omillarining ham natijasi.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda GAT texnologiyalari va masofadan zondlash texnologiyalarining uyg'unligi orqali Chimboy tumanining ekologik holatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich — yashillik darajasining fazoviy va vaqtinchalik dinamikasi ilmiy jihatdan tahlil qilindi. NDVI indeksining Sentinel-2 sun'iy yo'ldosh tasvirlari asosida aniqlanishi orqali tabiiy landshaftdagi vegetatsiya o'zgarishlari aniq kartografik ko'rinishda namoyon bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida, ekologik muvozanatni saqlab qolish, barqaror landshaft boshqaruvini yo'lga qo'yish va yashil hududlarni qayta tiklash bo'yicha ilmiy asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Shuningdek, GAT texnologiyalari hamda masofadan zondlash ma'lumotlarining kompleks tahlilga yo'naltirilgan qo'llanilishi nafaqat mavjud holatni baholashda, balki prognozlash, monitoring va rejalashtirish jarayonlarida ham yuqori samaradorlikka ega ekanligini ham iqtisodiy ham amaliy jihatdan tasdiqladi. Demak, zamonaviy geoinformatsion yondashuvlar yashillik darajasini va hududiy rivojlanishni boshqarishning asosiy vositasi sifatida kelgusi ilmiy-amaliy izlanishlar uchun mustahkam poydevor yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi. "O'zbekiston Respublikasining Yer fondi". 2024-yil 1-yanvar holatiga.
2. Rouse, J., Haas, R., Schell, J., & Deering, D. (1973). Monitoring Vegetation Systems in the Great Plains with ERTS //In Proceedings of the Earth Resources Technology Satellite Symposium (Vol. 1, pp. 309-317). Washington DC: NASA.
3. R.Jaksibaev, S. Gabbarov, I. Abdurahmanov, O. Sultashova, Z. Khafizova. "Vegetation monitoring in the South Aral Sea region by remote sensing and GIS". E3S Web Conf. Volume 386, 2023. Annual International Scientific Conferences: GIS in Central Asia – GISCA 2022 and Geoinformatics – GI 2022 "Designing the Geospatial Ecosystem". <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202338601001>

4. R.N.Jaqsiyabev, D.B.Imamalikova, I.Q.Tursinbaeva, A.P.Kadirbaeva. "Geografik axborot tizimi texnologiyalari va masofadan zondlash ma'lumotlari asosida yashillik darajasini tadqiq qilish (Chimboy tumani misolida)". "Atrof muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili munosabati bilan mintaq iqtisodiyotini rivojlantirishning istiqbollari va muammolari" mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman. 2025-yil, 356-359 betlar.
5. Shisanya C. A., Recha C., Anyamba A. Rainfall Variability and Its Impact on Normalized Difference Vegetation Index in Arid and Semi-Arid Lands of Kenya //International Journal of Geosciences, 2011, 2, - pp. 36-47 doi:10.4236/ijg.2011.21004
6. <https://scihub.copernicus.eu>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy tumanining yashillik bilan qoplangan hududlari masofadan zondlash ma'lumotlari va geografik axborot tizimi texnologiyalari yordamida o'rganildi. Tahlil natijalari hududdagi yashillik holatni baholash, yashil hududlarni kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va kelajakdagi monitoring ishlarini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Degradatsiya, Yer turlari, Monitoring, GAT (Geografik Axborot Tizimi), masofadan zondlash.

Аннотация: В данной статье с помощью данных дистанционного зондирования и технологий географической информационной системы изучены зеленые территории Чимбайского района Республики Каракалпакстан. Результаты анализа послужат оценке состояния зеленого покрова в регионе, разработке предложений по расширению зеленых зон и эффективной организации будущего мониторинга.

Ключевые слова: деградация, типы земель, мониторинг, ГИС (Географическая информационная система), дистанционное зондирование.

Abstract: This article uses remote sensing data and geographic information system technologies to study the green areas of the Chimbay district of the Republic of Karakalpakstan. The results of the analysis will serve to assess the state of the green layer in the region, develop proposals for expanding green zones, and effectively organize monitoring in the future.

Key words: Degradation, land types, monitoring, GIS (Geographic Information System), remote sensing.

EKSTERNALIYLARNI TA'SIRINI TARTIBLASHTIRISH ASOSIDA GO'SHT YETISHTIRISHDA CHORVANI OZIQLASHTIRISHNING OPTIMAL VARIANTLARINI TANLASH

Urazbaeva L. M.

Qoraqalpoq davlat universiteti

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishning eng ustuvor yo'li – dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishda intensiv agrotexnologiyalarni qo'llash, sohani tom ma'noda modernizatsiya qilishdir.

Sanoat bilan bir qatorda iqtisodiyotimizning qishloq xo'jaligi kabi yetakchi sohasini ham modernizatsiya qilish, uning tarkibiga kiradigan deyarli barcha tarmoq va ishlab chiqarish sohaslarining butun kompleksida texnik va texnologik yangilash ishlarini amalga oshirishga katta ehtiyoj sezilmoqda. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini, jumladan chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirishning eng ustuvor yo'li – zamonaviy, ilg'or intensiv texnologiyalarni qo'llash, sohani modernizatsiya qilish lozim [1].

Chorvachilik – istiqbolda Qoraqalpog'iston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishda eng ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki, so'nggi yillarda mintaqada sodir bo'layotgan suv tanqisligi qishloq xo'jaligini yuritishda qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ma'lumki, chorvachilik tarmog'i, ayniqsa yaylov chorvachiligini rivojlantirish dexqonchilikka nisbatan kam suv talab etadi. Shu bilan birga, respublikada ushbu tarmoqni rivojlantirish uchun keng yaylov fondi mavjud. Shuningdek, mahalliy aholi tarixan boy chorvachilik tajribalariga ega bo'lib, yaylovlarda azaldan ushbu tarmoq bilan shug'illanib kelishgan [4]. Qoraqalpog'istonda chorvachilik dehqonchilik kabi qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari sifatida o'zining rivojlanish tarixiga ega. Binobarin, chorvachilik tarmog'ining rivojlanishi birinchi navbatda, aholini arzon va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlasa, ikkinchidan uning xom ashyo mahsulotlaridan asosan yengil va oziq-ovqat sanoatida keng foydalaniladi. Respublikada chorvachilikning qoramolchilik, qo'y va echkichilik, yilqichilik, tuyachilik, cho'chqachilik, parrandachilik, baliqchilik, pillachilik, asalarichilik va boshqa sohalari mavjud. Ta'kidlash joizki, sut-go'sht yo'nalishidagi chorvachilikning go'sht va jun yo'nalishidagi yaylov chorvachiligidan farqli tomoni shundaki, u asosan shahar atrofida yoki aholi zich joylashgan hamda obikor dehqonchilik bilan shug'ullanadigan mintaqalarida rivojlanadi. Shu bois, sut-go'sht yo'nalishidagi shahar atrofi chorvachiligining rivojlanishi ekin maydonlarining ko'lamiga hamda go'sht va jun yo'nalishidagi yaylov chorvachiligining rivojlanishi esa yaylov maydonlari bilan ta'minlanganlik darajasiga bevosita bog'liq bo'ladi [2].

Qoraqalpog'istonda chorva mollari bosh sonining dinamikasiga kelsak, statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, yirik shoxli qoramollarning bosh soni 2000-2024 yillarda 1109,6 mingdan 1260,2 ming boshga o'sib, shu davr mobaynida 113,6 foizga ko'paygan. Bu yaxshi ko'rsatkich, albatta. Lekin, uning tahlil natijalari ushbu ko'rsatkichning zamon va makonda, ya'ni ham davriy, ham hududiy tafovutlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Masalan, ushbu turdagi chorva mollarining bosh soni 2000-2010 yillarda 188,5 foizga, 2010-2020 yillarda esa 155,2 foizga ko'paygan.

Qoraqalpog'iston Respublikasida barcha toifadagi xo'jaliklardagi yirik shoxli qoramollarning sonini tumanlar bo'yicha qarab chiqadigan bo'lsak, respublika bo'yicha 2020 qilga nisbatan 113,6 foyzni tashkil etkanligini ko'rishimiz mumkin (1-jadval). Qoraqalpog'istonda yirik shoxli qoramollarning hududiy joylashuvi bo'yicha katta tafovutlar mavjud. Masalan, ushbu turdagi qoramollarning bosh soni bo'yicha Amudaryo, Beruniy, To'rtko'1 va Ellikqal'a tumanlari oldingi o'rinda turadi. 2024 yili ushbu tumanlarga respublikadagi jami yirik shoxli qoramollarning 50,2 foizi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2000 yili u 45,3 foizga teng bo'lgan. Qoramollarning ulushi Muynoq va Taxiotosh tumanlarida boshqa tumanlarga nisbatan kam (ularning har birida 2,5 foizdan kam). Bundan ma'lumki, yirik shoxli qoramollarning hududiy taqsimlanishi bo'yicha janubiy tumanlar peshqadamlik qiladi va ularda bunday turdagi chorva mollarning respublikadagi ulushi ortib bormoqda [3].

1-jadval. Qoraqalpog'iston Respublikasida barcha toifadagi xo'jaliklardagi yirik shoxli qoramollarning sonini tumanlar bo'yicha taqsimlanishi⁵

Hududlar	Barcha toifadagi xo'jaliklar					O'sish sur'ati, %
	2020 й.	2021 й.	2022 й.	2023 й.	2024 й.	
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1109625	1175884	1208708	1232177	1260198	113,6
Nukus sh	8894	9 077	9 250	9 468	9 885	111,1
tumanlar:						
Amudaryo	154788	165 783	169 763	174 161	179 117	115,7
Beruniy	152511	161 082	163 255	166 858	167 287	109,7
Buzatov	-	37 860	37 886	39 102	39 569	104,5*
Qorao'zak	37860	38 919	40 416	41 048	41 690	110,1
Kegeyli	52914	53 660	57 607	57 257	59 390	112,2
Qo'ng'iro't	65701	68 932	71 705	75 675	77 719	118,3
Qonliko'l	33241	34 811	34 952	37 343	38 088	114,6
Mo'ynoq	27468	29 344	29 980	31 212	31 216	113,6
Nukus	37333	39 153	41 320	42 083	42 328	113,4
Taxiatosh	22464	24 524	25 851	26 534	26 916	119,8
Taxtakopir	43463	45 127	48 198	46 503	50 376	115,9
To'rtko'l	127993	133 742	134 304	135 869	137 993	107,8
Xo'jayli	55409	58 169	59 705	60 758	60 876	109,9
Chimboy	71350	81 055	84 102	85 311	85 746	120,2
Shumanay	61098	64 509	68 405	69 567	78 219	128,0
Ellikqal'a	122820	130 137	132 009	133 428	133 783	108,9

* Buzatov tumanida o'sish sur'ati 2021 yilga nisbatan

Tadqiqot davrida yirik shoxli qoramollarning dinamikasi hududiy jihatdan, ya'ni qishloq tumanlari bo'yicha ham katta tafovutlarga ega bo'ldi. Jumladan, 2000-2024 yillar mobaynida bunday turdagi chorva mollari bosh sonining o'sishi bo'yicha respublika ma'muriy birliklarini quyidagi javdalda ko'rishimiz mumkin.

2-jadval. Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlarining yirik shoxli qoramollar bosh sonining o'sish darajasi bo'yicha guruhlashtirilishi

Guruhlar va tumanlari	O'sish darajasi (barobar)	Qoramollar ulushi (foiz)		Hudud ulushi (foiz)	Ekin yerlar ulushi (foiz)
		2000	2024		
Taxiatosh, Shumanay	4,0 dan yuqori	4,8	9,0	0,6	8,0
Amudaryo, Beruniy, Nukus, Taxtakopir, To'rtko'l, Chimboy va Ellikqal'a	3,0-3,9	50,9	53,5	25,0	50,9
Bo'zatov, Kegeyli, Qanliko'l, Qorao'zak, Qo'ng'iro't, Muynoq, Xo'jayli	3,9 dan kam	44,4	37,6	74,4	41,1

Jadval QR statistik boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Birinci guruh tarkibiga kiruvchi qishloq tumanlarida 2000-2024 yillarda yirik shoxli qoramollar bosh sonining o'sishi 4 barobardan ko'p bo'lgan va uning respublikadagi ulushi esa 4,8 foizdan 9,0 foizga o'sgan. Ushbu guruh tumanlariga respublika hududining 0,6 foizi, ekin maydonlarining esa 8,0 foizi to'g'ri keladi.

Tadqiq etilayotgan davrda chorva mollari bosh sonining o'sish darajasini qishloq tumanlari miqyosida ko'rsak, Taxiatosh tumanida 8 barobarga yaqin va Shumanay tumanida esa 4 barobardan ziyodga ko'paygan. Ushbu tumanlarda ko'rsatkichlarning bunday bo'lishining ob'ektiv sabablari mavjud. Masalan, bu davrda ma'muriy-hududiy o'zgarishlar sodir bo'lib, har ikkala tuman tarkibiga Xo'jayli tumanidan ma'lum miqdorda yerlar qo'shib berilgan.

Ikkinchi guruh tumanlariga respublika hududining 25,0 foizi, ekin maydonlarining esa 50,9 foizi to'g'ri keladi. Ko'rilayotgan davrda ushbu guruhda yirik shoxli qoramollarning bosh sonining ko'payishi 3,0-3,9 barobar atrofida bo'lgan va uning ulushi 50,9 foizdan 53,5 foizga o'sgan. Geografik joylashgan o'rniga ko'ra, ular asosan janubiy, qisman markaziy va shimoliy tumanlarni tashkil etadi.

Uchinchi guruh er maydoni bo'yicha eng yirigi hisoblanib, unga respublika hududining 74,4 foizi, ekin maydonlarining esa 41,1 foizi to'g'ri keladi. 2000-2024 yillarda yirik shoxli qoramollar bosh sonining o'sishi 2,9 barobardan kam bo'lgan. O'sish sur'atining past bo'lishiga bog'liq ushbu turdagi qoramollarning ulushi 44,4 foizdan 37,6 foizga kamaygan. Mazkur guruhdan asosan chorvachilik tarmog'ini rivojlantirish zarur bo'lgan shimoliy tumanlar joy olgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Qoraqalpog'istonda qishloq tumanlari o'zining egallagan maydoni, aholisi va chorva mollari bosh soni, ekin va yaylov maydonlari ko'lami hamda boshqa geografik xususiyatlari bilan bir biridan keskin farq qiladi. Masalan, hududi bo'yicha eng katta Qo'ng'iro't (74,5 ming kv km) va eng kichik Taxiatosh (0,2 ming kv km) tumanlari o'rtasidagi farq yoki hududning "geografiylik" koeffitsienti 372,5 ga teng. Buning ma'nosi Qo'ng'iro't tumani Taxiatoshdan 372,5 barobarga katta hisoblanadi. Agar ushbu usul respublikada chorva mollaring bosh soni bo'yicha qo'llanilsa, yirik shoxli qoramollar soni eng ko'p Amudaryo tumani (165,8 ming) va eng kam Taxiatosh

⁵ Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma'lumotlari

tumani (24,5 ming) o'rtasidagi nisbiy koeffitsient 6,8 ga teng bo'lsa, ekin maydonlari bo'yicha eng ko'p Chimboy tumani (41,2 ming ga) va eng kam Taxiotosh tumani (6,8 ming ga) o'rtasidagi ushbu koeffitsient 6,1 ni tashkil etadi.

Shunday qilib, Qoraqalpog'istonda qishloq tumanlari o'rtasida bunday kata geografik tafovutlarning mavjudligi ularni yirik shoxli qoramollar va ekin yerlari ulushi nisbatida namoyon bo'luvchi tarmoqning rivojlanganlik indeksini aniqlash yo'li bilan tahlil qilish katta amaliy ahamiyatga ega bo'ladi. Bunda normal rivojlanish indeksi shartli ravishda 1,00 ga teng bo'ladi. Agar ushbu indeks 1,00 dan katta bo'lsa, shu tumanlarda sohaning rivojlanganlik sig'imligi yuqori, ko'rsatkich 1,00 dan kichik bo'lsa, unda mazkur tumanlarda sohasini rivojlantirish istiqbollari keng ekanligini anglatadi [5].

3-jadval. Qoraqalpog'iston Respublikasida yirik shoxli qoramolchilik chorvachiligining rivojlanganlik indeksi

№	Tumanlar	Yirik shoxli qoramollar		Ekin yerlar maydoni		Rivojlanganlik indeksi
		Ming bosh	Ulushi (%)	Ming ga	Ulushi (%)	
1	Beruniy	167,3	13,3	33,6	6,5	2,04
2	To'rtko'l	138,0	11,0	32,2	6,2	1,76
3	Amudaryo	179,1	14,2	39,5	7,6	1,86
4	Ellikqal'a	133,8	10,6	34,4	6,7	1,60
5	Taxiotosh	26,9	2,1	7,9	1,5	1,40
6	Muynoq	31,2	2,5	26,1	5,0	0,49
7	Xo'jayli	60,9	4,8	21,5	4,2	1,16
8	Bo'zatov	39,6	3,1	30,1	5,8	0,54
9	Shumanay	78,2	6,2	29,1	5,6	1,10
10	Kegeyli	59,4	4,7	32,4	6,3	0,75
11	Chimboy	85,7	6,8	48,8	9,4	0,72
12	Qo'ng'iro't	77,7	6,2	42,6	8,2	0,75
13	Nukus	42,3	3,4	30,7	5,9	0,57
14	Taxtakopir	50,4	4,0	34,7	6,7	0,60
15	Qorao'zak	41,7	3,3	35,7	6,9	0,48
16	Qanliko'l	38,1	3,0	35,5	6,9	0,44
17	Nukus shahri	9,9	0,8	2,2	0,4	1,85
	Jami:	1260,2	100,0	516,9	100,0	

Jadval QR statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

3-jadval tahlillari natijalaridan Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq tumanlarini yirik shoxli qoramolchilik tarmog'ining rivojlanganlik indeksi bo'yicha quyidagi ikkita guruhga ajratish mumkin: - birinchi guruhga Amudaryo, Beruniy, Taxiotosh, To'rtko'l, Xo'jayli, Shumanay, Ellikqal'a tumanlari va Nukus shahri; - ikkinchi guruhga Muynoq, Bo'zatov, Kegeyli, Chimboy, Qo'ng'iro't, Nukus, Qanliko'l, Qorao'zak va Taxtakopir tumanlari.

Birinchi guruhdagi qishloq tumanlarida shartli indeks 1,00 dan yuqori bo'lishining ikkita sababi mavjud bo'lib, mazkur tumanlarda yirik shoxli qoramollar bosh soni ko'p yoki ekin maydonlari nisbatan kam. Statistik ma'lumotlarga qaraganda yirik shoxli qoramollarning bosh soni birinchi guruh tarkibiga kiruvchi Amudaryo, Beruniy, To'rtko'l va Ellikqal'a tumanlarida ko'p (49,1 foiz), Taxiotosh, Shumanay va Xo'jayli tumanlarida esa kam (13,9 foiz). Ushbu tumanlarga mos ravishda 27,0 foiz va 11,7 foiz ekin yerlari to'g'ri keladi. Mazkur guruhga respublikadagi yirik shoxli qoramollarning 63,0 foizi, ekin maydonlarining esa 38,8 foizi to'g'ri keladi. Demak, bu turdagi chorva mollari va ekin yerlari o'rtasidagi nisbiy koeffitsient 1,62 ga teng.

Ikkinchi guruhdagi qishloq tumanlariga Qoraqalpog'istondagi yirik shoxli qoramollarning 37,0 foizi, ekin yerlarining esa 61,2 foizi to'g'ri keladi. Ushbu ikkita omil o'rtasidagi nisbiy koeffitsient 0,603 ga teng.

Bundan xulosa qilish mumkinki, ikkinchi guruhdan asosan shimoliy va qisman markaziy mintaqada joylashgan qishloq tumanlari joy olgan bo'lib, ularda go'sht va sut yo'nalishidagi chorvachilikni rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar mavjud. Ushbu imkoniyatlar avvalo yem-xashak ekinlarini yetishtirish uchun keng ekin maydonlarining mavjudligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, so'nggi yillarda suv resurslari tanqisligini inobatga olib, mazkur tumanlarda ekin maydonlari tarkibini suvni kam talab qiladigan yem-xashak ekinlariga almashtirish maqsadga muvofiq [6]. Qishloq xo'jaligi hayvonlarini boqish - eng yaxshi sifatli go'shtni olish uchun so'yishdan oldingi davrda hayvonlarni oziqlantirishni kuchaytirish. Boqishning iqtisodiy ko'rsatkichlari va go'sht mahsulotlarining sifati zoti, jinsi, yoshi, sog'liq holati, yog' miqdori, ovqatlanish turi va intensivligi, ushlab turish sharoitlari va boshqalarga bog'liq. Eng yaxshi natijalarga sanoat kesishmasidan olingan ixtisoslashgan go'sht zotlari va xochlarni boqish orqali erishiladi. Go'shtni so'yish uchun mo'ljallangan barcha sog'lom chorva mollari, asosiy podani yig'ib olgandan keyin qolgan yosh hayvonlar va asosiy podadan chiqarib yuborilgan kattalar hayvonlari boqilishi kerak. Oziqlantirish va parvarish qilishni yaxshiroq tashkil etish uchun hayvonlar jinsi, yoshi, semizligi va temperamenti bo'yicha guruhlanadi.

Chorvachilikda mollarni boqishning bir necha turi qo'llaniladi: parhezboq oq va gastronomik yoki og'ir buzoq go'shti, yosh ("yosh-mol go'shti") va xo'raki mol go'shti olish uchun va boshqalar.

Birinchi turdagi boquvning davomiyligi - tug'ilgandan 45-60 kunlik yoshgacha; asosiy ozuqa - sut, davr oxiriga kelib yog'sizlantirilgan sut va konsentratlardan foydalanishga ruxsat beriladi. Parhez buzoq go'shti asosan bemorlarni ovqatlantirish uchun ishlab chiqariladi. Gastronomik buzoq go'shti olish uchun buzoqlar 3-4 oylik bo'lguncha boqiladi; ratsionga qaymog'i olinmagan sut bilan bir qatorda 15-20 kunligidan boshlab qaymog'i olinmagan sut o'rni bosuvchilar, yog'sizlantirilgan sut va konsentratlar kiritiladi. Bunday boqish ko'pincha AQSH, Buyuk Britaniya va Germaniyada qo'llaniladi. Yosh mol go'shti yetishtirish uchun yosh mollar 6-8 oylikidan 9-12 oylikigacha boqiladi (G'arbiy Yevropa va Lotin Amerikasining ayrim mamlakatlarida, AQSH, Avstraliya, Yangi Zelandiyada).

O'zbekistonda esa sut va sut-go'sht yo'nalishidagi yosh mollar 18-20 oyligida bo'rdoqiga boqiladi (intensiv qoramolchilik zonalarida 14-18 oyligida), hayvonlarning vazni 400-480 kg ga yetganda.

Ular ko'k va shirali ozuqalar, silos, pichan, sanoat chiqindilari (barde, jom va boshqalar) bilan boqiladi. Asosiy ozuqalar to'yimligi bo'yicha 50-70% ni tashkil etadi. Chorva mollari binolarda va ochiq maydonlarda boqiladi. O'rtacha kunlik semirish 800-1200 g. 1 kg semirishga sarflanadigan ozuqa sarfi 8-11 ozuqa birligi, 1 s semirishga sarflanadigan mehnat sarfi ixtisoslashtirilgan xo'jaliklarda 4,2-6,3 kishi-soat. Yem-xashak bazasining asosini tabiiy yaylovlar tashkil etadigan Janubiy Amerika, Afrika, Okeaniya mamlakatlarida, Rossiyaning ba'zi rayonlarida, Mongoliyada chorva mollarini bo'rdoqiga boqishning ekstensiv formalari – yaylovda mol boqish ustunlik qiladi.

Muvaffaqiyatli boqishning asosi mo'l-ko'l va muvozanatli ovqatlanishdir. Oziqlantirish darajasi va foydaliligi qanchalik yuqori bo'lsa, hayvonlarning mahsuldorligi shunchalik yuqori bo'ladi va har bir birlik uchun ozuqa narxi past bo'ladi. Boqiladigan chorva mollari muvozanatli, xilma-xil boqiladi. Bir tomonlama muvozanatsiz ovqatlanish ishtahaning pasayishiga, umumiy holatning yomonlashishiga, ozuqa xarajatlarining oshishiga va go'shtning ozuqaviy sifatining pasayishiga olib keladi [7].

Yem-xashakni bekam-u ko'st yeyish, ovqatga talabchan bo'lmaslik chorva mollarining bo'rdoqiga boqilishini tezlashtirishga va arzon, to'yimli go'sht olishga yordam beradi. Ishtahaning yomonligi, ozuqani tez-tez iste'mol qilmaslik, ozuqani haddan tashqari ko'p iste'mol qilish semirishning uzayishi, go'sht tannarxining oshishi va ozuqa sifatining yomonlashishi bilan birga keladi. Buzoqlarni muntazam, yetarli va to'la qiymatli oziqlantirish, yosh mollarni yaxshi saqlash bilan birgalikda katta miqdorda, ayniqsa, hajmli ozuqalarni yeyishga erta o'rgatish ishtahani rivojlantiradi. Oziqlantirishga bo'lgan ehtiyoj hayvonlarning zotiga, turiga qarab turlicha bo'ladi. Shunday qilib, qozoqi oqbo'sh, gereford, aberdin-angus va shortgorn zotli hayvonlar 15-16 oyligida 450-470 kg qaytim vazniga erishadi va ularda mahsuldorlikning genetik potentsiali o'rtacha kunlik o'sishning 900-1100 g oralig'ida o'zgarib turadi.

Eksternaliylarni ta'sirini tartiblashtirish asosida go'sht yetishtirishda chorvani oziqlashtirishning optimal variantlarini tanlash ushun tadqiqot davomida tizim interfeysi yaratiladi.

ADABIYOTLAR

1. J. Macháč, M.Trantinová, L.Zaňková. Externalities in agriculture: How to include their monetary value in decision-making?. International Journal of Environmental Science and Technology (2021) 18:3–20. <https://doi.org/10.1007/s13762-020-02752-7>;
2. Чеплянский А.В. Экстерналии в аграрном секторе и направления их интернализации / А.В. Чеплянский, М.А. Лагун // Науч. Стремления. – 2014. - №9 – с. 99 – 102.;
3. Шодиев Т.Ш. Проблемы моделирования развития сельского хозяйства (на примере Узбекистана): Дис. ...док. экон. наук. Т. 1988. – 380 с.;
4. Saukhanov J.K. Soil salination as an external factor to increase transaction costs in the agricultural sector of Uzbekistan economy // Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. Volume 12, Issue 4 Special Issue, 2020, Pages 479-489.
5. Сауханов Ж.К. Яйловлардан унумли фойдаланган ҳолда гўшт етиштириш самарадорлигини эконометрик баҳолаш. // Иқтисодий ва таълим журнали. 2020, №4. 156-161 б. (08.00.00 №11).
6. Urazbaeva L. Qishloq xo'jaligida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishga eksternaliylar ta'siri. Agro Ilm jurnali, maxsus son (2) [93], 2023, 34-36 b.
7. Уразбаева Л.М. (2024). Разработка прогнозных показателей и регулирование экстерналий развития животноводства в регионе. Экономика и Предпринимательство, 2(163), 559–563. <https://doi.org/10.34925/eip.2024.163.2.107>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasida chorvachilik tarmog'ining rivojlanish holati, xususan, go'sht yetishtirishda chorva hayvonlarini oziqlantirishning samarali variantlarini tanlash masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda eksternaliylarning chorvachilikka ijobiy va salbiy ta'siri o'rganilib, ularning boshqaruvi asosida oziqlantirish tizimini takomillashtirish yo'llari ishlab chiqilgan. Shuningdek, mintaqada yirik shoxli qoramollar sonining o'sish dinamikasi, yaylov maydonlarining holati va yerlarning sho'rlanish darajasi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: go'sht yetishtirish, oziqlantirish, eksternaliylar, sho'rlanish, barqaror rivojlanish, ozuqa bazasi.

Annotation. This article analyzes the state of development of the livestock industry in the Republic of Karakalpakstan, in particular, the selection of effective feeding options for livestock in meat production. In the study, the positive and negative influence of externalities on livestock farming was studied, and ways to improve the feeding system based on their management were developed. The dynamics of the growth of cattle numbers in the region, the state of pastures, and the degree of soil salinity are also analyzed.

Key words: meat production, feeding, externalities, salinization, sustainable development, feed base.

Аннотация. В данной статье анализируется состояние развития животноводческой отрасли в Республике Каракалпакстан, в частности, вопросы выбора эффективных вариантов кормления скота при производстве мяса. В исследовании изучено положительное и отрицательное влияние экстерналий на животноводство, разработаны пути совершенствования системы кормления на основе их управления. Также анализируется динамика роста поголовья крупного рогатого скота в регионе, состояние пастбищных угодий и уровень засоления земель.

Ключевые слова: производство мяса, кормление, экстерналии, засоление, устойчивое развитие, кормовая база.

INTEGRATING MEDICAL AND PILGRIMAGE TOURISM IN SAMARKAND REGION: OPPORTUNITIES FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Xoliqov N. A., Sultonov A. A.

– “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

Introduction. Tourism is increasingly becoming one of the most dynamic sectors of the global economy, contributing not only to economic growth but also to cultural exchange, social well-being, and regional development. In

Uzbekistan, the tourism sector has been recognized as a strategic industry with high potential for diversification and integration with other fields. Among the various directions, pilgrimage tourism and medical tourism have emerged as two promising segments that can complement each other in unique ways.

The Samarkand region, known worldwide for its architectural marvels, ancient heritage, and spiritual landmarks, already attracts millions of pilgrims and cultural tourists annually. At the same time, Uzbekistan has started to develop its medical tourism sector by modernizing clinics, promoting traditional healing practices, and building sanatoriums that cater to both domestic and international visitors. However, these two types of tourism—pilgrimage and medical—are still developing separately. Their integration could provide a new model of sustainable tourism development in the region, enhancing its competitiveness in the international market.

This article explores the opportunities, challenges, and strategic solutions for integrating medical and pilgrimage tourism in the Samarkand region, with a focus on achieving sustainable development and inclusive growth.

Analysis of literature on the topic. In economic literature and scientific works on the field of tourism, the theoretical and methodological aspects of tourism development have been covered by many foreign scholars, including: G. Richards, J. Wilson, Richard George, Brian King, A.Yu.Aleksandrova, I.T.Balabanov, M.A.Zhukova, M.B.Birzhakov, Yu.A.Barzikin, N.I.Kabushkin, R.V.Kolotova, A.E.Saak, V.A.Kvartalnov and others. [3].

In the study of tourism, such domestic scientists as Q.Kh. Abdurakhmanov, N.T.Tokhliyev, M.Q.Pardayev, I.S.Tukhliyev, B.N.Navruz-Zoda, A.A.Eshtayev, B.Sh.Safarov, O.M.Pardayev, M.T.Aliyeva, A.N.Norchayev, A.T.Mirzayev, N.S.Ibragimov, and other economists are conducting research. [2].

At the same time, various aspects of the development trends of the tourism sector, as well as issues such as increasing the tourist competitiveness and attractiveness of tourist areas, were widely discussed.

Research methodology. The research was conducted using methods such as analysis and synthesis, abstract-logical analysis, econometrics, observation, comparison, correlation, regression, statistical and economic analysis.

Analysis and results. Pilgrimage Tourism. Pilgrimage tourism refers to the movement of individuals for religious or spiritual purposes, often to sacred sites, shrines, and monuments. It is one of the oldest forms of tourism, historically motivating large-scale human mobility. Pilgrimage sites also serve as cultural and educational hubs, where religious values are preserved and transmitted. [2]. In Samarkand, key pilgrimage sites include the mausoleum of Imam Bukhari, Shahi Zinda necropolis, Khoja Doniyor complex, and the shrines of many other religious figures. These places attract not only domestic pilgrims but also international visitors from across the Muslim world. [1]. Medical Tourism. Medical tourism involves traveling across borders to receive healthcare services, ranging from wellness and preventive care to specialized treatments and surgeries. This sector has become increasingly globalized, driven by the rising cost of healthcare in developed countries and the desire for affordable, high-quality services in developing economies.

Uzbekistan's medical tourism is based on a combination of modern clinics, wellness centers, and sanatoriums, many of which are located near natural springs and healing environments. In addition, traditional medicine—herbal remedies, spiritual healing, and alternative therapies—forms an integral part of the country's medical heritage.

The integration of pilgrimage and medical tourism involves creating hybrid tourism products where visitors can satisfy both their spiritual and healthcare needs. Such integration is already practiced in countries like Turkey, Iran, and Saudi Arabia, where pilgrims also seek wellness treatments, alternative medicine, or modern healthcare services.

The Samarkand region is one of the most visited areas in Uzbekistan due to its historical, cultural, and religious heritage. Its tourism industry is dominated by pilgrimage and cultural tourism, supported by UNESCO-recognized monuments. However, medical tourism is still in its early stages of development.

- Pilgrimage Tourism: The annual influx of pilgrims to Samarkand is growing steadily. The Imam Bukhari complex alone attracts thousands of visitors from countries like Indonesia, Malaysia, Turkey, and Pakistan. Domestic pilgrims from all over Uzbekistan also consider Samarkand a spiritual center.

- Medical Tourism: Uzbekistan has invested in sanatoriums such as “Chor-Chinor,” “Samarkand Sanatorium,” and several private clinics offering dental, ophthalmological, and cosmetic treatments. Traditional medicine, particularly herbal treatments and healing baths, is also gaining popularity.

Challenges:

- ✓ Weak integration between medical and pilgrimage services.
- ✓ Lack of tailored tourism packages combining healthcare and religious visits.
- ✓ Limited international marketing strategies.
- ✓ Insufficient transport and accommodation facilities near pilgrimage and medical centers.

Despite these opportunities, several challenges may hinder the integration of medical and pilgrimage tourism:

1. **Infrastructural Gaps.** Many pilgrimage sites lack sufficient accommodations, modern transport, and healthcare facilities nearby;

2. **Shortage of Skilled Personnel.** There is a need for professionals who are simultaneously knowledgeable about healthcare and tourism services;

3. **Regulatory and Ethical Issues.** Pilgrimage tourism involves religious sensitivity, while medical tourism requires strict adherence to international healthcare standards. Balancing both requires careful regulation;

4. **Marketing Limitations.** Uzbekistan's integrated tourism products are not widely promoted on international platforms. Awareness among foreign tourists is still low.

To address the challenges and fully exploit the opportunities, the following strategic solutions are recommended: **Infrastructure Development.** Investment in roads, accommodations, and healthcare facilities near pilgrimage sites.

Special medical centers can be established within close reach of spiritual complexes; Human Capital Development. Training programs for medical staff in hospitality and foreign languages, as well as for tourism professionals in healthcare basics, to create a pool of versatile specialists; Public-Private Partnerships (PPP). Encouraging collaboration between government, private clinics, tour operators, and religious institutions to create integrated tourism services; Digital Marketing and Branding. Promoting Samarkand under the brand “Spiritual and Healing Destination” on international tourism platforms, with emphasis on affordability, authenticity, and cultural richness; Policy Support. Developing legal frameworks that regulate both medical standards and respect for religious traditions, ensuring visitor trust and safety.

During the research, we identified the factors affecting the volume of tourist services (Y) in Samarkand region.

In this study, we test the following 2 hypotheses:

H0 — the effect of at least one of the factors X1, X2, X3, X4, X5, X6, X7, X8, X9, X10 on Y is statistically significant.

H1 — the effect of none of the factors X1, X2, X3, X4, X5, X6, X7, X8, X9, X10 on Y is statistically significant. [4].

After some calculations we found out the indicators of volume of tourist services in Samarkand region for 2010-2024 and the trend line adapted to this graph (Figure 1)




Figure 1. Indicators of volume of tourist services in Samarkand region for 2010-2024 and the trend line adapted to this graph

*Source: Created by the author based on information from the Samarkand Regional Tourism Department

Based on Figure 1, this fitted trend line explains the graph of the volume of tourism services in Samarkand region with 83% accuracy. We will try to find the values of for 2025-2027 (Table 1).

Table 1. Forecast values of the volume of tourist services in Samarkand region for 2025-2027

Years	The volume of tourist services in Samarkand region, million dollars
2025	527,6056
2026	632,1924
2027	745,8724

*Source: Calculated by the author using Excel programm

According to the data presented in table 4, the volume of tourist services in Samarkand region will amount to 527 million 605 thousand 600 dollars in 2025, and by 2027 this figure will increase to 745 million 872 thousand 400 dollars. This steady increase highlights the growing importance of the tourism sector in the region’s economy and reflects positive expectations for its development. The data suggests that with continued investment and strategic planning, Samarkand is poised to significantly strengthen its position as a key tourist destination in Uzbekistan and the broader Central Asian region.

Conclusion and suggestions. The integration of medical and pilgrimage tourism in the Samarkand region represents a unique opportunity for Uzbekistan to diversify its tourism sector, strengthen its international competitiveness, and achieve sustainable development. While significant challenges remain—particularly in infrastructure, human capital, and marketing—strategic interventions can overcome these barriers.

The integration of medical and pilgrimage tourism in the Samarkand region offers multiple opportunities:

1. Creation of “Healing and Pilgrimage” Packages. Tour operators can design special tours that include visits to sacred sites alongside stays at wellness centers or clinics. For example, a week-long package could involve pilgrimage visits followed by spa treatments, herbal therapies, or medical check-ups.
2. Development of Wellness Centers Near Pilgrimage Sites. Building or upgrading wellness facilities near Imam Bukhari or Shahi Zinda would allow visitors to combine their spiritual journey with physical and mental healing.
3. Promotion of Traditional Medicine. Uzbekistan has a rich tradition of herbal medicine and spiritual healing, which can be marketed as part of a unique “holistic tourism” experience. This could attract both Muslim pilgrims and wellness tourists from Europe and Asia.
4. Attracting Foreign Visitors. Pilgrims from countries such as Indonesia, Malaysia, and Turkey are also interested in healthcare services. By offering affordable treatments in combination with religious visits, Uzbekistan can position Samarkand as a regional hub.
5. Community Involvement. Local communities can be trained to provide hospitality services such as family guesthouses, local food, handicrafts, and guided tours, ensuring that economic benefits are widely distributed.

By creating innovative tourism packages, investing in wellness centers, promoting traditional medicine, and engaging local communities, Samarkand can become a regional hub for both spiritual and medical healing. In the long term, this integration will not only enhance the well-being of visitors but also improve the socio-economic conditions of local communities, making tourism a true driver of inclusive growth.

Expected Economic and Social Outcomes. Integrating medical and pilgrimage tourism will generate significant benefits for the Samarkand region:

Economic Growth: Increased inflow of tourists, higher foreign exchange earnings, and greater demand for local services.

Employment: New jobs in healthcare, tourism, and hospitality sectors.

Healthcare Improvement: Expansion of clinics and wellness centers will also improve services for local residents.

Cultural Exchange: International visitors will experience Uzbek traditions, cuisine, and lifestyle, enhancing cultural diplomacy.

Regional Branding: Samarkand will be positioned as a unique destination combining spirituality and healing, boosting its global recognition.

REFERENCES

1. Eshtayev A.A. Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi turizm tarmog'i misolida). DSc. Dissertatsiya avtoreferati – Samarqand. 2019.-246 b.;
2. Mirzayev A.T. O'zbekistonda turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. DSc. diss. avtoref. – Toshkent, 2021. –68 b.;
Taraqqiyotning biogenetik nazariyalarida rivojlanishning biologik determinantlariga asosiy urg'u beriladi. Rivojlanish jarayonining o'zi bosqichlari universal bo'lgan yetilish sifatida talqin etiladi. Bu yo'nalishning yorqin namoyondalaridan biri XX asr amerikalik psixologi S. Xolldir. Uning ta'kidlashicha, rivojlanish psixologiyasining asosiy qonuni biogenetik "rekapitulyatsiya qonuni" hisoblanadi, unga ko'ra individual rivojlanish, ontogenez filogeneznig asosiy bosqichlarini takrorlaydi. Go'daklik rivojlanishning hayvonot fazalarini takrorlaydi. Bolalik qadimgi odamlarning asosiy mashg'ulotlari ovchilik va baliq ovlash bo'lgan davrga to'g'ri keladi. 8 dan 12 yoshgacha bo'lgan davr o'smirlikdan oldingi davr deb ataladi, yovvoyilik tugallanib, madaniyatning boshlanishi deb ta'riflaydi. 12-13 yoshdan 22-25 yoshgacha bo'lgan davrni o'spirinlik deb ataladi, kattalikning boshlanishi, romantizm davri deb ataladi. Bu davrda tashqi va ichki nizolar avj olib, insonda "individuallik hissi" paydo bo'ladi. Holning bu nazariyasi psixologlar tomonidan tanqid qilinadi[4]. Bu davrlar hayotdagi hal qiluvchi bosqich bo'lib, u asosan insonning keyingi taqdirini belgilaydi. Buni Ivan Tsarevich to'xtab qolgan, o'yga cho'mgan chorrahaga qiyoslash mumkin: "Agar chapga borsang... o'ngga borsang..." deb yozilgan tosh yonida bir yo'l inson o'z hayoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan, borligining ma'nosini anglagan, hayot quvonchini his qilganda haqiqiy balog'atga yetadi. Ikkinchisi esa ko'plab muammolarga duchor bo'lgan hayoliy, go'dak yoki antisosial balog'atga olib keladi.

Bu davrda iqtisodiy va madaniy beqarorlik sharoitida, oilaviy inqirozlar sharoitida ulg'ayishi ayniqsa qiyin. Ijtimoiy muhitdagi farqlarga qaramay, ularning deyarli barchasi bu davrni keskin boshdan kechiradi: ular ota-onalar va o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlarida tajovuzkor, itoatsiz bo'lib qoladilar. Bunday vaziyatda hatto eng g'amxo'r ota-onalar va o'qituvchilar ham ko'pincha o'zlarini yordamsiz deb bilishadi. Farzandlariga nima bo'layotganini tushunolmay, ular o'z farzandlarining inqirozini kuchaytiradigan yo'l bilan harakat qilishadi. Ayni paytda, ota-onalarning o'zlari ko'pincha stressga duchor bo'lib, bolalarining hissiy va jismoniy farovonligiga salbiy ta'sir qiladi[5].

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda oilaviy nizolar o'spirinlarda emotsional beqarorlik, agressiya, tashvish, ijtimoiy moslashuv muammolari va o'ziga ishonchsizlikning asosiy omillaridan biri sifatida ko'rsatilmoqda. Oiladagi kommunikativ buzilishlar, ota-onaning avtoritar yoki befarq tarbiya uslubi, shuningdek, davomli psixologik bosim o'spirinning shaxsiy rivojlanish jarayonida salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois o'spirinlik psixologiyasini oilaviy nizolar kontekstida ilmiy tahlil qilish, ushbu jarayonning o'zaro aloqalarini ochib berish va ularni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish zamonaviy psixologiya fanining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Gipoproteksiya bu biz eshitmagan atama bo'lishi mumkin, gipoproteksiya ota-onalar tomonidan e'tibor va nazoratning etishmasligi, e'tiborsizlik bilan chegaralangan ota-ona tarbiya uslubi. shunday holatki, unda ota-onaning bola bilan shug'ullanishga yo vaqti yetishmaydi, yoki bu ishni boshqalarga yuklab qo'yadi. Bugungi kunda bu holat ancha ko'paymadimikin? Ota-onalarning farzandiga vaqti yo'q; ularda hissiy aloqalar yo'q va bolaning muammolari va qiziqishlari bilan shug'ullanmaydi.

O'spirinlik davridagi o'zgarishlarda ota onalar ko'proq e'tibor qaratishi kerak. Quyida ota onalar uchun tavsiyalar keltirilgan: har bir oilada ota-ona farzandlarini ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini yaxshi bilishi, farzandini kimlar bilan munosabatda e'tibor berishi; farzandlarni xarakteridagi ijobiy xislatlarini namoyon bo'lishiga xulqidagi salbiy jihatlarni tuzatishi, psixolog bilan hamkorlikda; ota-onalar farzandlariga nisbatan bir xil munosabatda bo'lishi, bolani haddan ziyod erkalamaslik, kamsitmasligi, tengdoshlari bilan solishtirmasligi; ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarni keltirib chiqaruvchi omillarni sabablarini inobatga olish, ular bilan do'stona munosabatda bo'lish va farzandlar bilan ishlashda qat'iy qoidalarga rioya qilish; farzandlarni o'smirlik davrida sodir bo'layotgan o'zgarishlarini inobatga olish, uni shaxs sifatida qabul qilib ularning fikrlarini tinglash, ayblamaslik, ularni qilgan ishlari va xatti-harakatlarini tanqid qilmasliklari tavsiya qilinadi. Shundagina bu davrda yengil ota ona ham farzand ham o'tishi mumkin.[6]

Bundan tashqari ota-onalar uchun treninglar tashkil etib, ularni o'spirinlarning hissiy ehtiyojlarini to'g'ri tushunishga o'rgatish; Raqamli gigiyena va internetdan to'g'ri foydalanish bo'yicha psixosotsial mashg'ulotlar o'tkazish; o'spirinlar bilan ishlashda individual suhbat va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlarini yo'lga qo'yish ham hozirgi kunning talablaridan biri sanaladi. O'spirinlarning ijobiy o'zini anglashini rivojlantiruvchi ijtimoiy loyihalar (volontyorlik, sport, san'at to'garaklari)ni kengaytirish.

Xulosa qilib aytganda, o'spirinlik davri — bu shaxsning hayotga ongli kirib kelish, o'z yo'lini topish va ichki dunyosini shakllantirish bosqichidir. To'g'ri yo'naltirilgan psixologik va pedagogik ta'sir bu davrda sog'lom, mustaqil va mas'uliyatli shaxs yetishib chiqishiga zamin yaratadi. O'spirinlik davrining psixologik o'zgarishlari ko'p omilli jarayon bo'lib, u nafaqat biologik yetilish, balki ijtimoiy muhit, tarbiya, ta'lim, oila va madaniy qadriyatlar ta'siri bilan belgilanadi. Shu bois bu bosqichda o'spirin shaxsining shakllanishi murakkab, ba'zan ziddiyatli kechadi, ammo bu ziddiyatlar tabiiy taraqqiyotning ajralmas qismi hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda raqamli muhit, axborot oqimining tezligi va akseleratsiya jarayoni tufayli o'spirinlik yoshining boshlanishi avvalgiga nisbatan erta kechmoqda. Natijada yoshlar o'zini kattalar jamiyatining faol a'zosi sifatida his etadi, bu esa ularning psixologik barqarorligi, emotsional muvozanati va ijtimoiy moslashuviga qo'shimcha talablar qo'yadi.

ADABIYOTLAR

1. Ahmedova M. Pedagogik konfliktologiya / o'quv qo'llanma / Ahmedova M.-Toshkent: <<Donishmand ziyosi>>, 2020. 304-b.
- 2.2. Ijtimoiy psixologiya: o'quv qo'llanma N. Ismoilova, D. Abdullayeva; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. –Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti», 2013- 168 b.
- 3.3. M.G.Davletshin, Sh.Do'stmuhamedova, M.Mavlonov, S.To'ychieva, M. Djumabaeva Yosh va pedagogik psixologiya (o'quv qo'llanma) Toshkent -2007
4. Umarov B.M. - psixologiya fanlari doktori, professor D.B.Botirova, 2021
5. Психология подростка. Учебные пособие для студентов высший. Учеб заведений-2-е ИЗД испр_ М Издательский центр «Академия» 2005 160 с
6. Ibaydullayeva U.R. Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarning ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori diss –T.: 2022

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'smirlik va o'spirinlik davrlarining biologik psixologik ijtimoiy xususiyatlari asosan o'spirinlik davriga qaratilgan bo'lib bu davrdagi kreziplar nizolar kelib chiqish sabablari va olimlarning bu davr haqidagi ilmiy qarashlari keltirilgan. Bundan tashqari xulosa va tavsiyalar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: o'smirlik, o'spirinlik, identifikatsiya, kognitiv o'sish, psixologik barqarorlik akseleratsiya, gipoproteksiya

Аннотация в данной статье биологические, психологические и социальные особенности подросткового и юношеского возраста в основном сосредоточены на подростковом возрасте, приводятся причины кризисов и конфликтов в этот период, а также научные взгляды ученых на этот период.

Ключевые слова: подростковый возраст, юность, идентификация, когнитивный рост, психологическая устойчивость, акселерация, гипопротекция.

PEDAGOGNING PROFESSIONAL IMIJINI SHAKLLANTIRISH

Bektursinova L.X.

Qoraqalpoq davlat universiteti

Dunyoda pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarining o'quv-bilish faoliyatini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, fasilitatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-emotsional intellekti rivojlantirishning fasilitativ texnologiyalarini ishlab chiqishga doir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, talabalarining kognitiv va ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishning kasbiy-pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy imijini shakllantirishning refleksiv mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, pedagogik fasilitatsiya vositasida pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida tolerantlik madaniyatini tarbiyalash, interfaol ta'limni tashkil etish va amalga oshirishning innovatsion kompetentligini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bunday sharoitda, yuqori malakali pedagoglarga bo'lgan talablar ortib borib, barkamol avlodni asrlar davomida shakllanib kelgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash layoqatiga ega, fanning fundamental asoslarini, pedagogika va psixologiya metodlarini mukammal egallagan, kasbiy tayyorgarligi yuksak darajada bo'lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakasiga ega ijodkor pedagoglarni tayyorlash talab etiladi[1, 3-b.]. Bu esa o'qituvchilarni fasilitativ faoliyatga tayyorlash samaradorligini oshirish lozimligini ko'rsatadi. Pedagogik fasilitatsiyaning dolzarb masalalaridan biri o'qituvchi imijini shakllantirishdir. Hozirgi vaqtda ijobiy imij nafaqat dolzarb muammoga aylanmoqda siyosiy va ishbilarmonlik sohalarida, shuningdek, faoliyatda vazifasi yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdan iborat bo'lgan oliy maktab o'qituvchilari va mutaxassislar.

Ensiklopedik va pedagogik-psixologik adabiyotlarda imij tushunchasiga xilma-xil ta'riflar berilgan. Jumladan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha ta'rif berilgan: "imij" atamasi lotincha "image" so'zidan olingan bo'lib, uni o'zbek tilida bayon etadigan bo'lsak, qiyofa, siymo, timsol, chiroy, mashhur, muhim, kelishgan, savlatli, ko'rimli, obro'li, nufuzli kabi ma'nolarni bildiradi[2]. Rossiyalik tadqiqotchilardan E.V.Kondratev va R.N.Abramovlar imijga shunday ta'rif berishadi: "Imij – murakkab ijtimoiy voqelikni vujudga keltirish va aniqlashning tejamkorroq usulidir. Imij – bu axborotni qayta ishlash natijalariga asoslangan ob'ektning ramziy qiyofasidir. Bizning imijimiz, o'zgalarning ko'z o'ngidagi suratimiz singari, ba'zi hollarda bizning o'zimizdan ham muhimroq bo'ladi" [3].

Ye.N.Bogdanov va V.G.Zazikinlar esa imijga quyidagicha ta'rif ta'rif beradilar: "Imij – ijtimoiy ongda nimaning yoki kimningdir shakllangan va stereotip xususiyatiga ega bo'lgan hissiy jihatdan boyitishdir" [4].

Tadqiqotchi V.S.Komarovskiy tomonidan esa "Imij – (inglizcha image so'zidan olingan) shaxslarning ma'lum guruhiga muayyan tarzda hissiy-ruhiy ta'sir ko'rsatish uchun bir maqsadli ravishda shakllantiriladigan shaxs, tashkilot yoki hodisaning qiyofasidir" [5], deb ta'rif berilgan.

Professor A.N.Chumikovning ta'kidlashicha, "Imij muammosi bo'yicha yozilgan ishlarning turli-tumanligiga qaramay, bu tushunchaga oid ko'pgina masalalar hanuzgacha muammoli bo'lib qolmoqda. Ayrim kishilar imijni yaxshi ko'rinish mahorati, deb tushunadilar va shunga yarasha kiyim-kechak tanlash, sochni turmaklash, o'ziga oro berish kabilar bilan shug'ullanadilar. Boshqalar uchun esa imij faqat tashqi ko'rinish bo'lib qolmay, balki shirali ovoz, o'zini tuta olish, omma oldida so'zlay bilish qobiliyati va muloqot qilish mahoratidir" [5, 318]. A.V.Petrovskiy va M.G.Yaroshevskiy "Qisqacha psixologik lug'at"da imijga shunday ta'rif beradilar: "imij" omma ongida aniq ob'ekt stereotip obrazining yaratilishidir. Imij tushunchasi aniq shaxsdan tashqari, tovarga, tashkiliy tuzilmaga, sohaga va h.k.ga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin[6]. Imij tushunchasiga berilgan ta'riflar asosida A.A.Kalyujniy uning quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatadi: tashqi qiyofa, muloqotning verbal va noverbal vositalari, shaxsiy va kasbiy "Men"ning uyg'unligi[7]. Tashqi qiyofa insonga o'ziga e'tiborni jalb etish, ijobiy obrazni yaratish, nafaqat o'zini istarali, balki nafosatli o'qituvchi sifatida ko'rsatishga yordam beradi. Pedagog o'zining tashqi qiyofasi bilan o'quvchilar va kattalarga o'mak bo'lishi lozim. Unda boy ichki olam, bolalarga muhabbat va ular haqida g'amxo'rlik qilish uyg'unlashgan bo'lishi zarur. Shuni yodda tutish lozimki, bolalar kattalardan, eng asosiysi o'qituvchidan to'g'ri kiyinishni o'rganishadi. Kiyim kiyishda eng muhim qoida namoyon bo'ladi: chiroyli ko'rinishga egami, demak yon-atrofdagi kishilarga hurmat bilan munosabatda. Insonning tashqi qiyofasiga qo'yiladigan talablar pedagogga o'zining kasbiy imijini yaxshilash va muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi. Haqiqiy o'qituvchi kiyim bilan emas, o'zining intellekti, kasbiy malaka va qobiliyatlari bilan hurmat qozonadi.

Verbal va noverbal vositalar imijning muhim tarkibiy qismi sanaladi. Ya'ni biz so'z yordamida boshqa kishiga ta'sir ko'rsata olamizmi, qanday jest va mimikalardan foydalanamiz, qanday o'tiramiz, turamiz va yuramiz – hamma-hammasi muhim ahamiyatga ega. O'zining kasbiy yetukligini namoyon qilish uchun yon-atrofdagilarga o'zining qulay tarzda taqdim etishga e'tibor qilishi va uddasidan chiqishi lozim. Tadqiqotlar asosida tasdiqlanganki, 35 % informatsiyaning kishilar og'zaki (verbal) va 65 foizini noverbal vositalar yordamida oladi.

Shaxsiy va kasbiy "Men" uyg'unligi – pedagogik imijning muhim komponenti sanalib, ma'qul kelish va boshqa kishilar ajralib turish ko'nikmasi kasbiy muloqotda muhim sifat hisoblanadi. Imij o'qituvchining ichki ustanovkasiga aylanib qolmasdan, uning xarakteri va qarashlari bilan ham mos bo'lishi lozim. O'z obrazimizni yaratish orqali biz o'z-o'zimizni tarbiyalaymiz. Faoliyat shaxsiy-ichki anglanganlikni tashqi namoyon qilish manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu eng avvalo o'zining betakrorligini namoyon etish, pedagogik jarayonning (maqsad va vazifadan o'quv materiali, shakl, metod va vositalarni tanlashgacha) originalligini ta'minlash, muloqot uslubida, o'quvchilarning xulq-atvoriga munosabatida, vaziyatni to'g'ri mo'ljalga olishida namoyon bo'ladi.

A.A.Kalyujniyning fikricha, imijni yaratishning to'rtta usulini ajratib ko'rsatish mumkin: birinchidan, insonning o'zi atrofdegilarga qanday munosabatda bo'lishi, o'zi haqida nimalarni tasavvur qilishi orqali; ikkinchidan, imijmeykerlar – siyosatchilar, shou-biznes vakillari uchun imij yaratuvchi professionallar; uchinchidan, imijni yaratishda ommaviy axborot vositalari – radio, televidenie, ijtimoiy tarmoqlar muhim rol o'ynaydi; to'rtinchidan, uni yon-atrofdagi kishilar – do'stlar, qarindoshlar, hamkasblar yaratadi[7].

L.M.Mitina tomonidan taklif etilgan professional imidj tuzilmasida imidjning uchta tarkibiy qismi ajratib ko'rsatilgan: tashqi imidj; protsessual imij; ichki imidj. Tashqi tarkibiy qismga mimika, imo-ishoralar, ovoz temбри va kuchi, kiyinishi, xatti-harakatlar, yurish kiradi. O'qituvchining tashqi ko'rinishi, albatta, darsda ishchan yoki ishdan tashqari kayfiyatni vujudga keltirishi, o'zaro bir-birini tushunishga yordam berishi yoki to'sqinlik qilishi, pedagogik muloqotni osonlashtirishi yoki qiyinlashtirishi mumkin. Kasbiy faoliyat, L.M.Mitinaning fikriga ko'ra, imijning protsessual tarkibiy qismi orqali ochiladi, u professionallik, plastiklik, ekspressivlik va boshqalar kabi muloqot shakllari bilan aniqlanadi. "Hissiyotlarga boy, his-tuyg'ularning verbal va noverbal namoyon bo'lish usullarini egallagan va ularni maqsadga muvofiq qo'llaydigan..." tarbiyachi darsni "jonlantirishga," uni ifodali qilishga, tabiiy muloqotga yaqinlashtirishga qodir.

Ichki tarkibiy qism - bu insonning ichki dunyosi, uning ma'naviy va intellektual rivojlanishi, qiziqishlari, qadriyatlari, umuman, uning shaxsiyati haqidagi tasavvurdir. Shuning uchun ham qiyofamizning vizual jozibadorligi juda muhim. Barcha davrlarda odamlar uyg'unlik va go'zallikni qadrlaganlar. Birinchi taassurot effekti vizual idrokka asoslanadi. Psixologlarning eksperimental ma'lumotlariga ko'ra, tashqi ko'rinishi jozibali odamlar atrofdegilarning yoqtirishiga osonroq erishadilar. Vizual jozibadorlik nafaqat bizning jismoniy ma'lumotlarimiz, balki bizga bevosita bog'liq bo'lgan sezilarli miqdordagi tashqi tarkibiy qismlardir. Bu kiyim, soch turmagi, pardoz yordamida ta'kidlangan ma'lumotlarimizning tashrif qog'ozi. Pedagogning asosiy uslubi - bu klassika. Ushbu uslub quyidagi fazilatlarini anglatadi: o'ziga ishonch va o'zini tuta bilish, qat'iyatlilik va psixologik moslashuvchanlik, obro'-e'tibor. Bu fazilatlar pedagog uchun kasbiy jihatdan zarurdir. Shuningdek, pedagog imidjining ajralmas tarkibiy qismi kasbiy tayyorgarlik va doimiy o'z-o'zini takomillashtirishdir. Ayniqsa, boshlovchi pedagoglar uchun bu juda muhim. Yosh mutaxassis pedagogik mahorat usullarini egallashi, bolalarni tarbiyalashning shaxsga yo'naltirilgan modeli asoslarini o'zi uchun anglashi va o'z kasbiy fazilatlarini rivojlantirish ustida doimiy ishlashi kerak.

Imijni rivojlantirish masalasi Ye.P.Kostenko izlanishlarida o'z aksini topgan[8]. Imijni akmeologik rivojlantirish algoritmi deganda, u avvaldan erishish mo'ljallangan natijani kafolatlash uchun bajariladigan barqaror harakatlarni tushunadi. Dastlabki bosqich – ijtimoiy muhit nuqtai nazaridan insonning o'z-o'zini idrok etish va anglashi sifatidagi refleksiyaning mavjudligi. Ikkinchi bosqich – sub'ekt shaxsi va kasbiy faoliyatni rivojlantirish nuqtai nazaridan imijni loyihalash va amalga oshirish. Yakuniy bosqich – maxsus ishlab chiqilgan akmeologik dastur va texnologiyalar asosida sub'ektning amaliy jihatdan o'z-o'zini takomillashtirishi va rivojlantirishi natijasida imijni korreksiyalash.

Tadqiqot natijalari asosida har bir o'qituvchi o'zining amaliy faoliyatida foydalanishi mumkin bo'lgan shaxsiy imijni tarkib toptirishning quyidagi o'ziga xosliklari va texnikalari aniqlashtirildi: o'z-o'zini tahlil etish va o'zi haqidagi tasavvurlarni shakllantirish; o'z-o'ziga nisbatan motivatsiya hosil qilish – o'z-o'zini qo'llab-quvvatlash; jozibadorlik – ijobiy qiyofani yaratish; shaxsiy jozibadorlik metodikasi; muvaffaqiyatga erishish texnikasi.

O'z-o'zini tahlil etish va o'zi haqidagi tasavvurlarni shakllantirish. O'qituvchi imijini yaratish uzoq davom etadigan va murakkab jarayon bo'lib, uning muvaffaqiyati nafaqat, shakllantirish shart-sharoitlari va texnologiyalari, balki uning o'zi haqidagi shaxsiy tasavvurlariga ham bog'liqdir. Inson butun umr davomida o'z-o'zini anglashga harakat qiladi. Biz o'z haqimizdagi nuqtai nazarlarni shakllantirishga tayyor bo'lamiz va hech ikkilanmasdan nega shunday o'ylayotganimiz, harakat qilayotganligimizni tushuntirishga harakat qilamiz. Agar shunday bo'lmasa, biz qay tarzda o'zimiz haqimizda yaxshi bilishimiz mumkin?! O'qituvchi o'z-o'zini takomillashtirishni o'zining shaxsiy va kasbiy muammolarini o'rganishdan boshlashi kerak. Mazkur bosqichda o'z-o'zini tashxis etish metod va usullarini tanlashga yordam olish uchun psixolog-mutaxassis katta rol o'ynaydi. O'zi haqidagi dastlabki tasavvurlarni pedagog turli pedagogik-psixologik metodikalarni o'tkazish orqali bilib olishi mumkin.

O'z-o'ziga nisbatan ijobiy motivatsiyani hosil qilish – o'z-o'zini qo'llab-quvvatlash. Ma'lumki, o'z-o'ziga qaraganda boshqalarning ko'nglini olish oson, o'z-o'ziga maslahat berish va uni bajarish murakkab. Savol tug'iladi: qanday qilib inson o'z-o'zini motivlashtirishi mumkin? Agar o'zingni o'zing qo'llab-quvvatlamasang, boshqalardan ijobiy natija kutib bo'lmaydi. O'z-o'zini motivlashtirish harakatga undovchi inson holatini ifoda etadi. O'z-o'zini motivlashtirish uchun vaziyatni tahlil etish lozim. Buning uchun bir varaq qog'oz olinadi va uch qismga bo'linadi. Qog'ozchalarga quyidagi savollar yoziladi: "Ushbu vaziyatda nima yaxshi?", "Ushbu vaziyatda nima yomon?", "Biroq shu sababli men qila olishim mumkin...". Mazkur vaziyatning keyingi rivojini ko'rish, yomon fikr va o'y-xayollardan bartaraf bo'lishga yordam beradi. Shuningdek, terapevtik usul – qog'oz terapiyadan foydalanish mumkin. Salbiy o'y-fikrlarni qog'ozga yozish orqali inson yomon o'y-xayollardan o'zini ozod qiladi.

Jozibadorlik – ijobiy qiyofani yaratish. Mohiyatiga ko'ra imij – bu o'z-o'zini namoyon etish, obrazning mohiyatini tavsif etishda namoyon bo'ladigan uning tashqi jihat. Bunda muhim o'rinni samarali imijni yaratish egallashi zarur. Agar inson o'zining kiyimi, pardosi, mimikasi orqali o'zining imijini yaratsa, ma'lum vaqt o'tganidan keyin uning haqiqiy tashqi jihatdan namoyon bo'layotganini his qiladi. Mavjud holat imijning yangi detallarini namoyon qilishni taqozo etadi.

Shaxsiy jozibadorlik metodikasi. Yuz – imijning asosiy tarkibiy qismi. Insonning yuz ifodasidagi hissiyot uning tanasidagi libos va aksessuarlaridan ko'proq tassurot qoldiradi. Masalan, ko'zdan ongli ravishda oqilona foydalanish so'zning tinglovchanlik xususiyatini 25 % ga oshiradi, ayniqsa, darsda yangi materialni tushuntirishda yordam berishi

mumkin. Mushaklarni qisqartirish orqali yuzdagi emotsiya va ifodalarni boshqarish uchun feysbilding bilan shug'ullanish lozim: maxsus mashqlar, yuz gimnastikasi, ko'z aerobikasi, turli situativ rollarni o'ynash, videotreninglar.

Xulosa qilib aytganda, shaxsiy-kasbiy imijni shakllantirish o'qituvchi mahoratining muhim tarkibiy qismidir. O'z-o'zini namoyon etish strategiya va usullarini tanlay olish pedagogik faoliyat va pedagogik muloqot jarayoniga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ta'lim muassasasi psixologi zamonaviy tendensiyalar va imijeologiyaning yutuqlarini hisobga olgan holda, o'qituvchi imijini shakllantirish yuzasidan zaruriy maslahatlarni berib borishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти: пед. фан. док. дисс. – Тошкент, 2007. – 305 б.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 362 б.
3. Кондратьев Э.В., Абрамов Р.Н. Связи с общественностью. М.: Академический Проект, 2005. – 126 с.
4. Богданов Е.Н., Зазыгин В.Г. Психологические основы «Паблик рилейнз». 2-е изд. – СПб, 2004. – 36 с.
5. Комаровский В.С. «Государственная служба и СМИ». – Воронеж: Издательство им. Е.А. Болховитинова, 2003. – 257 с.
6. Петровский А.В., Ярошевский М.Г. Краткий психологический словарь. – М.: Политиздат, 1991. – 494 с.
7. Калужный А.А. Психология формирования имиджа учителя. – М.: ВЛАДОС, 2004. – 222 с.
8. Костенко Е.П. Акмеологическая концепция развития имиджа политика: дисс. ... док.псих.наук. – М., 2008. – 267 с.

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik imiji va uning o'ziga xosliklari, o'qituvchi imijini shakllantirishga doir turli yondashuvlar tahlil etilgan hamda samarali usullari bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: imij, vosita, usul, o'qituvchi imiji, shaxsiy imij, akmeologiya, jozibadorlik.

Аннотация. В данной статье анализируются педагогический имидж и его особенности, различные подходы к формированию имиджа учителя, описываются эффективные методы.

Ключевые слова: имидж, инструмент, метод, образ учителя, имидж личности, акмеология, привлекательность.

Abstract. This article analyzes the pedagogical image and its features, various approaches to forming the image of a teacher, and describes effective methods.

Key words: image, tool, method, teacher image, personality image, acmeology, attractiveness.

HAYALLARDA TUWIWDAN KEYINGI DEPRESSIYANIN SEBEP HAM AQIBETLERIN ILIMIY PSIXOLOGIYALIQ KOZQARASTAN UYRENIW

Asamatdinova J., Perdebaeva M. B.

Qaraqalpaq Mámleketlik Universiteti

Analıq - insan ómirindegi eń áhmiyetli basqışlardan biri bolıp, ol tek ǵana quwanış emes, al úlken juwapkershilikte alıp keledi. Biraq kóplegen hayallar ushın tuwıwdan keyingi dáwir tek ǵana baxıt hám jıllı sezimler menen sheklenip qalmaydı. Ásirese, bul dáwirde hayal organizminde júz berip atırǵan ózgerisler, fizikalıq hám ruwxıy sharshaw, jańa turmıs tárizi menen baylanıslı qıyınshılıqlar geyde tuwıwdan keyingi depressiyaǵa sebep bolwı múmkin. Ózbekstan Respublikası Prezidenti Sh.M.Mirziyoevniń atap ótkenindey, "Jer júzindegi qaysı bir jámiyetniń mádeniy dárejesi onıń hayallarǵa bolǵan múnásibeti menen belgilenedi" solay eken, hayal-qızlarǵa búgingi kúnde berilip atırǵan itibar, olardıń fizikalıq salamatlıǵı menen bir qatarda ruwxıy salamatlıǵında ayırıqsha itibar qaratıw dáwir talabı bolmaqta. Tuwıwdan keyingi depressiya (TKD) - bul jańa bosanǵan analar arasında keń tarqalǵan ruwxıy jaǵday bolıp, ol tuwıwdan keyingi birinshi hápte yamasa aylar dawamında júz beriwı múmkin. Dúnya boylap hár 10 hayaldıń bir-ekewi usı jaǵdayǵa dus keledi. Ayırım jaǵdaylarda bolsa bul kórsetkish bunnanda joqarı bolıwı múmkin. Biraq, ruwxıy salamatlıq mashqalalarına jeterli itibar berilmegeni sebepli TKD kóbinese óz waqtında anıqlanbaydı hám emlenbeydi. Sol sebepli, bul temanı ashıq talqılaw hám onıń sebeplerin túsindiriw júdá áhmiyetli.

Tuwıwdan keyingi depressiya (TKD) - jańa ana bolǵan hayallarda ushırasatuǵın ruwxıy jaǵday bolıp, ol gormonal ózgerisler, fizikalıq sharshaw, ruwxıy basım hám basqa túrli faktorlar nátiyjesinde kelip shıǵadı. Usı maqalada TKD sebeplerin tolıǵıraq talqılaymız. Demek joqarıda kórsetip ótkenimizdey, tuwıwdan keyin hayal organizminde júdá úlken gormonal ózgerisler júz beredi. Bul gormonlar dárejesindegi ózgerisler TKD rawajlanıwına tikkeley tásir etedi: hámiledarlıq dáwirinde estrogen hám progesteron dárejesi joqarı boladı, bul gormonlar keypiyat turaqlılıǵın saqlawǵa járdem beredi [3;65]. Tuwıwdan keyin bolsa olardıń muǵdarı júdá tez kemeyip ketedi. Bul bolsa keypiyat túskenligi, motivaciyanıń tómenlewi hám biypárwalıq sezimin keltirip shıǵarıwı múmkin. Tuwıwdan keyin organizmde stress dárejesi artıp, kortizol islep shıǵarılwı artıwı múmkin. Bul hayaldıń ózin turaqlı táshwısh, qorqıw yamasa turaqsız seziniwine sebep boladı. Oksitocin "muhabbat hám qarım qatnas" gormonı bolıp, emiziw procesinde ajıraladı. Biraq, ayırım hayallarda bul gormon jeterli dárejede ajıralıp shıǵpawı yamasa onıń islew mexanizmi buzılıwı múmkin. Bul bolsa analıq seziminiń tómenligi hám bala menen baylanıswı qıyınshılıǵına alıp keliwı múmkin. Ayırım hayallarda tuwıwdan keyin qalqan tárizli bez gormonlarınıń uyǵınlıǵı buzıladı. Gipotireoz (qalqantárizli bez xızmetiniń páseyiwı) depressiya belgileri, sharshaw hám keypiyatnıń tómenlewine alıp keliwı múmkin.

Tuwıwdan keyin hayal organizmi awır tikleniw procesinen ótedi. Bul dáwirde tómenдеgi fizikalıq faktorlar TKD rawajlanıwına sebep bolıwı múmkin: turaqlı uyqısızlıq hám bul jańa tuwılǵan náresteniń kútimi kúni-túni dawam etedi. Tuwıwdan keyingi dáslepki háptelerde kópshilik analar tünde 2-3 saattan artıq uyıqlamaydı. Turaqlı uyqısızlıq bolsa miydiń normal islewine kesent etip, depressiya simptomların kúsheytıwı múmkin. Organizmniń tikleniwı ushın jeterli waqt joqlıǵı-hayal organizmi tuwıwdan keyin tikleniw ushın waqt hám resurslarǵa mıtáj boladı. Biraq, bala tárbıyası hám úy jumsları sebepli kóp hayal-qızlar óz salamatlıǵına itibar bere almaydı. Nátiyjede immunitet tómenleydi, fizikalıq jaǵday jamanlasadı hám ruwxıy túskenlik kúsheydi; xirurgiyalıq jol menen tuwıw (keser kesiw) yamasa tuwıwdıń awır ótiwı. Awır tuwıw yamasa operaciya arqalı dúnyaǵa kelgen bala ananıń fizikalıq tikleniw procesin

uzağıraq sozadı. Bunday jaǵdaylarda sharshaw hám awırıw sezimi uzaq dawam etip, hayaldıń ruwxıy jaǵdayına unamsız tásir etedi.

Ruwxıy basımda TKDnıń eń tiykarǵı sebeplerinen biri. Bul faktor tómendegi kórinislerde kórinıwi múmkin: analıq juwapkershiligi menen baylanıslı táshwishler - jańa ana bolıw kóplegen hayallar ushın úlken sınaq. "Men jaqsı ana bola alamanba?" yamasa "Balamdı durıs kútip atırmanba?" sıyaqlı sorawlar hayalda turaqlı táshwish tuwdırıwı múmkin. Ayırım hayallar tuwıw procesinde shok yamasa awır stress jaǵdayın bastan keshiredi. Eger tuwıw qıyın ótken bolsa yamasa shıpakerlerdiń múnásibeti unamsız bolsa, bul jaǵday posttravmatikalıq stress sindromına alıp keliwi múmkin. Ilimiy izertlewler analizi sonı kórsetedi, tuwıwdan keyin hayaldıń ómiri pútkilley ózgeredi. Ol endi kóbirek náreste tárbiyasına baylanıslı bolıp qaladı. Buringı ádetler, jámiyetlik turmıs hám jeke erkinlik sheklenedi. Bul bolsa stress hám túskinlikke sebep bolıwı múmkin. Hayaldıń átirapındaǵı ortalıq TKD rawajlanıwında úlken rol oynadı, máselen ómirlik jo lıdasınıń itibarsızlıǵı, eger hayaldıń ómirlik joldası oǵan jeterli itibar bermese, ol ózin jalǵız seziniwi múmkin. Er hám hayal arasındǵı qarım-qatnas jeterli bolmasa, TKD qáwpi artadı. Jaqınları tárepinen túsinbewshilik yaǵnıy ayırım jaǵdaylarda átiraptaǵılar TKDnı "ózińdi bas," "hámme ana bolıp atırǵo" dep mensinbewi múmkin. Bul bolsa hayalda ózin túsiniksiz hám járdemge mútaj seziniwine alıp keledi. Eger hayal jaqınlarınan uzaqta yamasa jalǵız bolsa, bul onıń ruwxıy jaǵdayına unamsız tásir etedi. Ásirese, sociallıq sheńberi tar bolsa, ol depressiyaǵa túsiw itimalı joqarı boladı. Bul ómirindegi aldınǵı psixikalıq mashqalalarǵa yaǵnıy depressiya tariyxında baylanıslı bolıwı múmkin. Eger hayal aldın depressiya yamasa ruwxıy mashqalalar menen gúresken bolsa, tuwıwdan keyin bul jaǵday jáne qaytalanıw itimalı joqarı. Sonday-aq, finanslıq- turmıslıq qıyınshılıqlar nátiyjesinde júz beriwi múmkin. Máselen, bala dúnyaǵa kelgen soń shańaraqlıq qárejetler keskin artadı, bul bolsa hayal adamda finanslıq qáweterleniwdi kúsheytip, stress keltirip shıǵarıwı múmkin. Jańa tuwılǵan náreste menen baylanıslı qárejetler, shańaraq byudjetindegi ózgerisler hám keleshek ushın táshwishleniw hayal adamda qosımsha stress keltirip shıǵarıwı múmkin. Eger hayal óziniń ekonomikalıq jaǵdayınan qáweterlense, bul onıń ruwxıy salamatlıǵına unamsız tásir etedi.

Alım Z.Ibodullaevtiń izertlewlerine kóre ayırım hayallarda tuwıwdan keyin túrli ruwxıy-emocional buzılıwlar júz beredi. Átiraptaǵılardıń jaqsı múnásibetine qaramastan, tuwǵan hayaldıń keypiyatı keskin ózgeriwi múmkin. Ásirese, sebepsiz ashıwshaqlıq, tez ókpelew, jılaw, hawlıǵıw, qáweterleniw, uyqı buzılıwı sıyaqlı belgiler kóp baqlanadı hám olar hesh qanday medicinalıq-psixologiyalıq járdemsiz ótip ketiwide múmkin. Bul jaǵdaylar, ásirese birinshi ret tuwǵan hayallarda kóp baqlanadı hám sharshaw menen kórinedi. Bunday jaǵdayda ómirlik joldası, ata-anası hám basqa jaqınlarınıń úlken itibarı, miyrim-shápááti bul ruwxıy ózgerislerdi tezirek saplastırwǵa járdem beredi. Qanıgelderdiń pikirinshe, tuwıwdan keyingi bunday psixoemocional buzılıwlar derlik 20% quraydı hám bir ayǵa shekem sozılıwı múmkin [1;377]. Ásirese, bala shala tuwılsa, onda nuqsanlar anıqlansa, ruwxıy buzılıwlar kúsheydi. Kópshilik jaǵdaylarda tuwıwdan aldınǵı qáweter tuwıwdan keyinde saqlanıp qaladı. Sol sebepli rawajlanǵan ellerde tuwıwdan aldın hayal-qızlardı klinikalıq psixolog tekseriwinen ótkeriw diagnostika standartına kirgizilgen. Tuwǵan hayaldıń átirapında unamsız ortalıq jaratılса, ruwxıy-emocional buzılıwlar kúsheyip, awır depressiyaǵa ótiw qáwpi bar. Tuwıwdan keyin óz perzentinen waz keshiw yamasa óz janına qastıyanlıq etiw jaǵdayları sol sebepli júz beriwi múmkin. Psixikalıq-emocional buzılıwlar ishinde tuwıwdan keyin baqlanatuǵın depressiya ayrıqsha orındı iyeleydi hám bunda, álbette, medicina psixologınıń járdemi kerek boladı [1;377]. Hayaldıń ózi bul jaǵdaydan shıǵa almay qalıwı múmkin. Tuwıw menen baylanıslı depressiya, ásirese, bala óli yamasa qandayda bir nuqsan menen tuwılǵan jaǵdayda kóp ushırasadı. Bala tiri tuwılǵanda baqlanatuǵın depressiyanıń tiykarǵı belgilerinen biri - bul óz balası hám kúyewine qızıǵıwshılıqtıń sóniwi. Bunday jaǵdayda balanı emiziw zárúrligin jaqınları hayaldan jalbarınıp soraydı. Ana bolsa jılap atırǵan balaǵa itibarsız boladı, náresteni onıń qushaǵına alıp barsa, qolına almaydı, qolına berse iyerip jiberedi, ózide jılap beredi. Geyde bolsa kózine jas kelmeydi, balasına yamasa dógeregindegilerge teris burılıp jatıp aladı. Kópshilik jaǵdaylarda depressiya qorqıw, qáweter, hár túrli dárejede belgilengen vegetativ hám somatikalıq buzılıwlar menen kórinedi. Ásirese jasırınǵan depressiyanıń tuwıwdan keyin payda bolıwı shıpaker ushında úlken diagnostikalıq qıyınshılıq tuwdıradı. Jasırınǵan depressiya túrli somatikalıq kesellikler yamasa sindromlar kórinisinde kórinedi. Sonıń ushın jasırınǵan depressiyanı durıs anıqlaw hám medicinalıq hám psixologiyalıq tekseriwler ótkeriwdi talap etedi. Jasırınǵan depressiyada somatikalıq buzılıwlar subyektiv bolıp, obyektiv tekseriwlerde tastıyqlanbaydı. Tuwıwdan keyin baqlanatuǵın qáweterli-depressiv buzılıwları emlewde zamanagóy antidepressantlardan keń paydalanıladı[1;378]. Biraq ruwxıy keselliklerdi usı dáriler menen emlewde olardı emiziwshi hayalǵa qarsılıq etiwshi táreplerin, nárestege kerı tásirleri hám ruwxıy buzılıwdıń awırılıq dárejesin itibarǵa alıw kerek. Tuwıwdan keyin rawajlanıwı múmkin bolǵan qáweterli-depressiv buzılıwlarıń aldın alıw júdá áhmiyetli. Ilimiy talqılawlardan sonday pikir-juwmaqlarǵa kelemiz hár bir hámiledar hayalǵa "Medicinalıq-psixologiyalıq anketa" toltırılıwı hám medicinalıq psixolog olardı qadaǵalawǵa alıwı zárúr. Sebebi endi rawajlanıp atırǵan depressiyanıń jasırın belgilerin tek ǵana medicinalıq psixolog anıqlay aladı hám olardı óz waqtında psixoterapiyalıq jollar menen saplastıradı.

Tuwıwdan keyingi depressiyanı qalay emlew kerekligi óz waqtında anıqlanbasa, bul tómendegi aqibetlerdiń rawajlanıwına alıp keliwi múmkin; depressiyanıń kúsheyiwı hám uzaq waqt dawam etiwı; óz janına qast etiwge urınıwlar; sociallıq aqibetler, sol qatarda shańaraqtıń buzılıwı yáki baladan waz keshiw.

Keleshekte tuwıwdan keyingi depressiyadan shıǵıw mashqalasına dus kelmew ushın tómendegi profilaktikalıq ilajlardı kóriw usınıs etiledi: tuwıwdan keyingi depressiyanı óz waqtında diagnozlaw hám dawalaw; tuwıw procesine puxta tayarlanıw hám hámledarlıqtı rejelestiriw; hámledarlıq waqtında tájriybeli psixologiyalıq járdem alıw.

Demek psixolog-izertlewshiler kóz qarasında tuwıwdan keyingi depressiya awır mashqala bolıp, onı itibarsız qaldırıw múmkin emes. Bul process tábiyiy jaǵay bolsada, onıń menen jalǵız gúresiw anaǵa qıyınshılıq tuwdıradı. Sol sebepli, jaqınları hám jámiyet tárepinen analarǵa jeterli itibar hám qollap-quwatlaw kórsetiliwi zárúr. Eger hayal ózin

turaqlı tўskın, biypārwa yamasa qāweterli sezse, qānigege mūrājat etiwden tartınbawı kerek. Sebebi salamat ana - salamat bala hām baxıtlı shańaraq girewi. Alımlar pikirlerine tayanğan halda, analarğa depressiyadan shıǵıw ushın ruwxıy járdem beriliwi, eger zárúr bolsa perzentiniń densawlıǵına tásir etpeytuǵın tınıshlandırıwshı dári preparatları yamasa psixolog járdemi kórsetiliwi kerek degen sheshimge kelemiz [3;176]. Ananın ózin tiklep alıwı ushın shańaraqta qolaylı sharayát, tınıshlıqtı támiyinlep beriw zárúr. Bunda álbette perzent tárbiyasında ómirlik joldasınıń járdemi kerek.

Demek, depressiya awır kesellik bolıp, nawqastı emlew tek ǵana psixoterapiya hām antidepressiv terapiyadan ibarat bolmawı kerek. Emlew procesinde psixoterapiya, farmakoterapiya, muzıka terapiya, fizioterapiya, refleksoterapiya, logoterapiya, gelioterapiya, talassoterapiya, sociallıq terapiya, sport yamasa fizikalıq terapiya sıyaqlı emlew-reabilitaciyalaw usıllarınan ónimli paydalanıw zárúr boladı. Keminde tómendegi 4 túrli emlew usılın álbette qollanıw zárúr: 1) psixoterapiya; 2) farmakoterapiya; 3) muzika terapiyası; 4) sport yamasa fizioterapiya. Hár qanday depressiyada emlew procesi psixoterapiya menen baslanıwı hām psixoterapiya menen tamamlanıwı kerek. Farmakoterapiyadan aldın ótkizilgen psixoterapiya emlew procesin jeńillestirse, keyin ótkizilgen psixoterapiya depressiya qaytalanıwınıń aldın aladı. Psixoterapiya, ásirese, depressiyanıń jeńil hām orta dárejedege túrlerinde júdá nátiyjeli. Tuwrı tańlangan psixoterapiya járdeminde kópshilik jaǵdaylarda nawqasqa antidepressant usınıs etpesten-aq onı depressiyadan shıǵarıw múmkin. Búgingi kúnde nawqaslardı emlew procesinde qollanılatuǵın psixoterapiyalıq usıllar júdá kóp bolıp, olardıń ayırımlarına toqtalıp ótemiz.

Kognitiv psixoterapiya yamasa kognitiv terapiya (ingl. cognitive therapy), bul baǵdar tiykarın salıwshı - amerikalı ataqlı psixoterapevt Aaron Bek (1921-jılda tuwılǵan). Bul usıldı Aaron Bek depressiyanı emlewde keńnen qollanadı hām joqarı nátiyjege erisedi. Kognitiv psixoterapevtler pikirinshe, nevroz, depressiya hām fobiya tiykarında miyge orınasqan naduris pikirler hām olarǵa iseniw jatadı. Ózine, basqalarǵa hām jámiyette júz berip atırǵan waqıyalarǵa jaman qatnastı qalıplestirgen usı stereotip ideyalar nawqastıń minez-qulqın, turmıs tárizin, adamlarǵa hām jámiyetke bolǵan múnásibetin ózgertip jiberedi. Nawqastı azaplap atırǵan kesellik belgilerinen qutılıw ushın miyine orınasıp alǵan azaplı ideya hām pikirlerden qutılıwı kerek. Bul wazıypanı kognitiv psixoterapevt ámelge asıradı. Kognitiv psixoterapevt nawqas penen islesiw procesinde onı sol waqıtta qıynap atırǵan azaplı pikirleri, sezimleri, fantaziyaları, tilekleri hām orınlanbay atırǵan árman-úmitlerin bilip, durıs emes kózqarasların sol kúnnen baslap jeńiw hām ózine isenim sezimin nawqastıń miyine sińdirip baradı. Psixoterapiyalıq sáwbetler arasında erisilgen jetiskenlikler talqılanadı hām ele miydi tárk etpey atırǵan azaplı pikirlerden tazalap, olardıń ornın jańa niyet hām ideyalar menen toltırıp barıladı.

1955-jılı Albert Ellis racional-emotiv terapiya teoriyasın alǵa súrdi. Bul teoriyanıń tiykarǵı mazmunında insannıń ózi, basqalar hām jámiyet haqqındaǵı pikirlerin ózgertiwge qaratılǵan. Bul teoriya boyınsha depressiya, qāweter, ayıpkerlik sezimi hām sol sıyaqlı basqa psixologiyalıq mashqalalar ruwxıy jaraqatlandırıwshı faktorlar hām jaǵdaylar sebepli emes, al insannıń usı faktorlar hām jaǵdaylarǵa jeke múnásibeti hām kózqarasları sebepli júzege keledi.

Ellistiń pikirinshe, tómendegi 3 qaǵıydaǵa qatań ámel etiwge umtılıw adamdı bārqulla qāweterge saladı: 1) ózine úzliksiz talap qoya beriw ("men onday bolıwıń kerek, bunday bolıwıń kerek"); 2) basqalardıń ogan úzliksiz talap qoya beriw ("sen onday bolıwıń kerek, bunday bolıwıń kerek"); 3) onıń basqalarǵa úzliksiz talap qoya beriw ("adamlar onday bolıwı kerek, bunday bolıwı kerek"). Mine usı úsh "kerek" principi - qāweter hām depressiya deregi esaplanadı. Racional-emotiv terapiya ózi haqqında insannıń miyine orınasıp qalǵan stereotip pikirlerden onı azat etiw hām sol sebepli ózgergen minez-qulıqlardı korrekciyalawǵa qaratılǵan. Racional-emotiv terapiya usılındada kognitiv-bixevioral terapiyadaǵı sıyaqlı pikir hām minez-qulqı parallel túrde korrekciyalanıp barıladı.

Bul maǵlıwmatlardı tek ǵana qānige emes, al hár bir insan biliwi shart bolıp esaplanadı. Sebebi biz úyrenip atırǵan mashqalanıń belgili bir sheshimlerine hūkimetimiz tárepinen alıp barılıp atırǵan analar hām balalardı sociallıq qorǵawǵa baǵıshlangan qararlar hām ilajlar xızmet etpekte. Kórilip atırǵan ilajlardıń barlıǵı elimizde insan qādir-qımbatına, onıń salamatlıǵına, ásirese, analar hām balalardıń salamatlıǵına ayırıqsha itibar qaratılıp atırǵanınan derek beredi.

ÁDEBIYATLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentini Qarori «Sog'lom ona va bola yili» davlat dasturi to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 7-son, 62-modda). www.dd.gov.uz; www.uza.uz; www.norma.uz; www.dedale.ru
2. Z. Ibodullayev. Tibbiyot psixologiyasi. Toshkent. (2019)
3. Julie S. Moldenhauer, MD, Children's Hospital of Philadelphia, Last full review/revision June 2018 by Julie S. Moldenhauer, MD. www.msmanuals.com
4. Edward H. Hagen, Depression as bargaining: the case postpartum , Evolution and Human Behavior, Innovationskolleg Theoretische Biologie Humboldt-Universität zu Berlin Invalidenstraße 43 10115 Berlin, Germany, 2000. –B.2
5. Edward H. Hagen, Depression as bargaining: the case postpartum , Evolution and Human Behavior, Innovationskolleg Theoretische Biologie Humboldt-Universität zu Berlin Invalidenstraße 43 10115 Berlin, Germany, 2000. –B.3
6. Julie S. Moldenhauer, MD, Children's Hospital of Philadelphia, Last full review/revision June 2018 by Julie S. Moldenhauer, MD. www.msmanuals.com

Annotatsiya: Bul maqalada hayallardaǵı tuwıwdan keyin baqlanatuǵın depressiyanıń sebepleri, onıń ana hām bala shaxsına tásiiri, profilaktikalıq ilajlar hām dawalawshı psixoterapiyalıq usıllar haqqında túsiniq berilgen

Tayanış túsiniqler: stress, emocional zorıǵıw, depressiya, nevroz, ayıpkerlik sezimi, hāmiledarlıq, tuwıwdan keyingi dáwir.

Аннотация: В данной статье дается представление о послеродовой депрессии у женщин и ее причинах, влиянии депрессии на личность матери и ребенка, профилактических мерах и лечебных психотерапевтических методах

Ключевые слова: стресс, эмоциональное напряжение, депрессия, невроз, чувство вины, беременность, послеродовой период.

Annotation: This article provides an understanding of postpartum depression in women and its causes, the impact of depression on the personality of mother and child, preventive measures, and therapeutic psychotherapeutic methods

Key words: stress, emotional stress, depression, neurosis, guilt, pregnancy, postpartum period.


ATSETOATSETANILIDNING *m*-NITROBENZOILGIDRAZONI VA Cu(II) KOMPLEKSINING TERMIK TAHLILI

Umarov B. B., Abduraxmonov S. F., Sattorova S. Z., Xudoyorova E. A.


Buxoro davlat universiteti

Termik tahlil usullari (TGA, DTA, DSC) moddalarning harorat ta'sirida yuz beradigan fizik-kimyoviy o'zgarishlarini aniqlashda keng qo'llaniladi. TGA (termogravimetrik analiz) modda massasining harorat ortishi bilan o'zgarishini o'lchaydi va parchalanish bosqichlarini ko'rsatadi. DTA (differensial termik analiz) jarayonda sodir bo'ladigan ekzotermik va endotermik effektlarni aniqlaydi. DSC (differensial skanerlovchi kalorimetriya) esa issiqlik oqimining o'zgarishiga asoslanib, moddaning fazaviy o'tishlarini, suyuqlanish haroratlarini va entalpiya o'zgarishlarini baholaydi[1]. Koordinatsion birikmalarning termik xossalari ligandlarning tabiatiga, metall ionining valentligiga hamda markaziy atomning koordinatsion soniga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun atsetoatsetanilid *m*-nitrobenzoilgidrazoni (H_2L) va u asosida olingan Cu(II) kompleksi ($CuL \cdot NH_3$) o'rtasidagi termik farqlarni aniqlash ularning tuzilish xususiyatlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi[2,3].

So'nggi yillarda gidrazon hosilalari va ularning metall komplekslari organik sintezi, biologik faol moddalar va koordinatsion kimyo sohalarida keng o'rganilmoqda. Gidrazonlar o'z tarkibidagi $-C=O$ va $-NH-N=$ guruhlarini orqali metall ionlari bilan kuchli koordinatsion bog' hosil qila oladi. Bunday komplekslar yuqori termik barqarorlik, katalitik va biologik faollik xususiyatlariga ega[4]. Atsetoatsetanilidning *m*-nitrobenzoilgidrazoni tarkibida ham ushbu guruhlar mavjud bo'lib, elektronoakseptor xususiyatga ega nitro guruh ($-NO_2$) tufayli gidrazonning metall ionlari bilan bog'lanish jarayonida o'ziga xos konformatsion o'zgarishlar kuzatiladi. Shu sababli tahlil usullari orqali ularning termik barqarorligini, termik tuzilish va bog'lanish xususiyatlarini baholash muhim ilmiy ahamiyatga ega[5,6]. Atsetoatsetanilidning *m*-nitrobenzoilgidrazon bilan kondensatlanishidan atsetoatsetanilidning *m*-nitrobenzoilgidrazoni olindi.




Shu gidrazonning $Cu(CH_3COO)_2$ ning ammiakli suvli aralashmadagi eritmasi bilan 1:1 mol nisbatda reaksiyasi natijasida $[Cu(C_{17}H_{17}N_5O_4)]$ kompleks birikmasi sintez qilindi.




Sintez qilingan H_2L va u asosida olingan $CuL \cdot NH_3$ kompleksining termik barqarorligi tahlil qilish natijalari ularning termik barqarorligida sezilarli farq mavjudligini ko'rsatadi. Quyida ularning parchalanish bosqichlari va issiqlik effektlari o'zaro taqqoslab ko'riladi.

H_2L dan namuna uchun 6,01 mg o'lchab olindi. Jarayon boshlanganidan 35,13 minut vaqt o'tib, ya'ni harorat 33,04 °C dan 372,11 °C ga yetganda namunaning massasi 5,491 mg ga kamaydi. Bu umumiy massaning 83,336 % ini tashkil etadi. Ushbu vaqt oralig'ida DTA chiziqlarida 174,17 °C da va 192,83 °C da ikkita endotermik effekt kuzatildi hamda tegishli tartibda 717,02 mJ va 126,52 mJ issiqlik yutildi, endotermik effekt cho'qqisi 158,47 °C va 214,4 °C. Ikkinchi bosqich 35,13 minutdan 79,23 minutgacha davom etdi. Harorat 372,11 °C dan 801,84 °C gacha ko'tarilganda umumiy massaning 8,013% i (0,528 mg) parchalandi (1-rasm)[1].



2-rasm. H_2L ning TGT, DTT, DSC grafiklari.

Tahlil uchun $\text{CuL}\cdot\text{NH}_3$ kompleksidan 2.64 mg olindi va 27.65°C dan 367.41°C ga qadar qizdirildi. Bu vaqtda dastlab namunadan adsorbdialangan suv va gazlarning desorbsiyasi kuzatildi, 252.9 °C da modda suyuqlanadi, keyin esa parchalanishning birinchi bosqichi boshlanadi. Modda 1.328 mg massani yo'qotdi, bu umumiy massaning 50.227 % ni tashkil etdi. Ikkinchi bosqichda modda 367.41°C dan 801.78°C gacha qizdirilganda umumiy massa yo'qotish 0.858 mg (32.451 %) ni tashkil etib bunda koordinatsion bog'larning uzilishi, molekulaning ligand qismida destruksiylar kuzatildi va qolgan qismi parchalanmaydigan noorganik qoldiqlar va CuO ga to'g'ri keldi. Parchalanish jarayonida DTA chizig'ida 228.99 °C dan 298.2 °C gacha oraliqda 1-ekzoeffekt kuzatildi, ekzotermik effekt cho'qqisi 252.29 °C ni tashkil etdi. Ikkinchi ekzoeffekt 489.83 °C dan 682.07 °C oraliqda kuzatildi ekzotermik effect cho'qqisi 574.89 °C bo'lib, shu vaqtda 858.25 mJ va 3.37 J issiqlik ajraldi (2-rasm).



2-rasm. H_2L asosida olingan $\text{CuL}\cdot\text{NH}_3$ kompleksining TGT, DTT, DSC grafiklari.

1-jadval. Tadqiq qilingan namunalarining termik destruksiya bosqichlari parametrlari tahlil ma'lumotlari

Namuna	Harorat oralig'i (bosqichlar bo'yicha), °C	Massaning yo'qotilish miqdori, %	Massaning eng katta yo'qotilish harorati, °C
H_2L	33.04-372.11 372.11-801.84	83.336 8.013	158.47
$\text{CuL}\cdot\text{NH}_3$	27.65-367.41 367.41-801.78	50.227 32.451	252.29

2-jadval. Tadqiq qilingan namunalarining xarakteristik haroratlari va aktivlanish parametrlari bo'yicha termik barqarorligini solishtirma baholash natijalari

Namuna nomi	Xarakteristik harorat, °C			Faollanish energiyasi, kJ/mol	Korrelatsiya koeffitsienti R^2	Termik barqarorlik, °C
	T_{10}	T_{20}	T_{50}			
H_2L	173	203	299	5.813	0.884	158.47
$\text{CuL}\cdot\text{NH}_3$	242	254	366	6.127	0.9348	367.41

Termik tahlil ma'lumotlari *m*-nitrobenzoilgidrazonga nisbatan $[\text{Cu}(\text{L}\cdot\text{NH}_3)]$ kompleksi termik barqaror ekanligini tasdiqlaydi. *m*-Nitrobenzoilgidrazonda massaning eng ko'p yo'qotilishi 158 °C ga to'g'ri kelsa $[\text{CuL}\cdot\text{NH}_3]$ kompleksi birikmasida 252 °C ni tashkil etadi. Bu ma'lumotlar kompleks birikmalarda M-N, M-O bog'larning uzilishi bilan bog'liqdir.

ADABIYOTLAR

1. Термический анализ ацетоацетанилидных ароилгидразонов // Universum: химия и биология : электрон. научн. журн. Сатторова С.З. [и др.]. 2025. 11(137).
2. Vorob'ev N.N., Ivanova E.A. *Thermal Analysis of Hydrazone Metal Complexes*. J. Therm. Anal. Calorim., 2018, 132(2), 789–798.
3. Khudoyberdiev S. et al. Thermal properties of polyelectrolyte complexes of bombyx mori chitosan with collagen //Chemistry and chemical engineering. – 2022. – T. 2022. – №. 1. – С. 5.
4. Sattorova S. Z. et al. Synthesis, Structure, and Properties of Acetoacetanilide Acetylhydrazone //Russian Journal of Organic Chemistry. – 2025. – T. 61. – №. 9. – С. 1626-1632.
5. Сулаймонова З. А., Наврузова М. Б., Чориева С. А. Термическое исследование производных ферроцена //SCIENTIFIC COLLECTION «INTERCONF. – 2021. – №. 45. – С. 473-478.
6. Абдурахмонов С. Ф. и др. Синтез и исследование биядерных комплексов ванадила (II) на основе бис-5-оксипиразолинов //Universum: химия и биология. – 2019. – №. 12 (66). – С. 50-55.

Annotatsiya: Ushbu ishda atsetoatsetanilidning *m*-nitrobenzoilgidrazoni va u asosida Cu(II) kompleks birikmasi sintezi, termik xossalari (TGA, DTA va DSC usullari) muhokama qilindi. Termogravimetrik tahlil natijalariga ko'ra, birikmalarning

parchalanish bosqichlari va ularning termik barqarorligi aniqlandi. TGA asosida moddalarning parchalanish bosqichlari, DTA asosida endo va ekzotermik jarayonlar, hamda DSC natijalariga asoslanib kompleks birikmaning hosil bo'lish energiyalari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari m-nitrobenzoiilgidrazoni asosida olingan Cu(II) kompleks birikmaning termik xossalari o'rganish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: atsetoatsetanilid, m-nitrobenzoiilgidrazid, m-nitrobenzoiilgidrazon, TGA, DTA, DSC, termik barqarorlik.

Термический анализ m-нитробензоилгидразона и комплекса сu(ii) ацетоацетанилида

Аннотация: В данной работе рассмотрены синтез m-нитробензоилгидразона ацетоацетанилида и полученного на его основе комплекса Cu(II), а также их термические свойства, изученные методами TGA, DTA и DSC. Согласно результатам термогравиметрического анализа, были определены стадии разложения соединений и их термическая стабильность. На основе данных TGA установлены этапы разложения веществ, по результатам DTA выявлены эндо- и экзотермические процессы, а анализ DSC позволил определить энергии образования комплексного соединения. Полученные результаты дают возможность всесторонне изучить термические свойства комплекса Cu(II), синтезированного на основе m-нитробензоилгидразона.

Ключевые слова: ацетоацетанилид, m-нитробензоилгидразид, m-нитробензоилгидразон, TGA, DTA, DSC, термическая стабильность.

Thermal analysis of the m-nitrobenzoylhydrazone and the cu(ii) complex of acetoacethanylide

O'z navbatida "Elektr texnologiya asoslari" fanidan olingan bilimlar "Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari" yo'nalishining boshqa mutaxassislik fanlarini o'qitishda nazariy asos bo'la oladi. Tanlab olingan "Elektr texnologiya asoslari" mavzusi bundan oldin o'rganilgan barcha mavzular bilan uzviy bog'liqdir. Shu jumladan, metallarni to'la qizdirish induksion qurilmalari, induksion va dielektrik qizdirish, qarshilik pechlarining elektr hisobi, elektr yoy pechlari va qurilmalari, elektr shlakli qayta eritish pechlari, va boshqa bir qator mavzular ushbu mavzuni o'zlashtirishda asos bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar talabaning bu mavzular bo'yicha erkin fikrlarini shakllantirishda, guruhda ishlalashda o'z qobiliyatlarini yaxshiroq namoyon eta olishiga muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ho'zirda rivojlanayotgan texnika asrimizda muhandis texnologlarni didaktik vositalardan foydalangan holda tarbiyalash, o'qitish kelajakda raqobatbardosh kadr bo'lishlariga pilapoya bo'la oladi. Shuning uchun hozirda pedagogik texnologiyadan foydalanishda ha'r bir talabaning ichki kompetensiyasidan kelib chiqqan holda dars mashg'ulotlarini olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Valery Vodovozov «Introduction to power engineering», stedition, Bookboon, 2010.
2. Mexanizmi elektrotexnologicheskix ustanovok - A. Meleshko. Uchebniki i posobiya dlya vuzov. -M . 2018g.
3. Imomnazarov A.T., Ortikov T.J. «Elektrotehnika, elektromexanika va elektrotexnologiyalar yunalishiga kirish». Ma'ruzalar matni. TDTU, 2000.
4. Imomnazarov A.T. Yo'nalishga kirish. Toshkent: ToshDTU. 2013.
5. Electric Motors and Drives: Fundamentals, Types and Applications, Third edition, Austin Hughes. 2006, Austin Hughes. Published by Elsevier Ltd. Burlington
6. Elektrotexnologicheskiye ustanovki i sistemi. Teploperedacha v elektrotexnologii. Uprajneniya i zadachi. A. I. Aliferov. NTGTU, 2017. 7. Elektrotexnologii v selskom xozyaystve. Oskin S.V.: 503 str.2016g.
7. Irta Schmidt, Istvan es Veszpremi «Drive Control», Karoly, XMLmind XSL-FO Converter, 2012.

Annatsiya. Maqolada "Elektr texnologiya asoslari" fanini o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli ko'rib chiqiladi. Ha'r bir o'quv fanini o'qitishda o'ziga xos yo'nalishlar mavjud bo'lib, shu bilan birga bir qator muammolar ham uchraydi.

Talabalar tomonidan o'quv materialining sifatli o'zlashtirilishini ta'minlash uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda dars jarayonida turli metod va uslublarni qo'llash zarur.

Kalit so'zlar: ma'lumotlar, mazmun, standart, tuzilma, fikrlash, obyektiv, real, strategik, predmeti, innovatsion, mafkura

Аннотация. В статье рассматривается роль информационно-коммуникационных технологий в преподавании предмета "Основы электротехники." В процессе преподавания каждого учебного предмета существуют свои специфические направления, в то же время встречается ряд проблем. Для обеспечения качественного усвоения студентами учебного материала необходимо применять различные методы и приемы в процессе занятий с использованием информационно-коммуникационных технологий.

Ключевые слова: данные, содержание, стандарт, структура, мышление, объективный, реальный, стратегический, предмет, инновационный, идеология.

Abstract. The article examines the role of information and communication technologies in teaching the subject "Fundamentals of Electrical Engineering." In teaching each academic subject, there are specific directions, but at the same time, a number of problems are encountered. To ensure students' high-quality assimilation of the learning material, it is necessary to apply various methods and techniques in the learning process using information and communication technologies. These methods allow for a clear definition of priority areas.

Keyword. data, content, standard, structure, thinking, objective, real, strategic, subject, innovative, ideology.

XAVOTIRLANISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI VA KELIB CHIQISH SABABLARI

Uzakbayeva S. H., Bektursinova L. X.

Qoraqalpoq davlat universiteti

So'nggi yillarda jamiyatda emotsional zo'riqish va xavotirlanish darajasi keskin oshib bormoqda. O'quvchilar, talabalar va kattalar orasida uchrayotgan doimiy tashvish, noaniqlikdan qo'rquv va ichki bezovtalik insonning ruhiy holati hamda kundalik faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xavotirlanish psixologik jarayon sifatida nafaqat emotsional barqarorlikni susaytiradi, balki shaxsning ijtimoiy moslashuviga ham to'sqinlik qiladi. Shu bois, xavotirlanishning psixologik mexanizmlarini o'rganish hozirgi davrning muhim ilmiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Xavotirlanish oddiydek ko'rinishi mumkin lekin u insonga asta sekinlik bilan ta'sir etib yuqori darajalarga ko'tarilgani sari inson o'zini boshqarish jarayonlari qiyinlashishi va kutilmagan noxush insonlar uchun xavfli bo'lgan holatlarga olib kelishi mumkin. Bu haqida yurtboshimiz ham o'z nutqida bu haqda aytib o'tgan.

"Ruhiy salomatlik" tushunchasi omma orasiga sekin-asta kirib boryapti, chunki ruhiy muammolar bizni tobora ko'proq bezovta qilyapti: tushkunlik, stress, xavotir. Vaqtida mutaxassisga murojaat qilish esa bizda odatga kirmagan – muammolardan o'zimizni qayerga qo'yishni bilmay qolgan chog'imizdagina bu esimizga tushadi yoki... tushmaydi. Aslida esa salomatlikka putur yetmasdan turib salomatlikni saqlash kerak. Bu jismoniy salomatlikka ham, ruhiy salomatlikka ham tegishli. [1.12]. Haqiqatdan ham inson qachonki ruhiy va jismoniy tomondan sog'lom bo'lsa ularning fikrlashi, biron narsaga harakat qilishi, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi, sog'lom farzandlarni dunyoga keltirib o'z hayot yo'lini chiroyli va boshqalar havas qiladigan darajada yashay oladi.

Xavotirlanish holatini, xavotirlanishlanish tushunchasini birinchi marta Z.Freyd tomonidan aniqlangan va ta'kidlangan. U bu holatni hissiy holat sifatida tavsifladi, shu jumladan kutish va noaniqlik, nochorlik hissi, bularning barchasi ichki sabablarga asoslanadi. Natijada, ko'plab taniqli psixologlar va psixoterapevtlar xavotirlanish holatini o'rganishdi va ko'plab asarlar yozishdi. Psixologik adabiyotlarda xavotirlanish tushunchasining turli xil ta'riflarini topish mumkin, garchi ko'pchilik tadqiqotchilar buni boshqacha ko'rib chiqish zarurligiga rozi bo'lishadi - vaziyatli hodisa va shaxsiy xususiyat sifatida, o'tish holati va uning dinamikasini hisobga olgan holda. Psixologik lug'at ushbu atamaning quyidagi izohini beradi: "Xavotirlanish - bu odamning tez-tez va kuchli xavotirlanishlanishga moyilligi, shuningdek, uning paydo bo'lishining past chegarasida namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyat, jarayonlar yigindisidir".[2.49]

Ya'ni xavotirlanish (anxiety) — bu insonning ichki taranglik, bexotirlik, qo'rquv yoki xavf kutish hissi bilan kechadigan emosional holati. U ko'pincha aniq sababga ega bo'lmasligi mumkin, lekin tana va ongning "xavfga tayyorlanish" reaksiyasi sifatida paydo bo'ladi. Xavotirlanish vaziyatdan, hodisadan kelib chiqqan holda har xil belgilar va sabablar asosida paydo bo'ladi.

Asosiy belgilar:

- Ichki bezovtalik, tinch o'tirib turolmaslik
- Salbiy fikrlar, ortiqcha o'ylash
- Yurak urishining tezlashishi
- Nafas qisishi yoki qiyinlashishi
- Mushaklarda taranglik
- Konsentratsiyaning pasayishi

Bunday belgilarning bo'lishi insonda nimadandir bezovta, xavotirli ekanligini bilish mumkin. Bunday holatlar bora bora kuchayaversa inson hayotga bo'lgan qiziqishi, intilishi susayib kasallik holatlariga kelib qoladi.

Nima uchun paydo bo'ladi?

Stress yoki hayotdagi o'zgarishlar

Noaniqlikdan qo'rqish

Ortiqcha mas'uliyat

Travmatik tajribalar

Genetik moyillik yoki biologik omillar.

Ko'pgina ruhiy kasalliklar ham xavotirlanish asosida paydo bo'ladi. Masalan, stressning kelib chiqishining birinchi bosqichida ham asos bo'lib xavotir qatnashadi. Bu haqida G.Selye stressni 3 ta asosiy bosqichga ajratgan va quyidagicha ta'riflagan. Birinchi bosqich — xavotirlanish bosqichidir. Bu bosqichda qon bosimi va tana harorati pasayadi, kapillarlarining qon bilan to'lishi va alkaloz kuzatiladi, oshqozon-ichak sistemasida funksional o'zgarishlar paydo bo'ladi, qonda qand miqdori kamayadi. [3.118]

Inson tushkunlikka tushib doimiy bir narsalarni o'ylab xavotir va qo'rquv, bosim ostida yuradigan bo'lsa bu ko'pgina salomatlik uchun xavf soladigan kasalliklarni keltirib chiqaradi.

Xavotir bizni kelajakni rejalashtirishga undaydi va bu ma'noda tashvish aslida yaxshi narsadir. Aynan o'sha zerikarli tuyg'u bizni o'sha sinov uchun o'qishga, o'sha o'yin uchun ko'proq mashq qilishga yoki o'sha kuni eng zo'r bo'lishga undaydi. Ammo ba'zi odamlar tashvishni shunchalik kuchli his qilishadiki, u endi foydali yoki foydali bo'lmaydi. Ular shunchalik hayajonlanib, tashvishga tushib qolishlari mumkinki, ular haqiqatan ham sinovdan o'ta olmaydilar, to'pni chalg'itadilar yoki butun kunni tebranish va ko'z bilan aloqa qilmaslik uchun o'tkazadilar. Agar tashvish insonning hayotiga sezilarli darajada aralasha boshlasa, bu buzilish deb hisoblanadi.[4.1]

Biz xavotirni umumiy holatda faqatgina salbiy tomondangina baholamay ijobiy tomonini ham ko'rishimiz kerak. Chunki insonda biror narsadan xavotir va qo'rquv bo'lsa u yanada ko'proq harakat qiladi. Misol uchun agarda biror o'quvchi olimpiadaga qatnashmoqchi butun universitet nomidan unda xavotir paydo bo'ladi qanday bo'lar ekan? Men uddalay olamanmi? kabi har xil savollar paydo bo'ladi va yanada ko'proq o'qib bor diqqat va e'tiborini mana shu musobaqaga ajratadi. Bu ilohiy kuchdek insondagi xavotir unga yanada qattiq tayyorgarlik ko'rish uchun kuch va energiya beradi.

Barlow xavotirni uchta asosiy mexanizm bilan izohlaydi: Biologik moyillik (genetik va neyrobiologik sabablar) Barlowga ko'ra, ba'zi odamlar tug'ma ravishda: Yuqori qo'zg'aluvchan asab tizimiga ega bo'ladi; stressga tez reaksiya qiluvchi nevrologik mexanizmlarga ega; miya markazlari (amigdala) ortiqcha faollashishga moyil; serotonin, norepinefrin, GABA kabi neyrotansmitterlarda nomutanosiblik bo'lishi mumkin. Bular odamni xavotirga yaqin holatga tayyorlab qo'yadi. Barlow buni "general biological vulnerability" deb ataydi.

2. Psixologik asosiy zaiflik (early psychological vulnerability)

Bu — bolalik davrida shakllanadigan ichki xavfsizlik hisining buzilishi.

Barlowga ko'ra:

- Haddan tashqari nazorat qiluvchi ota-ona
- cheklovlar, jazolar;
- mustaqil qaror qila olmaslik;
- xatolarni qilishga qo'rqitish;
- emotsional qo'llab-quvvatlanmaslik odamda "Dunyo xavfli, men esa ojizman" degan ichki modelni yaratadi.

Bu keyinchalik xavotir uchun asos bo'ladi.

3. Maxsus psixologik zaiflik (learned fear – o'rganilgan qo'rquv) Barlow bu mexanizمنى quyidagicha tushuntiradi:

Odam muayyan holatni xavf bilan bog'lab qo'yadi. Bu bog'lanish odatda stressli yoki travmatik tajriba orqali paydo bo'ladi. Keyinchalik o'sha holat qayta ko'rinishi bilan xavotir avtomatik ishga tushadi

Masalan: yurak tez urishi + stress → "yuragim to'xtab qoladi" deb o'rganilishi.

Bu mexanizm fobiya, panika, ijtimoiy xavotirda juda muhim rol o'ynaydi.

Barlow xavotirni quyidagi uchlik orqali tushuntiradi:

- 1) Subyektiv tajriba (ichki qo'rquv, xavotir fikrlari)
- 2) Jismoniy reaksiyalar (yurak urishi, terlash, taranglik)
- 3) Xulq-atvor (qochish, xavfsizlik qoidalari, nazorat qilish)

Sabablar ushbu uch qismni bir-biri bilan bog'laydi.

Xulosa qilib aytganda xavotirlanish — insonning ichki xavfsizligi va barqarorligi buzilganda namoyon bo'ladigan tabiiy psixologik holat bo'lib, u organizmni ehtimoliy xavflarga tayyorlaydigan mudofaa mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Ammo xavotir kuchli, uzoq davom etuvchi yoki kundalik hayot faoliyatiga xalaqit beruvchi darajaga yetganda, u psixologik muammo sifatida baholanadi. Zamonaviy psixologiya xavotirlanishning kelib chiqishini bir nechta omillar uyg'unligi bilan izohlaydi: biologik moyillik, bolalikda shakllangan psixologik zaiflik va stressli vaziyatlar orqali o'rganilgan qo'rquv reaksiyalari. xavotirlanishning kelib chiqishi ko'p omillidir va uni bartaraf etish jarayoni ham kompleks yondashuvni talab qiladi. Psixoterapiya, xususan, kognitiv-xulqiy yondashuv, stressni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish, hayot tarzi o'zgarishlari va emotsional savodxonlikni oshirish xavotirni kamaytirishda samarali vosita hisoblanadi.

Xavotirni to'g'ri tushunish, uning mexanizmlarini anglash va unga sog'lom yondashuvni shakllantirish inson psixologik farovonligi uchun muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Qodirov A. "Sog'lom turmush tarzi va ruhiy jarayonlar barqarorligi" // Ilm sarchashmalari jurnali. — 2023. — №9. — 12–14-betlar. URL: https://ilmsarchashmalari.uz/user-media/issues_files/2023-9.
2. <https://cyberleninka.ru>
3. Z. IBODULLAYEV TIBBIYOT PSIXOLOGIYASI. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan. Toshkent iqtisod-moliya» 2008
4. Anxiety and its disorders the nature and treatment of anxiety and panic.

Annotatsiya: Ushbu maqolada insonda xavotirlanish holatining psixologik tabiati, uning kelib chiqishiga ta'sir etuvchi biologik, psixologik va ijtimoiy omillar tahlil qilinadi. Xavotirlanishning shakllanish mexanizmlari, emotsional va fiziologik ko'rinishlari, shuningdek, xavotirning kundalik hayot va shaxs rivojlanishiga ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: xavotirlanish, psixologik holat, emotsional reaksiya, stress, qo'rquv, biologik omillar.

Аннотация: В данной статье анализируется психологическая природа тревожного состояния у человека, биологические, психологические и социальные факторы, влияющие на его возникновение. Освещены механизмы формирования тревожности, ее эмоциональные и физиологические проявления, а также влияние тревожности на повседневную жизнь и развитие личности.

Ключевые слова: тревога, психологическое состояние, эмоциональная реакция, стресс, страх, биологические факторы.

Abstract: This article analyzes the psychological nature of anxiety in humans and the biological, psychological, and social factors influencing its occurrence. The mechanisms of anxiety formation, emotional and physiological manifestations, as well as the influence of anxiety on daily life and personality development are highlighted.

Key words: anxiety, psychological state, emotional reaction, stress, fear, biological factors.

TA'LIM FALSAFASI VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI

Karimov Z. A.

Urganch davlat pedagogika instituti

Kirish. Globallashuv va tezkor texnologik taraqqiyot davrida ta'limdagi innovatsiyalar e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydigan zaruratdir. Inson va jamiyat taraqqiyotining muhim ustunlaridan biri sifatida ta'lim zamonaviy davrning ehtiyojlari va muammolariga mos ravishda uzluksiz moslashish va yangilanishni talab etadi [1.239].

Axborotning keskin o'sishi va mehnat paradigmasidagi o'zgarishlar sharoitida an'anaviy, statik va bir xillikka asoslangan ta'lim tizimi tobora ko'proq tanqidga uchramoqda. Buning sababi zamonaviy mehnat bozori talablari bilan uyg'unlashmasligi, ijodkorlik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi cheklovlar bilan bog'liqdir.

An'anaviy, statik ta'lim tizimlari bugungi kunda mehnat bozori ehtiyojlariga javob bera olmayapti. XXI asrda insondan faqat bilim emas, balki tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, muammolarni hal etish va jamoaviy ishlash ko'nikmalari talab etilmoqda. Shu sababli, zamonaviy ta'limning markazida innovatsion pedagogik yondashuvlar va raqamli texnologiyalarni integratsiyalash masalasi turibdi.

OECD tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'limdagi innovatsiyalar o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshiradi, ularda muammolarni hal etish, tanqidiy va reflektiv fikrlash, hamkorlik hamda moslashuvchanlik kabi XXI asr kompetensiyalarini shakllantiradi. Ayniqsa, raqamli ta'lim platformalari, e-learning tizimlari va interaktiv o'quv ilovalari o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi va ularning bilim olish samaradorligini oshiradi [2.564]. Bundan tashqari, loyihaviy ta'lim va teskari sinf modeli kabi yondashuvlar o'quvchilarning o'quv jarayonida faol ishtirokini ta'minlaydi, bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkonini yaratadi. Bu esa o'quv jarayonining amaliy yo'nalishini kuchaytirib, ta'limni hayot bilan uzviy bog'laydi.

OECDning Ta'lim Tadqiqotlari va Innovatsiyalar Markazi (CERI) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham bu fikrni tasdiqlaydi: zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilarga nazariy bilimni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, o'z bilimlarini real sharoitda tatbiq etish imkoniyatini beruvchi yondashuvlarga asoslanmog'i lozim.

Shu tariqa, ta'lim falsafasi va texnologik innovatsiyalarni chuqur integratsiya qilish nafaqat o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki insonni har tomonlama yetuk, ijodkor, tanqidiy fikrlovchi va jamiyatda faol ishtirok etuvchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy ta'lim tizimini faqat bilim beruvchi emas, balki tafakkurni, qadriyatlarni va insoniylikni tarbiyalovchi muhitga aylantirishning eng muhim falsafiy yo'nalishidir.

Asosiy qism. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida jamiyatning barcha qatlamlari uchun inklyuziv va ochiq ta'lim imkoniyatlarini yaratish tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Ta'limdagi innovatsiyalar faqat o'quv jarayonining samaradorligini oshirish bilangina cheklanmay, balki ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar va ta'limga keng kirish imkonini ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, ta'limning har bir bosqichida, xususan, chekka hududlarda yashovchi aholi, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda etnik yoki madaniy ozchilik guruhlari uchun sifatli ta'lim olish imkonini yaratish zamonaviy ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Bu borada onlayn ta'lim platformalari va ochiq o'quv resurslarini rivojlantirish muhim qadam bo'lib xizmat qilmoqda. Bunday tashabbuslarning yorqin namunasi sifatida UNESCO tomonidan COVID-19 pandemiyasi davrida yo'lga qo'yilgan "Global Education Coalition" dasturini keltirish mumkin. Ushbu global tashabbus butun dunyo miqyosida o'quvchilarga uzluksiz ta'lim olish imkonini berish, ayniqsa, ta'limdan chetda qolgan qatlamlarni o'quv jarayoniga jalb etishni maqsad qilgan [3.782]. So'nggi o'n yillikda ro'y bergan texnologik inqilob ta'lim paradigmasini tubdan o'zgartirdi. Endilikda ta'lim jarayoni ko'proq interaktiv, hamkorlikka asoslangan va kompetensiyaga yo'naltirilgan shaklga ega bo'lmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasidagi yutuqlar natijasida raqamli ta'lim vositalari, virtual o'quv muhitlari va sun'iy intellekt asosidagi platformalar o'quv jarayonining yangi sifat bosqichiga ko'tarilishini ta'minlamoqda.

Masalan, Learning Management Systems (LMS), Virtual Reality (VR), Augmented Reality (AR) hamda Artificial Intelligence (AI) kabi texnologiyalar ta'limda shaxsga yo'naltirilgan, moslashuvchan va adaptiv o'qitish modellarini yaratishga imkon bermoqda. Bu esa har bir o'quvchining shaxsiy ehtiyojlari, bilim darajasi va o'rganish sur'atiga mos ta'lim olish imkoniyatini kengaytiradi.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega:

- berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor;
- ta'lim olishning yangi sohaları bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;
- ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;

- olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq saqlanib, kerak bulganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi [4.1395]. Natijada, ta'lim jarayoni endilikda faqat bilim berish emas, balki insonni o'zlashtirish, tafakkur qilish, o'zgaruvchan muhitda yo'l topish va moslashish qobiliyatlarini shakllantiruvchi kompleks tizim sifatida talqin qilinmoqda. Shu bois, inklyuzivlik, texnologik yangilik va falsafiy yondashuvning integratsiyasi bugungi ta'lim tizimining eng muhim strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida texnologiyadan foydalanish talabalarining o'qishga bo'lgan qiziqishini va motivatsiyasini sezilarli darajada oshirdi. Mobil ilovalar hamda onlayn hamkorlik platformalari kabi raqamli vositalarning qo'llanilishi o'quvchilarning dars jarayonidagi ishtirokini faollashtirib, ularning o'quv natijalarini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, texnologiya keng va xilma-xil o'quv manbalariga kirish imkonini berib, o'quv jarayonini mazmunan boyitilgan, kontekstual va dolzarb materiallar bilan to'ldirmoqda.

Aralash ta'lim an'anaviy yuzma-yuz o'qitish va onlayn ta'limning uyg'unlashuvi o'quvchilarga moslashuvchanlik va mustaqil o'rganish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, o'qituvchi tomonidan zarur metodik va psixologik qo'llab-quvvatlash ham ta'minlanadi. Loyiha asosidagi ta'lim texnologiyalar yordamida boyitilganda, talabalar real loyihalar ustida raqamli vositalardan foydalanib ishlash imkoniga ega bo'ladilar, bu esa ularda muammolarni hal etish, tanqidiy fikrlash va hamkorlik qilish kabi XXI asr ko'nikmalarini shakllantiradi.

Biroq, ta'lim jarayoniga texnologiyani integratsiya qilish bilan bir qatorda qator muammolar ham yuzaga kelmoqda. Eng avvalo, raqamli tafovut, ya'ni texnologik imkoniyatlar va internet tarmog'iga kirish darajasidagi tengsizlik masalasidir. Shuningdek, o'qituvchilarning zamonaviy texnologiyalarni samarali qo'llash bo'yicha malakasini oshirish zaruriyati ham dolzarbdur. Bundan tashqari, masofaviy ta'limning samaradorligi an'anaviy, yuzma-yuz o'qitish uslublari bilan qiyoslanganda ko'plab savollarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, texnologiyadan inklyuziv va samarali foydalanishni ta'minlash uchun qo'shimcha ilmiy tadqiqotlar o'tkazish hamda mos siyosiy va pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu jarayonda ta'lim falsafasi — ya'ni ta'limning maqsadi, jarayoni va qadriyatlarini tahlil qiluvchi falsafaning mustaqil sohasi ta'lim siyosati va amaliyotini shakllantirishda nazariy poydevor sifatida muhim rol o'ynaydi. Qadimdan buyon falsafiy tafakkur ta'limning inson shaxsini va jamiyatni shakllantirishdagi o'rni haqida chuqur fikrlar ilgari surgan. Masalan, Platon va Aristotel ta'limni insonning axloqiy fazilatlarini va ma'naviy qiyofasini tarbiyalovchi asosiy vosita sifatida talqin qilganlar. Jan-Jak Russo esa ta'limni bolaning tabiiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni sifatida ko'rgan [5.32]. Shu tariqa, ta'lim falsafasi texnologik yondashuvlar bilan uyg'unlashgan holda zamonaviy ta'lim siyosati va pedagogik amaliyotning g'oyaviy asosini tashkil etadi hamda insonni erkin, tanqidiy fikrlovchi va ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Ta'lim falsafasining nazariy asos sifatidagi ahamiyati uning ta'limning mazmuni, maqsadi va mohiyatini tushunishga yo'naltirilgan konseptual doirani ta'minlab berish qobiliyatidir. Bu falsafiy yondashuv o'qituvchilar va siyosat ishlab chiquvchilarga mavjud ta'lim amaliyotlarini baholash, ularni tahlil qilish va yanada axloqiy, samarali hamda inklyuziv yo'nalishga burish imkonini beradi. Shu ma'noda, ta'lim falsafasi nafaqat nima o'qitilishi, balki nima sababdan va qanday usulda o'qitilishi kerakligini ham aniqlaydi.

Globallashuv va tez sur'atlarda kechayotgan ijtimoiy o'zgarishlar davrida ta'lim tizimlari duch kelayotgan muammolar tobora murakkablashib bormoqda. Bular qatoriga ta'limning hamma uchun ochiqligi va tengligi, raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish kabi masalalar kiradi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim falsafasi mazkur muammolarni hal etishda tanqidiy tahlil va mantiqiy yondashuvga asoslangan nazariy vositalarni taqdim etadi. U turli falsafiy pozitsiyalar orqali ta'limning ijtimoiy adolat, barqaror rivojlanish va madaniyatlararo tushunishni rivojlantirishdagi rolini ochib beradi. Masalan, tanqidiy ta'lim nazariyasi (critical educational theory) an'anaviy ta'lim tizimidagi bilim va hokimiyat haqidagi stereotip qarashlarni qayta ko'rib chiqishga chaqiradi. Bu yondashuv ta'limni demokratik, ishtirokchi va insonparvar muhit sifatida ko'radi.

Bundan tashqari, ta'lim falsafasi ta'lim orqali erishilishi lozim bo'lgan axloqiy qadriyatlar, maqsadlar va insoniy fazilatlarini aniqlashda ham muhim rol o'ynaydi. U jamiyat qanday insonni tarbiyalashni xohlashi, qanday ijtimoiy tuzumni barpo etishga intilishi va bu yo'lda ta'limning qanday o'rni borligini tahlil qiladi.

Falsafiy muhokama va refleksiya jarayoni orqali ta'lim hamjamiyati umumiy maqsad va qadriyatlarni belgilovchi yagona g'oyaviy yo'nalishga ega bo'ladi. Bu yo'nalish esa o'z navbatida o'quv dasturlari, o'qitish metodlari va ta'lim siyosatini shakllantirish uchun mustahkam nazariy asos yaratadi.

Natijada, ta'lim falsafasi nazariy asos sifatida tanqidiy fikrlash, innovatsion yondashuv va ta'lim islohotlari uchun poydevor vazifasini bajaradi. Ta'limning qadriyatlari, maqsadlari va amaliy jihatlari chuqur tahlil qilish orqali u shaxs ehtiyojlariga hamda zamonaviy jamiyat muammolariga mos keluvchi ta'limiy yondashuvlarni shakllantirishga yordam beradi. Shu bois, ta'lim falsafasi bugungi kunda ham ta'lim sohasidagi ilmiy-nazariy munozaralarning ajralmas qismi bo'lib qolmoqda. U ta'limning mazmuni, maqsadi va ijtimoiy ahamiyatini kengroq tushunishga, shuningdek, yanada adolatli, ma'naviy va taraqqiyparvar kelajakni shakllantirishdagi imkoniyatlarini anglashga xizmat qiladi.

Mazkur maqola ta'lim falsafasi va texnologiya o'zaro kesishgan nuqtani tahlil qilib, shu asosda innovatsion o'qitish yondashuvlarini ishlab chiqish imkoniyatlarini o'rganadi. Bugungi raqamli davrda texnologiya inson hayotining barcha jabhalariga, jumladan ta'lim jarayoniga ham chuqur kirib kelgan. Biroq, ko'p hollarda ta'limda texnologiyadan foydalanish ta'lim falsafasining nazariy tamoyillarini chuqur tahlil qilmasdan, amaliy darajada amalga oshiriladi.

Shu sababli, ushbu maqolaning maqsadi ta'lim falsafasining asosiy tamoyillarini texnologiya bilan uyg'unlashtirish yo'llarini aniqlash hamda pedagogik jihatdan samarali, shu bilan birga zamon talablari va ijtimoiy ehtiyojlarga mos o'quv strategiyalarini ishlab chiqishdir. Bu yondashuv ta'limni nafaqat texnik jihatdan, balki axloqiy, ijtimoiy va insoniy qadriyatlar nuqtayi nazaridan ham mukammallashtirish imkonini beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ta'lim falsafasini zamonaviy o'quv texnologiyalaridagi yutuqlar bilan uyg'unlashtirish yaxlit va inklyuziv ta'lim tizimini shakllantirish uchun muhim omildir. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli tafovut, onlayn ta'lim samaradorligi kabi muammolar hanuz dolzarbligicha qolayotgan bo'lsa-da, pedagogik nazariya bilan zamonaviy texnologiyalar uyg'unligi o'quv jarayonini yanada interaktiv, shaxsga yo'naltirilgan va moslashuvchan shaklga keltirish imkonini beradi. Tadqiqot shuningdek, ta'lim sifatini oshirish va talabalarni kelajakdagi murakkab ijtimoiy hamda texnologik sharoitlarga tayyorlashda barcha ta'lim ishtirokchilari o'rtasidagi hamkorlik, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi davlat siyosati hamda pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga e'tibor qaratish muhimligini ta'kidlaydi.

Bu yondashuv, o'z navbatida, ta'lim tizimining nafaqat texnik, balki falsafiy asoslarini ham mustahkamlab, inson salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiluvchi yanada mukammal pedagogik modelni yaratishga yo'naltirilgan.

Kelajakdagi ta'lim tadqiqotlari, avvalo, o'quvchilarning faolligi va o'zlashtirish darajasini oshirishga qaratilgan o'qitish strategiyalarini takomillashtirish hamda texnologiyani pedagogik jarayonga samarali integratsiya qilish yo'llarini izlashga qaratilishi lozim. Tadqiqotlarda ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish va farqlashtirishning yangi usullari ishlab chiqilishi, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashuvchan baholash tizimlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, ta'lim muhitini yanada qulay va inklyuziv qilish, oilaviy hamda jamoaviy ishtirokni kuchaytirish strategiyalarini o'rganish ham zarur. Shu bilan birga, innovatsion yondashuvlarni qo'llab-quvvatlovchi va o'qituvchilarning yangi pedagogik uslublarni o'zlashtirish jarayonidagi to'siqlarni bartaraf etishga xizmat qiluvchi ta'lim siyosatining ta'sirini tahlil qilish bo'yicha ilmiy izlanishlarga ham ehtiyoj mavjud.

Mazkur tadqiqot yo'nalishlari zamonaviy davr talablariga javob beradigan, o'quvchilarning ehtiyojlari va intilishlarini inobatga oluvchi samarali ta'lim tizimini shakllantirish hamda ularni kelajakdagi muvaffaqiyatlarga tayyorlashda nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Manu, G. A., Yusro, A. C., Hailitik, H. J., & Putra, L. D. (2023). Menggali Dampak, Relevansi, dan Tantangan Artificial Intelligence serta Learning Analytic dalam Lanskap Pendidikan. *Proceedings Series of Educational Studies*, 239–248.
2. Nisah, N., Widiyono, A., Milkhaturohman, M., & Lailiyah, N. N. (2021). Keefektifan Model Project Based Learning Terhadap Peningkatan Hasil Belajar IPA di Sekolah Dasar. *Pedagogi: Jurnal Penelitian Pendidikan*, 8(2), 564.
3. Ilmi, A. R. M., Junaidi, A., Yusnanto, T., Kase, E. B., Safar, M., & Sari, M. N. (2024). Belajar di Era Digital: Memahami Teknologi Pendidikan dan Sumber Belajar Online. *Community Development Journal: Jurnal Pengabdian Masyarakat*, 5(1), 782–789.
4. A. Dedaxanov., TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI, SCIENTIFIC PROGRESS, VOLUME 2, ISSUE 2, 2021 ISSN: 2181-1601, Page 1395.
5. Mubin, A. (2019). Refleksi Pendidikan Filsafat Idealisme. *Rausyan Fikr: Jurnal Pemikiran dan Pencerahan*, 15(2), 32.

Annotatsiya: Globallashuv va tezkor texnologik taraqqiyot davrida ta'lim sohasida yangilik va innovatsiyalarni joriy etish nihoyatda muhimdir. Inson va jamiyat taraqqiyotining asosiy ustunlaridan biri sifatida ta'lim zamonaviy davr ehtiyojlari va muammolariga mos ravishda doimiy rivojlanib borishi lozim. Kelajakdagi murakkab sharoitlarga yosh avlodni tayyorlash uchun ta'limdagi innovatsiyalarni global siyosiy kun tartibining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilash zarur.

Kalit so'zlar: ta'lim falsafasi, ta'lim texnologiyasi, raqamli ta'lim, ta'lim metodlari, globallashuv, UNESCO, online ta'lim.

Philosophy of education and information-communication technologies

Abstract: In the era of globalization and rapid technological advancement, introducing innovation and modernization into the field of education has become increasingly crucial. As one of the main pillars of human and societal development, education must continuously evolve to meet the needs and challenges of the modern world. Preparing the younger generation for the complex conditions of the future requires making educational innovation one of the top priorities on the global policy agenda.

Keywords: philosophy of education, educational technology, digital education, teaching methods, globalization, UNESCO, online learning.

Философия образования и информационно-коммуникационные технологии

Аннотация: В эпоху глобализации и стремительного технологического прогресса внедрение инноваций и новшеств в систему образования приобретает особое значение. Образование, являясь одной из ключевых основ развития личности и общества, должно постоянно совершенствоваться в соответствии с требованиями и вызовами современности. Для подготовки молодого поколения к сложным условиям будущего инновации в образовании должны рассматриваться как один из приоритетных направлений глобальной политики.

Ключевые слова: философия образования, образовательные технологии, цифровое образование, методы обучения, глобализация, ЮНЕСКО, онлайн-обучение.

ÓSPIRIMLERDİŇ ÓZ-ÓZINE ISENIMIN EKSPERIMENTAL ÚYRENIW

Sagindikova N.J., Tolbaeva F.Q.

Qaraqalpaq mámleketlik universiteti

Isenim tábiyiy náirse, hesh kim isenimsizlik penen tuwılmaıdı. Isenim hár bir insan ózinde bolǵan qáwipsizlik, insan iskerliginiń barlıq tarawlarında úlken áhmiyetke iye sıpat esaplanadı. Bul mektepte, jumısta, bizneste, social ortalıqta júdá áhmiyetli. Hámmege málim ózine isengen adam ózine isenbegen adamǵa qaraǵanda júdá úlken

imkaniyatlarga iye boladı. Házirgi waqıtta isenim sociologiya, social psixologiya hám basqarıw psixologiyası sıyaqlı tarawlarda keń úyrenilmekte. Isenimdi úyreniwdiń bunday keń sheńberi onıń shaxs hám ulıwma jámiyet turmısı hám iskerliginiń túrli tarawlarında keńinen kóriniwi menen baylanıslı. Sonıń ushın isenim fenomeni psixologiya menen baylanıslı bolğan kóples pánler – antropologiya, filosofiya, sociologiya hám ekonomika tárepinde kórip shıǵıladı. İnsanlardıń óz ara múnasábetlerinde isenimniń zárúrligin tń alǵan dáslepki jazıwshılardan biri Ralf Valdo Emerson edi. R.V.Emersonniń bunnan 150 jıl aldın bayan etilgen ideyaları bizin dáwirimizde de óz áhmiyetin joǵaltqanı joq. Eger kimdur isenimdi bilmese, oǵan adamlar menen jaqın múnasábet ornatiw qıyın boladı. Ol jalǵızlıqtıń sheńberine túsip qalıwı múmkin. Ol basqalarǵa qansheli kem isense onıń doslarında sonsheli az boladı. Bunday adam ózin kerektsizdey sezinedi. Isenimdi úyretip bolmaydı, onı hesh kimgе iseniwge májbúrlep bolmaydı tek onı qalıplestiriw, rawajlandırıw múmkin.

Psixologiya tarawındaǵı ilimpazlar ortasında isenim túrleri hám formaların bólistiriwge jantasıwlarda birlik joq. Isenim tipologiyasınıń qabıl etilgen tiykarlarınan biri isenim obykti bolıp tabıladı. Buǵan qaray izertlewshiler dúnyaǵa bolğan isenimdi, basqalarǵa iseniwdi hám ózine iseniwdi ajratadı. Bul úsh túrdegi isenimniń qalıplesiwine E. Erikson táriyplegen " tiykarǵı isenim" tiykar boladı. Tiykarǵı isenim shaxstıń ontogenetik rawajlanıwınıń dáslepki basqıshlarında balanıń eń jaqın adamlar ortalıǵı menen ushırasıw tájiriybesinen kelip shıǵadı, insannıń ómiri dawamında rawajlanıwdı dawam etedi hám isenimlilik sıyaqlı jeke ózgeshelikti belgileydi.

T. P. Skripkina óz-ózine isenimdi " shaxstıń ózine, dúnyaǵa salıstırǵanda málım bir qádiriya poziciyasın iyelewine hám sol poziciyaǵa tiykarlanıp, óz strategiyasınıń jaratılıwına múmkinshilik beretuǵın shaxstıń refleksli, subyektiv hádiysesi" dep táriypleydi. Onıń atap ótiwınshe, ózine bolğan isenimniń maqul túsetuǵın dárejesin rawajlandırıw birlik, bálkim shaxstıń jetikligi kórsetkish bolıp tabıladı. [3]

Átiraptaǵı dúnya, basqa adamlar hám isenim subyektiniń ózi menen bir qatarda, isenim obektleri málım social róldiń, social gruppalar hám shólkemlerdiń, materiallıq hám materiallıq emes dúyanıń túrli hádiyseleriniń tasıwshısı retindegi shaxslar bolıp tabıladı. Social isenimdi málım bir jaǵdayda ayrıqsha minez-qılıq penen baylanıslı bolmaǵan, basqa shaxslardan isenimlilik kútiw retinde kóriw múmkin. Social isenim - bul hár bir anıq shaxstan biyganalastırılǵan isenim, ol jámiyette ámeldegi bolğan ulıwmalastırılǵan isenim bolıp tabıladı. E. Giddenstıń pikirine qaraǵanda, jekelestirilgen yamasa shaxslara isenim social isenimdi qalıplestiriwdiń negizi retinde qaralıwı kerek. Shaxslara isenim - bul shaxstıń basqalarǵa iseniw tendenciyasını ańlatadı. T. P. Skripkina atap ótiwınshe, social isenim hám shaxslara isenim tuwrıdan-tuwrı sıızlıq múnasábetlerge iye emes hám ulıwma alǵanda túrli haqıyqatlardı sáwlelendiredi.[3]. T.П.Скрипкина " insan isenimsiz jasadı almaydı, bunday jaǵdayda ol dúnya menen baylanıstı joǵatadı", dep esaplaydı. Isenim - bul shaxstıń rawajlanıwı, ózgeriw shárti, bul oǵan táwekel qılıw hám ózin hám múmkinshiliklerin sınap kóriw imkaniyatın beredi ". Isenim menen atqarılatuǵın funkciyalar tek ǵana adamlardıń bir-biri menen, bálki insannıń dúnya jáne onıń bólek bólimleri menen óz-ara tásiiri procesin de ańlatadı. B.Анате́нко isenimniń social -psixologiyalıq funkciyası onıń psixologiyalıq mazmunı boyınsha social óz-ara múnasábetlerdegi róli menen belgilenedi, dep esaplaydı.

Isenimniń social - psixologiyalıq funkciyaları arasında ol tómendegilerdi ajratıp turadı: tiykarǵısı - nátiyjeli iskerlikti, sonday-aq birgeliktegi iskerlikti támiyinlew; integraciya - jámiyettiń túrli dárejelerinde social integraciyanı támiyinleydi; kommunikativ - erisilgen isenim dárejesine muwapıq shaxslar jáne social gruppaların málım dárejedegi baylanısın támiyinleydi; interaktiv - erisilgen isenim dárejesine muwapıq shaxslar jáne social gruppalar ortasındaǵı óz-ara múnasábetlerdiń málım dárejesin támiyinleydi; perceptual - ámeldegi isenim dárejesi arnawlı bir jaǵdaydı qabıl etiwge arnawlı bir múnasábeti qalıplestiriwi menen belgilenedi; kemeytiw – múnasábetlerdiń quramalı sistemasın bir múnasábetlerge - haqıyqıy isenim mánisine azaytadı; basqarıwshı - basqarıw resursı retinde isenimnen paydalanıwda kórinetuǵın boladı; boljawlı - kórsetilgen yamasa erisilgen isenim dárejesine qaray tárepler ortasındaǵı óz-ara múnasábetlerdi rawajlandırıwda málım bir prognoz qılıw múmkinshiliginen ibarat boladı; orientaciya - basqa múnasábetlerdi rawajlandırıw ushın tiykardı jaratadı ; nátiyjeli – múnasábetlerdi jáne de nátiyjeli etedi; turaqlastırıwshı – múnasábetler turaqlılıǵınıń tiykarın quraydı ; psixologiyalıq – múnasábetlerdegi keskinlik hám stress dárejesin páseytedi. Isenim máselesin kórip shıqqan eń iri psixologlar arasında E.Erikson, K.Rojers, A.Maslau, E.From, E.Shostroma, N.Raydos sıyaqlılardı aytıp ótsek boladı. Olar isenimdi túrli processler menen baylanıstırıp úyrenedi. Mısalı biz óz-ózine isenimdi qaweterleniw menen baylanıslı táreplerin úyrenip shıqtıq.

Qaweterleniw hám ózine bolğan isenim- bul insan psixologiyasınıń bir- birine baylanısqa eki tárepi bolıp, olar adamlardıń ózin qanday qabıl etiwine hám átiraptaǵı dúyanı basqarıwǵa tereń tásir etedi. Ózine bolğan isenim adamlarǵa qıyınshılıqlardı isenimlilik hám shıdamlılıq penen jeńiw imkaniyatın berse de, táshwish, qaweterleniw tosıq bolıp, imkaniyatlardan paydalanıw hám óz potencıallarıń júzege shıǵarıwda tosıqlıq qılıwı múmkin. Qaweterleniw hám ózine isenim ortasındaǵı quramalı baylanıslardı túsiniw shaxsıy ósiw, párawanlıq hám jetiskenlikke erisiw ushın júdá áhimiyetli esaplanadı.

Qaweterleniw – bul ishki tártibsizliktiń unamsız tárepi hám qorqıw jaǵdayın óz ishine alatuǵın sezim. Bul qolaysızlıq hám táshwish sezimi. Ádette ulıwmalıq hám itibarǵa alınbaǵan jaǵdayǵa háden tısqarı reakciya sıpatında subyektiv rawishte payda boladı.[1;17]. Kóbinese bulshıq etlerdiń kúshleniwı, táshwish, sharshaw, hálsizlik, demdi uslay almaw, qarın boshlıǵında sıqılıw, kewil aynıw hám dıqqattı jámlewde mashqalalar menen birge keledi. Ózine isenim hám qaweterleniw ortasındaǵı baylanıslardı kórip shıqsaq. Ózine bolğan isenimniń tómennligi táshwishstıń rawajlanıwına yaqi kúshyiwine járdem beredi. Óz qábiletlerine isenimi joq adamlar óz-ózinin ǵumanlanıw, jetiskenlikke erise almaw qorqıwı hám kritika yaqi biykarlawǵa qaray sezgirlikti bastan keshiriwi múmkin, bulardıń barlıǵı táshwishli pikirler hám is-háreketlerdi kúsheytiriwi múmkin. Kerisinshe, táshwish insannıń juwapkershilik,

avtonomiya hám qádır-qımbat sezimin joǵaltıp, ózine bolǵan isenimdi kemeyttiriwi múmkin, bul bolsa adamlardıń óz qábiyetleri hám juwmaqlarına isenimin qıynlastıradı. Bunnan tısqarı, qáweterleniw sebepli kelip shıǵatuǵın qashıw is-háreketleri ósiw imkaniyatların sheklewi hám jetispewshilik sezimin kúsheyttiriwi múmkin. [2;14]

Qáweterleniw hám ózine isenim ortasındaǵı múnasábetler quramalı, kognitiv, sezimlik hám minez-qulıq mexanizmderin óz ishine aladı. Kognitiv buzılıwlar áhimiyetli ról oynaydı. Qáweterli shaxslar kóbinese katastrofizaciya (eń jaman nátiyjeni kútiw) hám ulıwma yaqi hesh nárseni oylaw (jaǵdaylardı aq-qara kóz qarastan kóriw) sıyaqlı unamsız pikirlew naǵısaları menen shuǵıllanadı. Bul buzılıwlar olardıń waqıyalıqtı qabıl etiwge tosqınlıq qıladı hám olardı haqıyqattan da kemirek qábiyetli ekenligine isendiredi. Turaqlı ráwishte fizikalıq shınıǵıwlar, normada awqatlanıw, jeterli uyqı hám abaylılıq ámeliyatları ruwxıy salamatlıqtı jaqsılawǵa járdem beredi. Bunnan tısqarı, óz kúshi hám qábiyetlerine mas keletuǵın jumıslar menen shuǵıllanıw insannıń ózine degen pozitiv kóz qarasların rawajlandıradı hám bul álbette onıń ózine degen isenimin jaqsılawǵa óz úlesin qosadı.

Ulıwmalastırıp aytqanda, qáweterleniw hám óz-ózine isenim bir-birine tıǵız baylanıslı bolıp, qáweterleniw kóbinese shaxstıń óz qábiyetleri hám qádır-qımbatına bolǵan isenimin buzadı. Qáweterleniwdiń ózine bolǵan isenimge tásinin túsiniw hám sheshiw ruwxıy salamatlıqtı bekkemlew hám adamlarǵa jáne de tolıq hám kúshli turmıs keshiriwine imkan beriw ushın júdá áhimiyetli. Eksperimental izzertlew jumısları óspirimlik jastaǵı mektep oqıwshılardan ótkerildi hám 100 oqıwshı qatnastı. Shaxslardıń óz-ózine degen isenimi kóp faktorlarǵa baylanıslı hám biz onı Teylordıń qáweterleniw dárejesin anıqlaw metodikası arqalı úyrendik. Qollanba: Bunda respondendke qáweterleniwge baylanıslı 50 túrli jaǵday hám soarwıara beriledi. Paydalanıw qolay bolıwı ushın hár bir tasdıq sınılıwshılardıń óz aldına kartochkalar usınıladı. Qáweterleniwdiń dárejesi tómendegi keltirilgen kriteriya tiykarında esaplanadı:

"awa"- 15, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23, 24, 25, 26, 27, 28, 29, 30, 31, 32, 33, 34, 35, 36, 37, 38, 39, 40, 41, 42, 43, 44, 45, 46, 47, 48, 49, 50

"yaq"- 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14

Sorawlar juwapları mas kelse 1 balldan beriledi.

Nátiyjeni analiz qılıw: 40-50 ball – Júdá joqarı qáweterleniw. Bul diapozındaǵı adamlar júdá joqarı dárejede qáweterleniwdi bastan keshirediler. Belgileri: olar kúshli hám turaqlı táshwish, qáweterleniw, qorqıw yaqi ashıwshańlıqtı júzege shıǵarıwı múmkin. Tez júrek urıwı, terlew, qaltıraw hám dem alıwda qıyınshılıqlar sıyaqlı fizikalıq belgilerdi payda etedi. 25-40 ball - Joqarı qáweterleniw. Bul diapozındaǵı adamlar júdá joqarı diapazondaǵılar sıyaqlı kúshli bolmasa-da. Joqarı dárejede qáweterleniwdi bastan keshiredi. Olarda da qorqıw, táshwish , ózine isenimsizlik sıyaqlı jaǵdaylardı bastan keshiriwi múmkin.

15-25 ball – Ortasha táshwish. Olarda waqtı – waqtı menen qáweterleniw, ashıwlanıw hám isenimsizlik belgileri payda bolıwı múmkin, biraq bul sezim tuyǵılar ádette basqarıladı hám kúndelik iskerlikte sezilerli dárejede kesent etpeydi. Fiziologiyalıq belgiler waqtı-waqtı menen yaqi jeńil bolıwı múmkin. Ortasha qáweterleniw dárejesi kúndelik stressler, mısalı, belgilengen múddetler, social jaǵdaylar yaqi turmıstaǵı kishi ózgerislerden kelip shıǵıwı múmkin.

5-15 ball – Pás hám ortasha qáweterleniw. Olarda qáweterleniw yaqi ashıwlanıw sezimi minimal yaqi kemnen - kem bolıwı múmkin hám turmısqa ulıwma pozitiv kóz qarasta bolǵan hám ózine isengen adamlarda pás dárejede qáweterleniw dárejesi bolıwı múmkin.

0-5 ball – minimal qáweterleniw. Bul diapozındaǵı adamlar heshqanday qáweterleniwdi bastan keshirmeydi. Olar ádette tınısh hám arxayınlı minez-qulıqtı kórsetedi, ózinen gúmanlanıw, qorqıw, táshwish sezimi minimal dárejede yaqi ulıwma joq. Oqıwshılardan Teylordıń "Qáweterleniwdi anıqlaw" metodikası boyınsha nátiyje tómendegi keste (1-keste) kórinisinde keltirilgen.

1- keste


n=100

Teylordıń "Qáweterleniwdi anıqlaw" metodikası nátiyjesi

40-50 ball júdá joqarı qáweterleniw.	25-40 ball joqarı qáweterleniw	15-25 ball ortasha táshwish	5-15 ball pás hám ortasha qáweterleniw	0-5 ball minimal qáweterleniw
2 %	35 %	46 %	12 %	5 %

Oqıwshılardan alınǵan Teylordıń " Qáweterleniwdi anıqlaw" metodikası boyınsha nátiyjelер 1-súwrette grafig fotmasında keltirilgen.

n =100




1 – súwret

Ótkerilgen sorawnama juwmaǵı sonı kórsetedi respondentlerdiń 2% inde yaǵnıy 2 oqıwshıda qáweterleniw dárejesi júdá joqarı. Bunnan sonı bilsek boladı olarda turaqlı rawishte táshwish, qayǵırıw hám ózine isenim boyınsha mashqalalar gúzetilip turadı hám bárqulla kúshli basım astında júredi. Keyingi shkala, yaǵnıy joqarı dárejede qáweterleniw ulıwma sorawnamada qatnasqan oqıwshılardıń 35% in óz ishine aladı. Bul 35 oqıwshıda tez-tez qáweterleniw, óziniń qararlarına bolǵan isenimsizlik hám ortalıqtan qashıw belgileri gúzetiledi. Sonı ayıp ótiwimiz kerek, bul oqıwshılardıń kóp bólimi qız balalardan quralǵan hám bul olardıń ótiw dáwirinde bolǵanlıǵına da baylanıslı. Olar sırtqı tásir kúshine turaqsız, yaǵnıy óz-ózine isenim, erk kúshi tolıq qalıplespen. Metodikada qatnasqanlardı 100 procent dep alsaq sonıń 46 % in orta dárejede qáweterleniwshi oqıwshılar quradı. Olarda waqtı – waqtı menen qáweterleniw belgileri, isenimsizlik hámde ashıwlanıw baqlanıwı múmkin, biraq bul jaǵdaylar olardıń kúndelikli turmısına kerı tásir kórsetpeydi. Keyingi kórsetkish 5-15 ball jıynaǵan oqıwshılar, yaǵnıy pás dárejede qáweterleniw 12 oqıwshıda gúzetildi. Bul oqıwshılarda ózine isenim dárejesi joqarı derlik qáweterleniw sezimleri bayqalmaydı.

Oqıwshılarda ótkerilgen Teylordıń “Qáweterleniwdi anıqlaw” metodikası boyınsha nátiyjeler diagramma formasında keltirilgen.

2-súwret



Sonı ayıp ótiwimiz kerek, bul oqıwshılar haqqında muǵallimlerin sorawımızda olardıń ózlestiriw dárejeside jaqsı ekenligin ayıp ótti. Bizde aqırǵı dáreje minimal qáweterleniw bolıp, bul qatnasıwshılardıń 5% in quradı. Bul 5 oqıwshımız heshqanday qáweterleniw, táshwishleniw bastan keshirmeydi. Olar ádette tınısh hám awır basıq bolıp, hár qanday jaǵdayda ózin basqarıw jolların islep shıqqan. Ótkerilgen metodikada sorawlar “Men bárqulla ózimdi baxıtlı sezemen”, “Men ózime isenemen” sıyaqlı 50 maqullaw hám inkar etiw gápplerinen ibarat edi hám qatnasqan oqıwshılardıń kópshiliginde qáweterleniw dárejesi orta hám joqarı dárejeni kórsetkeniniń sebebi óspirimlik dáwiri óziniń individuallıǵı hám biytákrarlıǵı menen xarakterlenedi. Shaxsıy “Men” iniń qalıplesiwı, turmıshlıq rejelerdiń payda bolıwı qáweterleniw dárejesiniń payda bolıwı hám kóteriliwine sebep bolǵan.

Juwmaqlap aytqand izertlew nátiyjeleri óspirimlerde ózine isenim hám qáweterleniw óz-ara tıǵız baylanıslı ekenligin kórsetti. Qáweterleniw dárejesi joqarı bolǵanda ózine isenim tómenleydi, psixologiyalıq qollap-quwatlaw hám ámeliy shınıǵıwlar bolsa kerisinshe isenimdi bekkemleydi. Sonıń ushın mektep jasındaǵı oqıwshılar arasında psixologiyalıq diagnostika hám qollap-quwatlaw jumısların kúsheytiw arqalı ózine isenimdi rawajlandırıw áhmiyetli esaplanadı.

ÁDEBIYATLAR

1. Bouras N, Holt G (2007). Psychiatric and Behavioral Disorders in Intellectual and Developmental Disabilities .Cambridge University Press
2. Barker P (2003). Psychiatric and Mental Health Nursing: The Craft of Caring. London: Edward Arnold 17 p
3. Xreferat.com

Óspirimlerde óz-ózine isenimin eksperimental úyreniw

Annotasiya: Bul maqalada óspirimlerdegi óz-ózine isenim dárajeleri hám qáweterleniw aralıq baylanısları qarap shıǵıladı. Isenim insannıń shaxsıy hám kásiplik rawajlanıwında tiykarǵı róldi oynaydı, al qáweterleniw isenimni páseytip, shaxstıń imkaniyatların shekleydi. Maqala natijeleri óspirimlerdegi qáweterleniw hám óz-ózine isenimdiń ózara tásirin kórsetip, ruwxıy salamatlıqtı saqlaw hám óz-ózine isenimdi rawajlandırıwda psixologiyalıq qollawdıń áhmiyetin ayqınlaydı.

Tayanış sózler: óz-ózine isenim, qáweterleniw, psixologiyalıq diagnostika, Taylor metodikası, óspirimler

Ósmirlarning o'ziga ishonchini eksperimental o'rganish

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'spirinlarda o'z-o'ziga ishonch darajalari va xavotirlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilingan. Ishonch shaxsiy va kasbiy rivojlanishda asosiy omil bo'lsa, xavotirlanish uni pasaytirib, shaxs imkoniyatlarini cheklaydi. Tadqiqot natijalari xavotirlanish va o'z-o'ziga ishonch o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berib, ruhiy salomatlikni saqlash va ishonchni rivojlantirishda psixologik qo'llab-quvvatlashning ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: o'z-o'ziga ishonch, xavotirlanish, psixologik diagnostika, Taylor metodikasi, o'smirlar

Experimental study of adolescents's self-confidence

Abstract: This article examines the relationship between adolescents' self-confidence and anxiety. Self-confidence plays a key role in personal and professional development, while anxiety reduces confidence and limits individual potential. The findings reveal the interrelation between anxiety and self-confidence, highlighting the importance of psychological support in maintaining mental health and fostering adolescents' self-confidence.

Key words: self-confidence, anxiety, psychological diagnostics, Taylor's method, adolescents.

ТАСВИРИЙ САНЪАТ АСАРЛАРИНИ ТУШУНИШДА РАНГЛАР ВА РАМЗЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Абатов Ж. О.


Қорақалпоқ давлат университети

Summary: The article discusses the importance of aesthetic culture in Uzbekistan and its national and universal features. It emphasizes that aesthetic culture is connected with the spirituality of society and national values. The article also highlights the importance of educating young people and guiding them towards spiritual maturity.

Key words: aesthetic culture, universal values, beauty, spirituality, manners, morality, behavior, personality.

ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМДА ГЛОБАЛ МУАММОЛАР ТАҲЛИЛИ: НАЗАРИЙ ВА МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАР

Қурбанов О. Х.

Нуқус Президент мактабининг физика фани ўқувчиси

Ҳозирги глобаллашув ва ахборотлашган жамиятда таълимдаги асосий вазифалардан бири ўқувчиларнинг интеллектуал салоҳиятини ривожлантиришдир. Интеллектуал салоҳият билимларни таҳлил қилиш, қайта таҳрирлаш, ишлаш, мантиқий ва танқидий баҳолаш ҳамда амалиётда қўллаш салоҳиятини белгилайди. Шунинг учун таълимда ўқувчиларнинг когнитив ва ижодий кўникмаларининг ривожланишини таъминлайдиган илмий-назарий асосларга зарурият ортиб бормоқта. Таълим жараёнида глобал муаммоларни таҳлил қилишда интеллектуал салоҳиятни шакллантиришда муҳим восита сифатида кўрсатади. Чунки глобал муаммолар (энергия ресурслари, экология, ахборот хавфсизлиги, демографик мувозанат ва бошқалар) билан боғлиқ муаммолар ўқувчиларнинг онгли равишда фикр юритиши, ҳар томонлама уйланган, асосланган далиллар асосида қарор қабул қилиш ҳамда жамият олдидаги масъулиятни англашини ривожлантиради.

Таълим мазмунини қайта кўриб чиқиш зарурати дунё миқёсидаги глобал муаммоларнинг тобора кескинлашуви билан узвий боғлиқдир. Бу ўзгаришлар, таълимнинг мақсадларини фақат академик билим бериш билан чекламай, балки ўқувчиларда жаҳон миқёсида долзарб бўлган ижтимоий, экологик, иқтисодий ва маданий муаммоларга танқидий ёндашиш, таҳлил қилиш ва мулоҳазали муносабат билдириш қобилятини шакллантиришга қаратилган янги парадигмани талаб этмоқда.

Cambridge Global Perspectives концепцияси айнан шу парадигмани амалга оширишда назарий ва методик платформа сифатида хизмат қилади. CGPни физика таълимига интеграция қилиш орқали “глобал муаммо” тушунчасини илмий асосда очиб бериш, ўқувчиларнинг интеллектуал салоҳиятини ривожлантиришга хизмат қилади. Масалан, иқлим ўзгариши, сув ресурслари танқислиги ёки технология ва инсон хавфсизлиги ўртасидаги мувозанат каби масалаларни физик қонунлар, моделлар ва тадқиқотлар асосида таҳлил қилиш, фақат когнитив эмас, балки ижтимоий, ахлоқий ва рефлексив тафаккурни ҳам фаоллаштиради.

Илмий манбаларда “глобал муаммо” тушунчаси бутун инсоният манфаатларига дахлдор, сиёсий, иқтисодий, ижтимоий ва табиий тизимлар ўртасидаги зиддиятлар ва хавф-хатарлардан келиб чиқадиган, фақат глобал миқёсдаги ҳамкорлик асосида ҳал этиладиган мураккаб ва ўзаро боғлиқ масалалар мажмуаси сифатида талқин этилади. Жумладан, Т.И. Иноземцев ва К.А. Голубинцев таъкидлаганидек, глобал муаммолар – бу “планетар миқёсдаги ижтимоий-табиий зиддиятлар бўлиб, улар бутун инсоният манфаатларини қамраб олади ва глобал ёндашувни талаб этади” [5].

Глобал муаммолар таълим мазмунига интеграция қилинар экан, уларнинг тоифалаштирилиши ва педагогик интерпретацияси алоҳида назарий асос талаб қилади. Илмий манбаларда ва халқаро таълим концепцияларида глобал муаммоларни куйидаги асосий тоифаларга ажратиш мақсадга мувофиқ деб топилади:

Экологик муаммолар – атмосферанинг ифлосланиши, иқлим ўзгариши, биологик хилма-хилликнинг камайиши, сув ресурсларининг танқислиги, ер юзасининг деградацияси каби масалаларни қамраб олади. Ушбу муаммоларнинг таҳлили физика фанидаги энергия айланиши, иссиқлик узатиш ва глобал моделлаштириш қонуниятлари билан узвий боғлиқдир. Таълим мазмунида бундай муаммолар экологик саводхонлик, табиатга масъулиятли муносабат ва барқарор ривожланиш ғояси билан боғланган ҳолда шакллантирилиши зарур [2, 3].

Ижтимоий муаммолар – камбағаллик, ижтимоий тенгсизлик, мажбурий миграция, ногиронлиги бор шахслар ҳуқуқлари, гендер мувозанати ва таълимга тенг имкониятлар масалалари. Ушбу муаммоларнинг ечими ўқувчиларда ижтимоий англаш, фуқаролик позицияси ва инсоний бағрикенгликни шакллантирувчи таҳлил фаолияти орқали амалга оширилиши мумкин. Физика дарсларида бундай ижтимоий муаммолар, масалан, ривожланган ва ривожланаётган минтақалар ўртасида замонавий технологиялардан (энергия манбалари, электр тармоқлари, интернет инфратузилмаси) фойдаланиш имкониятларидаги фарқлар, яъни технологик тенгсизлик масаласи орқали ёритилиши мумкин. Бу таҳлил ўқувчиларда фанни фақат назарий эмас, балки жамиятнинг реал муаммолари билан боғлаш салоҳиятини ривожлантиради [3].

Иқтисодий муаммолар – ресурсларнинг тақсими, иқтисодий нотенглик, инфляция, ишсизлик ва энергия самарадорлиги каби масалалар. Физика фани бу муаммоларни энергия манбалари, қайта тикланадиган технологиялар ва самарадорликни баҳолаш каби мавзуларда таҳлил қилиш имконини беради. Бу орқали ўқувчиларда иқтисодий онг ва функционал саводхонликни шакллантиришга эришилади [2, 4].

Маданий муаммолар – маданий меросни асраш, глобаллашув таъсирида тил ва анъаналарнинг йўқолиши, маданиятлараро мулоқот ва ҳурмат каби масалалар. Таълимда бу муаммоларни ёритиш ўқувчиларда маданий англаш, идентификация ва глобал онгни шакллантиришга хизмат қилади. Физикада буни фаннинг турли миллатлардаги ривожланиш тарихи орқали кўрсатиш, турли маданиятларда фаннинг аҳамиятини баҳолаш йўли билан амалга ошириш мумкин [1, 5].

Гуманитар муаммолар – инсон ҳуқуқларининг бузилиши, қуролли можаролар, камситиш, болалар меҳнати ва инсон савдоси каби масалаларни қамраб олади. Таълимда бу муаммолар универсал кадриятлар, инсонпарварлик ва тинчлик маданиятини шакллантиришга қаратилган фаолият сифатида ташкил қилиниши зарур [1, 3]. Глобал муаммоларни ўрганиш жараёни таълимда фанлараро ёндашувни талаб этади. Айниқса, Cambridge Global Perspectives дастурида бу муаммолар таҳлил, фикрлаш, муносабат билдириш ва ижтимоий ечим таклиф қилиш каби фаолиятлар тизими орқали ёритилади [4]. Бу ёндашув UNESCO, OECD ва UNICEF каби халқаро ташкилотлар томонидан стратегик таълим механизми сифатида эътироф этилган. Шу нуқтаи назардан, “глобал муаммо” тушунчаси таълимда фақат мазмун ёки мавзулар тизими эмас, балки ўқувчида интеллектуал ва фуқаролик салоҳиятини шакллантирувчи, универсал онгни уйғотувчи ва шахсий позицияни фаоллаштирувчи педагогик механизм сифатида талқин қилиниши зарур. Бу эса, CGP доирасидаги таҳлил фаолиятини таълимнинг илмий-назарий ва амалий асосларидан бири сифатида қабул қилиш зарурлигини кўрсатади. Глобал муаммолар таҳлилининг самарадорлиги қўлланилаётган методологик ёндашувлар билан узвий боғлиқ бўлиб, бу жараён таълим мазмунида когнитив, ижтимоий ва ахлоқий қобилятларни уйғун шаклда шакллантиришни талаб этади. Айниқса, XXI аср таълимида ўқувчи шахсиятида танқидий фикрлаш, мулоқот маданияти ва ижтимоий фаолликни ривожлантирувчи методологик ёндашувларни комплекс тарзда татбиқ этиш муҳим аҳамият касб этмоқда. Бу талаблар Cambridge Global Perspectives, БМТнинг Барқарор Ривожланиш Мақсадлари, шунингдек PISA Global Competence Framework каби халқаро платформаларда устувор методик йўналишлар сифатида белгиланган [2].

Умуман олганда, глобал муаммоларни таҳлил қилиш ўқувчиларнинг интеллектуал салоҳиятини ривожлантиришда самарали педагогик восита ҳисобланади. Бу ўқувчиларда мантиқий ҳамда танқидий

фикрлаш кўникмаларини, мулоқот маданияти ва қадриятларга асосланган позицияни шакллантиришга ёрдам беради. Cambridge Global Perspectives концепцияси таълимда глобал муаммоларни интеграция қилишнинг илмий-назарий асосларини ҳамда амалий жиҳатларини яратиб, фанларни жамиятнинг долзарб масалалари билан боғлаш имконини беради. Шу боис, XXI аср таълимида глобал муаммолар таҳлилининг назарий ва методологик асосларини такомиллаштириш, уларни таълим мазмунига мос равишда жорий этиш ҳамда ўқувчиларда глобал компетенцияларни ривожлантириш устувор вазифа сифатида намоён бўлади.

АДАБИЁТЛАР

1. UNESCO. Global Citizenship Education: Topics and Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2015. – 62 p.
2. OECD. Preparing Our Youth for an Inclusive and Sustainable World: The OECD Global Competence Framework. – Paris: OECD Publishing, 2018. – 44 p.
3. UNICEF. Global Learning and Education for Sustainable Development. – New York: UNICEF, 2021. – 88 p.
4. Cambridge Assessment International Education. Global Perspectives Curriculum Framework. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 34 p.
5. Иноземцев Т.И., Голубинцев К.А. Глобальные проблемы человечества // Вопросы философии. – 2008. – № 6. – С. 3–9.

Замонавий таълимда глобал муаммолар таҳлили: назарий ва методологик асослар

Аннотация. Мақолада замонавий таълим мазмунини қайта қўриб чиқиш зарурати глобал муаммоларнинг тобора кучайиб бориши билан боғлиқ равишда таҳлил қилинган. Интеллектуал салоҳиятни ривожлантиришда глобал муаммолар таҳлилининг ўрни очиб берилган ҳамда Cambridge Global Perspectives концепциясининг назарий ва методологик имкониятлари кўрсатиб берилган.

Калит сўзлар: глобал муаммолар, интеллектуал салоҳият, замонавий таълим, когнитив кўникмалар.

Заметки о теоретических и методологических основах анализа глобальных проблем в современном образовании

Аннотация. В статье проанализирована необходимость пересмотра содержания современного образования в связи с усилением глобальных проблем. Раскрыта роль анализа глобальных проблем в развитии интеллектуального потенциала учащихся, а также показаны теоретические и методологические возможности концепции *Cambridge Global Perspectives*.

Ключевые слова: глобальные проблемы, интеллектуальный потенциал, современное образование, когнитивные навыки.

Analysis of global issues in modern education: theoretical and methodological foundations

Abstract. The article analyzes the necessity of revising the content of modern education in connection with the growing global challenges. It reveals the role of global issues analysis in the development of students' intellectual potential and highlights the theoretical and methodological opportunities of the *Cambridge Global Perspectives* concept.

Key words: global issues, intellectual potential, modern education, cognitive skills.

KURASHCHILAR MAXSUS HARAKAT FAOLIYATINING BIOMEXANIK MEZONLARI ASOSIDA TEZKOR-KUCH TAYYORGARLIGI METODIKASI TAKOMILLASHTIRISH

Muxammadiev K.B.

Xalqaro Kurash instituti

Dolzardligi. Zamonaviy sport musobaqalaridagi natijalarni oshirish masalasi mashg'ulot jarayoni vositalari va usullarini optimallashtirish bilan chambarchas bog'liq. Kurashchilarni tayyorlashda jismoniy tayyorgarlik vositalarining tarkibi va o'zaro nisbati alohida ahamiyat kasb etmoqda, chunki texnik-taktik tayyorgarlik bilan bir qatorda tezkor-kuchli chidamkorlik muammosi ham birinchi o'ringa chiqdi. Qo'llanilayotgan jismoniy tayyorgarlik vositalarining biomexanik va biokimyoviy jihatdan bir biriga mosligi mezonlari bo'yicha zamonaviy kurash talablariga muvofiqligi kurash turlarida ham katta ahamiyatga ega. Murabbiylar ko'pincha mashg'ulot jarayoni biomexanik va bioenergetik mezonlarining etarli darajada mosligini hisobga olmasdan qo'llaniladigan tayyorgarlik vositalari va usullarining o'ziga xos xususiyatlariga, ularning musobaqa faoliyati sharoitlariga muvofiqligiga e'tibor bermasdan amalga oshiradilar.

Hozirgi vaqtda kurash sportining tomoshabopliga va uning geografiyasi kengayib borayotganligi alohida ahamiyat kasb etmoqda: kurashchi faqat faol harakat emas, balki tartibli murash madaniyati o'zida yaxshi shakllangan, tashqi jihatdan ham juda kelishgan va kuchli ko'rinishga ega, chiroyli, halol kurash namoyish etadigan, raqibga, hakamlarga hurmat bilan qaraydigan bo'lmog'i lozim. Yuqori malakali kurashchilarning musobaqa faoliyati tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi kunda g'avdani to'g'ri tutgan holda, yaqin ushlab orqali usulini qo'llash sportchilarga yuqori ustunlik berimoqda. Usullarni bajarish o'rtasidagi oraliqlar vaqtlarda kurashchilarning faolligi, turish xolatlari, siljishlar, ushlab olishlar, tebranish harakatlari, kuchli surishlar, siqishlardan iborat bo'lgan "faol harakat foni"ning ustunligi to'g'risidagi masala va muammolar ham keskin muhokama sifatida ko'tarilmoqda. Shunday qilib, zamonaviy kurashchi texnik harakatlarni doimiy bosim (pressing) ko'rinishida amalga oshirishi kerak.

Ko'p yillik kuzatuvlar va ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, maxsus jismoniy tayyorgarlikning mavjud tizimi etarli darajada samarali emas, bu, kurashchilarning tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishning an'anaviy shakllangan usullari esa yangi qoidalar asosida kurashchilarning texnik-taktik harakatlarida tezkor-kuch imkoniyatlarining yuqori darajadagi qayta shakllanishi (transformatsiyasini) ta'minlamaydi. Shu munosabat bilan tezkor-kuch sifatleri bilan kurashi texnikasining samaradorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish sporti nazariyasi va amaliyotida yuqori natija ko'rsatish uchun o'ta dolzarbdir.

Tadqiqotning ob'ekti. Yuqori malakali kurashchilarning mashg'ulot jarayoni.

Tadqiqotning maqsadi. Kurashchilardagi start kuchni shakllantirish jarayonida asab-mushak apparatining tezkor-kuch ko'rsatkichlariga asoslanib, maxsus jismoniy tayyorgarlik uchun optimal vositalarini ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

1. Musobaqa bellashuvda taktik-texnik harakatlarni (TTH) bajarishning biomexanik xususiyatlarini aniqlash maqsadida musobaqa bellashuvlarining videoyozuvlarini tahlil qilish.
2. Milliy kurashda maxsus jismoniy tayyorgarlik (MJT) ga qo'yiladigan zamonaviy talablarni tadqiq etish.
3. Oldindan zo'riqish va toliqishning turli darajalarida kurashchilarning asab-mushak apparati (ASM) portlovchi kuchlanishlarining vaqtga bog'liq xususiyatlari dinamikasini aniqlash.
4. Kurashchilarning tezlik-kuch tayyorgarligi uchun maxsus vositalarni ishlab chiqish va ularning samaradorligini tajribada tekshirish.

Tadqiqot usullari: ilmiy va ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, musobaqa bellashuvlari videoyozuvlarini tahlil qilish, elektromiografiya, dinamografiya, pulsometriya va biokimyoviy nazorat, pedagogik eksperiment, matematik statistika usullari.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamaksi. Musobaqalarni o'tkazishning yangi qoidalari va reglamenti nuqtai nazaridan kurashchi-sportchilarga qo'yiladigan talablarni o'rganish o'zaro kuch bosimi ulushining sezilarli darajada oshishi, passiv kurash olib borayotgan polvonga qo'yiladigan talablarning kuchaytirilishi, yon beruvchi-yengib o'tuvchi rejimda ishlaydigan doimiy yuklama olayotgan (zo'riqayotgan) mushak guruhlarini fonida maxsus portlovchi kuchlar ahamiyatining oshishi kabi umumiy tendensiyalarni qayd etish imkonini berdi, bu esa harakat faolligi yoki texnik vazifalarni amalga oshirishning samarali zichligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi.

Zamonaviy kurashda polvonlarning faollik me'yori daqiqasiga 2,1–2,4 ta texnik harakatni tashkil etadi.

Bunday ortad qolishning sababini eski tayyorgarlik tizimining ham miqdoriy (turli tayyorgarlik turlarining nisbati), ham sifat jihatidan (jismoniy va taktik-texnik tayyorgarlik vositalari va usullari) nomukammalligidan yoki takomillashmaganligidan izlash kerak, chunki ular kurashchilariga qo'yiladigan talablarga javob bermay qolmoqda. Turli toifadagi kurashchilarning harakat faolligini tahlil qilish shuni tasdiqladiki, sportchilar bellashuv olib borishning yangi shart-sharoitlariga to'liq moslashmagan 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Turli vazn toifasidagi kurashchilarning harakat faolligi (TH/t daqiqa hisobida)

T/r	Vazn toifasi.kg	1 daqiqa	2 daqiqa	3 daqiqa	4 daqiqa	5 daqiqa
	60	0,4	1,3	2,1	0,5	0,1
	66	0,5	1,8	0,63	0,18	0,33
	73	0,33	0,5	0,63	0,5	0,63
	81	1,0	0,63	1,0	0,8	0,63
	90	0,33	2,0	0,63	1,15	1,0
	100	0,4	0,8	0,8	0,33	0,33
	120	1,0	0,63	0,8	1,0	0,4
	+120	0,91	0,52	0,7	0,80	0,4

Jismoniy yuklamalarning tabiati sportchilardan energiya ta'minotining yangi mexanizmlarini talab qildi, demak, bu esa o'z navbatida yangi mashg'ulot rejimi va usullarini joriy etish zarurligini ko'rsatdi. Harakat faolligi 0,33 dan 2,1 gacha o'zgarib turadi, xolbuki yuqori toifali kurashchilar uchun model darajasi 2,4 ni tashkil etilishi kerak [2, 3, 4].

Kurash bellashuvini o'tkazishning zamonaviy qoidalari, yuqorida ta'kidlanganidek, kurashchining NMA (neyromushak apparati)ga ham yangi talablar qo'yadi. Kuch ishlatib kurashish holatlari butun bellashuv vaqtining 80% ini tashkil qiladi. Bunday sharoitda kurashchi texnik harakatlarni (TH) bajarayotganda mushaklar doimiy zo'riqish holatidan start olishiga to'g'ri keladi. Shu bois, biz kurashchilarning eng ko'p uchraydigan to'rtta holatini tahlil qilib ajratdik, ular boshlang'ich yoki start holatlari hisoblanadi. Ular TXni o'zaro kuch bosimi va kuchli mushak zo'riqishi holatidan o'tkazishni nazarda tutadi: Boshlang'ich holatlar: ikki engdan ushlab, bir eng va bir yoqadan ushlab, bir en va qo'lni raqib elkasidan oshirib belbog'idan ushlab, bir qo'l bilash engdan, ikkinchi bo'l bilan qo'lni bilakdan oshirib ushlab, ikki yoqadan ushlab, ikki qo'l bilan belni quchoqlab belbog'dan ushlab va boshqa ushlab holatlari.

Mushak joylashuvini tahlil qilish eng katta yukni ko'taradigan mushak guruhlarini ajratishga imkon berdi. Ajratilgan mushak guruhlarining faollik rejimlarini o'rganish maqsadida biz start holatiga bog'liq ravishda ularning ishini elektromiografiya vositasi bilan o'rgandik [2, 3, 4].

Mushaklar faoliyatini tahlil shuni ko'rsatdiki, maxsus harakat faoliyatini bajarishda mushaklarda deyarli "sukuat zonasi" yo'q. Demak, mushaklar doimiy innervatsiya holatida bo'lib, aynan shu holat fonda texnik harakatlar (TH) amalga oshirilishi ilojisiz. An'anaviy qo'llaniladigan jismoniy tayyorgarlik vositalarida mushak guruhlarining ish rejimlarini baholash uchun biz eng ko'p qo'llaniladigan mashqlardan biri bo'lgan tosh ko'tarish mashqini elektromiografik tekshiruvdan o'tkazdik. Elektromiogramma tahlili mushaklar ishida "sukuat zonasi" zonalari mavjudligini ko'rsatdi, bu zamonaviy kurashda ularning ishlash xususiyatiga mos kelmaydi.

O'tkazilgan elektromiografik tadqiqotlar natijasida biz an'anaviy ravishda qo'llaniladigan jismoniy tayyorgarlik vositalarining aksariyati biomexanik mezon bo'yicha zamonaviy talablarga javob bermasligini aniqladik.

Yuqoridagi holatdan kelib chiqib, shunday xulosa qilish mumkinki, musobaqalarni o'tkazish qoidalaridagi o'zgarishlar natijasida UJT tizimida maxsus tezkor-kuch tayyorgarlikning ahamiyati keskin oshdi. Bu esa, kurashchining NMA ishini bellashuv rejimida biomexanik moslik nuqtai nazaridan UJT vositalari va usullarini sezilarli darajada qayta ko'rib chiqishni talab qildi. O'tkazilgan tadqiqotlar turli malakali kurashchilarda texnik harakatni amalga oshirishda boshlang'ich yoki start reaksiyasini baholash imkonini berdi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich yoki start harakatidagi kuch pasayishi kurashchining malaka darajasiga va NMAning dastlabki zo'riqish darajasiga bevosita bog'liq (2-jadval).

2-jadval. Kurashchilarda kuchning pasayishi ulardagi malaka va NMAning oldindangi kuchlanish darajasiga bog'liligi

T/r	Testlar	Sportchi bo'lmaganlar	Sport ustaligiga nomzodlar	Sport ustalari	Xalqaro toifadagi sport ustalari
1.	Maksimal shiddat	96 ±31	120 ±37	168 ±34	185 ±39
2.	Oldindan zo'riqtirish darajasi	84 ±30	105 ±40	152 ±41	178 ±42
3.	Oldindan zo'riqtirish darajasi 60 %	78 ±38	101 ±40	144 ± 47	169 ±40
4.	Oldindan zo'riqtirish darajasi 80 %	72 ±39	94 ±43	136 ±50	153 ±48
5.	σ % =max – 80%	25%	21,6%	19,1%	17,3%

Muskullar ishining tahlili maxsus kurash tayyorgarligi yuqori bo'lmagan sportchilarda relaksatsiya (mushaklarning bo'shashish, erkinlashish) fazasi mavjudligini, yuqori malakali sportchilarda esa relaksatsiya fazasi yo'qligini ko'rsatdi.

Musobaqa yuklamasini modellashtiruvchi tadqiqotlar shuni ta'kidlash imkonini berdiki, boshlang'ich yoki start harakatida kuchi sezilarli darajada pasayishi kurashchilarning NMA o'ziga xos sensomotor reaksiyasining toliqish omili bo'lib, buni elektromiografik tadqiqotlar shuni tasdiqladiki, boshlang'ich yoki start harakatida hujum qiluvchi kurashchida TXni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun ishlayotgan mushak guruhlarining bo'shashish fazasi bo'lmashligi kerak yoki uning vaqti 130 msek dan oshmasligi kerak (yuqori malakali kurashchilar uchun ma'lumotlar) [2, 3, 4].

Pedagogik tajribada qo'llanilgan vositalar ham xuddi shunday usulda tanlab olindi va korreksiya qilindi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, kurashchilarning maxsus tezlik-kuch tayyorgarlik (MTT)lari bir tomondan biokimyoviy mezonga maksimal darajada mos keladigan sharoitda o'tkazilishi kerak, boshqa tomondan esa musobaqa sharoitida kurashchining bioenergetikasi aerob-anaerob rejimda, anaerob rejimning ustunligi bilan kechadi, shuning uchun MTT vositalari bilan ta'sir qilish usullarini ishlab chiqishda biokimyoviy muvofiqlik mezonlarini hisobga olish kerak [2, 3, 4]. Ushbu taxminni tajribada asoslash maqsadida pedagogik tajriba o'tkazildi. Uning asosiga musobaqa faoliyatga mos bo'lgan biomexanik va biokimyoviy me'yorlari asosida tanlab olingan vositalardan foydalangan holda biz tomonimizdan ishlab chiqilgan MJT uslubi qo'yildi.

Tasdiqlovchi (asosiy) tajriba metodikasi. Tajribada 16 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan sport ustaligiga nomzod va 1 razryadli kurashchilar ishtirok etishdi. Kurashchilar guruhi bir xil vazn-bo'y mansub. Pedagogik tajribada ishtirok etgan kurashchilarning umumiy soni 30 nafarni tashkil etdi. Tajriba-sinov ishlariga 2 ta guruhda, ya'ni 16 nafar tajriba va 14 nafar nazorat guruhi ko'rinishida shakllantirildi. Ikkala guruh sinalluvchilarining yoshi, sport staji, sport malakasi, jismoniy va texnik tayyorgarligi bo'yicha deyarli bir xil, ya'ni sezilarli farqlar yo'q. Nazorat va tajriba guruhlaridagi mashg'ulot sharoitlari bir xil bo'ldi. Mashg'ulot rejasi texnik-taktik mahoratni takomillashtirish, shuningdek, funksional tayyorgarlik darajasini oshirishni o'z ichiga oldi [2, 3, 4]. Tayyorgarlik mashg'ulotlari rejasi texnik-taktik mahoratini rivojlantirish hamda funksional tayyorgarlik darajasini oshirishni o'z ichiga oldi. Har ikki guruh kurashchilari haftada olti marotaba birtadan mashg'ulot olib borishdi. Ulardan o'rtacha bir xil olib borildi, dushanba va payshanba kunlari o'tkazilgan ikkita mashg'ulotda esa sezilarli farqqa sezilarli farqlar bilan olib borildi. Tajriba guruhi kurashchilari shu kunlardagi mashg'ulotlarni asosiy talabga javob beradigan maxsus mashqlardan iborat qilib olib borishdi, ya'ni, barcha mashqlar asosiy mushak guruhlarining dastlabki zo'riqish va charchash darajasi bilan o'tkazildi.

Uslubni tajriba sinovidan o'tkazishdan oldin Toshkent davlat transport universiteti kurash zali bazasida o'quv-mashg'ulot bellashuvlari o'tkazildi, unda ikkala guruh kurashchilari, shuningdek, boshqa talaba kurashchilar ishtirok etdilar. Barcha ishtirokchilar 4 ta uchrashuv, 2 ta kunduzgi va 2 ta kechki bellashuvni o'tkazdilar. Mashg'ulot bellashuvlari kurashning shakli va keskinligi bo'yicha musobaqa bellashuvlarini modellashtirdi [2,3].

Biz tomonimizdan tajribada ishtirok etayotgan kurashchilarning mashg'ulot bellashuvlari tahlil qilindi. Har bir bellashuvda tik turishda texnik harakatlarni o'tkazishga urinishlar soni, shuningdek, muvaffaqiyatli o'tkazilgan usullar soni qayd etildi. Barcha ma'lumotlar umumlashtirilib, o'rtacha guruh ko'rsatkichlari hisoblab chiqildi (3-jadval).

3-jadval. Tajribadan oldin va keyin musobaqa faoliyati ko'rsatkichlari

T/r	O'tkazilgan tajribalar	Hujumda				Himoyada			
		Tajriba guruhi		Nazorat guruhi		Tajriba guruhi		Nazorat guruhi	
1.	Tajribadan oldin	0,22	0,41	0,25	0,43	0,30	0,42	0,33	0,40
2.	Tajribadan so'ng	0,65	0,76	0,41	0,62	0,82	0,86	0,55	0,38

3-jadvaldan ko'rinishida turibdiki, hujum va himoyada guruhlarida ikkala sezilarli farqlar yo'q. Hujur harakatining kamligi kurashchilarning aniq maqsadsiz ko'p sonli urinishlarni amalga oshirishi bilan izohlanadi. Ko'pgina kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi etarli emas edi, ko'pincha ular o'z ustunliklarini amalga oshira olmadilar. Bu, ayniqsa, TH NMAning charchashi TDni o'tkazishda qo'shimcha to'xtatuvchi omil bo'lganida, to'lg'oqning 4 va 5-daqiqalarida sezilarli bo'ldi. Bu ayniqsa bellashuvning 4- va 5-daqiqalarida yaqqol ko'ringan. Charchoq tufayli Ximoya harakatlari pasayib, TH ni amalga oshirishda qo'shimcha qiyinchilik va paydo bo'ladi [2, 3]. Bellashuvda qo'llanilgan texnik vositalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilganlari soni texnik vositalar soniga nisbatan qo'llanilgan vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili natijasida, tajriba guruh polvonlarida natijadorlikning o'sish dinamikasi ancha tez va intensiv ekani aniqlandi. Natijalar tadqiqot boshidagi natijalar bilan taqqoslaganda, tajriba guruhida ustunlik hujumda 43% ga, himoyada esa 48% ga oshgan. Nazorat guruhi kurashchilarida esa bu ko'rsatkich ustunda hujumda atigi 13%, ximoyada esa 21% ni tashkil etgan (0,25 va 0,41; 0,33 va 0,55).

Himoya harakatlari samaradorligi ko'rsatkichlari hujum usullari samaradorligidan biroz ustunlik qiladi. Nazorat guruhi kurashchilarida hujamda bellashuv 5% ga oshdi va 0,62 ni tashkil etdi. Himoyada bellashuv esa dastlabkiga nisbatan biroz 2% ga yomonlashdi va 1,38 ni tashkil etdi. Tajriba guruhi kurashchilarida himoyada bellashuv samaradorligi 0,82 ga, himoyada esa 0,86 ga teng bo'ldi. Shuningdek, ularning barqarorligi yuqori ekanligini ham ta'kidlash lozim. Tajriba guruhi kurashchilari bellashuvning 1-daqiqasida ham, so'nggi daqiqalarida ham boshlang'ich

start vaziyatlarini samarali amalga oshirdilar, ularning raqiblari esa bellashuv oxiriga kelib sust kurash olib bordilar, kuch bosimi natijasida THni samarali samarali bajara olmadilar. TXni amalga oshirishning yuqori samaradorligi bilan tajriba guruhi kurashchilarida o'tkazilgan musobaqalarda yuqori natija ko'rsatish imkonini berdi.

ADABIYOTLAR

1. Акопян А.О., Игуменов В.М., Осотов М.В. и др. Методика скоростно-силовой подготовки на основе биомеханического критерия соответствия специальной двигательной деятельности // Актуальные проблемы спортивной борьбы. – М.: Физкультура, образование и наука. – 1998. – С. 48-50.
2. Мухаммадиев К. Б. Обоснование модели подготовки высококвалифицированных спортсменов с применением комбинаций техники приёмов кураш // Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў. Илимий-методикалык журнал. – Нукус. 2024 №. 4-сан. С – 559 – 570.
3. Muxammadiev K va boshqalar. Kurash ixtisosligiga kirish (Kurash usullarini o'qitish metodikasi). O'quv qo'llanma. / K. Muxammadiev, N. Tadjiev, N. Chorshamiev, F. Bobomurodov. – Toshkent. "Dimak" nashriëti. – 2025 y. – 144 b.
4. Менщиков, А.И. Специальная скоростно-силовая подготовка высококвалифицированных борцов в условиях выполнения двигательных действий в партере: Автореф. дис. ... канд. пед. наук.: 13.00.04 / Кубанский гос. ун-т физ. культуры, спорта и туризма. – Краснодар. – 2013. – 23 с.
5. Обеспечение вариативности силовой нагрузки при выполнении бросков в спортивной борьбе на основе управления инерционными характеристиками специального тренировочного устройства / М.В. Семенюк, Сотский Н.Б. – 2015. – 106 с.
6. Остапенко, Л.А. Организация питания в скоростно-силовых и силовых видах спорта // Педагогико-психологические и медико-биологические проблемы физической культуры и спорта. – 2008. – №. 1 (6). – С. – 44-49.

Annotatsiya. Ushbu maqolada kurashchilar maxsus harakat faoliyatining biomexanik mezonlari asosida yuqori malakali kurashchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini takomillashtirish metodikasini ilmiy jihatdan asoslash va tajribada sinab ko'rish borasida malakali kurashchilar bilan olib borilgan mashg'ulotlar davomida qo'llanilgan uslublar ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kurash, tezkor-kuch, malaka, qobiliyat, takomillashtirish, uloqtirish, tayanch, reaksiya, model.

Аннотация. В данной статье на основе биомеханических критериев специальной двигательной деятельности курашистов научно обоснованы и апробированы на практике методики совершенствования скоростно-силовых способностей высококвалифицированных курашистов, методы, использованные в ходе занятий с квалифицированными курашистами.

Ключевые слова: борьба, скоростная сила, навык, способность, совершенствование, метание, опора, реакция, модель.

Annotation. In this article, based on biomechanical criteria of the special motor activity of kurash wrestlers, the methods of improving the speed-strength abilities of highly qualified kurash wrestlers, the methods used during classes with qualified kurash wrestlers, are scientifically substantiated and tested in practice.

Key words: wrestling, speed-strength, skill, ability, improvement, throwing, support, reaction, model.

TA'LIM MUASASSALARIDA TO'QIMACHILIK HUNARIGA O'RGATISHNI TASHKIL ETISHNING AKMEOLOGIK JIHATLARI

Kaliquazarova G.

Qoraqalpoq davlat universiteti

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev «Sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashda jamiyatimizning eng muhim, men aytgan bo'lardimki, xal qiluvchi bo'g'ini bo'lmish oilaga alohida e'tibor berish va har tomonlama asrab avaylash...» muhimligini ta'kidlab o'tgan[1;23]. Darhaqiqat, qadim-qadimdan oila yoshlarning kasb-hunar tanlashida, ularning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda, hayotga tayyorlashda maktab vazifasini o'tab kelgan. Shu jihatdan ota-bobolarimiz bola tarbiyasida mehnatga, kasb-hunarga qiziqtirishga alohida e'tibor berganlar. Demak, XXI asrda har bir ota-ona oilada o'z farzandlarining qaysi kasb egasi bo'lishlariga e'tibor berishlari muhim ahamiyatga ega. Chunki bolada mehnatga munosabat, dastavval, oiladan boshlanadi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyevning ta'kidlashicha, «Bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlarimiz farzandlarimizning baxtu saodati, ularning yorug' kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Lekin baxtu saodat faqat boylik, molu mulk bilan belgilanmaydi. Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligi»[1; 97]. Shunday ekan, har bir farzand kelajakda quruvchi bo'ladimi, tikuvchi bo'ladimi, hunarmard bo'ladimi oila tarbiyasiga, uning mehnatsevarligiga bog'liqdir. Shu bois qadimdan oilada farzand tarbiyasi, uning kelajakda qanday kishi bo'lib yetishishi, avlodlarning davomiyligini ta'minlashda unga qo'yiladigan talablar, tarbiyaning uzluksizligi kabi psixologik va pedagogik jihatlarga katta e'tibor berilgan.

Albatta, farzandlarga kasb-hunar o'rgatishda oila tarbiyasi muhim hisoblangan. Shu jihatdan ham asrlar davomida farzand tarbiyasiga, uning axloqiy tomonlariga, kelajakda farzandning malakali kasb egasi bo'lib, hayotda halol yashashi, mehnat qilishi yuksak qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan.

Falsafiy va pedagogik-psixologik adabiyotlar tahlili «qadriyat» tushunchasini talqin etishda xilma-xil yondashuvlar mavjudligini ko'rsatdi. Falsafiy nuqtai nazardan qadriyat inson tomonidan baholanadigan keng ommalashgan sub'ektiv obraz yoki tasavvurlar sifatida idrok etilsa, sotsiologik yondashuvda qadriyat inson hayotiy faoliyatini tashkil etuvchi ijtimoiy me'yorlar, uning xulq-atvori bilan mustahkam aloqadorlikda talqin etiladi, psixologiya mazkur tushunchani shaxsning qiziqishlari, ehtiyojlari bilan bog'liqlikda ifoda etadi, pedagogikada «qadriyat» tushunchasi insonning har tomonlama uyg'un rivojlantirishga yo'naltirilgan individual hayotiy tajribasi, dunyo haqidagi bilimlari asosida yuzaga keluvchi olamga shaxsiy munosabatini aks ettiradi[5; 67].

Qadimda ota-onalar farzandlariga hunar o'rgatayotgan ustozni hurmat-ehtirom qilganlar. Ota-onalar va ustozlar o'rtasida munosabat madaniyati ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan. Ota-onaning ustozga munosabatida unga

muruvvat ko'rsatish, ustozning farzandiga bergan tanbehini to'g'ri tushunish, farzandining hunar o'rganishi uchun kerakli narsalarni yetkazib berish, ustozni rozi qilish va boshqalar farzand tarbiyasida muhim omillardan biri bo'lgan.

Ustozning ham ota-onaga nisbatan o'ziga xos munosabat mezoni bo'lgan. Ular shogirdiga hunar o'rgatish borasida zimmasiga olgan vazifasini bajarish, o'z va'dasining ustidan chiqish, ota-onaga farzandining qobiliyati, xulq-odobi to'g'risida ochiq gapirish kabi o'ziga xos milliylik xususiyatlari, ta'limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari, ustoz-shogird an'analari, ular o'rtasidagi axloq-odob mezoni, madaniyati yosh avlodni hunarmandchilik kasbiga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Ta'kidlash joizki, har bir xonadonda farzand tarbiyasining asosi oiladan boshlanadi. Ota-onaning jamiyatda qanday kasb-korga egaligi, mahalladagi obro'si tarbiyaning muhim omili sifatida farzandlarning dunyoqarashi, bilimi va xulq-atvoriga katta ta'sir ko'rsatadi. Demak, talabalarda kasbga bo'lgan qiziqishini shakllantirish omillaridan biri oila hisoblanadi. Aksariyat hollarda bolaning kasbga bo'lgan qiziqishi o'z oilasida ota-bobolari, aka-opalari, qarindosh – urug'lari, ya'ni o'zidan kattalarga taqlid qilish asosida rivojlanadi. «Jamiyatda komil inson fuqarosini shakllantirish, tarbiyalash hozirgi zamon oilasining muhim funksiyasi darajasiga kiradi. Chunki shaxsning biron bir hunar yoki kasbga bo'lgan qiziqishi dastavval oilada vujudga keladi. Oiladagi tarbiya orqali shaxsga ma'lum bir siyosiy-g'oyaviy dunyoqarash, axloqiy me'yorlar va xulq namunalari, jismoniy sifatlar singdiriladi. Oilada amalga oshadigan bu jarayon natijasida shaxs ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtiradi, ijtimoiy hayotga kirib boradi» [3; 89]. Kashta kiyimlar va buyumlarni bezashda katta ahamiyatga ega. Kashta tikishni bilish orqali, kiyimlarni yangilab olish, ko'pgina kerakli buyumlarni: salfetkalar, panno, fartuk, yostiq jildlarini, yaqin kishilarga sovg'alarni bezash va tayyorlash mumkin.

Kashta tikish – qiziqarli va ijodiy ish bo'lib, u insonga zavq berishi, bo'sh vaqtda ermak bo'lishi, insonni nafosat olamiga olib kirishi mumkin. Kashta tikish usullarini o'zlashtirayotganda hamma narsa birdaniga yaxshi chiqmasligi mumkin, chunki kashtachilik sabr-toqatli, e'tiborli, tartibli bo'lishni talab etadi. Chidamli bo'lish lozim. Kerakli ko'nikma va malakalar egallagan sayin ish asta-sekin osonlasha boradi [7; 156]. Kashta tikish san'atining ko'p asrlik tarixi bor. Arxeologik topilmalarda yozilishicha, qadimdan uy-ro'zg'or buyumlarini – sochiqlar, to'r hoshiya, dasturxonlar, bayram va kundalik kiyimlar, peshbandlar, kashta tikish usullari, gullari, ranglarning mujassamlanishi avloddan-avlodga o'tib takomillashib bordi. Sekin-asta eng yaxshi kashtalar tanlanib qoldi va milliy xususiyatlari bilan xarakterli betakror kashta namunalari yaratilib, bosh kiyimlar va boshqa narsalar kashtalar tikib bezatilgan[6; 234].

Xalq ustalari kashta tikib bezagan buyumlar chiroyli gullari bilan, ranglarining bir-biriga mosligi, to'la mutanosibligi, bajarish usullarining professional aniqligi bilan ajralib turadi. Kashta tikilgan har bir buyum amaliy vazifasiga to'g'ri keladi.

Mamlakatimiz muzeylarida xalq kashtachiligining ko'p namunalari to'plangan, ayniqsa, XIX asr kashtalari eng yaxshi saqlanib, shu kunlarga yetib kelgan. Qoraqalpoq milliy kashtachiligi (kashtado'zlik) amaliy san'atning eng qadimiy turlaridan bo'lib, u xalkning o'z turmushini go'zal kilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashtachilik san'ati nafakat mamlakatimizda, balki chet ellarda xam shuhrat qozongan. Hozirgacha buyumlar o'ziga xos go'zallik, nafis bezaklarning rang-barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega, buni arxeologik topilmalar va yozma manbalar isbotlab bermoqda. Qoraqalpoq kashtachiligi iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda barcha kasb-hunarlari bilan birgalikda rivoj topgan. Kashtachilik san'atining eng qadimiysi saklanmagan.

Qoraqalpoq kashtachilarida o'simliksimon, geometrik hamda gul naqshlari ko'p bo'lsa, rus kashtachiligida geometrik, o'simliksimon shakllar, gullar, qush va mevalar ko'p tasvirlanadi. Qozoq va qirg'iz kashtachiligida esa ko'proq hayvonlar, shoh va tuyuqlarini eslatuvchi elementlar tasvirlanadi [6; 78].

Qadimiy an'analarga ko'ra, qoraqalpoq qizlari – bo'lajak kelinchaklar seplari – har xil kashtachilik buyumlarini o'zlari tayyorlashlari lozim edi. Kashtalar qanchalik nozik, chiroyli bo'lsa, qaylik shunchalik yuqori baholanar edi. Qizlar 7-9 yoshdan boshlab kashta tikishga o'rgatildilar. Ular uch, to'rt yildan keyin mustakil kashta tika boshlaydilar. Yetishib chiqqan kashtachi qizlar o'zining san'ati va tabiatiga ko'ra go'zallik haqidagi orzularini ifodalashga harakat qilganlar, shuning uchun ham qoraqalpoq xalqida "Sepli kelin olma, epli kelin ol"-degan maqol bejiz aytilmagan bo'lsa kerak [4; 190]. Xalq amaliy san'ati, uning turlari va kashtachilik san'ati tarixini o'rgatish ham bolalar tarbiyasida muhim omillardan hisoblanadi.

Binobarin, qoraqalpoq xalqining ko'p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san'ati madaniy merosimizning asosiy qismini tashkil etadi. Qoraqalpoq diyorida vujudga kelib, gullab – yashnagan amaliy san'at turlari bemsil va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bu taraqqiyot bosqichi haqida fikr yuritir ekanmiz, amaliy bezak san'atining kelib chiqishi insoniyatning ilk davri, ya'ni ibtidoiy jamoa davriga borib taqalishining guvohi bo'lamiz. Yaqin o'tmishda amaliy bezak san'atining eng rivojlangan kashtachilik, ganchkorlik, tosh va suyak o'ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, bo'yrachilik, zargarlik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, kigizchilik, savatchilik kabi turlarining o'ziga xos bajarish texnologiyalari, haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, bu san'atlarga xos maktablar, uslublar hamda shu sohalarida nom qozongan ustalarning xizmatlari butun jahonga dong'i ketgan.

O'rta Ociyo kashtachilik san'ati qadimdan dunyoga mashhur. O'tmishda ota-bobolarimiz tomonidan matolarga bitilgan go'zallik hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo'qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan kashtalar hozirgacha bizni hayratga solib kelmoqda. Kashta arabcha so'z bo'lib, tasvir, gul degan ma'noni bildiradi. U qush, hayvonot, o'simlik dunyosi, geometrik va boshqa turli shakllarning ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir. Badiiy kashtachilik ranglarning uyg'unligida va o'ziga xos kompozitsiyalarda go'zallik yaratish san'ati. Hunarmand usta o'z ishida ranglarning tabiiy jilosidan va uyg'unligidan, bejirim shakldan, material fakturasidan mohirlik bilan foydalanib, yorqin ifodalilikka erishadi. Ota-bobolarimiz qadimda matolarni nafis tasvirlar bilan bezar ekanlar, ular orqali o'z orzu-umidlarini, muhabbatlarini, tilaklarini tasvirlaganlar. Hunarmand ota-bobolarimiz inson ruhiyatini juda chuqur va har taraflama o'rganib, ularni ajoyib kashtalar bilan boyitganlar. Donishmand bobolar kashtalar bilan

bezalgan uyda kishilar xotirjam, osoyishtalik og‘ushida bo‘lishini, bunday muhitda inson uzoq umr ko‘rishini asrlar davomida o‘z hayotiy tajribalari asosida isbotlab berganlar.

Xalq amaliy san‘atining qaysi bir turi bo‘lmasin, uning zaminida kashta elementlaridan tuzilgan kompozitsiya yotadi. Kashta kompozitsiyasining bezak elementlari esa tabiatda uchrovchi gul, novda, barg, parranda va hayvonot dunyosini soddalashtirib tasvirlash bilan hosil qilinadi. Har bir vo‘ha va shaharlarning kashta kompozitsiyalari o‘ziga xosligi bilan bir-biridan ajralib turadi. Mustaqil kompozitsiya tuzish jarayonida stilizatsiya orqali kashta elementlari o‘zaro biriktiriladi. Kashta bo‘laklarining vazifalari va ravon chizilishiga e‘tibor beriladi. Gul, barg, novda va qo‘sh bandlik kashta elementlaridan kompozitsiya tuziladi. Odamzod bir umr zarur bo‘ladigan tabiiy ko‘nikma va xususiyatlar, masalan, har qaysi bolaning o‘ziga xos va o‘ziga mos qobiliyati, atrofdagi odamlar bilan muomalasi, tengdoshlari orasida o‘zini qanday his qilishi, yetakchilik xislatlariga ega bo‘lishi yoki bo‘lmasligi, kerak bo‘lsa, dunyoqarashi – bularning barchasi eng avvalo uning tug‘ma tabiati, shu bilan birga, oilada oladigan tarbiyasiga uzviy bog‘liq ekanini hayot tajribasi ko‘p misollarda tasdiqlab beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev fikrlaridan kelib chiqqan holda, bolalarga yoshlik chog‘idanoq xalq amaliy bezak san‘atiga bo‘lgan qiziqishini shakllantirish maqsadida dasturlar tuzish, mashg‘ulotlar o‘tkazish, kashtali rasmlar chizish kitobchalarini tayyorlashlari maqsadga muvofiq. Xullas, oilada bolalar kashtachilik san‘atiga oid tushunchalariga ega bo‘lishlari va mashg‘ulotlar jarayonida dastlabki ko‘nikma va malakalar shakllanishi muhim hisoblanadi [1; 167].

Keyingi vaqtda axborot texnologiyalarining ta‘lim-tarbiya jarayoniga keng tatbiq qilinishi, ta‘lim mazmunini boyitishga, uni takomillashtirishga va talabalar bilimini o‘zlashtirishda jadallashtirish, hamkorlik hamda yakka tartibda ta‘lim olish va ta‘limni kompleks loyihalashtirish muammolarini yechishga qaratilgan. Bu esa barcha texnologiyalarni qamrab olgan va amaliy qo‘llashga yo‘naltirilgan yangi avlod darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratishni taqazo etadi.

Talabalarining xalq hunarmandchiligiga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirishda shu soha bo‘yicha o‘tkaziladigan turli ko‘rgazmalar va unda o‘zlari yaratgan turli mavzudagi ijodiy ishlari bilan muntazam ishtirok etishlari, ularning yuqori ko‘nikma va malakaga ega bo‘lganliklarini ko‘rsatadi. Ularning turli ko‘rgazma va tanlovlarda qatnashishlari bois ma‘naviy ozuqa oladilar, hamda bilimlarini yanada chuqurlashtirishlari uchun shu soha bo‘yicha mamlakatimizdagi talabalarga xalq hunarmandchiligi sirlarini o‘rgatishda kashtachilikdagi naqsh unsurlari va bezak buyumlari turlari haqida ma‘lumot berish alohida ahamiyatga ega. Ma‘lumki, har kanday naqsh buyumlarni, ya‘ni idish-tovoq, kiyim-kechak, gazmol, bino, xiyobon va shu singarilarni bezashda qo‘llaniladi. Naqshni chizishda, asosan ikki shakldan: tabiiy va geometrik shakllardan foydalaniladi. O‘simliklar, hayvonlar va kushlar naqsh san‘atining tasvir ob‘yektidir. Barg, lola, qalampir, atirgul, paxta, anor, nok, tuxum, uzum, tovu, kabutar, sichqon, kapalak, tulki, toshbaqa, qush, sher, g‘oz, baliq, qo‘ng‘iz, samovar, choynak, telefon, yulduz, chovgum va boshqa buyumlarning qo‘rinishi naqshga asos qilib olinishi mumkin.

Har bir xalqning o‘ziga xos urf-odatlar va xususiyatlari bo‘ladi. Chunonchi, ukrain xalq naqshlarida ko‘proq kungaboqar, xo‘rsa, qush, bug‘doy va boshqa narsalarning ko‘rinishlari aks etadi. Qoraqalpoq, qirg‘iz va qozoq naqshlarida esa shoxli hayvonlar va ularning shoxlari, o‘tovlar tasvir chiziladi. Tojik xalq naqshlarida lola, bodom, har xil gullar; turkman xalq naqshlarida esa echki kallasi, uzum tanasi, qushlar ko‘p tasvirlanadi. O‘zbek xalq naqshlarida tipik unsurlar sifatida yaproq, gul, g‘uncha, kurtak, lola, qalampir, anor, anor bargi, nok, ko‘p bargli gul va boshqalar ifodalanadi. Talabalar xalq amaliy san‘atining asosini kashtachilik tashkil etishi, qadimgi Sharq me‘morchilik san‘atining betakror kompozitsiyalari, ganch, yog‘och o‘ymakorligi va amaliy san‘atning boshqa turlarida kashta kompozitsiyalari o‘zining chiroyi, go‘zalligi va nafisligi bilan butun dunyoga mashhurligi haqidagi ma‘lumotga ega bo‘ladilar.

Kashtachilikning asosiy prinsiplari – uyg‘unlik, mutanosiblik, kolorit va usullarning vujudga kelishi tarixi va ularning ahamiyati bilan tanishadilar. Kashtachilik an‘analari (san‘atning ana shu turini o‘rgatish metodlari sifatida ham), unda rangning tabiiy jilosi, bejirim shakli, oliy namunalari boy ijodiy fantaziyasi haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar [6; 99]. Talabalarining amaliy va badiiy bezak san‘atiga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishda va takomillashtirishda quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: OTMlarining DTS, namunaviy o‘quv rejalari va dasturlarida ta‘lim oluvchilarga amaliy va badiiy bezak san‘atini o‘rgatishning turli usullari, o‘qitishning samarali yo‘llarini rivojlantirish to‘g‘risida ma‘lumot berish; amaliy va badiiy bezak san‘atidan dars beruvchi mutaxassis professor-o‘qituvchilarning kasbiy bilimlari bo‘yicha axborot texnologiyalari asosida malaka oshirishini tashkil etish; respublikada tasviriy va amaliy san‘at turlari bo‘yicha turli tanlovlarning yuqori saviyada o‘tkazilishini va ularda talabalarining ishtirokini ta‘minlash lozim. Qoraqalpoqcha kashta tikish hunari xalq mohirligining namunalariidan biri sanaladi. Ayrim kiyimdagi naqsh turlari boshqa xalqlarda uchramaydi.

Ta‘lim muassasalarida milliy qadriyatlarimiz talabalarining faoliyatini to‘g‘ri tashkil etishda, oiladagi ijodiy muhit, yoshlarni ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelgan xalq amaliy san‘atining xaqiqiy davomchilari qilib tarbiyalashda, hayotga to‘g‘ri yo‘naltirilishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Zero, bugun hech kimga sir emaski, biz yashayotgan XXI asr – intellektual boylik hukmronlik qiladigan asr. Kimki bu haqiqatni o‘z vaqtida anglab olmasa, intellektual boylikka intilish har qaysi millat va davlat uchun kundalik hayot mazmuniga aylanmasa, bunday davlat jahon taraqqiyoti yo‘lidan chetda qolib ketishi muqarrar.

Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadi, talaba qizlarda qoraqalpoq xalq hunarmandchiligiga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali rivojlantirishda texnologiya ta‘limining uzluksizligi, tabaqalashtirilishi, talaba-qizlarning individual imkoniyatlari, iqtidori va ijodkorligini hisobga olish kasbiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. O‘quv-bilish faoliyati ilmiylik, izchillik, nazariy va amaliy birligi kabi tushunchalar asosida rivojlantirildi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 17 ноябрдаги “Хунармандчиликни ривожлантириш ва хунармандларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-5242-сон Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 20.11.2017 й., 06/17/5242/0280-сон.
2. Абдимуратов П.С. Каракалпакские народные традиции в нравственном воспитании старшеклассников: Автореф. дис.... канд. пед. наук. – Ташкент: УзНИИПН, 1998. – 22 с.
3. Алеуов У. Каракалпак халкының этнопедагогикасы. – Нөкис: Билим, 1994. – 56 б.
4. Алламуратов А. Каракалпакская народная вышивка. – Нукус: Билим, 1997. – 134 с.
5. Асаматдинова Ж. Технологии формирования ценностной ориентации учащихся на основе их нравственно-эстетического воспитания. Монография. – Ташкент: «Fan va texnologiya», 2016. – 168 с.
6. Богословская И.В. Қорақалпоқ безак нақшларидаги сирли хатлар. // Санъат. – Тошкент, 2008. – № 2. – Б.8-10.
7. Булатов С.С., Салимов С.С., Мухторов А.Т. Шердор мадрасаси безакларининг сирли олами. – Т: “Талкин” нашриёти, 2007. – 178 б.

Annotatsiya: Maqolada qoraqalpoq xalq pedagogikasi asosida o'quvchilarning ekologik ta'limini rivojlantirishning mazmuni, texnologiyasi, usullari va metodikasiga yangicha yondashuv haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, ekologiya, axloq, estetika, shaxs, model, o'z-o'zini anglash

Аннотация: В статье рассказывается о новом подходе к содержанию, технологии, методам и методике развития экологического образования учащихся на основе каракалпакской народной педагогики.

Ключевые слова: образование, воспитание, экология, мораль, эстетика, личность, модель, самопознание

Abstract: The article talks about a new approach to the content, technology, methods and methodology for the development of environmental education for students based on Karakalpak folk pedagogy

Key words: education, upbringing, ecology, morality, aesthetics, personality, model, self knowledge

UDK: 371.036:17.02

YOSHLARNI AXLOQIY-ESTETIK TARBİYALASHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Abdimuratov J.

Qorqalpoq davlat universiteti

Kirish. Xalqimizning yuksak axloqiy fazilatlarini yosh avlod qalbiga singdirish bugungi kunda tobora muhim ahamiyat kasb etayotir. Yurtboshmizning asarlarida, nutqlarida, xalq talimiga oid rasmiy hujjatlarda bu fikr qayta-qayta takidlanayotganligi bejiz amas. Masalaning bunday dolzarbligi o'qituvchilar jumladan, psixologiya fani o'qituvchilarining ham zimmasiga yoshlarni yuksak manaviyat ruhida tarbiyalash uchun har tomonlama malakali tayyorlanish vazifasini yuklaydi[1]. Ana shunday tarbiya milliy mentalitet va talimning milliy modeli talablariga hamohang bo'lganligi bois talim tizimining barcha bosqichlarida e'shlarni o'zini-o'zi anglash va boshqarishning psixologik mag'zi mustahkam manaviy etiqodni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Ysh avlod turli faoliyat jara'ida tarkib topadi. Zotan, o'quvchining faoliyati juda maroqli, o'ziga xos go'zal va shakl jihatidan rang-barang. Maroqli va manaviy zavq beruvchi ana shu go'zal tuygu o'quvchilar nafas tarbiyasiga kuchli tasir ko'rsatadi. Binobarin, bolada namo'en bo'ladigan o'z-o'zini anglash, estetik tarbiya muhim manaviy go'zallikka puxta zamin hozirlaydi. O'spirinlik davrida o'quvchilar uchun eng muhimi ularning manaviy jihatdan kamolotga intilishining kuchayishidir. Chunki voqelikka, kishilarga munosabat chuqur ichki manaviy intilish orqali sodir bo'ladi. O'zining ichki dunyosini anglash, yoshlarda quvonch bilan birga ko'p tashvish va ichki kechinmalarni ham keltirib chiqarishi haqiqatdan uzoq emas. Bunda asosiy ziddiyat ichki manaviy dun'e «men» bilan, tashqi xulq atvor me'rlarining bir-biriga mos kelmasligidadir. Bu esa yoshlarda o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini nazorat qilishning kuchayishi bilan xarakterlanadi.

doimo rivojlanib borgan. Qadimgi davrlarda va o'rta asrlarda ham xuddi "Avesto"da tasvirlanganidek jazo o'zining shafqatsizligi bilan ajralib turadi. Masalan, Ahamoniylar davrida eng ko'p jazo turlari jismoniy jazolardan iborat edi. Qattiq jazolardan foydalanilgan - tanani tamg'alash, tanani shikastlash, aybdorni tanasining yoki boshqa a'zolarining u yoki bu qismidan mahrum qilish, ko'rish qobiliyatini yo'qotish va boshqalar. Jismoniy jazo ko'pincha turli xil qurollar (aspaxix-ashatra, saravush-charana), turli xil kuchdagi zarbalar (asosan, ikki xil qurol bilan o'ndan ming martagacha), qo'llanilgan bo'lib, jazoning maqsadi aybni ruhan tozalashdan iborat deb hisoblangan [3.].

Ular inson hayoti, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi, shoh va uning atrofida qilargalarga qarshi va boshqalarga qarshi juda og'ir jinoyatlar sodir etishda qo'llanilgan [4.25]. Ayni chog'da, o'sha davridayoq qo'llanilgan ba'zi jazolar jinoyatchini tuzatish va tarbiyalash xususiyati (maqsadi)ga ega edi. Masalan, podshohga yaqin odamlar ro'yxatidan ma'lum inson ismini olib tashlash, yashash joyidan haydash, jarima, ba'zi jismoniy jazolar va boshqalar [5.301-304].

Tadqiqotchilar ushbu davrda qo'llanilgan jazo turlarini turlicha tasniflaydi. A.G. Perixanyan ushbu davrdagi jazo tizimini quyidagi asosiy turlarga ajratadi: a) jismoniy jazolar; b) mol-mulkni to'lash orqali aybini qoplash; v) ishlab to'lash (dala ishlarini jazo sifatida tayinlash); fuqarolikdan chetlatish [6.27]. A.G. Xoliqov jazolarni quyidagi guruhlarga ajratadi: a) jismoniy jazo (qamchi, tayoq bilan urish); b) jarima; v) axloq tuzatish ishlari (jinoyatchini yovuz kuchlar, jonzotlar bilan kurashda va xayrli ishlarga xizmat qilishda ishtirok etishi); g) ozodlikni cheklash (qamoq, qullik va boshqalar); d) muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum etish (masalan, tibbiy faoliyat); ye) o'lim jazosi - "margarzan", "peshutanu", "tanafuhr" [7.361-362].

Jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar shaxsning ijtimoiy mavqeiga (erkin yoki qul), jinsga va boshqalarga qarab qo'llanilgan. Bundan tashqari, jazo belgilariga ega bo'lgan ko'plab sinov turlari qo'llanilgan. Masalan, aybini isbotlash uchun aybdor shaxs maxsus ichimliklar ichishga majbur bo'lib, bu odatda odam o'limi bilan tugagan. Jazolar jismoniy, mulkiy va diniy-marosim xarakteriga ega bo'lgan. Aytish joizki, «Avesto»da jinoyatlarga beriladigan jazo yoki ularni har xil majburiyat hamda jarimalar bilan almashtirishning aniq me'yori yoxud mezonlari belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari, xususiy tusdagi jinoyat, masalan, badanga shikast yetkazish jinoyati uchun jabrlanuvchi yoki uning qarindoshlari aybdor shaxsni kechirishlari ham mumkin edi [8.].

Jarima shaklidagi jazolar deyarli barcha turdagi huquqbuzarliklar, shu jumladan jinoyatlar uchun ham tayinlangan. Avesto normalardan birida hatto, jismoniy yoki boshqa jazo turlari bilan bir qatorda, asosiy yoki qo'shimcha jazo sifatida aybdorni jarima va tovon to'lash belgilangan. Masalan, unda inson salomatligiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik ko'zda tutilgan. Keyingi davrlarda pul munosabatlarining rivojlanishi bilan jarima ayniqsa keng qo'llaniladigan jazo turiga aylanadi. U deyarli barcha turdagi jinoyatlar uchun ishlatilgan. Jarima miqdori sodir etilgan jinoyatning og'irligi va qo'riqlanadigan ob'ektning ahamiyatiga bog'liq edi. Masalan, voyaga yetmaganni zo'rlash uchun 600 ta draxma, boshqa bironing rafiqasi bilan zino qilish uchun 300 sater va hk.

Jamiyat va davlat rivojlanishi bilan jazolash tizimi va uni qo'llash shakllari va usullari ham rivojlangan. Shafqatsiz va g'ayriinsoniy qo'llanish shakllariga ega bo'lgan arxaik jazo turlari sezilarli darajada kamaytirilgan. Buning o'rniga moddiy, jismoniy va psixologik xarakterdagi jazolar qo'llanila boshlanadi. Bularga jarima, tovon to'lash, majburiy axloq tuzatish ishlari va boshqalar kiradi.

Jumladan, O'zbekiston hududidagi qadimgi davlatlarda, ayniqsa Avesto diniy-huquqiy me'yorlariga ko'ra, majburiy mehnat, axloqni tuzatuvchi mehnat shaklidagi jazolar keng qo'llanilgan. Masalan, ba'zi bir gunohda aybdor bo'lgan shaxs davlat yoki diniy tashkilot yerlarida axloq tuzatish ishlari shaklida jazolanishi mumkin edi. Shuningdek, ular bunday odamlarning mehnatidan jamoat yerlarida foydalanishgan, yerni harom narsalarni, o'lik odamlar va hayvonlarning jasadlarini tozalash, muqaddas olov uchun o'tin yig'ish, kanallarni qazish, ularni sug'orish va h.k. ishlarda foydalanilgan. Bunday jazolar asosan diniy va ekologik me'yorlarga rioya qilmaslik uchun qo'llanilgan.

Eng yengil huquqbuzarlik uchun jazo uchta qamchi bo'lgan, bu bitta qo'y narxida jarima belgilashga tengdir. Xuddi shu o'lehov, mehnatga haq to'lashda, qishloq xo'jaligi ishlarining bir kuniga teng bo'lgan.

Ta'kidlanganidek, majburiy ishlab berish shaklidagi jazo, birinchi navbatda, otash ibodatxonasi foydasiga amalga oshirilgan. Masalan, mahkum 10 ming uyum quruq va toza o'tin va 10 ming uyum xushbo'y o'tinni ibodatxonaga olib kelish majburiyati yuklangan. Shuningdek, otash ibodatxonasi foydasiga zarur bo'lgan uy-ro'zg'or buyumlarini - supurgi, bolta, idish-tovoqlarni va boshqalarni berishi kerak bo'lgan, askarlarga kiyim-kechak va harbiy qurollarni, zarur bo'lgan asbob-uskunalarini berishga majbur edi. Bunday jinoyatni sodir etganliklari uchun mahkumlar qishloq xo'jaligi foydasiga itning balandligi va kengligi bilan kanal qazishga, shuningdek, odamlarning o'tishlari uchun soy va kanallarda 14 ko'priq qurishga majbur bo'lgan. Undan uylar va hayvonlarga mo'ljallangan boshpanalarni qurish ham talab qilingan. U 14 ta kuchukchani boqish, teri kasalliklarini davolash va 18 ta itning jasadini hasharotlardan tozalash va h.k. Ushbu jinoyatda ayblanayotgan shaxs 10 ming zararli hayvonlar va hasharotlarni o'ldirishga majbur bo'lgan, ular orasida bo'ri, shoqol, sichqon, kalamush, ilon, toshbaqa, chayon, o'rgimchak, chivin va boshqalar bo'lgan [7, 351-354]. Xullas, Avesto va boshqa qonun manbalarida majburiy mehnatga jalb etish tarzidagi jazo ko'zda tutilgan va uning turli shakllari jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan keng qo'llanilgan.

Mohiyatan ozodlikni cheklashga o'xshash jazo ham ancha keng qo'llanilgan. Tarixda O'zbekiston hududida zardushtiylik qonunining butun davrida shaxs erkin yurishini cheklovchi jinoyat-huquqiy xarakterga ega bo'lgan chora sifatida qo'llanilgan va u meros tariqasida keyingi huquqiy tizimlarga o'tib ketgan.

Ushbu turdagi jazoning o'ziga xos xususiyati shundaki, jinoiy qilmish sodir etganlikda aybdor bo'lgan yoki o'sha davrning mulohazalari va dunyoqarashiga binoan ijtimoiy xavfli deb topilgan shaxsга nisbatan ijtimoiy va davlat majburlash choralari qo'llanilib, ular ko'pincha cheklash xususiyatiga ega edi. Masalan, Avesto va zardushtiylik davri davlatlari qonunlarining boshqa manbalarida hayz paytidagi ayolga muqaddas olovga yaqinlashish, suvga va sug'oriladigan yerlarga, boshqa toza joylarga borish taqiqlangan. Bunday holatda bo'lgan ayol "armesht", uni

saqlanadigan joy "armeshtgoh" yoki "armeshtgos" deb nomlangan. U to'liq tiklanishigacha u joyda bo'lishi kerak edi [9.42-43]. Shuningdek, o'liklarning jasadini bir kishiga mustaqil ravishda va boshqalarning yordamisiz daxmaga olib borish taqiqlangan edi, chunki u jasadni ko'chirish paytida yuqishi, harom bo'lib qolishi va jamiyatning boshqa a'zolariga yuqishi mumkin. Agar biror kishi, barcha taqiqlarga qaramay, bunday qilmishni sodir etgan bo'lsa, demak, uning harakati va ba'zi joylarda bo'lishi cheklangan.

Ba'zi urf-odatlarini sodir etish yoki diniy marosimlarni bajarishdan bosh tortish uchun ba'zan inson huquqlari va erkinliklari cheklangan. Masalan, agar kishi yillik diniy qurbonlikda o'z ulushini qo'shishdan bosh tortsa, demak, bu diniy marosimlarda qatnashishdan mahrum qilish uchun asos bo'lgan. Xuddi shu xatti-harakatni takroran sodir etganida uning protsessual huquqiy layoqati cheklangan, keyin yangi takrorlangan taqdirda chorva mollari musodara qilingan, keyinchalik mulkiy huquqlari cheklangan - u oilaning mulkida o'z ulushiga ega bo'lish huquqini yo'qotgan. Bunday xatti-harakatlar uchun jazoning so'nggi bosqichi o'lim jazosini qo'llash yoki jamoadan chiqarib yuborishdan iborat edi.

Jamoadan haydash va surgun qilish qadimgi davlatlar, ayniqsa zardushtiylik davri jinoyat huquqida asosiy jazo turlaridan biri sifatida qaralgan. Ular dinga qarshi jinoyat sodir etgan, qabila va jamoat qoidalarini buzgan va boshqa turdagi xatti-harakatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilgan. U mol-mulkni musodara qilish, jarimalar va jismoniy jazo kabi jazolar bilan birgalikda qo'llanilgan. Bunday jazolar yillik qurbonlikda qatnashishdan bosh tortganlik uchun qo'llanilgan. Agar biror kishi yillik qurbonlikdan oltinchi marta o'z hissasini qo'shishdan bosh tortsa, u holda uning aybi "o'ta yuqori ayb"ga tenglashtirilib, huquqbuzar jamoadan chetlashtirilib, bu fuqarolik layoqatining to'liq yo'qolishiga olib kelgan. Sosoniylar davrida, agar u o'ta og'ir jinoyat sodir etgan bo'lsa, u jamoadan chiqarib yuborilgan, bu ham ushbu shaxs tomonidan har qanday fuqarolik huquqiy layoqatini yo'qotishiga asos bo'lgan.

Bunday jazo oila va jamiyatga qarshi jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan ham qo'llanilgan. Masalan, oilasini qarovsiz qoldirish, erini aldash yoki turmushga chiqmagan qiz tomonidan zino qilish, qotillik. Ko'pincha bu qilmishlar sharmandali xarakterga ega bo'lgan. Ko'pgina hollarda, zino oilada va jamiyatda o'z o'rmini yo'qotishiga olib kelgan.

Ba'zi jinoyat harakatlarni sodir etish uchun jazo mol-mulkni musodara qilish shaklida bo'lgan. Asosan, bu oilani vasiysiz qoldirish, mulkka qarshi jinoyat sodir etish uchun tayinlangan. Mulkni musodara qilish tarzidagi jazo sehrgarlik bilan shug'ullangan shaxslarga ham qo'llanildi. U ham asosiy, ham qo'shimcha jazo sifatida qo'llanilgan.

Shuningdek, zardushtiylik jinoyat qonunchiligining diniy va huquqiy normalari va tarixiy O'zbekiston hududida amalda bo'lgan boshqa normalarda, inson hayoti va sog'lig'ini saqlash, jamoat tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash uchun muayyan faoliyat bilan shug'ullanish yoki ma'lum bir lavozimni egallash huquqidan mahrum etish shaklida jazolash ko'zda tutilgan. Masalan, bunday jazo davolanishi natijasida odam o'limi yoki boshqa kasallikka sabab bo'lgan shifokorga nisbatan qo'llanilishi mumkin edi [10.569].

ADABIYOTLAR

1. Бобоев Х., Хасанов С. "Авесто" - маънавиятимиз сарчашмаси. - Т.: "Адолат", 2001 - 160 б.; Очилов Ж. А. Шарк ва Фарб цивилизацияси интеграциясининг инсоният маънавий-маданий муносабатлари глобаллашувига таъсири // Бердак номидаги Қорақалпоқ давлат университетининг ахборотномаси - № 4 (37) - 2017. - Б.95
2. Р. Икрамов, Б. Сапаров, А. Сапаров. Авестода ҳуқуқий қарашлар. Academic research in educational sciences VOLUME 2 | ISSUE 5 | 2021. - Б.807-814; А.Э.Абдусамедов. Динлар тарихи. - Тошкент, 2010. - Б.37.
3. Р. Рахмонов. «Авеста» – великий историко-правовой источник // <https://cyberleninka.ru/article/n/avesta-velikiy-istoriko-pravovoy-istochnik>
4. М. Тургунов. Авестода инсон ҳуқуқларини ўрганишнинг методологик муаммолари // юрид. фанлар доктори (DSc) дисс. автореферати. - Т.2021 - Б.25.
5. Б.Б.Сапаров, А.Б.Сапаров. Авестода одоб-ахлоқ масаласи // Academic research in educational sciences VOLUME 1 | ISSUE 3 | 2020 - Б.895-902; Халиков А.Г. Правовая система зороастризма. - М., 2004, С. 301-304;
6. Ахмадпур, Айуб. Незам-и кадайи-и Иран дар ахд-и бостон. = [Судебная система Древнего Ирана] // Изд. Ун-та им. Шахида Бахонара. - Керман, 1388х./2010. - № 15. - Б. 27.
7. Халиков А.Г. Правовая система зороастризма. М.ИГИПАН РФ - С. 361-362., 351-354.
8. Абзалова Х. Уголовная ответственность за убийство в Авесте. https://uzjournals.edu.uz/rev_law/vol4/iss1/2
9. Шокиров Т.С. Ўша асарда - Б. 42-43.
10. Авеста. Кн. 1. Душанбе, 2014. - Б. 569.

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston xududida zardushtiylikning muhaddas kitobi Avestoda ozodlikdan mahrum qilishga muqobil jazolarga oid normalarning qo'llanilishi va rivojlanish tarixi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: jinoyatchilik, voyaga etmaganlar, ozodlikdan mahrum qilish, Avesto, jazo, jazo turlari.

Аннотация. В статье анализируется история применения и развития норм, касающихся наказаний, альтернативных лишению свободы, в священной книге зороастризма "Авеста" на территории Узбекистана.

Ключевые слова: преступность, несовершеннолетние, лишение свободы, Авеста, наказание, виды наказаний.

Annotation. The article analyzes the history of the application and development of norms regarding alternative punishments to imprisonment in the Avesta, the holy book of Zoroastrianism in the territory of Uzbekistan.

Key words: criminality, juvenile delinquency, imprisonment, Avesta, punishment, types of punishment

“ҚАРАҚАЛПАҚ ЖАСЛАРЫ” ТҮСИНИГИНИНГ ҚӘЛИПЛЕСИҲ ХӘМ РАЎАЖЛАНЫҲ БАСҚЫШЛАРЫ

Усенов Ж.

Нөкис мәмлекетлик педагогикалық институты

“Қарақалпақ жаслары” деген түсиник қашан қәлиплескен? Қарақалпақ жаслары өтмиште қандай болған? Олар қандай жәмийетлик-сиясий ўақыяларға қатнасқан? Булар ҳаққында пикир билдириў әҳмийетли. Бизин

жеке пикиримиз бойынша, каракалпак жасларын дәуірлестиріп алған мақұл хәм бул тарийхый дәуірди тийкарынан 3 басқышқа бөліўге болады:

1. Каракалпак халқы өз алдына миллет сыпатында қәлиплесип, “каракалпак” атағын алғаннан кейинги дәуірдеги каракалпак жаслары.

2. Кеңес хукимети дәуіріндеги каракалпак жаслары.

3. Ғәрезсизлик дәуіріндеги каракалпак жаслары.

Бурынғы илимий әдебиетларда тарийхшы П.П.Ивановтың каракалпаклар өз аты менен шығыс дереклеринде 1598-жылдан бурын ушыраспайды, деген 60 жылдай даўам еткен концепциясы бар еди. Бирақ, шығыстың белгили изертлеўшиси, академик Б.Ахмедов өзиниң мийнетинде каракалпаклардың 1578-1582-жыллары Бухара ханлығындағы сиясий гүреслерге белсене қатнасканлығын көрсетеди[1]. “Бул жыл сәнеси (1578-жыл) оғада үлкен әхмийетке ийе. Ол биринши жағынан каракалпаклардың Ноғай ханлығынан, ондағы 1557-1558-жыллардағы ўақыялардан соң, кешикпей Сырдарья бойларына келгенлигин көрсетеди. Екинши жағынан, ол П.П.Ивановтың каракалпаклар өз аты менен 1598-жылы пайда болды, деген пикирине өзгерис киргизеди. Бул тарийх илиминдеги үлкен жаңалық”[2]. Демек, каракалпаклар 1578-жылы өз алдына халық сыпатында қәлиплести. Олай болса, усы дәуірден баслап каракалпак жасларының жәмийетлик-социаллық турмыстағы белсендилигин үйрениў үлкен әхмийетке ийе.

Бул дәуірлерде “каракалпак жаслары” деген атама илимий мийнетлерде ушыраспайды. Бирақ, бул жас категориясына байланыслы халықтың миллий психологиясында, халық аўызеки дәретиўшилигинде сақланып киятырған пикирлер бар. Мысалы, каракалпакларда “Он төртте отаў ийеси” деген ибара бар. Бул сөз тегинге айтылмаған. Оның илимий тийкарлары болыўы керек. Халқымыз тийкарсыз хеш нәрсе айтпайды. Мысалы, каракалпак халық дәстанларында батырлар жас жигит ўақтында көплеген қахарманлық ислерди әмелге асырғанлығы сүүретленеди. Мысалы ушын, “Қоблан” дәстанында Қоблан 11 жасында атқа минип, жаў-жарак асынып халыққа зыян келтирип атырған дәўлерге қарсы урысқа атланады. Ал, “Алпамыс” дәстанында Алпамыс 14 жасында Байшубардың белине минип, жат журтлы болып кеткен Гүлпаршынды өз елине алып қайтыў ушын Тайшыхан журтына атланады хәм көплеген батырлық хәм қахарманлық ислери менен журтты хайран қалдырады. Жазыўшы К.Мәмбетовтың “Посқан ел” роман-трилогиясында каракалпаклардың биринши аға бийи Ормамбет бий он төрт жасында жолбарыс аўлайды, найзасы менен хеш қорықтастан жолбарысты шаншып өлтиреди. Жазыўшы Т.Қайыпбергенновтың “Қаракалпак дәстаны” роман эпопеясында Маман бий, Айдос баба хәм Ерназар Алакөздің жас жигит ўақтынан баслап-ақ өзлериниң ақыллылығы, даналығы, зийреклиги хәм батырлығы менен көзге түсип, жәмийетлик-сиясий ўақыяларға белсене қатнасканлығы ҳаққында көплеп жақсы мағлыўматлар келтирилген. Мәселен, “Маман бий әпсанасы” китабында Ғайып ханның бийлерди хәм халықты жыйнап жаслар менен сораў-жуўап өткерийи, онда хан хәм бийлер тәрәпинен берилген сораўларға каракалпак жасларының берген жуўаплары сүүретленген эпизод бар. Хан ким берилген сораўларға дурыс хәм терең ақыл менен жуўап берсе, сол мениң ақылғөйим болады, оған дана деген титул беремиз дейди. Сонда берилген барлық сораўларға жас жигитлер арасынан Маман жақсы жуўап береді. Мысалы, “Иши дәртли адамды қалай билсе болады?” – деген сораўға жыйналған жас жигитлердің хеш бири жуўап бере алмай қыйналып атырған ўақытта Маман — Ханымыз, — деп ол әдетинше ханға келип тәжим етип жуўабын баслады. — Адамның ишки дәртин еки мүшесинен көрсе болады. Биреўи тил, екиншиси көз. Дәрт тилге урса көп сөйлейди, көзге урса жылайды.

— Таптың, бала[3].

Солай етип, бул жарыста Маман жеңимпаз болады. Хан Маманның мойнына бий белбеўин байлады. «Мениң кеңесгөйим, атшабар баҳадырым боласан», — деди.

Маман жас болыўына карамастан уллы бий болып, өзиниң даналығы хәм мәртлиги менен халық арасында кеңнен танылады. Оның шарапаты арқасында рус халқы менен мың жыллар бурын дүзилген, кейин ала түрли сиясий ойындар ақыбетинде үзиліп қалған дипломатиялық қатнасықлар қайта тикленеди. “Усылайынша 1743-жылдың март айының екинши ярымында, көп қоныстан айдалып, самал ушырған жапырақтай паян таппаған, каракалпак халқының уллы үмити қағазға түсип, бир баҳадыр улы Маманның қолында, орыс патшасына — Санкт-Петербургқа кетти...”[4]. Маман бий – тарийхый шахс, каракалпаклардың аға бийи болған адам. Ол туўралы жоқарыда берилген мағлыўматлар көркем әдебий шығармадан алынған болса да, олардың хәр бириниң астында тарийхый шынлық бар. Мәселен, Маманның басламасы менен каракалпаклар хәм рус мәмлекети арасында қайта тикленген дипломатиялық қатнасықлар шағында еки елдің бир-бирине жазысқан “ахиднама” (ант)лары тарийхый хужжетлер болып есапланады хәм “Маман бий әпсанасы” шығармасында булар тарийхшы С.Камаловтың мийнетлеринен алынғанлығы көрсетиледи[5]. Усы ахиднамалардан бири-ярымын мысал келтиремиз: «...Ошбу антта төбән каракалфак йуртының деңиз элиниң мен Ғайыпхан Әшим хан уғлы бәрчә меним руғым бирлә хәм қолым астындағы кишилерим илә ант ичтим хәм қуран шәрийфни офтум хәм инанмақ учун мен Ғайып хан бәрча қолум астындағылар учун мөхрүм бастум. Мен Әшнийаз ахун Ғайыпхан әмири илә йаздым хәм қолум қойдум»[6].

Т.Қайыпбергенновтың “Түсиниксизлер” романында Маман, Айдос бийлерден соң каракалпакларға аға бий болған Ерназар Алакөздің өмири, жас өспиримлик дәуири хәм ел ағасы болған жыллары сүүретленген. Ерназар жас ўақтынан ири денели, палўан, ақыллы жигит болып өседі. Ерназардың анасы Қумар аналық баласын жаслайыннан Маман бий хәм Айдос бабадан қалған туўды (еркинлик туўы) қайта тиклеў руўхында тәрбиялайды. Ерназар да соған ылайық болып өседі. Ол халық арасында бурыннан бар, бирақ, кейин ала умытылып кеткен “Аға бий” ойынын қайта тиклейди. Бул ойынның шәрти бойынша оған бир басшы сайланады, ол “аға бий”

болады, оның қазысы, жасауылары болады. Ойын арқалы жасларды тәртіпке, ел басқаруға үйретеді. Ойын уақытында сондай-ақ, хәр қыйлы ойын-зауықлар болады, жаңылтпашлар, даналықлар айтылады, қыссаханлар қысса оқыйды, шайырлар, баксылар қосық айтады, сазенделер саз шертеді, гүрес тудылады, хәр бир зыяпатта хабаршы белгиленип, ол дүньяда болып атырған жаңалықларды айтады. Усы “аға бий” ойынын Ерназар қайтадан жаңартады, оған өзі басшылық етип, көплеген жигитлерди тәрбиялайды. “Аға бий” ойынында басланған усындай хәрекеттер кейин ала үлкен халықлық мақсетлерге айланады. Жаслайынан дана хәм батыр болып тәрбияланған Ерназар Алакөз 1855-1856-жыллардағы қарақалпақтардың Хийуа ханлығына қарсы азатлық гүресине басшылық етеди. Демек, шаңарақтағы хәм жәмийетлик орталықтағы берилген тәрбия үлкен әхмийетке ийе болады хәм жаслардың кәмил инсан болып жетилисуйинде үлкен роль атқарады. Солай етип, қарақалпақ жасларының бул дәуирдеги жәмийетлик-сиясий уақыяларға араласыуы, халық мәпи ушын ислеген үлгили ислери келешек әуладларға өрнек болады. Демек, алдыңғы дәуірлерден баслап жаслар жәмийеттин келешеге сыпатында тәрбияланған.

1917-жылы Кеңес хукиметинде Комсомол комитети шөлкемлестириледи. Бул жаслар ушын арнаулы шөлкем еди. Сол дәуирдеги басқа союзлық республикалар сыякылы Өзбекстанда да жаслар сиясаты Коммунистлик партияның қадағалауында болған. Комсомол хәм пионер шөлкемлери арқалы жаслар тәрбиясы алып барылған. Жаслар өндиристе, қурылысларда актив қатнасқан.

Кеңес хукимети дәуиринде “қарақалпақ жаслары” деген түсиник өз алдына категория сыпатында қәлиплеспеди. Себеби, ол дәуирде хәзирги ҒМДА мәмлекетлери кеңес аўқамының курамында жасады. Мәмлекетте коммунистлик идеология хуким сүрди. Хәмме республикалар бир байрақ астында жәмлести. Сонлықтан, “қарақалпақ жаслары” деген түсиник “совет жаслары”, “комсомол” деген түсиниклердин кишкене бир бөлеги еди. Жаслар тәрәпинен әмелге асырылған барлық ис-хәрекеттер, олар ерискен жетискенликлер “совет жаслары” деген айдар менен аталды.

Өзбекстан өз ғәрезсизлигине ерискеннен кейин жасларға болған итибар мәмлекетлик сиясат дәрежесине көтерилди. Мәмлекетте жаслардың хуқықлары менен мәплерин қорғау, оларға зәрүр шараятлар менен имканиятларды жаратып бериу бағдарында беккем хуқықый база жаратылған хәм бул система заман талапларына үнлес түрде жетилистирилип барылмақта. Усы жыллар ишинде мәмлекетимизде жаслар сиясатының қәлиплесуу хәм раўажланыу эволюциясын қарастырып көрейик.

1991-жылы 20-ноябрьде мәмлекетимизде биринши қабыл етилген нызам – “Жаслар сиясаты ҳақында”ғы Нызам болды. Оған бола, жас пуқаралардың жас категориясы белгилениуи менен бирге, халықтың усы қатламын хуқықый хәм социаллық қорғау, исбилерменлигин қоллап-қуўатлау және бул бағдарда жуўапкер мәмлекетлик уйымларды белгилеу хәм бағдарламаларын ислеп шығыу мәселелери белгиленди.

Дәслепки институционал дүзилме сыпатында Өзбекстан “Жаслар аўқамы”[7, 82] өз жумысын 1992-1996-жыллар даўамында ағзалыққа тийкарланған төлемлер есабынан жолға қойған. Бирақ, Өзбекстан “Жаслар аўқамы” базар экономикасына өтиу жолында жедел жумыс алып бара алмаған хәм нәтийжеде бул кемшиликлери оның жумысын реформалау мәселесин күн тәртибине қойған. Нәтийжеде, сол дәуирдин базар қатнасықларына сай, жасларды социаллық жақтан қоллап-қуўатлау, оларда исбилерменлик көнликпелерин қәлиплестириу бағдарланған екнши структура – “Камолот” қоры (1996-2001) шөлкемлестирилди хәм жумысының шөлкемлестириу механизмлери белгиленди[8]. Бирақ, бул структура да мәмлекет жасларына жетекшилик етиу, жаслар жумысларын муўапықластыруу, әсиресе, жаслар арасында руўхый-ағартыушылық жумысларын атқару қәбилетине ийе шөлкем дәрежесине көтериле алмады. Усыларды есапқа алған ҳалда Өзбекстан Республикасының Биринши Президенти Ислам Каримов 2001-жылы 24-январьда жаслар мәселелерине бағышланған мәжлисте жаслардың белсендилегин тәмийинлейтуғын, оларды бир мақсет жолында шөлкемлестиретуғын жаңа шөлкем дүзиу идеясын алға қойды. Буның нәтийжесинде пүткиллей жаңа шөлкемлестириушилик хәм функционал жақтан жаңаланған “Камолот” жаслар жәмийетлик хәрекетти (2001-2016) пайда болды[9]. Бирақ, бул структура да жумысындағы айырым кемшиликлери, бар имканиятлардан пайдаланыудағы қыйыншылықлар, ең тийкарғысы, жәмлеспеген жаслар менен ислесуу системасындағы функционал машқалалар себепли заман талабына жуўап бере алмай қалды. Атап айтқанда, Өзбекстан Республикасы Президенти Ш.Мирзиёевтин “Камолот” жаслар жәмийетлик хәрекетинин IV қурылтайындағы шығып сөйлеген сөзинде: “Камолот” пүткил Өзбекстан жасларын бирлестирген, шын мәнисиндеги ғалабалық хәрекетке айлана алмады...”, -[10] деп атап өтти. Жоқарыдағылардың барлығын есапқа алып Өзбекстан жаслар аўқамы (2017) - мәмлекетимизде жаслардың ҳақықый сүйениши хәм таянышы бола алатуғын пүткиллей жаңа шөлкем сыпатында шөлкемлестирилди. Өзбекстан жаслар аўқамының жумысы күтилген нәтийжелерди бермей атырғанлығы, соның ишинде, бул структураның шөлкемлестириушилик-хуқықый жақтан – мәмлекетлик емес коммерциялық емес шөлкем сыпатында тийисли ўәкилликлерге, яғный мәмлекетлик уйымлар қатарында ҳәкимшилик қурааларға ийе емес екенлиги себепли мәмлекетимизде жас әуладты бәркамал етип тәрбиялау, олардың жәмийетлик турмысқа еркин кәдем қойыуы ушын барлық зәрүр шараятларды жаратыуға қаратылған системалы жумысларды әмелге асыруда бир қатар машқалалар, жасларда заманагөй исбилерменлик көнликпелерин қәлиплестириу хәм жаңа жумыс орынларын жаратыу арқалы олардың бәнтлигин тәмийинлеу, жас өспиримлер арасында хуқықбузарлықлар хәм жынаятшылықтың профилактикасын нәтийжели шөлкемлестириу, ажырасулардың алдын алыу, жас әуладта беккем ўатансүйиушилик идеясы хәм қатаң пуқаралық позициясын қәлиплестириу бағдарында бир қатар машқалалар сақланып қалды. Соннан келип шыққан ҳалда Өзбекстанда жасларға байланыслы мәмлекетлик сиясатты жаңа басқышқа алып шығыу, жаслар тараўындағы машқалаларға нәтийжели шешимлер ислеп шығыу, ўәкилликли уйымлардың жумысын нәтийжели

шөлкемлестириў ҳам муўапықластыриў, сондай-ак, Ўзбекистан Республикасы Президентиниң 2019-жыл 27-декабрьдеги мәмлекет жаслары менен ушырасыўында белгиленген ўазыйпаларды әмелге асырыў мақсетинде Ўзбекистан Республикасы Жаслар ислери агентлиги және оның Қарақалпақстан Республикасы, ўәлаятлар, Ташкент қаласы басқармалары ҳам район (қала)лық бөлимлери шөлкемлестирилди.

Ўзбекистанның ғәрезсизликке ерисиўи менен оның қурамындағы суверен Қарақалпақстан Республикасы да өзиниң раўажланыў жолына түсти. Барлық тараўлар түптен жаңалана баслады. Соның қатарында жасларға деген итибар да күшейтилди. Демек, “қарақалпақ жаслары” деген түсиник шын мәнисинде ғәрезсизликтен кейин қәлиплести.

ӘДЕБИЯТЛАР

1. Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии в XVI-XVII вв. Ташкент, Изд. ФАН, 1985, с.65.
2. Камалов С. Қарақалпақлардың халық болып қәлиплесиўи ҳам оның мәмлекетлигиниң тарийхынан. Нөкис, ӨзРИАҚҚБ «Хабаршысы» журналы, 2001, 21-бет.
3. Қайыпбергенов Т. Қарақалпақ дәстаны. Трилогия. Маман бий әпсанасы. Биринши кітап. Нөкис: Билим, 2018. 37-38-бетлер.
4. Қайыпбергенов Т. Қарақалпақ дәстаны. Трилогия. Маман бий әпсанасы. Биринши кітап. Нөкис: Билим, 2018 154-бет.
5. Ахиднама — ант текстлери С. Камаловтың XVIII әсирдеги қарақалпақ-рус қатнасықлары» (1966-ж, Нөкис, «Қарақалпақстан» баспасы) кітабынан алынды.
6. Қайыпбергенов Т. Қарақалпақ дәстаны. Трилогия. Маман бий әпсанасы. Биринши кітап. Нөкис: Билим, 2018. 146-бет.
7. Бўронова Д. “Ўзбекистонда ёшлар сиёсати: бош тамойиллар ва уларнинг моҳияти” – Т.: “Ғофур Ғулом” НМИУ, 2008.
8. Ўзбекистон ёшлариниң жамғармасы “Қамолот” тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентиниң Фармони // Халқ сўзи. 18 апрель 1996 йил.
9. Ўзбекистон Республикаси “Қамолот” ёшлар ижтимоий ҳаракати. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасиниң 2001 йил 30 майдаги 240-сонли қарорига тегишли ҳужжатлар тўплами. –Т.: 2001.
10. Президент Шавкат Мирзиёевниң “Қамолот” ёшлар ижтимоий ҳаракатиниң IV қурултойидаги нутқи - <https://president.uz/uz/lists/view/729>

"Qoraqalpoq yoshlari" tushunchasining shakllanish va rivojlanish bosqichlari

Annotatsiya: Maqolada "qoraqalpoq yoshlari" tushunchasining turli tarixiy davrlarda shakllanishi va rivojlanish jarayoni tahlil qilingan. Muallif XVI asr oxiridan boshlab bugungi kungacha yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o'rnini va vazifasini uch bosqichda ko'rib chiqadi: qoraqalpoq xalqining shakllanish davri, sovet davri va mustaqillik yillari. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi va adabiyotida yoshlarning qahramonlik namunalari va tarbiya an'analari hamda O'zbekistonning mustaqillik yillarida yoshlar siyosatining rivojlanishi alohida yoritilgan. Tadqiqotda yoshlarning milliy o'zlikni anglashi, jamiyat va davlatchilik rivojlanishidagi o'rnini muhim ekanligi ta'kidlanadi.

Tayanch so'zlar: yoshlar siyosati, tarixiy bosqichlar, mustaqillik, tarbiya, ijtimoiy-siyosiy faollik.

Stages of formation and development of the concept "Karakalpak youth"

Abstract: The article analyzes the process of formation and development of the concept of "Karakalpak youth" in different historical periods. The author considers the place and role of youth in socio-political life from the end of the 16th century to the present day in three stages: the period of formation of the Karakalpak people, the Soviet period, and the years of independence. Also, examples of heroism and traditions of upbringing of youth in oral folk art and literature, as well as the development of youth policy during the years of independence of Uzbekistan, are highlighted separately. The study emphasizes the importance of young people's national self-awareness and their role in the development of society and statehood.

Key words: youth policy, historical stages, independence, upbringing, socio-political activity.

Этапы формирования и развития понятия "Каракалпакская молодежь"

Аннотация: В статье анализируется процесс формирования и развития понятия "каракалпакская молодежь" в разные исторические периоды. Автор рассматривает роль и задачи молодежи в общественно-политической жизни с конца XVI века до наших дней в три этапа: период становления каракалпакского народа, советский период и годы независимости. Также отдельно освещены примеры героизма и традиции воспитания молодежи в устном народном творчестве и литературе, а также развитие молодежной политики в годы независимости Узбекистана. В исследовании подчеркивается важность национального самосознания молодежи, ее роли в развитии общества и государственности.

Ключевые слова: молодежная политика, исторические этапы, независимость, воспитание, общественно-политическая активность.

TADBIRKORLIK MUNOSABATLARIDA O‘ZINI O‘ZI BAND QILGAN SHAXSLARNING HUQUQIY MAQOMI

Djadigerov T.M.

Qoraqalpoq davlat universiteti

Hozirgi kunda jamiyatning ijtimoiy tuzilishi tez sur'atlarda o'zgarib, iqtisodiyotning deyarli barcha sohalarida jadal rivojlanayotgan bir sharoitda mehnat bozori ham bu jarayonlardan mustasno emas. U muttasil ravishda, katta shiddat bilan yangilanib, chuqur va sezilarli transformatsiyalardan o'tmoqda. Bunday o'ziga xos o'zgarishlar iqtisodiy tarkibda va ijtimoiy sohada kechayotgan tub islohotlar natijasi bo'lib, aholi bandligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aholining bandlik darajasi esa har bir shaxsning turmush tarzi, iqtisodiy farovonligi va jamiyatdagi mavqei uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi. Mehnat faoliyati, keng ma'noda, insonning moddiy ta'minlanishi, ijtimoiy barqarorligi va ruhiy holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, bandlik masalalari va uning samaradorligini ta'minlash ham davlat organlari, ham jamoat tashkilotlari faoliyatida doimo ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib kelmoqda. Zero, har bir inson uchun munosib mehnat sharoitlari yaratish va ularni qo'llab-quvvatlash zamonaviy jamiyatning asosiy vazifalaridan biridir.

Rasmiy tarzda ishga joylashmagan holda o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslar amalda "o'zini o'zi band qilganlar" qatoriga kiradi. Bunday fuqarolar tadbirkorlik subyektlari tomonidan taklif etiladigan ma'lum vazifalar yoki xizmatlarni bajarib, belgilangan tartibda haq oladilar. Ular bilan rasmiy mehnat shartnomalari tuzilmagan bo'lsa-da, ularning faoliyati, huquq va majburiyatlari qonunchilik doirasida nazarda tutiladi. Bu esa o'zini o'zi band qilgan shaxslar mehnat munosabatlaridan chetda emasligini, ularning huquqlari muayyan darajada huquqiy muhofaza va ijtimoiy kafolatlar bilan ta'minlanganligini anglatadi. Shu bilan birga, o'zini o'zi band qilgan shaxslarning huquqiy maqomi, ularning davlat organlari va tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro munosabatlari, huquqlari hamda majburiyatlari bilan bog'liq ko'pgina masalalar amaldagi qonun hujjatlarida to'liq aks etmagan. Bu esa ushbu toifa fuqarolarning faoliyatida qator muammolar, tushunmovchiliklar va huquqiy noaniqliklarni keltirib chiqaradi.

Shu sababli, mazkur sohani har tomonlama chuqur o'rganish, huquqiy tizimdagi bo'shliqlarni aniqlash va samarali huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish ayni paytda juda dolzarb hisoblanadi. Bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar o'zini o'zi band qilgan shaxslarning manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish va o'zini o'zi band qilgan shaxslar institutining rivoji uchun mustahkam huquqiy asos yaratishga xizmat qiladi.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishi va raqamli texnologiyalarning jadal tatbiq etilishi natijasida mamlakatda o'zini "o'zini o'zi band qilganlar" deb ataladigan yangi ijtimoiy qatlam shakllandi. Bu toifaga kiruvchi shaxslar o'z mehnati bilan shug'ullanib, daromadni to'g'ridan to'g'ri mijozlardan oladilar. Mamlakatda har bir fuqaro qonunchilikda belgilangan soliq va yig'implarni to'lash majburiyatiga ega ekani mustahkamlangan. O'zbekiston qonunchiligi yildan yilga takomillashib, muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning eng maqbul yo'llari va mexanizmlarini izlashga intilmoqda. Davlat byudjeti daromad qismini shakllantirishda soliqlar asosiy manba hisoblanadi. Shu bois mamlakatning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun fuqarolarning soliq majburiyatlariga rioya qilinishini ta'minlash, xususiy manfaatlar va jamoat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni topish muhim ahamiyat kasb etadi. Garchi, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida "tadbirkorlik faoliyati" tushunchasi berilmagan bo'lsa-da, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonun ushbu tushunchaga ta'rif berilgan. Ushbu qonunning 3-moddasiga ko'ra "tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir". Boshqacha aytgan tadbirkorlik faoliyati shaxsning shaxsiy xavf va mas'uliyat asosida, o'z mablag'lari evaziga, mulkdan foydalanish, savdo-sotiq, xizmat ko'rsatish yoki ishlar bajarish orqali muntazam ravishda foyda olishga qaratilgan mustaqil faoliyat sifatida ta'riflanadi.

Tadbirkorlik tushunchasiga berilgan ushbu ta'rif atrofida mutaxassislar orasida tortishuvlar hali-hamon davom etmoqda. Xususan, S.E. Jilinskiy tadbirkorlik faoliyati tavsifiga xavf omilini kiritish zaruratini shubha ostiga oladi. Uning fikricha, qonun hujjatlarida "xavf" tushunchasining aniq ta'rifi berilmagan, shuningdek, nima uchun tadbirkorlik tushunchasi xavf bilan chambarchas bog'lanishi shartligi asoslab berilmagan. Jilinskiy ta'kidlaydiki, xavf ko'p qirrali ijtimoiy hodisa bo'lib, murakkab va ziddiyatli munosabatlarni o'zida aks ettiradi. Shuningdek, har bir tadbirkorning faoliyati xavf bilan bog'liq emasligi sababli, xavfni majburiy belgidan biri, deb qarash to'g'ri emas [1].

Ye.G. Krilova esa o'zini o'zi band qilgan shaxslarning faoliyatining rasmiy emasligiga urg'u beradi va ularni tadbirkorlar qatoriga kiritadi: "bu – shaxsiy iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida foyda olish uchun individual tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslardir; shuning uchun ularning rasman ishga joylashishi zarur emas" [1]. Ye.A. Chernix va N.V. Loktyuxina esa o'zini o'zi band qilishni boshqacha tushuntiradilar: "o'zini o'zi band qilishning mohiyati – ish beruvchi bilan mehnat shartnomasi tuzmasdan va yollanma xodimlardan foydalanmasdan, mustaqil tarzda mehnat faoliyati yuritish orqali daromad topishdir; bunday faoliyat mijozlar bilan to'g'ridan to'g'ri yoki vositachilar orqali amalga oshirilishi mumkin" [2]. Ushbu yondashuv o'zini o'zi band qilishning keng ma'nodagi mazmunini – boshqa shaxsga tobe bo'lmagan holda, shaxsiy mehnatga tayanilgan faoliyatni tushunish imkonini beradi [3]. D.V. Bondarenko fikricha, "fuqarolik-huquqiy pozitiv huquqda qonunan individual tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tmagan, ammo qonun doirasida o'z mehnati bilan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslar tadbirkorlik subyektlarining alohida guruhi sifatida e'tirof etiladi". Uning ta'kidlashicha, bu toifadagi shaxslar tadbirkor va yollanma xodim o'rtasidagi o'ziga xos "chegaraviy maqom"ga ega. Ular yollanma xodimlarga o'xshab ishni shaxsan bajaradilar, lekin mehnat munosabatlarining asosiy belgilarini – vazifalarni ish beruvchi manfaatida bajarish, ichki mehnat tartibiga bo'ysunush kabi shartlarni – o'z ichiga olmaydi. Shu jihatdan, ularning faoliyati tadbirkorlikka yaqin turadi. D.V. Bondarenkoga ko'ra, bu faoliyat shaxsning o'z irodasi asosida, o'z manfaati yo'lida amalga oshiriladi va muntazam daromad olishga qaratilgan. Bundan tashqari, bunday faoliyatda xavf ham mavjud: o'zini o'zi band qilish bilan shug'ullanuvchi fuqaro o'zining iqtisodiy xatari, bozor o'zgarishlarini noto'g'ri baholash oqibatlari va tashqi noqulay omillarning salbiy ta'sirini o'ziga yuklashiga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, olingan daromad odatda shaxsiy va oilaviy ehtiyojlarni qondirishga yo'naltiriladi [4, 62-74].

Mutaxassislar tomonidan berilgan ta'riflar va normativ hujjatlardagi yondashuvlarni umumlashtirgan holda, "o'zini o'zi band qilgan shaxs" tushunchasini aniqroq shakllantirish mumkin. Fikrimizcha, o'zini o'zi band qilganlar toifasiga kiruvchi shaxslar – bu o'zining kasbiy faoliyatini to'liq ravishda shaxsiy mehnat va ko'nikmalarga tayangan holda, yollanma xodimsiz va ish beruvchi bilan formal mehnat munosabatlari o'rnatmasdan amalga oshiradigan fuqarolardir. Ularining faoliyati uchun maxsus ishlab chiqilgan soliq rejimi mavjud bo'lib, u soliq to'lash tartibini soddalashtirish va optimallashtirishga qaratilgan. Bunday mexanizm o'zini o'zi band qilganlarga moliyaviy resurslarini samarali boshqarish, ortiqcha ma'muriy yukdan qutulish va soliq organlari bilan munosabatlarni yengillashtirish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari mehnat munosabatlari bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarni aniq tarzda farqlab qo'yadi. Kasbiy faoliyat sohasida ishchi va uning ish beruvchisi sifatida ishtirok etuvchi tashkilot yoki individual tadbirkor o'rtasida mehnat munosabatlari yuzaga keladi. Bunday munosabatlar

muayyan tartibga ega: bir tomon o'z mehnat quvvati va malakasini taklif etsa, ikkinchi tomon bajarilgan mehnat uchun haq to'laydi. Fuqarolik-huquqiy majburiyatlar esa ancha keng qamrovli bo'lib, ular fuqarolik huquqi subyektlarining har qanday shakldagi o'zaro munosabatlari asosida vujudga kelishi mumkin. Bu munosabatlar yuridik shaxslarni, jismoniy shaxslarni, shu jumladan individual tadbirkorlarni va o'zini o'zi band qilgan fuqarolarni qamrab oladi. Bunday holatlarda majburiyatlar tuzilgan shartnomalar, bitimlar yoki fuqarolik qonunchiligida nazarda tutilgan huquqiy ahamiyatga ega harakatlar natijasida yuzaga keladi.

O'zini o'zi band qilgan shaxslarning faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi asosiy hujjat – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi “Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4742-son Qarori hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 369-moddasi 9–10-bandlari va 408-moddasida tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil qilmasdan amalga oshirayotgan shaxslar uchun maxsus soliq tartibi nazarda tutilgan. O'zini o'zi band qilgan shaxslar o'zini o'zi band qilgan shaxslar mehnat tajini hisoblab chiqarish uchun yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida ixtiyoriy tartibda soliq to'laydilar. Bu ular uchun soliq yukini yengillashtirish hamda hisob-kitoblarni soddalashtirishga qaratilgan muhim yengillik hisoblanadi.

Mazkur mexanizm kichik biznes va o'zini o'zi band qilgan fuqarolarning rivojlanishi uchun qulay muhit yaratadi, daromadlarni qonuniylashtirishni rag'batlantiradi hamda soliq tizimida shaffoflik va soddalik ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari va huquqiy adabiyotlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan o'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyati o'rtasida ayrim o'xshashliklar mavjud bo'lsa-da, ularning huquqiy va iqtisodiy maqomi bir qator o'ziga xos jihatlari bilan farqlanadi. Soliq qonunchiligida o'z aksini topgan bu jihatlari – yollanma xodimlarni jalb etmaslik, faoliyatning shaxsiy mehnatga tayanishini anglatadi. Odatda bunday faoliyat turlari katta daromad keltirmaydi va cheklangan iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Tadbirkorlik faoliyatining muhim belgi-laridan biri hisoblangan muttasillik (tizimlilik) o'zini o'zi band qilganlar faoliyatida doimo aniq ko'zga tashlanavermaydi [5]. Shu bois, o'zini o'zi band qilishni rasman ro'yxatdan o'tmagan yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan tenglashtirish to'g'ri bo'lmaydi. O'zini o'zi band qilish – bu shaxsning o'z mehnati va tashabbusi asosida o'zi uchun ish joyi yaratishi bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat turidir. Zamonaviy soliq siyosati esa, fuqarolarni majburiy tarzda ro'yxatdan o'tishga emas, balki o'z faoliyati haqida soliq organlariga ixtiyoriy ravishda ma'lumot berishga rag'batlantiradi. Shu bilan birga, soliq va ijtimoiy fondlarga to'lovlarni amalga oshirmaslik uchun huquqiy javobgarlik choralarini belgilaydi. Hozirgi soliq qonunchiligi ham ana shu yo'nalishda rivojlanib bormoqda.

Shuni ham qayd etish lozimki, amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida o'zini o'zi band qilgan shaxslarning kommunal xizmatlar bo'yicha shartnoma tuzish tartibi aniq belgilanmagan. Masalan, o'z uyida sataroshlik xizmatlari ko'rsatayotgan o'zini o'zi band qilgan shaxs elektr energiyasi, suv ta'minoti va boshqa kommunal xizmatlardan foydalanadi, shu bilan birga qat'iy miqdorda maishiy chiqindilar ham hosil qiladi. Elektr va suv bo'yicha hisoblagichlar mavjud bo'lgan sharoitda fuqaro xizmatlardan foydalanilgan miqdorga qarab haq to'laydi. Biroq, qattiq maishiy chiqindilar masalasida vaziyat ancha murakkab.

Hozirgi kunda fuqaro uyida yashar ekan, u maishiy chiqindi hosil qiladi va belgilangan normativlar asosida chiqindilar uchun to'lovni amalga oshiradi. Biroq bu normativlar faqat aholi uchun belgilab qo'yilgan maishiy chiqindilarning standart hajmiga taalluqlidir. Uyida sataroshlik xizmatlari ko'rsatgan o'zini o'zi band qilganlar esa, qo'shimcha miqdorda chiqindi hosil qiladi va ularni umumiy konteyner maydonchalariga joylashtiradi. Lekin bunday chiqindilar hisobga olinmaydi va to'lanmaydi. Chiqindilarning me'yordan ortiqcha yig'ilishi atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda O'zbekiston Respublikasining sanitariya-epidemiologiya qonunchiligini buzilishiga olib keladi.

Qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish sohasida amaldagi qonunchilikda “namunaviy shartnoma” tushunchasi mavjud. U maishiy chiqindi operator faoliyati boshlangan paytdan o'z kuchiga kiradi. Biroq ushbu “namunaviy shartnoma”ni o'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyatiga tatbiq etish bir qator sabablarga ko'ra murakkab.

Namunaviy shartnomani o'zini o'zi band qilganlik sohasiga tatbiq etish uchun, birinchi navbatda, qaysi normativni – aholiga nisbatan qo'llaniladiganmi yoki tadbirkorlik faoliyatiga xos me'yorlarnimi – tanlash zarur. Chiqindilarning normativi o'zini o'zi band qilgan shaxsning faoliyat turiga qarab belgilanadi. Ammo bugungi holatda uchinchi shaxslar o'zini o'zi band qilgan shaxsning aniq qaysi xizmat turlari bilan shug'ullanishini aniq shaklda bilolmaydi. Soliq organi sayti orqali muayyan jismoniy shaxs professional daromad solig'i to'lovchisi ekanini tekshirish mumkin. Buning uchun fuqaroning STIR raqami va ma'lumotni qaysi sanadan bilish kerakligi ko'rsatiladi. Biroq ma'lum bir davr uchun aniq ma'lumot olish imkoni yo'q: har bir so'rov uchun sanani alohida kiritish talab etiladi.

Namunaviy shartnomani Qattiq maishiy chiqindilar xizmatiga tatbiq qilish uchun esa, o'zini o'zi band qilish qaysi xizmat turlari bilan shug'ullanishini bilish zarur. Lekin bu ma'lumotni aniqlaydigan hech qanday servis mavjud emas. Bundan tashqari, professional daromad solig'i to'lovchisi sifatida ro'yxatdan o'tgan shaxsga beriladigan ma'lumotnoma (uchyotga qo'yilganligi yoki hisobdan o'chilganligi haqida) ham uning qaysi faoliyat turi bilan shug'ullanishini ko'rsatmaydi [6]. O'zbekiston Respublikasida o'zini o'zi band qilgan fuqarolar faoliyatini huquqiy tartibga solish jarayoni ikki asosiy omil ta'sirida shakllanuvchi murakkab tizimdan iborat. Bir tomondan, o'zini o'zi band qilgan shaxslar barqaror ish sharoitlarini yaratish, daromadlarining qonuniyligini ta'minlash va ijtimoiy kafolatlariga ega bo'lishni istaydilar. Ikkinchi tomondan, davlat tuzilmalari soliq tizimining samarali va shaffof bo'lishini ta'minlash, qonun talablariga rioya etilishini nazorat qilish hamda byudjetga mablag'lar tushumlarini kafolatlashga manfaatdor.

Davlat boshqaruvi nuqtayi nazaridan, o'zini o'zi band qilgan shaxslarning ro'yxatdan o'tkazilishi asosan nazorat va soliq funksiyalarini bajarishga qaratilgan. Buning sababi shundaki, O'zbekistonda mehnatga layoqatli 2 millionga yaqin fuqaroning qanday yo'l bilan daromad topayotgani davlat uchun aniq emas: ular mehnat shartnomalari tuzmaydi

va rasmiy biznes yuritmaydi. Shu bilan birga, ularning daromadlari davlat byudjeti va iqtisodiy fondlarni moliyalashtirishda muhim manba hisoblanadi. o'zini o'zi band qilgan shaxsni rasman ro'yxatdan o'tkazish ularga qator imkoniyatlar yaratadi: sug'urta stajini shakllantirish, biznesni rivojlantirishga oid imtiyozlardan foydalanish, huquqlarini himoya qilish mexanizmlaridan samarali foydalanish kabi.

Maxsus soliq rejimiga o'tish masalasi har bir fuqaroning shaxsiy tanlovi hisoblanadi. Bu qarorni qabul qilishda rejining afzalliklari va kamchiliklari kompleks baholanadi. Agar kimdir maxsus soliq rejimidan foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblamasa, unga amal qilish majburiy emas – bunday fuqarolar ilgari qo'llab kelgan an'anaviy soliq tizimida ishlashda davom etadilar. Ular soliq majburiyatlarini avvalgi tartibda bajaradi, o'zlari uchun tushunarli va ko'nikilgan soliq qoidalariga amal qiladi, shu orqali faoliyatda barqarorlikni saqlaydi [7].

Professional daromad solig'i to'lovchilari bo'lib, ham yakka tartibdagi tadbirkorlar, ham yollanma xodimlarsiz mustaqil faoliyat yurituvchi jismoniy shaxslar ishtirok etishi mumkin. o'zini o'zi band qilgan fuqarolar o'z mehnatlari bilan, yollanma xodimlardan foydalanmagan holda ish yuritib, mijozlardan olgan daromadlarini ushbu soliq turi orqali to'laydilar. Soliq bazasi faqat shaxsning o'z mehnati evaziga olgan daromadidan shakllanadi, ya'ni yollanma xodimlar ishtirokida olinishi mumkin bo'lgan daromadlar bunga qo'shilmaydi. Biroq amaliyotda professional daromad solig'i barcha fuqarolar orasida ommalashib ketmagan. Ba'zi shaxslar turli sabablarga ko'ra o'z daromadlarini soliqdan yashirishga urinadilar. Daromad solig'ining asosiy maqsadi – fuqarolarning daromadlarini "soyadagi iqtisodiyoti"dan chiqarish, ya'ni rasmiylashtirishdir. Ammo bu vazifani amalga oshirishda muammolar ham mavjud. Masalan, ba'zi ish beruvchilar o'z xodimlarini soliq yukini kamaytirish maqsadida o'zini o'zi band qilgan shaxslar toifasi o'tishga qo'ymoqda. Bu ularga soliq va sug'urta to'lovlarini tejash imkonini beradi. Natijada o'zini o'zi band qilganlar soni oshadi, lekin soliq organlari bu munosabatlarni mehnat munosabatlari deb qayta kvalifikatsiya qilishga harakat qilishi mumkin. Bu esa, ayniqsa, ish beruvchilar uchun sug'urta badallarini to'lashda qo'shimcha soliq oqibatlarini keltirib chiqaradi. Shu bois, bunday vaziyatlarda soliq organlari bilan nizolar soni ortishi ehtimoldan xoli emas.

Tadqiqotlar o'zini o'zi band qilgan shaxslarning kuchli va zaif tomonlarini ham ko'rsatdi. Afzalliklardan biri – har qanday yosh va jinsdagi fuqarolar tomonidan o'zini o'zi band qilgan shaxslarga qiziqishning ortishi. Biroq kamchiliklar ham mavjud: o'zini o'zi band qilgan shaxslar ishlashi mumkin bo'lgan faoliyat turlari cheklangan. Demak, bu soliq rejimida ham imkoniyatlar, ham muayyan qiyinchiliklar bor va ularni yanada chuqurroq o'rganish talab etiladi.

Professional daromad solig'ini qo'llashda ayrim murakkabliklar ham saqlanib qolmoqda: sug'urta rezervlarini shakllantirish, soliq boshqaruvini takomillashtirish, nazorat mexanizmlarini yaxshilash zarur. Tadbirkorlikka oid qonunchilik soliq hisobini yuritishdan tortib soliq organlari qarorlarini bahslashtirishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni to'g'ri tashkil etish bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak.

Garchi professional daromad solig'i nisbatan yaqinda joriy etilgan bo'lsa-da, uni takomillashtirish bo'yicha asosiy ustuvor yo'nalishlar allaqachon shakllantirilgan. Davlatning maqsadi – tadbirkorlarning katta qismini norasmiy iqtisodiyotdan chiqarib, ularga qonuniy va ochiq ish yuritish imkonini berish, shu bilan birga kichik va o'rta biznes uchun g'irrom raqobatni kamaytirish. Biznes faoliyatini rivojlantirish va qulay sharoit yaratish uchun zamin yaratilgan.

ADABIYOTLAR

1. Крылова Е. Г. Особенности экономического регулирования предпринимательской деятельности самозанятых в России и за рубежом // Юрист. 2017. № 6. С. 11–15.
2. Черных Е. А., Локтюхина Н. В. Актуальные социально-трудовые аспекты самозанятости в современной России // Экономическое возрождение России. 2021. № 1 (67). С. 136–151.
3. Абрамова Е. А. Кризисная самозанятость в России: классификация, структура и уровни развития. Современные наукоемкие технологии // Региональное приложение. 2012. № 4 (32). С. 6–15. см. также Воловская Н. М., Плюснина Л. К., Русина А. В., Иноземцева А. В. Безработица и самозанятость: ожидания и реалии (по материалам социологических исследований) // Теория и практика общественного развития. 2018. № 11 (129). С. 22–31.
4. Бондаренко Д. В. Самозанятые лица как субъекты предпринимательской деятельности // Право и политика. 2018. № 5.
5. Мухина И. И., Миракян Д. Г. Самозанятость в России: современные тенденции и перспективы развития // Социально-трудовые исследования. 2021. № 3 (44). С. 21–31.
6. Токар Е. Я. Самозанятые лица — субъекты предпринимательства. Цели и задачи правового регулирования их деятельности // Семейный бизнес & самозанятые: взгляд через призму малого предпринимательства: монография / отв. ред. И. В. Ершова, А. Н. Левушкин. М.: Проспект, 2021. С.188.
7. Бусел, А. С. Правовой статус самозанятых в предпринимательских отношениях / А. С. Бусел. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2024. — № 38 (537). — С. 75-80. — URL: <https://moluch.ru/archive/537/117679>.

Tadbirkorlik munosabatlarida o'zini o'zi band qilgan shaxslarning huquqiy maqomi

Rezyume. Maqolada O'zbekistonda o'zini o'zi band qilgan shaxslarning huquqiy maqomi, soliq rejimi va yakka tartibdagi tadbirkorlardan farqli jihatlari tahlil qilingan. Muallif sohadagi qonunchilik asoslarini o'rganib, maishiy chiqindilar bilan bog'liq noaniqliklar va mehnat munosabatlarini yashirish xavflari kabi dolzarb muammolarni yoritib bergan.

Tayanch so'zlar: huquqiy maqom, ijtimoiy soliq, tadbirkorlik faoliyati, yashirin iqtisodiyot.

Правовой статус самозанятых лиц в предпринимательских отношениях

Резюме. В статье анализируется правовой статус самозанятых в Узбекистане, их налоговый режим и отличия от индивидуальных предпринимателей. Автор рассматривает законодательную базу, а также поднимает актуальные проблемы, такие как неопределенность с вывозом бытовых отходов и риски сокрытия трудовых отношений.

Ключевые слова: правовой статус, социальный налог, предпринимательская деятельность, теневая экономика.

Legal status of self-employed persons in entrepreneurial relations

Summary. The article analyzes the legal status of self-employed persons in Uzbekistan, their tax regime, and distinctions from individual entrepreneurs. The author examines the legislative framework and highlights current issues, such as uncertainties regarding household waste disposal and the risks of disguising employment relationships.

Keywords: legal status, social tax, entrepreneurship, shadow economy..

UDC 10(09)4

GLOBALLASHUV JARAYONLARINING TIZIMLI TAHLILI IQTISODIY, SIYOSIY, MADANIY VA TEXNOLOGIK OMILLARNING O'ZARO INTEGRATSIYASI

Mambetkarimov R. R.

Qoraqalpoq davlat universiteti

Globallashuv hozirgi kunda insoniyat hayotini mutlaqo o'zgarishlarga burayotgan jarayonlardan biri hisoblanadi. Globallashuv (globallashuv) - lotincha "glob" so'zidan olingan bo'lib, aynan uni "dunyoviy" deb tarjima qilish mumkin. Yer sharining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat boshqaruvidagi xuddi bir butun sharga, yerga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi. "Global" tushunchasi so'zma-so'z ma'nosi jihatidan fransuz tilida "umumiy," lotin tilida esa "globus - yer shari" degan ma'nolarni anglatadi. Demak, globallashuv tushunchasi ana shu ikki ma'noda ham bevosita insoniyat hayoti va taqdiri bilan bog'liq bo'lgan ulkan muammolarni, "planetar," "dunyoviy" muammolarni, global taraqqiyot istiqbollari o'z ichiga oladi. Globallashuv atamasi birinchi marta 1960-yilda Giddins tomonidan qo'llanilgan. Bu atama XX asrning 90-yillarigacha deyarli ishlatilmagan. 1985-yilga kelib amerikalik sotsiolog R.Roberson "globallashuv" atamasiga izoh bergan. Globallashuv atamasi birinchi bo'lib iqtisodchi olimlar tomonidan 1981-yildan buyon qo'llanib kelinmoqda. Ammo bu so'zning to'liq ma'nosi, konsepsiyasi 1990-yilning yarmida amerikalik olim Charlz Taz Rassel tomonidan to'liq ochib berilgan.

"Globallashuv" atamasi dastlab amerikalik olim T.Levitt tomonidan 1983-yilda "Garvard biznes revyu" jurnalida chop etilgan maqolasida qo'llanilgan. T.Levitt yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqariladigan turli xil mahsulot bozorlarining birlashish jarayonlarini "globallashuv" deb atagan [4, 8]. Ushbu ta'rifda globallashuv jarayonining iqtisodiy jihatlariga e'tibor qaratilgan. O'z davrida fransuz faylasufi Rene Dekart "Tushunchalar ma'nosini aniqlashtirish va bu insoniyatning yarmini adashishdan saqlaydi," deb yozgan edi. Ana shu ma'noda dastlab biz "globallashuv" tushunchasining istiqbolli ma'nosini tushuntirishga harakat qilamiz. Bu so'zga quyidagicha izoh berish mumkin: Globallashuv - jahon xo'jaligi rivojlanishining obyektiv jarayoni bo'lib, juda ko'p ijobiy xususiyatlarga ega: bular asosan turli mamlakatlar xo'jaligining o'zaro aloqasi, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, fan-texnika va texnologiya yutuqlari almashinuvini tezlashtirish hamda mamlakatlarning ilmiy-texnik rivojlanishiga ko'maklashish bilan tasdiqlanadi. Globallashuv butun dunyo iqtisodiy-siyosiy, madaniy integratsiya va unifikatsiya (bir-biriga yaqinlashish) jarayoni hisoblanadi. Asosiy xususiyatlari xalqaro mehnat taqsimoti, kapital, ishchi kuchi va ishlab chiqarish resurslarining erkin harakati, qonunchilik, iqtisodiy va texnologik jarayonlarni standartlashtirish, shu bilan birga, turli mamlakatlar madaniyatining qo'shilishi va yaqinlashuvidir. Bu obyektiv jarayon bo'lib jamiyatning barcha sohalarini qamrab oluvchi tizimli xususiyatga ega. Globallashuvga qarshi harakatlar ham mavjud bo'lib, ular globallashuv natijasida yuzaga keladigan va yuzaga kelayotgan muammolarning natijasi salbiy deb ko'rsatiladi. Bunday tashkilot, uyushma, harakatlarga Green, AntiDaos kabi bir qancha antiglobalistlarni kiritish mumkin. Globallashuv bosqichiga mintaqaviy bosqichni bosib o'tish kerak.

Barchamizga ayonki, globallashuv yaxlit jarayonlarni o'z ichiga qamrab oladi. A. Ochildiyevning ta'kidlashicha,..."eng umumiy ma'noda, globallashuv, bir tomondan, muayyan bir hodisa, jarayonning barcha mintaqalar, davlatlar va butun yer yuzini qamrab olganini, ikkinchi tomondan, ularning insoniyat taqdiriga daxldorligini anglatadi"[6, 64]. V.I.Danilov-Danilyan esa "Globallashuv ko'proq mintaqadan emas, balki tarixiy paradigmadan kelib chiqqan so'z hisoblanadi. Globallashuv aspektlarining o'zaro bog'liqligiga aniq tahlillar yo'q"[1, 143] - deb yozgan edi. Yuqoridagi tushunchalardan ko'rinib turibdiki, globallashuv jarayoni o'zining murakkabligi va ko'p ma'noliligi bilan alohida ajralib turadi. Shuning uchun ham S.Otamuratov..."globallashuv tushunchasi haqidagi qarashlar turlicha davom etib kelmoqda. Bu tabiiy hol. Chunki uning makon va zamonda yuz berish xususiyatlari turlicha bo'lib, dunyoning o'zgarishiga o'tkazayotgan ta'sirida ham yangi-yangi imkoniyatlar namoyon bo'lmoqda"[5, 13]. 1980-1990-yillar bo'sag'asida "globallashuv" tushunchasi yangi izohga ega bo'ldi: Yaponiyalik keyinchalik mashhur amerikalik iqtisodchi K.Ome ta'riflaganidek, ushbu atamaning xalqqa tushunarli bo'lgan izohidan jahon xo'jaligi taraqqiyotiga yangi qirralari va izohlari, uning dastlabki taraqqiyot bosqichlaridan farq qiluvchi hozirgi holatni ko'rsatish uchun qo'llay boshlagan. Professor A.Katsoyich globallashuv jarayonini obrazli yoritib berishda va jahon xo'jaligining yangi tushunchasini yuzaga keltirishda: "globallashuv chegaralar orqali iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni intensivikasiya qilish orqali aniqlanishi mumkin. globallashuv - bu erkin savdo to'g'risidagi bitimlar uyg'unligi, shuningdek, dunyoni yagona va o'ta raqobatli bozorga aylantirgan Internet hamda moliyaviy bozorlarning birlashmasidir," degan taklifni kiritgan. Jahon olimlari tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda "Globallashuv" tushunchasiga turlicha talqinlar berilmoqda va unga turlicha qarash va yondashuvlar bildirish davom etmoqda. Lekin uning yer yuzining yaxlitligini tasvirlash va barcha sohalarining "bir xilligini" ta'minlash jarayoni, omili sifatida qarash umumiy qarashlardan ustun bo'lib kelmoqda. Xususan, rus olimi I.Burikova globallashuvga jarayon sifatida qaraydi va olimlar tomonidan unga nisbatan qarashlarni umumlashtirib, uning uchta asosiy tomonini ko'rsatadi: Bilim jihatidan - globallashuv jarayoni haqida nimalar ma'lum, emotsional - bu ma'lumotga qanday yondashish zarurati, axloqiylik - nima qilish kerak ekanligi. Olimning fikricha, Sankt-Peterburg universitetining siyosiy psixologiya fakulteti psixologlari yaqinda globallashuvni siyosiy hokimiyatning yangi shakli sifatida tushunadi. Bu siyosiy hukumatda yangi shakllarning instrumentlari quyidagilardir: axborot globallashuvi - axborot sohasidagi o'zgarishlar, iqtisodiy globallashuv - iqtisodiy sohadagi o'zgarishlar, mintaqaviy globallashuv - hududlar va chegaralar sohasidagi o'zgarishlar, demografik globallashuv - globallashuvning asosiy instrumenti bo'lib, insondagi barcha asosiy o'zgarishlarni o'z ichiga qamrab oluvchi o'zgarishlardir. Shu bilan birga, muallif ularning har birining o'ziga xos xususiyatlari haqida batafsil fikr yuritgan.

Globallashuvning boshlanish davri bo'yicha G'arb olimlari ham turli fikrlarni ilgari surib kelmoqda. Xususan, R.Kobden va J.Brayt kabi olimlar globallashuv to'liqlarini davlatlar o'rtasida erkin savdoning amalga oshishi va uning natijasida iqtisodiyotdagi o'sish bilan bog'laydilar hamda uning boshlanish davrini XIX va XX asrlar bilan chegaralab beradilar. Ularning fikriga ko'ra, Britaniya o'zining dengiz, sanoat va moliyaviy qudrati bilan globallashuv to'liqlarining birinchi bosqichini boshlagan. Ular globallashuvning ikkinchi bosqichi yoki tiklanishi 1970-yillarning oxirlarida informatika va telekommunikatsiyada yuz bergan inqiloblar asosida boshlanganini ta'kidlaydilar [7, 259]. Globallashuv erkin savdoning boshlanishi va uning natijasida iqtisodiyotdagi o'sish, informatika va telekommunikatsiya rivojida yuz bergan o'zgarishlar bilan bog'liq, deb ko'rsatadi. Xullas, globallashuv tushunchasi va uning boshlanish davri haqida turli fikrlar ilgari surilmoqda. Endi globallashuvning baynalmilallashuv va integratsiyalashuv tushunchalari va munosabatlari ustida to'xtalib o'tamiz. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, aksariyat falsafiy va siyosiy tadqiqotlarda globallashuv XIX asr oxiri va XX asr boshlarida kirib kelganligi haqidagi g'oyalar ilgari surilib kelgan. Ularga qo'shilgan holda shuni aytish kerakki, aynan shu davrda insoniyat aql zakovatining yuksaklikka ko'tarilish jarayoni yuz beradi. Natijada insonlar, millatlar, xalqlar va davlatlarni o'zaro majburiy ravishda bir-biriga bog'lab qo'yish, dunyoda ro'y berayotgan turli sohalaridagi yangiliklar, yangi kashfiyotlarning vaqt doirasida ommalashtirishga xizmat qiladigan aloqa vositalari - kompyuter, internet, uyali telefon va boshqalar xizmat qila boshladi. Buning natijasida dunyodagi barcha davlatlarning iqtisodiy jihatdan yaqinlashuvi tezlashdi. Bu jarayon haqida turli sohalar bo'yicha juda ko'p misollar keltirish mumkin. Lekin eng asosiysi u holda emas, balki globallashuv jarayoni sifatida jahon taraqqiyotining barcha bosqichlari uchun bor yoki yo'q degan savolga aniq javob topishdir. Insonlarning bir-biriga intilib yashashi, ularning o'z tajribalarini almashishi, bir-biriga yordam ko'rsatishi va o'zaro do'st sifatida munosabatlari, ular o'rtasidagi o'zaro integratsiyalashuv (yaqinlashuv) jarayonlariga amal qilishni ta'minlagan. Bu bir tomondan tabiiy kechgan bo'lsa, ikkinchi tomondan har bir subyekt uchun umumiy taraqqiyotning hayotiy zaruriyati sifati sifatida namoyon bo'lib kelgan. Uchinchidan, integratsiyalashuvda tomonlarning o'zaro manfaatdorligi ham amalda bo'lgan. Ya'ni undan bir tomon emas, balki bu jarayonda ishtirok etgan barcha tomonlar manfaatdor.

Globallashuv sharoitida tashqi aloqalar, xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlanib, har bir shaxsning ma'naviyati va intellektual salohiyatiga yangicha talablar qo'yimoqda. O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'liq qonuniy a'zosi hamda uning ajralmas qismidir. Shuning uchun ham bugungi kunda mamlakatimizda oliy ma'lumotli va xalqaro talablarga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlashga alohida e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizda bunday mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj kelgusida ham oshib boradi. Shu bois yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash, ularni xalqaro mezonlar asosida tayyorlash ustuvor vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Globallashuv - bu butunjahon iqtisodiy-siyosiy, madaniy integratsiya hamda unifikatsiyalashuv (bir-biriga yaqinlashish) jarayonidir. Asosiy xususiyatlari xalqaro mehnat taqsimoti, kapital, ishchi kuchi va ishlab chiqarish resurslarining erkin harakati, qonunchilik, iqtisodiy va texnologik jarayonlarni standartlashtirish, shu bilan birga, turli mamlakatlar madaniyatining qo'shilishi va yaqinlashuvidir. Bu obyektiv jarayon bo'lib jamiyatning barcha sohalarini qamrab oluvchi tizimli xususiyatga ega. Chunki biz A.Toynbi ta'biri bilan aytganda, insoniyat "umumiy uy," "umumiy taqdir" va umumiy xavotirlar bilan yashashga kirishib borayotgan [3, 221], bir so'z bilan aytganda, globallashuv deb atalayotgan jarayonlar yuz berayotgan zamonda yashamoqdami.

Shunday ekan, milliy mafkurani takomillashtirish masalasi ham kelgusida faqat milliy, balki global xarakterni ham kasb etadi. Biroq, globallashuv jarayoni N.Jo'rayev to'g'ri ta'kidlaganidek, hozircha faqat qandaydir mavhum ijobiy jihatlar bilan bog'liq emas, balki ko'proq "hozirgi davr global masalalarini" yuzaga keltirgani bilan xarakterlidir. Ko'pchilik mutafakkirlar bu davrni hatto global inqiroz davri deb ham atashadi. "XX asr inqirozi kuchli his-tuyg'u bilan boshlangan edi va shu his-tuyg'u bilan yakunlandi" [2, 132], - deb yozadi, masalan, rus faylasufi S.I.Dudnik. haqiqatan ham, globallashuv zamonaviy jamiyatga ko'plab ijobiy jihatlar olib kirish bilan birga, insoniyat taraqqiyotidagi shunday faslni ham o'zida aks ettirayotirki, keyingi dunyo xalqlari shakllanayotgan muammolarga qarshi yolg'iz kurasholmaydi, ularni birgalikda hal etish mumkin. Oksford universiteti direktori, professor Nik Bostrom bu ishlarning salbiy oqibatlari haqida o'ylab ko'rilmayotganligi haqida shunday deydi: "Texnologik taraqqiyotning tezlashishi tufayli insoniyat hozir o'z taraqqiyotining keskin burilish nuqtasiga katta tezlik bilan yaqinlashib kelayotgan bo'lishi mumkin. Insoniyatga yaxshi tanish bo'lib qolgan yadro tahdidi kelgusida nanosistemalar va mashina intellekti kabi sohalarining jadal rivojlana boshlagan texnologiyalari ulkan o'z imkoniyatlari va xatarlari bilan qo'shib ketmoqda. Bizning kelajagimiz, agar u mavjud bo'lsa, bizning ana shu jarayonlarga bo'lgan munosabatimizga bog'liq. Hali biz shiddat bilan rivojlanayotgan texnologiyalarga bog'liq ekanmiz, insoniyat jamiyatidan "post-insoniyat" (keyingi insoniyat) jamiyatga o'tish dinamikasini yaxshi anglab yetishimiz kerak. Ayniqsa, tuzoq qayerda joylashganini, aniq o'limga olib borishi mumkin bo'lgan yo'llarni payqab olishimiz zarur."

Bir necha yillik tadqiqotlari natijasida A.Chumakov "Globallashuv ijtimoiy hayotning barcha sohalarini, ma'naviy qadriyatlar, dunyoqarash yo'nalishlarini universalashtirishga olib kelishi bilan birga, an'anaviylik, o'ziga xoslik va madaniy xilma-xillikni saqlashni ham istisno qilmaydi," degan xulosaga keladi. Bunday davrda shaxs murakkab ijtimoiy muhit sharoitida faoliyat ko'rsatishga majburdir. Inson yashayotgan asosining, tinch va barqaror kechirayotgan hayotining ma'nosini to'liq anglashi, qadrlashi, ya'ni ijtimoiy muhitning obyekti sifatida namoyon bo'lishi kerak.

Global miqyosdagi masalalar ilmiy munozaralar mavzusi sifatida XX asrning 60-70-yillarida jahon hamjamiyatida jiddiy qiziqish uyg'otgan. 1930-yillarda E. Lerua, Teyyar de Sharden va V.I. Vernadskiylar nazariyalarida insoniyat jamiyatning global mohiyati va uning yerdagi yashash tarixi uchun mas'uldir, degan fikrlar ilgari surilgan. Keyinroq bu masalaga e'tibor biroq sustlashdi. 1970-1980-yillarga kelib ushbu masalaga oid tadqiqotlar jonlangani bizga ma'lum. Bugungi kunda globallashuv jarayonining jadallashuvi o'zaro bog'liqlik va o'zaro ta'sir dialektikasi qonunlari asosida ilm-fan, madaniyat rivojiga ta'sir o'tkazib kelmoqda, bu o'z navbatida yoshlardagi ijtimoiy mas'uliyat jarayoni

zamonaviy ilm-fan yutuqlari, texnika-texnologiya, xalqaro axborot almashinuvining jadal rivojlanishi bilan o'zaro bog'liqlikda yuzaga keladi.

Hozirgi kunda "globalistika" atamasi zamonaviy fan tilining ajralmas qismi hisoblanadi, lekin uning ma'nosi haqida hali ham turlicha fikrlar bildirilib kelinmoqda. Ba'zilar bu yangi fan, u hali shakllanish jarayonida, deb fikr bildirs, boshqalar ilmiy bilish integratsiyasi natijasi, deb bilib, alohida fanlararo tadqiqotlar sohasi, deb e'tirof etmoqdalar [8, 77-80]. Globallashuv jarayoni kuchayib borayotgan hozirgi dunyoda mamlakatning raqobat shartlariga tez ko'nishi uning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining asosiy ustunligi - ta'lim tizimining holati bilan belgilanadigan, shaxsni ma'naviy rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi bilan bog'liq. Mamlakatning bugungi va istiqboldagi barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlaydigan omillar aynan ta'lim sohasi rivojiga bevosita bog'liq. Shu bois mustaqillikning dastlabki yillaridan iqtisodiyotni tubdan isloh qilish jarayonida ta'lim sohasida jahonda munosib o'rin egallashga qaratilgan yangi uzluksiz ta'lim tizimini yaratish va rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Bu borada alohida ahamiyatga ega bo'ladigan siyosiy globallashuv davlatlarning siyosiy tuzilishini, xalqlar va mintaqalar o'rtasidagi siyosiy aloqalarning kengayishini, o'zaro bog'liqligini anglatadi va pirovard natijada, ularning birlashuviga olib keladi. Bunda alohida siyosiy munosabatlar ko'lamiga ko'ra global va barcha davlatlarning ichki tuzilishi bitta tarmoqqa birlashganini ko'rish mumkin. Bu jarayonda milliy davlatchilik suverenitetga tahdid solishi mumkin bo'lgan bir qancha holatlar mavjud. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

Birinchidan, jahon siyosiy maydonida transmilliy korporatsiyalar, nodavlat hamda xalqaro tashkilotlar, xalqaro kapital kabi yangi qudratli siyosiy subyektlar shakllanmoqda. Ular siyosatning an'anaviy subyekti - milliy davlatchilik suverenitetining ikkinchi darajaga tushib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Ikkinchidan, globallashuv xalqaro huquq asoslariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa davlatlarning o'z hududida huquqiy suverenitetdan ajralib qolishiga olib kelmoqda. Natijada milliy davlatlarning faqat tashqi, balki ichki siyosiy masalalarini mustaqil tarqatib olish imkoniyatlari cheklanmoqda. Muayyan bir davlatning ichki siyosatini tashkil etuvchi muammo (ichki ziddiyat, siyosiy kurash, saylov jarayonlari va boshqalar) bugungi kunga kelib, global ahamiyat kasb etib, boshqa davlatlar manfaatlariga ham daxldor bo'lib qolmoqda.

Uchinchidan, odamlar ongida davlatchilik suvereniteti asosini tashkil etuvchi hududiy omil globallashuv natijasi bo'lib, o'zining an'anaviy ahamiyatini yo'qotmoqda va tabiiy davlat hokimiyati pozitsiyasiga ham putur yetkazmoqda. Boshqacha aytganda, milliy sarhadlar tobora oydinlashib bormoqda.

To'rtinchidan, dunyo bo'ylab bir qator G'arb davlatlari yetakchiligida "demokratlashuv" jarayoni jadal rivojlanmoqda va buning natijasida ayrim davlatlarning o'ziga xos demokratik taraqqiyotiga chetdan kuchli ta'sir o'tkazilmoqda. Ya'ni, bu jarayondan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga urinayotgan globallashuv g'oyasi asoschilari boshqa davlatlarning siyosiy boshqaruv tizimini o'z qo'lga olishga urinmoqda. Misol uchun, MDHga a'zo qator mamlakatlarda 2005-yilda yuz bergan "inqiloblar," siyosiy globallashuv samarasi bo'lib, bu jarayon ta'sirining naqadar xavfli ekanligidan dalolat beradi. Bu voqealar shundan dalolat beradiki, yuksak taraqqiy etgan davlatlar boshqa davlatlarning suvereniteti va ichki ishlariga daxldor emasligi prinsipini niqoblangan shaklda buzmoqda. Bunda siyosiy globallashuv jarayonining yana bir mahsuli nodavlat tashkilotlarning resurslari va joyidan niqob sifatida foydalanish dunyo bo'ylab keng tarqalib bormoqda. Aynan shu ma'noda olib qaralganda A.V.Buzgalinning "Globallashuv siyosatga ta'siri kuchli bo'lib, xavfsizlik va iqtisodiyot sohasida davlatlarning bir-biriga ustunligini kuchaytirib, har birining jahon sahnasidagi ustun turadigan tomonlarining chuqur o'zgarishiga olib keladi. Tashqi siyosiy vositalar esa boshqacha nuqtayi nazardan qarashga majbur qilib, jahon siyosatining evolyutsionlashuvi jarayonining tezlashib ketishiga olib keladi," deb yozadi.

Globallashuv fenomeni obyektiv va ochiq ekanligini hisobga olsak, uning turli muqobillarda namoyon bo'lishi tabiiy tus oladi. Shunday ekan, globallashuv jarayonining biror-bir jihatini to'ldirib, unga to'liq ijobiy yoki to'liq salbiy jarayon sifatida qarash o'rinsiz hisoblanadi. O'z navbatida nemis sotsiologi OL.Bek "Globallashuv eng ko'p qo'llaniladigan va eng ko'p talon-taroj qilinadigan va eng kam o'rganilgan, ehtimol tushunarsiz abstrakt, siyosiy jihatdan samarali so'zdir (bahsda kuchli qurol, uran) " deb yozadi. Globallashuv jarayonida axborot olishning tezlashishi, shu bilan birga, internet orqali uzatiladigan turli yangiliklarning ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilish masalalarini e'tibordan chetda qoldirmaslikni taqozo etadi. Masalan, globallashuv haqida 1998-yilda Nobel mukofotini olgan portugaliyalik yozuvchi J.Saramagu: "Men antiglobalistik harakatlar tarafdoriman. Chunki menga hozir sayyoramizda keskin sur'atda shakllanayotgan tartib, qoida yoqmaydi," - degan bo'lsa, J.Soros "globallashuvning shuncha kamchiliklariga qaramay, men uning hasadgo'y tarafdoriman. Men uni qo'llab-quvvatlayman, chunki faqat u beradigan qo'shimcha boyliklar, balki u odamlarga berishi mumkin bo'lgan erkinlik tufayli bo'lishi mumkin," deb yozadi. Umuman olganda, globallashuv murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, uni turli mamlakatlar hayotiga o'tkazayotgan ta'siri ham turlicha. Bu holat dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, ma'naviy salohiyati va siyosati qandayligi bilan bog'liq. Dunyoda sodir bo'layotgan kuchli jarayonlarning har bir davlatga o'tkazayotgan salbiy ta'sirini kamaytirish va ijobiy ta'sirini kuchaytirish, davlatlar kelajagini belgilab beradigan asosiy omildir.

Globallashuvning asosiy ko'rinishlari, tendensiyalari va oqibatlari o'rtasidagi ziddiyatlar so'nggi yillarda faqat jonlandi, balki qizg'in tus olmoqda. Bugun birgina mamlakatda, balki dunyoda bir-biriga qarshi kurash olib borayotgan "globalistlar" va "anti-globalistlar"ga bo'lindi. Ayrim olimlar globallashuvni farovon hayot, tanlash huquqi va yanada ko'proq erkinlik, ya'ni ko'chib yurish, to'liq axborot olish, ko'proq haq to'lanadigan joyda ishlash, eng yaxshi universitetlarda ta'lim olish bilan bog'lasa, boshqalar uchun esa globallashuv insoniyatga tahdid soladigan, global iqlim isishi, atrof-muhitning ifloslanishi, nazoratsiz migratsiya omillarining paydo bo'lishi, ishsizlarning ko'payishi, an'anaviy qadriyatlarga zarar yetkazish kabi muammolarni keltirib chiqaradigan jarayon sifatida baholaydi. Bizning nazarimizda, globallashuv, avvalo, taraqqiyot sur'atlarining tezlashishi orqali butun insoniyat umumjahon taqdirini

birlashtiradigan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy, madaniy-ruhiy hodisa sifatida o'zini ko'rayotgan bir paytda, uning butun mohiyatini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etishni taqozo etmoqda. Aynan shu nuqtayi nazardan qaraganda, globallashuv odamlar o'rtasida ma'lum bir universal va umumiy ko'lamdagi aloqani o'rnatishni nazarda tutadi. Globallashuv tushunchasi uning ma'no-mazmuni va insoniyat taraqqiyotidagi o'rni masalasiga qiziqish ortib bormoqda. Globallashuv jarayoni yer yuzidagi davlatlar va xalqlarni shunchalik uzviy bog'lab qo'yayotganki, buni insoniyat tarixida shu paytgacha hech qaysi vosita amalga oshira olmagan. Bu jarayon shunchalik kuchayib ketmoqdaki, hozirdanoq dunyoning biror hududi uning ta'siridan hali qutulib qolayotgani yo'q. O'tgan asrning oxirlarida paydo bo'lgan globallashuv atamasi jahon mamlakatlari iqtisodiy va ma'naviy hayotining yalpi umumlashib borayotganini anglatadi. Globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turadigan davlatlar aksincha uning ta'siriga ko'proq duch kelib qolishi mumkin. Bunday g'ayritabiiy ta'sir esa ko'pincha salbiy oqibatlariga olib kelmoqda. Mustaqillik davrida mamlakatlarimiz olimlari o'tkazgan va o'tkazayotgan tadqiqotlar tahlili bu sohadagi ishlar endigina boshlanayotganidan dalolat beradi.

Globallashuvga berilgan ta'riflar juda ko'p, lekin uning xususiyatlarini to'ldirish qamrab olganligi, bizningcha, fransuz tadqiqotchisi B.Bandi bergan ta'rifdir. U globallashuv jarayonining uch o'lchovini yaratadi. Birinch, globallashuv - doimiy davom etadigan tarixiy jarayon ikkinch, globallashuv - dunyoning gegemonlashuvi va universallashuvi jarayoni uchinch, globallashuv - milliy chegaralarning yuvilib ketish jarayoni.

Bu ta'rifga keltirilgan globallashuv o'lchovlari har bir o'lchovga nisbatan ham alohida e'tirozlar bildirishi mumkin. Lekin jahonda ro'y berayotgan jarayonlarni kuzatadigan bo'lsak, ularning har bir o'lchovi ham o'sha holatda amalda ekanini ko'ramiz. Globallashuv tarafdorlari globalistlar deb ataladi. Ular orasida davlat arboblari, siyosatchilar, biznesmenlar ko'proq uchraydi. Garvard universiteti olimi Kenichi Omae o'zining 1990-yilda nashr etilgan "Chegara bilmas dunyo" asarida bu atamaga keng ta'rif beradi. Uning fikricha, odamlar, firmalar va bozorlarning ahamiyati tobora ortib, davlatning o'rni qisqarib boradi. Globallashuv davrida barcha xalqlar va jarayonlar global bozor ta'siriga tushadi, an'anaviy davlat esa o'zining tabiiyligini yo'qotib, biznesdagi sherik sifatida yaroqsiz bo'lib qoladi. Xalqaro iqtisodiy sahnada asosiy harakatlanuvchi subyektlar sifatida global firmalar qoladi.

Bundan tashqari, globallashuvning demokratlashuv, axborotlashtirish kabi jarayonlari jamiyat taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etib qoladi. Xususan, demokratlashtirish jarayonida jamiyat elementlari ierarxiyasida barqaror o'zgarishlar yuz beradi. Bu ierarxiya quyidagicha tuzilishga ega bo'ladi: shaxs - jamiyat - davlat. Bunda davlat shaxs va jamiyat manfaatlarini ta'minlovchi vosita vazifasini o'taydi. Jahon maydonida o'z o'rmini egallashni istagan har qanday davlat bu ierarxiyaga amal qilishi kerak.

Bugungi kunda globallashuv atamasi shu qadar mashhur bo'lib ketganki, uni XXI asr mahsuli desak, mubolag'a bo'lmaydi. Shu o'rinda ta'rif berish uchun turli yondashuvlar, nazariyalar, paradigmalar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning barchasini izohlab quyidagi xulosaga kelish mumkin: globallashuv xalqlar, davlatlar transformatsiyasi, insoniyatning bir butunlikka integratsiyasini keltirib chiqaradi. Shu ma'noda, muayyan bir jamiyat o'zini yomon deb hisoblagan boshqa jamiyatning mafkurasi, qarashlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy yutuqlarini o'zlashtirishi globallashuv ta'siri ostida bo'ladi. Bundan tashqari, globallashuv masalasiga oid zamonaviy tortishuvlar bu muammoni yanada murakkablashtirib yubormoqda hamda yangi muqobil g'oya, nazariyalarning paydo bo'lishiga zamin yaratmoqda.

"Fransuz olimi Jak Le Dyumgi quyidagi yondashuvlarni ishlab chiqadi: Liberal yondashuv. Globallashuv nafaqat obyektiv jarayon, balki foydali fenomen sifatida iqtisodiy, ijtimoiy samaradorlikka olib keladi; Madaniy yondashuv. Milliy madaniyatlarning inqirozi tarixiy jamiyatlar to'qnashuvi, "aralashmadaniyat"ning paydo bo'lishi. Yuqoridagi yondashuvlardan alohida hisoblanuvchi Gollandiyalik tadqiqotchi Ya.N.Piters globallashuvga izoh berishda quyidagi paradigmalar tipologiyasini taklif etadi. Sivilizatsiyalar to'qnashuvi. Turli madaniyatga mansub jamiyat davlatlarining qarama-qarshiligi; Modernizatsiyalash. Transmilliy kompaniyalar amalga oshirayotgan modernizatsiya (vestnizatsiya, yevropizatsiya, amerikanizatsiya) ostida madaniyatlari gegemonlashuvi. Gibridlanish. Xalqaro munosabatlar ostida umumiy, aralash madaniyatning paydo bo'lishi.

Shunday qilib, globallashuv ko'p qirrali jarayon bo'lgani uchun uni izohlashda ko'plab masalalarga duch kelamiz. Buni bartaraf etish maqsadida jahonda globallashuv ta'siri ostida bo'layotgan jarayonlarni to'liq va mukammal tahlil qilib ko'rishga to'g'ri keladi. Xulosa o'rnida shuni ham aytish kerakki, globallashuv jarayoni zamonaviy fenomen sifatida o'z vazifasini qanday yo'l bilan bo'lsa-da bajarmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Danilov-Danilyan V.I.Ustoychivoe razvitiye-problema vijivaniya cheloveka//Nauka.Obshestvo.CHelovek.-M.,2004. -143 s.
2. Dudnik S. I.Paradigmi` istoricheskogo mi'shleniya XX veka: ocherki po sovremennoy filosofii kulturi`. SPb.: Sankt-Peterburgskoe filosofskoe obshestvo, 2001.B.132.
3. Jo'raev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B.221.
4. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. – T.: Ma'naviyat, 2006. 8-b.
5. Otamuratov S. Globallashuv va millat. – T., YAngi asr avlodi, 2008. – 13 b.
6. Ochiliev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. – T.: Muharrir nashriyoti, 2009. 64 b.
7. CHumakov A.N. Globalizatsiya. Konturi` tselostnogo mira. - M., Prospekt, 2005.S.259.
8. CHumakov A.N.Filosofiya globalnqx problem. - M.: Znanie, 1994. S.77-80.

Globallashuv jarayonlarining tizimli tahlili iqtisodiy, siyosiy, madaniy va texnologik omillarning o'zaro integratsiyasi

Rezyume: Bu maqolada geosiyosiy jarayonlar, globallashuv jarayoni hozirgi kunda insoniyat hayotini mutlaqo o'zgarishlarga burayotgan jarayonlardan biri ekanligi, mafkuraviy ta'sirlar va davlatning tizimli siyosiy pozitsiyalari faoliyatlarini berilgan bo'lib, ularning ijtimoiy hayotdagi munosabatlardagi o'rni va roli alohida ko'rsatib o'tilgan va chuqur ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: globallashuv, fan, proces, geosiyosiy, tamoyil, demokratiya, gumanizm, teoriyalar, kontseptsiyalar, g'oya.

Системный анализ процессов глобализации экономического, политического, культурного и

Резюме: в статье рассматриваются геополитические процессы, процесс глобализации, являющиеся в настоящее время одним из процессов, полностью преобразующих жизнь человечества, идеологические влияния и деятельность системных политических позиций государства, их место и роль в отношениях в общественной жизни отдельно показаны и глубоко проанализированы.

Ключевые слова: глобализация, наука, процесс, геополитический, принцип, демократия, гуманизм, теории, концепции, идея, парадигма.

System analysis of globalization processes economic, political, cultural, and technological mutual integration of factors

Summary: the article presents geopolitical processes, the process of globalization, which is currently one of the processes turning human life into radical changes, the activities of ideological influences and systemic political positions of the state, their place and role in social relations are separately indicated and deeply scientifically analyzed.

Keywords: globalization, science, process, geopolitical, principle, democracy, humanism, theories, concepts, idea, paradigm.

O'ZBEK DAVLATCHILIK TARIXIDA G'OYA VA MAFKURANING SIYOSIY ZARURAT SIFATIDA NAMOYON BO'LISHI

Alimbetova G.A.

Qoraqalpog' davlat universiteti

Yangi O'zbekiston xalqini ma'naviy birlashtirayotgan, uni xalq sifatida shakllanishiga muhim hissa qo'shgan milliy g'oya o'zining izchil tarixiy rivojlanish bosqichlarini boshdan kechirgan. Milliy davlatchilikning tarixan shakllanishi tajribasi, o'tgan yuz yilliklardagi turli siyosiy jarayonlar xulosasi o'laroq shakllangan milliy g'oya o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan davlat uchun juda muhim o'rin tutishi tabiiy. Zero, uning asosida milliy qadriyatlarni tiklash va insonni barkamollikka yetkazish kabi g'oyalar ustuvorlik kasb etadi. E'tiborli jihati shundaki, O'zbekiston xalqining milliy g'oyasi bunyodkor g'oyalar asosida shakllantirildi, taraqqiy topdi. Uch ming yillikdan ortiq izchil takomillashuv davrlarini o'z ichiga olgan mazkur g'oyalar, avvalo, insonparvar maqsadlarni o'zida mujassam etib, haqiqiy milliy siyosiy mafkuraga aylandi.

Yurtimiz tarixidagi ilk siyosiy g'oya va mafkuralar ildizi miloddan avvalgi birinchi ming yilliklarga borib taqaladi. Aynan o'sha paytlarda O'zbekiston hududida Baqtriya, Xorazm, So'g'diyona, Marg'iyona, Parkana, Parfiya, Zarafshon kabi o'lkalar mavjud bo'lib, sak-massagetlar, so'g'diylar, xorazmiylar, boxtarlar, parkanlar va boshqa elatlar yashaganligi qayd etiladi. Ajdodlarimizga xos dastlabki siyosiy mafkura va milliy g'oyalar afsona va rivoyatlar ko'rinishida ifoda etilgan mifologik qarashlardan iborat bo'lgan. Ilmiy adabiyotlarda ilk mafkuraviy g'oyalarga oid ma'lumotlar kam uchraydi. Shunday bo'lsada, bizga qadar yetib kelgan qadimgi ertak, rivoyat, doston hamda eposlarda o'sha davrda yashagan xalqlarning yurt tinchliligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligi yo'lidagi intilishlari aks etgan. Jumladan, miloddan avvalgi birinchi ming yillikning o'rtalarida sharqiy Eron elatlari orasida ko'p rivoyatlar tarqalgani haqida ilmiy qarashlar ilgari suriladi. Ammo ular yozma shaklda hujjatlarda qayd qilinmagan. Bu rivoyatlar asosan baxshilar tomonidan og'izdan og'izga o'tib tarqatilgan. Shu tarzda ular ajdodlardan avlodlarga o'tib, xalqimizning birdamligi, orzu-umidlari hamda qarashlarini ifodalagan.

Xususan, xalqimizning o'sha davrlarga oid tarixini o'rganishda Gerodot, Strabon, Plutarx, Polien, Elian kabi mutafakkirlarning asarlaridagi rivoyat va ma'lumotlar qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. Tarix, geografiya, san'at, falsafa, axloq va ta'lim-tarbiyaga oid mazkur asarlarda jasorat va mardlikka intilish, tenglik, zulmga qarshi kurash, Vatan ozodligini asrab avaylashda erksevar qabilalarning hayot tarzi qanday bo'lganligi bayon etiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, qadimdan ajdodlarimiz odob-axloq, ta'lim-tarbiyani jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida qarab, islohotlarni shu mezon asosida baholaganlar. Qadimgi davrlardayoq yoshlar, umuman, jamiyatdagi har bir a'zoning mukammal ta'lim-tarbiyasiga oid qat'iy talablar mavjud bo'lgan. Misol uchun, qilichbozlik, jang san'ati, ov qilish, chorvachilik, otda chopish, kamon-bozlik, nayzabozlik bilan bog'liq ko'nikmalar yoshlarga hayot kechirishning asosiy talablari sifatida singdirilgan. Bu kabi ko'nikmalar va hayotiy zarur bilimlar zamirida esa xalqparvarlik, vatanparvarlik, mardlik, kamtarlik, jasurlik, asosiy fazilat sifatida shakllantirilgan.

Tarixiy dalillar, xususan, antik davr tarixchilari Gerodot, Efor va Ktesiyning ma'lumotlarida miloddan avvalgi VIII – VI asrlarda O'rta Osiyo hududida yashagan qabila va elatlar xususida so'z boradi. Ular Midiya va Eron kabi yurtlardan kelgan bosqinchilarga qarshi mardonavor kurash olib borganlar. Bunda xalq qahramoniga aylangan Zarina, Sparetra, To'maris kabi ayollarning yurt tinchliligini ta'minlash yo'lidagi jasorati sharaflanadi. Yunon tarixchisi Polienning "Harbiy hiylalar" nomli asarida esa sak qabilasining vakili (ba'zi manbalarda uning cho'pon bo'lganligi aytiladi) Shiroq uning mamlakatiga kirib kelgan hukmdor va uning askarlariga qarshi yolg'iz o'zi kurash boshlagani qayd qilingan. Uning o'tkir zehni va vataniga bo'lgan cheksiz muhabbati yuksak axloqiy qadriyat sifatida bayon etiladi.

Tarixiy eposlarimiz va xalq amaliy san'ati namunalaridan bo'lgan Rustam va Siyovush haqidagi eposlar, Alpomish, Qiriq qiz, Baysi-Beyrek, Bayon-Suluv, Kozu-Kerpech haqidagi epik dostonlar va rivoyatlarda ham aynan yurt tinchliligi yo'lida kurashgan yosh yigit va qizlarning yuksak ma'naviy-axloqiy xislatlari tarannum etiladi.

Xalqimizga xos milliy g'oya tarixini o'rganishda zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto" ham juda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. Asarda zardushtiylik g'oyasi uch asosiy tushuncha: fikr, so'z va amal birligi kabi mezonlar asosida qurilgan. Unda "agar kishi o'z hayotida xursand va bahravar bo'lsa, yer yuzasini obod etsa, jahonga va jahon ahliga foyda yetkazsa, ana shular hammasi xudoga toat qilishning eng yaxshi ko'rinishi bo'lar edi, deb ta'kidlanadi. Zardusht "Xush va xurram yashashlik, hayotning yaxshiliklaridan bahra topishlik behishta yashamoq,

demakdir, yerni jannatga aylantirish kerak"[1], degan ta'limotni olg'a surdi. Bu borada Arrian, Plutarx, Yustin kabi antik davr tarixchi olimlari tomonidan qoldirgan tarixiy yozma manbalar ham e'tiborga molik. Ularning ma'lumotlariga ko'ra, milodgacha bo'lgan davrda, ya'ni 329-327-yillarda yunonistonlik Aleksandr sug'd xalqlarining yetakchisi Spitamen qo'shinlaridan mag'lubiyat alamini tortishga majbur bo'ldi[2]. Xuddi shuningdek, yana bir tarixiy misol:

Qadimiy yozma yodgorliklar turkumiga kiruvchi turk-runiy matnlarda tasvirlangan O'rxun-Enasoy va turk hukmdorlaridan Bilka Hoqon, uning ukasi Qul Tegin va sarkarda To'nuko'klarning qabr toshlariga o'yilgan bitiklarda ham milliy siyosiy g'oyalar mazmunidagi satrlarga duch kelish mumkin. Ularda ham xalqning ozodlik, milliy birlik, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va farovonligiga erishish, or-nomusini qayta tiklashga bo'lgan intilishlari ifodalangan. Yozma manbalar asrlar osha g'oyat katta g'oyaviy-tarbiyaviy vazifani bajarib keladi[3].

Dunyo tamadduniga nazar tashlaydigan bo'lsak, miloddan avvalgi VI asrdan milodiy V asrgacha gullab yashnagan, o'z davrining ilg'or madaniyati hisoblangan yunon madaniyati IV asrga kelib inqirozga yuz tutgan. 415-yilda esa yunon olimlari, umuman, fani qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlar xazinasi bo'lgan Iskandariya kutubxonasi vayron qilingan. Natijada yuzlab, hatto minglab kitoblar yoqib yuborilgan. Buning salbiy oqibati o'laroq, dunyo fani taraqqiyotdan to'xtab, qo'lga kiritilgan ilmiy yutuqlar unutila boshlangan. Aynan shu davrda islom dinining yuzaga kelishi va tez orada katta hududga yoyilishi xalqlarning tarbiyaviy-ma'naviy hayotiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Buning amaliy samarasi o'laroq, ma'naviy hayotda yuz bergan o'zgarishlar tez orada nafaqat diniy, balki dunyoviy bilimlar taraqqiy etishiga ham turtki bo'ldi. Uyg'onish va Renessans davri sifatida tarixga kirgan bu davr xalqimizning milliy uyg'onish, siyosiy g'oyalar shakllanishi davri sifatida namoyon bo'ldi. O'sha davrlarda falsafa, astronomiya, matematika, fizika, geometriya, tibbiyot, tarix, adabiyot, pedagogika kabi aniq fanlar rivoj topishi, bu dunyoviy ilmlarning ko'zga ko'ringan qomusiy olimlarning yetishib chiqishi milliy mafkuramizning bunyodkor, tashabbuskor, islohotchilikka yo'g'rilgan g'oyalar bilan boyishiga xizmat qildi.

Vengriyalik mashhur sharqshunos olim Herman Vamberi o'zining "Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi" nomli asarida Temuriylar davrining mafkuraviy shart-sharoitlari to'g'risida juda qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan. "Mafkuraviy salohiyati yuksak, siyosiy jarayonlarda ta'sir doirasi keng bo'lgan Temuriylar davri davlat mafkurasi asosini islom dini, xususan, hazrat Bahouddin Naqshband tariqati tashkil etgan. Mazkur ta'limotda ruhiy va jismoniy osoyishtalikning eng samarali yo'li – jamiyat baxt-saodati uchun yashab, mehnat qilishdan iborat ekanligi ustuvor g'oya sifatida keng targ'ib etilgan. Buyuk mutafakkir inson o'z mehnati bilan shaxsiy hayotini, jamiyatni, qolaversa, butun dunyoni obod qilish imkoniyatiga ega, degan taraqqiyparvar g'oyani ilgari surgan. Ayniqsa, "Dil ba yoru dast ba kor" degan ezgu fikr orqali o'z g'oyasini ifodalagan"[4]. Sohibqiron Amir Temur Bahouddin Naqshbandning bir necha aqidaviy qarashlarini va fikrlarini ma'nau o'z amaliy shiorlariga aylantiradi. Jumladan, "Kamar bar miyon va sano bar zabor", ya'ni "Belda kamar va tilda sano", shuningdek, "Muruvvat va mardi peshi xoliq va xaloyiq mahmud ast", ya'ni "Insonparvarlik, yaxshilik va mardlikni Olloh ham, xalq ham ulug'laydi", degan g'oyalarini o'z davrining ustuvor mafkurasiga singdirishga harakat qilgan. U o'zining g'oyaviy qarashlarini bayon etgan "Temur tuzuklari" asarida "Adolat kuchda emas, kuch – adolatdadir" degan haqqoniy g'oyani ilgari surdi"[5]. Ana shunday ma'rifatparvarlik g'oyalari asosida davlatchilik ishlari tashkil qilingan Temuriylar davrida Movarounnahrda taraqqiyot o'zining yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Mamlakatda ilm-fan rivojlandi, ko'plab maktablar va madrasalar barpo etildi. Bu davrda bir qator ilm fan va ma'naviyat namoyondalari shakllandi. Mashhur olim, matematik va astronom, o'z zamonasining Afrotuni deb nom olgan Salohiddin Mussa bin Mahmud Qozizoda Rumiy, yirik matematik va astronom G'iyosiddin Jamshid, Mirzo Ulug'bek asarlarining sharhlovchisi Qozizoda va o'z davrining Ptolomeyi deb nom olgan Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchilar o'z asarlari bilan milliy g'oyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar.

"Ayniqsa, ma'rifatparvar hukmdor Mirzo Ulug'bekning milliy va siyosiy bunyodkor g'oyalar tarixida tutgan o'rni beqiyosdir. Aynan uning davrida mintaqada ilm fan rivojlandi. Bunyodkor g'oya bilan uyg'unlashtirilgan tarbiya tizimi shakllanib, yuqori pag'onaga ko'tarildi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari vujudga keldi, maktabxonalar va madrasalarda diniy fanlar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlarni faol o'rgatishga keng yo'l ochildi. Xususan, o'sha paytlarda falakiyotshunoslik, riyoziyot, jug'rofiya, me'morchilik sohasida yirik kashfiyotlarga qo'l urildi. Jamiyatda ilm fanga bo'lgan e'tibor sabab quyosh, oy, sayyoralar va boshqa yoritgichlar, kecha-kunduzning istalgan vaqtidagi holatlarini aniqlaydigan sferik astronomiyaning aniq qoidalar, jug'rofiy yo'nalish asosida Quyosh balandligini tadqiq etishda amal qiladigan qoidalar va usullar sohasidagi kashfiyotlar dunyoga keldi. Bundan tashqari, ma'rifatga yo'g'rilgan mafkura sabab turli shaharlar orasidagi masofalarni aniqlash uchun geodezik o'lchovlarni amalga oshiradigan moslamalar, vaqt o'lchash asboblarini yasash, yer yuzi xaritasini tuzish va unga doir riyoziyotga taalluqli ko'rinish holatlarini aniqlash, metereologiya va geofizikaga oid bir qator yangi qurilmalar ishlab chiqildi"[6].

Bu davrda nafaqat ilm fan, balki adabiyot va ma'naviyat ham yuksaldi. Temuriylar davrining yirik namoyandalardan buyuk mutafakkir Alisher Navoiy fan va san'atning adabiyot, ta'lim-tarbiya, tarix, til bilimlari, musiqa, xattotlik, tasviriy san'atga oid o'z asarlarida bunyodkor g'oyalarni ilgari surdi. Uning "Xamsa", "Mahbub ul-qulub", "Munajat", "Vaqfiya", "Majolisun nafois", "Muhokamat ul-lug'atayn" kabi dunyoga mashhur asarlarida barkamol shaxs timsoli birinchi o'ringa olib chiqildi. Navoiy jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan barkamol insonni tarbiyalash va kamolga yetkazish uchun zarur bo'lgan amaliy harakatlarning mazmuni ochib berishga harakat qildi. Ayniqsa, shoir inson kamolotida ilm-fanning o'rni, aql-idrok va bilishning ahamiyati qanchalik ulkan ekanligini aniq dalillar yordamida ko'rsatdi. U ilm va ma'rifat insonni, xalqni nodonlik va jaholatdan asrovchi, jamiyatning taraqqiy etishiga xizmat qiluvchi muhim milliy va siyosiy mafkuralardan biri ekanligi har tomonlama asoslagan mutafakkirdir"[7]. Alisher Navoiy o'zining milliy g'oya, milliy mafkurada ma'rifatni ulug'lashga yo'g'rilgan qarashlari bilan xalqimiz hayotida katta iz qoldirdi. Uning homiyligida ko'plab maktab va madrasalar qurildi, ulamolar yetishib

chiqdi. Navoiy davlat arbobi sifatida ham hokimiyat uchun o'zaro kurashlarga barham berish, xalqni yagona milliy g'oya atrofida birlashtirish kabi qarashlariga sodiq yashadi.

“Sharq uyg'onish” davrining ikkinchi bosqichi deb nomlangan bu davrda Abdurazzoq Samarqandiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Voiz Koshifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi yirik allomalarning bunyodkor g'oyalar, hokimiyatdagi siyosiy jarayonlarni boshqarishga oid qarashlarni o'zida mujassamlashtirgan yirik asarlari dunyoga keldi.

Afsuski, XVII – XVIII asrlarga kelib xalqimiz tarixida umummilliy mafkura va ma'rifiy taraqqiyot o'miga tor doiradagi, har tomonlama cheklangan ma'naviy muhit paydo bo'ldi. Bu holat deyarli XIX asr oxiriga qadar davom etdi. Shaxsiy adovat, taxt vorislari o'rtasidagi hokimiyat talashuvlari, qarindoshchilik va sulolaviy manfaatparastlik aqidalari jamiyat hayotidagi milliy birlik, mafkuraviy yakdillikka jiddiy raxna soldi. Xususan, jamiyat, keng aholi qatlamlari hayotidagi ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishga nisbatan bepisand kayfiyatning kuchayishi, shuningdek, ilm-ma'rifatning ravnaq topishiga e'tiborsizlik mafkuraviy tanazzulga zamin hozirladi.

Xonliklar madaniy hayoti, ayniqsa, maorif, adabiyot va san'at XVI asr an'analari bilan yashashda davom etdi. Ko'plab ko'hna madaniyat markazlari, ilm fan maktablari inqirozga yuz tutdi. Madrasalarda dunyoviy bilimlar o'qitilmaydigan bo'ldi, aqidaparastlik hukmronlik qildi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, XVII asr o'rtalarida Buxoro xonligi tasarrufida bir yuz ellikdan ortiq madrasa faoliyat olib borgan bo'lsa-da, ular o'z davriga nisbatan ilgari ketayotgan ilm-fan rivoji talabiga javob bera olmasdi. Birgina misol, “Falakiyot tili ilmi nujum bilan aralashtirib yuborildi, hatto eng o'qimishli kishilar ham xarita va jug'rofiyani yaxshi bilishmasdi”[8].

ADABIYOTLAR

1. Бобоев Х., Хасанов С, Авесто — маънавиятимиз сарчашмаси, Т.: 2001. – Б.163.
2. Гафуров Б., Сибукидис Д.И., Александр Македонский и Восток, М.: 1980. – С.85.
3. Зуев Ю.А. Ранние тюрки.: Очерки истории и идеологии. – Алматы, 2002.-С.158-159; Кляшторный С.Г., Лившиц В.А. Согдийская надпись из Бугута. – С.143.
4. Вамбери А. Бухоро ва Мовароуннахр тарихи I ва II китоб. Info Capital Group, 2022. – Б.134.
5. Кароматов Х., “Темур тузуклари”ни Ўзбекистонда ўрганиш муаммолари (Темурийлар даври маданият ёдгорликлари), Т.: 2003. – Б.91.
6. Улуғбек, Мирзо. Тўрт улус тарихи . (Б.Ахмедовнинг кириш сўзи, изоҳлари ва таҳририда; Форс тилидан Б.Ахмедов ва бошқалар. Т. Чулпон. 1993. – Б.352.
7. Алишер Навоий, Танланган асарлар, 13 том.Т.1981, — Б.115.
8. Жумабоев Ю. Ўрта Осиё этикаси тарихи очерклари.Т. : «Ўзбекистон», 1980. – Б.24-33.

O'zbek davlatchilik tarixida g'oya va mafkuraning siyosiy zarurat sifatida namoyon bo'lishi

Rezyume. O'zbek davlatchilik tarixida g'oya va mafkuraning siyosiy zarurat sifatida namoyon bo'lishi , tarixiy rivojlanish bosqichlari haqida , dunyo olimlarning fikrlari o'rganilgan va ularning amaliy ahamiyatiga baha berilgan.

Kalit so'zlar: Mafkura , siyosiy mafkura, siyosiy g'oya, siyosiy jarayonlar.

Проявление идеи и идеологии как политической необходимости в истории узбекской государственности

Резюме. Изучены взгляды мировых ученых на проявление идей и идеологии как политической необходимости в истории узбекской государственности, этапы исторического развития, дана оценка их практической значимости.

Ключевое слово: Идеология, политическая идеология, политическая идея, политические процессы.

Manifestation of ideas and ideology as a political necessity in the history of Uzbek statehood

Summary. The manifestation of ideas and ideology as a political necessity in the history of Uzbek statehood, the stages of historical development, the opinions of world scientists have been studied, and their practical significance has been assessed.

Key words: Ideology, political ideology, political idea, political processes.

YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA MISSIONERLIKKA QARSHI KURASHNI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI

Tanimov Sh.M.

Qoraqalpoq davlat universiteti

Azaldan yurtimizda zardushtiylik, buddaviylik, nasroniylik, moniylik hamda islom dini vakillari o'zaro inoq va tinch – totuvlikda istiqomat qilishgan. Diyorimizdagi ma'naviyat va madaniyat markazlari hisoblangan ko'plab shaharlarda masjid, cherkov, sinagoglar faoliyat ko'rsatgan. Ushbu muqaddas maskanlarda turli dinga mansub millat va elatlar o'zlarining diniy marosimlarini emin-erkin ado etishgan. Binobarin, mazkur holatni hozirgi vaqtda mamlakatda yashovchi turli dinlarga e'tiqod qiluvchi barcha millatlar va elatlarning o'zaro munosabatlari misolida ham ko'rish mumkin. Ayniqsa, mamlakatimiz o'z mustaqilligini e'lon qilishi jarayonlarida bu borada tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashda barcha din vakillari o'rtasida diniy asosda mojarolar bo'lmaganligiga tarix guvohdir. Bu haqda, fikr yuritganda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: “...Bizning davlatimiz ko'p millatli va ko'p konfessiyali davlat. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda. Bu borada, hech shubhasiz, xalqimizga azaldan xos bo'lgan bag'rikenglik an'analari muhim rol o'ynamoqda”[1,3], – deya ta'kidlagani ayni haqiqatdir. Zero, bugungi kunda mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar sabab, diniy-ma'rifiy sohada ham bir qator o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy hayotning barcha sohalar qatori ma'naviy hayotda ham tub o'zgarishlarga zamin yaratdi. Ma'naviy hayotning tarkibiy qismi bo'lgan dinga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Mamlakatimizda fuqarolarimizning vijdon erkinligini ta'minlash qonunan kafolatlandi. Mamlakatimizda 2023 yil 30 aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqimiz hayotining barcha sohalarini yuksaltirish, xalqimiz manfaatlari va farovon turmushini ta'minlash, yurtimizni ilg'or

rivojlangan davlatlari qatoridan o'rin olish maqsadida bir qator qoidalar, huquqiy asoslar ishlab chiqilgan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 35-moddasida: "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi" deya belgilab qo'yilgan[2,20].

Din va dunyoviy davlat o'rtasidagi munosabat haqida fikr yuritilganda, uning asosida eng avvalo, dinning davlatdan ajratilishi tamoyili asosiy o'rin tutishini ta'kidlash lozim. Mamlakatimizning asosiy qomusi – Konstitutsiyamizning 75-moddasida: "Diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatiga aralashmaydi. Davlat qonunda belgilangan tartibda faoliyat ko'rsatayotgan diniy tashkilotlar faoliyatining erkinligini kafolatlaydi", – deya alohida ta'kidlangan.

Hozirda Respublikada turli e'tiqodga mansub diniy tashkilotlar o'rtasida o'zaro hurmat o'rnatilgan. Mamlakatning ko'p millatli va ko'p konfessiyaliligidan kelib chiqib, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash va qonuniy kafolatlashda O'zbekiston boy tajriba orttirgan. Ayniqsa, mamlakatimizda milliy o'zlikni anglash, millatlarning tili, madaniyati va urf-odatlarini asrab-avaylashga alohida e'tibor qaratib kelinadi.

O'zbekistonda yashovchi barcha millat va elatlarining birdamligini ta'minlashda diniy bag'rikenglikni mustahkamlash, bir g'oya atrofida birlashtirish hamisha ustuvor vazifa sifatida e'tibor qaratib kelinadi. Bu haqda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning ta'biri bilan aytganda, "bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan"[3,295]. Zero, xalqimizning buyuk qadriyati hisoblanmish bag'rikenglik va dinlararo totuvlik munosabatlari xalqimizning mentalitetini tashkil etadi.

Dunyodagi mavjud dinlar o'z mohiyatiga ko'ra, o'zida ezgulik, tinchlik, yaxshilik, do'stlik hamda bunyodkor g'oyalarni mujassam etadi. Din insonlarni halollik va poklikka, tantilikka, mehr-shafqat, birodarlik va bag'rikenglikka targ'ib etadi. Islom va xristianlik dinlari insonparvarlik g'oyalarini o'zida mujassam etuvchi axloqiy me'yorlar: saxovat, rahmdillik, halollik, qalb sofligi, mardlik hamda tantilikka da'vat etadi.

Demak, "barcha jahon dinlarida diniy bag'rikenglik masalasi ham umuminsoniy hamda diniy – axloqiy fazilatlar orqali singdiriladi"[4,36]. Shu tariqa, din insonlar ongiga ta'sir o'tkazishning eng samarali usullaridan biri sifatida namoyon bo'la boshlagan. Diniy ta'limotlar har qanday jamiyat hayotida madaniyat va ma'naviyatga ta'sir o'tkazish orqali insonlarda ishonchni mustahkamlaydi. Insonlarga hayotdagi sinovlar, muammolar va qiyinchiliklarni yengib o'tishda madad bergan. Hozirgi kunda yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari o'zaro inoq va totuvlikda istiqomat qilishmoqda. Mamlakatimizda 16 ta diniy konfessiya mavjud bo'lib, ular bir oila a'zolaridek hamjihatlikda yashab kelmoqda. Bu hamjihatlik zaminida barcha din vakillarining tinchlik va barqarorlikni saqlash, diniy ekstremizm, fundamentalizm, terrorizm, missionerlikka qarshi kurashdagi o'zaro hamkorligi o'rin olgan. Bugungi kunda mamlakatimiz milliy taraqqiyoti millatlararo totuvlik va o'zaro hamkorlik ruhida rivojlanishining yangi bosqichiga chiqdi. Zero, dunyoviy davlatning konfessiyalararo munosabatlari borasida o'ziga xos murakkablik va qarama-qarshiliklar mavjud. Shu o'rinda, dinning ilmiy va obyektiv asosda o'rganilmaganligi turli siyosiy-mafkuraviy markazlar tomonidan dindan boshqa maqsadlarda foylanishga zamin yaratmoqda. Missionerlik tashkilotlari jamiyatda yoki davlat ichida o'z manfaatlarini ta'minlash maqsadida g'oyaviy-siyosiy markazlardan dinga bo'lgan nozik munosabatidan foydalanishga harakat qilishayotganligi namoyon bo'lmoqda.

Missionerlik tashkilotlarining "beg'araz" yordamlari "ayrim" siyosiy markazlar ko'magidagi muayyan mintaqa yoki mamlakatdagi diniy muvozanatni izdan chiqarishni maqsad qilayotganligi tobora oydinlashmoqda. Shu tariqa, "insonparvarlik" va "adoalatparvarlik" bayrog'i ostida o'zlarning ta'sir doiralarini kengaytirishmoqda[5,7].

Hozirda hukumat tomonidan olib borilayotgan targ'ibot-tashviqot ishlarining samaradorligi missionerlik ta'siriga tushgan adashgan fuqarolarga tushuntirish ishlarini olib borishga qaratilgan. Bu haqida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev qayd etganidek: "Davrning, hayotning keskin talablaridan orqada qolmaslik uchun, barchamiz har kuni o'qib-o'rganishimiz, o'z ustimizda ishlashimiz, bilim va saviyamizni doimo oshirib borishimiz kerak. Bizning tomirlarimizda ulug' ajdodlarimizning qoni oqmoqda. Buyuk bobolarimizning munosib izdoshlari va davomchilari bo'lish biz uchun ham qarz, ham farz, desam, o'ylaymanki, barchangiz bu fikrga qo'shilasiz. O'z Vatanini, ona xalqini ravnaq toptirish uchun o'zini ayamadan mehnat qilish: bu – jasorat va mardlik, bu – ona yurtga muhabbat va sadoqat, bu – to'g'ri tarbiya va amaliy namuna demakdir"[6,4]. Zero, dunyoda yuz berayotgan voqea va hodisalarga teran nazar tashlasak, mamlakatimizda millatlararo totuvlik va konfessiyalararo hamkorlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Yurtimizda barcha din va konfessiyalar o'rtasida dinlararo hurmat, hamkorlik ruhidagi sog'lom muloqot olib borish amaliyoti joriy etilmoqda. Ammo, ayrim diniy jamoalar, konfessiyalar vakillari tomonidan boshqa e'tiqod vakillarini missionerlik harakatlari oqibatida oshkora yoki pinhona shakllarda kamsitish, mensimaslik orqali diniy adovat uyg'otishga sabab bo'layotgani kuzatilmoqda.

Bugungi kunda dunyo miqyosida diniy nifoq solish orqali tinchlik va barqarorlikka tahdid solishga intilayotgan missionerlikka qarshi kurashda yoshlarimizni milliy mafkuramizga sodiq etib tarbiyalash zamon talab etmoqda. Insoniyat uchun, uning taraqqiyoti uchun jiddiy xavf solayotgan missionerlik tahdidlari qarshisida hushyor va ogoh turishni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Shavkat Mirziyoyev: "Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan"[7,2], – deya ta'kidlagani bejiz emas. Zero, globallashuv jarayonida milliy mafkura turli dinga e'tiqod qiluvchi millat va elatlarni missionerlikka qarshi kurashda mafkuraviy-g'oyaviy, ma'naviy-axloqiy hamda ruhiy jihatdan yagona kuch sifatida birlashuviga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi. Adolat 2017. № 24. – B. 1-3.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – B. 20.
3. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1- jild. – Toshkent; O'zbekiston, 2017. – B. 295.
4. Saidova S. Millalararo totuvlik va diniy bag'rikengilik. Imom Buxoriy saboqlari. 2016. №3. – B. 36.
5. To'xtarov I. Axborot almashinuv jarayonlarining globallashuvi sharoitida diniy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashning ayrim masalalari. "Globallashuv jarayonida axborot xavfsizligi: informatsion tahdid va mafkuraviy immunitet masalalari". Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Farg'ona. 2013-yil fevral. – B. 7.
6. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining yigirma sakkiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <http://uza.uz/oz/politics/prezident-shavkat-mirziyoyevning-zbekiston-respublikasi-musta-31-08-2019>.
7. Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi. <https://xs.uz/uzkr/post/agar-kimdir-manaviyat-masalasi-bu-faqat-manaviyat-markazi-yoki-tegishli-vazirlik-va-idoralarning-ishi-deb-ojlasa-khato-qiladi-shavkat-mirziyoyev>.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonda missionerlik harakati xavfini bartaraf etishning ijtimoiy-siyosiy omillari, global miqyosda xavfsizlik, barqarorlikka rahna solish maqsadida ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy-huquqiy tahdid sifatida namoyon bo'layotgan missionerlikning g'oyaviy-mafkuraviy ko'rinishlari borasidagi fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: missionerlik, prozeltizm, mafkuraviy intervensiya, manipulyatsiya, ekspansiya, terrorizm, tinchlik.

Аннотация. В данной статье освещены социально-политические факторы устранения угрозы миссионерского движения в Новом Узбекистане, идейно-идеологические проявления миссионерства как духовной, политической, экономико-правовой угрозы безопасности и стабильности в глобальном масштабе.

Ключевые слова: трансформация, идеологическое интервенция, манипуляция, экспанция, терроризм, мир.

Annotation. This article examines the socio-political factors of eliminating the threat of the missionary movement in New Uzbekistan, the ideological and ideological manifestations of missionary work as a spiritual, political, economic, and legal threat to security and stability on a global scale.

Key words: transformation, ideological intervention, manipulation, impact, terrorism, peace.

YANGI O'ZBEKISTON EKOLOGIK DIPLOMATIYASIDA MINTAQAVIY VA GLOBAL TASHABBUSLARNING O'ZIGA XOSLIGI

Nurmetov I. A.

Urganch davlat universiteti

Kirish. Ma'lumki, dunyoda global va mintaqaviy o'zgarishlar sodir bo'layotgan bugungi murakkab bir sharoitda mamlakatlararo mavqeini saqlab qolish va kelajak taraqqiyotini ta'minlash yagona mintaqaviy integratsiyalashuv asosida hal etilishi mumkin. Prezident Sh. Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutq so'zlar ekan, "Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'alariga amal qilib, teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz", – degan edi [1].

Mazkur g'oyaning mantiqiy davomi sifatida yillar davomida o'z yechimini kutayotgan ishlar bo'yicha konstruktiv rejalar ishlab chiqilmoqda. Xususan, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 98-maqsadi aynan ushbu yo'nalishga qaratilgan bo'lib, unda jahon hamjamiyatida respublikamiz imijini oshirishga qaratilgan axborotlar yetkazish samaradorligini oshirish masalasi muhim topshiriq sifatida ilgari surilgan.

XXI asr geosiyosiy jarayonlari shuni ko'rsatadiki, kichik va o'rta davlatlarning xalqaro maydondagi nufuzi nafaqat harbiy salohiyat yoki iqtisodiy qudrat bilan, balki tashabbuskorlik, mintaqaviy va xalqaro diplomatiyada faollik kabi omillar bilan ham belgilanmoqda. Shu ma'noda, so'nggi yillarda "Yangi O'zbekiston"ning tashqi siyosat modeli xalqaro ekspertlar tomonidan "initiative-based diplomacy" – tashabbusga asoslangan diplomatiya sifatida ta'riflanmoqda.

XX asrning oxirlariga kelib davlatlar o'rtasidagi muvozanatni saqlashda va o'zaro hamkorlik munosabatlarida - xalqaro tashkilotlarning roli katta ahamiyat kasb eta boshladi. Ayniqsa integratsiya sharoitida dunyo hamjamiyatining shakllanishi, xalqaro jinoyatchilik va uning turli ko'rinishlariga qarshi jiddiy kurash olib borishda xalqaro tashkilotlarning yaqin hamkorligi juda zarurdir [2]. Respublikamizning dunyodagi xalqaro tashkilotlar bilan anjumanlar o'tkazishlari, hamkorlik tajribalari ushbu hamkorlikning rivojlanish istiqbollari xususida ayrim xulosalarni chiqarish va uning yanada rivojlanishi uchun ayrim yo'nalishlarni belgilash imkonini beradi. Globallashuv jarayoni davlat imijini shakllantirish va saqlash texnologiyalarining o'zgarishiga yordam beradi. O'zbekistonning mintaqaviy va global tashabbuslardagi ishtiroki orqali xalqaro maydondagi nufuzining shakllanishi va mustahkamlanishini tahlil qilish uchun tadqiqotda tizimli va xronologik tahlil, qiyosiy tahlil, Diplomatik diskurs, manbashunoslik tahlili usullaridan foydalanilgan. Ular quyidagilardan iborat: Tizimli tahlil usuli. O'zbekiston tashqi siyosati bir-biri bilan bog'liq geosiyosiy omillar tizimi sifatida o'rganildi. Bu yondashuv mamlakatning mintaqaviy diplomatiyasi, global tashabbuslari va xalqaro tashkilotlardagi ishtiroki o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmini ochib berish imkonini berdi.

Qiyosiy tahlil usuli - O'zbekistonning tashqi siyosiy faoliyatini Markaziy Osiyoning mintaqasidagi integratsiya jarayonlari kontekstida tahlil qilish imkonini beradi. Bu orqali O'zbekistonning tashabbuskorlik, diplomatik dinamika va xalqaro nufuzning o'sish tendensiyalari aniqlandi. Diplomatik diskurs orqali Prezident nutqlari, BMT Bosh Assambleyasidagi chiqishlar, mintaqaviy sammitlar bayonotlari va xalqaro matbuot materiallari tahlil qilinsa,

manbashunoslik va rasmiy hujjatlar tahlili asosida BMT rezolyusiyalari, O'zbekiston tashabbuslarining normativ-huquqiy asoslari o'rganiladi.

Muhokama va natijalar. Avvalo, O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati va rivojlanish sur'atlari va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish borasidagi sa'y-harakatlari bugungi kunda jahon iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish, investorlarning bu boradagi davlat siyosatining izchilligiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash va investorlar bilan ishlashda davlat tuzilmalarining mas'uliyati oshirilmoqda. Shu bois yurtimizga xalqaro kompaniyalar va investorlarning faol ravishda kirib kelishi ortmoqda.

O'zbekistonning xalqaro hamkorlik sohasidagi faoliyati ham diqqatga sazovor. Mamlakatning tashqi siyosati o'zaro ishonch va hamkorlikka asoslangan bo'lib, o'z navbatida, bu muhim omil xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini mustahkamlash imkonini berdi. Xususan, O'zbekiston BMT, YeXHT, Islom hamkorlik tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlar doirasida o'z mavqeini mustahkamladi. Shu bilan birga, O'zbekistonning madaniy va ma'naviy merosi xalqaro maydonda alohida o'ringa ega. Xususan, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlar va ularning boy madaniy merosi dunyo jamoatchiligining diqqatini o'ziga jalb etmoqda. Turizm sohasidagi rivojlanish va sayyohlik infratuzilmasini yaxshilash natijasida O'zbekistonga keluvchi sayyohlar soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Yangi O'zbekiston sharoitida mamlakat tashqi siyosati "faqat tashqi aloqalar emas, balki tashqi maydonda milliy nufuzni shakllantirish" tamoyili asosida qayta formatlandi. Bunda, O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar faoliyatidagi ishtiroki passiv kuzatuvchi darajasidan tashabbuskor sub'ekt maqomiga ko'tarildi. Xususan, Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari, Orolbo'yi mintaqasi bo'yicha tashabbuslar, BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyusiyalari O'zbekistonning global maydondagi diplomatik imijini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi.

2016-yildan boshlab O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri -Mintaqaviy integratsiya va qo'shnichilik diplomatiyasini institutsional darajaga olib chiqish bo'ldi. Xususan, O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan 2016-yilga qadar shakllangan barcha masalalardagi munosabatlarini qayta ko'rib chiqish taqozo qilinardi. Zero, suv resurslari, transport kommunikatsiyalaridan foydalanish, atrof-muhitni transchegaraviy ifloslanishlardan himoya qilish, chegaralar delimitatsiyasi va boshqa masalalarda murosaning yo'qligi yillar davomida kelishmovchiliklarga sabab bo'lgan edi. SHu sababli zamonaviy muloqotlarda Markaziy Osiyo davlatlarini qiziqtiradigan xavfsizlik, iqtisodiyot, investitsiya, turizm, madaniyat, sog'liqni saqlash va ekologiya sohalarida mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga ega qo'shma qarorlar qabul qilindi [3]. Mintaqada suv-energetika bilan bog'liq masalalarni hal qilishda siljishlar kuzatildi. O'zbekiston Qambar-Ota va Rog'un GESi qurilishi loyihalarida ishtirok etish imkoniyatini ko'rib chiqishga tayyorligini bildirdi [4]. Yangi O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining bosh ustuvor yo'nalishi Markaziy Osiyo mintaqasidir. O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi siyosati mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga, mintaqaviy xavfsizlikning muhim muammolarini hal etishga qaratilgan. O'zbekiston mintaqaviy savdo-iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash, mintaqaning transport va tranzit infratuzilmasini rivojlantirish, Markaziy Osiyo transchegaraviy daryolarining suv-energetika resurslaridan oqilona va kompleks foydalanish hamda mintaqaning ekologik barqarorligini ta'minlash, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonini yakuniga yetkazish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshirad [5].

Xalqaro hamjamiyat bilan keng ko'lamli hamkorlik natijasida O'zbekiston bir qancha yutuqlarga erishdi. Jumladan, Yangi O'zbekiston sharoitida BMT bilan hamkorlikda yangi tendensiyalar, o'zaro munosabatlarda yangi bosqich boshlandi. 2017-, 2024-yillarda BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish rasmiy tashrif bilan O'zbekistonda bo'ldi. O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 72-, 75-, 76-, 78-, 80-sessiyalarida nutq so'zladı. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasida qator rezolyusiya va deklaratsiyalar qabul qilindi. Jumladan, 2018-yil "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash", "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik", 2019-yil "Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish", 2021-yil "Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish", 2022-yil "Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash to'g'risida", "Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to'g'risida", 2024-yil "Xalqaro sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqot kuni", "O'rmonlarni barqaror boshqarish asosida o'rmonlarni ko'paytirish va qayta tiklash bo'yicha harakatlar dekadasi" rezolyusiyasi hamda 29-aprelni "Xalqaro zilzila qurbonlarini xotirlash kuni" deb e'lon qilish to'g'risidagi rezolyusiyalar shular jumlasidandir [6]. Ushbu rezolyusiyalar nafaqat Markaziy Osiyoning iqtisodiy va siyosiy rivoji, balki butun dunyodagi global muammolarni hal etishga ham muhim ta'sir ko'rsatadi.

2018-yil 24-avgust kuni Turkmanboshi shahrida o'tgan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasining ta'sischi davlatlari rahbarlari sammitida O'zbekiston Prezidenti Orol mintaqasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik vaziyatni yaxshilash borasida muhim tashabbuslarni ilgari surdi, jumladan, Orolbo'yini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilishni taklif etdi. Natijada, 2019-yilning noyabr oyida O'zbekiston rahbariyatining tashabbusi bilan BMT shafeligidagi Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik asosida Trast fondi tashkil etildi [7]. Shuningdek, Turkmanboshi shahrida bo'lib o'tgan OQXJ ta'sischi davlatlar rahbarlari kengashining majlisida Barqaror rivojlanish uchun atrof-muhit bo'yicha Mintaqaviy dasturi loyihasi, DBRKning Maslahat kengashini tashkil etish masalalari ko'rib chiqildi. SHuningdek, DBRKga raislik qilish vakolati Turkmanistondan O'zbekiston Respublikasiga berildi. 2019 yil oktyabr oyida Nukus shahrida DBRKning yillik sessiyasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Evropa iqtisodiyoti komissiyasi hamda Davlatlararo barqaror rivojlanish komissiya o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumini imzolash marosimi bo'ldi. Ushbu hujjat Markaziy Osiyoda atrof-muhit bilan bog'liq

barqaror rivojlanish maqsadlari, atrof-muhitni boshqarishni kuchaytirish, yashil iqtisodiyot va resurslardan foydalanish samaradorligi, iqlim o'zgarishiga moslashish, bioxilma-xillik va ekotizimlarni boshqarish, suv sifati va chiqindilarni boshqarish, mintaqaviy va milliy ahamiyatga molik boshqa ustuvor yo'nalishlar bo'yicha taraqqiyotga erishishga qaratilgan [8]. 2024-yil 4-iyun kuni BMT Bosh Assambleyasi O'zbekiston tashabbusi asosida "Markaziy Osiyo davlatlarining g'iyohvandlik bilan bog'liq muammolarni samarali hal etish va bartaraf etish uchun yagona front bo'lib harakat qilish va hamkorlik qilishga tayyorligi to'g'risida"gi rezolyusiyani bir ovozdan qabul qildi. Rezolyusiyada Markaziy Osiyoda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish mintaqadagi g'iyohvand moddalar savdosi va g'iyohvandlikka qarshi kurashish bilan chambarchas bog'liqligi ta'kidlangan.

2024-yil iyun oyida 2025-2027- yillar uchun BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi a'zoliciga o'tkazilgan saylovda O'zbekiston 185 mamlakat tomonidan qo'llab-quvvatlanib, EKOSOSga saylandi. BMT doirasida barqaror rivojlanishning barcha uch yo'nalishi – iqtisodiy va ijtimoiy sohalar, shuningdek, atrof-muhitni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarda EKOSOS muhim o'rin tutadi. 2024-yil 13-14-iyun kunlari "Ekologik tahdidlar: o'zgarayotgan dunyoda inson huquqlarining istiqboli va barqaror yechimlarni izlash" mavzusidagi Inson huquqlari bo'yicha IV an'anaviy Samarqand forumi o'tkazildi. Prezidentimizning Samarqand forumiga murojaatidagi g'oya va tashabbuslari O'zbekistonda iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq inson huquqlari muammolariga yechim topish masalasiga alohida e'tibor qaratilayotganini yana bir bor tasdiqlaydi [9]. O'zbekistonning xalqaro maydondagi o'rni va ahamiyati yanada o'rinish mamlakatning barqaror rivojlanishi va xalqaro hamjamiyat bilan integratsiyalashuvida muhim omil bo'lmoqda. Bu jarayondagi islohotlar va sa'y-harakatlar mamlakatning kelajakda ham xalqaro maydondagi nufuzi va obro'-e'tibori yanada mustahkamlanishiga qat'iy ishonch bag'ishlaydi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zladi. 20.09.2017. // www.president.uz
2. Гаффоров Я. Халқаро ташкилотлар ҳамкорлиги. Тошкент, 2021. – Б. 54.
3. Замоновий дунёда Ўзбекистон ташқи сиёсатининг кун тартиби // Янги Ўзбекистон, 2020 йил, 27 август.
4. Қодиров А. Янгилаётган Ўзбекистон ташқи сиёсатининг энг муҳим устувор йўналишлари // Халқ сўзи, 2020 йил, 9 август.
5. Madaminov O. O'zbekistonning davlat imijini shakllantirishda xalqaro tajribalarning qo'llanilish tarixi. PhD diss... avtoreferati. Urganch, 2025. – B.18.
6. Абдимўминов О. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти – Ўзбекистоннинг глобал ҳамкори. 25.09.2025. // www.uz.uz
7. Ўзбекистон дипломатияси тарихи. 6-жилд. Тошкент, 2019. – Б. 359.
8. UNECE and Interstate Commission on Sustainable Development strengthen cooperation for environmental protection in Central Asia Environment Sustainable Development. 23.10.2019 // www.uncece.org
9. Раҳматжанова Д. Ўзбекистоннинг халқаро майдондаги нуфузи йилдан-йилга ортиб бормоқда <http://pravacheloveka.uz/uz/news/m13591>

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlash jarayonida mintaqaviy va global tashabbuslarning roli tizimli tahlil etiladi. Tadqiqotda Yangi O'zbekiston tashqi siyosati konsepsiyasida ilgari surilgan diplomatik faollik, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikning yangi modeli hamda "tashabbusga asoslangan diplomatiya" tamoyilining mazmun-mohiyati yoritiladi. Shuningdek, maqolada tashqi siyosiy tashabbuslarning xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, diplomatik diskursdagi ishtirok darajasi va milliy manfaatlarning global kun tartibiga integratsiyalashuvi jarayonlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: tashqi siyosat, diplomatiya, xalqaro nufuz, rezolyusiya, mintaqaviy integratsiya.

Аннотация: В статье проводится системный анализ роли региональных и глобальных инициатив в укреплении позиций Узбекистана на международной арене. В исследовании раскрывается сущность концепции «дипломатии, основанной на инициативе», нового формата сотрудничества с международными организациями, а также дипломатической активности, продвигаемой в рамках внешнеполитической стратегии Нового Узбекистана. Кроме того, в статье научно анализируются поддержка внешнеполитических инициатив международным сообществом, уровень участия в дипломатическом дискурсе и интеграция национальных интересов в глобальную повестку дня.

Ключевые слова: внешняя политика, дипломатия, международный престиж, резолюция, региональная интеграция.

Abstract: The article provides a systematic analysis of the role of regional and global initiatives in strengthening Uzbekistan's position in the international arena. The research explains the essence of the concept of "initiative-based diplomacy," the new model of cooperation with international organizations, and the diplomatic activity promoted within the framework of the foreign policy concept of New Uzbekistan. Additionally, the article scientifically examines the support of foreign policy initiatives by the international community, the level of participation in diplomatic discourse, and the integration of national interests into the global agenda.

Key words: foreign policy, diplomacy, international prestige, resolution, regional integration.

QUBLA ARAL BOYI TOPONIMLARI TARIYXTANISHILIGI

Abdirova G.

Qaraqlpag mámleketlik universiteti

Kóp milletli mámlekette milletlerara múnasibetler hám milletlerara tatıwlıq ıqlımı kóp jaqtan onda jasawshı etnik toparlardıń bir-birin túsiniwine hám olardıń ruwxıy dúnyası hám miyrasların húrmet etiwge baylanıslı bolıp, olar mudamı qúdiretli qural hám birlesiw deregi bolıp, xalıqlardı keleshek áwladlar ushın úlken jetiskenliklerge baǵdarlaydı. Hár bir xalıqtıń ayırıqsha materiallıq qásiyetleri bar, olardıń hár biri jáhán mádeniyatı gáziynesine óz úlesin qosqan. Izertlewler sonı kórsetti, yaǵnıy kóplegen xalıq kishi oazislerde tóplanǵan, jasalma suwǵarıwǵa tiykarlangan dıyxansılıq kóshpeli sharwashılıq penen uyǵınlasqan. Usınıń menen birge, etnik-materiallıq sintez processleri jedel

dawam etip, kóplegen xalıqlar joqarı hám ayırıqsha ruwxıy hám materiallıq mádeniyattı jarattı. Olardan biri qaraqalpaq xalqı bolıp tabıladı.

Qaraqalpaq xalqınıń kelip shıǵıwı, onıń tariyxı, territoriyası, qala hám awıllarınıń atamaları, millet atamasınıń hám etnonimleriniń kelip shıǵıwına áyyemgi hám erte orta ásirlerden baslap házirgi dáwirimizge shekem kóplegen taraw alımları, tariyxshı hám geograflar, tilshiler hám etnograflar hám arxeologlar x.b qızıqqan hám óz miynetlerinde anaw yaki mınaw atama xaqında óz pikirlerin bildirgen. Olardıń arasında shet el antik avtorlarınan tartıp, Evropa hám Kishi Aziya, Rossiya, Oraylıq hám Orta Aziya alımlarınan: orta ásir dáwiri alımlarınan Al'—Makdisi, Ibn Xurdodbek, Ibn Yaqut, Abu Rayxan Beruniy, Babur, Pashidaddin, Maxmud Qashǵariy, Abulǵazı Baxadırxan, shet el sayaxatshıların Armeni Vamberi, Kun h.b. atap ótsek boladı.[1,443]. Rus alımlarınan tariyxshılardan P.Ivanov, B.Bartold, arxeologlardan S.P.Tolstov, L.S.Tolstova, T.A.Jdanko, geograflardan E.Murzaev, E.Pospelov, Ózbekstan alımlarınan - Ya. Ğulomov, H.Hasanov, S.Qoraev, P. Gulomov, Z.Dusimov., Kamoliddin SH.S, qaraqalpaq tariyxshı, arxeolog alımlarınan – S.Kamalov, V.N.Yagodin, M.Mambetullaev, X.Esbergenov, G.Xojaniyazov, B.Qochanov, O. Yusupov, tilshi alımlardan Q.Abdimuratov, D.Aytmuratov, O.Bekbaulov, K.Koshanov, K.Mambetov, Abdinazimov, Q.Paxratdinov., geograf alımlardan Q.Seyitniyazov, R.Ballieva, K.Allanazarov, jazıwshı hám shayırlar qaraqalpaq tariyxına, tiline, jaylasıwına hám toponimleri menen etimologiyasına qızıqqan. [2,26-36]

Al sońǵı jıllardaǵı ilimiy izertlewlerge itibar qaratsaq, tariyx, geografiya hám tilshilerden ibarat alımlar óz ilimiy temalarını Qaraqalpaqstan Respublikası toponimlerin jarıtıp, hár tárepleme úyrengen. Mısalı olardan O.Sayımbetov, YU.Xojalepesova, A.Allamuratov, M.Qurbanov, N.Sayımbetova, D.Yuldashev, G.M.Abishov, G.Mambetova hám O. Baltabaevlardı atap ótsek boladı. Mısalı, D.Yuldashev «Qaraqalpaqstannıń qubla rayonları toponimleri»[3.], G.M.Abishov «Shimbay rayonı toponimleri»[4.], G.Mambetova «Qaraqalpaqstannıń arqa rayonları gidronimleri»[5.], O. Baltabaev Qaraqalpaqstan Respublikasınıń oykonimiyasınıń territoriyalıq quramınıń tariyxıy-mádeniy áhmiyeti xaqında izertlewler alıp barǵan.[6,240]. Xalqımız tariyxın, ondaǵı toponimlerdi úyreniwde dereklerdiń ornı álbette, óz aldına. Biz arab geografi hám sayxatshıları Ibn Xavkaldıń « Kitob ul-masolik va-l-mamolik»miyneti, Ibn Xurdadbektiń «Jollar hám mámleketler xaqında»kitabı, Istaxriydiń sol atamadaǵı miynetlerinen, Maxmud Qoshǵariydiń «Devonu luǵotit turk»paydalanıp, ondaǵı walayatlardıń, qalalardıń, iri awıllardıń atamaları, sol mámleketlerdiń xalqı ne menen shuǵıllanatuǵınlıǵın, olarǵa baratuǵın jollar x.t.b xaqında kóplegen maǵlıwmatlardı alamız. Olardıń miynetlerinde kórsetilgen atamalar menen sońǵı dáwir atamaların salıstıra otırıp olardıń qaysı biri xaqıyqatlıqqa tuwrı keledi, al qaysı biri bórttirilip jazılǵanlıǵın anıqlay alamız.[7]. Sovet dáwiri alımlarınan V.V.Bartold, S.P.Tolstov, L.S.Tolstova, A.YU.Yakubovskiy, V.L.Vyatkin, V.M.Masson, Ya.Gulyamov shıǵarmaları Opra Aziya xalıqlarınıń toponimlerin úyreniwde úlken tariyxıy áhmiyetke iye. Bul miynetlerdiń kópshiligi XX ásirdiń 30-60 jıllarında jazılǵan bolıp, ulıwma tariyxıy toplamlar qatarında toponimkaǵa baylanıslı bir qatar pikirler bildirip ketilgen. S.P.Tolstov óziniń «Áyyemgi Xorezm» dep atalǵan miynetinde, Xorezm hám qaraqalpaq jerindegi eski hám eń jańa dáwir toponimikalıq atamaları xaqında mısalı, Kyat qalası tuwralı «Kyat, Kyas degen sóz áyyemgi dáwirdegi xalıqlardıń tilinde qala, qonıs degen mánilerdi ańlatıp, al pecheneglerde bul sózdiń túbirles bolǵanlıǵı bayqaladı. Dnepr dár'yasınıń ótkeline jaqın bir orınlarda eski dáwirdegi bir neshe qalalardıń estelikleri bar. Bul qalalardıń atı pecheneglerde Krakpakatı, Salmakatı, Sankatı, Guzikatı dep atalıp kelgen. Demek pecheneglerdegi bul «kat» degen sózdiń ertedege orta ásir Xorezm tiliniń tásiiri ekenligi bizde úlken pikir tuwdıradı»[8,22-23]

Ya.Ğulamov óziniń «Áyyemgi Xorezmniń suwǵarılıw tariyxınan» degen miynetinde de júdá kóp gidrotoponimlerge hám onıń etimologiyasına itibar bergen. Onda Amudár'ya ataması xaqında tómendegi pikirler bildirilgen «Eń ertedege Amudár'ya ataması xaqında biz grek dereklerinde Oks (Oksos) atamasında ushıratamız. Grek avtorları Iskender Zulfarnayınǵa shekem Orta Aziyada bolıp kórmegen, biraq ózleriniń maǵlıwmatların basqa adamlardan jazıp alǵan. B.e.sh V ásirde jasaǵan Gerodot Amudár'ya atamasın Araks dep ataydı.

Gerodot táriyplegen dár'ya yaǵnıy Araks Amudár'ya menen megzestirilgen bolsa kerek, sebebi Avestoda ayılǵan «Arang» dár'yası, Amudár'ya ataması menen sózde teńdey esitiletuǵının esapqa alınsa, grek avtorları arasında shálkeslikte payda etken bolıwı múmkin».[9]- dep kórsetedi Ya.Gulyamov.Sunday-aq alım bul miynetinde bir qatar basqada gidronimler xaqında, Dár'yalıq, Sarıqamıs, Tunudar'ya, Zaykash, Davdan, Qılıshniyazbay, Besúyli, Nókis, uyǵır, Palwanbek kanalları, Kókózek, Kegeyli kanalı, Baǵjap, Amirabad,Sarıbiy x.b kóplegen suw atamaları menen birge oykonimler hám etnotoponimler xaqında maǵlıwmat bergen.

Akademik S.Kamalovtıń jazıwına qaraǵanda Quwanış degen qaraqalpaq jigiti ózektiń orta bóliminde dár'yanıń eski ańǵarına qaray kishkene etip jap qazadı. Tez arada aǵısınıń kúshliliginen eki jaǵasın juwıp, úlken jap tarmaqqa aylanıp ketedi hám ol quwanış jar mış bolıp ataladı. Ol XIX ásirde 30 jılları edi.Qaraqalpaqlarda eski ádetinde arnanı kim qazdırsa, kanal sol murabtıń atı menen atalıp ketken. Mısalı, Quwanışjarma, Usenjap, Esim jap hám t.b gidronimlerdi atap ótken.[10,27]. Qaraqalpaq tariyxınıń ayırım mashqalaların kórsetken hám sheshiwge járdem bergen alımlardıń biri T.A.Jdanko esaplanadı. Ol Xorezm etnografiyalıq ekspediciyasınıń 1945 jıldan 1959 jıllarǵa shekem qaraqalpaq etnografiyalıq otryadına basshılıq etti. T.A.Jdankonıń «Xorezm oazisi qaraqalpaqları» miyneti buringi Awqamnıń Ilimler Akademiyasınıń Xorezm etnografiyalıq ekspediciyasınıń qaraqalpaq bóliminiń dala materiallarınan ibarat bolıp, 1945-1948 jıllarda ámelge asırılǵan. Miynet kirisiwden, qaraqalpaqlar arasındaǵı etnografiyalıq izertlewler, otryad tárepinen jıynalǵan materiallardıń sholıwınan hám bes bólimnen ibarat.

«Urıwlardıń ishindegi, mısalı, múyten urıwındaǵı ayırım atamalar arasında, Aral boyı áyyemgi toponimikasına tiyisli etnonimleri ushrasadı»- dep kórsetedi alım. Mısalı, múyten urıwınıń «kerderli» ataması Kerder degen jerdiń atamasınan kelip shıqqan degen juwmaqqa keledi. Al tele, barın urıwların túrk qaǵanatı hám mongollar dáwirindegi atamalar menen usatadı. Ásirese oǵuz-pecheneg dáwirin úyrenden qaraqalpaq etnogenezinde Qashǵariydiń hám Gardiziydiń miynetlerine súylene otırıp yabı yamasa jabı urıwınıń qarluqlardıń yabagu-xallux xalıqları menen

baylanıstıradı. Sonıń menen birge bul bólimde, qaraqalpaqlardıń hár qıylı urıwlarınń atamalarınń etimologiyası xaqqında mısalı, qańlı, qıpshaq, qara qalpaq hám aq qalpaqlar xaqqında ańızlarǵa, quyn urıwınıń kelip shıǵıwı, bessarı, ashamaylı-ayıllı, keneges-nókis urıwları xaqqında maǵlıwmat beredi. Qaraqalpaqlardıń urıwlıq-qáwimlik bóliniwin, yaǵnıy onıń ekige bóliniwin, arıs ón tórtı urıw hám qonırat arısı xaqqında sóz etedi. Ón tórt urıw arısı Ámiwdár'yanıń óń jaǵasında Kegeyli kanalı átirapında jaylasqan. Al 1901 jılları 72050 adamnan ibarat ón tórt urıwdan tek 5000 Ámiwdár'yanıń shep jaǵasında jaylasqan.[11, 59] Al, Qonırat arısı urıwınıń adamları del'tanıw arqa tárepinde jaylasqan. On tórt urıw bolsa eki jup urıwdan ibarat bolǵan: qıtay-qıpshaq hám keneges-mañǵıt, al qonırat arısı eki bólimnen – shúllik hám jawıǵır bólimlerinen ibarat bolǵan. Bul qıtay-qıpshaq hám keneges-mañǵıt urıwlarınń shegarası Kegeyli kanalı bolǵan. Al qonıratlılardıń shúllik bólimi kóbirek respublikanıń arqa tárepinde, al jawıǵır bólimi qubla bóliminde jaylasqan. Miynette Qaraqalpaqstan respublikasınıń etnografiyalıq kartası qosımsha tigilgen, bul óz gezeginde etnografiyalıq bólimniń júda quramalı jumıs alıp barǵanlıǵınan derek beredi.

Miynettegi toponimikalıq maǵlıwmatlarında tiykarınan, qaraqalpaqlardıń kóship qonǵan territoriyları xaqqında sóz baradı. T.A.Jdanko izertlew barısında Qaraqalpaqlardıń tariyxıy dereklerinde ushıraspaǵan geografıyalıq atamalar kórgenligin atap ótedi.[12,58-63] Mısalı Volga-Edil, Jayıq-Ural jerleri xaqqında aytılsa, Turkstanǵa shekemgi territoriada hám Buxara xanlıǵı jerinde «Jiydeli baysın» jerine itibar bergen hám bul jerlerdiń qaraqalpaqlardıń qonırat urıwı menen baylanısı kóbirek ekenligin atap ótedi. Sonday aq «Ullı taw» xaqqında ańızlardı keltirip, onıń kóbirek qaraqalpaqlardıń qıtay urıwları menen baylanıstıradı. Ulıwma jası úlkenlerden alıńǵan maǵlıwmatlar menen birge Xiywa xronikalarınan alıńǵan materiallardı salıstırıp kórgende, olardıń uqsaslıǵın bayqaǵanlıǵın anıqlaǵan. Bir qatar gidronimler xaqqında da ayılǵan, mısalı, Jańadár'ya (jańadan qazılǵan), Kegeyli (kegey teregine baylanıslı), Qarakemir (kóldin reńine), Aqtuba kólleri, Tarlı (tarı egin), Sorkól, Qıyat-jap (urıw menen baylanıslı) atamalar berilgen.[13,74]. Qonırat hám Moynaq rayonları territoriayasında jasawshı qarıyalardıń eslewlerinde qaraqalpaq xalqınıń awır awxalı, salıqlardıń awırılıǵı, qaraqalpaq biyleriniń satqınlıǵı hám kóterilisler xaqqında ayıp bergen maǵlıwmatlardan ibarat. Oykonimlerden hám gidronimlerden – Qızılsha qala (Aybúyirdiń shıǵısında jaylasqan), Xan jap (xan qazdırgan jap), Qabasan-bóget (urıwdıń atına qoyılǵan), Qıpshaq dár'ya (urıwdıń atına qoyılǵan) Tallıq, Iyshan qala, Taxta qayır (awıl ataması) x.b boyınsha toponimik maǵlıwmatlardı ushratamız. Al antroponimlerge kelsek kóbirek qaraqalpaq adamlarınıń atları olardıń urıwları hám iyelegen lawazımına qaray ayılǵan, mısalı, atalıq qoldawlı, Oraz-atalıq, Qulen-bolıs, Awez-biy, Iyes-inaq, Qalila-qazı, Gulek-bay, Shárip-ishan, Qaraqum-ishan x.b.[14,78]. Demek T.A.Jdanko basqarǵan Xorezm tariyxıy-etnografiyalıq ekspediciyasınıń qaraqalpaq bólimi qaraqalpaqlar tariyxın, onıń mádeniyatın, urıw-qáwimshilik bóliniwin, jasaw sharayatların, úrp-ádetlerin, sonıń ishinde olardıń atamalarınń payda bolıw tariyxına da itibar bergenliginiń guwası bolamız.

Toponimika boyınsha arnawlı ilimiy jumıslar bolmaǵanlıǵı xaqqında toponomist alım Q.Abdimuratov «Qaraqalpaqstan territoriayası bay toponimikalıq maǵlıwmatlarǵa iye. Biraq ol tuwralı usı dáwirge shekem arnawlı ilim izertlew jumısları júrgizilmey, belgili miynet jarıqqa shıqpaǵan. Bir qansha avtorlardıń miynetlerinde jergilikli atamalar tuwralı bahalı pikirler aytılıp, bir qansha eske túsiriwler bolǵan»[15,42] - деп көрсетеді.

Qaraqalpaq shayırları hám dramaturgi, N.Dawqaraev atındaǵı tariyx, til hám ádebiyatı institutınıń ilimiy xızmetkeri Dawlen Aytmuratovtıń «Tyurkskie etnonimi»[16,236]atamasındaǵı miynetinde túrk etnonimleriniń bir-biri menen baylanısın qaraqalpaq, chernie klobuki, bashqurt, túrk, pecheneg, sak, massaget hám skif atamalarınń etimologiyası xaqqında óziniń bir qatar versiyaların da usınǵan.

Toponimist alım, geograf hám tilshi, geografiya ilimleri doktori, professor Suyun Qoraev bul taraw boyınsha 200 den aslam miynetler dóretti. Suyun Qoraevtıń sońǵı miynetleriniń biri «Ozbekiston viloyatlari toponimlari» miynetinde ulıwma Ózbekistan territoriayasında jaylasqan rayonlardıń toponimlari xaqqında keń túrde maǵlıwmat beredi. Onda geografıyalıq atamalar sanalǵan jer-suw atamaları, olardıń mazmunı, kelip shıǵıwı hám tariyxı úyreniledi. Toponimlar xaqqında óz pikirin bildire otırıp avtor «Xár bir toponimda qandayda bir máni - tariyxıy maǵlıwmat jasırınǵan. Sebebi hár bir atama óz mánisine iye, al negizinde mánissiz hesh bir atama bolıwı múmkin emes. Jay orın atamaları tereń siyasiy ámeliy hám tárbiyalıq áxmiyetke iye. Jámiyet tariyxında bolıp ótken xár qıylı waqıyalar jay atamalarında móxirlenip qalǵan», - деп көрсетеді. [17,236]. Tariyx ilimleriniń kandidatları, arxeologlar Ğ. Xojaniyazov hám J.Xakimniyazovtıń «Qaraqalpaqstanıń ájayıp jeti esteligi» miynetinde de, Qaraqalpaqstan territoriayasında jaylasqan eski qalalar menen birlikte olardıń atamalarınń kelip shıǵıw tariyxına da itibar bergen. Mısalı, Qoy qırılǵan qala, Shılpıq, Kat, Xorezm, Aqshakól usaǵan elatlar, qorǵan, qala hám kóllerdiń atamalarınń kelip shıǵıwına úlken itibar menen qaraǵan hám mánislerin ashıp beriwge xáreket etken. Mısalıǵa alatuǵın bolsaq, «Qoy qırılǵan qala» sóziniń etimologiyasın kórsete otırıp, 1938 jılı estelikte birinshi ret ilimiy baqlaw júrgizgen arxeolog S.P.Tolstovtıń jol kórsetiwleriniń biri tárepinen estelik ishinde ólip qalǵan qoyǵa baylanıstırılıp qoyılǵan atama dep kórsetedi. Sonday aq miynette Shılpıq, Kat, Xorezm, arna x.b sózlerdiń etimologiyasına toktap ótedi. [18,55-102].

T.Qilichevtıń «Кухна қалғалар диёри»atamasındaǵı qollanbasında Áyyemgi Xorezm territoriayasında antik hám orta ásirler dáwirinde qurılǵan eski qalalar, jańa qalalar tariyxı qızıqlı etip kórsetilgen. Onda avtor ózi toplǵan ózgeshe bir maǵlıwmatlar, arxeologiya, etnografiya, fol'klorǵa tiyisli izleniwler tiykarında áyyemgi Jipek jolı ótken qalalar hám olardıń jollarında qurılǵan jańa qalalar xaqqında qısqa hám qızıqlı tariyxıy maǵlıwmatlar beriwge xáreket etken.

Elimiz toponimleri tariyxın úyreniw úlken áhmiyetke iye, sebebi toponimler tariyxtıń janlı guwası bolıp, etnikalıq quram, xalıqlardıń migraciyası, ekonomikalıq hám mádeniy baylanısları, tábiyiy ózgeshelikleri, ata-babalarımızdıń turmısın ashıp beredi, aymaqtıń tariyxıy-mádeniy kelbetin qalıplestiredi, til hám jámiettiń rawajlanıwın kósheler, dáryalar hám urochishalar atamalarında sáwlelendiretuǵın watansúyiwshilik hám úlketanıwdıń gıltı bolıp tabıladı.

ADEBIYATLAR

1. Ўзбекистон тарихи. Хрестоматия. II жилд. Т., 2023.
2. Nakimov Q. Toponimika. - Y. 2016. 6 b.
3. Юлдашев Д.Т. Жанубий Қорақалпоғистон топонимларининг тарихий-этимологик тадқиқи: Филол. фан. номзод... дисс автореф. – Нукус, 2012.
4. Абишов Г. Шымбай райони топонимлари. Монография.-Нөкис:2020.-80б.; Чимбой тумани топонимларининг тарихий-лингвистик таҳлили. Ф.ф.ф.д (PhD)...дисс.автореферати.-Нукус: 2019-49 б.
5. Мамбетова Г.Ж. Қорақалпоғистоннинг шимолий туманлари гидронимлари: Филология фанлари бўйича фалсафа фактори (Doktor of Philosophy)... дисс автореф. – Нукус, 2018. – 51 б.
6. Turdimambetov I.R., Baltaev O.O. Qoraqalpogiston Respublikasi oykonimiyasining hududiy tarkibi va tarixiy-madaniy ahamiyati. T., 2024.
7. Manbashunoslk. Darslik. T., 2019.
8. Толстов С.П. Древний Хорезм. 22-23 стр. По следам древнехорезмийской цивилизации. М.-Л., 1948; Огузы, печенег, море Даукара.-СЭ. М.-Л. 1950; Города гузов. М.-Л. 1947. Приаральские скифы и Хорезм. Т. 1960.
9. Гуламов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихидан. Т.
10. Камалов С. Қарақалпақлардың халық болып қәлиплесиўи ҳәм мәмлекетшилиги тарийхы. Н. 2004.
11. Жданко Т.А. Очерки исторической этнографии каракалпаков. М.-Л., 1950.
12. Жданко Т.А. Родоплеменная структура и расселение каракалпаков в низовьях Амударьи в XIX – начале XX в. // Краткие сообщения Института этнографии. – М., 1949, вып. 6. – С. 58-63.
13. Жданко Т.А. О характере этнических процессов у тюркоязычных народов Средней Азии в XVIII – начале XIX вв. // Фольклор, литература и история Востока. (материалы III Всесоюзной тюркологической конференции) – Т.: Фан, 1984. –
14. Sol miynette. 78b
15. Ёбдимуратов Қ. Неге усылай аталған? –Нөкис: «Қарақалпақстан», 1965.-80б. Н. 1970.; Топонимика Қарақалпакии. АКД. Н., 1966.
16. Айтмуратов Д. Тюркские этнонимы: каракалпак, черные клобуки, черкес, башкурт, кыргыз, уйгур, тюрк, печенег, сак, массагет, скиф.-Нукус: 1986.-23бс.
17. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. Т. 2005.; Топонимика. Т. 2006.
18. Ғ. Хожаниязов., Ж. Хакимиязов. Қарақалпақстанның әжайып жети естелиги. Н., 2004.

Rezyume. Maqalada Qubla Aral boyında jaylasqan aymaqlardıń toponimiyasınıń alımlar miynetinde sáwleleniwı kórsetilgen.

Rezyume. Maqolada Janubiy Orol bo'yida joylashgan xalqlarning toponimiyasining olimlar tadqiqotlarida aks etishi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Orol, qoraqalpoqlar, tarix, tarixshunoslik, toponimika.

Резюме. В статье отражено исследование в работах ученых по топонимии народов проживающих в Южном Приаралье.

Ключевые слова: Арал, каракалпаки, история, историография, топонимика.

ЎЗБЕКИСТОНДА КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ СИЁСАТНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Адилходжаев Ш. Ш.

Тошкент давлат шарқишунослик университети

Коррупция давлат функцияларини лозим даражада амалга оширишга тўсқинлик қилувчи ўта салбий ижтимоий ҳодиса бўлиб, жамиятга тушган занг, давлат, унинг барча тузилмалари хавфсизлигига нисбатан таҳдид ҳисобланади. Коррупция ижтимоий кескинликни келтириб чиқариши ва барқарорликни бузиши мумкин, чунки у баъзи нопок кимсаларнинг ноқонуний бойиб кетишига ёрдам беради ва жамиятнинг табақаланишига олиб келади. Аммо, агар давлат унга қарши самарали курашмаса, эҳтимол, энг салбий жиҳати бу одамларнинг давлатга бўлган ишончига путур етказди. Эндиликда коррупция глобал муаммага айланиб, жаҳон ҳамжамияти хавфсизлигига таҳдид солган ҳолда, дунёда тобора кўпроқ ташвиш уйғотмоқда. Ёллон қилинган маълумотларга кўра коррупция кўлами ҳайратланарли даражада - дунё миқёсида ундан кўрилган зарар 3 трлн АҚШ долларини ташкил этиши бундан далолат беради. Ўз навбатида, бу коррупцияга қарши курашиш салбий ҳолатда қолаётганидан далолат беради [1]. Шунинг учун алоҳида давлатлар даражасида ҳам, халқаро ҳамжамият томонидан ҳам коррупцияга қарши кенг қамровда курашиш зарур.

Озми-кўпми барча мамлакатлар коррупцияга йўлликан. Афсуски, Ўзбекистон ҳам бундан мустасно эмас. Transparency International халқаро коррупцияга қарши курашиш ҳаракати 2024 йил учун коррупция бўйича рейтингини ёллон қилди ва Ўзбекистон 2023 йилга нисбатан 1 поғонага ёмонлашиб, 180 ўридан 121 ўринни эгаллади [2]. Коррупция ҳар доим мансабдор шахсларнинг ваколатлари билан боғлиқ бўлган. Ижтимоий функцияларни бажариш учун давлат мансабдор шахсларга ваколатлар беради. Аммо нопок амалдорлар ўз ваколатларини ғараз ниятда моддий ёки номоддий манфаатларга айлантиради. Содда қилиб айтганда, коррупция давлат органлари ваколатларини ноқонуний даромадга айлантиради. Агар унга қарши кураш олиб борилмаса, у ижтимоий-иқтисодий ислохотларга, умуман, ижтимоий тараққиётга тўсқинлик қилади; у давлат механизмидаги занг каби кўтариб турувчи конструкцияларни занглатади. 1990 йилда Гаванада бўлиб ўтган Конгресснинг таҳлилий материалларида таъкидланишича, коррупция саратон ўсимтаси каби давлат аппаратида шундай патологик ўзгаришларга олиб келадики, натижада уни фақат жарроҳлик йўли билан олиб ташлаш мумкин бўлади. Бироқ, коррупциянинг энг салбий жиҳатларидан бири бу уюшган жиноятчиликнинг ривожланишига олиб келишидир [3]. БМТ коррупцияни глобал таҳдид сифатида эътироф этди ва 2003 йилда Коррупцияга қарши конвенцияни қабул қилди ва Ўзбекистон уни ратификация қилди.

2025-йил 5-март куни Коррупцияга қарши курашиш бўйича Ўзбекистон миллий кенгашининг йиғилиши бўлиб ўтди, унда Ўзбекистон Республикаси Президенти нутқ сўзлади. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев таъкидлаганидек, “Коррупция халқимизнинг давлатга, Конституция ва қонунларга бўлган ишончига путур етказди, барқарор тараққиёт ва хавфсизликка жиддий таҳдид солади” [4]. Ўзбекистонда коррупцияга қарши курашиш тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича кенг қамровли ислохотлар амалга оширилмоқда. Амалга оширилган ишлар таҳлил қилиниб, мавжуд ҳолат танқидий баҳоланиб, коррупцияни камайтириш чора-тадбирлари белгилаб олинган ва муҳокама қилинган. Ўзбекистонда коррупцияга қарши курашиш бўйича муҳим комплекс институционал ва қонунчилик чора-тадбирлари қабул қилинган. Мамлакат ҳокимиятининг қонун чиқарувчи тармоғи - парламентда Коррупцияга қарши курашиш Миллий кенгаши, парламентнинг ҳар икки палатасида тегишли ихтисослаштирилган қўмиталар, бундан ташқари Ўзбекистон Республикаси Коррупцияга қарши курашиш агентлиги таъсис этилди. Рақамлаштириш коррупцияга қарши курашишнинг самарали воситасига айланди, давлат харидлари тизими электрон платформага ўтказилди, бу йилига 14 трлн сўм бюджет маблағларини тежаш имконини берди. Давлат хизматларини электрон платформаларга ўтказиш фуқаролик жамияти субъектларига нафақат уларнинг вақтини ва транспорт харажатларини тежаш имконини беради, балки дуч келадиган бюрократик тўсиқларни, энг муҳими эса, товламачилик ва коррупция аломатларини четлаб ўтишга ёрдам беради. Охириги йилларда бир қатор қонунлар қабул қилинди ва ушбу иллатга қарши курашишнинг янги тизими яратилди. Парламент палаталарида масъул қўмиталар ташкил этилиб, “Давлат харидлари тўғрисида”ги қонуннинг қабул қилиниши, сайлов ва тендер тизимларини рақамлаштириш, шунингдек, соғлом рақобатни йўлга қўйиш ўтган йилда 14 млрд. сум тежаш имконини берди. Ўзбекистонда 721 турдаги электрон давлат хизматлари кўрсатилади, аммо яқин келажакда ушбу кўрсаткич 1000 гача келтириш режалаштирилган.

Сўнгги йилларда коррупцияга қарши курашиш бўйича қатор самарали қонунлар қабул қилинди: масалан, давлат тузилмаларида ички назоратни жорий этиш устувор йўналишлардан бири бўлиб, бу Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28-январдаги ПФ-60-сон фармони билан тасдиқланган 2022 — 2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида устувор йўналиш сифатида кўрсатилган [5]. 2023 йил 25 январда эса Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Республика ижро этувчи ҳокимият органлари фаолиятини самарали йўлга қўйишга доир биринчи навбатдаги ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-14-сон фармони эълон қилинди. Фармон билан барча давлат органлари ва ташкилотларида коррупцияга қарши курашиш бўйича ички назорат тузилмаларини ташкил этишнинг мажбурий тартибини жорий этиш қатъий белгиланди. Ҳозирда бундай тузилмалар 120 дан ортиқ давлат ташкилотларида фаолият юритиб, ички назоратни амалга оширмоқда. [6].

Бироқ мазкур тузилмалар фаолиятини самарали ташкил этиш, коррупция хавфини аниқлаш ва бартараф этиш, ходимларни ўқитиш, коррупцияга оид ҳуқуқбузарликлар тўғрисида хабар бериш тизимини такомиллаштириш билан боғлиқ қатор муаммолар ҳамон ўз ечимини топмаган. Комплаенс – коррупцияга қарши ички назорат – коррупцияга қарши курашишнинг самарали воситаси сифатида бутун дунёда ўзини яхши томондан кўрсатди ва бу ҳорижда коррупцияга қарши курашишнинг энг кенг қўлланиладиган шаклларида бири ҳисобланади. “Комплекс назорат” тизими бир қатор афзалликларга эга бўлиб, бу унинг ривожланган мамлакатларда кенг қўлланилишини изоҳлайди.

Биринчидан, “комплекс-назорат” бозор иктисодиётга жуда мос келади ва бозор шароитида коррупцияга қарши курашишда самарали восита ҳисобланади. Иккинчидан, “комплекс-назорат” тизими оқибатларга қарши курашиш учун мўлжалланмаган, балки уларнинг олдини олишга қаратилган бўлиб, бу уни коррупцияга қарши таъсирчан превентив чорага айлантиради. Учинчидан, “комплаенс-назорат” превентив механизм сифатида давлат сектори ташкилотларига ҳам, хусусий корхоналар учун ҳам бирдай яхши мос келади. Бу тизимнинг илдизлари 1884-йилда “Бахтсиз ҳодисаларнинг олдини олиш ва суғурталаш ассоциацияси” ташкил этилган Германияга бориб тақалади. Коррупцияга қарши “комплаенс-назорат” тизими АҚШда расман жорий қилинган. Ушбу тизим дастлаб 1906 йилда Қўшма Штатларда озиқ-овқат ва фармацевтика препаратларини ишлаб чиқариш корхоналари фаолиятини назорат қилиш бўйича Федерал хизмат (FDA, Food and Drug Administration) ташкил этилиши натижасида яратилган. Ўтган асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб то ҳозирги кунгача Baker Hughes Inc, Panalpina World Transport (АҚШ), Volkswagen, Daimler, Siemens (Германия), BAE Systems (Буюк Британия), Samsung Group, Hyundai Motor Co. (Корея Республикаси), Odenbrecht, Petrobras (Бразилия) компанияларида ва бошқ. зиддиятли вазиятларнинг юзага келиши уларнинг фаолиятида коррупцияга қарши курашиш бўйича кучли механизмларнинг йўқлиги билан боғлиқ, бу ўша даврда мавжуд бўлган коррупцияга қарши курашиш тизимни тубдан ислох қилишни талаб қилган [7]. Бугунги кунда 100 дан ортиқ мамлакатлар компанияларида коррупцияга қарши курашиш механизми сифатида “комплаенс-назорат” тизими жорий этилган. Масалан, Қозғистон, Франция, АҚШ, Сингапур, Германия, Словения, Малайзия, Бразилия, Туркия, Буюк Британия каби мамлакатларда “комплаенс-назорат” коррупцияга қарши таъсирчан превентив чораларидан бирига айланди. Маълумки, 2000-йиллар бошида Samsung Group, Hyundai Motor, Volkswagen, Siemens Odenbrecht, Petrobras, Daimler каби жаҳон брендларига эга бўлган таниқли трансмиллий компанияларда ҳам коррупция ҳолатлари қайд этилган. Таҳлил шуни кўрсатдики, ушбу компанияларда коррупцияга қарши ички назорат механизми етарли бўлмаган ва шунинг учун “комплаенс назорат” жорий этилган. Шубҳасиз, коррупциянинг олдини олиш унинг оқибатларини бартараф этишдан кўра анча афзал. Айнан шунинг учун 150 дан ортиқ мамлакатларда 5000 дан ортиқ компаниялар “комплаенс-назорат” механизмининг жорий қилганлар [8]. “Мувофиқлик” ва “мувофиқлик назорати” тушунчалари аниқ белгиланган қоидалар, стандартлар ва

йўриқномаларга розилигини, уларга мувофиқ бўлиш ва ишлашни англатади. Халқаро амалиётда “комплаенс-назорат” тизимининг бир неча шакллари мавжуд. “Комплаенс-назорат” тиббиёт, давлат хизмати, банк иши, божхона, жиноий даромадларни легаллаштириш, монополия ва коррупцияга қарши курашиш каби соҳаларда амалга оширилади [9].

Дальнейшее развитие Агентства должно идти по пути укрепления его институциональной независимости, поэтапного расширения полномочий в сторону универсальной модели и налаживания эффективного взаимодействия как с государственными органами, так и с гражданским обществом. Успех этого нового и важнейшего для страны института будет напрямую зависеть от наличия последовательной политической воли для его поддержки и защиты, а также от способности самого Агентства завоевать доверие общества своими реальными делами. Только в этом случае оно сможет стать настоящим драйвером антикоррупционных реформ и ключевым элементом в построении правового и справедливого государства в Узбекистане.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Астанин, В.В. Антикоррупционная политика России: криминологические аспекты: автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. – Москва, 2011. – 46 с.
2. Закон Республики Узбекистан «О противодействии коррупции» от 03.01.2017 г. № ЗРУ-419 // Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2017.
3. Конвенция Организации Объединенных Наций против коррупции (принята в г. Нью-Йорке 31.10.2003 Резолюцией 58/4 на 51-ом пленарном заседании 58-ой сессии Генеральной Ассамблеи ООН) // Собрание законодательства РФ. – 2006. – № 26. – Ст. 2780.
4. Ли Куан Ю. Сингапурская история: из третьего мира в первый / Ли Куан Ю. – Москва: МГИМО, 2005. – 656 с.
5. Указ Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по совершенствованию системы противодействия коррупции в Республике Узбекистан» от 29.06.2020 г. № УП-6013 // Национальная база данных законодательства, 30.06.2020 г., № 06/20/6013/1012.
6. Шаликова, Н.И. Особенности противодействия коррупции в Сингапуре / Н.И. Шаликова // Вестник Уральского юридического института МВД России. – 2017. – № 1. – С. 34-38.
7. Johnston, M. Political Corruption and Public Policy in America / M. Johnston. – Monterey, CA: Brooks/Cole Publishing Co, 2005. – 240 p.
8. Сотрудничество Агентства по противодействию коррупции Республики Узбекистан с международными организациями // Официальный сайт Агентства. [Электронный ресурс]. URL: <https://anticorruption.uz/ru/item/xalqaro-hamkorlik> (дата обращения: 10.10.2025).

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishni institutsionalizatsiya qilish: Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi va faoliyat yuritish muammolari

Rezyume. Maqola O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining yaratilishi va faoliyati orqali korrupsiyaga qarshi kurashishni institutsionalizatsiya qilish jarayonini tadqiq etishga bag'ishlangan. Ishda ixtisoslashtirilgan korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarni (IKKO) shakllantirishning nazariy modellari va xalqaro tajribasi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: korrupsiyaga qarshi kurashish, institutsionalizatsiya, korrupsiya prevensiyasi.

Резюме. Статья посвящена исследованию процесса институционализации противодействия коррупции в Республике Узбекистан через призму создания и деятельности Антикоррупционного агентства. В работе анализируются теоретические модели и международный опыт формирования специализированных антикоррупционных органов (САО).

Ключевые слова: противодействие коррупции, институционализация, превенция коррупции.

Institutionalization of Combating Corruption in Uzbekistan: Constitutional and Legal Status and Problems of Functioning of the Anti-Corruption Agency

Summary. The article is devoted to the study of the process of institutionalizing anti-corruption efforts in the Republic of Uzbekistan through the prism of the establishment and activities of the Anti-Corruption Agency. The paper analyzes theoretical models and international experience in the formation of specialized anti-corruption bodies (SACBs).

Key words: combating corruption, institutionalization, corruption prevention.

UDC : 37.017.92.

ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШДА ПЕДАГОГИК ЁНДАШУВ

Дошниязов Ж.Қ.

Қорақалпоқ давлат университети

Ўтган аср ўрталарида авж олган экологик муаммолар бугунга келиб жиддий тус олди. Бинобарин, экологик муаммолар аввало инсоннинг табиатга кўрсатаётган салбий таъсирига бориб тақалади. Бутун дунёда бўлгани каби мамлакатимизда ҳам табиатни асраш билан боғлиқ муаммолар долзарб аҳамият касб этиб бормоқда. Унинг ечими эса аҳоли ўртасида экологик маданиятни юксалтиришга боғлиқ.

Шу ўринда ҳозирда башариятни ташвишга солаётган энг кучли ўнта экологик муаммоларни санаб ўтамоғимиз. Улар билан атрофлича танишиш баробарида бугун экологик маданият бизга нима учун кераклигини тушуниб етасиз. Жумладан, биринчи ўриндаги глобал муаммо бу – иқлим ўзгаришидир. Чунки, иқлим ўзгариши билан боғлиқ табиий жараёнлар, сув тошқинлари, ўрмон ёнғинлари, қургўкчилик каби фалокатлар кўпайиб бораётипти. Кейинги ўринда энергия ишлаб чиқаришдаги муаммолар туради. Бу мақсадда қазиб олинган ёқилғининг ёниши туфайли атроф-муҳитга етказилаётган зарар кўлами ортиб бораётипти. Кўмир, нефт ва газ билан ишлайдиган электр станциялари сайёраимиз бўйлаб атмосферада иссиқхона газлари миқдорининг ортиб боришини таъминлаётти. Учинчи ўринда сув муаммоси турибди. Ҳозирда дунё аҳолисининг деярли ярми ичимлик суви танқис ҳудудларда яшайпти ва бу муаммо кўлами янада кенгроқ қулоқ ёзайпти. Кейинги ўринларда биохилма-хиллик ва ердан фойдаланиш, кимёвий моддалар, токсик моддалар ва оғир металллардан фойдаланиш, ҳавонинг ифлосланиши, чиқиндиларни бошқариш, озон қатламининг емирилиши, океанлардан фойдаланиш ва балиқчилик, ўрмонларни тартибсиз кесиш муаммолари турибдики, уларнинг барчасига антропоген омиллар, яъни бевосита инсониятнинг атроф-муҳитга салбий таъсири сабаб пайдо бўлмоқда.

Таассуфки, бундай муаммолар қисман бўлса-да мамлакатимизда ҳам йўқ эмас. Орол денгизининг қуриши минтақавий аҳамият касб этса, ичимлик сувининг йил сайин камайиб бораётганлиги, тупроқларимизнинг унумдор қатламини емирилиши, чиқиндиларни бошқариш йўналишидаги камчиликлар, табиий ресурслардан оқилона фойдаланишни тартибга солиш сингари маҳаллий экологик муаммоларга алоҳида эътибор зарур. Бошқачароқ айтганда, бу борада табиатни асраб-авайлаш мақсадида қабул қилинган қонунлар асосида иш ташкил қилиш талаб этилади. Қонунларни билиш ҳуқуқий саводхонликни оширади, уларни ҳурматлаш эса экологик маданиятни юксалтиради. Айни йўналишдаги тадбирлар самарадорлигини таъминлашда давлатимиз раҳбари томонидан 2025 йил 15 май куни имзоланган “2030 йилгача бўлган даврда аҳолининг экологик маданиятини юксалтириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори муҳим ўрин тутди. Чунки, ушбу қарор билан қабул қилинган экологик маданият тарғиботи Концепциясида жойларда экологик маданиятни шакллантириш, юксалтириш юзасидан барча вазифалар аниқ-равшан белгилаб берилган.

Ўйлайманки, бу муҳим ҳужжат давлат бошқаруви органлари, жамоат ташкилотлари ва фуқароларнинг табиатни муҳофаза қилиш, аҳолининг қулай табиий муҳитда ҳаёт кечириши учун зарур шарт-шароитларни яратишга, табиий ресурслардан оқилона ва самарали фойдаланишга, экологик хавфсизлик муаммоларининг олдини олишга хизмат қилади.

«Экологик маданият» тушунчасининг ривожланиши замонавий цивилизация табиатнинг ўзгариши натижасида бошдан кечириётган инқирозни бартараф этиш билан боғлиқ. Саноат ва постиндустриал жамиятга айланиш жараёнида инсоният инсоният мавжудлигига таҳдид соладиган атроф-муҳит ўзгариши оқибатларига дуч келди. Олимларнинг фикрича, бу инқироз табиий ресурслардан фойдаланиш оқибатлари, шунингдек, замонавий технологияларнинг табиатга таъсири ҳақида илмий билимларнинг етишмаслигидан келиб чиқади.

Сўнгги ўн йилликларда давлатлар миллий ва халқаро даражада экологик муаммоларга тобора кўпроқ эътибор қаратмоқдалар. Бироқ, экологик муаммоларни ҳал қилиш бўйича ҳаракатлар ҳар доим ҳам керакли натижаларга олиб келмайди. 2009 йилда БМТнинг иқлим ўзгариши бўйича конференциясидан бери углерод чиқиндилари дунё бўйлаб 10% га ошди, бу хорижий тадқиқотчилар Р. Максвелл ва Т. Миллер томонидан қайд этилган[1.174–185.]. Бу рақам 195 (потенциал) мамлакат 2015 йилги Париж иқлим шартномасини имзолаганлиги ҳақида тушқунликка солувчи эслатмачидир. Иқлим ўзгариши бўйича ҳукуматлараро Ҳайъат тавсияларига кўра, углерод чиқиндилари йигирма йил ичида 20 миллиард тоннага ва 2050 йилга келиб етти миллиард тоннага камайиши керак. Бу атроф-муҳитни яхшилаш учун нима қилиш кераклиги ҳақида энг

минимал тахминлар. Ҳозирги вақтда давлатларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишини барқарор келажак мезонларига мувофиқ қайта қуриш имкони бўлмади. Мавжуд вазият экологик инқирознинг моҳиятини ва ундан чиқиш йўллари белгилайдиган нарсани чуқурлаштириш зарурлигини кўрсатади.

«Экологик маданият» тушунчаси замонавий фан, таълим ва ижтимоий бошқарув амалиётида кенг қўлланилади. У замонавий цивилизация шароитида инсоният дуч келадиган экологик муаммоларни ҳал қилишга таъсир қилувчи воситалардан бирига мурожаат қилиш учун ишлатилади. Ушбу концепция инсониятнинг постиндустриал жамият ва табиат ўртасидаги қарама-қаршиликларни ҳал қилиш борасидаги саъй-ҳаракатларини тавсифлайди.

Мақоланинг мақсади экологик маданиятни педагогик жиҳатдан таҳлил қилишдир. Бу постиндустриал жамиятда инсоннинг табиий муҳит билан ўзаро таъсирининг ўзига хос хусусиятларини таъкидлашни англатади. Экологик маданиятни ўрганишга педагогик ёндашув, экологик маданиятнинг хусусиятларини аниқлашга имкон беради. Антропоцентризм ва гуманизм ғояларига асосланган маданиятнинг бошқа турлари билан таққослаганда, экологик маданиятни таҳлил қилиш уларни танқидий қайта кўриб чиқишни талаб қилади.

Инсонпарварлик ва антропоцентризм қадриятлари, экологик маданиятга педагогик ёндашувда мужассамланган. Кўпгина илмий нашрларда экологик маданият экологик таълим ва тарбиянинг мақсади сифатида қаралади. Экологик маданият маърифат натижасида ҳаракат қилади, у инсонпарварлик қадриятларига асосланади. Табиат, атроф-муҳит ҳолати ва замонавий саноат томонидан табиатга етказилган экологик зарар тўғрисидаги билимларни тарқатиш одамларнинг онгини ўзгартириши ва экологик маданиятга педагогик ёндашувга мувофиқ табиатни муҳофаза қилиш фаолиятини фаоллаштириши мумкин.

Педагогика нуқтаи назаридан, экологик маданият инсоннинг тарбия натижасида олган ижтимоий-экологик тажрибасини тизимлаштирадиган билим, кўникма ва малакаларни шакллантириш натижасида пайдо бўлади. В. Г. Кезин замонавий педагогикада экологик маданият икки йўналишда кўриб чиқишнинг таъкидлайди. «Биринчи экологик йўналиш доирасида-академик маданият таълим натижасида пайдо бўлади. Инсоннинг яшаш муҳитини муҳофаза қилиш соҳасидаги билим, кўникма ва малакаларни ўргатиш экологик таълимнинг устувор йўналишларидан биридир. Экологик таълим жараёнида билимлар табиатга ҳурматни тавсифловчи ахлоқий ва эстетик қадриятлар тизимини шакллантириш билан тўлдирилади. Экологик таълимнинг меъёрий жиҳати, экологик онга таъсир қилади, жамиятнинг атроф-муҳит билан ўзаро таъсирини белгилайдиган ҳуқуқий асос ҳақида ғояларни яратади. Экологик маданиятнинг фаолият йўналиши инсон фаолиятининг турли турларига бирлаштирилган экологик кўникмаларни шакллантиришни ўз ичига олади.

Иккинчи йўналиш, экологик таълимнинг мустақил аҳамиятини таъкидлаб, буни анъанавий таълим фаолияти турлари доирасида ҳал қилиб бўлмайдиган экологик маданиятни шакллантириш вазифаларининг мураккаблиги билан изоҳлайди. Экологик таълим шахсни ҳар томонлама ривожлантиришга қаратилган замонавий таълимнинг бошқа турларини тўлдиради. Экологик таълим талабалар томонидан экологик билимларни ривожлантириш, экологик кўникма ва кўникмаларни эгаллашга асосланган экологик онни шакллантиришга қаратилган» [2.55–62.].

В. Г. Кезин экологик муносабатларни экологик маданиятнинг универсал элементлари сифатида белгилайди. Улар учта намоён бўлиш шаклига эга: когнитив, ахлоқий ва эстетик. Табиатга когнитив муносабат табиат қонунларини илмий билишга, уларни жамият ва табиат ўртасидаги ўзаро боғлиқликни тартибга солишда қўллашга асосланган. Илмий билимлар инсоннинг табиатдаги ўрнини аниқлашга, унинг ресурсларидан фойдаланишга масъулиятли муносабатни шакллантиришга имкон беради. Ахлоқий муносабат фаолиятни табиий объектларга онгли равишда тартибга солишни кенгайтиришни назарда тутди. Ушбу парадигмада табиатни асраб-авайлаш ва ривожлантириш истаги эзуликнинг намоён бўлиши вазифасини бажаради. Табиий ресурслардан назоратсиз фойдаланиш ва атроф-муҳитга зарар етказиш ёмонлик сифатида қаралади. Табиатга эстетик муносабат уни гўзаллик манбаи сифатида кўриб чиқишда, мукамалликка интилишда намоён бўлади. Санъатда акс еттирилган табиат тасвирлари миллий маданият анъаналарида мужассамланган.

Экологик муносабатларнинг турли жиҳатлари, экологик онга, ҳиссий ва ҳиссий соҳада, шунингдек амалий фаолиятнинг ҳар хил турларида акс этади. Экологик маданиятнинг қуйи тизимларига қараб, тадқиқотчилар экологик маданият мезонларини аниқлашга ҳаракат қилишади: ахборот-когнитив, ҳиссий-ҳиссий, фаолиятга асосланган. Улар педагогик фаолият натижаларини баҳолаш учун зарурдир. Экологик муаммоларга когнитив муносабат шахсларнинг экологик муаммоларнинг моҳияти ва уларни ҳал қилиш йўллари тўғрисида хабардорлигида намоён бўлади. Экологик маданиятнинг ахборот ва когнитив қуйи тизимини шакллантириш мезонлари шахснинг атроф-муҳит ҳолати тўғрисида билим олишга кизиқиши, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш фаолиятини тартибга солишчи меъёрий-ҳуқуқий базани билишидир. Табиатга ҳиссий ва ҳиссий муносабат шахснинг қадрият йўналишини ривожлантириш кўрсаткичлари билан ўлчанади. Унинг шаклланиш мезонлари, хусусан, ноёб табиий шароитларга нисбатан миллий маданиятнинг ўзига хос хусусиятларини тушунишдир.

Экологик маданиятнинг амалий жиҳатлари шахснинг ўз фаолиятида экологик стандартларни амалга оширишга тайёрлиги ва хоҳишида акс этади. Педагогикада экологик маданиятнинг амалий таркибий қисми мезонлари, инсоннинг табиий муҳитни сақлашга қаратилган тадбирларда иштирок этишга бўлган муносабатидир. Экологик маданиятнинг ушбу қуйи тизимлари бир-бири билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, улар экологик қадриятларнинг бирлигини ва уларни амалда амалга ошириш усулларини белгилайди.

“Экологик маданият инсоннинг табиатга оқилона муносабатини белгилайдиган, табиий ресурсларни сақлаш ва қўпайтиришга қаратилган ажралмас тизим сифатида қаралади. Экологик маданиятнинг муҳим

йўналишлари, экологик кадрятлар тизимида асосланган экологик онгни, экологик масъулиятни шакллантиришди” [3.167–170.]. Замоновий педагогика фанида табиатга бўлган кадрят муносабатини кўриб чиқиш таклиф этилади. Шу билан бирга, унинг моҳияти антропоцентрик модел асосида очилади. Табиат кадрят сифатида инсон эҳтиёжлари ва манфаатлари призмаси орқали қаралади. Экологик маданиятга бўлган эҳтиёж табиат ва жамиятнинг ўзаро таъсирида юз берадиган чуқур ўзгаришлардан келиб чиқади. Улар инсон мавжудлигининг турли жиҳатлари даражасида намоён бўладиган бир қатор қарама-қаршиликларнинг кучайишида намоён бўлади.

Экологик маданиятнинг педагогик жиҳати табиий ва сунъий объектлар ва жараёнлар ўртасидаги қарама-қаршиликларни ҳал қилиш зарурати билан боғлиқ. Анъанавий маданиятда мавжуд бўлган “табиий” ва “сунъий” ўртасидаги фарқ ўз аҳамиятини йўқотмоқда. Саноат цивилизациясининг дастлабки босқичида табиат деганда табиатда ресурслар шаклида мавжуд бўлган ва одамларнинг эҳтиёжларини қондириш учун мослаштирилиши ва ўзгартирилиши мумкин бўлган нарса тушуниладиган. Шунга кўра, сунъий объектлар, материаллар ва жараёнлар табиатда мавжуд бўлмаган, аммо инсоннинг муайян манфаатларини амалга ошириш учун зарур бўлган нарсалардир. Масалан, замоновий кимё маҳсулотлари табиий моддаларнинг ўзгариши натижасида пайдо бўлади, лекин айни пайтда улар табиий ҳолатида бўлмаган хусусиятларга эга бўлади. Илмий-техник билимларнинг ривожланиши билан сунъий соҳа кенгайиб, табиий ва сунъий, шунингдек сунъий ва табиий ўртасидаги кескин чиқиқларни хиралаштирмоқда. Электр станцияси қурилишидан олдин дарё одамлар турли иқтисодий мақсадларда фойдаланадиган табиий ресурс эди. Дарёда электр станциясининг қурилиши дарёни сунъий, техник объект хусусиятларига эга бўлган объектга айлантирди. Гидроэлектростанция қурилиши дарё тубини ўзгартирди, унинг табиий хусусиятларини ўзгартирди. Электр энергиясини ишлаб чиқаришнинг техник функцияларини бажараётганда дарё дарё бўлиб қолди, аммо у ўзининг табиий хусусиятларини ўзгартирди: сув сифати, чуқурлиги ва сувда ва қирғоқларда яшовчи тирик организмларнинг таркиби, ўсимликлар ва ҳайвонларнинг ҳавоси, иқлими ва яшаш жойларида одатда салбий бўлган ўзгаришлар юз берди. Одамлар техник функцияларни бажариш учун табиий объектдан фойдаланишлари сабабли атроф-муҳитни тартибга солиш билан боғлиқ муаммолар пайдо бўлади.

Бу жараёнда албатта олий таълим соҳасида фаолият олиб бораётган профессор-ўқитувчилар ҳам муҳим роль ўйнайди. Улар талабаларга билим бериш билан чекланибгина қолмасдан, балки ёшларни экологик соҳадаги онгини шакллантиришда етакчилик қилишади. Шунингдек, фармонда белгиланганидек, маҳаллаларнинг экологик қиёфасини яхшилаш, кўчаларда яшиллик даражасини ошириш, экологик жиҳатдан қулай ва фаровон яшаш муҳитини шакллантириш, аҳолининг саломатлигини яхшилаш, экологик турмуш тарзини шакллантириш ва инсон салоҳиятини рўёбга чиқариш учун шарт-шароитларни яратиш каби вазифаларни тарғиб қилиш мақсадида чора-тадбирлар ишлаб чиқилмоқда. Шу билан бирга табиий ресурсларни тежаш ва улардан оқилона фойдаланиш, экологик барқарорликни таъминлаш, ўсимлик ва ҳайвонот дунёсини асраш, кўпайтириш ва кейинги авлодга етказиш ҳамда биологик хилма-хилликни сақлашда янада масъулиятли бўлишга ундаб, ёшларни фаол бўлишга чақирилмоқда.

Хулоса қилиб айтганда, экологик маданиятнинг педагогик жиҳатлари инсоннинг табиатга бўлган асосий муносабатини тубдан қайта кўриб чиқишни талаб қилади. Саноат цивилизацияси даврида истеъмолчиларнинг табиатга муносабати устунлик қилди. У иқтисодий фаолият учун ресурслар манбаи сифатида қаралди. Шунга кўра, табиатни муҳофаза қилиш ресурсларнинг айрим турларини тўлдиришга, ўрмонларни экишга, кўриқхоналарни яратишга, ҳайвонларни отишни тақиқлашга ва ҳоказоларга қаратилган эди. Табиатни муҳофаза қилиш фаолияти оммавий истеъмол жамиятида эҳтиёжларнинг ошиши ва ишлатилган ресурсларни тиклашга уриниш ўртасида ўзига хос келишув бўлиб хизмат қилади.

АДАБИЁТЛАР

1. Maxwell R., Miller T. Greening cultural policy // International Journal of Cultural Poli- cy. 2017. № 23(2). P. 174–185.
2. Кезин В. Г. Экологическая культура и место экологических отношений в ее составе // Вестник ПНИПУ. Социально-экономические науки. 2014. № 3(24). С. 55–62.
3. Багдасарян А. А., Овсепян А. Ю. Экологическое сознание как компонент экологической культуры // Вопросы науки и образования. 2018. № 10(22). С. 167–170.
4. То'хтаев А. Ekologiya. T.: O'qituvchi. 1998., 2001.
5. To'xtaev A.S., Haydarova H.N., Yakubjonova Sh.T., Xonxojaeva N.B., G'ulomova A.R. “Umumiy ekologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari”. T., 2005 y.

Экологик маданиятни таҳлил қилишда педагогик ёндашув

Резюме. Мазкур мақолада экологик маданият инсоннинг тарбия натижасида олган ижтимоий-экологик тажрибасини тизимлаштиришда педагогик ёндашувнинг аҳамияти таҳлил қилинди.

Таняч сўзлар: экология, экологик маданият, тарбия, педагогика, кадрят, табиат, экологик таълим.

Педагогический подход к анализу экологической культуры

Резюме: В статье проанализировано значение экологической культуры в систематизации социально-экологического опыта личности как результата образования.

Ключевые слово: экология, экологическая культура, образование, педагогика, ценность, природа, экологическое образование.

Pedagogical approach to the analysis of ecological culture

Summary: The article analyzes the importance of environmental culture in systematizing the individual's socio-ecological experience as a result of education.

Key words: ecology, ecological culture, education, pedagogy, value, nature, ecological education.

МЕТАВЕРСДА ТОВАР БЕЛГИЛАРИНИ ХУҚУҚИЙ МАҚОМИНИ БЕЛГИЛАШНИНГ АМАЛИЙ МАСАЛАЛАРИ

Бабакулов З.К.

Жамоат хавфсизлиги университети

Кириш. Сўнгги йилларда рақамли технологияларнинг жадал ривожланиши, хусусан блокчейн, сунъий интеллект, виртуал ва қўшимча реаллик (VR/AR), 3D муҳит, метаверс платформалари ва ноёб токенлар (NFT) каби инновацион ишланмалар интеллектуал мулк ҳуқуқи соҳасида анъанавий ҳуқуқий тушунчалар билан изоҳлаб бўлмайдиган мутлақо янги объектлар ва ўзаро боғлиқ, кўп йўналишли мураккаб муносабатлар тизimini шакллантирди.

Метаверснинг трансчегаравий ва ўзаро мослашувчан табиат, ундаги виртуал муҳитнинг моддий жисмга эга бўлмаган, бироқ реал иқтисодий қиймат яратадиган хусусияти, рақамли мулкнинг ноанъанавий муомала механизмлари, виртуал истеъмолчининг хулқ-атвор модели классик товар белгиси доктринаси учун принципиал янги ҳуқуқий масалаларни келтириб чиқармоқда [1].

Метаверсда товар белгиси – бу энди фақат график белги ёки логотипдан иборат эмас [2]. У аватарларда намоён бўладиган 3D моделлар, виртуал аксессуарлар, NFT-коллекциялар, метаверс-дўконлар ва виртуал кенгликдаги брендинг элементларининг комплекс уйғунлигида, интерфейсдаги идентификаторлар билан биргаликда шаклланадиган кўп компонентли ҳуқуқий муносабатга айланмоқда [3]. Бренд бундай муҳитда савдо манбаи вазифасидан ташқари, фойдаланувчининг виртуал аниқлигини, рақамли обрўсини ва метаверс иқтисодиётидаги субъект сифатидаги мавқеини белгилаб берувчи асосий ҳуқуқий восита вазифасини бажаради.

“Hermès International SA v. Mason Rothschild” иши [4] метаверс ва NFT муҳитида товар белгиларининг ҳуқуқий мақомини белгилашда илк фундаментал прецедентлардан бири сифатида намоён бўлиб, рақамли объектларнинг ҳуқуқий табиати, виртуал тижоратда товар белгиларидан фойдаланишнинг чегаралари ва истеъмолчининг адаштирилиши эҳтимоли каби масалаларга тубдан ёндашувни шакллантирди.

Низо Мейс Ротшильд томонидан “MetaBirkins” номи остида яратилган NFT-сумкалар “Hermès”нинг таниқли “Birkin” брендига визуал ва семантик жиҳатдан ўхшаш тарзда шакллантирилгани сабаб юзага келган. Ушбу NFTлар “Hermès”нинг расмий маҳсулотига алоқадор экан”, деган тасаввур уйғотиб, рақамли санъат платформаларида фаол тижорат муомаласига киритилгани Hermès томонидан товар белгиси ҳуқуқларининг бузилиши сифатида баҳоланди. Ротшильд эса ўз навбатида бу NFTлар “санъат асари” бўлиб, сўз эркинлиги билан ҳимоя қилинишини таъкидлади.

Суд мазкур низода ижод эркинлиги билан товар белгисининг тижоратда муҳофаза қилиниши ўртасидаги чегарани белгилашга алоҳида эътибор қаратиб, “MetaBirkins NFTларининг тасвирий ифодага эга бўлиши уларнинг аслида Hermès брендининг таниқлилиқ даражасини қасддан фойдаланган ҳолда бозорда обрў-эътиборга эга бўлаётганлик ҳақиқатини йўққа чиқармайди”, деган хулосага келди. Суднинг фикрича, “рақамли санъат киёфаси орқали товар белгисига оид ҳуқуқбузарликни яшириш мумкин эмас. Агар NFT реал брендга боғлиқлик тасаввурини вужудга келтирса ва моддий даромад олишга қаратилган бўлса, у ҳолда у “санъат асари” эмас, балки “товар белгисини тижоратда ноқонуний эксплуатация қилиш воситаси” сифатида қаралади.

Шу билан бирга, суд MetaBirkins NFTлари виртуал муҳитда мавжуд эканлиги уларни товар белгисининг ҳуқуқий муҳофазаси доирасидан чиқармаслигини таъкидлади. Метаверс ва NFT-маркетплейслар реал бозор каби тижорат муомаласига эга бўлган ҳудуд ҳисобланади ва унда истеъмолчи онгида манбага нисбатан боғлиқлик, ишонч ва брендингни қабул қилиш жараёни реал дунёдаги билан деярли бир хил амал қилади. Hermès тақдим этган далиллар ҳам буни тасдиқлади, яъни кўплаб фойдаланувчилар, блогерлар ва журналистлар MetaBirkins NFTларини Hermèsнинг расмий креатив лойиҳаси деб ўйлаган. Бу ҳолат суд учун рақамли муҳитда ҳам “адаштириш даражсида ўхшашлик” истеъмолчини адаштириш эҳтимоли тўла амал қилишини кўрсатди.

Адаштириш эҳтимолининг исботланиши судни MetaBirkins NFTларини рақамли контрафакт сифатида баҳолашга олиб келди. Суд ушбу NFTлар Hermès брендининг обрўси ва қийматига моддий ва номоддий зарар етказганини, брендинг мутлақлик хусусиятига путур етказиб, унинг тижорат мақсаддаги обрўсини пасайтирганини қайд этди. Натижада MetaBirkins NFTлари Hermès товар белгисининг ноқонуний нусхаси, яъни виртуал контрафакт деб топилди. Бу ишда яна бир муҳим доктринал мезон шаклланди, яъни “товар белгисининг фойдаланилиши” тушунчаси энди фақат моддий товарларнинг ишлаб чиқарилиши, импорт қилиниши ёки сотилиши билан чекланмайди. NFT яратилиши, NFTни маркетплейсларда жойлаштириш, унинг рекламиси, рақамли образ орқали истеъмолчини брендга боғлаш тасаввурини юзага келтириш буларнинг барчаси суд томонидан товар белгисини рақамли тижоратда фойдаланиш сифатида баҳоланди.

“Hermès v. MetaBirkins” ишининг илмий-ҳуқуқий аҳамияти шундаки, у NFT ва метаверсдаги объектларнинг ҳуқуқий табиатига оид асосий концептуал чегараларни белгилаб берди. Суд NFTларнинг моддий жисмга эга эмаслиги уларни товар белгиси муҳофазасидан чиқариб ташламаслигини, аксинча виртуал брендинг истеъмолчининг онгига таъсир этиш потенциали туфайли бренд ҳуқуқбузарликларига олиб келиши мумкинлигини эътироф этди. Натижада мазкур иш метаверс ва NFT муҳитида “фойдаланиш”, “контрафакт”, “брендни эксплуатация қилиш”, “адаштириш эҳтимоли” каби тушунчаларни қайта шакллантириб, виртуал тижорат ва рақамли активлар бозори учун ҳуқуқий доктринанинг мутлақо янги босқичини яратди.

Буюк Британияда қўрилган “Art Wars NFT” низоси [5] метаверс ва NFT виртуал тизимидаги ҳуқуқий муносабатларни тартибга солишда муҳим доктринал аҳамият касб этиб, “Hermès v. Rothschild” каби АҚШ суд прецедентларидан фарқли равишда “Art Wars NFT” иши рақамли санъат ва ижодкорлар манфаатларини кенгрок

химоя қилувчи ҳуқуқий ёндашувни шакллантирди. Мазкур ишда суд NFT платформаларининг жавобгарлик мақомини, санъат асарларининг рақамли тасвирга айлантирилишига нисбатан интеллектуал мулк ҳуқуқларининг қўлланилишини қайта баҳолаб, NFTнинг мазмун-моҳиятига кўра санъат асари сифатида ҳуқуқий тан олиниши мумкинлиги тўғрисида илк позицияни шакллантирди. Низо хунарманд рассомлар ва Art Wars лойиҳаси ташкилотчилари томонидан яратилган ҳайкалтарошлик фотосуратларининг уларнинг розилигисиз “Art Wars NFTs” номи остида рақамли токенларга айлантирилиб, турли NFT маркетплейсларда сотилиши натижасида келиб чиққан. Асар эгалари бундай токенлаштириш амалиёти уларнинг муаллифлик ҳуқуқларини бузганини, асарнинг бадий образини рухсатсиз ўзгартирганини ҳамда устига устак тижорат мақсадларида ноқонуний равишда фойдаланиш ҳолати юзага келганини таъкидлаб судга мурожаат қилишди. Бироқ суд ушбу низога “Hermes v. MetaBirkins” ишидаги каби тижорат-брендинг ёндашувини эмас, балки рақамли санъат, муаллифлик ҳуқуқи ва рақамли платформаларнинг функционал жиҳатига асосланган мутлақо бошқача позицияни қўлади ва ечимни тамоман фарқли доктринал асосда шакллантирди.

Биринчи навбатда суд NFT платформасининг ҳуқуқий мақомини баҳолаб, санъат асарининг рақамли талқини асосида яратилган NFTларни сотган шахс тўлиқ жавобгар эканини, аммо платформа бундай токенларни хостинг қилиш, савдоларни техник тарзда таъминлаш ёки транзакциядан комиссия олишнинг ўзи билан ҳуқуқбузар деб ҳисобланмаслигини таъкидлади. Суднинг фикрича, платформа контент яратиш ёки унинг ҳуқуқий табиати ҳақида қарор қабул қилмайди, балки фақат “нейтрал воситачи” сифатида хизмат қилади. Шу боис, унда тўғридан-тўғри муаллифлик ҳуқуқини бузиш нияти ҳам, NFT яратилишида ижодий иштироки ҳам мавжуд эмас. Суднинг ушбу ёндашуви метаверс ва Web3 экотизимларидаги платформаларнинг жавобгарлик чегараларини белгилаб, уларни мустақил ҳуқуқбузар эмас, балки контент назорати ва мониторинги функциясини бажарувчи техник инфратузилма сифатида баҳолаш мумкинлигини доктринал жиҳатдан мустаҳкамлади.

Иккинчидан, суд NFTнинг ҳуқуқий табиатига оид масалани атрофлича кўриб чиқиб, уни оддий рақамли нусха ёки виртуал тижорат объекти сифатида талқин қилиш чекланган ёндашув эканини таъкидлади. Суднинг фикрича, NFT – бу унинг асосида турган тасвирнинг рақамли акс эттирилиши бўлиб, айрим ҳолларда мустақил эстетик, бадий ва ижодий қийматга эга санъат асари сифатида намоён бўлиши мумкин. Унга кўра, NFT фақат товар белгисини бузиш ёки ҳуқуққа зид такрорлаш воситаси эмас, балки ўз мазмуни ва контекстидан келиб чиқиб, санъат асарига тенг ҳуқуқий мақом олиши ҳам мумкин. Суднинг бундай қарорлари Hermes ишидаги каби NFTларни автоматик тарзда “виртуал контрафакт” деб баҳолаш амалиётини чеклаб, рақамли токенларнинг бадий моҳияти ва ижодий қимматини инобатга олган ҳолда кенгрок, фалсафий-ҳуқуқий ёндашувни шакллантирди.

Учинчидан, суд мазкур ишда ифода эркинлиги ва рақамли санъатнинг мустақил қийматини таҳлилнинг асоси қилиб қўйди. Суднинг таъкидлашича, NFTлар тижорат муомаласига киритилган ҳолда сотилган бўлса ҳам, уларнинг бадий асар сифатидаги эстетик йўналиши, ижодий ғояси ва рамзий мазмуни инкор этилиши мумкин эмас. Суд буни рақамли санъатнинг замонавий шакли сифатида баҳолаб, NFT орқали етказилган бадий хабар, эстетик концепция ва ижодкорнинг индивидуал ифодаси ҳуқуқий аҳамиятга эга эканини қайд этди. Шу муносабат билан суд NFTларни Hermes ишидаги каби фақат “тўғридан-тўғри тижоратлаштириш воситаси” сифатида эмас, балки рақамли санъат объектлар сифатида кўриш мумкинлигини ўрнатди. Бу ёндашув ҳуқуқий доктринада янги категория – “асарнинг рақамлаштирилган бадий модели” тушунчасини амалий жиҳатдан мустаҳкамлаб, NFTларнинг ҳуқуқий мақомини тўғридан-тўғри товар белгиси ҳуқуқбузарлиги билан тенглаштириш мумкин эмаслигини кўрсатди. Бошқача қилиб айтганда, суд рақамли санъатнинг ижодий моҳиятини тижорат унсурларидан устун деб топиб, NFTларнинг ҳуқуқий баҳосида санъат, эстетика ва ифода эркинлиги каби омилларни инобатга олиш зарурлигини биринчи марта очиқ белгилади.

Шунингдек, ушбу ишда суд метаверс ва NFT платформаларида юзага келадиган муаллифлик ва товар белгиларига оид ҳуқуқий низоларда жавобгарликнинг функционал фарқини белгилаб берди. Яъни, платформалар асосан технологик воситачи бўлгани учун уларга нисбатан Hermes ишидаги каби қатъий бренд химояси билан боғлиқ ёндашувларни қўллаш ҳеч ҳам тўғри эмас. Асосий жавобгарлик NFTни яратган, сотган ёки муаллифлик ҳуқуқидан қасддан фойдаланган субъект зиммасига юкланиши лозим.

Art Wars нисоси Web3 ва метаверс ҳуқуқшунослиги учун бир қатор илмий-теоретик хулосаларни шакллантирди. Аввало, у интеллектуал мулк ҳуқуқидаги “нусха” ва “асар” тушунчаларининг анъанавий таърифи рақамли муҳитда ўз аҳамиятини тўла сақлаб қололмаслигини ва уларни NFT технологияси, блокчейн ишончилиги ва рақамли тасвир эстетикаси билан уйғун ҳолда қайта шакллантириш зарурлигини кўрсатди. Суд NFTларнинг ҳуқуқий табиатини уларнинг фақат техник ёки тижорат хусусиятидан келиб чиқиб эмас, балки уларда мужассам бўлган эстетик мазмун, бадий концепция ва ижодий ифода орқали баҳолашни илмий жиҳатдан асослади. Бу эса рақамли асарларнинг ҳуқуқий моҳиятини моддий санъат объектларига тенг даражада эътироф этишни назарда тутди. Шунингдек, иш метаверс экотизимидаги жавобгарлик масаласини ҳам янги илмий асосда белгилаб, NFT платформаларининг мақоми ҳуқуқбузар ёки ҳаммуаллиф сифатида эмас, балки контент яратишга аралашмайдиган, транзакция инфратузилмасини таъминловчи функционал технологик воситачи сифатида қаралиши лозимлигини мустаҳкамлади. Бундай ёндашув Web3 ҳуқуқшунослигида жавобгарликнинг субъектга эмас, балки функцияга боғлиқ равишда белгиланиши кераклигини кўрсатиб, интеллектуал мулк ҳуқуқига функционализм назариясини олиб кирди.

Ниҳоят, Art Wars иши рақамли санъатдаги ифода эркинлигининг устувор ҳуқуқий мавқеини тасдиқлаб, NFTларни сотиш ёки улардан иқтисодий фойда олишнинг ўзи рақамли бадий ифоданинг ҳуқуқий

мухофазасини йўққа чиқармаслигини таъкидлади. Суд NFT орқали етказилган эстетик ғоя, рамзий маъно ва бадий тўқима тижорат унсурларидан устун ҳуқуқий ҳимояга эга эканини илмий асос билан эътироф этди.

Хулоса. Метаверс ва NFT экотизимида юзага келган ҳуқуқий низолар, жумладан “Hermès v. MetaBirkins” ҳамда “Art Wars NFT” ишларининг таҳлили интеллектуал мулк ҳуқуқи назариясини янги босқичга олиб чиқиб, рақамли муҳитдаги бренд ҳимояси, рақамли санъатнинг ҳуқуқий табиати ва Web3 платформаларининг жавобгарлик чегараларини тубдан қайта кўриб чиқишга асос бўлди. Ушбу суд прецедентлари метаверс иқтисодиётида юзага келаётган мураккаб муносабатларни ҳуқуқий тартибга солиш учун бир қатор мутлақо янги илмий ғояларни илгари сурди.

Биринчи навбатда, “виртуал товар белгиси”нинг янги ҳуқуқий табиати шаклланди. Метаверс шароитида товар белгиси анъанавий график логотип билан чекланмай, аксинча 3D моделлар, аватар аксессуарлари, метаверс-дўконлар ва NFT брендинг элементлари каби кўп қиррали идентификаторлар мажмуасига айланимда. Бу эса товар белгисини мултимодал ва рақамли муҳитга мосланган янги ҳуқуқий объект сифатида талқин қилишни талаб қилмоқда.

Иккинчидан, суд қарорлари рақамли муҳитдаги ҳаракатларни товар белгисининг фактик “рақамли фойдаланиши” сифатида тан олди. Бунда NFT яратиш, уни маркетплейсларга жойлаштириш, виртуал муҳитда брендга боғлиқлик тасавури юзага келтириш, истеъмолчини адаштириш каби ҳаракатлар ҳам товар белгисининг амалдаги фойдаланиши деб баҳоланди. Бу ҳолат интеллектуал мулк ҳуқуқидаги “фойдаланиш” категориясининг мазмуни мутлақо янги босқичда қайта концептуаллашганини кўрсатади.

Учинчидан, “виртуал контрафакт” тушунчаси ҳуқуқий доктрина сифатида шаклланди. Hermès v. MetaBirkins иши NFT орқали брендга боғлиқлик тасавури яратилиши, эстетик шаклда бренд обрўсидан фойдаланилиши ва истеъмолчининг адаштирилиши каби омилларни биргаликда баҳолаб, контрафактликнинг рақамли шаклини назарий жиҳатдан мустаҳкамлади. Бу анъанавий контрафакт моделининг метаверс муҳитига мослаштирилган илмий кўринишидир.

Шу билан бирга, рақамли санъат ва товар белгиси ҳуқуқи ўртасидаги чегарани белгилайдиган янги доктрина шаклланди. Art Wars иши NFT объектларининг фақат тижорат воситаси эмас, балки мустақил эстетик қийматга эга санъат асари сифатида тан олиниши мумкинлигини асослади. Суд NFTнинг ҳуқуқий табиатини унинг тижорат йўналишига эмас, балки эстетик мазмуни ва ижодий концепциясига қараб баҳолаш зарурлигини таъкидлади. Бу эса санъат ҳуқуқи ва бренд ҳуқуқи ўртасида янги мувозанатни вужудга келтирди.

Тўртинчидан, Art Wars иши Web3 ва метаверс платформаларининг ҳуқуқий мақомини қайта белгилаб, уларни ҳуқуқбузарликнинг тўғридан-тўғри субъекти эмас, балки транзакциялар учун инфратузилма яратиб берувчи “нейтрал воситачи” сифатида баҳолаш лозимлигини кўрсатди. Бу Web3 ҳуқуқшунослигида функционализм доктринаси яъни жавобгарликни субъект эмас, функция бўйича белгилаш концепциясини шакллантирди.

Бешинчидан, Art Wars иши NFTларда мужассам бўлган эстетик образ, бадий хабар ва ижодий ғоялар тижорат айланмасига киритилган бўлса ҳам, улар ифода эркинлиги билан ҳимоя қилинишини тан олди. Бу рақамли санъатга нисбатан “ифода эркинлиги” доктринаси қўлланилиши мумкинлигини биринчи марта очик таъкидлади. Юқоридаги ҳолатлардан келиб чиқиб, метаверс ва NFTлар ҳақидаги мазкур суд прецедентлари анъанавий интеллектуал мулк ҳуқуқининг чегараларини кенгайтириб, рақамли муҳитга мослашган янги доктрина асосни шакллантирди. Натижада, “фойдаланиш”, “контрафакт”, “адаштириш эҳтимоли”, “брендни эксплуатация қилиш”, “санъат асари сифатида тан олиш” каби тушунчалар виртуал муҳитга мос равишда қайта талқин этилди ва интеллектуал мулк ҳуқуқининг мутлақо янги босқичи метаверс ҳуқуқшунослиги учун мустаҳкам илмий асос яратилди.

АДАБИЁТЛАР

1. Hussein S. Legal challenges of intellectual property in the metaverse under uae intellectual property law: Trademarks, copyrights, patents //2024 2nd International Conference on Intelligent Metaverse Technologies & Applications (iMETA). – IEEE, 2024. – P. 246-252.
2. Kim S., Grady J., Ballouli K. Navigating emerging trademarks issues for sport brands in the metaverse //International Journal of Sports Marketing and Sponsorship. – 2025. – Т. 26. – №. 2. – P. 292-304.
3. Ramirez-Montes C. EU Trademarks in the Metaverse //IDEA. – 2022. – Т. 63. – P. 555.
4. Hermès International et al. v. Rothschild. Case No. 1:22-cv-00384-JSR. <https://law.justia.com/cases/federal/district-courts/new-york/nysdce/1:2022cv00384/573363/140/>. “Hermès International v. Rothschild, 2023 WL 1458126 (S.D.N.Y. Feb. 2, 2023)”. <https://www.wipo.int/wipolex/en/text/588771>. NFTs, Art, and Trademark: The Hermès Decision <https://news.bloomberglaw.com>
5. <https://www.cryptocurrenciesnewz.com/2021/11/24/art-wars-collection-is-sold-as-an-nft-for-almost-7m-without-consent-artists/> <https://upravis.ru/news/detail.php?news=14000&ysclid=mifpafyea5437469225/>

Метаверсда товар белгиларини ҳуқуқий мақомини белгилашнинг амалий масалалари

Аннотация. Мақолада метаверс ва NFT экотизимининг жадал ривожланиши шароитида товар белгиларининг ҳуқуқий мақомини қайта белгилаш зарурати илмий-амалий жиҳатдан таҳлил қилинади. Тадқиқот натижасида метаверс учун мослашган янги ҳуқуқий концепция – “метаверс интеллектуал мулки” доктринаси шаклланиб, интеллектуал мулк ҳуқуқининг рақамли босқичга ўтишининг назарий-амалий асослари белгилаб берилган.

Калит сўзлар: метаверс, NFT, товар белгиси, интеллектуал мулк, MetaBirkins, Art Wars NFT, виртуал контрафакт.

Legal challenges of defining the trademark status in the metaverse

Abstract. This article provides a scholarly and practical analysis of the need to redefine the legal status of trademarks in the rapidly developing ecosystem of the metaverse and NFTs. As a result, the research establishes a new legal concept tailored to the metaverse—the doctrine of “metaverse intellectual property”—and substantiates the theoretical and practical foundations of intellectual property’s transition into the digital era.

Keywords: metaverse, NFT, trademark, intellectual property, MetaBirkins, Art Wars NFT, virtual counterfeiting.

Практические проблемы определения правового статуса товарных знаков в метавселенной

Аннотация. В статье проводится научно-практический анализ необходимости переосмысления правового статуса товарных знаков в условиях стремительного развития метавселенной и экосистемы NFT. В результате исследования сформирована новая правовая концепция, адаптированная к метавселенной, — доктрина «интеллектуальной собственности метавселенной», которая определяет теоретические и практические основы перехода права интеллектуальной собственности в цифровую эпоху.

Ключевые слова: метавселенная, NFT, товарный знак, интеллектуальная собственность, MetaBirkins, Art Wars NFT, виртуальный контрафакт.

XORAZM VOHASI KOMMUNIKATSIYA TIZIMIDA SUV YO‘LLARINING AHAMIYATI (ILK O‘RTA ASRLARDA)

Karimov Y. A.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Kirish. Milodiy III–IX asrlar oralig‘i Xorazm vohasi uchun siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan muhim davr bo‘lib, bu davrda vohaning tabiiy-geografik imkoniyatlariga tayangan holda sug‘orish tizimlari va kommunikatsiya inshootlari jadal rivojlangan. Ayniqsa, Amudaryo daryosi bo‘ylab shakllangan suv yo‘llari Xorazmning ichki va tashqi aloqalarini ta‘minlovchi asosiy vosita sifatida xizmat qilgan. Ushbu davrda Xorazm vohasi orqali o‘tgan savdo va karvon yo‘llari, bandargohlar, kechuvlar hamda turli sug‘orish inshootlari mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o‘ynagan. Shu bois Xorazmning kommunikatsion tizimlari, ayniqsa suv yo‘llari asosida shakllangan aloqalar tarmog‘ini o‘rganish, nafaqat mintaq tarixini chuqur anglash, balki uning Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari bilan bo‘lgan uzviy bog‘liqligini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada aynan shu davrda Xorazm vohasida suv yo‘llariga asoslangan kommunikatsiya tizimining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va strategik ahamiyati tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Tahlil va dolzarbligi. Milodiy III–IX asrlar oralig‘i Xorazm tarixida muhim davrlardan biri hisoblanadi. Bu davrda vohada siyosiy barqarorlik nisbatan saqlanib qolgan bo‘lib, sug‘orish inshootlari va kommunikatsiya tizimlarining rivoji kuzatiladi. Yunon-rim manbalarida Chorasmii nomi bilan tilga olingan Xorazm vohasi Markaziy Osiyo mintaqasidagi muhim madaniy va savdo markazlaridan biri bo‘lgan. [Птолемей Клавдий, 1966. С.]

Xorazmning 3–9-asrlardagi rivojlanishida qadimiy Chorasmii an‘analari, Eron va Mesopotamiya madaniyati bilan aloqalar, shuningdek, Sharqiy Yevrosiyo mintaqasi bilan bo‘lgan savdo munosabatlari muhim rol o‘ynagan.

Mazkur davrda Xorazm vohasi qadimgi Qang‘ davlati bilan siyosiy-iqtisodiy aloqalarni davom ettirgan. 4–5-asrlarda esa tashqi tahdidlar kuchaygan bo‘lsa-da, Xorazm o‘zining siyosiy mustaqilligini saqlab qolishga harakat qilgan. Ayniqsa, Amudaryo bo‘ylaridagi qo‘rg‘on-qal‘alar va kommunikatsiya nuqtalarining mustahkamlanishi bunga misol bo‘la oladi. [Толстов, 1948. С. 78–83.]. 6–7-asrlarda Xorazm Turkiy xoqonliklar bilan yaqin aloqada bo‘lib, bu davrda Xorazmda turkiy unsurlar kuchayganligi kuzatiladi. Shu davrda savdo yo‘llari va bandargohlar faoliyati yanada jonlangan. [Бартольд, 1963. С. 45–47.]

Arablar istilosi davrigacha bo‘lgan davrda Xorazm vohasi yirik sug‘orish inshootlari, suv chiqarish tizimlari va tabiiy kommunikatsiya yo‘llari asosida rivojlangan. Xususan, Amudaryo orqali o‘tgan qadimiy yo‘llar va kechuvlar orqali voha ichida va tashqarisida iqtisodiy va ijtimoiy aloqalar mustahkamlangan. Arablar istilosidan so‘ng (VIII asr o‘rtalari), Xorazmda yangi inshootlar, xususan, karvonsaroylar, yo‘l uzellarida harbiy nazorat punktlari va suv omborlari qurilgan. Bu holat vohaning strategik ahamiyatini yana bir bor isbotlaydi. [Наршахи, 1897. С. 96–98.]

8–9-asrlarda esa Xorazm Arab xalifaligi tasarrufiga o‘tgan bo‘lib, bu davr vohaning siyosiy va iqtisodiy hayotida muhim o‘zgarishlarga olib kelgan. Arablar tomonidan qishloq xo‘jaligi tizimi takomillashtirilgan, sug‘orish inshootlari qayta qurilgan va yangi kommunikatsiya yo‘llari barpo etilgan. [Наршахи, 1897. С. 94.] Bular Xorazmning 3–7-asrlarda shakllangan sug‘orish an‘analariga tayangan.

Arablar tomonidan qishloq xo‘jaligi bilan bir qatorda harbiy-strategik infratuzilma ham rivojlantirilgan. Ayniqsa, strategik joylarda qal‘alar tiklangan yoki mavjud qal‘alar mustahkamlangan. Bu qal‘alar 3–6-asrlarda qurilgan qadimgi qal‘a-qo‘rg‘onlar asosida yangilangan. Arablar istilosi Xorazm vohasining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Sug‘orish tizimlari qayta tiklandi, ayrim bandargohlar va kechuvlar yangi kommunikatsion tarmoq doirasida qayta qurildi. [Наршахи, 1897. С. 99–100.]. 8–9-asrlarda Xorazm vohasining geografik joylashuvi tufayli Arab xalifaligi uchun strategik ahamiyat kasb etgan. Bu davrda ko‘plab karvon yo‘llari, harbiy yo‘nalishlar va savdo bandargohlari faoliyat yuritgan. [Бартольд, 1927. С. 53–56.]

Shuningdek, bu davrda Amudaryo orqali o‘tuvchi asosiy o‘zanlar bo‘yida joylashgan bandargohlar va qishloqlar Xorazmning ichki va tashqi aloqalarini ta‘minlovchi muhim nuqtalarga aylangan. Shuningdek, ushbu davrda Xorazm aholisi tomonidan foydalanilgan sug‘orish tizimlari – ariq va kanal tarmoqlari, daryo bo‘yidagi kechuvlar, mudofaa devorlari, quduqlar va suv omborlari voha taraqqiyotining asosiy negizini tashkil etgan.

IX asrga kelib, Xorazmda suv yo‘llariga asoslangan kommunikatsiya tarmog‘i kengaygan. Ayniqsa, Amudaryo o‘zanlari bo‘yidagi buloqlar, quduqlar va sun‘iy kanallar orqali voha ichidagi aloqalar rivojlangan. Bu holat sug‘orish tizimining takomillashuvi bilan bevosita bog‘liq edi [Толстов, 1962. С. 132.]

8–9-asrlarda bandargohlar va kechuvlar faollashdi. Amudaryo o‘zanining o‘zgaruvchanligi hisobga olinib, vaqtincha bandargohlar ham faoliyat ko‘rsatgan. Ayrim manbalarda bu bandargohlar harbiy yurishlar uchun ham xizmat qilgani tilga olinadi.

VIII–IX asrlarda Xorazmda arablar tomonidan harbiy strategik nuqtalar sifatida mustahkamlangan qal’alar mavjud bo’lgan. Ular orasida ilgari 3–7-asrlarda qurilgan mudofaa obidallari asosida tiklanganlari ham bor edi. [Бартольд, 1963.С. 62–64.]. 3–9-asrlar davomida Amudaryo bo’yida joylashgan bandargohlar (masalan, Kazoqtepa, Qo’shtepa) tashqi savdoda muhim ahamiyatga ega bo’lgan. Bu nuqtalarda harbiy va iqtisodiy faoliyat uyg’un holda olib borilgan. [Коровяков, 1990. С. 58–62.]. Milodiy III–IX asrlar oralig’i Xorazm tarixida muhim davrlardan biri hisoblanadi. Bu davrda vohada siyosiy barqarorlik nisbatan saqlanib qolgan bo’lib, sug’orish inshootlari va kommunikatsiya tizimlarining rivoji kuzatiladi. Yunon-rim manbalarida Chorasmii nomi bilan tilga olingan Xorazm vohasi Markaziy Osiyo mintaqasidagi muhim madaniy va savdo markazlaridan biri bo’lgan. VI–VII asrlarda Xorazm turkiy xoqonliklar bilan yaqin aloqada bo’lib, bu davrda Xorazmda turkiy unsurlar kuchayganligi kuzatiladi. Bu davrda savdo yo’llari va bandargohlar faoliyati yanada jonlangan. Xususan, Amudaryo o’zanlari orqali ichki va tashqi aloqalar kengayib borgan. Xorazmda faoliyat ko’rsatgan karvon yo’llari ham VIII–IX asrlarda rivojlangan. Bu yo’llar Amudaryodan kechib o’tuvchi nuqtalar orqali voha ichkarisiga chuqur kirib borar, yirik qishloq va sug’oriladigan hududlarni birlashtirardi. Bu holat 3–9-asrlarda shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy modelning davomiyligini ko’rsatadi.

Xorazm orqali o’tgan karvon yo’llari orqali Sharqiy Turkiston, Eron va Movarounnahr bilan madaniy va iqtisodiy aloqalar jonlangani ko’rsatilgan. Ayniqsa, IX asr oxirlarida bu yo’llar orqali zarbxonalar va ilmiy markazlarga xomashyo yetkazilgan. [Бичурин.1851. С. 174.]. Amudaryoning qadimgi o’zanlari 3–9-asrlarda ham faol bo’lgan. Xususan, Xorazmning janubiy va g’arbiy qismida joylashgan bandargohlar ushbu o’zanlarga qarab shakllangan. Arablar davrida bu yo’nalishlar bo’yicha savdo va harbiy aloqalar amalga oshirilgan. [Толстов,1962.С. 144–147.]

Xulosa. Xorazm vohasining milodiy III–IX asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida suv yo’llariga asoslangan kommunikatsiya tizimlari muhim o’rin tutgan. Amudaryo bo’ylab shakllangan bandargohlar, kechuvlar, sug’orish inshootlari va karvon yo’llari Xorazmni nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro savdo va madaniy aloqalarning markaziga aylantirgan. Turli davrlardagi siyosiy o’zgarishlarga qaramay, vohaning tabiiy imkoniyatlariga mos ravishda kommunikatsiya tarmoqlari takomillashib borgan.

Arablar istilosidan so’ng Xorazmda bu tizimlar yanada rivojlanib, harbiy-strategik va iqtisodiy infratuzilmaning asosiy tayanchlaridan biriga aylangan. Suv yo’llari orqali amalga oshirilgan savdo-sotiq, madaniy almashinuv va mudofaa choralari vohaning barqarorligini ta’minlab turgan. Ushbu tarixiy jarayonlar Xorazm sivilizatsiyasining mustahkam asoslar ustida shakllanganini, uning boshqa yirik madaniy markazlar bilan uzviy bog’liqligini yaqqol namoyon etadi.

ADABIYOTLAR

1. Птолемей Клавдий. География. Книга VI. – М., 1966
2. Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.-Л., 1948. – С. 78–83.
3. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – М., 1963. – С. 45–47, 62–64.
4. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. – М., 1927. – С. 53–56.
5. Наршахи. История Бухары. – Ташкент, 1897. – С. 94, 99–100
6. Толстов С.П. По древним дельтам Окса. – М.-Л., 1962. – С. 132., 144–147
7. Коровяков М.П. Портовые поселения древнего Хорезма. – Ташкент, 1990. – С. 58–62.
8. Наршахи. История Бухары. – Ташкент, 1897. – С. 96–98.
9. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. – СПб., 1851. – Т. 1. – С. 174.

Annotatsiya. Ushbu maqolada milodiy III–IX asrlarda Xorazm vohasining suv yo’llari asosidagi kommunikatsiya tizimi tarixiy manbalar asosida o’rganiladi. Amudaryo daryosi bo’yida joylashgan bandargohlar, kechuvlar, sug’orish inshootlari va yo’l tarmoqlari orqali Xorazm ichki va tashqi savdo, harbiy va ijtimoiy aloqalar markaziga aylangani yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: kommunikatsiya tizimi, suv yo’llari, Amudaryo, bandargohlar, karvon yo’llari, sug’orish inshootlari.

Abstract. This article examines the waterway-based communication system of the Khorezm oasis during the 3rd to 9th centuries AD, using historical sources. It highlights the role of ports, crossings, irrigation structures, and road networks along the Amu Darya River in transforming Khorezm into a center of internal and external trade, military, and social relations.

Keywords: communication system, waterways, Amu Darya, ports, caravan routes, irrigation structures.

Аннотация. В данной статье исследуется система коммуникаций на основе водных путей в Хорезмском оазисе в период III–IX веков н.э. на основе исторических источников. Освещается значение портов, переправ, ирригационных сооружений и дорожных сетей вдоль реки Амударья, благодаря которым Хорезм стал центром внутренней и внешней торговли, а также военных и социальных связей.

Ключевые слова: система коммуникаций, водные пути, Амударья, порты, караванные пути, ирригационные сооружения.

УДК. 331.5:378(575.1)

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ АКСИОМА ПОДГОТОВКИ КАДРОВ В РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА

Бозоров Б.У., Абдуллаева С.Ж.

Самаркандский Государственный Университет имени Алишера Навои

Введение. Человеческий капитал признается ключевым аспектом обеспечения устойчивого экономического роста в мире, достижения интенсивного развития. Умелое использование и владение человеческим капиталом определяет место и уровень экономики страны в мировом масштабе. Поэтому в развивающемся социально-экономическом трансформационном периоде необходимо понимать влияние качественных, количественных и качественных характеристик человеческого капитала на процессы оцифровки.

Категория человеческого капитала начала широко использоваться в науке со второй половины XX века. Человеческий капитал является основным ресурсом в современном мире, основанном на научно-техническом прогрессе. Однако это направление исследований, которое является всеобъемлющим и сложным, необходимо детально изучить, а также оценить все проявления человеческого капитала путем совершенствования методологических аспектов в определенной степени. При этом отсутствует даже целостная нормативно-правовая база, основанная на различных методологических подходах. Сегодня важным в практическом плане является развитие высокого уровня компетентности, совершенствование качественной структуры человеческих ресурсов, организация производства на основе высоких технологий, внедрение в производство инновационных технологий.

2. Xolislik. Xolislik mazmuniy talab bo'lib, "Davlat tilida ish yuritish" qo'llanmasida: "Hujjat matniga qo'yiladigan eng muhim talablardan biri – xolislikdir" [1,17] – deya ta'kidlanib, xolislik talabi qisqacha izohlanadi. "Hujjatlar rasmiy munosabatlarni ifodalovchi va qayd etuvchi rasmiy yozma vositalar sifatida axborotni xolis aks ettirmog'i lozim. Shuning uchun hujjatlar tilida so'z va so'z shakllarini qo'llashda muayyan chegaralanishlar mavjud. Xususan, rasmiy ish uslubida kichraytirish-erkalash qo'shimchalarini olgan so'zlar, ko'tarinki tantanavor yoki bachkana, dag'al so'zlar, shevaga oid so'zlar, tor doiradagi kishilargina tushunadigan so'zlar, o'xshatish, jonlantirish, mubolag'a, istiora, tashxis kabi obrazli tafakkur ifodasi uchun xizmat qiluvchi usullar ishlatilmaydi. Ularning ishlatilishi hujjatlar matnidagi ifodaning noxolisligiga olib keladi" [1,17]. Hujjatda faqat obyektiv ma'lumotlar taqdim etilishi lozim. Ma'lumotning to'g'riligini, xolisligini ta'minlash maqsadida hujjat mas'ul lavozimli shaxslar tomonidan imzolanib, ma'lumotning to'g'riligi tasdiqlanadi. *Hujjatda aks etgan ma'lumotning haqiqatan to'g'ri bo'lishi, real voqelikka to'la mos kelishi xolislik talabi hisoblanadi.* Xolislik eng muhim talab bo'lsa-da, ba'zan amaliyotda uning buzilish holatlari ham kuzatiladi. Aslida hujjatlar voqelikning xolisligini ta'minlash maqsadida tuziladi. Zero, hujjatlarni rasmiylashtirishdan maqsad voqelikni xolis aks ettirish va unga javobgar shaxsni belgilashdan iborat. Demak, har qanday hujjat axborotni xolis aks ettirgandagina, ish yuritish tizimida o'z vazifasini bajara oladi.

3. Aniqlik. Aniqlik ham mazmuniy talab hisoblanadi. Hujjatlarning ko'pchiligida axborotlar rasmiy ravishda uzatiladi, tarqatiladi, taqdim etiladi. Axborotning uzatuvchidan qabul qiluvchiga tushunarli tarzda yetkazilishi uning to'g'ri talqin qilinishini, sifatli ijro etilishini ta'minlaydi. *Hujjatda taqdim etilgan axborotning to'liq tushunarli tarzda bayon etilishi hamda uzatuvchi va qabul qiluvchi tomonidan bir xil talqin etilishi aniqlik talabi hisoblanadi.* Hujjatda axborot aniq va tushunarli uzatilsa, ortiqcha savollarga ehtiyoj qolmaydi. Uning ijrosidagi tushunmovchiliklar, rasmiy so'rovlarga aniq javob berilmasligi, hujjat mazmunining noto'g'ri talqin qilinishi kabi muammolar, asosan, aniqlik talabining buzilishi natijasida yuzaga keladi. Hujjatning aniqlik mezoniga amal qilish uchun hujjat tuzuvchi yetarli darajada tildan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi, har bir lug'aviy birlikning qaysi o'rinda qanday ma'no kasb etishini idrok qila olishi, jumla qurilishini mukammal va ixcham shaklda tuzish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim.

Hujjatlar matni qandaydir rasmiy axborotni yetkazishga, uni qayd etib qo'yishga va muayyan topshiriqlarni ijroga yo'naltirishga qaratiladi. Hujjat orqali axborotni qabul qiluvchi axborot uzatuvchi nazarda tutgan ma'noni to'g'ri anglashi uchun matn aniqlik talabiga javob berishi lozim. Har ikki tomon ham qayd etilgan axborotni bir xil tushunganda aniqlik talabi bajarilgan hisoblanadi. Boshqacharoq qilib aytganda, hujjat matnining aniqligi uning tushunarligini ta'minlaydi. Hujjatlar va ish qog'ozlari yozma nutq namunasi bo'lib, ular ham nutqqa qo'yiladigan umumiy talablarga bo'ysunishi lozim. Nutqning aniqligi – bu so'zning o'zi ifodalayotgan voqelikka mutlaqo mos va muvofiq kelishidir. Bu xususda N.Mahmudov shunday yozadi: "Real voqelik, tabiat va jamiyatdagi narsa-hodisalarning nutqda to'g'ri va yaqqol ifodalanishi aniq nutqning asosiy mohiyatidir. Shuning uchun ham aniqlik kommunikativ sifati nutq va voqelik o'rtasidagi mutanosiblik zaminida belgilanadi" [8,90].

Hujjat matnida aniqlikni ta'minlash uchun g'aliz jumalardan qochish, uslubiy neytral so'zlardan unumli foydalanish, so'zlarni o'z o'rnida qo'llash, gapning grammatik qurilishini to'g'ri shakllantirish zarur. Matnlarda umumiste'moldagi so'zlardan foydalanish tavsiya qilinadi. Chunki iste'mol doirasi cheklangan so'zlarni hamma bir xilda tushunishi qiyin, shu bois hujjatlar matnida qo'llanilgan so'zlar barcha uchun tushunarli bo'lishi lozim.

Ish yuritishda rasmiy axborotni aniq va tushunarli tarzda yetkaza olmaslik hujjat tuzuvchining jiddiy qusuri hisoblanadi. Rasmiy axborotning uzatilishida aniqlik mezonining buzilishi, voqelikni boshqacha qabul qilinishiga olib keladi. Natijada, ijroga yo'naltirilgan topshiriq, uzatilayotgan axborot yoki so'ralayotgan ma'lumot noto'g'ri talqin qilinib, turli xil tushunmovchiliklarga sabab bo'ladi. Hujjat matni aniq bo'lmasa, ortiqcha ovoragarchiliklarga olib keladi. Demak, aniqlik hujjatda uzatilayotgan ma'lumotni qabul qiluvchiga tushunarli tarzda yetkazilishi bo'lib, mazkur talab ijroning sifatli tashkil qilinishini, so'rovning aniq javoblanishini, axborotni to'g'ri talqin etilishini ta'minlaydi.

4. Ixchamlik. Ixchamlik matnning shakl va mazmuni uchun umumiy talab hisoblanadi. Rasmiy axborotlar qanchalik qisqa shaklda ifodalansa, shunchalik samarali hisoblanadi. Rasmiy uslub talablaridan biri qisqalik, ya'ni ixchamlikdir. Har qanday hujjatda qayd etilgan axborot imkon qadar ixcham ifodalanishi kerak. Hujjat matnida axborot

tashishga xizmat qilmaydigan birliklar (soʻz, birlik) qoʻllanilmasligi lozim. Ixchamlikka rioya qilinsa, hujjat tayyorlovchi ham, uni qabul qiluvchi ham ish qogʻozi bilan ishlashishga kamroq vaqt sarflaydi. Hujjat matnida soʻz tejamlorligiga qatʼiy amal qilinadi. Odatda, hujjatlarning umumiy axborot sigʻimiga shakliy cheklovlar qoʻyiladi. Masalan, rasmiy xatlar bir betdan oshmasligi tavsiya etiladi. Bugungi kungacha amaliyotda qoʻllanilib kelinayotgan “*Ushbu arizam orqali shuni maʼlum qilamanki*”, “*arizam mazmuni shundan iboratki*”, “*berildi ushbu maʼlumotnoma, shu haqdakim*”, “*ushbu bildirishnoma orqali sizga shuni maʼlum qilamanki*” kabi ortiqcha birikmalar hujjat matnining ixchamligiga putur yetkazadi. Vaholanki, ular hech qanday axborot tashimaydi, asosiy matndagi maʼnoga taʼsir koʻrsatmaydi, shuningdek, oʻzbek tilining lingvistik tabiatiga mos emas.

5. Mazmuniy toʻliqlik. Matn hujjat ifodalashi kerak boʻlgan axborotni toʻliq qamrab olishi, matn mazmuniga doir biror savolga oʻrin qoldirmasligi kerak. Chunki hujjatda aks etishi lozim boʻlgan har qanday axborot u yoki bu adresantga tegishli maʼlumotni taqdim etadi. Hujjat matnining mazmuniy toʻliqligiga erishish uchun matnni uch qismdan tashkil topadi: 1) yetakchi axborot; 2) aniqlik kirituvchi axborot; 3) qoʻshimcha maʼlumot. [2,155] Yetakchi axborot hujjat matnidagi yetakchi fikrdir (*ishga qabil qilishingizni soʻrayman, lavozimidan ozod etilsin* kabi), biroq uni toʻldirish va aniqlik kiritish orqali mazmun toʻliqtiriladi. Aniqlik kirituvchi axborot sabab, muddat, shart, miqdor, manzil kabi nima uchun, qachon, qayerga, qanday shakldagi savollarga javob beruvchi maʼlumotlarni aks ettiradi. Qoʻshimcha maʼlumotda yetakchi va aniqlik kirituvchi axborotlarning oqibatlarini, ularga aloqador boʻlgan maʼlumotlar aks etadi. Mazkur qismlar toʻliq boʻlganda, mazmuniy toʻliqlikka erishiladi. Demak, muayyan hujjatda uzatilishi yoki aks etishi lozim boʻlgan axborotning toʻla qamrab olinishi mazmuniy toʻliqlik talabi hisoblanadi.

Til meʼyorlariga muvofiqlik, xolislik, aniqlik, ixchamlik, mazmuniy toʻliqlik kabi kommunikativ talablarning asosiy vazifasi matnning toʻgʻri va xolis, aniq va tushunarli, qisqa va ixcham, toʻliq va izchil boʻlishini taʼminlashdir. Kommunikativ talablar doirasida tuzilgan har qanday hujjat yuklatilgan vazifani meʼyorida ado eta oladi.

Xulosa qilib aytganda, hujjat matnlariga qoʻyiladigan talablar unda aks etayotgan maʼlumotning shaklan va mazmunan mukammal ifodalanishiga xizmat qiladi. Hujjat matnini tuzish kommunikativ talablar asosida bajarilsa, hujjat mukammal shakl va maʼno muvofiqligiga ega boʻladi. Shu bois hujjatchilikda kommunikativ talablarga rioya qilish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: “Oʻzbekiston” nashriyoti, 2021. B. – 528.
2. Babadjanov F. Davlat tilida ish yuritish va hujjatchilik taraqqiyotining ilmiy-nazariy asoslari. Filol. fan. d-r. ... diss. – Toshkent, 2025. B. – 261.
3. Narxadjayeva X.Sh. Rasmiy muloqot matnining lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi: Filol. fan. d-r (DSc) ... diss. avtoref. – Qarshi, 2023. B. – 254.
4. [Elektron manba] URL: <https://www.lex.uz/docs/-863120>. (Murojaat sanasi: 30.01.2025).
5. [Elektron manba] URL: <https://lex.uz/docs/-5006288>. (Murojaat sanasi: 30.01.2025).
6. [Elektron manba] URL: <https://lex.uz/m/acts/-1999242>. (Murojaat sanasi: 30.01.2025).
7. [Elektron manba] URL: <https://lex.uz/docs/-5701504>. (Murojaat sanasi: 30.01.2025).
8. Махмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. Б. – 180.

Hujjatchilikning kommunikativ talablari

Annotatsiya. Mazkur maqolada oʻzbek tilida hujjat matnlarini mukammal tuzish va ularni toʻgʻri rasmiylashtirishga oid kommunikativ talablar xususida soʻz yuritiladi. Til meʼyorlariga muvofiqlik, xolislik, aniqlik, ixchamlik, mazmuniy toʻliqlik kabi kommunikativ talablar tavsiflanib, ularning xususiyatlari ochib beriladi. Hujjat matnini tayyorlashda kommunikativ talablarning oʻrni xususida soʻz yuritiladi.

Kalit soʻzlar: til meʼyorlariga muvofiqlik, xolislik, aniqlik, ixchamlik, mazmuniy toʻliqlik.

Коммуникативные требования к документации

Аннотация. В данной статье рассматриваются коммуникативные требования, необходимые для безупречной подготовки и правильного оформления текстов документов на узбекском языке. Описываются такие коммуникативные требования, как соблюдение языковых норм, объективность, точность, краткость, полнота содержания, и раскрываются их особенности. Обсуждается роль коммуникативных требований в подготовке текста документа.

Ключевые слова: соблюдение языковых норм, объективность, точность, краткость, полнота содержания.

Communication requirements for documentation

Abstract. This article examines the communicative requirements necessary for the flawless preparation and proper formatting of Uzbek-language documents. It describes such communicative requirements as adherence to linguistic norms, objectivity, accuracy, brevity, and completeness of content, and explores their specific features. The role of communicative requirements in document preparation is discussed.

Key words: compliance with language norms, objectivity, accuracy, brevity, completeness of content.

QORAQALPOQ BOLALAR QOʻSHIQLARIDA AXLOQIY MOTIVLAR

Abdullaeva S.

Qoraqalpoq davlat universiteti

Kirish. Har bir xalqning maʼnaviy boyligi, madaniy merosi va milliy oʻzligini anglashda xalq ogʻzaki ijodi oʻta muhim ahamiyat kasb etadi. Ogʻzaki ijod — bu asrlar davomida xalq hayoti, mehnati, orzusi va ezgu niyatlarining ifodasi boʻlib, unda xalqning ruhiy olami, dunyoqarashi va axloqiy qadriyatlarini mujassamdir.

Shu maʼnoda, Qoraqalpoq xalqining bolalar folklori milliy madaniyatning eng qadimiy va maʼnaviy jihatdan boy qatlamlaridan biri hisoblanadi. Bolalar folklori, xususan, bolalar qoʻshiqlari, xalqning bolalikka boʻlgan mehrini, orzu-

umidlarini, hayotga estetik munosabatini ifodalaydi. Ular bolalarning ruhiy holatini aks ettirib, ularni hayotga, mehnatga, tabiatga, kattalarga hurmat va do'stlik ruhida tarbiyalaydi.

Qoraqalpoq xalqining bolalar qo'shiqlari turli janrlarga bo'linadi: alla, o'yin qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari, mavsumiy va marosim qo'shiqlari, tabiat haqidagi qo'shiqlar. Har bir janrning o'ziga xos tarbiyaviy yo'nalishi mavjud. Masalan, allalar — onaning mehr-muhabbatini, o'yin qo'shiqlari — jamoaviylik va tartibni, mehnat qo'shiqlari — halollik va sabrni, tabiat qo'shiqlari esa — ekologik madaniyatni targ'ib etadi [3, 264-269].

Shuningdek, xalq pedagogikasida bolalar qo'shiqlari tabiiy tarbiya vositasi sifatida qadrlanadi. Ular nafaqat o'yin yoki musiqiy ifoda, balki axloqiy bilim manbaidir. Bu jihatdan, Qoraqalpoq bolalar qo'shiqlari milliy ma'naviyatni yosh avlod ongiga singdirishning eng samimiy shaklidir.

METODOLOGIYA. Ushbu tadqiqotda interdisiplinar yondashuv qo'llanilib, folklor, pedagogika, psixologiya va madaniyatshunoslik fanlarining nazariy asoslari birlashtirildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlar asosiy vosita sifatida tanlandi:

Tahliliy-metodik yondashuv – bu usul orqali bolalar qo'shiqlarining matnlari tahlil qilinib, ularda aks etgan axloqiy motivlar (halollik, mehnatsevarlik, ota-onaga hurmat, mehr-shafqat, tabiatni asrash) aniqlanib, ularning badiiy va tarbiyaviy mazmuni ochib berildi.

Folkloristik tahlil – bu metod yordamida qo'shiqlar xalq hayoti, urf-odatlarini, marosimlari va mehnat an'analari bilan bog'liq holda o'rganildi. Har bir qo'shiqning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi o'rni tahlil qilindi.

Sotsiokulturn yondashuv – qo'shiqlarning bolalar ongiga, ularning axloqiy fazilatlariga ta'siri ijtimoiy-madaniy muhit bilan bog'liq holda ko'rib chiqildi.

Psixopedagogik yondashuv – bolalar qo'shiqlari orqali bolalarning his-tuyg'ulari, xotirasi, estetik didi va axloqiy qarashlarining shakllanish jarayoni tahlil qilindi.

Tadqiqot manbalari sifatida “Balalar ushın qosıqlar ha'm gúrınler” (Nókis, 2019) to'plami hamda zamonaviy tadqiqotchilar G. Elmuratova (2022), B. B. Kudaybergenova (2024), A. Ziba (2024), shuningdek “Qaraqalpaq balalar ádebiyatı antologiyası” (2018) kabi manbalardan foydalanildi.

NATIJALAR. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Qoraqalpoq bolalar qo'shiqlari xalqning boy ma'naviy dunyosini, axloqiy qarashlarini, estetik didini va ko'p asrlik tarbiyaviy tajribasini o'zida mujassam etgan bebaho folklor qatlamidir. Ular nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki xalqning ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarini yosh avlod ongiga singdiruvchi kuchli tarbiyaviy vosita sifatida ham xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, mazkur qo'shiqlar mazmunining tahlili ularning asosiy axloqiy motivlari va pedagogik yo'nalishlarini aniqlash imkonini berdi. Quyida ularning ayrim asosiy motivlari va ma'naviy mohiyatlari chuqurroq yoritiladi.

Avvalo, ota-onaga hurmat motivi Qoraqalpoq bolalar qo'shiqlarining eng asosiy ma'naviy tayanchi hisoblanadi. Ushbu motiv orqali xalq bolalarga ota-ona mehnatini qadrlash, ularning roziligini olish va mehrini qadrlash zarurligini uqtiradi. Quyidagi misralarda bu g'oya o'zining yorqin ifodasini topgan:

Sağan mudam anajan,

Xizmet etpey bola ma?

Aqlamasam sütünıdı,

Perzentim dep sanama [1].

Mazkur satrlar orqali ona obrazining muqaddasligi, uning suti hayot manbai sifatida tasvirlanadi. Bola onaning mehrini, mehnatini anglab yetishga, unga ehtirom bilan xizmat qilishga o'rgatiladi. Bu motiv xalqning ota-onaga hurmat, mehr va fidoyilik an'analari avloddan avlodga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu ruhiy ohang orqali bola o'zida minnatdorlik, rahm-shafqat va ehtirom tuyg'ularini shakllantiradi.

Bundan tashqari, mehnatsevarlik va halollik motivi Qoraqalpoq xalq qo'shiqlarining markaziy g'oyalaridan biridir. Xalq falsafasida “mehnat — baxt manbai” degan tushuncha keng tarqalgan bo'lib, bu g'oya aynan bolalar qo'shiqlari orqali ongga singdirilgan. Quyidagi misralar bunga yorqin dalildir:

Ulli hám quıdretli kúshlerdı tanı,

Iǵbal máртеbe dep bilgeyseń anı,

Sağan dáwlet bolmas atanıń malı,

Mıynetsız esaptan bayıwshı bolma [4].

Bu satrlar orqali bola mehnatning qadri, halollik va rostgo'ylik fazilatlarini haqida ibrat oladi. Qo'shiqning maqsadi — bolaga nafaqat mehnat qilishni, balki mehnatni sevrishni, halol yo'l bilan rizq topishni o'rgatishdir. Shuningdek, bu motiv orqali xalq bolalarda mas'uliyat, sabr-toqat, tirishqoqlik va odoblilikni shakllantirishga intilgan. Natijada, bunday qo'shiqlar tarbiyaviy jihatdan axloqiy fazilatlarining shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, tahlil jarayonida tabiatni sevrish motivi ham Qoraqalpoq bolalar qo'shiqlarida muhim o'rin egallashi aniqlandi. Quyidagi misralar orqali xalq bolalarda tabiatga mehr, shukronalik va ekologik mas'uliyatni uyg'otishga intiladi:

Qanday ıssı tuwǵan jerdıń qoyını,

Kórseń kókke sharıqlatar oyındı!

Adam sirá umıtar ma, ol jerde, —

Balalıqta bastan keshken oyındı [1].

Bu misralar inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni ifodalaydi. Bola tabiatni o'z hayotining ajralmas qismi sifatida qabul qiladi. Shu orqali u tabiatni asrash, unga shukr qilish va ekologik madaniyatni rivojlantirish g'oyalarini o'zlashtiradi. Natijada, xalq qo'shiqlari orqali tabiatga mehr-muhabbat va ekologik ong yosh avlod ongida barqaror shakllanadi.

Intizom, sabr va e'tibor motivi. Yana bir muhim motiv — bu intizom, sabr-toqat va e'tiborlik g'oyalaridir. Quyidagi misralarda ushbu tushunchalar bolalarga qiziqarli, hayotiy misollar orqali yetkazilgan:

Qızıl jansa: Tur! Toqta!

Sarı qoyar — zor talap;

Jasıl jansa, sol waqta,

O'te bergil, ma'rhamat! [1].

Ushbu qo'shiq orqali bolalarda tartib, ogohlik va sabr fazilatlarini shakllanadi. U hayotiy holatlarni — svetofor ranglarini misol qilib, bola ongida intizomga rioya qilish, o'zini boshqara bilish, shoshilmaslik g'oyalarini singdiradi.

Shu tariqa, xalq qo'shiqlari nafaqat ma'naviy-axloqiy tarbiyani, balki ijtimoiy mas'uliyat va o'zini tutish madaniyatini ham rivojlantiradi. Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Qoraqalpoq bolalar qo'shiqlari — xalq pedagogikasining noyob manbasi bo'lib, ular orqali yosh avlodda mehnatsevarlik, halollik, ota-onaga hurmat, tabiatga mehr va intizomlilik kabi fazilatlar shakllanadi. Bu qo'shiqlar nafaqat estetik zavq manbai, balki axloqiy tarbiya vositasi sifatida ham beqiyos ahamiyatga ega.

MUHOKAMA. Qoraqalpoq bolalar qo'shiqlari mazmunida aks etgan axloqiy motivlar xalqning milliy dunyoqarashi, qadriyatlarini va tarbiyaviy idealini ifoda etadi. Birinchidan, bu qo'shiqlar bolalarning ma'naviy shakllanishida muhim omil bo'lib, ularning ijtimoiy hayotga moslashuvini, kattalarga hurmat, mehnatsevarlik, halollik, mehr-oqibat kabi fazilatlarini o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, qo'shiqlarda xalq pedagogikasining eng qadimiy qatlamlari mujassam bo'lib, ular xalqning axloqiy tajribasini avlod-dan-avlodga uzatish vositasi sifatida qaraladi [5, 169-172]. Ikkinchidan, bolalar qo'shiqlarida qo'llaniladigan badiiy obrazlar, metaforalar, takrorlar va qofiyaviy tuzilmalar orqali axloqiy g'oyalar bolalar ongiga oson singdiriladi. Shuningdek, ayrim qo'shiqlarda ota-onaga mehr, do'stlik va tabiatga g'amxo'rlik kabi ijobiy xulq me'yorlari ham ifodalanadi.

Bundan tashqari, qo'shiqlarning musiqiy ritmi va takroriy shakli ularning ta'sirchanligini oshirib, axloqiy mazmunning bola xotirasida mustahkam o'rnatilishiga yordam beradi. Xususan, qo'shiqlardagi takroriy iboralar bolalarda emotsional bog'lanish hosil qiladi, bu esa axloqiy me'yorlarning ichki qabul qilinish jarayonini tezlashtiradi. Ayniqsa, qo'shiqlarda xalq tilining soddaligi, xalqona iboralar va obrazlarning tabiiyligi ularni pedagogik jihatdan samarali vositaga aylantiradi. Shuningdek, gender rollari, ijtimoiy burch va madaniy an'analarga oid axloqiy motivlar ham tahlilga loyiq. Masalan, qiz bolalarga bag'ishlangan qo'shiqlarda sadoqat, uy ishlari bilan bandlik, kattalarga itoatkorlik kabi qadriyatlar targ'ib etilgan bo'lsa, o'g'il bolalarga mo'ljallangan qo'shiqlarda jasorat, mehnatsevarlik, oilani himoya qilish kabi fazilatlar kuylanadi. Bu esa, o'z navbatida, xalq orasidagi axloqiy me'yorlarning genderni xos tarzda shakllanganini ko'rsatadi.

Natijada, Qoraqalpoq bolalar qo'shiqlari nafaqat estetik zavq bag'ishlovchi folklor janri, balki axloqiy tarbiyaning qudratli vositasi sifatida ham e'tirof etiladi. Ular orqali bolalarda nafaqat xalqiy madaniyat, balki xalqona dunyoqarash, milliy o'zlik va axloqiy mas'uliyat shakllanadi. Shu sababli, ushbu qo'shiqlarni o'rganish nafaqat folklorshunoslik, balki pedagogika, psixologiya va madaniyatshunoslik uchun ham katta ilmiy ahamiyatga ega [2, 239-244].

Yana bir muhim jihat shundaki, zamonaviy axborot oqimi davrida an'anaviy bolalar qo'shiqlarining tarbiyaviy roli asta-sekin kamayib bormoqda. Shu bois, xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganish, ularni maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimiga qayta tatbiq etish zarur. Bu orqali yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning axloqiy dunyoqarashini boyitish mumkin bo'ladi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, Qoraqalpoq bolalar qo'shiqlari xalqning ma'naviy, estetik va axloqiy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan bebaho madaniy merosdir. Ular asrlar davomida xalqning ijtimoiy hayoti, mehnat faoliyati, urf-odatlarini, diniy e'tiqodlari hamda tarbiyaviy qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan milliy pedagogikaning badiiy ifodasi hisoblanadi. Shu bois, bolalar qo'shiqlari nafaqat og'zaki ijod namunasi, balki xalqning axloqiy-madaniy tafakkurining o'ziga xos ko'zgusidir. **Birinchidan**, bu qo'shiqlar orqali yosh avlodda insonparvarlik, halollik, mehnatsevarlik, ota-onaga hurmat, tabiatni asrash, sabr-toqat, do'stlik va vatanparvarlik kabi fazilatlar shakllanadi. Ularning barchasi bola ongida ijobiy axloqiy qadriyatlarni mustahkamlab, uni jamiyat hayotiga moslashgan, madaniyatli va ma'naviy barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishga xizmat qiladi. **Ikkinchidan**, Qoraqalpoq bolalar qo'shiqlari milliy tarbiya tizimining uzviy qismi sifatida bolalarning estetik didini, eshitish madaniyatini, nutq boyligini va hissiy tafakkurini rivojlantiradi. Qo'shiqlarda uchraydigan ohangdorlik, qofiyadoshlik va takroriy ifodalar bolaning musiqiy idrokini kengaytiradi, ritm va so'z ohangini his etish qobiliyatini mustahkamlaydi. Shu tarzda, ularning badiiy-estetik tahlili orqali xalq musiqiy tafakkurining bolalar psixologiyasiga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatishini kuzatish mumkin. **Uchinchidan**, bu qo'shiqlar milliy o'zlikni anglash jarayonida muhim rol o'ynaydi. Chunki ular orqali xalqning urf-odatlarini, qadriyatlarini, mehnat an'analari va hayot falsafasi avlod-dan-avlodga yetkaziladi. Aynan shu jihatdan, bolalar qo'shiqlari xalqning tarixiy xotirasi, madaniy uzviyligi va ruhiy merosini saqlovchi madaniy kod vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida bolalar qo'shiqlaridan foydalanish o'ta muhimdir. Ularni bog'chalar, boshlang'ich sinflar va madaniy-ma'rifiy tadbirlarda kuylash orqali bolalarda milliy g'urur, Vatanga sadoqat va xalq merosiga hurmat hissi yanada chuqurlashadi. Shu bilan birga, bu qo'shiqlar yoshlarni global madaniy ta'sirlardan himoya qilib, milliy identifikatsiyani mustahkamlovchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Natijada, Qoraqalpoq bolalar qo'shiqlari xalqning axloqiy, estetik va tarbiyaviy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan holda, o'zbek va qoraqalpoq xalq pedagogikasining eng qadimiy, ammo doimo yangilanib boruvchi tarmog'iga aylanadi. Ularni o'rganish, ilmiy tahlil qilish va zamonaviy ta'lim tizimiga tatbiq etish nafaqat folklorshunoslik, balki pedagogika, psixologiya va madaniyatshunoslik uchun ham dolzarb ilmiy yo'nalishdir.

Shu sababli, bolalar qo'shiqlarini o'rganish, ularni ta'lim-tarbiya tizimida qo'llash, maktab va bog'chalarda kuylash milliy o'zligimizni asrash, yosh avlodni ezgulikka yo'naltirish va ularni ma'naviy barkamol insonlar sifatida tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Ana shunday xalq og'zaki ijod namunalarini kelajak avlodga yetkazish orqali biz milliy merosimizni asraymiz, yangilaymiz va uni ma'naviy taraqqiyot yo'liga xizmat qildiramiz.

ADABIYOTLAR

1. *Bolalar ushın qosıqlar hám gúrrińler.* – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2019.
2. Elmuratova, G. (2022). YOSHLAR TARBIYASIDA XALQ IJODIYOTINING MAQSADI. *Oriental Art and Culture*, 3(4), 239-244.
3. Kudaybergenova, B. B. (2024). QORAQALPOQ BOLALAR FOLKLORI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Oriental Art and Culture*, 5(1), 264-269.
4. QARAQALPAQ BALALAR ÁDEBIYATINIŇ ANTOLOGIYASI «Qaraqalpaqstan» bǎspası Nókis — 2018

5. Ziba, A. (2024). QORAQALPOQ FOLKLORINING YETUK SHAXSNI TARBIYALASHDA AHAMIYATI. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 4(4), 169-172.

Rezyume. Bul maqalada Qaraqalpaq balalar qosıqlarında kórinis tápqan tárbiyalıq motivler ilmiy túrde talqın etiledi. Sonday-aq, olardıń tárbiyalıq, estetikalıq, psixologiyalıq hám sotsiokul'turalıq máńisi jayında sóz bolıp, olar arqalı balalardıń sanasın qalıptlestiriw, tárbiyalıq qásiyetlerin dáwám etiriw hám milliy qádrıyatlardı singdiriw máseleleri qaraladı. Maqalada miynet suyiwsilik, xadallıq, mehir-muhabbat, ata-anaga húrmet, tábiyatti saqlaw, watanga sadıqlıq hám insániylıq siyaqlı idealar Qaraqalpaq balalar qosıqları misalında tereń analiz etilgen.

Tayanış sózler: xalıq awızeki shıǵarmashılıǵı, tárbiyalıq motiv, tárbiya, qádrıyat, milliy sana.

Резюме. В данной статье проводится научный анализ нравственных мотивов, отражённых в каракалпакских детских песнях. Рассматривается их воспитательное, эстетическое, психологическое и социокультурное значение. Также исследуется роль детских песен в формировании сознания детей, развитии моральных качеств и усвоении национальных ценностей. В статье глубоко проанализированы такие идеи, как трудолюбие, честность, милосердие, уважение к родителям, охрана природы, патриотизм и гуманизм на примере каракалпакских детских песен.

Ключевые слова: народное устное творчество, нравственный мотив, воспитание, ценность, национальное сознание.

Resume. This article provides a scholarly analysis of moral motifs reflected in Karakalpak children's songs. It explores their educational, aesthetic, psychological, and sociocultural significance, emphasizing the role of these songs in shaping children's consciousness, developing moral qualities, and instilling national values. The study deeply analyzes such ideas as diligence, honesty, compassion, respect for parents, protection of nature, patriotism, and humanism through the examples of Karakalpak children's songs.

Key words: folk oral creativity, moral motif, education, values, national consciousness.

ULIWMA BILIM BERIW MEKTEPLERINDE TARIYXTI ÚYRENIWDE OQIWSHILARDA MILLIY MAQTANISH SEZIMIN TÁRBIYALAW METODLARI.

Yaxiyayev J. K.

Qaraqalpaq mámleketlik universiteti

Ózbekstan Respublikasında ámelge asırılıp atırǵan reformalardıń bas tiykarında zamanagóy, bilimlerde bekkem iyelegen, intellektual-potencial, bilimli, qábiletli básekige shıdamlı kadrlardı tayarlawda oqıwshılardı milliy hám ulıwma insaniylik qádrıyatlar ruwxında tárbiyalaw, olardıń ruwxıy-ádep-ıkramlılıq tárbiyası, aqlıy potencialı hám de individual-jeke pazıyletlerin rawajlandırıw ayrıqsha áhmiyetke iye. Demek, ulıwma bilim beriw mektep oqıwshıların ulıwma insaniylik qádrıyatlarǵa sadıqlıq ruwxında tárbiyalaw arqalı tálim-tárbiya jumısında jámiyetlik qatnasıqlarǵa kirisiwin esapqa alǵan halda milliy ózlikti anlawı, millet táǵdiri hám keleshegi ushın qayǵratuǵın, watansúyigish jaslarǵa tárbiyalaw máselesi áhmiyetli ornı iyeleydi. Elimizde tálim-tárbiya tarawında alıp barılıp atırǵan jumslardıń nátiyjeliligini arttırıw hám oqıwshılardıń bilimin milliy hám ulıwma insaniylik qádrıyatlarǵa sadıqlıq ruwxında tárbiyalawǵa búgingi kúnde ulıwma orta bilim beriw mákemeleri menen bir qatarda ulıwma bilim beriw mekteplerinde oqıw-tárbiya procesin nátiyjeli shólkemlestiriw, jaslarǵa zamanagóy bilimlendiriw talapları dárejesinde óz bilimlerin turaqlı arttırıp barıwı, joqarı ádep-ıkramlılıq, ruwxıy jetik, barksamal áwladtı, fizikalıq jaqtan salamat shaxstı tálim-tárbiya tiykarında kamalǵa keltiriw, olardıń kreativ-dóretiwshiligin, kásiplik-ádep-ıkramlılıq, ruwxıy-tárbiyalıq sıpatların birgelikte rawajlandırıw boyınsha sistemalı jumslar ámelge asırılıp kelinbeke.

Oqıwshılarda milliy maqtanış sezimin qalıptlestiriw hár qanday mámlekettegi bilimlendiriw procesiniń ajıralmas bólegi esaplanadı. Ásirese, bul Ózbekstan sıyaqlı bay tariyxıy hám mádeniy miyrasqa iye mámleketler ushın ayrıqsha áhmiyetke iye. Globalıasıw hám mádeniy almasıw sharayatında óz tariyxına, úrp-ádetlerine hám mádeniyatına bolǵan húrmetti saqlap qalıw hám keleshek áwladqa jetkerip beriw zárúr. Mektep oqıwshılarında watansúyiwshilik hám milliy maqtanış sezimin qalıptlestiriwde tariyxıy oqıtıw tiykarǵı orındı iyeleydi. Bilimlendiriw procesinde tek ǵana ótmish haqqında bilim berip qoymastan, al oqıwshılarda óz milletiniń jetiskenliklerine húrmet payda etiw, watan menen maqtanıw sezimin oyatıw hám olardıń mádeniy miyrasqa sezimin bekkemlew áhmiyetli bolıp esaplanadı.

Atap aytqanda, Ózbekstan Respublikası Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev jámiyet turmısında jas áwlad hám olardıń xalıq aldındaǵı juwapkeshiligine itibar berip: "Jaslarımız, jámiyetimiz hám mámleketimizdiń keleshegi ushın strategiyalıq áhmiyetke iye" dep atap ótip, mámleketimiz bilimlendiriw hám ilim tarawında ámelge asırılıp atırǵan túpkilikli reformalarda da óz nátiyjesin kórsetpekte. Sonıń ushın, jas áwladtıń jámiyet óziniń intellektuallıq potencialın hám óz talantın kórsetiw ushın barlıq imkaniyatlar jaratıp berilmekte. [1; 30]

Bul izertlew Ózbekstan ulıwma bilim beriw mekteplerinde tariyx pánin oqıtıw arqalı milliy maqtanıştı tárbiyalawdıń usılların talqılawǵa baǵdarlanǵan. Onda watansúyiwshilikti tárbiyalawdıń teoriyalıq tiykarları, bilim beriw procesinde qollanılatuǵın usıllar hám usı usıllardı ámeliyatta nátiyjeli qollanıwdıń misalları qarap shıǵıladı. Sonıń menen birge, jumista Ózbekstannıń tariyxıy hám mádeniy ózgesheliklerin oqıwshılarda milliy maqtanıştı qalıptlestiriwdiń tiykarı sıpatındaǵı áhmiyetine ayrıqsha dıqqat awdarıladı. Pedagogikalıq teoriya hám ámeliyatta watansúyiwshilik hám milliy maqtanıştı tárbiyalaw máselesi dástúriy túrde oraylıq orındı iyeleydi. Pedagogikalıq kontekstte watansúyiwshilik kóbinese puqaralıq pazıylet sıpatında qaraladı, ol watandı súyiwdi, onıń mádeniyatın, tariyxın hám dástúrlerin húrmet etiwdi, sonday-aq jámiyettiń rawajlanıwına belsene qatnasıwdı óz ishine aladı. Bul tarawdaǵı izertlewler milliy maqtanıştı tárbiyalawdıń mektep oqıwshılarında óz milletine sezimin qalıptlestiriw hám mádeniy qádrıyatlardı saqlawdıń áhmiyetin túsindiriw menen baylanıslı ekenin kórsetedi.

Patriotizm hám milliy maqtanış, bir qansha izertlewshilerdiń pikirinshe, hár túrli faktorlardıń tásiriniń nátiyjesi bolıp esaplanadı: tariyxıy sana, mádeniy dástúrlər, jámiyetlik ortalıq hám bilimlendiriw ámeliyatı. Bul qásiyetlerdi

tárbiyalaw elimizdiń tariyxıy ótmishin tereń úyreniw, milliy qaharmanlarımızǵa, mádeniy jetiskenliklerimizge hám dástúrlerimizge húrmet ruwxın qalıplestiriwge baǵdarlangan bilimlendiriw procesi arqalı ámelge asırılawı múmkin.

Watansúyiwshilik ruwxında tárbiyalaw teoriyası sheńberinde oqıwshılarda "tariyxıy sana" dep atalatugın túsinikti qalıplestiriwge úlken dıqqat awdarıladı. Bul túsiniq oqıwshılardıń tariyxıy waqıyalar hám shaxslardıń áhmiyetin, olardıń mámleket hám millet rawajlanıwına qosqan úlesin túsiniwinen ibarat. Tariyxıy sana Watan tariyxın úyreniw barısında qalıplese, bul balalardıǵa óziniń mádeniy hám tariyxıy bilimlerdiń áhmiyetin ańlawǵa múmkinshilik beredi.


Pedagogikada milliy maqtanıştı tárbiyalawda mádeniy miyrası menen islesiw ayrıqsha orın tutadı. Pedagoglar hám izertlewshiler atap ótkenindey, milliy maqtanış xalıqtıń ózliginiń ajıralmas bólegi bolǵan tariyxıy hám mádeniy miyrastıń qádirin túsiniw arqalı qalıplese. Tariyxıy biliw, milliy dástúrler hám jetiskenliklerdi ańlaw oqıwshılarda óz eli ushın maqtanış sezimiń tárbiyalawdıń tiykari bolıp tabıladı. Bilim beriw procesinde milliy maqtanıştı tárbiyalaw usılların keltirib ótetugın bolsaq, oqıwshılarda milliy maqtanış sezimin rawajlandırıwda bilim beriw procesinde qollanılatusın oqıtıw usılları ayrıqsha áhmiyetke iye. Atap aytqanda, watandı muhabbat hám óz eli menen maqtanıw sezimin qalıplestiriwde eń tásirli bolǵan tómendegi usıllardı atap ótiw múmkin.

Tariyx sabaqlarında tariyxıy-mádeniy kontekstten paydalanıw. Ózbekstan tariyxınıń tiykargı waqıyaların úyreniwde tariyxıy-mádeniy kontekstten paydalanıw eń áhmiyetli usıllardan biri bolıp tabıladı. Oqıtıw procesi usı waqıyaların milliy sana-sezimniń rawajlanıwındaǵı áhmiyetine kóbirek dıqqat awdarıwı kerek. Mısalı, dúnya mádeniyatı hám iliminiń rawajlanıwına úlken úles qosqan ullı ilimpazlar, patshalıq etken tarixiy shaxslar hám mádeniyat ǵayratkerleri sıyaqlı tariyxıy shaxslardı úyreniw mektep oqıwshılarında óz watanı menen maqtanış sezimlerin oyatadı. Áliysher Nawayı, Abdiraxman Jámıy, Ámir Temur hám basqa da ullı shaxslardı úyreniwge kewil bóliw, oqıwshılardı olardıń miyrasınıń dúnya civilizaciyası ushın qanshelli áhmiyetli ekenin túsiniwge járdem beredi. Atap aytqanda, Watanımız óz rawajlanıwınıń jańa basqışına qádem qoyıp atırǵan búgingi kúnde biz ushın áyyemgi tariyxımız hám mádeniyatımızǵa baylanıslı jańa ilimiy izertlewler hár qashanǵıdan da úlken áhmiyetke iye.[2, 37]

Milliy maqtanıştı tárbiyalawdıń basqa bir nátiyjeli usılı - dásturiy jumsların qollanıw. Bul usıl oqıwshılardı tek ǵana óz mámleketiniń tariyxın tereń úyreniwge emes, al eń áhmiyetli tariyxıy waqıyalar túsiniw barısında belsene qatnasıwǵa da múmkinshilik beredi. Dásturiy jumslarına Ózbekstannıń ullı tariyxıy waqıyalarına yamasa kórnekli shaxslarına baǵışlangan izertlew joybarların islew, sonday-aq mektep is-ilajlarında kórsetiliwın múmkin bolǵan prezentaciylar, maqalalar, hátte spektakller tayarlap sabaq processinde kórsetiw múmkin. Bul usıl mektep oqıwshılarında milliy miyrastı saqlaw hám ken tarqatıw ushın juwapkershilik sezimin qalıplestiriwge járdem beredi.

Ekskursiyalar hám tariyxıy estelikler menen ámeliy tanısw. Tariyxıy hám mádeniy orınlarǵa sayaxatlar hám ekskursiyalar oqıwshılarda óz eli ushın maqtanış sezimin tárbiyalawdıń áhmiyetli bólegi bolıp esaplanadı. Qaraqalpaqstandaǵı Shılpıq, Nazlımxansulıw, Samarqandtaǵı Registan, Buxara hám Xıwadaǵı eski qalalar hám basqa tariyxıy estelikler menen ámeliy tanısw oqıwshılardı tek ǵana tariyx penen baylanıstı emes, al óz xalqı ásirler dawamında jaratqan dástúrler hám qádiriyatlar menen baylanıstı seziwge járdem beredi. Bunday is-ilajlar oqıwshılarda tek ǵana óz mámleketiniń miyrası ushın maqtanış sezimin emes, al mádeniy esteliklerdi keleshek áwladlar ushın saqlaw áhmiyetin túsiniwdi de rawajlandıradı.

Bilim beriwdiń interaktiv formalarına keletin bolsaq, debatlar, rolly oyınlar, viktorinalar hám diskussiyalar sıyaqlı interaktiv oqıtıw usılları milliy maqtanıştı tárbiyalawdıń nátiyjeli quralları bolıp esaplanadı. Mısalı, tariyx sabaqlarında tariyxıy waqıyalarǵa baǵışlangan debatlar shólkemlestiriw múmkin. Bunda mektep oqıwshıları milliy ózlik, ǵárezsizlik hám mádeniy miyras máselelerine baylanıslı óz pikirlerin bildirip, túrli kózqaraslar menen almasıw imkaniyatına iye boladı. Bul bolsa sın pikir júritiw qábiletin rawajlandırıwǵa hám tariyxıy processlerdi tereńirek túsiniwge járdem beredi.



Bul súwrette oqıwshılardı milliy hám ulıwma insaniyılıq qádiriyaqlar ruwxında tárbiyalawda, milliy sana-sezimniń hár tárepleme rawajlanıwında milletniń birden-bir tili, úrp-ádetleri, dástúrleri, qádiriyaqları hám mánawiyatınıń ápiwayıdan quramalığa qaray joqarılap barıwınıń áhmiyetli ólshemi ekenligi kórsetilgen.

Oqıwshılardı milliy hám ulıwma insaniyılıq qádiriyaqlar ruwxında tárbiyalaw da hár bir milletniń ózin-ózi ańlawı, watan keleshegi jolındaǵı juwapkershiligin tariyxıy bilimler arqalı arttırıw menen ayırıqsha ornı ıleydi.

Bul boyınsha izertlewler alıp barǵan H.Giesecke óz izertlewlerinde mekteplerde milliy hám ulıwma insaniyılıq qádiriyaqlar tálimi oqıwshılarda qalıplestiriliwi kerek bolǵan qádiriyaqlardı jetkeriwge qanday úles qosıwı múmkinliginiń úsh tárepini kórsetip ótedi. Birinshi gezekte, balalarda milliy hám ulıwma insaniyılıq qádiriyaqlardıń qalıplesiwiniń tiykarǵı bólegi olardıń jası hám zaman modasınıń kelip shıǵatuǵın tańlawlar menen baylanıslı bolıp, olardıń bir bólegin ǵalaba xabar quralları, yaǵnıy balalar óz ómirin alıp baratuǵın jámiyetlik tarawlar, tek kishkene bir bólegin muǵallimler quraydı. Basqasha aytqanda, oqıtıwshılar oqıwshılarda milliy hám ulıwma insaniyılıq qádiriyaqlardı qalıplestiriw processınıń ǵárezsiz túrde jarata almaydı, olar tek toltırıwshı hám dúzetiwshı poziciyada aralasa aladı.

Muǵallimlerdiń milliy hám ulıwma insaniyılıq qádiriyaqlar ruwxında tárbiyalaw hám qádiriyaqlar kózqarasınan mektepten tısqari tásir ete almawı bul tarawdaǵı pedagoglar tásiriniń shekleniwine alıp keledi. [3;236]

Tariyx sabaqların zaman talapları tiykarında oqıtıwda pedagoglar tiykarınan oqıwshılarda temaǵa baylanıslı dıqqatın kúsheytıp, itibardı tartıw kónlikpesin payda etedi. Sabaqtıń barlıq basqışında pikir alısıw arqalı oqıwshılarda oylaw kónlikpesin qalıplestiredi.

Maǵlıwmatlardı emocional, yaǵnıy sezimli, tásirshen etip tanıstırıw: sezimler qanshelli hár túrli bolsa, sabaq sonshelli nátiyjeli boladı. Muǵallım óz sabaǵın óz betinshe analizley almasa, ol sabaqtıń bir pütün sistemasın dúziw hám rejelestiriwge, óziniń pedagogikalıq sheberligi dárejesin sın kózqarastan bahalawǵa erise almaydı. Tariyx pánin oqıtıw procesinde muǵallım oqıwshılardıń tálim-tárbiya beriw hám olardı rawajlandırıw sıyaqlı bir-biri menen tıǵız baylanıslı wazıypalardı sheshiwı kerek. Bilimlerde tereń iyelew bolsa faktlerdi analizlew hám juwmaqlastırıw, waqıya hám qubılıslardı salıstırıw, olardı óz betinshe bahalaw hám juwmaq shıǵarıw kónlikpelerin rawajlandırıwdı, sonday-aq, tariyxıy derekler, kartalar menen óz betinshe islew boyınsha ámeliy kónlikpelerdi payda etiw, awızeki hám jazba sóylewdi rawajlandırıwdı talap etedi [4; 5]. Milliy maqtanıshtı qalıplestiriwdiń tiykarı el tariyxı hám mádeniyatın tereń túsiniwden ibarat. Ózbekstan milliy óz-ózin ańlawdıń qalıplesiwine negiz bolǵan bay tariyxıy miyrasqa iye.

Ózbekstan tariyxın úyreniwdegi eń áhmiyetli aspektlerdiń biri mámleket hám xalıqtıń qalıplesiwinde úlken áhmiyetke iye bolǵan tiykarǵı waqıyalarǵa itibar beriw. Misalı, ǵárezsizlik ushın gúres tariyxı, mádeniy hám ilimiy jetiskenlikleriń ornı, sonday-aq Ózbekstannıń islam mádeniyatı hám pútkil dúnya mádeniyatınıń rawajlanıwına qosqan úlesi. Milliy maqtanıshtı tárbiyalawda ózbek mámleketshilińin qurılıwı, Ullı jipek jolı, Ózbekstannıń ilim hám kórkem óner rawajlanıwına tásirı sıyaqlı tariyxıy burılıs dáwirlerine baylanıslı waqıyalar tiykarǵı ornı tutadı. Oqıwshılar óz mádeniyatı hám tariyxınıń áhmiyetin tereń túsiniw jetiwi ushın mektep baǵdarlamasında tariyxtıń usı táreplerine ayırıqsha dıqqat awdarıw kerek. Ulıwma bilim beriw mekteplerinde milliy maqtanıshtı tárbiyalaw usılların qollanıw tariyxıy bilimlerde oqıw bırınsına birlestiriwdi, sonday-aq oqıwshılar menen jumıs alıp barıwdıń mektepten tıs formaların belsendi paydalanıwdı talap etedi. Ámeliyatta mektep sharayatında watansúywshilik sezimin nátiyjeli tárbiyalaw usı usıllardıń qanshelli jaqsı ámelge asırılıwına baylanıslı boladı.

Ózbekstanda jaslar arasında milliy maqtanıshtı rawajlandırıwǵa baǵdarlangan kóplegen baǵdarlamalar hám joybarlar bar. Atap aytqanda, Ózbekstan Respublikası Mektepke shekemgi hám mektep bilimlendiriwı ministrliǵı tárepinen puqaralıq, watansúywshilik hám milliy mádeniyatqa húrmet sezimin qalıplestiriwge qaratılǵan jańa bilimlendiriw standartların belsendi túrde islep shıǵıp, ámeliyatqa engizdi.

Milliy maqtanıshtı tárbiyalaw usılların oqıw-tárbiya procesine tabıslı engiziw ushın mektep muǵallimleriniń bunday wazıypalarǵa jaqsı tayarlangan bolıwı, pán boyınsha tereń bilimge iye bolıwı hám oqıwshılardı oqıw procesine tartıwda hár túrli innovaciyaqlıq usıllardan paydalana alıwı áhmiyetli. Bul mádeniy hám ilimiy mákemeler, shólkemler, mámleketlik uyımlar menen birgelikte islesiwde de talap etedi.

Juwmaqlap aytqanda, oqıwshılarda milliy maqtanısh sezimin qalıplestiriwde tariyxıy úyreniw arqalı tárbiyalaw jaslarǵa óz Watanına suıspenshlik, onıń tariyxı hám mádeniyatına húrmet sezimin qalıplestiriwde ayırıqsha áhmiyetke iye ekenligin atap ótiw múmkin. Tariyxıy-mádeniy kontekst, joybar jumısları, ekskursiyalar hám interaktiv oqıtıw usıllarınan paydalanıwǵa qaratılǵan metodikalar Ózbekstan bilimlendiriw mákemeleriniń ámeliyatında óziniń nátiyjeliligini kórsetken. Bunnan bılay da watansúywshilik hám milliy maqtanıshtı tabıslı tárbiyalaw ushın bilimlendiriw baǵdarlamaların rawajlandırıwdı, metodikalıq materiallardı jetilistiriwdi, sonday-aq balalar hám jas óspirimlerde óz mámleketiniń turmısına belsene qatnasıwǵa tartıwdı dawam ettiriw áhmiyetli bolıp tabıladı.

ÁDEBIYATLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: O'zbekiston, 2017. – 30 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021. 37-b.
3. Giesecke H. Was kann die Schule zur Werteerziehung beitragen?, (Eds: Sabine Gruehn, Gerhard Kluchert, Thomas Koinzer), Was Schule macht: Schule, Unterricht und Werteerziehung. Basel:Beltz Verlag, 2004, p. 236.
4. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma - T.: Yangi nashr, Respublika ta'lim markazi, 2022, - 252 b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston umumta'lim maktablarida tarix fanini o'qitish orqali o'quvchılarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish usullari ko'rib chiqiladi. Muallif mamlakatda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari doirasida maktab o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy va umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyalash muhimligini ta'kidlaydi. Vatanparvarlik tarbiyasining asosi sifatida tarixiy ong, madaniy merosga hurmat va milliy an'analarga e'tibor qaratishga alohida ahamiyat beriladi.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, tarixiy ong, madaniy meros, ta'lim usullari, maktab ta'limi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы воспитания чувства национальной гордости у учащихся в общеобразовательных школах Узбекистана через преподавание истории. Автор подчеркивает важность формирования у школьников духовно-нравственных и общечеловеческих ценностей в контексте образовательных реформ, реализуемых в стране. Особое внимание уделяется роли исторического сознания, уважения к культурному наследию и национальным традициям как основам патриотического воспитания.

Ключевые слова: патриотизм, историческое сознание, культурное наследие, образовательные методы, школьное образование.

Annotation: This article examines methods for cultivating a sense of national pride among students in Uzbekistan's general education schools through history teaching. The author emphasizes the importance of developing spiritual, moral, and universal values in schoolchildren within the context of educational reforms being implemented in the country. Special attention is given to the role of historical consciousness, respect for cultural heritage, and national traditions as foundations of patriotic education.

Key words: patriotism, historical consciousness, cultural heritage, educational methods, school education.

ERKIN VOHIDOV IJODIDA VATAN OBRAZINING POETIK TALQINI

Baltayeva Z.Sh.

Qoraqalpogʻ davlat universiteti dotsent

Ma'lumki, har qanday lirik janrning muhim xususiyatlaridan biri bu obrazlilik hisoblanadi. Unda badiiy yaxlitlik: ma'naviyat va milliylik, shaxs va ruhiyat, tasavvur va tuyg'u, hayajon va idrok muhim ahamiyat kasb etadi. Shoir ijod mahsuli bo'lgan she'r kitobxon yuragini zabt etishi barobarida obrazlilik shoir idrok qilayotgan predmet bilan moddiylashib boradi. Obrazlilik mohiyatida shaxs ruhiyati voqeliklari real voqelik bilan uyg'unlashib ketadi. «She'riyatning, hatto umuman adabiyotning asosiy sharti bo'lgan badiiy obraz yoki timsol chinakam milliy shaklda namoyon bo'lsagina o'quvchi qalbiga tezroq yetib boradi. Shundagina uning ta'siri umrbod unutilmasligi mumkin» [1, 47]. She'riyatda obrazlilik o'ziga xos tabiati bilan eng kuchli estetik, hissiy va ruhiy ta'sirga ega. Lirik she'riyatda obrazlarning o'ziga xos xususiyatlari va badiiyatini E.Vohidov ijodi misolida ko'rib o'tamiz. Yosh avlod shoir qalamiga mansub she'rlardagi badiiy obrazlar va ularning zamiriga singdirilgan ma'no va mazmunni to'liq anglab yetishlari uchun obrazlar tahlili muhim sanaladi. Shoir she'riyatida obrazlar rang barangligini kuzatishimiz mumkin: Vatan, bola, inson, do'st, tabiat, ayol va h.o

Iste'dodli ijodkorning mehr va muhabbatga limmo lim to'la ulug'vorlik ila yozilgan asarlari juda ham ko'p. Ayniqsa, ular orasida millatni, vatanni, xalqni va uning milliyligini ulug'laydigan she'rlari salmoqli o'rinni egallaydi.

Erkin Vohidov lirikasida ko'pincha xalqimiz tarixiga murojaat etish, milliy xarakter asoslarini anglab yetishga intilish, bolalik xotiralarini ko'z o'ngida jonlantirish, tiklash, ona yurt manzaralariga estetik munosabatda bo'lish orqali vatan obrazini bunyod etadi. Xususan, bolalik tasavvurlarining bokira xotiralaridan vatan sizib chiqadi. Lirik xarakterning mohiyatini, dunyoni his etish va tuyushining hayotiyligini ta'minlaydi:

Toleim bor ekan,
Senga hamnafas,
Otashin quyoshing bilan yo'g'rildim.
Yuz yil avval emas, yuz yil so'ng emas,
Tug'yonli asrda senda tug'ildim.
Gullar sochding men ilk bosgan qadamga
Bag'ring menga nurli koshona bo'lib.
Jahon ichra mening tengsiz jahonim – O'zbekistonim [2, 86].

«O'zbekiston» deb nomlanuvchi mazkur fahriyasida shoirning vatanini, xalqini, uning yuksak insoniylik fazilatlarini ulug'lashining guvohi bo'lamiz. Shuningdek, she'r to'liq holda tahlilga tortilsa unda vatanga sadoqat, sog'inch, faxr kabi tuyg'ular mavj urib turganini anglaymiz. Lirik qahramon shu vatanda tug'ilganidan xursandligi va bu vatanning o'z farzandiga bo'lgan mehr va muhabbati she'rning tagmatnini tashkil qiladi. Ya'ni, shu vatan – O'zbekiston bilan faxrlanish tuyg'usi she'r mazmunida barq urib turadi. Shoir ijodidagi har bir obraz milliy qadriyatlarni madh etish va inson ruhiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Erkin Vohidov ijodi haqida atoqli adabiyotshunos olim, O'zbekiston Qahramoni Ibrohim G'afurov shunday deb yozadi: «Erkin Vohidov XX–XXI asrda keng quloch yozib ishladi. O'zbek xalqining farzandi bo'lganligi bilan hammadan ortiq faxrlanardi. Uning faxrlanishi buyuk amaliyot bilan belgilanardi. U hech qachon aravani quruq olib qochmasdi, hech qachon amaliy ish bilan mustahkamlanmagan quruq so'zlarni tiliga ham olmasdi. U yosh chog'idan ota-onadan ayrilib, qarindoshlari tarbiyasida o'sdi va xalqini ota o'rnida ko'rdi. Sadoqati va muhabbati faqat xalqqa edi. Xalq deb kuydi, yondi, tinim bilmay ijod qildi» [3, 283]. Yuqoridagi firklardan ko'rinadiki, shoirning ijodiy faoliyati, ona xalqiga, vataniga, eng muhimi insonparvarlikka qaratilgan. Chunki shoirning o'zi ham shu xalqning bir bo'lagi ekanini dildan his qilib yashab, buyuk bir shaxsga aylangan – inson edi.

Bu vatanda bir Vatan

Ko'rmoqni istaydir ko'ngil,

O'zni ozod qush kabi

Ko'rmoqni istaydir ko'ngil.

Bu manzumani vatanga bo'lgan muhabbat, ozodlik va orzu-umidlar ifodasi sifatida ko'rib chiqish mumkin. Shoir mavjud vatan ichida yana bir orzu qilingan, yuksak axloqiy-ruhiy qadriyatlarga asoslangan vatanni tasvirlaydi. Bu orzudagi vatan – adolatli, inson qadri ulug'langan, ozod jamiyatdir. «Ko'rmoqni istaydir ko'ngil» – bu istak tinimsiz, to'xtovsiz, yurakdan chiqqan orzu. «O'zni ozod qush kabi» – bu yerda qush — erkinlik, parvoz, chegarasizlik ramzi. Inson o'zini hech kimga tobe bo'lmagan, ichki va tashqi ozodlikda yashovchi mavjudot sifatida tasavvur qiladi. Shoirning estetik mahorati shundaki, u ataylab so'zlarni ortiqcha bezamasdan, sodda, ammo mazmunan boy

misralardan foydalangan. She'ring har bir satri yurakka tegadi. Shoir mohirona uslubda ko'p gapni oz so'z bilan ayta olgan. Har bir satr o'zaro ma'nodosh va bir-birini to'ldiradi. Shoir ichki erkinlik, ruhiy osoyishtalik, adolatli vatan orzusini ko'ngil va qush obrazlari orqali tasvirlagan. Musiqa va ma'no uyg'unligi esa uni chinakam poetik asarga aylantiradi.

Ul vatanga bayroq- insof,
Tug'i sarhad muhri – mehr,

Sarhad uzra soqchidek
Turmoqni istaydir ko'ngil.

«Vatan istagi» she'ring keyingi bu misralari oldingi fikrni yanada mustahkamlab, ijodkorning vatanga bo'lgan munosabati yanada oydinlashadi. She'rda ifodalangan “bayroq” timsoli juda chuqur falsafiy ma'noga ega. Odatda bayroq davlat suvereniteti, g'urur, mustaqillik, shon-sharaf belgisi. Shoir bayroq = insof degan poetik tenglikni qo'llaydi. Bu juda kuchli ramziy metafora. Ya'ni adolat, vijdon, halollik (insof) — shu vatanni yuksak tutadigan bayroqqa aylansin, degan obrazli istak bor. Bayroq bu yerda xalq axloqiy mezonining timsoli sifatida talqin etiladi. “Tug'” – bu ham ramziy so'z: u yerda ham bayroq ma'nosida ishlatilgan, lekin hududiy yoki sarhadni belgilovchi timsol sifatida. “Muhri – mehr” – ya'ni sarhadlar kuch va urush bilan emas, mehr bilan “muhrlangan” bo'lsin. Bu satrda kuch o'rniga insoniylik, rahm-shafqat, mehr-oqibat qadrlanmoqda. Bu insonparvarlik g'oyasini ilgari suruvchi obrazli ifoda. “Soqchi” – bu timsol she'rga dinamik harakat olib kiradi. U hushyor, ogoh, himoyachi obrazidir. Shoir ko'ngilni sarhad uzra turayotgan soqchiga qiyoslaydi. Bu esa ko'ngilning hushyorligi, sadoqati, vatanga muhabbati ifodasidir. Bu obraz vositasida inson qalbining vatanga bo'lgan doimiy e'tibor va fidoyiligi ta'riflanadi. “Turmoqni istaydir ko'ngil” u satr yuqoridagi barcha obrazlarni birlashtirib, ko'ngilning orzusi — ya'ni insof, mehr, hushyorlik, sadoqat asosidagi vatanda turish istagini bildiradi. Ko'ngil – lirik qahramonning o'zi, xalq timsoli sifatida ishlatilmoqda. She'rda kuchli obrazlilik bor: bayroq, tug', sarhad, soqchi, ko'ngil kabi ramzlar orqali axloqiy va insoniy qadriyatlar bilan himoyalangan vatan timsoli chiziladi. Shoir bayroqni kuch emas, insof, sarhadni devor emas, mehr, soqchini urush emas, ruhiy hushyorlik bilan bog'laydi. Bu esa butun she'rni falsafiy va estetik yuksaklikka olib chiqadi.

Shoirning «Tush» she'ri 1991-yil, ya'ni mustaqillikning dastlabki yillari bitilgan bo'lib, bu davrda xalqni uxlab tush ko'rayotgan holatda tasvirlaydi. Bu davrda xalq mudrab, go'yoki nima qilishini bilmayotgandek. Dunyoqarashi keng, yurtini, vatanini chin dildan sevgan shoir har bir yurt farzandi vatanim deb borini tikishini, ajdodlarga xos bo'lgan avlodlar har bir xatti harakati bilan buni isbotlashini chin dildan istaydi. Mudrab emas, shu xalq, shu vatan uchun jonini berishga tayyor yurt merosxo'rlarini ko'rishni istaydi:

Bir oy bo'ldi,
Takror-takror
Men bir xil tush ko'raman,
Tushlarimda mudrab yurgan
El ichida yuraman.

Poeziya va falsafa - inson tafakkuri va tuyg'ularining ikki yuksak shaklidir. Falsafa borliq, tabiat va inson haqidagi umumiy qonuniyatlarni tafakkur yo'li bilan o'rganar ekan, poeziya ana shu borliqni his, tasavvur va obrazlar

orqali angelaydi. Shu bois, ular bir-biridan shaklan farq qilsa-da, mohiyatan uyg'un jarayonlar bo'lib, insonning ruhiy, ma'naviy olamini yoritish yo'lida bir-birini to'ldiradi. Poeziya tabiiyki, falsafa kabi tushunchaviy anqlikda borliq mohiyatini izohlab bermaydi. Ammo uning kuchi hissiy idrok orqali falsafiy mazmunni badiiy shaklda ifodalashidir. Falsafa "fikrni fikr bilan", poeziya esa "fikrni tuyg'u bilan" anglatadi. Shu bois chinakam san'at namunasi, ayniqsa she'riyat, o'zida falsafiy mushohada unsurlarini mujassam etadi. Har bir yuksak poetik asarda hayot, inson, tabiat, vaqt, abadiyat singari falsafiy kategoriyalar badiiy shaklda ifodasini topadi.

Hazrat Alisher Navoiy ijodining umrboqiyiligi ham aynan shunda - uning she'riy tafakkuri nafaqat estetik, balki chuqur falsafiy mazmunga ega. Shoir inson, hayot va borliqni badiiy timsollar orqali idrok etar ekan, o'z davrining falsafiy qarashlarini ham o'zida mujassamlashtirgan. Navoiy "Xushdurur bog'i koinot guli, barchadan yaxshiroq hayot guli" degan mashhur baytida inson konsepsiyasini ilgari suradi. Bu baytda koinotning go'zalligi, uning muvozanati va hayotiyiligi "gul" timsoli orqali beriladi. Ammo shu bilan birga, inson hayoti foni, o'tkinchi ekanligi ham nazarda tutiladi. Demak, bu bayt falsafaning eng qadimiy kategoriyalaridan biri - "borliq va yo'qlik", "abadiyat va foniylik" muammosini poetik ifodada aks ettiradi.

Navoiyshunos olim Y. Is'hoqov shoirning borliqqa munosabatini tahlil qilar ekan, "Navoiyning borliqqa, hayotga munosabati bir qator g'azallarda uzoq kuzatish va mulohazalar yakuni bo'lmish qat'iy xulosa va shu xulosa asosidagi keskin tashviq, targ'ibot sifatida ko'rinadi"[1,33] deya ta'kidlaydi. Haqiqatdan ham, Navoiy qahramoni hayotning oshig'i, lekin shu hayotning o'tkinchiligidan dard chekayotgan, insoniy ong bilan tabiat qonuniyatlari o'rtasidagi tafovutni his etayotgan mavjudot sifatida gavdalanadi.

Shoirning tabiat obrazlariga murojaatida bu falsafiy qarashlar yaqqol ko'rinadi. Navoiy uchun tabiat - hayot va umrning ramzi, ammo bu hayot abadiy emas. U "dahr bog'i", "umr gulshani", "navbahori dahr" kabi istioraviy iboralar orqali inson umrini tabiat manzaralari bilan qiyoslaydi. Quyidagi baytda esa bu fikr poetik umumlashmaga aylanadi:

Xush gulshan erur dahr, budur,

Payvasta xazon elidin ozurdadur ashjor...[2, 35]

Shoir nazarida dunyo go'zal "gulshan", ammo u hech qachon mangu yashnaydigan bo'ston emas. Undagi har bir daraxt, har bir gul "xazon elidan ozurda", ya'ni o'tkinchilikdan, foniylikdan aziyat chekadi. Ana shu falsafiy mushohada Navoiyning dunyoqarashini belgilaydi: go'zallikning yagona kamchiligi uning abadiy emasligidir. Shu ma'noda Navoiy "bevafo dunyo" timsolini yaratadi, lekin bu bevafo dunyo nafrat emas, balki insonni hayotni qadrlashga, vaqtning qimmatini anglashga da'vat etuvchi poetik vositadir.

Navoiy tabiat manzaralarini o'ziga xos poetik laboratoriya sifatida qo'llaydi. U tabiat hodisalarini bevosita tasvirlamaydi, balki ular orqali hayot qonuniyatlarini falsafiy mushohadaga aylantiradi. Uning "gul", "xazon", "bahor", "bog'" kabi timsollari bir paytning o'zida hayotning go'zalligi va o'tkinchiligidan belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, tabiat obrazi Navoiy she'riyatida borliqni anglash vositasi, ruhiy-falsafiy mushohada maydoniga aylanadi. Umuman, poeziya va falsafa inson tafakkurining ikki tarmog'i bo'lsa-da, ularning maqsadi bitta - borliq mohiyatini anglash va insonni ruhiy kamolot sari yetaklashdir. Falsafa bu vazifani tushuncha, kategoriya va mulohazalar orqali bajarsa, poeziya uni obraz, his va tasvir vositasida amalga oshiradi. Shu bois Navoiy kabi mutafakkir shoirning ijodi san'at va falsafa sintezining eng yuksak namunasi hisoblanadi. Uning tabiat haqidagi tasvirlari nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki hayotning o'tkinchiligi, go'zallikning bevafoqligi, insonning borliqdagi o'rni haqidagi falsafiy mushohadani ham ifodalaydi. Ana shu uyg'unlik Navoiy poetikasining abadiy jozibasini ta'minlaydi.

Agar Navoiy ijodida tabiat inson umrining foniyiligi, go'zallikning o'tkinchiligidan ifodalovchi timsol bo'lsa, zamonaviy o'zbek she'riyatida bu obraz yanada murakkab ma'no kasb etadi. Endilikda tabiat shunchaki go'zallik manbai emas, balki inson va jamiyat ruhiyatining o'zgarishlarini aks ettiruvchi ma'naviy maydonga aylanadi. Xususan, H.Xudayberdiyeva she'riyatida tabiat obrazlari inson ruhiyatining in'ikosini ifodalovchi eng ta'sirchan poetik vosita sifatida alohida o'rinni tutadi. Shoir ijodida tabiat hodisalari, o'simliklar, qushlar, suv yoki shamol manzaralari ko'pincha tashqi tasvir emas, balki insonning ichki kechinmalarini ifodalovchi ramziy-belgili obrazlar darajasiga ko'tarilgan. Shu jihatdan "Majnunol" she'ri ham o'zining chuqur falsafiy mazmuni va lirizmga boy ifoda uslubi bilan ajralib turadi.

Majnunol, ey, egib shox
Sen kimlarga sir aytding.

Baridan bo'ldim ogoh,
O'n aytdingmi, bir aytding. [2,35]

She'rda majnunol obrazini oddiy o'simlik yoki manzara unsuri emas, balki inson qalbining iztiroblarini, sadoqat va izhor etilmagan dardlarini ifodalovchi ramziy obraz sifatida gavdalanadi. Lirik qahramon majnunol bilan go'yo suhbatlashayotgandek, unga "Sen kimlarga sir aytding?" deb murojaat qiladi. Bu murojaat shakli orqali insonning ichki monologi, kechinma va iztiroblarining tabiatga ko'chishi yuz beradi. Shu bilan tabiat - inson qalbining ruhiy hamdardi, sokin tinglovchisi sifatida she'rga kirib keladi.

Siringni suvga solma,
Bargindan g'am arisin.

Bir siringni ololmay
Yosh dunyolar qarisin. [2, 46]

Shoir majnunol obrazidan poetik umumlashma sifatida foydalanadi. Tabiat unsuri - tolni egilgan shoxi, uning suvga soya solishi, barglarining yig'layotgandek titrashi bularning barchasi sokin, ammo dardli inson ruhining tashqi ifodasidir. "Siringni suvga solma, bargindan g'am arisin" satri orqali tabiatning ham his-tuyg'uga ega mavjudot kabi tasvirlanishi, undagi har bir harakat inson kechinmasi bilan uyg'unlashib ketadi. Shoir shu tarzda inson va tabiat orasidagi ruhiy-psixologik parallelni yaratadi. She'rning keyingi bandlarida bu ruhiy bog'lanish yanada chuqurlashadi:

Sen ham ko'zin yoshini
Hech kim ko'rmas bir naysan.

Faqat ishqing yashirib
Mendek yig'layolmayсан. [2,56]

Bu satrlarda tabiat va inson o'rtasidagi munosabat o'zining eng nozik darajasiga yetadi: shoiraning "men"i majnunolni o'z dardiga sherik qiladi, lekin ayni paytda undan farqli jihatni ham belgilaydi - daraxt yig'lay olmaydi,

uning ko'z yoshi yashirin. Shu bilan tabiat sukut ramziga aylanadi, inson dardining timsoli, ammo izhor eta olmaydigan go'zallik darajasida talqin etiladi.

“Majnunol” obrazi o'zbek she'riyatida muhabbat, sadoqat va iztirob timsoli sifatida ko'p uchraydi. Biroq mazkur she'rda u ko'proq sokinlik va ichki iztirobni anglatgan ruhiy poklikning ifodasi sifatida keltiriladi. Shoir tabiat obrazini shunchaki manzara emas, balki insoniy holatning badiiy metaforasiga aylantiradi. Shu tariqa tabiat she'riyatda inson ruhining aks-sadosi, ichki kechinmalarni tashqi manzaraga ko'chirish vositasi sifatida faol badiiy vazifa bajaradi.

Shoiraning poetik uslubida tabiat hodisalari bilan inson hissiyotlari o'rtasida tugal uyg'unlik mavjud. U tabiatni inson ruhiyatining “ko'zgusi” sifatida talqin etadi: daraxtning egilishi - insonning ezilishi, shoxning titrashi - yurakning bezovtaligi, bargning to'kilishi - umidning so'nishi sifatida anglashiladi. Natijada tabiat inson ruhining eng nozik qatlamlarini ifodalovchi poetik til darajasiga ko'tariladi. Demak, “Majnunol” she'rda shoir tabiat obrazidan ramziy umumlashma sifatida foydalanadi. Tabiat inson dardiga hamdard, lekin uni izhor eta olmaydigan, sukut ichida yashovchi mavjudot sifatida tasvirlanadi. She'rda tabiat va inson o'rtasidagi bu ruhiy aloqadorlik orqali lirik kechinma va falsafiy mushohada uyg'unlashadi. Tabiat obrazi she'riyatda nafaqat manzara tasvirining vositasi, balki inson qalbining ruhiy holatini ochuvchi poetik mexanizm sifatida xizmat qiladi. “Majnunol” she'rda u insoniy dard, iztirob, sadoqat, sukut va his etilmagan ko'z yoshlarning badiiy ramziga aylanadi. Shoir shu tarzda tabiatni jonli, his-tuyg'uga ega mavjudot sifatida talqin etib, inson va borliq o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni teran falsafiy darajada ifodalaydi.

Shoiraning “Dorilamon kunlar keldi...” nomli she'ri ham o'zbek zamonaviy lirikasida inson va tabiat o'rtasidagi ruhiy uyg'unlikni, ona mehriining abadiyatga daxldor mohiyatini yuksak badiiy mahorat bilan ifodalagan asarlardan biridir. She'r inson hayotining eng go'zal daqiqalari - tinchlik, totuvlik, tabiat uyg'onishi va inson qalbidagi nurli umidlarni tarannum etadi. Unda ona obrazining lirik markazda turishi asarni chuqur hissiy ma'no bilan boyitadi.

“Shoir ona siymosini hayotning davomiyligi, ezgulik va barakat manbai sifatida gavdalandiradi. She'rning “Bu kunlarga yetganlar bor yetmaganlar bor” satri hayot va o'lim, umrning o'tkinchiligi haqidagi falsafiy mushohadani ifodalaydi. Bu satr onaning dardu shukronasi, hayot sinovlaridan o'tgan insonlarning ibratli so'zi darajasiga ko'tarilgan. Asarning lirik ohangi mehr, sog'inch va shukronalik tuyg'ulari bilan sug'orilgan. Onaning og'riqli, ammo duoga o'xshash so'zlari farzand qalbida chuqur aks sado beradi”. [3, 45]. She'rda tabiat manzaralari ham g'oyaviy-badiiy mazmunni to'ldirib, inson ruhiyatidagi uyg'onish bilan uyg'unlashadi. “Olcha gulin ko'zlaringga surtasan behol”, “Qizg'ish, lola rang qoplaydir bu kun dunyoni” kabi misralarda tabiatning bahoriy uyg'onishi inson qalbidagi quvonch, umid va yashash istagi bilan mushtarak ifodalangan. Shoir tabiatni insoniylashtiradi, undagi har bir belgi - gullar, quyosh, bog'lar, mevalar - hayotning go'zalligini, yashash zavqini eslatadi.

Lirik qahramonning ichki kechinmasi - onasiga mehr, uni asrash, unga tayanch bo'lish istagidir: “Belginangga tirgak bo'lay, onajonim, tur” misrasi farzandning sadoqatli yuragini, ona mehriga bo'lgan ehtiyojini chuqur ifodalaydi. Bu misralar orqali shoir insoniy munosabatlarning eng pok ko'rinishi - onaga bo'lgan muhabbatni poetik darajada ulug'laydi. Asarda lirizm bilan falsafa uyg'unlashgan. “Yashamoq — bir tansiq taom, unga ursang qo'l, Borgan sari ochiladir ishtahang saning.” satrlari hayotning qadriga yetish, yashash zavqini his etish haqidagi shoirona pand-nasihatdir. Shoir hayotni bir “taom” deb tasavvur etib, insonni undan to'yib yashashga, har bir onni qadrlashga undaydi. Bu yerda hayotga muhabbat va insoniy qadriyatlarni asrash g'oyasi ustuvor o'rin tutadi.

She'rning poetik tili ohangdor, ifoda uslubi yumshoq va samimiydir. Badiiy vositalardan tashbeh, tazod, takror, metafora kabi usullar samarali qo'llanilgan. “Yuzing ardoqli quyoshday issiq va mahvash.” misrasi onaning siymosini quyoshga qiyoslash orqali ona mehriining hayot manbai sifatidagi mohiyatini ochadi. “Goh sharobdan, goh og'udan qilar bizni mast” satrida esa hayotning shirin va achchiq lahzalari tazod asosida tasvirlanadi. “Dorilamon” so'zining o'zi asarga ramziy ma'no beradi. U “osoyshtalik, totuvlik, barakali hayot” degan ma'nolarni anglatar ekan, shoir hayotni ana shu dorilamonlik sari intilish sifatida tasvirlaydi.

Umuman, zamonaviy she'riyatda tabiat obrazining falsafiy talqini insoniyat va koinot orasidagi uzviy bog'liqlikni ifoda etadi. Shoir tabiatni shunchaki manzara emas, balki hayotiy haqiqatning timsoli sifatida ko'rsatadilar. Bunda insonning o'z “men”i bilan tabiat orasidagi nisbat, uyg'unlik va ziddiyatlar tahlil markaziga chiqadi. Shu jihatdan zamonaviy o'zbek she'riyatida tabiat obrazining falsafiy talqini Navoiy an'analariining mantiqiy davomidir - u ham insonni, ham borliqni idrok etishning badiiy va ruhiy makoniga aylanadi.

ADABIYOTLAR

1. Y. Is'hoqov. Navoiy poetikasi. T.1983. 33-34 betlar
2. Худайбердиева Х. Сайланма. жилд. – Тошкент: F.Фуллом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – 423 б
3. Жабборов Н. Замон, мезон, шеърият. – Тошкент: F.Фуллом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – 304 б
4. Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ, 2007. – 352 б.
5. Норматов У. Кўнгилларга кўчган шеърият. –Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006.

Halima Xudoyberdiyeva lirikasida tabiat obrazining falsafiy va estetik talqini

Annotatsiya: Ushbu maqolada poeziya va falsafa o'rtasidagi uzviy bog'liqlik, xususan, tabiat obrazining falsafiy-poetik talqini tahlil etilgan. Alisher Navoiy ijodida tabiat obrazi umrining foniyiligi va go'zallikning o'tkinchiligi timsoli sifatida yoritilgan bo'lsa, zamonaviy o'zbek she'riyatida u inson ruhiyatining in'ikosini ifodalovchi poetik vosita darajasiga ko'tarilgan. Halima Xudoyberdiyeva ijodida tabiat unsurlari inson kechinmalarini ochuvchi ramziy belgilar sifatida tahlil qilingan. Ayniqsa “Majnunol” va “Dorilamon kunlar keldi...” she'rlarida tabiat va inson ruhiyati o'rtasidagi uyg'unlik, hayotga falsafiy nigoh hamda lirizmning badiiy ifodasi chuqur tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: poeziya, falsafa, tabiat obrazi, falsafiy mushohada, lirizm, Halima Xudoyberdiyeva, Alisher Navoiy.

Xalima Xudayberdieva lirikasida tabiat obrazini filofosofiyaliq ham estetikaliq talqilaw

Annotaciya: Bul maqalada poeziya ham filofosofiya arasindagi uzliksiz baylanis, atap aytqanda, tabiat obrazini filofosofiyaliq-poetikaliq talqilaw tallangan. Aliysheer Naway do'retiwshiliginde tabiat obrazi insan omirini o'tkinshiligi ham go'zalliqtn

ótkinshiligi timsalı sıpatında sáwlelendirilgen bolsa, zamanagóy ózbek poeziyasında ol insan ruwxıy dúnyasınıń kórinisín sáwlelendiriwshi poetikalıq qural dárejesine kóterilgen. Xalima Xudayberdievaniń dóretiwshiliginde tábiyat elementleri insan keshirmelerin ashıwshı simvolikalıq belgiler sıpatında talqılانған. Ásirese, "Májnunat" hám "Dáwletli kúnler keldi..." qosıqlarında tábiyat hám insan ruwxıylığı arasındağı únleslik, ómirge filosofiyalıq kózqaras jáne lirizmnıń kórkemlik sáwleleniwı tereń tallanadı.

Tayanish sózler: poeziya, filosofiya, tábiyat obrazi, filosofiyalıq pikirlew, lirizm.

Философско-эстетическая интерпретация образа природы в лирике Халимы Худойбердиевой

Аннотация: В данной статье исследуется взаимосвязь поэзии и философии, в частности, философско-поэтическая интерпретация образа природы. В творчестве Алишера Навои природа представлена как символ бренности человеческой жизни и преходящей красоты, тогда как в современной узбекской поэзии этот образ отражает духовные переживания человека. В поэзии Халимы Худойбердиевой природные мотивы служат символами внутреннего состояния человека. Особенно в стихотворениях «Мажнунтол» и «Настали благословенные дни» раскрываются гармония между природой и душой человека, философское осмысление жизни и эмоциональная глубина лиризма.

Ключевые слова: поэзия, философия, образ природы, философское размышление, лиризм.

Philosophical and aesthetic interpretation of the image of nature in Halima Khudoyberdiyeva's lyrics

Abstract: This article explores the interrelation between poetry and philosophy, focusing on the philosophical and poetic interpretation of the image of nature. In Alisher Navoi's works, nature symbolizes the transience of human life and the impermanence of beauty, while in modern Uzbek poetry it reflects the spiritual world of the individual. In Halima Khudoyberdiyeva's poems, natural imagery serves as a metaphor for emotional experiences. Particularly, in "Majnuntol" and "The Days of Peace Have Come," the harmony between human soul and nature, the philosophical reflection on life, and the lyrical expression of inner feelings are deeply analyzed.

Key words: poetry, philosophy, image of nature, philosophical reflection, lyricism.

INGLIZ TILINI O'QITISHDA IKKI TILLILIKNING MOHIYATI, TAMOYILLARI VA YONDASHUVLAR Bekbosinova D. K.

Qoraqalpog' davlat universiteti

Bugungi kunda O'zbekistonda ko'p tillilikni rivojlantirishga qaratilgan global tendensiya ichki va tashqi yo'nalishda tobora rivojlanmoqda. Avvalo, biz kichik xalqlarning o'z fuqarolik huquqlarini ushbu doirada to'liq amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lish uchun millat tili bo'lgan o'z xalqi tilini o'rganish istagi, ikkinchidan, biz qoraqalpoqlarning jahon axborot, ijtimoiy va boshqa munosabatlar tizimiga qo'shilish, xorijiy tillarni o'rganish orqali jahon madaniy merosi qadriyatları bilan tanishish istagini nazarda tutamiz (ingliz, fransuz, nemis, ispan, italyan va boshqa tillar).

Mamlakatda, shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim maktablarida xorijiy tillarni o'qitishning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan: o'quvchilarning asosiy til ko'nikmalarini (tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish) rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, shu jumladan oliy ta'lim muassasalarining xorijiy tillar kafedralarini maktablarga birlashtirish orqali o'quvchilarning xorijiy tillarni chuqur o'rganishini tashkil etish; o'qitish va o'quvchilarning bilimlarini baholashning xalqaro tan olingan uslublarini joriy qilish; ingliz tilini o'qitishda innovatsion (masofaviy, raqamli va boshqa) zamonaviy ta'lim shakllarini keng qo'llash hamda maktabda o'qitiladigan ayrim o'quv predmetlarini xorijiy tillarda o'qitishga erishish orqali o'quvchilarning bir tomondan-ushbu fanni tushunish darajasini o'stirish, ikkinchi tomondan-ona tilidan tashqari yana xorij tilida gapirish ko'nikmalarini rivojlantirish, uni o'rganishga motivatsiya hosil qilish; o'quvchilarning kamida ikkita xorijiy tilni mukammal o'zlashtirishi orqali ularning dunyoqarashi kengayishi, salohiyati oshishi hamda kelgusi faoliyati mobaynida mehnat bozorida raqobatbardoshligi oshirilishini ta'minlash [3, 301] va boshqalar. Qoraqalpog' maktablarining 6-9 sinf o'quvchilarini ingliz tiliga o'qitishda o'quv jarayonini metodik qo'llab-quvvatlash, o'quvchilarning asosiy til ko'nikmalarini mustahkamlash va qo'llashda ko'maklashish muhim bo'lib hisoblanadi. 10-11-sinf o'quvchilarini ingliz tiliga o'qitishda ta'lim jarayoniga malakali o'qituvchilarni jalb qilish va mahorat darslari sifati va sonini oshirishni tashkil qilish samarali natijalar beradi.

Til ko'p o'lchamli hodisadir. Uning birliklari o'rtasidagi bog'liqliklar, aloqalar ham turli-tumandir. Til birliklari o'rtasida bunday munosabatlarning mavjudligi uni yaxlit bir butunlikka, sistemaga aylanishga olib kelgan.

Nutq har bir alohida kishini individ va shaxs sifatida xarakterlovchi eng samarador vositalardan biridir. Nutq individual hodisa bo'lsa-da, aksariyat hollarda biz bir-birimizni tushunamiz. Tushunish so'zlashish faoliyatida ayrim o'ziga xos va umumiy xususiyatlarning mavjudligi tufayli yuz beradi. Bunday xususiyatlar muayyan til jamoasi ishlatadigan birliklar (fonemalar, morfemalar, so'zlar, gaplar) va ulardan foidalanish qoidalarining umumiyligidadir. Nutq elementlari ifodalayotgan fikr kechishiga qarab jumlar matnda ma'lum bir tartibda ketma-ket joylashadi. Xuddi shunday ketma-ketlik nutqni idrok qilish jarayonida ham kuzatiladi. Biz nutq axborotini aynan ana shunday ketma-ketlikda, birliklarning ma'lum qoidalarga bo'ysungani holda ifodalanishi asosida idrok qilamiz va to'g'ri tushunamiz.

Bilingvizm- ikki tillilik, insonning ikki tilda mukammal so'zlasha olish qobiliyati. Masalan, o'zbek-qozoq, o'zbek-qoraqalpog', o'zbek-ingliz, qoraqalpog'-ingliz, o'zbek-rus, belorus-polyak, fransuz-ingliz va h.k.

Bilingvizm atamasi lotin tilidan kelib chiqqan va ikki qismdan iborat: "bi" – "ikki, ikkilik" va "lingua" – "til". Ikki tillilik atamasi "bilingvizm" bilan sinonim hisoblansada, fanda yana "diglossiya" tushunchasini uchratamiz [1].

Diglossiya- sotsiolingvistik ta'rificha, ushbu atama jamiyat a'zolarining ikki yoki undan ortiq tilda gaplashishiga ishora qilish uchun ham foidalaniladi. Masalan Nu-York shahrida bo'lgani kabi, lotin hamjamiyatining ko'plab a'zolari ispan va ingliz tillarida gaplashib, bir tildan ikkinchisiga o'tishadi.

So'nggi yillarda Global integratsiyaning yangi to'liqini sharoitida ikki tillilik (bilingvizm) shakllanishi va faoliyati bilan bog'liq muammolar majmuasini o'rganish sezilarli darajada oshdi. Til aloqalarini faollashtirishda Internet global axborot tarmog'ining shakllanishiga olib kelgan ilmiu-texnikaviy taraqqiyoq bir xil darajada muhim rol o'ynadi.

H. Z. Bagirokovning "Bilingvizmning nazariy va amaliy jihatlar: adigey va rus tillari materiallari asosida" mavzusidagi dissertatsiyasida hozirda dunyoda o'n mingdan ortiq til va lahjalar mavjudligi, ammo sayyoramiz aholisining qariyb uchdan ikki qismi yigirma yetti tilda so'zlashayotganligi, shuning uchun iqtisodiy va siyosiy ehtiyojlar bilan tartibga solinadigan professional muloqot cheklangan miqdordagi tillarga tayanishi xaqida fikr bildirilgan bo'lib, muallif ishda ikki tillilikning tizimli ravishda taqdim etilgan ko'p koordinatali xususiatini til shaxsi tushunchalari bilan birlikda aniqlaydi [1].

B.M.Jandarning "Bilingvizm sharoitida chet tili monolog nutqini o'qitishning nazariy asoslari" mavzusidagi dissertatsiyasi (2012)da til darajalarining assimiliatsiyasi (aralashuvi) fonetik-fonologik, leksik-semantik, morfologik, sintaktik, frazeologik, stilistik, lingvistik, sotsial-lingvistik va lingvo-madaniy doiralar doirasida tasniflangan. Ushbu dissertatsiyada bilingvizm xususiyatlaridan foydalanish orqali turli ijtimoiy va demografik guruhlariga mansub ikki tilli xalqlarning og'zaki va yozma nutqida aniqlangan interferomlarni tahlil qilish, post-bilingualizmning lingvistik tipologiyasi, sotsiolingvistik modeli va lingvomadaniy paradigmasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.[4]

N.L.Nizamievaning "Osobennosti formirovaniya inoyazichnoy kommunikativnoy kompetentsii v polilingvalnoy srede" mavzusidagi maqolasida ko'p tilli muhitda chet tilining kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirish muammosi yoritilgan. Maqolada Rossiya Federatsiyasida ko'p millatli davlat sifatida rivojlangan ko'p tillilikning xususiyatlari keltirilgan. O'zlashtirilgan tillarni o'rganish tajribasiga tayanish, ijobiy o'tkazish va yangi tillarni o'rganishda shovqinlarni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratiladi.[7]

Ko'rib chiqilgan zamonaviy gumanitar tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ularda turli xil madaniy va tarixiy jamoalardagi odamlarning "ma'naviy olamini" qayta qurishga urinish mavjudligini payqaymiz.

Zamonaviy "bilingval ta'lim" tushunchasi o'zining an'anaviy talqinidan tashqariga chiqdi, chunki, endi u ta'lim oluvchilarning ikki tilli va ikki madaniyatli shaxs shakllanishida sodir bo'layotgan tabiiy ko'p tilli muhitda ikki til va madaniyatni bir vaqtning o'zida va teng ravishda egallashni nazarda tutmoqda[2].

Keng ma'noda olganda, ta'lim muhitida ko'p tilli shaxsni shakllantirishga qaratilgan "bilingval ta'lim" deganda, o'quvchilarga ikki tildan birgalikda foydalanish imkoniyatini berish, shuningdek, ikkinchi chet tilini o'qitish jarayonini yanada samarali tashkil etish va kerakli shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiluvchi tamoyillar majmui tushuniladi. Polilingvizm esa tabiiy muhitda ikki tillilik shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan keng ko'lamli hodisalar to'plami sifatida G'arb olimlarining ilmiy izlanishlarida alohida o'rinni egallab kelmoqda. Biroq, ta'limdagi ko'p tillilik uchun bu yondashuvlarning hali to'liq o'rganilmagan imkoniyatlari ham mavjud. Shu bois, ko'p tillilik va ta'limdagi ko'p tillilik o'rtasidagi o'xshashliklardan kelib chiqib, ikkinchi chet tilini o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlarini muhokama qilish zarur. Birinchi navbatda, tabiiy va sun'iy ikki tillilik tushunchasi sof tilshunoslik masalasi emasligini ta'kidlash kerak. 1970-yillarda Uilyam Makki ikki tillilik fenomenini o'rganishda asosiy e'tiborni tilga emas, balki inson shaxsiga qaratish lozimligini urg'ulagan. Aynan shaxsga qaratilgan e'tibor til o'rganish jarayonlari va natijalariga qiziqishni kuchaytirib, lingvistik aloqa, kontaktologiya va lingvokontaktologiya kabi yangi ilmiy yo'nalishlarning rivojlanishiga turtki bo'lgan. Ikkinchi tomondan, tabiiy va sun'iy bilingvizm ta'lim mazmunida predmet va til komponentlarining uyg'unlashuvi bilan tavsiflanadi. Ushbu o'xshashliklarni inobatga olgan holda, tabiiy muhitga xos bo'lgan ayrim sharoitlarning mavjud emasligi sababli tabiiy va sun'iy ikki tillilikni farqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy manbalarda ko'rsatilishicha, 1) o'qituvchining samarali tillarni o'qitishdagi natijalari - birinchidan, yo'l-u'riq ko'rsatish, maslahat berish va o'quv vaziyatlarini modellashtirish orqali amalga oshiriladi; 2) o'quv jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan o'zaro munosabat - guruhda ishlash orqali o'quv jarayonini birgalikda qurish tushuniladi; 3) kuchsizroq o'quvchini qo'llab-quvvatlash - bu holatda har ikkala ishtirokchi ham foyda ko'radi, shu jumladan kuchliroq o'quvchi ham o'z fikr va harakatlarini sherigiga imkon qadar yordam beradigan tarzda tashkil qilishi kerak; Bu borada muammoli ta'lim konsepsiyasi va uni chet tillarini, xususan ingliz tilini o'qitish amaliyotiga tatbiq etish masalalari o'zbek, qoraqalpoq va xorij olimlarining ishlarida o'z ahamiyatini yo'qotmadi va o'quvchilarning ingliz tilini o'qitish davomida hal qiladigan muammoli vazifalar tizimini ishlab chiqishga qaratilgan.[5] Qoraqalpoq maktab o'quvchilari ingliz tilini o'rganishlarida avvalo, lug'at sostavini tashkil etuvchi har qanday so'z ma'noga ega bo'lishini, ana shu ma'nosi nuqtai nazaridan so'zlar o'ziga xosliklarga egaligini his etishlari lozim. Buning uchun ingliz tili o'qituvchisi o'quvchilarni ingliz so'zining ma'nosi (semantikasi) va u bilan bog'liq masalalar leksikologiyadagi asosiy masalalardan biri hisoblanishini o'rgatadi. Har qanday tilning taraqqiyotida uning eng o'zgaruvchan, eng tez harakatdagi qismi leksikasidir. Demak, til taraqqiyoti protsessida lug'at sostavi yangi-yangi so'zlar hisobiga boyib borish bilan birga, undagi ayrim so'zlar eskiradi, shuningdek, iste'moldan chiqib boradi. Demak, lug'at sostavi avvaldan o'zlashib kelgan va hozirda iste'moldagi so'zlar bilan birga nisbatan yangi so'zlarga va eskirgan so'zlarga egaligi bilan ham xarakterlanadi. Leksikologiyada leksikaning ana shu tomoni ham o'rganiladi.[6]

Qoraqalpoq maktablarida tashkil qilinadigan Ingliz tili darslarida o'rta maktab o'quvchilarining (10-11-sinf) lingvistik kompetentsiyalari bilingvizmning o'ziga xos xususiyatlariga tayangan holatda rivojlantirish usuli zamonaviy dunyoda dolzarb bo'lib qolmoqda, bu erda bir nechta tillarda gapirish va turli madaniyatlarni tushunish qobiliyati tobora muhim rol o'ynamoqda. Ingliz tilini o'qitishda umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining lingvistik kompetentsiyalarini rivojlantirish ta'limning keyingi bosqichlarida muvaffaqiyatli o'rganish uchun zarur bo'lgan til ko'nikmalarini samarali va tizimli ravishda rivojlantirishni ta'minlashdan iborat.

Bilingvizm masalalari zamonaviy ta'lim muhitida keng qiziqish uyg'otayotgan yo'nalishlardan biri bo'lib, bu sohada hali to'liq o'rganilmagan qator muammolar ham mavjud. Shu sababli bilingvizmning ishlash mexanizmlarini

hamda bilingval va monolingval o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki va til o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish bosqichlarini aniqlash zarurati tug'ilmoqda. So'nggi yillarda qo'sh tillilikning inson ongiga ta'sirini o'rganish maqsadida miya faoliyatini tasvirlashga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bilingvizmning o'ziga xos shakllanishi va rivojlanish tarixini, shuningdek, uning faoliyat xususiyatlarini sinxron va diaxron tadqiqot usullari orqali mukammal o'rganish mumkin. Metodik va sotsiologiyistik yondashuvlarni uyg'un qo'llash esa ikki tillilikning kelib chiqishi, shakllanish jarayonlari va boshqa ko'rinishlarini aniqlashtirib tahlil qilish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Aripova M.: Nosirova Sh., Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Ж.:Путнайки// cyberleninka.ru/ article/n/ingliz-tilini-itishda.
2. Carlson, S. M., & Meltzoff, A. N. (2008). Bilingual experience and executive functioning in young children. *Developmental Science*, 11(2), 282–298. <https://doi.org/10.1111/j.1467-7687.2008.00675.x>
3. Galskova N.D. Teoriya obucheniya inostrannogo yazika: Lingvodidaktika i metodika // ucheb. posobiye. – M.: Akademiya, 2007.
4. B.M. Jandar. Teoretik asoslari chet tilidagi monologik nutqni o'qitishning bilingvizm sharoitidagi nazariy asoslari. – M. // J.: Fan va ta'lim axborotnomasi, 2023. №4. – B. 34–41. <https://cyberleninka.ru/artic>.
5. Hakuta, K., & Diaz, R. M. (1985). The relationship between degree of bilingualism and cognitive ability: a critical discussion and some new longitudinal data. In K. E. Nelson (Ed.), *Children's Languages*(pp.319-342). Hillsdale, NJ: L. Erlbaum.
6. Mohanty, A. K. (1994). Bilingualism in a multilingual society: Psycho-social and pedagogical implications. Mysore, India: Central Institute of Indian Languages.
7. N.L. Nizamieva. "Osobennosti formirovaniya inoyazichnoy kommunikativnoy kompetentsii v polilingval'noy srede" // Jurnal: Filologicheskie nauki. Voprosy teorii i praktiki (VAK RF), 2018, – S. 103–107.

Ingliz tilini o'qitishda ikki tillilikning mohiyati, tamoyillari va yondashuvlar.

Rezyume. Ushbu maqolada ikki tillilik va chet tilini o'zlashtirish o'rtasidagi munosabat o'rganiladi. Shu bilan bir qatorda qoraqalpog' maktablarida bilingvizmning o'ziga xos xususiyatlari: kognitivlik, interferensiyani bartaraf etish asosida tilni o'zlashtirish, til sostavining o'xshash va mnemonik asoslari yordamida o'qitishdagi interferensiyani bartaraf etish kabilardan foydalangan holda maktab o'quvchilarini ingliz tiliga o'qitish, uning nazariy va uslubiy asoslarini tadqiq qilish masalalari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Ikki tilli ta'lim, til, muhokama, o'tish, saqlash va boyitish modellari.

Сущность, принципы и подходы двуязычия в преподавании английского языка

Резюме.. В данной статье изучается взаимосвязь между билингвизмом и освоением иностранного языка. Кроме того, анализируются особенности билингвизма в каракалпакских школах, такие как когнитивные аспекты, освоение языка на основе устранения интерференции, а также преодоление интерференции в обучении с помощью сходства языкового состава и мнемонических принципов. Исследуются теоретические и методические основы обучения школьников английскому языку с использованием этих подходов.

Ключевые слова: билингвальное образование, язык, обсуждение, модели перехода, сохранения и обогащения.

The essence, principles, and approaches of bilingualism in English language teaching.

Abstract. This article examines the relationship between bilingualism and foreign language acquisition. Additionally, it analyzes the specific characteristics of bilingualism in Karakalpak schools, such as cognitive aspects, overcoming interference in language acquisition, and eliminating interference in teaching through similarities in language composition and mnemonic principles. The study also explores the theoretical and methodological foundations of teaching English to school students using these approaches.

Key words: Bilingual education, language, discuss, transitional, maintenance and enrichment models.

ISH YURITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Ibragimova U. Yu.

University of Business and Science Toshkent filiali Tillar kafedrası professor v.b.

Kirish. Globalizatsiya va raqamli o'zgarishlar jarayoni bugungi kunda jamiyatning turli sohalarda, xususan, davlat boshqaruvida, ta'lim tizimida, sog'liqni saqlashda hamda sud-huquqiy mexanizmlarda ish yuritish uslublarini va mazmunini tubdan o'zgartirib yubormoqda. Bu o'zgarishlar fonida, rasmiy til sifatida qonuniy e'tirof etilgan o'zbek tilining o'rni va unda tayyorlanayotgan hujjatlarning sifati alohida diqqat va nazoratni talab etadi. Chunki, Konstitutsiya va qonunchilik hujjatlariga asosan davlat tili maqomiga ega bo'lgan o'zbek tili hozirgi vaqtda zamonaviy raqamli texnologiyalar va platformalarga moslashish orqali yangi darajaga ko'tarilmoqda. Bu jarayon tilning kundalik ish yuritishdagi rolini kuchaytirib, uni raqamli muhitda samaraliroq qo'llash imkonini beradi.

Ushbu maqolada aynan shu masalalarga – texnologik taraqqiyot sharoitida o'zbek tilining rasmiy hujjatlarda va ish yuritishda amaliy qo'llanilishi, raqamlashtirish jarayonidagi mavjud muammolar, masalan, tilni raqamli tizimlarda to'g'ri ko'rsatish, tarjima va avtomatlashtirishdagi qiyinchiliklar, shuningdek, bu muammolarni hal etishga qaratilgan strategiyalar va takliflar – batafsil tahlil qilinadi. Masalan, globallashtirish ta'sirida o'zbek tili raqamli platformalarda, masalan, elektron hujjat aylanishi, onlayn xizmatlar va sun'iy intellekt asosidagi tizimlarda qanday integratsiyalashayotgani ko'rib chiqiladi. Shuningdek, tilning sifatini oshirish uchun zarur bo'lgan lingvistik resurslarni rivojlantirish, standartlashtirish va xalqaro tajribalarni qo'llash yo'llari muhokama etiladi. Natijada, o'zbek tilini raqamli davrda yanada mustahkam va samarali qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

O'zbek tili O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tili sifatida rasman tan olingan. Xususan, Konstitutsiyaning 4-moddasida aniq belgilanishicha: "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir"[1]. Ushbu konstitutsiyaviy norma o'zbek tilining nafaqat siyosiy va huquqiy maqomini mustahkamlabgina qolmay, balki uni davlat boshqaruvi, rasmiy hujjatlar yuritilishi, qonunchilik hujjatlari va rasmiy bayonotlarda asosiy til sifatida

qo'llanilishini qonuniy jihatdan ta'minlaydi. Bu qoida o'zbek tilining davlat idoralari va jamoat hayotidagi ustuvor o'rnini ta'kidlaydi. Bunga qo'shimcha ravishda, 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan va 1995-yilda yangi tahrirda tasdiqlangan "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun o'zbek tilining rasmiy ish yuritishdagi rolini yanada mustahkamlagan muhim hujjat hisoblanadi[2]. Ushbu qonunga muvofiq, barcha davlat organlari, tashkilotlar, korxonalar va muassasalarda ish yuritish, rasmiy hujjatlar tayyorlash va xizmat yozishmalarini faqat davlat tilida, ya'ni o'zbek tilida olib borish majburiy hisoblanadi. Qonun shuningdek, o'zbek tilining davlat boshqaruvi va ijtimoiy sohalardagi qo'llanilishini tartibga solib, uning amaliy jihatdan kengroq va samarali foydalanilishiga zamin yaratadi. Bu esa o'zbek tilining nafaqat rasmiy, balki kundalik va professional muhitda ham yetakchi til sifatida qo'llanilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy global raqamlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanayotgan sharoitda o'zbek tilining O'zbekiston Respublikasining davlat tili sifatidagi maqomi nafaqat huquqiy va siyosiy ramz sifatida qolmasligi, balki zamonaviy kommunikatsiya vositasi sifatida faol rivojlanishi va keng qo'llanilishi zarur. Ayniqsa, davlat boshqaruvi, ish yuritish va rasmiy muloqotlarda o'zbek tili samarali, sifatli va aniq til sifatida o'z o'rnini mustahkamlashi lozim. Rasmiy hujjatlar, jumladan buyruqlar, farmoyishlar, xizmat yozishmalari, bayonnomalar, axborot xatlari va boshqa hujjatlar tilning fonetik, grammatik va uslubiy me'yorlariga to'liq rioya qilingan holda tayyorlanishi shart. Biroq, amalda ba'zi hollarda rasmiy yozishmalarda til me'yorlariga rioya qilmaslik, fonetik xatolar, grammatik noaniqliklar va uslubiy nomuvofiqliklar kuzatilmoqda. Bu holat nafaqat hujjatlar sifatiga, balki umumiy til madaniyatiga va davlat tilining nufuziga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, o'zbek tilida ish yuritish nafaqat qonuniy majburiyat, balki ijtimoiy va madaniy mas'uliyat sifatida ham qaralishi kerak. Davlat tili sifatida o'zbek tilining to'g'ri va samarali qo'llanilishi jamiyatdagi til madaniyatini yuksaltirish, professional muloqot sifatini oshirish va milliy o'zlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, davlat idoralari, tashkilotlar va muassasalarda xodimlarning o'zbek tilida savodli yozish, aniq va ravon so'zlash, rasmiy hujjatlar tuzish ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir. Buning uchun xodimlarni muntazam ravishda til bo'yicha maxsus o'quv kurslari, seminarlar va attestatsiyalardan o'tkazish zarur. Bundan tashqari, raqamli platformalarda o'zbek tilining to'g'ri qo'llanilishini ta'minlash uchun maxsus dasturiy ta'minotlar, avtomatlashtirilgan tuzatish vositalari va tilni standartlashtirish bo'yicha qo'llanmalar ishlab chiqish ham muhim hisoblanadi. Bu choralar o'zbek tilining raqamli muhitda va rasmiy ish yuritishda yanada samarali va sifatli qo'llanilishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari davlat boshqaruvi va korporativ tizimlarda ish yuritish jarayonlarini tubdan o'zgartirib, an'anaviy qog'oz asosidagi hujjat aylanishini asta-sekin raqamli formatga o'tkazmoqda. Elektron hujjat aylanish tizimlari, raqamli arxivlar, onlayn platformalar va avtomatlashtirilgan axborot tizimlari qog'oz hujjatlarni bosqichma-bosqich siqib chiqarib, ularning o'rnini egallamoqda[3]. Ushbu o'zgarishlar nafaqat hujjatlar bilan ishlash jarayonini tezlashtirib, samaradorlikni oshiradi, balki hujjat aylanishining shaffofligini ta'minlaydi, xarajatlarni kamaytiradi va til me'yorlariga rioya qilishni avtomatik nazorat qilish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasida "Elektron hukumat" tizimi, my.gov.uz portali, elektron imzo (e-imzo), id.gov.uz kabi platformalar orqali hujjatlarni rasmiylashtirish, tarqatish va kuzatish jarayonlari keng joriy etilgan. Bu tizimlar davlat idoralari va tashkilotlarda xodimlarga masofadan turib xizmat yozishmalarini yuborish, elektron imzo bilan tasdiqlash, hujjatlarni onlayn tarzda ro'yxatdan o'tkazish va ularning holatini kuzatish imkonini beradi. Bunday raqamli vositalar vaqt va resurslarni tejash bilan birga, o'zbek tilida yagona til standartlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Zamonaviy dasturiy ta'minotlar, masalan, Grammarly, LanguageTool, Microsoft Editor kabi xizmatlar, shuningdek, o'zbek tiliga moslashtirilgan "Imlo.uz" kabi mahalliy platformalar hujjatlarining til jihatdan to'g'riligini tekshirishda muhim yordam beradi. Ushbu vositalar orfografik, grammatik va uslubiy xatolarni aniqlab, tuzatishni avtomatlashtiradi, bu esa til madaniyatini oshirishga va ish yurituvchilarning lingvistik savodxonligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli muhitda ko'p tilli tarjima xizmatlari, masalan, Google Translate, DeepL yoki Tilde kabi platformalar o'zbek tilidan boshqa tillarga (ingliz, rus va boshqalar) tarjima qilish imkonini kengaytirmoqda. Garchi bu xizmatlar ba'zida semantik noaniqliklar yoki kontekstual xatolarga olib kelishi mumkin bo'lsa-da, ular til to'siqlarini bartaraf etish, xalqaro muloqotni osonlashtirish va hujjat aylanishini tezlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, pandemiya davrida raqamlashtirishning ahamiyati yanada yaqqol namoyon bo'ldi. Masofaviy ish sharoitida hujjat almashinuvi to'liq raqamli muhitga ko'chdi, bu esa o'zbek tilida rasmiy yozishmalarning texnologik moslashuvchanligini oshirdi. Elektron platformalar orqali hujjatlarining barcha jarayonlari – tayyorlash, imzolash, yuborish va arxivlash – raqamli shaklda amalga oshirildi. Bu jarayon nafaqat davlat tilining zamonaviy axborot tizimlariga muvaffaqiyatli integratsiyalashganini ko'rsatdi, balki o'zbek tilining raqamli muhitda barqaror rivojlanishi va rasmiy ish yuritishda samarali qo'llanilishi uchun yangi imkoniyatlar ochdi. Shu bilan birga, ushbu tizimlarning yanada rivojlanishi uchun o'zbek tiliga moslashtirilgan dasturiy ta'minotlar va lingvistik resurslarni ko'paytirish, shuningdek, xodimlarning raqamli va til savodxonligini oshirishga qaratilgan doimiy ta'lim dasturlarini joriy etish zarurati dolzarb masalalar sifatida qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasida davlat tili sifatida o'zbek tilini barcha sohalarda keng qo'llash va mustahkamlash bo'yicha katta hajmdagi ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, raqamlashtirish jarayonida tilning qo'llanilishida bir qator jiddiy muammolar hali ham saqlanib qolmoqda[4: 497-501]. Ushbu muammolar asosan terminologik noaniqliklar, texnologik moslashuvchanlikning yetishmasligi, avtomatlashtirilgan tizimlarning sifati va mutaxassislarning til kompetensiyasi bilan bog'liq bo'lib, ular davlat tilining raqamli muhitda to'liq va samarali qo'llanilishiga to'sqinlik qilmoqda. Birinchi navbatda, terminologik muammolar o'zbek tilining zamonaviy raqamli muhitda aniq, to'g'ri va to'laqonli ifoda vositasi sifatida shakllanishiga sezilarli darajada xalaqit bermoqda. Yangi texnologiyalar, dasturiy ta'minotlar, sun'iy intellekt, axborot xavfsizligi va boshqa zamonaviy sohalariga oid atamalar ko'pincha ingliz yoki rus

tillaridan soʻzma-soʻz oʻzlashtirilmoqda. Bu atamalar oʻzbek tilida muqobil, milliy va meʼyoriy ekvivalentlar topish boʻyicha tizimli va izchil ishlar yetarli darajada olib borilmayapti. Natijada, rasmiy hujjatlarda, ish yuritish yozishmalarida va raqamli platformalarda “login qilish”, “screenshot yuboring”, “file yuklang” kabi yot tilda ifodalar keng tarqalmoqda[5: 497-501]. Bunday holat oʻzbek tili meʼyorlarining buzilishiga, tilning tabiiy rivojlanishiga putur yetishiga va noturgʻun, aralash til muhitining shakllanishiga olib kelmoqda.

Bundan tashqari, ushbu muammolar nafaqat tilning ichki sifatiga, balki raqamli tizimlarda oʻzbek tilining toʻgʻri va samarali qoʻllanilishiga ham salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Masalan, raqamli platformalar va dasturiy taʼminotlarda oʻzbek tiliga moslashtirilgan interfeyslar, terminlar va qoʻllanmalar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bu esa foydalanuvchilar uchun qulaylikni pasaytiradi va rasmiy yozishmalarda tilning yagona standartlariga rioya qilishni qiyinlashtiradi. Shu sababli, oʻzbek tilida standartlashtirilgan terminologik bazalarni yaratish, mahalliy dasturiy taʼminotlar va avtomatlashtirilgan tizimlarni rivojlantirish, shuningdek, mutaxassislarning til kompetensiyasini oshirishga qaratilgan tizimli choralar koʻrish zarurati dolzarb masalalar sifatida qolmoqda. Bu choralar oʻzbek tilining raqamli muhitda toʻliq funksional va milliy oʻziga xoslikka ega til sifatida rivojlanishini taʼminlashga xizmat qiladi.

Raqamlashtirish jarayonida oʻzbek tilining davlat tili sifatida samarali qoʻllanilishiga toʻsqinlik qiluvchi muammolar nafaqat terminologik masalalar bilan cheklanmaydi, balki texnologik, kadrlar malakasi va avtomatlashtirilgan tizimlarning sifati bilan bogʻliq bir qator jiddiy muammolarni ham oʻz ichiga oladi. Ushbu muammolar oʻzbek tilining raqamli muhitda toʻliq funksional va zamonaviy til sifatida rivojlanishiga xalaqit beradi.

Ikkinchidan, dasturiy taʼminotlarning oʻzbek tiliga yetarlicha moslashtirilmaganligi muhim toʻsiqlardan biridir. Hozirgi kunda matn tahrirlovchi yoki tekshiruvchi dasturlar (masalan, spellcheckerlar) oʻzbek tilining morfologik va sintaktik xususiyatlarini toʻliq taniy olmaydi. Natijada, rasmiy hujjatlar koʻpincha grammatik, orfografik va uslubiy xatolar bilan raqamli muomalaga kiritilmoqda[6]. Buning asosiy sababi, avtomatlashtirilgan tizimlarning oʻzbek tiliga toʻliq lokalizatsiya qilinmagani va tilning murakkab grammatik tuzilishini tahlil qila oladigan algoritmning yetishmasligidir. Bu holat hujjatlar sifatiga putur yetkazadi va rasmiy yozishmalarda til madaniyatining pasayishiga olib keladi.

Uchinchidan, mutaxassislarning til savodxonligi va raqamli texnologiyalardan foydalanish koʻnikmalari ham raqamlashtirish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Koʻplab xodimlar, ayniqsa yangi ish boshlagan yosh mutaxassislar, oʻzbek tilida rasmiy hujjatlar tuzishda tilning uslubiy va idoraviy meʼyorlariga rioya qila olmaydi. Notogʻri stilistik tanlovlar, noaniq yoki chalkash jumlarlar, rasmiy-idoraviy uslubdan chekinish kabi holatlar tez-tez uchraydi. Bu muammo xodimlarning til boʻyicha yetarli tayyorgarlikka ega emasligi va professional yozishma koʻnikmalarining kamligi bilan bogʻliq. Shu sababli, til savodxonligini oshirishga qaratilgan doimiy taʼlim va malaka oshirish dasturlari zarurati sezilmoqda.

Toʻrtinchidan, sunʼiy intellekt va avtomatik tarjima tizimlarining oʻzbek tilini yetarli darajada qoʻllab-quvvatlamasligi raqamli muhitda axborot almashinuvi sifatiga jiddiy taʼsir koʻrsatmoqda. Masalan, Google Translate, DeepL yoki shunga oʻxshash xizmatlar oʻzbek tilidagi murakkab grammatik tuzilmalar va kontekstual nozikliklarni toʻgʻri tarjima qila olmaydi. Bu esa rasmiy hujjatlarning notoʻgʻri yoki noaniq tarjima qilinishiga olib keladi, bu esa xalqaro muloqotlarda yoki rasmiy yozishmalarda jiddiy muammolar keltirib chiqaradi. Natijada, oʻzbek tiliga moslashtirilgan sunʼiy intellekt va tarjima tizimlarini ishlab chiqish zarurati yanada dolzarb boʻlib qolmoqda.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun tizimli va kompleks yondashuv talab etiladi. Avvalo, davlat miqyosida terminologiyani standartlashtirish va yangi atamalar yaratish boʻyicha maxsus institutlar faoliyatini kuchaytirish lozim. Shu bilan birga, oʻzbek tiliga moslashtirilgan dasturiy taʼminotlar va avtomatlashtirilgan tizimlarni ishlab chiqish, raqamli platformalarni lokalizatsiya qilish boʻyicha loyihalarni til siyosati bilan integratsiyalashish zarur. Bundan tashqari, davlat idoralari va tashkilotlarda ishlaydigan xodimlar uchun til savodxonligi va axborot texnologiyalari boʻyicha muntazam malaka oshirish dasturlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Bu dasturlar xodimlarning rasmiy hujjatlar tuzishdagi koʻnikmalarini rivojlantirish, til meʼyorlariga rioya qilishni taʼminlash va raqamli muhitda oʻzbek tilining samarali qoʻllanilishini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ushbu choralar oʻzbek tilining raqamli muhitda toʻlaqonli, aniq va zamonaviy til sifatida shakllanishini taʼminlaydi.

Xulosa. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi huquqiy maqomi qonuniy asosda mustahkam boʻlsa-da, uning raqamli muhitda toʻlaqonli va samarali qoʻllanilishi uchun hali koʻplab ishlarni amalga oshirish zarur. Raqamli platformalarda oʻzbek tilini texnologik jihatdan moslashtirish, avtomatlashtirilgan matn tahlili va tarjima vositalarini takomillashtirish, malakali til va IT mutaxassislarni tayyorlash, shuningdek, mavjud texnologiyalarni milliy til siyosati bilan uygʻunlashtirish orqali tilning raqamli muhitdagi pozitsiyasini mustahkamlash mumkin. Bu jarayon nafaqat tilning rasmiy ish yuritish va professional sohalaridagi rolini oshiradi, balki uning madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikka xizmat qilishini taʼminlaydi. Oʻzbek tilining zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uzviy integratsiyasi milliy oʻzlikni mustahkamlash, til madaniyatini yuksaltirish va global raqamli muhitda uning nufuzini oshirish uchun muhim omil hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023. – 48 b.
2. Oʻzbekiston Respublikasi “Davlat tili toʻgʻrisida”gi Qonun. – Toshkent. – 1989.
3. Akhmedov D. *Oʻzbek tilida ish yuritish asoslari*. – Toshkent: Fan va Texnologiya nashriyoti, 2022. – 152 b.
4. Ibragimov J.Y. Oʻzbek tili matnlarida soʻzlarning bevosita (kontakt) va bilvosita (distant) birikuvchilari // “Akademik Vohid Abdullayev va Samarqand adabiyotshunoslik maktabi taraqqiyoti” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – Samarqand, 2022. – B.428-436.

5. Ibragimov J.Y. O'zbek tili matnlarida so'zlarning bevosita (kontakt) va bilvosita (distant) birikuvchanligini dastlabki dasturiy modellashtirish. "Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: nazariya va amaliyot" nomli Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – № 28. 2022. – B.497-501.
6. Ergashev T.T. The semantic features of neologisms in English and Uzbek // Education, science and innovations in the development of information technology: problems and solutions. 15.11.2024 y.

Ish yuritishda raqamli texnologiyalarning o'rni

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilining O'zbekiston Respublikasining davlat tili sifatidagi huquqiy maqomi va zamonaviy ish yuritish jarayonlaridagi roli atroflicha tahlil qilinadi. Xususan, raqamlashtirish va texnologik rivojlanish sharoitida tilning rasmiy hujjatlar yuritishdagi funksional imkoniyatlari, ushbu sohada duch kelinayotgan muammolar hamda ularni hal etish yo'llari keng ko'lamda yoritiladi.

Kalit so'zlar: ish yuritish, raqamlashtirish, texnologik platformalar, sun'iy intellekt, o'zbek tili.

Роль цифровых технологий в делопроизводстве

Аннотация. В данной статье подробно анализируется правовой статус узбекского языка как государственного языка Республики Узбекистан и его роль в современных процессах делопроизводства. В частности, в условиях цифровизации и технологического развития будут широко освещены функциональные возможности языка в ведении официальной документации, проблемы, стоящие перед данной сферой, и пути их решения.

Ключевые слова делопроизводство, цифровизация, технологические платформы, искусственный интеллект, узбекский язык.

The role of digital technologies in record keeping

Abstract. This article analyzes in detail the legal status of the Uzbek language as the state language of the Republic of Uzbekistan and its role in modern record-keeping processes. In particular, in the context of digitalization and technological development, the functional capabilities of the language in the management of official documents, the problems facing this sphere, and ways to solve them will be widely covered.

Key words: paperwork, digitalization, technological platforms, artificial intelligence, Uzbek language.

NEMIS TILIDAGI AKKUSATIV VA DATIV KELISHIGI BILAN QORAQALPOQ TILIDAGI TABIS VA BARIS KELISHIKLARINING QIYOSIY TIPOLOGIYASI

Abishova G. M.

Qoraqalpoq davlat universiteti

Tilshunoslikning barcha sohasi qiyosiy metodga suyanadi va shu asosda o'rganiladi. Aksariyat hollarda mutaxassislar qiyosiy metodni til o'rganish va til materiallarini tadqiq qilish uchun universal usul deb hisoblaydilar. Haqiqatdan ham, bu fikr isbot talab qilmaydigan aniq isbot ekanligi o'z-o'zidan ko'rinib turibdi. Sababi qiyosiy metod faqatgina nazariy emas, balki amaliy ahamiyatga ham egadir. Metodistlar (uslubiyatchilar) va tarjimonlar uchun uning amaliy ahamiyati beqiyosdir [4].

Qardosh bo'lmagan tillar tuzilishini bir-biri bilan qiyoslab o'rganishning kengayib borish sabablarini professor R.Yu.Barsuk beshta omil bilan bog'lasa [2]. professor J.B. Bo'ronov sakkizta omilini asos qilib ko'rsatadi [3]. Ushbu omillar fikrlarining o'xshash tamonlari shundaki, ularning ikkalasida ham oxirgi ornlarda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortib borayotganligiga alohida e'tibor beriladi va asosiy omillardan biri deb ko'rsatiladi.

Lingvistika sohasida ikki yoki undan ortiq tillarni o'rganishga oid (ingliz va o'zbek, ingliz, o'zbek va rus, ingliz va rus, ingliz va qoraqalpoq, nemis va qoraqalpoq, fransuz, o'zbek va rus hamda boshqalar) ilmiy ishlar mavjud. Har xil oilaga mansub tillarni, shu jumladan, nemis va qoraqalpoq tillarini qiyosiy o'rganishning nazariy ahamiyati: "qiyoslanayotgan tillar tizimini chuqur anglab yetish, qiyoslanayotgan tillarga oid bilimlarning ortishi hisoblanib, gipotetik universiyalarning to'g'ri ekanligini isbotlashdan iboratdir" [3].

Nemis va qoraqalpoq tillari orasida ma'lum bir mushtaraklik bo'lmasa ham ularni qiyosiy o'rganish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Chunki, mazkur tillar ustida qiyosiy tipologik tadqiqotlar juda kam. Ayniqsa bu fikr tillarning grammatik qurilishida asosiy o'rinlardan birini egallaydigan ot kategoriyasiga ham tegishlidir.

Qoraqalpoq tilida kelishiklar kategoriyasi to'g'risida e'tiborga loyiq tadqiqotlar yurgizilgan. Qoraqalpoq tilshunos olimlaridan biri A.Qidirboev 1944 yili o'zining nomzodlik dissertatsiyasini qoraqalpoq tilida kelishik kategoriyasiga bag'ishlagan. Ilmiy izlanishlarining natijasida, olim qoraqalpoq grammatikasida oltita emas, balki yetti kelishik mavjud ekanligiga ishonitirishga harakat qilgan. Yettinchi kelishikni yordamchi (komekles) deb atab, uning grammatik shakllari sifatida *menen, benen, penen (qalem menen, at penen, joldas penen)* yordamchi so'zlarini ko'rsatadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, nemis tilidagi instrumentalist, shuningdek, qoraqalpoq tilidagi, A.Qidirboev ko'rsatganidek, ko'makdosh (kompleks) kelishiklari shakli va funktsiyalari tamonidan bir-biriga juda o'xshash. Demak, yuqorida aytilganlarga xulosa sifatida shuni aytish joizki, hozirgi zamon nemis tilida to'rtta, qoraqalpoq tilida esa oltita kelishik mavjud. [5].

Ular qo'yidagilar:

Nemis tilida	Qoraqalpoq tilida
1. Nominativ - Nominativ.	I. Grammatik kelishiklar. 1. Ataw - (bosh) kelishigi
2. Genitiv - Genitiv.	2. Iyelik - (qaratqich) kelishigi.
3. Dativ - Dativ.	3. Tabis - (tushum) kelishigi.
4. Akkusativ - Akkusativ.	II. Makon kelishiklari 1. Baris - (yo'nalish) kelishigi.

	2. Shıǵıs - (chiqish) kelishigi.
	3. Orın - (o'rin-payt) kelishigi.

Ishimizning mohiyatidan kelib chiqib nemis ham qoraqalpoq tillaridagi kelishiklar nomlarini o'zgartirmasdan, ularning har bittasi o'z tilida qanday bo'lsa shunday atashni ma'qul topdik, vaholanki kelishik nomlari har bir tildagi grammatik atamalar bo'lib sanaladi, shuningdek, har ikkala tilning ham koloriti saqlangan hisoblanadi.

Akkusativ – Wenfall nemis tilida, ya'ni to'rtinchi kelishik bo'lsa, qoraqalpoq tilidagi analogi – tabis kelishigi ham shunday o'rinni egallaydi. Nemis tilida otning birlik akkusativ formasining yasalishi uning rodiga va qaysi turlanishiga bog'liq. Мужской rod otlarning ataw kelishikdagi *der* artikel akkusativda *den* shakliga aylanadi. Ataw kelishikda *der Lehrer* akkusativda *den Lehrer* formasiga kuchadi.

Женский rod otlarning ataw kelishik va akkusativ kelishiklari ham xuddi *средний* rod otlari kabi bir hil formada bo'ladi.

Ataw kelishikdagi *die Frau* akkusativda ham *die Frau* shaklida qolaveradi. Женский roddagi otlarning ataw kelishik yoki akkusativda ekanligini aniqlashda ham xuddi yuqoridagidek gapda so'zlarning tartibi, kontekst yordam beradi.

Qoraqalpoq tilida tabis kelishigi formasi –di,-di, -n,-ni, -ni, -ti, -ti affiksleri bilan ishlatiladi. Tabis kelishagidagi ot affiksiz vositasiz to'ldiruvchi bo'lib keladi va hamisha o'timli fe'llar bilan ishlatiladi: *Ol bul kitaptı satıp aldı.*

Tabis kelishigidagi otlar hozirgi qoraqalpoq tilida kuyidagi hollarda qo'llaniladi:

1. Tabis kelishigidagi otlar o'zining aniqlovchisiga ega bo'lganda, affiksli qo'llaniladi. Masalan: *Sen ana attı ákelip shanaǵa jek.* (K.Sultanov).

2. Tabis kelishigidagi ot egalik affiksini olgan bo'lsa, ilmiy ma'nolarda affiks bilan bog'liq bo'lgani uchun buni morfologik faktor deb yuritadi.

Ǵúnamdı keshiriñler, ólsem xanlar qábiristanına jerleñler -dep ótinish qıladı (T. Qayıpbergenov «Qaraqalpaqnama»)

Siz qolıńızǵa sumkańızdı alıńız. Al, jaqpasa zorlama, súygenin tapsın. (O.Ayjanov «Aral qushaǵında»)

3. Inson yoki jonli jonivorlarning tana a'zolarini bildiruvchi so'zlar tabis kelishigida kelsa, unda ham otlar egalik affiksini qabul qilgan bo'lishi mumkin: *Olar jetip ekew ara bir ǵazdıń kózlerin shaqtı.* (T.Qayıpbergenov «Qaraqalpaqnama»)

4. Tabis kelishigidagi ot bilan kesim (feyl) orasida boshqa so'zlar kelganda:

- *Bári bir, biziń awır jaslıǵımız adamlardı baxıtlı qılǵanı ushın heshtehege ókinbeymiz, - deytuǵın edi.*

5. Otlashgan boshqa so'z turkumlari tabis kelishigida kelsa:

- *Ullı xanıımız, qulaq salsańız bir baqlawımdı ayıp keteyin.* (T.Qayıpbergenov «Qaraqalpaqnama»)

6. O'zakdosh so'zlar takrorlanib, ulardan ikkinchisi vositasiz to'ldiruvchi bo'lib kelsa, o'sha tabis kelishigining affiksini qabul qiladi: *Balıqshı balıqshını uzaqtan kóredi.*

7. Tabis kelishigidagi otga logik urg'u tushib, uni ta'kidlash lozim bo'lganda, u affiksler bilan qullaniladi: *Xalıq seni emes, Tóremurat suwpinı qádir tutadı.* (T. Qayıpbergenov «Qaraqalpaqnama»)

8. Tabis kelishigining affiksi uyushib kelgan otlarning har qaysisiga yoki ularning eng keyingisiga qushilishi mumkin: *Bizler haywanat baǵında pildi, ayıwdı, jolbarıstı hám qasqırdı kórdik. Bizler haywanat baǵında pil, ayıw, jolbaris hám qasqırdı kórdik.*

Bu ikkala holat ham adabiy til normasiga mos tushadi. Ulardan qaysi birining ishlatilishi so'zlovchiga, shuningdek uning uslubiga, ta'kidlashiga bog'liq.

Tabis kelishigi doim belgisiz ishlatiladigan konstruksiyalar turg'un bog'lanmalarga, frazeologik birliklarga to'g'ri keladi: *at qoyıw, nan jew, sóz salıw, dánil keltiriw, qas qaǵıw, kóz jumıw, awız bastırıw, shay ishiw, duz tatıw, telefon qurdıırıw, pal ashıw, leksiya oqıw, daw sheshiw, soraw beri w.*

Masalan: *Oyda joq jerden Ernazar túrgelip sóz soradı – da: Bekimbet oǵan sóz berdi.* (O.Ayjanov «Aral qushaǵında»).

Demak, tabis kelishigining belgisi yoki belgisiz ishlatilishi faktorlarga bog'liq ekan. Ana shu yuqoridagi turg'un bog'lamalarga aylangan so'z birikmalaridagi belgisiz formani, agar kerak bo'lib qolsa, ta'qiqdash lozim bo'lsa yoki yuqorida aytilgan faktorlar bo'yicha belgisi ham ishlatilishi mumkin bo'ladi: *«Kimseń?» degen sorawdı eń áwele ózine ózi qoyalmaǵan adam ózgeniń juwabına qanaat qılalmaydı.*

«..., eplep tamaǵıńdı tabarsań», deytuǵın edi ákem. (T.Qayıpbergenov «Qaraqalpaqnama»)

Tabis kelishigidagi o'zini egalik affiksiz ishlatiladi, kelishik affiksini ham olmaydi: «eplep tamaq tabarsań» Bu ham adabiy normaga to'g'ri keladigan hodisa. Akkusativ va tabis kelishiklari faqat fe'l tomonidan, shunda ham o'timli (yoki utimlilashgan) fe'l tomonidan boshqariladi: *den Brief schreiben – xattı jazıw, das Buch lesen – kitaptı oqıw, einen Brief bekommen – xat alıw, ein Haus bauen – jay salıw* va boshqalar. Nemis tilida fe'llar akkusativ kelishigidagi to'ldiruvchini talab qiladi. Bunday tuldiruvlar vositasiz to'ldiruvchi (das direkte Objekt) deb yuritiladi. O'timli fe'llar bilan bunday to'ldiruvchining ifoda etilishi qoraqalpoq tiliga ham xos xususiyat. To'ldiruvchining bu turi tog'ri to'ldiruvchi deyiladi. O'timsiz fe'llarga esa o'zi bog'lanib kelgan otning akkusativ (tabis) kelishigida kelishini talab qilmaydi. Demak, akkusativ (tabis) kelishigidan boshqa kelishiklar bilan yasaladigan to'ldiruvchi vositasiz emas, balki vositali yoki predlogli to'ldiruvchi bo'lib keladi.

Nemis tilida eng ko'p qo'llanadigan o'timli fe'llarga quyidagilar kiradi: *abärgern, abbaden, abbauen, abfüllen, abbegen, ablegen, adoptieren, alarmeieren, anführen, anziehen, messen, mitteilen, nähern, ordnen, rammen, raten, sammeln, schenken, schicken, übersetzen* u.a.

Nemis tilida dativning Wemfall deb atalishining o'zi ham uning ma'nolarining, qullanishining sintaktik vazifasining cheklanganligini ko'rsatadi.

Qoraqalpoq tilida ham shunday fe'llar mavjud bo'lib ular o'zlaridan keyingi yoki o'zlari bog'lanib keladigan ot-so'zlarning baris kelishigida turishini taqozo qiladi. Ketiw, bariw, kiriw, (qayaqqa?), aytiw, jiberiw (kimge?), qoyiw (qayaqqa?, kimge?), beriw (nege?), batiw (nege?), tapsiriw (qayaqqa?, kimge?), satiw (kimga?, neni?), bay boliw (nege?), jarli boliw (nege?), ashiq boliw (kimge?), oqiw (neshege?), megzew (kimge?, nege?), uqsas boliw (kimge?) xizmet etiw (kimge?, nege?), va boshqalar.

Agar biz yuqoridagi fe'llarni nemischaga o'girib ularning ma'nosining boshqarishlarga nazar soladigan bo'lsak bataman dativga yaqinlashmaydigan xolatlarni ko'ramiz: Ulardan ayrimlarini e'tiborningizga tavsiya qilamiz: kiriw - t.k = eintreten in= Akk, qoyiw + t.k. = legen +in, auf +Akk, kesent beriw+t.k = stören+Akk, juwap beriw + t.k = antworten +Akk, asig'iw +t.k. = sich beeilen nach +Dat va boshqalar.

1. Baris kelishigidagi so'z orqali harakatning biron shaxsga yoki obyektga qaratilganligini anglatuvchi so'z bo'lsa o'rin holi vazifasida keladi:

Men bum mug'allimge aytim. Ich habe das dem Lehrer gesagt.

Ol dostuniki ketip baratir. Er geht zu dem Freund.

Qonuraw qagildi, mug'allim klasqa kirdi. Es klingelte, der Lehrer trat in die Klasse ein.

Misollardan kúrinib turgandek birinchi gapdagi dativ-baris kelishiklaridagi so'z ikkala tilda ham birdek, birdek sintaktik vazifani bajaradi. Keyingi gaplarda nemis tiliga predlogli birikma orqali ugiriladi. Ma'no va sintaktik funktsiyasi nuqtay nazarda esa ular uxshash

2. Narsa-predmetning nimaga, kimga atalganligini ko'rsatish uchun ham qoraqalpoq tilida baris kelishigidagi ot ishlatiladi. Bunday holatda ham ko'pincha to'ldiruvchi vazifasini bajarib keladi, nemis tilida ana shunday ma'no predlogli birikmalar orqali ifodolanadi.

Malga aziq – das Futter für Vieh, *jamiyetke payda* – nützlich für die Gesellschaft, *tumawga em* – Mittel gegen die Grippe, *Siyirdi azanda Aydosqa berip jiber* – Gib morgen die Kuh dem Aidos über.

3. Orin ma'nosini bildiruvchi otlar (ay, kún, saat, jil, minut) baris kelishigida kelib belgili bir vaqtni anglatadi va orin holi vazifasini bajaradi: Predlog bilan (Jynalis 2-fevralga qaldirildi) keladigan ot akkuzativda turadi. Die Sitzung wurde auf den 2. Februar verhoben.

Men budilniki altuga qoyaman. Ich wurde den Wecker auf sechs stellen.

Búgingi – Für heute, zu heute, *eki kúnge* - für zwei Tage und andere.

4. Baris kelishigidagi otlar ko'pincha ish-harakattan ko'zlagan maqsadni anglatadi va gapda maqsad holi vazifasida keladi. Baris kelishigining bu ma'nosi nemis tilida zu, für predloglari bilan birgalikda keladigan otlar bilan ifodolanadi.

Anga shig'iw – zur Jagd gehen. *Estelikke* - zum Andenken, zur Erinnerung. *Sizlerge járdemge keldik* (K. Sultanov). Wir sind euch zur Hilfe gekommen.

5. Baris kelishigidagi otlar sanoq sonlar bilan qo'llanilib narsa – predmetning bahosini anglatadi, gapda miqdor holi bo'lib keladi. Bu ma'no nemis tilida yuqoridagilar kabi predlog + ot (akkuzativda) birikmasi bilan beriladi: Masalan: *Bala kitapti 500 somga satip aldi.* Der Knabe hat das Buch für 500 sum gekauft. *Ol kúnine eki téngege jumis isleydi.* Er arbeitet einen Tag für zwei Tenge

6. Narsa – predmetlarning bir belgi, xususiyatining xarak-terli ekanligini ko'rsatish uchun ham otlar baris kelishigida qo'llaniladi. Bunday ma'no nemis tilida predlogli birikmalar orqali ifodolanadi: *Respublikamız paxtağa, salıǵa bay.* Unsere Republik ist an Baumwolle, Reis reich.

7. Baris kelishigidagi ot orqali qoraqalpoq tilida ish – harakatning, holatning sodir bo'lish sababi ifodolanadi va u nemis tiliga predlog + ot birikmasi orqali o'giriladi: *Kelgeniñe quwanıp atırman.* Ich bin froh für dein Ankommen.

E.Schendels absolyut akkusativning uchta modelini ko'rsatadi [1]. Ular quyidagilar:

1. Akkusativdagi ot +predlog bilan kelgan ot (ko'pincha dativda) (S_{AK} + P_r + S_d): Sie betrachtete ihn gerührt, Tränen in die Augen. *Hayal oğan tásirilenip qaradı, kózlerinde jas.*

2. Akkusativdagi ot+ sifat (sifatdosh II) (S_{AK} + Adj / Part II) Er stand vor uns, weißlich verstaubt das Gesicht und die Lippen von der ewigen Hitze rissig und wund. *Ol biziñ aldımızda turdı da, júzi appaq shań, erinleri bolsa udayı ıssıdan jarılıp hám qanap ketken.*

3. Akkusativdagi ot + ravish / olmosh (S_{AK} + Adv / Pron): Er saß an seinem Fensterplatzy, vor sich das aufgeklappte Tischchen. *Ol ayna aldında otırǵan edi, aldında jynalatuǵın stolsha.*

Yuqorida berilgan nemischa gaplarni biz iloji boricha strukturasi o'zgartirmasdan qoraqalpoqchaga tarjima qilishga harakat qildik. Bunday strukturalar turkiy tillarda ajratilgan gap bo'laklari deb yuritiladi. Lekin qoraqalpoq tilida ajratilgan to'ldiruvchi juda oz qo'llaniladi. Shu sababdan ham qoraqalpoq tili grammatikasi bo'yicha chop etilgan manbalarda bu sohada so'z kam yuritilgan.

Strukturaning qoraqalpoq tilidagi varianti tabis emas ataw kelishigida kelgan. Bunday gaplar qoraqalpoq tilida ko'pincha boshqacha strukturada uchiraydi: *Hayal oğan tásirilenip, kózlerinde jas penen qaradı. Ol shlyapasın qolına uslap kirip keldi.* Keyingi misoldan ko'rinib turgandek, bazi hollarda akkusativdagi otning ma'nosi qoraqalpoq tilida ham tabis kelishigida ifodolanadi, biroq gaplarning tu'zilishi birdek emas.

Xullas, nemis tilidagi akkusativ qoraqalpoq tilidagi tabis kelishiklari orasida tipologik uxshashliklar, har bir tilning o'z xususiyatidan kelib chiqadigan farqlanishlari mavjud.

ADABIYOTLAR

1. Schendels E. Deutsche Grammatik. – Moskau, 1988.

2. Барсуқ Р.Ю. Основные проблемы обучения иностранным языком в национальной школе. – Баку, 1970.
3. Бурунов Ж.Б. Инглиз ва ўзбек тилларининг қиёсий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973.
4. Ивченко П.П. Личностный подход к отбору дополнительного материала при обучении немецкого языка. Т. V: Иностранные языки в школе. №6-1999.
5. Курбанбаев А. Сопоставительная грамматика немецкого и каракалпакского языков (морфология). – Нукус, 1989.

Nemis tilidagi akkusativ va dativ kelishigi bilan qoraqalpoq tilidagi tabis va baris kelishiklarining qiyosiy tipologiyasi

Annotatsiya: Nemis va qoraqalpoq tillarida, ularning turli tillar oilasiga mansub bo'lishiga qaramasdan, otlarda kelishiklarning mavjudligi tipologik qiyoslanayotgan tillar orasidagi o'xshashlik bo'lsa, ularning son jihatidan farqlanishi har birining o'ziga xos bo'lgan xususiyatidan kelib chiqadigan nomutanosiblik bo'lib hisoblanadi. Ushbu maqolada nemis tilidagi akkusativ va qoraqalpoq tilidagi tabis kelishiklarining qiyosiy tipologiyasi o'rganilgan. Unda akkusativ va tabis kelishiklarining o'xshash va o'ziga xos jihatlari solishtirilib, nemis tilidagi misollar qoraqalpoq tilida taqqoslab ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: qiyosiy tipologiya, akkusativ kelishigi, tabis kelishigi, dativ va baris .

Сравнительная типология согласования в винительном и дательном падежах немецкого языка и согласования табиса и бариса в каракалпакском языке

Примечание: В немецком и каракалпакском языках, несмотря на принадлежность к разным языковым семьям, наличие согласования в существительных является сходством между сравниваемыми языками, в то время как их численное различие представляет собой дисбаланс, возникающий из-за специфических особенностей каждого из них. В данной статье изучается сравнительная типология согласования в винительном и табисовом падежах немецкого и каракалпакского языков. Сравниваются сходные и специфические аспекты согласования в винительном и табисовом падежах, а также сравниваются примеры из немецкого языка с каракалпакским.

Ключевые слова: сравнительная типология, согласование в винительном падеже, согласование табиса, дательный и барис.

Comparative typology of accusative and dative agreement in German and tabis and baris agreement in Karakalpak

Annotation: In German and Karakalpak, despite their belonging to different language families, the presence of agreement in nouns is a similarity between the typologically compared languages, while their numerical difference is an imbalance arising from the specific features of each. This article studies the comparative typology of accusative and tabis agreement in German and Karakalpak. It compares the similar and specific aspects of accusative and tabis agreement, and compares German examples with Karakalpak.

Key words: comparative typology, accusative agreement, tabis agreement, dative and baris.

ISAJON SULTON HIKOYALARIDA BADIY KONFLIKT TURLARI VA G'OYAVIY-PSIXOLOGIK IZLANISHLAR

Urazbayev G'.K.

Qoraqalpoq davlat universiteti

Har bir ijodkor poetik izlanishlarida badiiy konflikt masalasi alohida o'rin tutadi. Unda asar ishtirokchilari, ularning hayoti, xarakter qirralari, obrazlilik, badiiy tip, syujet va kompozitsiya masalasida aniq maqsad sari yo'naltiriladi. Badiiy asarda ishtirok etgan eng kichik zarragacha o'zining zimmasidagi vazifasini to'raligicha bajarishi shart. Aks holda, ijodkor tanlagan g'oya o'zini oqlamaydi. Shunday asarlar bo'ladiki, unda bitta yoki ikkita epizodik xarakterdagi voqelik aks etishi mumkin. Qolgan qismlarda esa yozuvchi (rovij) nutqi namoyishi ro'y beradi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, A.Qahhor hikoyalarida voqeaga aralashgan buyumlar ham nozik did bilan ma'lum vazifani bajaradi. Qahramonlarning ruhiy holati: to'lg'onishlari, iztiroblari, fojeaviy qismatidan so'z yuritganda, ixcham detal ham qandaydir rol ijro qiladi. Bu kabi holatlar juda ko'p. J.London, O.Balzak singari yozuvchilarda voqelik tun va olis shimol yog'dularida, bo'ri, hayvonot dunyosi bilan o'zaro uyg'un holatda tasvirlansa, L.Tolstoy ijodida inson qismati bilan tipologik tartibda voqelik namoyon bo'ladi. E.Xeminguey ijodida dialogik munosabat voqelikni marom bilan ifoda etilishini ta'minlaydi. Sh.Xolmirzayev, O.Umarbekovlar ijodida rus adabiyotining ayrim ta'siri saqlanib qolganligini kuzatish qiyin emas. Isajon Sulton ijodida mifopoetik badiiy tafakkur salmoqdor o'rin egallasa, L.Bo'rixonda kinoyaviy-parodik usul o'ziga xosligi yuzaga chiqadi. Isajon Sulton voqelikni ancha tartibli harakatlantirsa, L.Bo'rixon voqelikni aralash-quralash holatda tasvirlash yo'lidan boradi. Isajon Sulton ijodida J.Rumi, A.Navoiy singari buyuk mutafakkirlar ijodidan ilhomlanish, hayotbaxsh obrazlardan andoza olish holati ko'zga tashlansa, ba'zi o'rinlarda G'arb adabiy-estetik tafakkuri salmoqli o'rinni qamraydi. Natijada adib hayot haqidagi eng tugal xulosasini anglatishga keng va qulay yo'l ochadi.

Badiiy asarda konfliktning uch turini ajratib ko'rsatish odat tusiga kirdi:

1. Xarakterlararo.
2. Qahramon va muhit.
3. Ichki (psixologik) konflikt.

Yozuvchi Isajon Sulton romanlarida badiiy konfliktga aloqador nimaiki sodir bo'lmasin, rivoyat hamda mifologik nuqtayi nazardan qayta ishlashni eng birlamchi vazifa deb biladi. "Ozod" romanida aks ettirilgan 3 aks (akslar falsafasi)da "Toshbaqa bilan Chayon", "Qarg'a", "Murtad" nomli metarivoyatlar romanni yaxlit bir kompozitsiyada birlashtirib turish uchun syujet liniyalariga kiritib yuborilgan. Bu hikoyatlarda badiiy konfliktning ikkinchi va uchinchi shaklini uchratish mumkin. Shuningdek, badiiy konflikt haqida gap borganda, albatta, badiiy psixologizmni ham yodda tutmoq joiz. Chunki badiiy konfliktning tagzami xarakter ruhiy holati, uning ichki iztiroblari, fojeasi, qismati, taqdiri yotadi.

L.N.Tolstoy badiiy konflikt haqida "San'at hamisha qarama-qarshiliklar bo'lgandagina maydonga keladi, bu kurashning yo o'zginasi tarzida yoki kurashning in'ikosi tarzida bo'ladi..."[1.287], deb yozgan edi. Haqiqatan ham, har

qanday to'qnashuvning ro'y berish vaqti, uni yuzaga keltiruvchi ijtimoiy omillar sabab va oqibat birligida namoyon bo'ladi. Shuningdek, "Konflikt" lotincha "ixtilof", "to'qnashuv" degan ma'nolarni anglatadi. Konflikt butun asar syujeti va mazmunining yo'nalishini ta'minlaydi. Badiiy konflikt nasriy asarda keng turda, matn tarkibining barcha bo'g'inlarida ro'y berishi mumkin. U bir vaqtning o'zida syujet va kompozitsiyaning uyg'unlashuviga zamin yaratsa, ikkinchidan, muallif maqsadining hal qilinishi uchun muhim estetik kategoriyadir. Badiiy ijod ruhiy-psixologik jarayon bo'lib, uni batamom tushunishi yoki tushuntirib berish imkonsiz. Badiiy so'zning vazifasi har doim insonni tushuntirishdan iborat bo'lgan. Buning tasdig'ini "Avesto", qadimiy bitiktoshlar, xalq dostonlari va ertaklar, "Qur'oni karim", hadis, keyingi asrlarda yaratilgan badiiy ijod namunalari ko'rish mumkin.

"Qur'on karim"da inson psixologiyasiga oid juda muhim qaydlar keltirilgan. Insonning o'z-o'ziga zulm qiluvchi tabiatga egaligi, u o'z holini o'zgartirmaguncha, ahvol-ruhiyasi o'zgarmasligi, inson o'z-o'zini inkor etuvchi ekanligi ta'kidlangan. Mazkur ilohiy kalomlar bugun psixologiya fani tomonidan to'la tasdig'ini topgan.

"Alpomish" dostonida Murodtepa chiqishga ahd qilgan Alpomishning ikkilanishlar to'la o'ziga qaratilgan monologi keltirilgan. Qahramon ruhiy holatiga xos bo'lgan bunday ikkilanishni Sh.Turdimov quyidagicha izohlaydi: "Epos syujeti xalqning ko'ngil mulkida pishib yetiladi, tilga ko'chadi. Bu yerda hukmbardor – xalqning ruhi. "Alpomish" buning tasdig'i"[2.29]. Demak, xulosa qilib aytganda, badiiy psixologizm insonning ichki dunyosi, qalb tovlanishlari, hissiyotlari, tuyg'ulari olamiga aloqador ruhiy hodisa hisoblanib, uning mazmunida adabiy-estetik ma'no mujassamlashgan bo'ladi. Badiiy psixologizm nafaqat adabiyotshunoslik, balki falsafa, psixologiya, etika, estetika fanlarga ham aloqadorlik kasb etadi. Shu sababli ham badiiy psixologizmni fanlar kesimida tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Ruhiy dunyoda "men" shakllanmagan ekan, u yerda kultlar mavjud bo'ladi va bu kultlar insonni ma'nan mutelikda ushlab turadi; miflardagi qahramon maqsadga erishishda xudolar, yovuz ruhlar, dev-u jinlar to'siq bo'lgani kabi uning "men"ga intilishini har xil jimjima, sarob, umidsizliklar bilan to'sib turadi, o'z kuchiga bo'lgan ishonchni yemirib tashlaydi. Inson ichidagi kult o'zlariga xudo yasab olgan ilk ajdodlarning ruhiy dunyosidan kam farq qiladi, garchi uning aqli, ongi ilk ajdodiga nisbatan keskin farq qiladi[3.146]. Aytish joizki, mazkur ichki "men"ga tayanish, uni har tomonlama idrok qilish yozuvchi uchun o'ta murakkab, ijodiy, aqliy, hissiy-emotsional izlanishni taqozo qiladi. Badiiy xarakter yaratilar ekan, u yerda, demak, badiiy konflikt ham, psixologik vaziyat ham birga tug'iladi. "Xarakter yaratish jarayonining o'ziga esa uning o'ta darajada sirli bo'lgan tomonidan yondashish maqsadga muvofiqroqdir, ya'ni qayta yaratish tomonidan, biografiya tomonidan yondashgan ma'qul..."[4.82], deb yozadi Jon Golsuorsi. Bunday iqtibosni hikoya matni timsolida aniqlash lozim:

"Bibi Salima osmonga qarasayam, suvlarga qarasayam erta bahorda Xudoga aytgan gaplari esiga tushib, xijolatdan beti lov-lov yonib ketaveradi.

"Xotin kishiman-ku, har xil gaplarni gapiraveraman-da", deydi o'zini oqlab. Keyin sidqidildan yolvorib tavba qiladi: "Shayton tilimga soldi-da. Bo'lmasa. U gaplarni aytarmidim? Senga-ya?"

Hammasini o'zing shohidsan-ku, men bo'lsam, xuddi malomat qilganday gapiribman. Attang! Sidqidildan tavba qilyapman, ishqilib, o'zing kechirgin...

Sababi – yo'qchilik-da, Yo'qchilik bo'lmasa unaqa dermidim?"

Shunday deydi-yu, erta bahordagi o'sha tongni eslab, battar xijolat bo'ladi.

Erta bahorda erining beli og'rib, yotib qoluvdi. Xudo ro'zg'orni rizqini erkakdan berar ekan. Bir-ikki hafta o'tib-o'tmay, hamma narsani tagi ko'rindi-qoldi. Un tugadi, sabzavot adoqlab, yog' oxirladi. Nima qilsam ekan deb, boshi qotdi Bibi Salimaning. Ota betob bo'lsa, bolalar ham dovdirab qolishar ekan"[5.27].

Mazkur hikoyada badiiy konfliktning uchinchi ichki (psixologik) turini uchratdik. Unda Bibi Salima ismli onaizorning farzandlari va eri uchun kuyib-yonishlari, qahatchilik paytidagi qiynalishlari, qishloq ahli orasida mehnatkashligi, eriga sadoqati kabi o'nlab insoniy fazilatlar bilan o'rnak bo'ladigan jihatlari tahlil qilinadi. Bibi Salima har bir mehnatning tagida rohat-farog'at borligini, osoyishta kunlar hali hammasi oldinda ekanligiga o'zini ham, erini ham, farzandlarini ham ishontirib yashaydi. Bu borada ro'zg'or uchun tinimsiz mehnat qiladi. Oddiy qishloqdan boshqa makon-u hududni ko'rmagan, qo'llari mehnatdan qabargan onaning betimsol xarakteri yozuvchi diqqat-markazidan sira ham uzoqlashmaydi. Har bir jumla, epizodda ayol vasfiga badiiy chizgilar beradi. Shunday vaziyatga tushgan ona qalbini o'rtayotgan iztiroblarga, yo'qchilik fojiasiga giriftor bo'lgan oila taqdiriga oshno tutinadi. O'quvchi ham beixtiyor ana shu tarang vaziyatda ayolning dard-u tashvishiga hamroh bo'ladi. Hayotidan mamnuniyat tuyib yashayotgan eldoshlarini ham duo qilishda davom etadi. Inson ichki irodasini fojiaviy yakun topishidan asrab-avaylagan yozuvchi maqsadi uning taqdiriga yakun yasash emas, aksincha, ulkan muhabbati bor insonlarga muzaffar bo'ladi, degan eng ezgu g'oyani ifodalashdir. Syujet qismlarida bayonchilik holati kuzatilsa ham, yozuvchi o'z oldiga qo'ygan rivoya texnikasi orqali vaziyatni tugal yechim bilan xotimalashga erishgan. Ushbu hikoyada psixologik konflikt (shaxs irodasi) sinovida ro'y beradi. Odamzod turmush tarzida uchrab turadigan ko'ngilsizliklar qahramon irodasini sinovdan o'tkazadi. Bu sinovning mohiyatida muvaffaqiyat mavjud bo'lib, o'g'il-qizlarini tarbiyalashda ham, yer chopib, dehqonchilik qilishda ham chin o'zbek ayolining matonatli mehnati aks ettiriladi. Yozuvchi bir ayol timsolida millat ayollaridagi jo'mardlikni, rahm-shafqatni, chinakam olijanob tuyg'ulari bilan hayot kechirishga bel bog'lagan mushtipar singillarimiz xarakteriga badiiy chizgilar beradi.

Psixologik tahlil imkoniyatlari haqida so'z yuritgan H.Umurov "Psixologizmning formalari turli-tuman bo'lganidek, uning portret, dialog, monolog, tush, psixologik timsollar, hissiy harakatlar, peyzaj, gallyutsinatsiya kabi poetik vositalari ham rang-barangdir. Ularning har biri qahramon ichki dunyosining yashirin sirlarini oshkora qilishda yozuvchiga qo'l keladi"[6.34], deya aniqlik kiritadi. Bu o'z navbatida, Isajon Sultonning "Uzuk", "Shamolli kecha", "Mansub-1984", "Yusuf va Zulayho" singari hikoyalarida yanada tipiklashgan. Ayniqsa, "Yusuf va Zulayho"

hikoyasida Yusufning pok va samimiy muhabbati, qahramonning oydin umidlari, psixologik tarang vaziyatda ham o'ziga bo'lgan pokdomon ishonchini to'laqonli ochib berilgan.

Psixologizmning ikki xil shakli I.V.Straxov tomonidan ajratib ko'rsatilgan edi: "Psixologik tahlilning asosiy formalarini xarakterlar tasvirining "ichki" – harakatdagi shaxslarning ichki dunyosini ularning ichki nutqlari, xotira obrazlari va tasavvurlari ko'magida badiiy ifodalash; "tashqi" – yozuvchining nutqni, nutq orqali ifodalashning o'ziga xos xususiyatlarini, mimika va psixikaning boshqa tashqi ko'rinishlarini ruhiy tahlil qilishi kabilarga ajratish mumkin"[7.14]. Isajon Sulton o'z ijodida ham ijodkor dunyoqarashi, ham qahramon nutqi, ham roviy nutqi aralashib, sinkretik qonuniyatni ilgari surishga o'zida kuch topadi. Demak, har qanday vaziyatda inson yaratuvchanlik ishi bilan mashg'ul bo'ladi. Xarakter mudom o'zgaruvchan ahamiyatga ega emas. U ilk asosda qanday murakkab yaratilsa (Ota obrazi), voqealar rivojida shu tariqa hal qiluvchi mohiyatga aylanadi. "Qismat" hikoyasida otaning taqdiri – mifologik kiritma bilan talqin qilinsa, onaning samimiy qiyofasi real hayot bilan chambarchas uyg'unlikda tavsiflanadi.

"Qismat"dagi ota – manfur jamiyat qurboni. U rahbar bo'lib ishlab yurgan vaqtida mo'min-musulmon padari buzkurvoriga qo'l ko'tarishga jazm etgan. Qarg'ish olgan. Xalqimizda "Ota qarg'ishi – o'q" deya bejiz aytilmaydi. Shu sabab uning hayotda omadi kelmaydi, qancha mehnat qilsa ham, barakasi bo'lmaydi. U bor alamin o'lasidan oladi, ichkilikka beriladi. Ammo ona va farzandlari otadan yuz o'g'irmaydi, uni yaxshi bo'lishini, insofga kirishini kutib yashaydilar. Faqatgina oilaning katta o'g'li otasining qilmishlarini kechiro olmaydi. Xasta onasiga baliq olib kelib pishirayotganida, uni otasining arvohi timsoli deb o'ylaydi va dildagi iztiroblarini oshkor qiladi. U.Normatov ushbu holatni tabiiy deb qabul qiladi: "...bolalik chog'larimda hamqishloqlarimdan olamdan o'tganlar ruhi-arvohi turli jonotlar qiyofasida ko'rinadi, degan aqidalar, ertaklarni ko'p eshitganman, ochig'i, o'sha kezlari bularga chippa-chin ishonganman. Chunonchi, olamdan o'tgan yaqinlar arvohi har payshanba oqshom kapalak-parvona ko'rinishida xonadonlarga tashrif buyuradi, sham yoqib Qur'on oyatlarini tilovat qilib, ularning ruhi poklariga bag'ishlansa, taskin topib muqim topgan manzillariga qaytib ketadi, degan gap-so'zlar, shuningdek, o'gay ona va otasi tomonidan nobud qilingan bolakay ruhi qush qiyofasida kelib, qotillardan o'ch olishi haqida ertaklar eshitganim hamon yodimda. Qolaversa, bolalikda qo'ldan qo'ymay o'qiganimiz, jahonga mashhur "Shum bola" qissasida arvohlar ruhi pokining xonadonga kelishiga oid suhbat epizodini bilmaydigan o'zbek kitobxoni kam bo'lsa kerak"[8.124]. Nima demoqchimiz? Isajon Sulton shu usul bilan o'zining badiiy niyatini anglatmoqchi bo'lgan.

"Ota raqsi" hikoyasida "Qismat"dagi ota obrazidan tamomila o'zgacha voqelikni kashf qiladi. "Ota raqsi" hikoyasida adib beozor, mo'min, mehnatkash, shafqatli ota siymosini tasvirlasa, "Qismat"da boshqacha yo'l bilan voqelikni idroklaydi. "Ota raqsi" nomli hikoyasi oilaviy-maishiy turmush tarzini, odatiy uy yumushlariga ko'milgan ota xarakterini gavdalandirgani fikrimizning yorqin dalilidir. Hikoya shunday jumlar bilan boshlanadi:

"Men otamning o'yinga tushganini bir martagina ko'rganman.

To'y-marosimlarni aytmayapman. Balki, o'z birodarlari davrasida raqsga tushgan bo'lsa bordir. O'z uyi – o'lan to'shagida, bolalari qoshida xursand bo'lib o'ynaganini aytyapman. U mahallarda katta avlodning o'z raqsi bo'lardi. Bir qo'lini havolatib, ikkinchi qo'lini ort tomondan beliga ters qo'yib o'ynashardi kattalar.

Qachonlardir ro'zg'orning tubi ko'rinib, juda qiynalib qoldik. U mahallar endigina suyagi qotgan o'spirin edim, mehnat suyagimni ezmasdi. Qanchalar horib-charchasam ham, tongda kuch-quvvatga to'lib uyg'onardim. To'qqiz bola, to'qqiz jujuq... Otamning oyog'i og'rirdi, ertalab bir qancha vaqt boldirini o'zi uqalab o'tirardi, keyin shoshmay etigini kiyib yo ishga jo'nar, yo uyimiz tomorqasida yumush bilan mashg'ul bo'lardi"[9.357].

Ixchamgina hikoya tuguni mana shu tarzda boshlanib, otaning shodligini faqat bir marotaba ko'rgan farzand (muallif-hikoyachi) zavqining nima ekanligini bilish qiyin emas. Negaki hayotdagi qiyinchiliklar, yo'qchilik-u, azob-uqubatlar, faqat qorin g'amida umr kechirish har qanday ota va oilaning taqdirida "qizil ip" bo'lib jarohat qoldirishi ayni haqiqatdir. Odamzod taqdiriga yangi sahifa qo'sharkan, u hamisha o'zining baxt-u iqboli boshlab butun bo'lishini ich-ichidan xohlaydi. Hikoyadagi asosiy unsur shuki, lotoreyadan yutuq yutib olgan ota quvonchini ko'rgan farzandlar zavqi hayotda hali yaxshi va yorug' kunlar borligini asoslashga qaratilgan. "Ota raqsi" timsolida jamiyat hayotidagi o'sha yo'qchilik, o'tish davrining kemtikliklari qalamga olinganligi hech kimga sir emas. Isajon Sulton hikoyalarida badiiy konfliktning *xarakterlararo* hamda *ichki (psixologik)* turiga ko'plab murojaat etgan o'rinlar talaygina. Bu holat yozuvchi qo'llagan ota, ona, farzand, ayol, uka, o'g'il obrazlari munozarasida, ularning turmush tarzida ro'y berayotgan uzil-kesil o'zgarishlarida yanada tiniqroq gavdalandiriladi. Bizning fikrimizcha, jamiyat hayotidagi muhim o'zgarishlar yozuvchi dunyoqarashida azal-azaldan mavjud tasavvurlar silsilasidan tarkib topgan. G'arb-u Sharq an'analari, insonni anglash, uning jamiyatga tegadigan nafi, keltirgan foydasi, zabt etilgan cho'qqilari negizida ma'rifatli bo'lishga qaratilgan da'vatkor g'oyalar yig'indisidan ham iboratligi qabarib ko'rinadi.

Umuman, ijodiy niyatning badiiy niyatga aylanishida badiiy konflikt, kompozitsiya, kolliziya, voqelar rivoji, psixologizm singari qator unsurlar muhim ahamiyat kasb etadi. Olam va odam sirlaridan voqif bo'lgan yozuvchi betakror asar yaratishga qodir. "Badiiy asarning tez nishona berishi yoki miyada uzoq vaqt ishlanishi syujetda ifodalanadigan g'oyaning qay yo'sinda topilishiga bog'liqdir. Agar biron mavzuda asar yaratish niyati tug'ilib, hayotiy materiallar ham yozuvchi ixtiyorida yetarli bo'lsa-da, syujetda ifodalanuvchi g'oya aniq bo'lsagina haqiqiy san'at asari yuzaga keladi"[10.327]. Bu kabi tasniflash yo'sini har doim o'zini oqlashi tayin. Chunonchi, vaqtning nihoyatda oqar suvdek o'tishi, yozuvchi badiiy niyatining ro'yobga chiqishi, shuningdek, har ikkala holatda ham kuchli hissiy-emotsiya, falsafiy-estetik mushohada yuki davrning o'ziga bergan mavzusini to'lafigicha keng epik ko'lamda aks ettirish malakasini taqdim qiladi. Zero, aqliy tafakkur bilan hissiy bo'yoqdorlik badiiy shakl poetikasida muhim atributlardan biri sanaladi.

ADABIYOTLAR

1. Толстой Н.И. О литературе. Советской писатель. – М., 1956. – С.287

2. Турдимов Ш. Этнос ва эпос. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б.29
3. Эшонкулов Ж. Фольклор: образ ва талкин. – Қарши: Насаф, 1999. – Б.146.
4. Жон Голсуорси. Адабиётда характер яратиш. – Тошкент: Маънавият, 2010. – Б.82.
5. Исажон Султон. Ҳазрати Хизр изидан. – Тошкент, 2018. – Б.27.
6. Умунов Х. Рисолалар. Сайланма. 1-жилд. – Т.: Фан, 2007. – Б.34.
7. Страхов И.В. Психологический анализ в литературном творчестве: Пособ. для студ. /В 5 ч./ – Ч. 1. – Саратов: Изд. Саратовского университета, 1973. – С.14
8. Normatov U. Ijodkorning haroratli soʻzi. – Toshkent, 2015. – Б.124.
9. Исажон Султон. Генетик. – Т.: Янги аср авлоди, 2019. – Б.357.
10. Тўраев Д. Ҳаётий материалдан бадиий сюжетга. Ўзбек адабий танқиди. Антология. – Т.: Турон-иқбол, 2011. – Б.327

Isajon Sulton hikoyalarida badiiy konflikt turlari va gʻoyaviy-psixologik izlanishlar

Rezyume: Mazkur maqolada Isajon Sulton hikoyalaridagi badiiy konflikt va ichki psixologizm masalalari atroflicha oʻrganilgan va tahlilga tortilgan. Muallif qalamiga mansub “Bibi Salima”, “Qismat”, “Ota raqsi” hikoyalaridagi qahramonlarning ichki holatini tasvirlash mahorati ilmiy asoslab berilgan.

Tayanch soʻzlar: karakter, ramz, obraz, syujet, kompozitsiya, ziddiyat, bayonchilik, ruhiy kechinma, yechim.

Типы художественных конфликтов и идейно-психологические поиски в рассказах Исаджона Султана

Резюме: В данной статье всесторонне изучены и проанализированы вопросы художественного конфликта и внутреннего психологизма в рассказах Исаджона Султана. Научно обосновано мастерство автора в изображении внутреннего состояния героев в рассказах «*Бибисалима*», «*Кисмат*», «*Ота рақси*».

Ключевые слова: характер, символ, образ, сюжет, композиция, конфликт, повествование, душевное переживание, решение.

Artistic Conflict Types and Ideological-Psychological Research in Isajon Sulton's Short Stories

Resume. This article provides a comprehensive study and analysis of the issues of artistic conflict and inner psychologism in the short stories of Isajon Sulton. The author's skill in depicting the inner state of the characters in his stories “Bibi Salima”, “Qismat”, and “Ota raqsi” is scientifically substantiated.

Keywords: character, symbol, image, plot, composition, conflict, narration, emotional experience, solution.

УДК 811. 111

“MUHABBAT” LEKSEMASI KONCEPTINI YADROSÍ SÍPATÍNDÁ: ETIMOLOGİYALÍQ ANALİZ

Sadullaeva A.N.

Acting associate professor, PhD, Berdakh KSU

KIRISIW. “Muhabbat” konceptini, yaʼniy onı aʼlatatugin soʻzlerdin ishki forması *súyiw*, *muhabbat* mazmunidan kelip shıgıp joqarı dárejede qatań hám anıq emesligin kóriwge boladı. Ol qarama-qarsı, úziliske túsken hám ayırım ornında koncepttin mentalıq maydanınan joǵalıp ketkendey boladı. “Súyiw” feyli kelip shıǵıwı hám forması boyınsha kauzativ bolıp, yaʼniy “kimde yamasa bir nársede tiyisli háreketti payda etiw, birewdi yamasa bir nárseni islewge májbúrlew” mánisin bildiredi [1, 83]. Muhabbat túsiniǵiniń ámelge asıwı tiykarǵı isenimler, principler hám turmıshlıq maqsetler sáwlelengen tiykarǵı qádiriyatlar haqqındaǵı túsiniqlerdi sáwlelendiredi hám *baxıt*, *isenim*, *úmit*, *erkinlik* túsiniqleri menen bir qatarda turadı. Ol insanda onıń tikkeley individual turmısı shegarasınan shıǵıp ketetugin maqset sıpátında turmıstın mánisin qalıplestiriw menen tikkeley baylanıslı.

Súyiwshiliktin ulıwmalasqan prototipi, semantikalıq modeli sana-sezimniń ilimiy tipindeǵı – ádep-ikramlılıq hám psixologiyalıq izertlewler hám sózliklerdeǵı *súyiwshilik* haqqındaǵı kózqaraslarǵı tallaw tiykarında dúzilgen. *Súyiwshilik* – bul obyektı tańlawdın racional tiykarlanbaǵanlıǵı hám onıń individuallastırılǵanlıǵı-tek ózine tánlıǵı shárti menen onıń jeke qádiriyatları sistemasındaǵı obyekt qádiriyatınıń oraylıq ornın basınan keshiriw tárepinen subyektte payda etiletugin sezim. Bunda súyiwshi predmetti óziniń “menshikligi”ne alıw yaki onda saqlap qalıw tilegin sezedi, oǵan jaqsılıq hám rawajlanıw tileydi, onıń ushın qurbanlıqlar keltiriwge tayar boladı, onıń haqqında gamxorlıq etedi, onıń abadanlıǵı ushm juwapkershiliktı óz moynına aladı, ol muhabbatta óz tirishiliginiń mánisin hám joqarı ádep-ikramlılıq nızamın tabadı. Óz gezeginde *muhabbat* – iqtıyarsız, óz-ózinen payda bolatugin sezim. Muhabbattın payda bolıwı predmettin sulıwlıǵı, ortalıqtın stressliliǵı hám subyekttin “sezimler álipbesi”nde sáykes sezimniń bolıwı menen baylanıslı proces. Sonınday-aq, *muhabbat* – rawajlanıp, dawam etip hám ólip baratugin sezim bolıp, insandaǵı muhabbatqa ashıqlılıq tábiyiy hám jas resursına baylanıslı qalıplese. Súyiwshilik adamnıń dúnyaǵa hám súygen adamǵa bolǵan kóz qarasınıń ózgeriwi, depressiv-eyforik kórinisleri menen birge júz beredi. Muhabbat antinomiyalarǵa tolı: ol *ambivalent* – óz sherigine bolǵan jek kóriwshilik momentin óz ishine aladı, lázzet penen birge jábir de keltiredi, ol *obyektı erkin tańlaw* hám oǵan oǵada ğárezililikniń nátiyjesi. Muhabbat eń joqarı lázzet hám onıń mazmunı úylesimlilik, bir-birin tolıqtırıwda dep esaplanadı.

Globalıasw processi menen tillerge qızıǵıwshılıq artpaqta, hám sol arqalı xalıqlardıń mádeniyatına qızıǵıwshılıq ta páseyip ketpeydi, al kerisinshe artadı. A.M.Svetaevanıń pikiri boyınsha, hár qanday til óziniń semantikalıq dúnyasın jaratadı, predmetler, sezimler bir tillik sana sheńberinde ózgeshe oyǵa keledi, sıawdan ótkeriledi. Inglis hám qaraqalpaq tillerindeǵı tekstlik materiallardı talqılay otırıp, biz bul muhabbat túsiniqleri mánisi boyınsha eki mádeniyatta da biri birine júdá jaqm degen juwmaqqa keldik. Sol sebepli usı bapta “Love” hám “Muhabbat” konceptleriniń geterogen tiller bolǵan inglis hám qaraqalpaq tilleriniń bir semantikalıq keńisliginde bir waqıttın ózinde qarastırıw aktualıǵı seziledi. Izertlew dawamında koncepttin dáslepki forması, yaʼniy kelip shıǵıw tariyxın úyrenip shıǵıw nátiyjesinde muhabbatqa túrlishe máni berilgenligi anıqlandı.

Eski Grekistanda muhabbat qudayı – Erot (Eros) haqqında bir qansha kózqaraslar payda bola baslaǵan hám sol arqalı muhabbattı adamlar hám tábiyat ústinen húkimranlıq etiwshi tań qalarlıq kúsh dep túsiniqlen. Empedokl bolsa

muhabbat sezimin “álemdi – insanlar hám tábiyat hádiyselerin ulırwmalastırıp, birlestirip turıwshı faktor” dep qarağan bolsa, Platon muhabbatı 2 túrge – sezimlilik muhabbat hám intellektual muhabbat dep ajratqan. Onıń pikirinshe, sezimlilik muhabbat sırtqı gózzallıqtı seziwden payda boladı hám muhabbatnıń tómengi basqışın quraydı. Al, intellektual muhabbat bolsa gózzallıqtı keń mániste – etikalıq-estetikalıq, ilimiy túsiniwden payda boladı degen hám ol intellektual muhabbatı ústin qoyған.

Kórinip turғанınday, tariyxıy dáwirlerde muhabbat sıyaqlı sezimge múnasábet ayrıqsha ózgesheliklerge iye bolған. Áyyemgi zamanlarda “Platon muhabbatı”, orta ásirlerde – Qudayǵa bolған muhabbat húkimranlıq etken. XVII ásirde ullı tragediyashı jazırshılar Jan Rasin hám Don Xuan hayal hám er adam ortasındaǵı dúnyalıq muhabbatı súwretlegen bolsa, XVIII ásirde – jerdegi muhabbatqa úmitsizlik, kewil qalıw dáwiri (Charlz Perro, Fransua La Roshfuko), XIX ásirde – hayal hám er adamnıń dúnyalıq muhabbatnıń gúllew dáwiri bolıp esaplangan. XX-XXI ásirler muhabbatnı en jayırw dáwiri dep esaplangan. Muhabbat máselesi tek Evropa mámleketlerinde ǵana emes, al Orta Aziya oyshılarında da úlken qızıǵırshılıq oyatqan. Olar insanlar arasındǵı, atap aytqanda, erkek hám hayal ortasındaǵı muhabbatı joqarı múnasábet dep túsingen. Tanıqlı alım Abu Ali Ibn Sino muhabbat haqqında arnawlı ilimiy dóretpе jazǵanlıǵı málim. Yusuf Hás Hajib názerinde, muhabbat bekkem shańaraqqa tiyisli turmıs, jámiyetlik rawajlanıwdıń orayı bolıp tabıladı. Lutfiydıń pikirinshe, muhabbat insandı qádirlaw, sadıqlıq hám wapadarlıq sezimleri menen bekkem baylanıslı dep kórsetip ótken. Alisher Nawayı bolsa muhabbatı 3 túrge: erkek penen hayal nekeden ótken soń orınlanatuǵın jınısıy muhabbat; ulıwma insanlar ortasındaǵı múnasábetlerde kórinetuǵın muhabbat; hám Alla taalaǵa - jaratqanǵa bolған muhabbat dep ajratıp ótken.

Mahmud Qashǵarı “Divan Luǵat at-Turk” sózliginde (XI ásir) «muhabbat» leksemasınń ornına «isiqlık» lekseması سَكَلَك «muhabbat», «baylanıs», *kuńul ~ isiqlıky karāk «júrekte muhabbat otı lawlawı»* degen mániste berilgen. “Muhabbat” lekseması XII ásirde túrk tiline arab tilinen kirip kelgen bolıp, M.I.Maxmutovtıń “Arab-tatar-rus tili sózligi”nde “muhabbat” lekseması tatar tilinde *sóyu, sóeshú, ǵıyshıq* leksemaları menen berilgen. Al, basqa túrk tillerinde “muhabbat” lekseması: qazaq tilinde – *сүйіспеншілік, махаббат, ғашық*; qırǵız tilinde – *ашықтық, сүйү, махаббат*; qarachay-balgar tilinde – *сүймеклик, сүйю*; qumıq tilinde – *сюю, ғашыклық*; turk tilinde – *sevgi, aşk, sevi*; bashqurt tilinde – *яратыу, сүйүу, мәхәббәт, ғишық*. Al, N.A.Baskakovtıń “Rus-qaraqalpaq tiller sózligin”de “muhabbat” leksemasına tómendegishe anıqlama berilgen: muhabbat – bul “любить” *jaqsı kóriw* lekseması menen berilgen bolıp, 1) birewdi – bir zattı *súyiw, jaqsı kóriw, jaqtırw, unatw*: ~ мать anasın *súyiw*; ~ детей balalardı *súyiw*; ~ родину watandı *súyiw*; 2) bir zatqa beyimliliǵı bolıw – *súyiw, qızıǵırw, intalı bolw*: ~ музыку – muzıkanı *súyiw*; ~ путешествовать – sayaxat etiwdi *súyiw*; 3) birewge/bir zatqa zárúrlilik seziw – *jaqsı kóriw, qálew, jaqtırw*: цветы любят воду – gúller suwdı *jaqsı kóredi*.

Inglis tilindegi “Love” leksemasınń kelip shıǵırw etimologiyasına toqtalıp ótsek, german tuwısqanlıq tilleri eski friz tilinde *luve*, eski sakson tilinde *luba*, eski nemis tilinde *luba* hám got tilinde *lubō* leksemaları menen berilgen. Atap ótetuǵın bolsaq, 1225-jılı Áwlie Djuliana: A feeling or disposition of deep affection or fondness for someone – *birewge kúshli sezim seziw yaki unatw*; 1225-jılı R.Morrıstıń *Old English Homilies* shıǵarmasında – diniy kózqarasınan: the benevolence and affection of God towards an individual or towards creation – *Jaratqanǵa bolған kúshli sezim*; 1300 - jılı *Physiologus* shıǵarmasında: Sexual desire or lust, esp. as a physiological instinct; amorous sexual activity, sexual intercourse – *Jınıslıq qálew yamasa ishqıparaz, ásirese fiziologiyalıq instinkt retinde; intalı jınıslıq iskerlik, jınıslıq baylanıs*; 1325 - jılı *Genesis and Exodus* shıǵarmasında: Amicable or peaceable settlement (as opposed to litigation) – *Tınıshlıq yamasa tınısh jol menen sheshiw (sud talqılawınan ayrıqsha bolıp esaplanıw)*; 1405-jılı Dj.CHosserdıń *Canterbury Tales Prologue* shıǵarmasında: As a form of address to one’s beloved and (in modern informal use) also familiarly to a close acquaintance or anyone whom one encounters – *Óz súygenine hám (zamanagóy rásmiy bolmaǵan) jaqın tanısına yamasa dus kelgen hár qanday kisige shaqırıp qılw forması retinde*; 1561-jılı Baldezar Kastilionıń *The Courtyer of Count Baldessar Castilio* shıǵarmasında: pl. love affairs, amatory relations – *Muhabbat katnasıqları, háwesker múnasábetler*; 1585-jılı *The Nomenclator, or Remembrancer of Adrianus Lunius Physician* shıǵarmasında: A game of chance of Italian origin in which one player holds up a certain number of fingers, and another simultaneously guesses their number – *Italiyalıq áwmet oyını, onda bir oyınshı málim muǵdardaǵı barmaqlardı jasırıp uslap turadı, ekinshisi bolsa bir waqtıń ózinde olardıń sanın shama etedi*; hám 1613-jılı: *Edinburgh Testaments* shıǵarmasında: A thin crape or gauze material, formerly worn when in mourning – *Ilgeri waqıtları aza waqtında kiyiletuǵın juqa krep yamasa material* mánislerinde keltirip ótilgen.

Juwmaq. Kórinip turғанınday, bul koncepttiń dúzilisi júdá quramalı bolıp, bir tárepten óz ishine usı túsiniktiń dúzilisine tiyisli bolған barlıq nárselerdi alsa, ekinshi tárepten, koncept dúzilisi boyınsha mádeniyattıń bir bólegi sıpatında qalıplestiriwshı onıń dáslepki forması (etimologiya), zamanagóy asociaciyaları hám konnotaciyaları bolıp tabıladı. Izertlew dawamında, usı koncepttiń verbalizaciyası hám sózlik definiciyalarında hám ádebiy shıǵarmalar tekstinde, naqıl-maqallar hám citatalarda, inglís hám qaraqalpaq tillerindegi taǵı basqa da dereklerinde millettıń tájiriybesin, onıń sanasın sáwlelendiriw arqalı sezimlerdiń keń túrliligi payda boladı, onnan tısqarı bul sezimler birgelikli túrde qabıllanbaytuǵınlıǵı anıq boldı. Ilimiy izertlew dawamında eki mádeniyat hám tildi tereń úyreniwge, izertlew maqseti hám wazıypaların tolıq orınlawda lingvomádeniy analiz islew arqalı eki túrli sistemaǵa tiyisli inglís hám qaraqalpaq tillerindegi uqsaslıq hám ózgesheliklerin talqılaw imkanın beretuǵınlıǵı sózsiz.

ÁDEBIYATLAR:

1. Apperson G. L. The Wordsworth Dictionary of Proverbs. Wordsworth Editions Ltd, 1993.
2. Bierwish M., Kiefer F. Remarks on definition in natural language // Studies in syntax and semantics. Vol. 10. Dortrecht, 1969.
3. Fergusson R. The Penguin Dictionary of Proverbs. – Penguin Books, 1983.
4. Воркачев С.Г. Любовь как лингвокультурный концепт. – М., 2007.

5. Джидарьян И.А. Представление о счастье в российском менталитете. – СПб., 2001.
6. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – М., 2004.
7. Кашгари М. Диван Лугат ат-Турк / перевод З.А. Ауезовой. – Алматы: Дайк-Пресс, 2005. – С. 179.
8. Махмутов М.И. Арабско-татарско-русский словарь: в 3 том-х. Т. 1. / М.И.Махмутов, К.З.Хамзин, Г.Ш.Сайфуллин. – Казань: Иман, 1993. – С. 339.
9. Райдаут Р., Уиттинг К. Толковый словарь английских пословиц. – СПб., 1997.
10. Русско-казахский словарь / под ред. Г.Г. Мусабаева: в 2 том-х. Т. 1. – Алма-Ата: Гл. ред. Казахской советской энциклопедии, 1978. – С. 346.
11. Русско-киргизский словарь / под ред. К.К. Юдахина. – М.: Гос. изд-во иностр. и нац. словарей, 1957. – С. 335.
12. Русско-карачаево-балкарский словарь / под ред. Х.И.Суюнчева и И.Х. Урусбиева. – М.: Советская энциклопедия, 1965. – С. 26.
13. Русско-кумыкский словарь / под ред. З.З.Бамматова. – М.: Гос. изд-во иностр. и нац. словарей, 1960. – С. 387.
14. Русско-турецкий словарь / сост. В.Г.Щербинин. – М.: Русский язык, 1989. – С. 679.
15. Русско-башкирский словарь / отв. ред. К.З.Ахмеров. – М.: Советская энциклопедия, 1964. – С. 365.
16. Русско-каракалпакский словарь / отв.ред. Н.А.Баскаков. – М.: Советская энциклопедия, 1967. – С. 404.
17. Серебряков С.Б. Трактат Ибн Сины (Авиценны) о любви. – Тбилиси: Мецниереба, 1976. – 325 с.
18. Сигбаева Ф.Р. Лингвокультурный концепт «Мәхәббәт» (Любовь) в татарской языковой картине мира: Автореф. дис. ... д-ра. филол. наук. – Казань, 2009. – 24 с.
19. Nizamaddinovna S.A. DEFINICIYALÍQ ANALIZ: “MUHABBAT” KONCEPTINIŇ DENOTATIV MÁNILERI //Hamkor konferensiyalar. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 24-27.

Annotation. This article discusses the history and etymology of the concept “love”. The etymology of the concept of “love” has been analyzed through citations from various sources in Karakalpak and English, which are heterogeneous languages.

Key words: love, lexeme, concept, to love, linguoculturology, etymology

Rezyume. Ushbu maqolada “Muhabbat” leksemasining kelib chiqish tarixi va etimologiyasi haqida soʻz yuritiladi. “Muhabbat” konseptining etimologiyasi geterogen tillar boʻlgan qoraqalpoq va ingliz tillaridagi turli manbalardan havolalar keltirish orqali talqin qilingan.

Tayanch soʻzlar: muhabbat, leksema, konsept, sevish, lingvokulturologiya, etimologiya.

Аннотация. В данной статье рассматривается история происхождения и этимология лексемы “любовь”. Этимология концепта “любовь” была проанализирована путем ссылки на различные источники в каракалпакском и английском языках, которые являются гетерогенными языками.

Ключевые слова: любовь, лексема, концепт, любовь, лингвокультурология, этимология

LEVERAGING AI TOOLS FOR PERSONALIZED ENGLISH LEARNING

Khodjaniyazova U.K.

Karakalpak State University

Introduction. In the twenty-first century, English has become the principal medium of international communication, science, business, and diplomacy. Consequently, English language learning (ELL) has attracted increasing scholarly and practical interest, particularly in the context of globalization and digital transformation. Traditional language learning, often characterized by standardized curricula and teacher-centered practices, has proven insufficient to meet the diverse needs of learners in rapidly changing social and technological environments. The demand for *personalized learning*—instruction tailored to learners’ individual goals, pace, proficiency levels, and preferred learning modalities—has therefore gained increasing importance in both theory and practice [1.15].

Summary. This article scientifically and theoretically studies the compositional structure and the style used in creating the character of Kengesbay Rakhmanov's poem "Cotton Monologue", which tells about the events of the most difficult and sad period in his life as a Karakalpak, which has its place in Karakalpak literature, especially in the genre of poetry. In particular, the article clearly reveals the poet's individuality in composing the poem. In the process of analyzing the content of this poem, we see that poet paid great attention to the entire content of the poem, including its terminology.

Мастерство композиции в поэме Кенесбай Рахманова «Хлопковый монолог»

В данной статье научно-теоретически исследуется композиционная структура и стиль, использованный при создании образа героя поэмы Кенесбай Рахманова «Хлопковый монолог», которая имеет место в каракалпакской литературе, особенно в жанре поэзии, и повествует о событиях периода, считающегося самым трудным и печальным в жизни каракалпаков. В частности, в статье ярко раскрывается индивидуальность поэта в сочинении поэмы. В процессе анализа содержания этой поэмы мы видим, что поэт уделял большое внимание всему содержанию поэмы, в том числе и ее теме.

Jumaniyazova F. I., Baxergenova A. Sh.

Qoraqalpoq davlat universiteti

Soʻz oʻzlashishi - tillararo aloqa jarayonida yuzaga keladigan eng faol va dinamik lingvistik hodisalardan biridir. U bir tilning leksik tizimiga boshqa tilga mansub birliklarning kirib kelishi, fonetik va morfologik jihatdan moslashishi hamda yangi til tizimida faol qoʻllanishini anglatadi.

Mazkur maqolada soʻz oʻzlashishining nazariy asoslari, sotsiolingvistik va psixolingvistik omillari hamda ingliz tilidan koreys va qoraqalpoq tillariga oʻzlashmalarning qiyosiy xususiyatlari yoritiladi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy asosini keng qamrovli manbalar, nazariy konsepsiyalar, empirik kuzatuvlar va qiyosiy tilshunoslikka oid materiallar tashkil etadi. Tadqiqot materiali quyidagi asosiy guruhlariga tayanadi:

Til aloqasi va soʻz oʻzlashishi boʻyicha klassik nazariy manbalar. Tadqiqotning nazariy poydevori soʻz oʻzlashish jarayonini izohlovchi mashhur lingvistik konsepsiyalar asosida shakllandi:

– Thomason va Kaufman (1988) tomonidan ishlab chiqilgan til aloqasi va interferensiya modeli, unda aloqa intensivligiga koʻra oʻzgarishlarning bosqichma-bosqich chuqurlashuvi koʻrsatiladi [1]. Myers-Scottonning “Matrix Language Frame” (MLF) modeli, leksik oʻzlashishning grammatik integratsiya jarayonini tushuntiradi [2]. Muyskenning Borrowing Ierarxiya konsepsiyasi, qaysi turdagi lingvistik elementlar (leksik, funksional, grammatik, sintaktik) eng oson yoki eng qiyin oʻzlashishini tavsiflaydi [3]. Haugen (1950, 1953) ning “importation–substitution” modeli, oʻzlashma soʻzning manba til elementlari bilan qanchalik darajada saqlanishi yoki qabul qiluvchi til tizimiga moslashuvini tushuntiradi [4]. Weinreich (1953) tomonidan ishlab chiqilgan “*til kontaktida interferensiya*” nazariyasi, bilingvizmning oʻzlashishga taʼsirini yoritadi [5]. Poplack (1980) ning kod-almashish grammatikasi modeli, ayniqsa oʻzlashgan birliklar va qoʻshma nutqdagi strukturaviy cheklovlarni oʻrganishda muhim ahamiyat kasb etdi [6].

Koreys va qoraqalpoq tillarida inglizcha oʻzlashmalarning fonetik, morfologik va semantik tahlil materiallari. Tadqiqot materiali sifatida koreys va qoraqalpoq tillaridagi quyidagi oʻzlashma soʻzlar korpusi tahlil qilindi:

- Fonetik moslashuv: boʻgʻin tuzilishi, undosh klasterlari, unli uygʻunligi, urgʻu va intonatsiya oʻzgarishlari.
- Morfologik integratsiya:

Koreys tilida inglizcha ildizlarga - *ᄒᆞᆫ* (*hada*) qoʻshimchasining qoʻshilishi orqali feʼl yasash;

Qoraqalpoq tilida inglizcha oʻzlashmalarning -*la/-lash* feʼl yasovchi qoʻshimcha bilan keng qoʻllanishi;

- Semantik oʻzgarishlar: maʼno kengayishi, torayishi, metaforik maʼno paydo boʻlishi.

Sotsiolingvistik materiallar va empirik kuzatuvlar; tadqiqot soʻz oʻzlashishining sotsial motivlarini tahlil qilishda quyidagi materiallarga asoslandi:

- Globalizatsiya jarayonida ingliz tilining lingua franca sifatidagi roli;
- Koreyada inglizcha oʻzlashmalarning prestij, texnologiya, Pop-madaniyat (K-Pop, K-Drama) orqali ommalashuvi;
- Bilingvizm, koʻptillilik va kod-almashish hodisalari;
- Qoraqalpoq jamiyatida rus tili orqali ikki pogʻonali oʻzlashish jarayonlari.

Korpus materiallar

Tadqiqotda qoʻshimcha ravishda:

- Koreys tilining *국립국어원* (Korean National Corpus) dagi zamonaviy oʻzlashmalar;
- Qoraqalpoq tilining yozma matnlari (matbuot, rasmiy hujjatlar, reklama tili, internet muhitidagi yozuvlar);
- Oʻzbek va qardosh turkiy tillardagi inglizcha oʻzlashmalar bilan qiyosiy korpus materiallari ham yordamchi manba sifatida ishlatildi.

Metodlar: Mazkur tadqiqotda ingliz tilidan koreys va qoraqalpoq tillariga kirgan oʻzlashma soʻzlarning fonetik, morfologik, semantik va sotsiolingvistik xususiyatlarini tahlil qilish uchun kompleks metodologik yondashuv qoʻllanildi. Tadqiqot quyidagi metodlar asosida olib borildi:

Deskriptiv-lingvistik metod

Soʻz oʻzlashishi, leksik adaptatsiya, fonologik moslashuv va morfologik integratsiya jarayonlari mavjud ilmiy adabiyotlar asosida tavsiflandi. Bu metod:

soʻz oʻzlashishining nazariy tamoyillarini aniqlash,
asosiy terminlar va kategoriyalarni sharhlash,
koreys va qoraqalpoq tillaridagi mavjud oʻzlashma birliklarni tasvirlash
uchun qoʻllandi.

Qiyosiy-tipologik metod

Koreys va qoraqalpoq tillarining tipologik xususiyatlari fonida inglizcha oʻzlashmalarning:
fonetik moslashuvi,
morfologik integratsiyasi,
sotsiolingvistik qoʻllanishi
qiyosiy ravishda tahlil qilindi.

Nazariy-modellashtirish metodi

Soʻz oʻzlashishini chuqurroq tushuntirish va tadqiqot natijalarini ilmiy modellar bilan bogʻlash maqsadida quyidagi nazariy modellar qoʻllanildi:

Thomason & Kaufman modeli – aloqa intensivligi va til oʻzgarishi bosqichlari aniqlashda;

Myers-Scottonning “Matrix Language Frame” (MLF) – leksik o‘zlashmalarning grammatik integratsiyasini tahlil qilishda;

Haugenning “importation–substitution” modeli – o‘zlashma so‘zlarning shakliy va mazmuniy moslashuv darajasini belgilashda.

Psixolingvistik tahlil metodi

O‘zlashma birliklarning til egasi tomonidan qabul qilinishi va faol ishlatilishi psixolingvistik jarayonlar bilan izohlandi. Tahlilda quyidagilar asos bo‘ldi:

O‘zlashmalar fonologiyasi — o‘zlashgan so‘zning fonologik qayta ishlanishi;

Kognitiv qulaylik — qisqa va eslab qolish oson bo‘lgan so‘zlarning tezroq o‘zlashishi;

Leksik bo‘shliqni to‘ldirish — tilda mavjud bo‘shliqni o‘zlashma bilan to‘ldirish tendensiyasi.

Korpus-lingvistik metod

Tadqiqotda zamonaviy matnlardan olingan real ma’lumotlar tahlil qilindi:

Koreys tilining NIKL (국립국어원) korpusi,

Qoraqalpoq matbuoti va elektron matnlari,

ijtimoiy tarmoqlardagi qo‘llanish namunalari,

texnik, iqtisodiy, ta’limiy diskurslardan olingan real o‘zlashmalar.

Struktural-semantik tahlil

O‘zlashmalarda yuzaga kelgan:

ma’no torayishi,

ma’no kengayishi,

metaforik o‘zgarish,

semantik farqlanish

jarayonlari tahlil qilindi.

Ushbu keng qamrovli metodlar kombinatsiyasi koreys va qoraqalpoq tillarining inglizcha o‘zlashmalarni qabul qilish jarayonini chuqur, tizimli va ilmiy asoslangan holatda o‘rganishga imkon berdi.

Natijalar

Tadqiqot davomida ingliz tilidan koreys va qoraqalpoq tillariga o‘zlashma so‘zlarning kirib kelish mexanizmlari fonetik, morfologik, semantik va sotsiolingvistik nuqtayi nazardan qiyosiy o‘rganildi. Thomason va Kaufman modeliga ko‘ra, aloqa darajasi oshgan sari o‘zlashishning chuqurligi ham ortadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki:

– Koreys tilida inglizcha o‘zlashmalar asosan madaniy, texnologik va ommaviy axborot vositalari orqali kirgan.

– Qoraqalpoq tilida esa inglizcha birliklar ko‘proq texnik, iqtisodiy, IT va ta’limiy sohalar orqali kiradi, ko‘pincha rus tili vositachiligidan.

Fonologik tizim farqlari o‘zlashma so‘zlarning shaklini sezilarli o‘zgartiradi:

Koreys tilida undosh klasterlarini qabul qilmaydi va ular bo‘linadi:

strike - seutoraikue (스트라이크)

Bo‘g‘in tuzilishi (CV) qoidalariga sababli inglizcha oxirgi undoshlar odatda unli bilan tugallanadi: bus - beoseu (버스)

Qoraqalpoq tilida: Turkiy unli uyg‘unligi ta’sir qiladi va o‘zlashmalar uyg‘unlashadi:

format - formatlar / formatlaw. Rus tili orqali o‘tgan so‘zlarda ruscha talaffuz saqlanadi: kompyuter, biznes, sport.

Bu farqlar tilning fonologik tizimi so‘z o‘zlashishini qanday shakllantirishini ko‘rsatadi.

Morfologik integratsiya jarayonlari

Koreys tilida inglizcha otlarga - *하다* (hada) qo‘shimchasi qo‘shilib fe’l yasaydi:

service - *서비스하다* (servis qilish), check - *체크하다* (tekshirmoq), v.h. Bu holat “Matrix Language Frame”

(MLF) modeliga ko‘ra, ML - koreys tili, EL - ingliz tili ekanini ko‘rsatadi.

Qoraqalpoq tilida inglizcha ildizlarga -la/le / -law/lew qo‘shimchalari qo‘shiladi: print – printerla, scan – skanerlaw v.h.. Bu Turkiy tilning derivatsion xususiyatlarining ustunligini tasdiqlaydi.

Semantik o‘zgarishlarning qiyosiy natijalari

Tadqiqotda koreys va qoraqalpoq tillarida inglizcha o‘zlashmalar quyidagi semantik o‘zgarishlarga uchrashi aniqlandi:

Ma’no torayishi: game koreys tilida ko‘proq online o‘yinlarni anglatadi.

Ma’no kengayishi: Qoraqalpoq tilida market so‘zi nafaqat bozor, balki “do‘konlar tarmog‘i” ma’nosida ham qo‘llanadi.

Metaforik ma’no rivojlanishi: trend - "modaga aylangan narsa" ma’nosida kengaygan.

Muhokama

Tadqiqot natijalari ingliz tilidan koreys va qoraqalpoq tillariga o‘zlashma so‘zlarning kirib kelish jarayoni bir vaqtning o‘zida universal va lingvistik xususiyatlarga ega ekanini yaqqol ko‘rsatdi.

Lingvistik modellar natijalar bilan uyg‘unlashadi

Thomason va Kaufman modeli o‘zlashishning aloqa intensivligiga bog‘liqligini ta’kidlaydi. Tadqiqot ma’lumotlari bu nazariyani tasdiqladi:

- Koreyada ingliz tilining **kuchli madaniy ta’siri** mavjud va bu yuqori darajadagi leksik o‘zlashishni k o‘rsatadi.

• Qoraqalpoq jamiyatida inglizcha o'zlashmalar **texnologik va ilmiy terminlar sifatida** kiradi, bu o'rtacha intensivlikdagi aloqani ko'rsatadi.

Bu holat modelning real til holatlariga mos kelishini ko'rsatadi.

“Matrix Language Frame” (MLF) modeli esa koreys va qoraqalpoq tillarida inglizcha so'zlar qabul qilinishi jarayonida morfologik ramkaning mahalliy til tomonidan boshqarilishini tasdiqladi:

Koreys tilida *service* - *서비스* shakllanishi ML hukmronligini ko'rsatadi.

Qoraqalpoq tilida *print* - *принтер* bo'lishi ham shu tendensiyaning aniq dalilidir.

Natijada inglizcha o'zlashmalar odatda professional, texnik yoki rasmiy sohada ko'proq qo'llanadi.

Psixolingvistik jarayonlar o'zlashmalarining qabul qilinishini tezlashtiradi

Tadqiqot psixolingvistik omillarning ham muhim o'rin tutishini ko'rsatdi:

– **Kognitiv qulaylik**: qisqa, talaffuzga oson so'zlar (scan, print, file) tezroq o'zlashadi.

– **Leksikal bo'shliqni to'ldirish**: yangi tushunchalar uchun mavjud so'z bo'lmaganda inglizcha birliklarni qabul qilish eng oson yo'l bo'ladi.

– **O'zlashmalar filologiyasi**: o'zlashayotgan so'z qabul qiluvchi tilning fonologik tizimi orqali qayta shakllantiriladi.

Bu jarayonlar til egalarining ongida o'zlashmalarining tabiiy ravishda moslashishini ta'minlaydi.

Semantik moslashuv har ikki tilda izchil davom etmoqda

Tahlil inglizcha o'zlashmalar koreys va qoraqalpoq tillarida quyidagicha semantik o'zgarishga uchrashini ko'rsatdi:

– ma'no kengayishi (*trend, market*);

– ma'no torayishi (*game* koreys tilida ko'proq onlayn o'yin);

– metaforik o'zgarish (*virus* — internet kontekstida ham ishlatiladi).

Bu semantik o'zgarishlar inglizcha o'zlashmalar til tizimiga chuqur kirib borayotganidan dalolat beradi.

O'zlashishning universal va lokal xususiyatlari

Ushbu tadqiqot globalizatsiya til tizimlarini bir-biriga yaqinlashtirayotgan bo'lsa-da, har bir tilning o'ziga xos strukturaviy xususiyatlari o'zlashish jarayonining yakuniy ko'rinishini belgilab berishini ko'rsatdi.

Universal jihatlar:

– otlar eng oson o'zlashadi;

– texnologiya va media bilan bog'liq so'zlar eng ko'p kiradi;

– sotsial prestij o'zlashishni tezlashtiradi.

Lokal jihatlar: Koreys tili fonotaktik cheklovlari - o'zlashmalarining kuchli fonetik o'zgarishi;

– Qoraqalpoq tili turkiy morfologiyasi - affiksatsiya orqali integratsiya.

Xulosa. Mazkur tadqiqot ingliz tilidan koreys va qoraqalpoq tillariga so'z o'zlashishi jarayonining lingvistik, sotsiolingvistik va psixolingvistik mexanizmlarini qiyosiy tahlil qilish orqali bir nechta muhim ilmiy xulosalarga keldi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, inglizcha o'zlashmalar har ikki tilda globalizatsiya ta'sirida faol kengayib borayotgan bo'lsa-da, ularning til tizimida qanday shakllanishi va qaysi bosqichlardan o'tishi har bir tilning tipologik va ijtimoiy xususiyatlari bilan belgilanadi. Ingliz tilidan koreys va qoraqalpoq tillariga o'zlashmalar globalizatsiyaning lingvistik ko'rinishi sifatida namoyon bo'lib, har ikki tilda: leksik boylikni kengaytiradi; yangi tushunchalar va texnik birliklarni ifodalash imkonini beradi; tilning rivojlanish dinamikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ammo o'zlashmalarining yakuniy shakli har bir tilning fonologik tuzilishi, morfologik xususiyatlari, sotsial ehtiyojlari, psixolingvistik mexanizmlari va madaniy konteksti bilan belgilanadi. Shunday qilib, inglizcha o'zlashmalar koreys va qoraqalpoq tillarining zamonaviy lingvistik manzarasini shakllantiruvchi asosiy omillardan biriga aylangan.

REFERENCES

1. Thomason, S. G., & Kaufman, T. (1988). *Language contact, creolization, and genetic linguistics*. University of California Press.
2. Myers-Scotton, C. (2002). *Contact linguistics: Bilingual encounters and grammatical outcomes*. Oxford University Press.
3. Muysken, P. (2010). *Scenarios for language contact: An overview*. Cambridge University Press.
4. Haugen, E. (1950). The analysis of linguistic borrowing. *Language*, 26(2), 210–231. <https://doi.org/10.2307/410058>
5. Haugen, E. (1953). *The Norwegian language in America: A study in bilingual behavior*. Indiana University Press.
6. Weinreich, U. (1953). *Languages in contact: Findings and problems*. Mouton.

Annotatsiya: Maqolada so'z o'zlashishi jarayonining lingvistik tabiati, uning fonetik, morfologik va semantik integratsiya mexanizmlari ilmiy nazariyalar asosida tahlil qilinadi. Thomason va Kaufman modeli, Myers-Scottonning “Matrix Language Frame” (MLF) nazariyasi hamda Muyskenning “O'zlashish iyerarxiya”si orqali tillararo aloqaning chuqurligi va o'zlashish shakllari izohlanadi. Shuningdek, ingliz tilidan koreys va qoraqalpoq tillariga o'zlashgan birliklarning fonetik, morfologik va sotsiolingvistik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: so'z o'zlashishi; leksik integratsiya; til aloqasi; fonetik moslashuv.

Аннотация: В статье анализируется лингвистическая природа процесса заимствования слов, механизмы его фонетической, морфологической и семантической интеграции на основе научных теорий. Модель Thomason и Kaufman, теория "Матричной языковой рамки" (MLF) Myers-Scotton и "Иерархия заимствования" Muysken объясняют глубину межъязыковой коммуникации и формы заимствования. Также проводится сравнительный анализ фонетических, морфологических и социолингвистических особенностей единиц, заимствованных из английского языка в корейский и каракалпакский языки.

Ключевые слова: заимствование слов; лексическая интеграция; языковая коммуникация; фонетическая адаптация.

Abstract: The article analyzes the linguistic nature of the word borrowing process, the mechanisms of its phonetic, morphological, and semantic integration, based on scientific theories. Thomason and Kaufman's model, Myers-Scotton's Matrix Language Framework (MLF) theory, and Muisken's Borrowing Hierarchy explain the depth of interlingual communication and borrowing forms. A comparative analysis of the phonetic, morphological, and sociolinguistic features of units borrowed from English into Korean and Karakalpak languages is also carried out.

Key words: borrowing words; lexical integration; linguistic communication; phonetic adaptation.

EKOLOGIK MADANIYATNING POETIK IFODASI

Kabulova Z.

Qorqaqalpoq davlat universiteti

She'riyat - bu inson qalbining nozik torlarini chertuvchi, davr ruhini, jamiyat dardlarini o'zining badiiy misralarida mujassam etuvchi mo'jizalar olamidir. Unda zamon nafasi, insoniyat iztiroblari va hayotdagi muammolar badiiy so'z jilosida yangraydi. Har bir davrda she'riyatning mavzu doirasi kengayib, insoniyat ongida paydo bo'lgan muhim ijtimoiy hodisalarga javoban yangi estetik yo'nalishlar yuzaga keladi.

XX asrning o'rtalaridan boshlab, inson va tabiat o'rtasidagi nozik muvozanat buzila boshladi. Sanoat taraqqiyoti, texnik inqilob, iqtisodiy manfaatlar yo'lida tabiat boyliklarining a talon-taroj qilinishi natijasida ekologik falokatlar sodir bo'ldi. Shu o'rinda she'riyat insoniyatni ogohlantiruvchi kuch, badiiy ongning axloqiy "vijdoni" sifatida maydonga chiqdi. Shoirilar ekologik fojialar ortida turgan ruhiy, ma'naviy muammolarni yoritib, insoniyatni tabiatga mehr bilan qarashga da'vat etdilar. Ekologik poetik tafakkurning shakllanishida insoniyatning o'z xatolarini anglab yetishi, tabiatni "g'olib etiladigan kuch" emas, balki "ona" sifatida idrok eta boshlagani muhim rol o'ynadi. Adabiyotda bu holat texnika ustuvorligi davrida yo'qotilgan tabiiy uyg'unlikni qayta tiklash, ya'ni tabiat va inson birligini badiiy anglash jarayoni sifatida namoyon bo'ldi.

She'riyatda ekologik g'oya jamiyat tafakkurining yuksalish bosqichini ifodalaydi. Zero, tabiatga beparvo munosabat insonning o'z ildizlariga befarqligi, vijdoniga qarshi chiqishdir. Shu ma'noda, ekologik she'riyat bu nafaqat tabiatni madh etish, balki axloqiy ogohlantirish, ruhiy inqirozning badiiy ifodasidir. O'zbek she'riyatida ekologik motivlar avvalo Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Asqad Muxtor kabi so'z san'atkorlari ijodida yangradi. Ularning she'rlarida tabiat oddiy manzara emas, balki inson qalbining oynasiga, vijdonining aksiga aylandi.

Masalan, Erkin Vohidov ijodi "Orol o'layotir" kabi she'rlari bilan she'riyatda ekologik ogohlantirishning ramziga aylandi: *Orol o'layotir, Sir o'layotir,*

O'layotir zahardan tuproq.

Shoir bunga qarshi ne qilayotir?

- Shoir daftarida kattakon so'roq.

Bu misralar oddiy poetik ohang emas, balki millat vijdonining nidosidir. Shoir "katta so'roq"ni qo'yarkan, bu bilan insoniyatning o'z tabiatiga, o'z kelajagiga qarshi qilgan jinoyatlarini tan olishga da'vat etadi. Uning "ko'z yoshlari bilan Orol to'lmaydi", ammo bu yig'i ruhiy uyg'unishning boshlanishidir.

U faqat qichqirar:

Bundoq bo'lmaydi.

Alam bilan yosh to'kar, biroq

Uning ko'z yoshidan Orol to'lmaydi,

Faqatgina yer bo'lar sho'rroq... Ekologik she'riyatda poetik obrazlar nafaqat tabiat manzaralarini tasvirlaydi, balki insoniy mas'uliyatni ham eslatadi. Daraxt, suv, tuproq, quyosh kabi timsollar endilikda ma'naviy belgilarga aylanadi. Shoir tabiatni estetik predmet sifatida emas, balki axloqiy mavjudot sifatida talqin etadi.

Bu yondashuv shoir tafakkurining falsafiy yuksakligidan dalolat beradi. Chunki zamonaviy ekologik she'riyatda so'z - nafaqat tasvir, balki pozitsiya; obraz - nafaqat manzara, balki ogohlilik belgisidir. Ekologik she'riyat insonni tabiat bilan, tabiatni esa inson bilan ma'naviy birlashtiruvchi kuchga aylanib bormoqda. Shu bois, bu yo'nalish adabiyotdagi eng muhim ijtimoiy-badiiy hodisalardan biri sifatida o'rganilishi lozim.

Erkin Vohidov - o'zbek she'riyatida tabiat va inson uyg'unligi, vijdon va mas'uliyat, mehnat va ijod mavzularini chuqur falsafiy asosda yoritgan shoirlardan biridir. Uning "Qo'ng'irotda aytilgan aliyor" she'ri insoniyatning tabiat oldidagi burchi va san'atkorning jamiyat oldidagi javobgarligini o'zida mujassam etgan falsafiy-lirik asardir.

Bu she'r zamirida insonning yer, suv, tabiat va xalq oldidagi axloqiy, ma'naviy, ijtimoiy qarzini anglash g'oyasi yotadi. Shoir o'z so'zi orqali nafaqat tabiatni, balki inson qalbini ham poklashga da'vat etadi.

She'rning markazida tabiat va inson o'rtasidagi azaliy rishta turadi. Shoir insonni tabiat in'om etgan ne'matlar - yer, suv, o'simlik, hayot mo'jizasiga nisbatan mas'uliyatli bo'lishga chaqiradi. Bosh g'oya - insonning tabiatdan minnatdor bo'lishi, lekin o'z burchini unutmasligidir.

Shoir!

Sen bu ne'matlarning yoqut ko'rkiga

Boqdingmi, ularga labing tegdimi?

Demak, sen qarzdorsan.

Bu misralarda "qarzdorlik" so'zi asosiy semantik markazga aylanadi. Shoir tabiat go'zalligidan bahra olgan har bir inson, xususan, ijodkor uni asrash, avlodlarga yetkazish, uni madh etish orqali o'z burchini ado etmog'i kerakligini uqtiradi.

She'rda murojaat shakli ("Shoir!") vositasida o'z-o'ziga savol berish, vijdon bilan muloqot qilish holati yaratilgan. Lirik qahramon bu yerda nafaqat shoir sifatida, balki insoniyatning ramziy vakili sifatida maydonga chiqadi. U o'zini ham, o'quvchini ham mas'uliyatga chorlaydi.

She'rd a E.Vohidovning fuqaro-ijodkor sifatidagi pozitsiyasi yaqqol ko'rinadi. U ijodni shunchaki go'zallik yaratish emas, balki vijdoniy javobgarlik, ruhiy poklanish jarayoni deb biladi:

*Suv urgani yo 'qmi nogoh yeringni,
Bosib ketmadimi begona o'tlar?*

Bu misralar ramziy ma'noda axloqiy buzilish, ma'naviy ifloslanishni bildiradi. "Suv urgan yer", "begona o'tlar" timsollari inson qalbining holatini, vijdonning e'tiborsizlikdan qurib borishini ifodalaydi.

Erkin Vohidov bu she'rd a bir nechta metaforik obrazlarni mahorat bilan qo'llagan:

1) Yer - inson vijdoni, qalbi timsoli.

"Bu tuproqqa qara", "Ishlov berol'dingmi sen ham shu qadar?" misralarida yer faqat tabiiy manzara emas, balki insonning ruhiy olami, vijdonidir.

2) Shoir dehqon obrazida. Shoir o'zini dehqon bilan tenglashtiradi: dehqon yerga urug' sochadi, shoir esa qalblarga. Bu orqali mehnat falsafasi va ijod falsafasi birlashadi.

3) Sho'r suv ifloslik, vijdotsizlik, inson qalbidagi g'ubor ramzidir. "She'rlaring zamiridagi sho'r suvlarni quva oldingmi?" degan satrlar ijodning poklovchi vazifasini ko'rsatadi.

4) Nihol ezgulik urug'i, inson qalbiga ekiladigan muhabbat va mehr timsolidir.

"Qo'ng'irotda aytilgan aliyor" she'rida ekologik motivlar faqat tashqi manzara darajasida emas, balki ma'naviy-ruhiy holat bilan qo'shilib ketgan. Shoir tabiatni asrash haqida gapirar ekan, aslida odamni asrash, insoniylikni saqlash haqida so'zlaydi. Chunki tabiat va inson bir-biriga uzviy bog'liqdir.

*Biz ming yil umr ko'rib,
Ming yil she'r bitsak,
Ming yil bayon etsak yurak arzimiz,
Dehqon mehnatini sharaflab o'tsak,
Har tup g'ozasini bir doston etsak —
Bo'ynimizda ketar qarzimiz."*

Bu yakuniy bayt insonning abadiy mas'uliyatini, ijodning cheksiz burch ekanini ifodalaydi. Shoirning nazarida inson tabiatga qanchalik xizmat qilmasin, uning oldidagi burchi hech qachon tugamaydi.

Umuman, Erkin Vohidovning "Qo'ng'irotda aytilgan aliyor" she'ri ekologik madaniyat, ma'naviy uyg'onish va inson mas'uliyati haqidagi ijodkor nidosidir. Shoir bu asarda tabiatni asrashni insonning eng oliy burchi, eng yuksak vijdon mezonini sifatida talqin qiladi. Uning "qarzdorlik" tushunchasi faqat ekologik ma'noda emas, balki axloqiy va fuqarolik pozitsiyasi sifatida yangraydi. She'r o'quvchini nafaqat tabiatni sevrishga, balki uni anglashga, asrashga va uni o'zining bir bo'lagi deb bilishga chorlaydi.

Shu jihatdan "Qo'ng'irotda aytilgan aliyor" Erkin Vohidov ijodining eng yuksak badiiy-falsafiy cho'qqilaridan biri bo'lib, tabiat, inson va ijodkor vijdonining uzviy birligini yuksak poetik shaklda ifoda etgan asardir.

"Adabiyotimizda ming yillar davomida shakllangan an'analar asosida yangi bir davr ruhi va ruhiy hasratlarini o'zida mujassamlashtirgan yangi inson konsepsiyasi shu tariqa yaratildi. Ekologik muammolariga bag'ishlangan she'riyat tabiat bilan inson munosabatlarining o'ziga xos badiiy ifodasini topgan. Zamonaviy badiiy asarlarda bu mavzu yanada rivojlangan" [6, 67]. Erkin Vohidovning "Umrin daryosi", "Ishq savdosi" kabi to'plamlaridagi she'rlari bunga yorqin misoldir. E.Vohidov asarlarida inson bilan tabiat hayotining negizi yoritilgan. Tabiat muvozanatini saqlash, uning oromini buzmaslik, ona-zaminni asrash muhim vazifa sifatida ko'rsatilgan.

Xulosa o'rinda aytish joizki, inson va tabiat o'rtasidagi azaliy uyg'unlik hayotning muvozanat manbaidir. Bu uyg'unlik buzilganda, nafaqat tabiat, balki inson ruhiyati ham jarohatlanadi. Shu bois zamonaviy adabiyotda ekologik masalalarning badiiy talqini alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbek she'riyatining yirik namoyandalardan biri Erkin Vohidov ana shu mavzuni chuqur falsafiy mushohadalar bilan ifodalagan ijodkor sifatida e'tirof etiladi. Shoir tabiatni shunchaki manzara sifatida emas, balki inson ruhiyatining, milliy qadriyatlarning, vijdon va mas'uliyatning ramzi sifatida tasvirlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Yo'ldashev N Cho'lpon she'riyatida peyzaj ; Filol.fan.nomz....diss. -T., 1994
2. Nabiye F "Peyzaj va ma'naviy san'atlar // Adabiy meros, 1977.
3. Кауштов X. Художественное изображение природы и человека в узбекской детской литературе. – Тошкент, 1983.
4. Салаев Ф.Ёзувчи ва табиятни мухофаза қилиш. Тошкент, Ўзбекистон-1988.
5. Raximjonov N. Asqad Muxtor she'riyatida tun ramzlari // O'zbek tili va adabiyoti. – 1998.
6. Farmonova M. Tabiat va she'riyat. – Toshkent; G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1999.

Ekologiyaliq madaniyatni poetikalik korinisi.

Annotatsiya: Bul maqalada o'zbek poeziyasida ekologiyaliq poetikalik pikirlewdin qaliplesiwi ham onin kirkem-estetikalik ozgesheliklari analiz etiledi. Tabiat ham insan ortasidagi ruwxiy-adeb-ikramlilik baylanisliq, ekologiyaliq mashqalalardin kirkem suvretleniwi, Erkin Vahidov siyaqli shayrlar doretivshiliginde ekologiyaliq motivlerdin ruwxiy mazmuni sawlelendiriledi.

Tayanish so'zlar: Ekologiyaliq poetika, ekologiyaliq tehsalmaqliq, estetikalik sana, poeziyada eskertiwhilik.

The poetic expression of ecological culture

Annotation: This article analyzes the formation of ecological poetic thinking in Uzbek poetry and its artistic and aesthetic features. It explores the spiritual and moral relationship between nature and human beings, the artistic expression of ecological issues, and the moral meaning of ecological motifs in the works of poets such as Erkin Vohidov.

Keywords: Ecological poetics, ecological balance, aesthetic consciousness, ecological awareness, warning in poetry.

Поэтическое выражение экологической культуры

Аннотация: В данной статье рассматривается формирование экологического поэтического мышления в узбекской поэзии и его художественно-эстетические особенности. Анализируется духовно-нравственная связь между природой и

человеком, художественное отражение экологических проблем, а также нравственное содержание экологических мотивов в творчестве таких поэтов, как Эркин Вохидов.

Ключевые слова: экологическая поэтика, экологическое равновесие, эстетическое сознание, экологическое сознание, предупреждающая функция поэзии.

BASPA ISINDE MARKETING HÁM MENEDJMENT

Nzanova S. K., Sarsenbaeva G. B.

Qaraqalpaq mámleketlik universiteti

Baspa isi – baspaxanalar shólkemlestiriw, kitaplar, gazeta, jurnallar, súwretlew óneriniń úlgileri hám basqa da baspa ónimlerin tayarlaw, baspadan shıǵarıw hám onı tarqatıwǵa tiyisli taraw. Baspaxana – baspa ónimlerin bastırıp shıǵarıwshı kárxana yamasa shólkem. Baspaxanalar shıǵaratuǵın ónimleriniń túrine qaray birqansha túrlerge bólinedi: 1. Kitap baspası. Kitap baspası da óz gezeginde sabaqlıqlar, ádebiy kitaplar, ilimiy, ilimiy-texnikalıq ádebiyatlar hám basqalar bolıp bólinedi; 2. Gazeta baspası – siyasiy, jámiyetlik-siyasiy, kewilashar gazetalar hám basqalar; 3. Jurnal baspası - ilimiy jurnallar, ádebiy-kórkem jurnallar, balalar jurnalları, kásiplik jurnallar hám basqalar bolıp bólinedi.

Baspadan shıǵarılǵan ónim qanday oqıwshılardıń mólsherlengenine qaray – ilimiy ábiyat, jámiyetlik ádebiyat, balalar hám óspirimler ádebiyatı baspası hám basqalar bolıp bólinedi. Al mazmunına qaray – universal hám belgili tarawǵa qánigelesken baspalar sıyaqlı túrleri bar. Máselen universal baspalar (“Ózbekiston”) hárqıyıl túrdegi baspa ónimlerin bastırıp shıǵarsa, “Ibn Sino” baspası belgili bir tarawǵa qánigelesken kitaplardı bastırıp shıǵaradı [1;4].

Baspaxanalar iskerliginiń tabısı durıs islengen marketing strategiyaları hám puqta menedjment sistemasına baylanıslı. Marketing (inglis. “market” - bazar, bazardaǵı háreket, iskerlik) kárxananiń tovarlar islep shıǵarıw hám satılıwın shólkemlestiriw hám de basqarıw forması esaplanadı. Marketing termini tutınıwǵa XX ásirdeń 60-jıllarında Makkovern tárepinen kiritilgen bolıp, teoriyalıq koncepciya hám kommerciya iskerliginiń ayırıqsha hádiyesi sıpatında XX ásir baslarında AQShta birinshi ret qollanıldı. Islep shıǵarıw hám kapitaldıń joqarı dárejede toplanıwı, ekonomika tarmaqlarında monopolıyalar hókimranlıǵınıń, xalıqaralıq bazarda keskin básekiniń payda bolıwı ónim hám xızmet túrlerin satıw mashqalasın obyektiv tárizde birinshi orıńǵa shıǵardı. Bul bolsa dúnyada marketingniń qalıplesiwine sebep boldı. 1908-jılda AQShta marketing máselelerin úyrenetuǵın birinshi qánigelesken firma payda boldı. 1911-jılda bolsa sol dáwirdegi bir qatar iri kompaniyalar kommerciyalıq izertlewler menen shuǵıllanatuǵın dáslepki bólimleri ashıldı. Kompaniyalar janında bazardı úyreniw, reklama, qarıydarlarǵa xızmet kórsetiw hám basqarıwdıń basqa wazıypaları menen shuǵıllanatuǵın marketing bólimleri shólkemlestirile basladı. Mısalı, 1931-jılda Amerika Marketing jámiyeti, 1937-jılda bolsa Amerika Marketing milliy awqamı dúzildi. XX ásirdeń 50-60-jıllarında xalıqaralıq Marketing federaciya, jámiyetshilik pikiri hám de marketing boyınsha Evropa jámiyeti hám Evropa marketing akademiyası sıyaqlı xalıqaralıq marketing shólkemleri dúzildi.

Bazardı biliw hám analizew (qarıydarlardı hár tárepleme úyreniw, ónim yamasa xızmet túrlerin qarıydarardıń talap hám tileklerine tiykarlangan halda islep shıǵarıw), bazarǵa iykemlesiw, bazarǵa tásir ótkeriw - marketingniń tiykarǵı principleri bolıp tabıladı. Sonıń menen birge, marketingdi qollaw menen baylanıslı máselelerdi kompleks túrde úyreniw, ónim assortimentin jobalastırıw, ónimge bolǵan talaptı hám sawdanı rawajlandıratuǵın ilajlardı jetilistiriw, sawda hám bólistiriw, basqarıw hám baqlaw marketing iskerliginiń mazmunın belgileydi.

Ózbekstanda 1980-jıllardan baslap joqarı oqıw orınlarında marketing kursları oqıtıla basladı. Sol jılları marketing máseleleri menen S.Salimov, S.Gulomov, A.Bekmurodov, J.Jalolov, M.Qosimova, D.Muhiddinov, M.Nasriddinova, X.Raimov sıyaqlı ilimpazlar ilimiy izertlew jumısların alıp bardı [1;78]

Marketing - bul qarıydarlar, sherikler hám jámiyet ushın baha jaratıw, jetkiziw hám almasıw procesi bolıp tabıladı. Marketing menejmenti bolsa maqsetli bazarlardı tańlaw hám qarıydarlarǵa qolaylı baha jaratıw, jetkiziw hám baylanısıw arqalı olardı tartıw, uslap qalıw hám rawajlandırıw óneri hám ilimi bolıp tabıladı. Baspa isinde marketing - oqıwshılardıń mıtajliklerin úyreniw, olarǵa zárúrli baspa ónimlerin jaratıw hám olardı nátiyjeli tárizde en jaydırıwdı ańlatadı. Marketing jobaları strategiyalıq hám taktikalıq túrde ámelge asırıladı.

1. Strategiyalıq marketing jobası: Maqsetli bazarlardı ańıqlaw hám baha usınısın belgilew.

2. Taktikalıq marketing jobası: Ónim, reklama, bahalaw, sawda kanalları hám xızmetlerdi belgilew.

Baspa isinde marketing strategiyaları oqıwshılardı tek ǵana kitaplardı usınıp qoymastan olardıń mıtajliklerin úyreniw hám olarǵa tiyisli xızmetler kórsetiwdi ańlatadı. Sonday-aq, sanlı marketing kompaniyaların qalay jaratıw hám basqarıw haqqında sóz etiledi. Bul, internet, sociallıq tarmaqlar hám mobil qurılmalar arqalı qarıydarlarǵa (klient) qanday usıllarda jetip barıw kerekligin úyretedi [2].

Menedjment (inglis. “management” - basqarıw, shólkemlestiriw) arawlı basqarıw iskerligi haqqındaǵı ilim. Menedjmenttiń jaǵdayı islep shıǵarıw nátiyjeliligine, texnika hám texnologiya dárejesi hám de jumısshı kúshiniń sapasına tásir kórsetedi. Menedjment pániniń mazmunı basqarıw sisteması hám basqarıw obykti arasındǵı óz-ara qatnas bolıp, onıń tiykarǵı wazıypası basqarıwdıń zamanagóy usılların úyreniwden ibarat.

Basqarıw - tańlaw, qarar qabıllaw jáne onıń orınlanıwın qadaǵalaw procesi bolıp tabıladı. Onıń tiykarǵı maqseti bazar qatnasları sharayatında barlıq buwınlarda isley alatuǵın joqarı maman basqarıwshılardı tayarlawdan ibarat.

Ózbekstanda menedjmenttiń teoriyalıq tiykarları jáne onıń tiykarǵı principleri XIV-XV ásirlerde Ámir Temur dáwirinde-aq qalıplese baslaǵan. Ulı sárkarda «Temur tuzukleri» miynetinde mámleketti hám áskerlerdi basqarıw óneri haqqında óz pikirlerin bildirgen. Menedjment iliminiń teoriyalıq tiykarın bir neshe júz jıllar dawamında toplanǵan ámeliy tájiriye nátiyjeleri quraydı, olardı teoriyalıq tárepten tiykarlap hár qıylı koncepciylar, teoriyalıq ideyalar, jumıs

principileri hám usılları islep shıǵılǵan. Biraq óz aldına ilim tarawı retinde XIX ásirge kelip qalıplese basladı. Basqarıw iliminiń tiykarın salıwshı amerikalıq injener hám izertlewshi F.Teylor esaplanadı. Basqarıw principlerin Teylordıń zamanası francuz alımı Anri Fayol islep shıqtı. Dúnya baspa isinde marketing hám menedjment máseleleri menen shuǵıllanıp, birqansha jetiskenliklerge erisken insanlar bar [3]. Benjamin Franklin (1706-1790) AQShtaǵı birinshi redaktor, jazıwshı hám baspa tarawında jańalıq oylap tabıwshı sıpatında belgili. Ol marketing hám biznes basqarıwına tiyisli kóplegen jańa ideyalarǵı ilgeri súrgen. Atap aytqanda, “The Pennsylvania Gazette” gazetasınıń iyesi hám redaktori bolǵan. “Poor Richard's Almanack” kitabın basıp shıǵarıp, onı marketing arqalı dúnya xalıqlarına tanıtqan. Reklama hám kreativlik pikirlewı nátiyjesinde gazetaǵa jazılıwdıń hám onıń satılıwınıń ilgerilewine sebepshi bolǵan.

Joseph Pulitzer (1847-1911) Avstriya-Vengriyadan AQShqa kóship kelgen redaktor hám jurnalist sıpatında baspa tarawında bir qatar jetiskenliklerge erisken. Atap aytqanda, “New York World” gazetasın basıp shıǵarıp, onı kópshilikke arnalǵan gazetalardıń birine aylandırǵan. Óz gazetasınıń auditoriyasını keńeytiw maqsetinde birinshi betinde júdá tásirli, oqıwshınıń dıqqatın birden tartatúǵın sensaciyalıq hám vizuallıq materiallardan paydalanǵan.

Joseph Pulitzer jurnalistika, ádebiyat, drama hám muzıka tarawında ayrıqsha jetiskenliklerge eriskenler ushın “Pulitzer” sıylıǵın shólkemlestirgen. Bul jurnalistika hám baspada eń joqarı sıylıq bolıp esaplanadı.

William Randolph Hearst (1863-1951) AQShqa jaylasqan iri xalıqaralıq media hám xabar kompaniyasına tiykar salǵan baspa magnatı esaplanadı. Ol baspalar arasında básikini kúsheytiw hám keń jámáátshiliktiń dıqqatın ózine qaratıw maqsetinde jańalıqlardı kúsheytiw, faktlerdi asıra súwretlep, “Sarı jurnalistikani” rawajlandırǵan. Baspa jumısın keńeytiw ushın hárqanday media biznesin qollap-quwatlaǵan, onıń túrli tarawlarına qarjı kirgizgen.

Rupert Murdoch 1931-jıldan házirgi kúнге shekem zamanagóy media magnatı, eń sońǵı jańalıqlardı járiyalawshı “News Corporation” hám “Fox News” sıyaqlı gazeta, jurnal hám telekanallardı tiykar salǵan, Britaniya, AQSh hám Avstraliyada kóplegen gazetalar hám telekanallardıń iyesi sıpatında belgili. Atap aytqanda, The Wall Street Journal, The Times hám The Sunday Times, New York Post, Harper Collins sıyaqlı iri media kompaniyaları basqarǵan. Zamanagóy media hám baspa sanaatında reklamalı, sanlı media tarmaqların rawajlandırǵan [4].

Marketing hám menedjment bir-birin tolıqtırıwshı sistemalar esaplanadı. Marketolog ónimdi qanday bazarǵa shıǵarıwdı jobalastırsa, menedjer bul rejeniń orınlanıwın ámelge asıradı. Olar arasındaǵı uyqaslıq tabıslı baspa iskerliginiń gıltı bolıp tabıladı. Baspa isinde bul ekewi tabısqa erisiwdiń eki tayanışı bolıp, hár eki sistema óz-ara uyǵınlasqanda zamanagóy bazarda básikege shıdamlı bola aladı.

Ózbekstan ǵárezsizlikke eriskennen keyin poligrafiya hám baspa tarawında túpkilikli ózgerisler júz berdi. Mámleket monopolıyasınan jeke menshik baspalar payda bola basladı. Qaraqalpaqstanda da “Qaraqalpaqstan” hám “Bilim” mámleketlik baspaları menen bir qatarda kóplegen jeke menshik baspalar jumıs alıp barmaqta. Biraq, kópshilik baspalar ele shekem klassikalıq baspa texnologiyalarınan shıǵa almay atır. Olarda marketing bólimleri joq yamasa nátiyjesiz jumıs alıp barmaqta. Basıp shıǵarılǵan kitaplar bazar talabına tolıq juwap bermeydi, nátiyjede tirajı tómén, paydası az. Solay etip, marketing strategiyasınıń joqlıǵı, ekonomikalıq rejelestiriw hám boljawdıń jetispewshiligi, kitap sawdası hám reklama jollarınıń sheklengenligi, básikege shıdamlı ónim jaratıwdıǵı mashqalalar, qánigelerdiń, ásirese marketing hám IT tarawlarında tájiriybeli kadrlardıń jetispewshiligi búgingi kúnde poligrafiya hám baspa tarawında óz sheshimin kútip turǵan mashqalalardan esaplanadı. Sonlıqtan baspaxanalardıń ele de güllep rawajlanıwı hám dúnya standartlarına juwap beriw ushın tómendegi ilajlardı ámelge asırıw maqsetke muwapıq bolar edi:

1. Marketing bólimlerin shólkemlestiriw: Hár bir baspaxanada keminde bir marketing qánigesi bolıwı zárúr.
2. Sanlı marketingdi rawajlandırıw: Sociallıq tarmaqlar, e-mail marketing, onlayn reklama platformaları (Google, Facebook) arqalı kitaplardı úgit-násiyatlaw.
3. Satıw strategiyasını qayta kórip shıǵıw: Kóbirek internette satıw, tuwrıdan-tuwrı qarıydarǵa (D2C) jetkerip beriw modellerin eńgiziw.
4. Qánigeler tayarlaw: Joqarı oqıw orınlarında baspa isi marketing hám menedjmenti boyınsha kurslar shólkemlestiriw.

Egerde joqarıdaǵı máseleler óz sheshimin tawsa Qaraqalpaqstanda baspaxanalardaǵı marketing úlesi joqarılaydı hám básike kúshenedi. Sonıń menen birge, aldınǵı tájiriybelerdı úyreniw, sanlı texnologiyalardan paydalanıw hám puqta menedjment usılların engiziw baspa jumısınıń rawajlanıwına xızmet etedi.

АДЕБИЯТЛАР

1. Davronov A.S. Noshirlik asoslari. T:2021. -B176
2. Kotler, P. (2017). Marketing Management. Pearson Education.
3. Fayol, H. (1916). General and Industrial Management.
4. <https://www.amazon.com>
5. Wikipedia

Аннотация: Бул мақалда баспа isinde marketing hám menedjmenttiń ornı, olardıń zamanagóy processlerge tásiри hám de nátiyjeli basqarıw usılları sóz etilgen, AQSh hám basqa rawajlangan mámleketler tájiriybesi tiykarında zárúrli teoriyalar hám ámeliyatlar analiz etiledi.

Таянış сөзлер: баспа ónimleri, marketing hám menedjment, bazardı biliw, reklama, qarıydar, kommerciya, finans.

Аннотация: В статье рассматривается роль маркетинга и менеджмента в издательском деле, их влияние на современные процессы и эффективные методы управления, а также анализ важных теорий и эффектов в опыте США и других развитых стран.

Ключевые слова: издательская продукция, маркетинг и менеджмент, знание рынка, реклама, потребитель, коммерция, финансы.

Summary: This article discusses the role of marketing and management in publishing, their impact on modern processes and effective management methods, and an analysis of important theories and effects in the experience of the United States and other developed countries.

Key words: publishing products, marketing and management, market knowledge, advertising, consumer, commerce, finance.

QARAQALPAQ AYTISLARINDA GÓNERGEN SÓZLERDİN QOLLANILIW ÓZGESHELİKLERI

Qazaqbaeva A.

Qaraqalpaq mámleketlik universiteti

Til bir pútin sistema bolıp, ol bir neshe bóleklerden turadı. Onda tildin leksikalıq qurılısı da bir pútinliktiń bólegi sıpatında tanıladı. Leksikologiya tildin fonetika, sóz jasalıw, morfologiya, sintaksis sıyaqlı tarawları kibi bir pútin sistemanı payda etiwge qatnasadı. Tildin sistemasın dúzetuǵın birlikler bir neshe bóleklerden quraladı. Olardan tildin leksikalıq quramın sistema sıpatında dúziwge leksikalıq birliklerdin túrleri qatnasadı. Leksikalıq quram usı leksikalıq birliklerdin jıyındısınan turadı.

Tilimizdegi sózlerdin qollanılıw dárejesi de birdey emes. Máselen, joqarıda misal retinde kórsetip ótken jegde, kiyimeshek, túrme, aydınlı, qazı, qusbegi, bolıs biy usaǵan sózler kúndelikli turmısımızda derlik qollanılmadı. Olar tek kórkem yamasa tariyxıy ádebiyatlarda ǵana belgili bir maqsette paydalanılıwı múmkin. Sonday-aq, jaqında ǵana payda bolıp, kópshilik ele tanıs bola almay turǵan ayırım sózler de qollanılıwı páseń. Usıǵan baylanıslı sózlik quramdaǵı sózlerdi **jedel sózler** hám **siyrek qollanılatauǵın sózler** dep eki toparǵa bólemiz.

Gónergen sózler ádebiy shıǵarmada ótken dáwirdi súwretlew, dáwir koloritin beriw ushın jiyi qollanıladı. Tariyxıy romanlarda, povestlerde, gúrrińlerde, sonday-aq xalıq awızeki dóretpeleriniń úligerinde olardıń janrlıq ózgesheliklerine sáykes gónergen sózler shıǵarmanıń leksikasında ónimli sóz toparların quraydı. Tariyxıy waqıyanı durıs súwretlew ushın kórkem sóz ustası soǵan sáykes qubılıslardı, zatları sol dáwirdegi ataması menen atawǵa májbúr boladı. Sol arqalı oqıwshınıń kóz aldına ótken tariyxıy dáwirdin anıq kartinası elesleydi.

Maqalada kórkem sóz ustaların, sheshenleriniń, shayırlarınıń gónergen sózlerdi aytısta qollanıw ózgeshelikleri úyreniledi. Jumısımızdın maqseti qaraqalpaq aytısları tilinde gónergen sózlerdin stilistikalıq qollanılıwın, aytıs tilinde kórkemlew quralları sıpatında xızmetin anıqlaw, lingvistikalıq analizlew barısında dıqqatqa alınǵan kórkem shıǵarma dóretywshileriniń olardı kerekli orınlarında paydalana biliw sheberligi hám basqa da táreplerin úyreniw bolıp esaplanadı. Sonday-aq, jas áwladqa gónergen sózlerden orınlı paydalana alıw, óz ana tilinde kórkem, shıraylı, tásirli, anıq hám taza sóyley alıwına, gónergen sózlerdin parqın anıay alıwına erisiw bolıp tabıladı.

Qaraqalpaq aytısları awızeki dóretpelerdin ishinde óziniń kórkemliliǵı, tillik ózgeshelikleri menen ajıralıp turadı. Onıń leksikasına itibar bersek, onda xalqımızdın ótmish dáwirine tiyisli derekler, kún-kóris jaǵdayı, úrp-ádet hám dástúrleri, basqa xalıqlar menen mádeniy hám ádebiy baylanısları óz sáwlesin tapqan til birlikleri bar ekenligin anıaymız. Solardıń qatarında gónergen sózler dáwir koloritin, kartinasın ashıp beriwshi til birlikleri esaplanadı. Olardı aytıs tilinde kóplep ushırıwǵa boladı. Biz olardıń mánilik ózgesheliklerin esapqa ala otırıp, tematikalıq jaqtan bir neshe toparlarǵa ajıratıq.

1. Kiyim-kenshek atamalarına baylanıslı tariyxıy sózler. Xalıqtın bir neshe dáwirden beri saqlanıp kiyatırǵan kórkem awızeki dóretpeleriniń biri aytıslar bolıp, onıń tilinde kiyim-kenshek atamalarınń tómendegi túrleri jumshalǵanlıǵın kóriwimizge boladı:

Bas kiyim atamaları: bórik, sáwkele, shaqmaqı qurash, hám t.b.

Bórik sózi DLT miynetinde de bas kiyim maǵanasın bildirgen: Boshsız bork bólmās [6.326].

Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózliginde bul sózge tómendegishe túsiniq beriledi: «Hár túrli teriden tigilgen bas kiyim, malaqay, tumaq, qurash, telpek, degeley» [3.350]. Malaqay, tumaq, qurash, telpek, degeley – bulardıń hámmesi ulıwmalastırıp aytqanda er adamlardıń bas kiyimleri.

Aytıslar tilinde bul bas kiyimler atamalarınń tómendegi misalda jumshalǵanlıǵın kórsek boladı:

Bórik alıspaǵ oynasań,
Tazdıń janı qalmaydı [4.146]

Shaqmaqı qurash kiyseń de,
Keshegi júrgen gedeyseń [4.177]

Misallardı tallap qaraǵanımda, «bórik» hám «shaqmaqı qurash» er adamlardıń bas kiyimi bolıp, olar ózleriniń tuwra mánisinde jumshalǵan. Erte de qurashtıń «shaqmaqı» túrin bardamlı adamlar kiygen. Misalda bul sóz arqalı sol waqıttaǵı adamlar arasındadı klasslıq jikleniwshilik jaǵdayları sóz etiledi. Al, tómendegi misalda bolsa hayal-qızlardıń bas kiyimi bolǵan «sáwkele» sózi beriledi:

Góne bolsa da, **sáwkelemizdi** kiyeyik, / Ğarrı da bolsa sháwjeylige tieyik [4.221]

Sáwkele – kelinshektiń uzatılǵanda kiyetuǵın bas kiyimi. Halaqası kestelengen, shekeligi, mańlayı, boydası gúmis hám marjanlar menen áshókóylengen. Júda siyrek saqlanǵan óner úlgisi [2.50]. Bul bas kiyim shlem úlgisindegi eń áyyemgi bas kiyimlerdin biri bolıp, ayırım maǵlıwmatlarǵa qaraǵanda biziń eramızǵa shekemgi I ásirlerde ásker basıldardıń basına kiyetuǵın kiyimi bolǵan. Bizge belgili qaraqalpaqlardaǵı sáwkele hayal-qızlardıń toyda kiyetuǵın qımbat bahalı metallardan islengen bas kiyimi. Kóbinese qızlar uzatılǵanda basına sáwkele kiygizgen. Aytıstaǵı «sáwkele» sózi keltirilgen misal da uzatılatauǵın qız tilinen bayanlanǵan.

Ústki kiyim atamaları: shekpen, parsha ton, zer jaǵalı ishik, mawıtı, boyama kóylek, shatırash kóylek, túrme, hám t.b. Bul atamalar ishinde *ishik* sózi DLT de ichuk – haywanlardıń terisinen tigilgen postın delinse [6.259], ton – sırttan kietuǵın kiyim mánisin beredi [6.166].

Aytıslar tilinde «parsha ton», «zer jaǵalı ishik», «mawıtı ton» dı xannıń, patshanıń perzentleri kiygenligi aytıladı. Mısalı:

Parsha ton, zer jaǵalı ishik kiyip,
Xannıń qızı otırǵan jaylarǵa kósh [4.28]

At jaqsısı yawmıtı,
Ton jaqsısı **mawıtı**, [4.28]

Al «túrme» – qız-kelinshekler basına oraytuǵın yamasa jigittler beline buwatuǵın jipekten islengen gezleme [3.367]. Bul sóz mısalda jigittiń beline buwatuǵın belbewi mánisinde jumsaladı: ...**Túrme** buwǵan jigittiń,

Maqpaldan bılǵawı bar [4.104]

«Shatırash kóylek» kerege kózli gezlemeden tigilgen kóylek bolsa [3.514], «boyama kóylek» hár qıylı reń berip boyalǵan gezlemeden tigilgen kóylekti bildiredi [3.340]. Olar tómendegi mısallarda beriledi:

Shatırash kóylek kiyipsiz ústinińge,
Aq oramal jarasqan betinińge...[4.164]

Hawadan ushqan láple qar,
Boyama kóylek jeńi tar...[4.166]

«Shekpen»- jún jibinen, hár qıylı materiallardan ishine jún, paxta salıp yamasa paxta, jún salmay astarlı etip, sıırıp toqılǵan sırttan kietuǵın uzın kiyim [3.524]. Aytısta bul sóz tómendegishe beriledi:

Jaz kiyiwge **shekpen** kerek, / Kerilip urıwǵa ketpen kerek...[4.162]

Ayaq kiyim atamaları: shariq, tıstaban, sawırı etik, hám t.b.

Aytıslar tilinde jumsalǵan ayaq kiyim ataması bolǵan «shariq» Sh.Allaniyazovannıń miynetinde úsh túrli máni bildiretuǵınlıǵı aytıladı hám ayaq kiyim mánisindegi shariqtı teriden islengen dep kórsetedi [1.27].

Aytısta ayaq kiyim sıpatında shariqtı kún-kórisi tómén, jarlı, diyqan, kúnlikshi, shopanlar kiygenligi aytıladı:

Bir waqıtta shańnıń sońında ayaǵında jaman **shariq**, betleri bídım-bídım bir jigitti kóredi ...(111-b.)

Ayaǵında jaman **shariq**, / Baǵqa seyl etipseń...[4.229]

«Shariq»qa usaǵan ayaq kiyimniń jáne biri «tıstaban» bolıp, ol ayaq kiyimniń eń ápiwayı túri sanaladı [3.380]. Mısaldaǵı bul sózdiń mánisi de joqarıdaǵı «shariq» sóziniń mánisi menen únles:

Ayaǵında **tıstaban**, / Neǵıp júrgen gedeyseń?! [4.177]

Solay etip, aytıs tilindegi bul toparǵa kırıwshi sózler ózleriniń qollanıw ózgeshelikleri menen ajırılıp turadı.

2. Diyqanshılıqqa baylanışlı tariyxıy sózler. Qaraqalpaq xalqı diyqanshılıq penen de kún kórgen. Olardıń usı kún kóris jaǵdayı awızeki dóretpelerinde óz sáwlesin tapqan. Solardıń biri aytıs bolıp, onda tómendegidey diyqanshılıqqa baylanışlı gónergen sózler ushırasadı: -Bunnan barıp baylarǵa diyqan tursaq,

Biyik jerde **kerizine shıǵır** qursaq, [4.50]

Telegen arba júrmestey,

Dińgelekpedi jerińiz? [4.161]

Mısallardaǵı «keriz» - shıǵırdıń suw alatıǵın, suw jıynalıp turatuǵın jeri, shuqanaǵı, oyı, suw saqlaǵıshı [3.329], «shıǵır»-kerizdiń joqarıǵa suw alıp shıǵıp, nawa arqalı salmaǵa shıǵaratıǵın hám biyik jerlerdi suwǵaratıǵın qural [3.554], «telegen arba»-tört dóńgelekli arba [3.303] mánilerin bildiredi. Bul sózlerdiń mısaldaǵı mánileri de usı túsiniqlerge say keledi.

3. Bezeniw buyımlarına baylanışlı tariyxıy sózler. Zergerler tárepinen jaratılǵan bezeniw buyımları xalıq awızeki dóretpelerinen biri aytıslarda da óz sáwlesin tapqan. Biz olardıń ishinen házirgi waqıtta atamaları gónerip qollanıwdan shıǵıp qalǵan bezeniw buyımların mısallarda kórip, semantikalıq ózgesheliklerine itibar qaratpaqshımız:

Onı qolıma salǵanıw **qola** meken yar-yar,

Qola salsam qollarım talar meken yar-yar [4.156]

Bilezigim, júzigim qola meken,

Qola júzik qolıma tola meken, [4.164]

Árebekti soqqan zerger,

Hám buzarlar, hám dúzerler...[4.129]

-Qız bala patsha boladı,

Basında **jıǵası** bolsa...[4.189]

